2024-yil, dekabr 22-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



YANGI YIL

Abdulla ORIPOV
O‘zbekiston Qahramoni, Xalq Shoiri

Mehru muhabbatga tashna ko‘ngilni
Hatto daqiqalar aylar ekan zor.
Bir o‘zim bilurman, har yangi yilni
Qanchalik kutganman bo‘lib intizor...

Salimaxon MIRZAYEVA,
ADU o‘qituvchisi, f.f.d. professor
salimaxonmirzayeva@gmail.com

NAVOIY BILAN BOBUR HAYOTI VA IJODIDAGI MUSHTARAK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada Navoiy va Boburning hayot va ijod yo‘lidagi o‘zaro o‘xshash jihatlar tahlilga tortilgan bo‘lib, ularning san’atning har bir sohasida o‘z ilm va mahoratlarini qanday ko‘rsatganligi yuzasidan fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *ism, taxallus, qadriyat, san’at, yo‘nalish, ruboiy, masnaviy, tuyuq, g‘azal, tarix, olim, musiqashunos.*

Аннотация: в данной статье анализируются сходства в жизни и творчестве Навои и Бабура, а также даются мнения о том, как они проявили свои знания и умения в каждой области искусства.

Ключевые слова: *имя, прозвище, значение, искусство, направление, рубай, маснави, туюк, газель, история, учёный, музыковед.*

Annotation: this article analyzes the similarities in the lives and creative paths of Navoi and Babur, and provides comments on how they demonstrated their knowledge and skills in each field of art.

Key words: *name, nickname, value, art, direction, rubai, masnavi, tuyuk, ghazal, history, scientist, musicologist.*

Har bir ijodkorning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ijodiy tamoyillari, o‘zigagina xos bo‘lgan ijodiy xususiyatlari bo‘lishi bilan birga dunyoqarash, ilm va ijod saviyasi jihatidan yaqin bo‘lgan ijodkorlar hayoti va ijodida mushtarak umumiy xususiyatlar ham mavjud bo‘ladi.

Navoiy va Boburning bir zamonda yashashi Temuriylar saltanati ravnaqi yo‘lida kurashishi ilm va badiiy ijoddagi salohiyatining kuchliligi kabi omillar sababli ularing hayot va ijod yo‘lida o‘xshash, mushtarak tomonlar ko‘plab uchraydi.

Bu ikki ijodkor fevral oyida tavallud topganlar. Har yili 9-fevral Navoiyning, 14-fevral Boburning tug‘ilgan kuni sifatida keng nishonlanadi. Har yili bu oyda respublika madaniy hayotida jonlanish, tozalanish, yangilanish ko‘zga tashlanadi.

Bu ikki siymo hayoti va faoliyatida to‘qnash kelmagan bo‘lsalar ham ularni o‘zaro bog‘lovchi ma’lum nuqtalar mavjud. Quyida ularga birma-bir to‘xtalib o‘tamiz.

Navoiy va Bobur hokimlarning farzandlari. Navoiyning otasi G‘iyosiddin Muhammad (kichkina, baxshi) Abulqosim Bobur zamonida Sabzovor shahrining hokimi edi. Boburning otasi Umarshayx Mirzo esa Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘lgan.

Bu ikki shoirning ismi va taxallusi she’rga bog‘liqdir. Navoiyning ismi masalasi istiqlolgacha boshqacha sharhlandi. Masalan, Aziz Qayumovning Alisher Navoiy nomli kitobida shoirga ism qo‘yilishi masalasi shunday berilgan “Xonaning eshigi qiya ochilib, Alining boshi ko‘rindi. G‘iyosiddin unga turatur degandek ishora qilib, mashg‘ulotda davom etdi. Ali xonaning eshigini berkitib tashqarida qoldi. Biroz fursat o‘tgach, xonadagi kishilar chiqib ketishdi. Shundan so‘ng Ali xonaga kirib G‘iyosiddin bilan ko‘rishdi. Alining chehrasida shodlik ifodasi zihr etib turar, pochchasining xizmat safaridan qanday qaytganini so‘rab, o‘ltirmasdanoq gap boshladi:

– Suyunchi berasiz, pochcha, xushxabar olib keldim. Olloh taolo sizga fazrand ato qildi, o‘g‘il! Bugun sahar vaqti opamizning ko‘zlari yoridi, – dedi Ali. G‘iyosiddin azbaroyi xursandligidan o‘rnidan turib ketdi. Ali ham o‘rnidan turdi. G‘iyosiddin darrov belidagi oltin bilan ziynatlangan serbezak kamarini yechib, Alining beliga taqdi. Farzandimizning nomi Alisher bo‘ladi ”. [5.6-7-bet.]

Aslida esa G‘iyosiddin Muhammad o‘g‘lini Muhammad payg‘ambarning sahobalaridan biri Aliga o‘xshashini orzu qilib, o‘g‘liga Ali nomini qo‘ygan, ismining ikkinchi qismi ham Aliga aloqador bo‘lib, unga nisbatan “Allohning sheri” deyishar edi.

Garchi Navoiy jangchi bo‘lib yetishmagan bo‘lsa-da, she’riyatning “sheri” bo‘lib nom qozondi.

Bobur taxallusi ham sher ma’nosini beradi. Umarshayx Mirzo xonadoni bahor faslida qir-adirlarga chiqadilar. Bir mahal qarashsa Zahiriddin davrada yo‘q. Xizmatkorlar, enagalar atrofdan izlay boshlaydilar. Bir qir oshib qarashsa, Zahiriddin sher bolalari bilan achomlashib, o‘ynab yotibdi. Shundan boshlab uni “Bobur” deb erkalata boshlaydilar. Keyinchalik bu uning taxallusiga aylangan.

Navoiy va Boburning ijodidagi mushtarak xususiyatlardan biri shundaki, ular o‘z ijodiga yuksak baho beradilar. Badiiy ijod olamida faxriya deb atalmish hodisa bor. Bu hodisa adabiyotshunoslikda yaxshi o‘rganilmasligi sababli, u haqida aniq tasavvur yo‘q. Ayrim adabiyotshunoslar uni janr deb qarashsa, ayrimlar uni she’riy san’at turi deb qaraydilar.

Bizningcha, faxriyani san’at deb qarash ma’quldir. Adabiy janr bo‘lish uchun ma’lum mazmuniy asos va shakliy xususiyatlarga ega bo‘lish zarur. Faxriyada mazmuni asos bo‘lsa-da, turg‘un shakliy xususiyat yo‘q. Faxriya – maqtov mazmunidagi she’riy yoki nasriy parcha bo‘lib, unda ijodkorning o‘z ijodiga, u

yoki bu asariga o‘zi tomonidan berilgan yuksak bahosi, o‘z ijodini boshqalar ijodi bilan qiyoslanib ifodalanishi hisoblanadi.

Faxriya aytishda manmanlikka berilish, odobsizlik qilish o‘zini oqlagan emas. XVII asrda yashagan Niyoziy taxallusli shoir o‘zini zamonasining Xisrav Dehlaviysi deb da’vo qilgan. Jomiyni mensimaganligi uchun Samarqand she’riyat muxlislari uni shahardan quvib yuborganlar.

Navoiy va Bobur barcha masalalarda ibrat, namuna bo‘lgani kabi faxriya aytishda ham ibratlidir. Muhimi shundaki, ularning faxriyalari amalda o‘z isbotini topgan. Navoiy “xosa ma’ni” sanalgan iyhom san’ati bilan bir kunda bayt bitishni holva yeyish bilan teng ko‘rgan:

Agar xosa ma’ni gar iyhom erur,
Oning bir kunda yuz bayti holvom erur.

Agar shoir bir kunda yuz bayt aytishga qodir bo‘lmaganida edi, undan bu qadar ulkan lirik meros qolmas edi.

Bobur ijodini ham ko‘rib chiqish jarayonida uning faxriyalardan foydalanganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

Iroqu Forsga gar yetsa sening bu she’ring, ey Bobur,
Ani xifz etgusi Hofiz, musallam tutgusi Salmon.

Bobur she’riyati Iroq, Forsdagina emas, ona yurti Turon, Afg‘on-u Hind – butun jahonda shuhrat topayotgani Bobur faxriyasining hayotiyligini ko‘rsatadi.

Navoiy va Bobur ijodiga chuqurroq nazar tashlasak, bu ikki buyuk ijodkor ijodida hamohang nuqtalar ko‘plab uchraydi. Bunday hamohanglik ularning **ruboiylarida, g‘azallarida, tuyuqlarida, masnaviylarida** ko‘zga tashlanadi.

Har ikki ijodkor bir davrda ilmiy va ijodiy faoliyat olib borishsa ham, janglar va o‘sha zamon ijtimoiy-siyosiy tuzumi ular uchrashuviga imkon bermaydi.

Navoiy ruboiylari ichida tavze’ san’atidan mohirona foydalangan, to‘rt qator she’rida ma’shuqa maqtovini chiroyli ifoda qilgan bir ruboiy bor:

Ko‘z birla qoshing yaxshi qabog‘ing yaxshi,
Yuz birla so‘zing yaxshi dudog‘ing yaxshi.
Meng birla yenging yaxshi saqog‘ing yaxshi
Bir-bir ne deyin, boshdin oyog‘ing yaxshi.

Ma’shuqa portretini “boshdin ayog‘” bu qadar muxtasar tasvirlash Boburga ham zavq bergan va quyidagi ruboiy yuzaga kelgan:

Jon vola erur la’li shakar boringga,
Ko‘nglim ham erur haro ruhsoringga.
Guftoring erur boshdin-oyoq barchasi xo‘b,
Men banda bo‘lay boshdin-oyoq boringga.

Boburning quyidagi ruboiysi Navoiyning quyidagi matla’si ta’sirida yuzaga kelgan:

Ishq ila bo‘ldim masal savdo bilan afsona ham
Shukurulloh, kim yana oshiq menu devona ham.

Bobur yozadi:

Yuz shukur qilayki yana oshiq bo‘ldim,
Olamg‘a bo‘lib afsona oshiq bo‘ldim.
Yaxshi so‘zingu vasfi jamoling eshitib,
Ko‘rmay seni g‘oyibona oshiq bo‘ldim.

Bobur “Muxtasar” asarida tuyuq janri, uning tajnis san’ati asosida yuzaga keluvchi turi haqida so‘zlaganda, misol uchun Navoiyning quyidagi tuyug‘ini keltiradi:

La’lidin jonimga o‘tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yoqilur.
Men vafsi va’dasidan shodmen,
Ul vafo bilmanki qilmas,yoqilur.

Navoiy tuyug‘idagi tajnisni yuzaga keltirayotgan “yoqilur” so‘zi asosida Boburning quyidagi tuyug‘i yuzaga kelgan:

Qaddimni firoq mehnati yoqildi,
Ko‘nglum g‘amu anduh o‘tiga yoqildi.
Holimni sabig‘a aytib erdim, ey gul,
Bimon senga sharq qilmadi, yoqildi.

Navoiy va Bobur ijodidagi mushtarak xususiyatlardan biri, ularning ko‘p tillik ijodkor ekanligidir. Navoiyshunoslikka doir adabiyotlarda Navoiy zullisonayn shoir deb baholanadi. Navoiy turkiy tilda, fors tilida devonlar yaratgan. Ikki tilda ijod qilgan shoirlar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, ikki tilda devon yaratgan shoirlar ko‘p emas. Navoiy an’anasi Mohlaroyim, Nodira tomonidan davom ettirilgan.

Bobur ham Navoiy singari ko‘p tillik ijodkordir. U, asosan, turkiy tilda ijod qilgan bo‘lib, Hind devoni fors va urdu tilida yozilgan she’rlaridan tarkib topgan. Bobur ham Navoiy singari bir she’rni ikki tilda yaratgan.

Navoiy va Bobur ijodiy faoliyatida badiiy ijoddagi hamohanglik bilan birga ilmiy ijodda ham mushtarak xususiyatlarini ko‘rish mumkin. Ular zamonasining buyuk shoirlari bo‘lish bilan bir qatorda, adabiyotshunos olimlar hisoblanadi. Ikkalasi ham aruz nazariyasiga bag‘ishlangan asar yozganlar. Navoiyning “Mezon ul-avzon” va Boburning “Muxtasar” asarlari aruz ilmiga bag‘ishlangan.

Navoiy adabiyotshunos olim sifatida 2 ta tazkira yaratgan. “Majolis-un nafois” turkiy tildagi birinchi tazkira bo‘lib, unda 459 ta Navoiy zamondoshlari bo‘lgan shoirlar haqida ma’lumot berilgan. “Nasoyim-ul muhabbat” nomli asar ham tazkira bo‘lib, unda 770 ta so‘fiy shoirlar haqida ma’lumotlar bor.

Bobur tazkira janrida maxsus asar bitmagan bo‘lsada, “Boburnoma” asarida 30 dan ortiq shoir haqida ma’lumot qoldirgan. Boshqa tazkiranavis olimlar tarixchi sifatida o‘z asarlarini yozgan bo‘lsalar, Navoiy va Bobur ham adabiyotchi, ham tanqidchi sifatida ijodkorlarga baho berganlar. Ularning shoirlar haqidagi ijobiy va tanqidiy baholari xolisligi bilan diqqatga sazovordir.

Navoiy va Bobur tilshunos olimlar ham hisoblanadi. Navoiy “Muhokamat-ul lug‘otayn” kitobida turkiy til bilan fors tilini qiyosiy tahlil qilib, turkiy tilning boy va jozibali til ekanligini isbotlab beradi. U arab tilida “Sab’xat abxur” nomli lug‘at yaratgan.

Bobur tilshunos olim sifatida “Xatti Boburiy” deb nomlangan alifbo yaratdi. Arab alifbosini turkiy talaffuzga u qadar mos kelmasligini ko‘rgan Bobur bu

alifboni isloh qiladi va1503-1514-yillari “Xatti Boburiy”ni yaratadi.

Navoiy va Bobur tarixchi olimlardir. Navoiy “Tarixi mulki Ajam” nomli kitobida Eron va Turon shohlari tarixini yozadi. “Tarixi hukamo va anbiyo” nomli kitobida esa avliyolar va payg‘ambarlar tarixini yoritgan. Boburning “Boburnoma” asari XVI asr Boburiylar tarixini eng izchil, haqqoniy va xolis yoritgan asar sifatida tarixda qolgan. “Boburnoma” Hindiston tarixini o‘rganishda Beruniyning “Hindiston” asaridan keyingi eng yaxshi manba hisoblanadi.

Navoiy va Bobur musiqashunos olimlar ham edi. O‘tmish ziyolilarining bugungi kun ziyolilariga ibratli tomoni shundaki, ular, albatta, musiqadan xabardor edilar. Ular soz chalar, kuylar yaratar edilar. Musiqani bilmaslik u zamon ziyolilari uchun ayb sanalgan. Navoiyning “Mezon-ul avzon” kitobida turkiy vaznlar haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, musiqani Xo‘ja Yusuf Burxondan o‘gangan. Bobur “Boburnoma”da Navoiy asarlarini sanar ekan, “Yana ilmi musiqada yaxshi nimalar bog‘laydir, yaxshi “naqsh”lari, yaxshi “pishrav”lari borligini aytgan. Bu fikrlar Navoiyning yaxshi bastakor bo‘lganini ko‘rsatadi.

Navoiy va Bobur ijodi XX asr ilmiy va badiiy ijod taraqqiyotiga ham ta’sir etgan bo‘lib, ular haqida ko‘plab dissertatsiyalar yoqlandi, romanlar va qissalar yaratildi, filmlar suratga olindi, fan doktorlari va professorlar yetishib chiqdi. Ular tiriklik chog‘ida birga ko‘risholmagan bo‘lishsa ham, vafotidan so‘ng ularning xoklari Afg‘on tuprog‘ida – biri Hirotda, biri Qobulda makon topdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bobur. “Boburnoma”. – Toshkent: “Sharq”, 2002.
2.Jalilov B. “Mumtoz adabiyot poetikasi”. – Andijon, 2001.
3.Jalilov B. “Bobur”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2004.
4.Jalilov B. Mirzayeva S. Soyibjonova O‘. “Navoiy va Bobur”. – Toshkent: “Istiqlol”, 2008.
5. Qayumov A. “Alisher Navoiy”. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1976.

Doniyorbek RUSTAMOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Iqtisodiyot” fakulteti dekani,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JADID HOJI MUINNING MILLIY TIL MUAMMOLARIGA MUNOSABATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Hoji Muinning milliy til muammolariga munosabati, shuningdek, jadid she’riy leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari va mavzuviy guruhlari: o‘z qatlam leksikasining mavzuviy tasnifi, umumturkiy leksika, o‘g‘uz tillariga xos elementlar, o‘zlashma qatlam leksikasining tarixiy-etimologik tasnifi, forsiy leksika, arabiy leksika, rus tilidan va u orqali yevropa tillaridan o‘zlashgan leksik qatlam sarlavhalari ostida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *leksik qatlam, arabiy leksika, o‘z qatlam, jadidchilik, istiqlol, publisistika.*

Аннотация: в данной статье рассмотрено отношение Хаджи Муина к проблемам национального языка, а также историко-этимологических пластов и тематических групп современной поэтической лексики: тематическая классификация лексики своего пласта, общетюркской лексики, элементы специфических к огузским языкам, историко-этимологическая классификация лексики родного слоя, персидской лексики, арабской лексики проанализирована по рубрикам лексического пласта, заимствованного из русского языка и через него из европейских языков.

Ключевые слова: *лексический слой, арабская лексика, собственный слой, модернизм, независимость, журналистика.*

Annotation: in this article, Haji Muin's attitude to the problems of the national language, as well as historical-etymological layers and thematic groups of the modern poetic lexicon: thematic classification of the lexicon of his own layer, all-Turkish lexicon, elements specific to the Oghuz languages, historical-etymological classification of the lexicon of the native layer, Persian lexicon , the Arabic lexicon was analyzed under the headings of the lexical layer borrowed from the Russian language and through it from the European languages.

Key words: *lexical layer, Arabic lexicon, own layer, modernism, independence, journalism.*

Davrning eng ilg‘or va taraqqiyparvar ziyolilari — jadidlar Vatan istiqloli-yu istiqboli, mamlakatning iqtisodiy va

madaniy rivoji bevosita maorifga bog‘liq ekanligini ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarining ilk davridayoq teran anglab yetgan edilar. Shu sabab ular tomonidan “usuli jadid”— “usuli savtiya”(tovush usuli) tipidagi yangi maktablar ochishga zo‘r berildi va ayni paytda, o‘z g‘oya hamda qarashlarini keng xalq ommasiga targ‘ib-u tashviq qilish maqsadida gazeta, jurnal, badiiy-ilmiy to‘plamlar nashr etish ishlari ham boshlab yuborildi. Biroq ma’naviyat va maorifning asosiy tayanch ustuni hisoblangan adabiy til hamda imlo Fitrat iborasi bilan aytganda “tartibsiz, buzuq ham qiyin edi”va bu jadidlarning o‘z oldilariga qo‘ygan xayrli maqsad-vazifalarni tugal amalga oshirishga to‘sqinlik qilardi. Haqiqatan ham, imlo, alifboda bir qator kamchiliklar mavjud ediki, ular: imlo masalasida aniq bir to‘xtamga kelinmaganligi, uning tamoyillari ishlab chiqilmaganligi, arab yozuvi bilan bog‘liq qiyinchilik va murakkabliklar bartaraf etilmaganligi kabilardir. Bundan tashqari, adabiy til xalq jonli so‘zlashuv tilidan ancha uzoqlashib qolgan, uning qonun-qoidalari ma’lum bir holga keltirilmagandi.

Tabiiyki, til va imloda mavjud bo‘lgan bu kabi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etmasdan turib, xalqni to‘la ma’noda ma’rifatli qilish, uning ma’rifiy darajasini yuksaltirish, millatning asosiy belgilaridan biri hisoblangan til birligiga erishish va eng muhimi, o‘zbek xalqini yagona millat sifatida shakllantirish mumkin emasdi. Millat maorifi, madaniyati rivoji yo‘lida faoliyat olib borgan jadidchilik harakatining har bir a’zosi shu bois ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy masalalar bilan bir qatorda, til va imloga oid masalalarga ham jiddiy e’tibor qaratishdi. Jadidlar o‘zbek milliy adabiy tili, yozuvi, imlosi, alifbosini yaratishdek murakkab, qiyin va ayni paytda xayrli ishni o‘z zimmalariga oldilar. Bu borada ular tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

— o‘zbek adabiy tilining muhim nazariy masalalari hal etildi;

— o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot yo‘li belgilab berildi;

— imlo qoidalari ishlab chiqildi;

— yozuv isloh etildi va takomillashtirildi;

— hozirgi o‘zbek tilshunosligi fan sifatida yuzaga keldi va rivojlandi;

— o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyi ko‘tarildi;

— o‘zbek adabiy tilining leksik tarkibi yangilandi va boyitildi;

— o‘zbek milliy tili shakllantirildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning sodiq izdoshi, o‘zbek milliy dramaturgiyasining asoschilaridan biri, yangi usuldagi maktablarning faol tashkilotchisi, o‘zbek milliy matbuotining shakllanishi hamda rivojiga benazir hissa qo‘shgan jurnalist, zukko munaqqid, iste’dodli shoir va tarjimon Hoji Muin Shukrullo (1883-1942) butun umrini millat taraqqiyoti, yurt erki, xalq maorifi takomili uchun baxshida etdi. Hur fikrliligi, jadidchilik harakati g‘oyalariga o‘ta sobitligi va e’tiqodi mustahkamligi sabab u bir necha bor qamaldi hamda oxir-oqibat qatag‘on qurboni bo‘ldi.

Istiqlol sharofati o‘laroq, sobiq sho‘ro hukumati davrida taqiqlangan tarixiy-madaniy, adabiy-badiiy merosni, chunonchi, Hoji Muin adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop merosini ham jiddiy o‘rganishga katta ahamiyat berildi, xalq tafakkurida fikriy inqilob yasagan asarlarini chop etish ishlari avj oldi. Adib publitsistikasida til masalalariga oid maqolalar muhim o‘rin tutadi. Shunday maqolalar sirasiga “Til masalasi”, “Vaqtsiz mubohasa”, “So‘z, qaror va ish”kabilarni kiritish mumkin. Ularda Hoji Muinning o‘zbek adabiy tilining islohiga bo‘lgan munosabati mufassal bayon qilingan, o‘zbek tilini rasman davlat tili darajasiga ko‘tarish bo‘yicha ayrim nuqtayi nazarlari o‘z ifodasini topgan.

Hoji Muinning 1918-yil 16-iyulda “Mehnatkashlar tovushi”gazetasida bosilib chiqqan “Til masalasi”maqolasi shunday boshlanadi: “Hozirda bizlar uchun eng muhim masalalardan biri, shubhasiz, til masalasidir”. [Ҳожи Муин, 2005. 80] Anglashiladiki, Hoji Muin o‘zbek tiliga oid masalalarni ijtimoiy davrning eng asosiy masalasi sifatida qayd etmoqda, unga jiddiy munosabatda bo‘lish lozimligini alohida uqtirmoqda. Uning fikricha, millatning shakllanish va rivoji bevosita tilga bog‘liq, shu bois unga hayot-mamot masalasi sifatida qarash lozim. Har bir kishi o‘z hayoti va huquqini qay darajada himoya qilsa, xuddi shu tarzda o‘z ona tili — “turkiy til”(o‘zbek tili)ni ham muhofaza qilmog‘i shart. Hoji Muin, boshqa jadidlar bilan bir qatorda, yerli aholi, ya’ni o‘zbek xalqining tiliga davlat tili huquqi (maqomi) berilishi uchun harakat qildi. Busiz millatni va milliy tilni shakllantirib bo‘lmasligini u chuqur anglab yetgan edi. “Turkiy tilimiz va adabiyotimizning takomilig‘a tirishmagimiz va turkiy tilimizning Turkistonda rasmiy hukumat tili qilurg‘a harakat etmagimiz lozimdur”, — deb yozadi Hoji Muin maqolasida.

Ayonki, chor Rusiyasi hukmronligi davrida Turkistonda rasmiy ish yuritish tili, asosan, rus tili hisoblangan. 1917-yil oktabr to‘ntarishidan so‘ng Rusiya kolonial siyosati bolsheviklar tomonidan mohiyat e’tibori bilan deyarli o‘zgartirilmagan bo‘lsa-da, tobe xalqlarning ishonchini qozonish maqsadida va eng muhimi, mahalliy ziyolilarning xatti-harakatlaridan qo‘rqib bir muddat ayrim huquqlarni, chunonchi, respublikaning tub yerli aholisiga rus tili bilan muvoziy tarzda o‘z tillarida ham rasmiy ish yuritish huquqini berdi va bu xususda qonun qabul qildi.

Barcha jadidlar singari Hoji Muin ham mazkur tarixiy voqeani o‘ta xursandchilik bilan kutib oldi va imkoniyatni boy bermasdan zudlik bilan qonunni hayotga tatbiq etish uchun harakat qildi. “Endi bizlarga, — deb yozadi u, — xususan ish boshinda turg‘on ulug‘larimizg‘a, yoshlarimizg‘a va matbuotimizg‘a lozimdirki, fursatni o‘tkazmasdan tezdan ushbu masalaning hal etilishiga tirishgaylar”. Mahalliy davlat idoralarining ayrimlari qonun qabul qilinganiga qaramay rasmiy ish hujjatlarini rus tilida yuritayotganidan chuqur iztirobga tushadi va bu holatni ona tili (o‘zbek tili)ga nisbatan jinoyat sifatida baholaydi.

Adibning 1918-yil 20-avgustda “Mehnatkashlar tovushi”gazetasida yuqorida nomi eslatilgan maqolaga aynan monand yana bir “Til masalasi”nomli maqolasi chop etilganki, uni avvalgi maqolaning mantiqan davomi desa bo‘ladi. [Ҳожи Муин, 2005. 89]. Chunki bu maqolada ham muallif o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish xususida fikr yuritadi. U mazkur maqolasida avvalgi maqolasida ilgari surgan qarashlarini bir qadar aniqlashtirgan va ayni paytda, aytish mumkinki, yangi nuqtayi nazarlari, tushunchalari bilan boyitgan.

Maqola muallifining ta’kidlashicha, 1918-yil 8-avgustda Turkiston markaziy komiteti komissiyasining III yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi va unda “Turkiston musulmonlari uchun davlat lisoni turkiy til bo‘lsin”, deb qaror qabul qilinadi. “Ushbu yaxshi xabar bizni bir yoqdan qanchalik shodlantirsa, ikkinchi tomondan, ko‘p qiyinchiliklar oldida shoshtirib qo‘ydi”, — deb yozadi Hoji Muin. Xo‘sh, adib tilga olgan “qiyinchiliklar”nimalardan iborat edi? Ular, maqolada qayd etilishicha, quyidagilar edi:

1) hukumat idoralarida faoliyat yuritayotgan “mirza”(kotib)lar va mahalliy ziyolilarning aksariyati o‘zbek tiliga oid qoidalar va imloni yaxshi bilmaydi;

2) bunga sabab maktablarda o‘zbek tilining “sarf”(morfologiya) va “nahv”i (sintaksisi) maxsus o‘qitilmaydi. “Bizning turkiy tilimiz ishlanmag‘on bir til bo‘lib, muning sarf va nahvig‘a oid hanuz biror turli risola bosilib chiqg‘an emas”, — deb qayd etadi adib. Bu holatlar esa, shubhasiz, o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyini ko‘tarish, uning qadr-qimmatini tiklash, davlat tili maqomini ta’minlash yo‘lida katta to‘siqdir.

Maqola muallifi kun tartibiga kelib qolgan mazkur dolzarb muammolarni ta’kidlar ekan, ularni hal etish, “qiyinchiliklarni” bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlarini ham ko‘rsatib berishga urinadi. Uning fikricha, eng avvalo, “Turkiston o‘lkasidagi har bir shaharda hukumat hisobidan til kurslari”ni ochish, ularda o‘zbek tili qoidalari, rasmiy ish hujjatlarini o‘zbek tilida yozish qoida hamda tartiblari puxta o‘rgatilishi lozim. Shunday yo‘l tutilsa, mavjud muammo o‘z yechimini topadi, o‘zbek tilining davlat tili maqomiga haqiqiy erishishi uchun puxta zamin hozirlanadi.

Adibning til muammolariga oid yana bir maqolasi “Vaqtsiz mubohasa” deb nomlanadi. [Ҳожи Муин, 2005. 125] U 1924-yil 7-fevralda “Zarafshon” gazetasida chop etilgan. Maqolada adibning barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak (yagona) umumturkiy adabiy tilni yaratish g‘oyasiga bo‘lgan munosabat-u qarashlari, nuqtayi nazarlari o‘z ifodasini topgan. Adib maqolada dastlab mazkur g‘oyaning paydo bo‘lish tarixi va sabablariga qisman to‘xtalib o‘tadi va Ismoilbek Gaspirali tomonidan ushbu g‘oya, fikr ilk marta ilgari surilganligini alohida ta’kidlaydi. “Marhum Ismoilbek o‘zining “Tarjumon” gazetasi bilan til birlashtirish to‘g‘risida 25-yil fikr tarqatdi”, — deb yozadi Hoji Muin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, XX asr boshlarida Ismoilbek Gaspiralining turkiy tillar birligi g‘oyasi Turkistonda ham keng yoyildi hamda uning tarafdorlari, uni targ‘ib-u tashviq qiluvchilar ham tez sur’atlarda maydonga chiqdi. Hoji Muinning maqolada yozishicha, Turkistonda mazkur g‘oyaning ilk tarafdori va targ‘ibotchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lgan. U bu xususda shunday yozadi: “Turkistonda “tavhidi lison”(til birligi – Y.S.)chilarning birinchisi, manim bilganimcha, marhum Behbudiy edi”.

Hoji Muin Behbudiyning qarashlarini qo‘llab quvvatlaydi. “Men ham shu ishning vujudga chiqishini istayman”, — deydi u. Masalaning o‘ta muhimligini e’tirof etadi. Mushtarak adabiy tilning yaratilishi va turkiy xalqlar hayotiga keng joriylanishini juda-juda istaydi. “Lekin, — deb fikrini davom ettiradi u, — bo‘lishi g‘oyat ko‘b sharoitga muvofiq bo‘lgan bunday bir ishning orqasindan ovora bo‘lib yurishni hozircha vaqtsiz deb bilaman”. Umumturkiy adabiy tilni yaratishdan ko‘ra o‘z davrining boshqa muhim va dolzarb masalalariga diqqat qaratish hamda ularni zudlik bilan hal etish chora-tadbirlarini ko‘rish lozim, deb hisoblaydi. Muhim masalalar sirasiga adabiy tilni xalq jonli so‘zlashuv nutqiga mumkin qadar yaqinlashtirish, uni xalq vakillarining deyarli barchasi tushunadigan darajada soddalashtirish, o‘zbek tilining “sarf-nahv”ini tuzish, unga oid nazariy adabiyotlarni yaratish, lug‘at kitoblarini tuzish va nashr ettirish kabilarni kiritadi.

Umuman olganda, Hoji Muin turkiy tillar birligi muammosiga munosabat bildirar ekan, masalaning o‘ta ahamiyatli ekanligini, biroq uni hal etish ancha qiyinligini uqtiradi. Turkiy xalqlarning til jihatidan bir-biridan farqlanishiga barham berish uchun “ko‘p kuch va zamonlar”kerak, deb hisoblaydi va uni istiqboldagi vazifalar jumlasiga kiritadi. Mazkur masaladan-da zarurroq va muhimroq muammolarga, ya’ni ma’naviy-ma’rifiy masalalarga, o‘zbek adabiy tilining qoida va me’yorlarini ishlab chiqishga, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va lug‘atlarni yaratish va chop etishga butun diqqatni qaratish hamda ularni to‘la-to‘kis, mukammal amalga oshirish uchun barcha kuchni sarflash kerakligini ta’kidlaydi.

Adib maqolasida mushtarak til yaratish harakatining ayrim salbiy tomonlari va oqibatlari xususida ham mulohaza yuritadi. Umumturkiy adabiy til yaratilgudek bo‘lsa, Hoji Muin fikricha, u quyidagi salbiy hodisalarni keltirib chiqaradi:

1) mushtarak adabiy tilni shakllantirishda turkiy xalqlarning muayyan tili yoki shevasi asos qilib olinadi. Bu esa, tabiiyki, tayanch til yoki shevadan boshqa turkiy til va shevalarning iste’moldan chiqishiga, boshqacha tarzda aytganda ularning “o‘limi”ga sabab bo‘ladi;

2) yagona adabiy til joriy etilgan taqdirda, u turkiy xalqlarning barcha qatlamlari vakillari tushunadigan adabiy til bo‘lmasdan, faqatgina ayrim ziyolilar tushunadigan va anglaydigan “xavos”(xos, maxsus) til bo‘ladi.

Adib fikricha, turkiy tillarni to‘la-to‘kis birlashtirishga emas, balki ularni imkon qadar yaqinlashtirishga harakat qilish kerak. Har bir turkiy til o‘z tabiati va xususiyatiga

ko‘ra rivojlanishi, takomillashib borishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy Abdulla. Adabiyot yoxud milliy she’rlar. Birinchi juz. – T.: Ilin litografiyasi¸ 1909; Ikkinchi juz. – T.: Ilin litografiyasi¸ 1912; Uchinchi juz. – T.: Orifjonov litografiyasi¸ 1916; To‘rtinchi juz. – T.: Orifjonov litografiyasi¸ 1916; Beshinchi juz. – T.: Yakovlev litografiyasi¸ 1916; Avloniy Abdulla. She’rlar, ibratlar. Tanlangan asarlar. 2 jildlik (nashrga B.Qosimov tayyorlagan). – T.: Ma’naviyat, 1998. 1-jild. 270-b.

2. Behbudiy. Til masalasi // Oyna. – Samarqand, 1915. № 11-12; Behbudiy. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchi B.Qosimov). – T.: Ma’naviyat, 1997. 232-b.

3. Botu. Umid uchqunlari. – T.: O‘zdavnashr¸ 1925; Botu. To‘lqin tovushlari. – T.: O‘zdavnashr¸ 1929; Botu. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchilar N.Karimov¸ Sh.Turdiyev). – T.: Sharq, 2004. 190-b.

4. Ibrat. Ilmi Ibrat. – Namangan: Matbaai Is’hoqiya, 1909; Ibrat. Bayoz. – Namangan: Matbaai Is’hoqiya, 1910; Ibrat, Ajziy, So‘fizoda. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchilar B.Qosimov, S.Ahmedov, U.Dolimov). – T.: Ma’naviyat. 1999. 228-b.

5. Kamiy. Bayoz. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondi. Inventar № 5736; Kamiy. Dilni obod aylangiz...Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchi Olim Oltinbek). – T.: Ma’naviyat, 1998. 159-b.

6. Majidiy Abdulhamid. Xandon lolalaar. – T.: O‘zdavnashr¸ 1926. (arab alifbosida); Ko‘ngil orzulari (nashrga tayyorlovchi H.Uzoqov). – T.: Ma’naviyat, 2000. 159-b.



Gulbaxar SAPAROVA,
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

KIBERTERRORIZMGA QARSHI KURASHNING IJTIMOIY-MA’NAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada kiberterrorizm transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, uning ko‘rinishlari davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning yomonlashishiga, iqtisodiy va diplomatik aloqalarning buzilishiga, davlatlararo tashkilotlar faoliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi masalalari muhokama qilinadi. Kiberterroristik harakatini amalga oshirish uchun turli xil usullardan foydalanish mumkinligi, asosan, kiberhujum, kiberterror akti, kiberjinoyat, kibermakon kabi tushunchalar tavsiflanadi. Shuningdek, bugungi kunda kiberterrorizm tahdidi turli davlatlarni unga qarshi kurashda hamkorlik qilishga ehtiyojining ortib borishida alohida o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: *kiberterrorizm, kiberhujum, kiberterror akti, kiberjinoyat, kibermakon, aqlli qurilmalar, xatti-harakatlar, kiberkosmik, viruslar, virtual, shifr, kod, dezinformatsiya, shaxs, jamiyat.*

Аннотация: в статье рассматриваются такие вопросы, как кибертерроризм имеет трансграничный характер, а его проявления могут ухудшать отношения между странами, нарушать экономические и дипломатические отношения, препятствовать деятельности межгосударственных организаций. Для осуществления кибертеррористических действий могут использоваться разные методы, в основном описаны такие понятия, как кибератака, кибертеррористический акт, киберпреступность, киберпространство. Также сегодня угроза кибертерроризма занимает особое место среди растущей потребности различных стран сотрудничать в борьбе с ним.

Ключевые слова: *кибертерроризм, кибератака, кибертеррористический акт, киберпреступность, киберпространство, интеллектуальные устройства, грубое поведение, киберкосмос, вирусы, виртуальный, пароль, код, дезинформация, человек, общество.*

Annotation: the article discusses issues of the fact that cyber terrorism has a cross-border nature, and its manifestations can worsen relations between countries, disrupt economic and diplomatic relations, and hinder the activities of interstate organizations. Different methods can be used to carry out cyberterrorist actions, mainly concepts such as cyberattack, cyberterrorist act, cybercrime, cyberspace are described. Also, today, the threat of cyber-terrorism occupies a special place in the increasing need of various countries to cooperate in the fight against it.

Key words: *cyberterrorism, cyberattack, cyberterrorist act, cybercrime, cyberspace, smart devices, behavior, cyberspace, viruses, virtual, cipher, code, disinformation, person, society.*

Kiberterrorizm – davlat xavfsizligiga, shaxs va jamiyatga tahdid soladigan kibermakondagi noqonuniy xatti-harakatlar majmuasidir. Moddiy obyektlarning shikastlanishiga, ma'lumotlarning buzilishiga yoki boshqa muammolarga olib kelishi mumkin. Kiberterrorizmning asosiy maqsadi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal qilishga ta'sir qilishdir. Dunyoda narsalar internetining "aqlli" qurilmalari soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

"Kiberterrorizm" tushunchasining har qanday kompyuter hujumiga qiyoslanishi muammoli, chunki bu yerda hujumchining shaxsi, niyati va siyosiy motivlarini aniqlash juda qiyin kechadi. Ushbu atama 1980-yillarning o'rtalarida Amerika Xavfsizlik va razvedka institutining katta ilmiy xodimi B.Kollin tomonidan ilk marotaba qo'llanilgan. Ushbu kiberterrorizm tushunchasini muhim milliy infratuzilmalar ishini falaj qilish, hukumatlar yoki tinch aholini qo'rqitish uchun yuqori texnologiyalardan foydalanish deb tariflaydi.

Kiberterroristik harakatini amalga oshirish uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin:

– kiber makonning alohida elementlariga zarar yetkazish, elektr ta'minoti tarmoqlarini yo'q qilish, aralashish, apparat vositalarini yo'q qilishni rag'batlantiradigan maxsus dasturlardan foydalanish;

– himoya tizimlarini yengib o'tish, viruslarni, dasturiy ta'minotdagi xatolarni kiritish orqali strategik ahamiyatga ega bo'lgan kiberkosmik ma'lumot, dasturiy ta'minot va texnik resurslarni o'g'rilash yoki yo'q qilish;

– axborot tizimlari va boshqaruv tizimlarida ularni buzish yoki o'zgartirish uchun dasturiy ta'minotga va ma'lumotlarga ta'sir qilish;

– davlatning axborot infratuzilmasi, ijtimoiy ahamiyatga ega va harbiy axborot tizimlari, shifrlash kodlari, shifrlash tizimlarining ishlash tamoyillari faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish va nashr etish tahdidi;

– dezinformatsiya, mish-mishlar tarqatish, terroristik tahkilotning qudratini namoyish etish va ularning talablarini e'lon qilish uchun telekommunikatsiya kanallarini tortib olish;

– yuqoridagi harakatlarni bajarish uchun aloqa liniyalarini yo'q qilish va faol ravishda bostirish, noto'g'ri adreslash, aloqa tugunlarining sun'iy ravishda haddan tashqari yuklanishi, operatorlarga, axborot va telekommunikatsiya tizimlarini ishlab chiquvchilarga ta'sir qilish.[1]

Kiberterakt davlatning axborot infratuzilmasini o'chirib qo'yishning turli shakllari va usullaridan foydalanishga yoki jamiyat va davlat uchun halokatli oqibatlarga olib keladigan muhit yaratish uchun axborot infratuzilmasidan foydalanishga qaratilgan. Axborot infratuzilmasining rivojlanish darajasi, mamlakatni kompyuterlashtirish va kiberterrorizmning soni o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Hozirda kiber hujumlar muammosi sun'iy yo'ldosh aloqa tizimlari va global tarmoqlardan foydalanishda yetakchi mamlakatlar uchun dolzarbdir.

Kiberterrorizmning maqsadlari, kiberterrorchilarning harakatlari quyidagilarga qaratilgan:

– kompyuter tizimlarini buzish, shaxsiy va bank ma'lumotlariga, harbiy va davlat maxfiy ma'lumotlariga kirishga;

– uskunalar va dasturiy ta'minotning ishdan chiqishi, shovqinlar, elektr ta'minoti tarmoqlarining uzilishi;

– kompyuter tizimlarini buzish, virus hujumlari, dasturiy ta'minot xat cho'plari orqali ma'lumotlarni o'g'rilash;

– maxfiy ma'lumotlarning jamoat mulkiga tarqalishi;

– ushlangan ommaviy axborot vositalari orqali dezinformatsiyani tarqatish;

– aloqa kanallarining buzilishi va boshqa.

Istalgan maqsadlarga erishish uchun kiberterrorchilar kompaniya va tashkilotlarning kompyuter tizimlariga buzib kirish, kompaniya va tashkilotlarning masofaviy serverlariga hujumlar uyushtirish uchun foydalaniladigan maxsus dasturlardan foydalanadilar.

Kiberterrorchilar bomba qo'ymaydilar, garovga olmaydilar. Ular kompyuter vositalari bilan tahdid qiladilar: kompaniyaning katta kompyuter tarmog'ini o'chirib qo'yish, bank mijozlarining ma'lumotlarini yo'q qilish, zavod va elektr stansiyalari ishini buzish va hokazo. To'lov olish uchun, ushbu maqsadlarga erishish uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin:

– maxfiy ma'lumotlar, bank hisoblari va to'lov tizimlari rekvizitlari, shaxsiy ma'lumotlar bilan davlat va harbiy arxivlarga noqonuniy kirish;

– infratuzilma obyektlari ustidan nazoratni amalga oshirish, ularning faoliyatiga ta'sir qilish uchun alohida komponentlarning ishdan chiqishiga va hayotni ta'minlash tizimlarining to'liq yopilishiga qadar;

– har xil turdagi zararli dasturlarni joriy etish orqali axborot, dasturiy ta'minot yoki texnik resurslarni o'g'rilash yoki yo'q qilish;

– iqtisodiy yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishi mumkin bo'lgan yolg'on hujum tahdidlari.

Turli xil kompyuter tarmoqlarida qo'llaniladigan axborot xavfsizligi tizimlarining rivojlanishi tufayli ushbu va shunga o'xshash operatsiyalarni amalga oshirish usullari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Axborot infratuzilmasining rivojlanish darajasi va xakerlik hujumlari soni o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi.

Globallashuv darajasi va ma’lum bir mintaqada turli jarayonlarni avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish qanchalik yuqori bo‘lsa, terroristik xarakterdagi kiberhujumlar ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Kiberterroristik davlatlar obyektlari, xalqaro tashkilotlar, yirik korporatsiyalar va nisbatan kichik kompaniyalar, siyosatchilar va boshqa taniqli shaxslar, shuningdek, tasodifiy tanlangan odamlar onlayn terrorchilar tomonidan teng ravishda hujumga uchrashi mumkin. Kiberterrorchilarning harakatlari fuqarolik infratuzilmasi va harbiy obyektlarga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Kiberterrorizm transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, uning ko‘rinishlari davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning yomonlashishiga, iqtisodiy va diplomatik aloqalarning buzilishiga, davlatlararo tashkilotlar faoliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu xalqaro munosabatlarning shakllangan tizimini butunlay yo‘q qilishi, jamiyatda vahima keltirib chiqarishi va odamlarning jismoniy jinoyatlarga uyushgan tarzda qarshilik ko‘rsatishini qiyinlashtirishi mumkin.

Ta’kidlanishicha, bu atama haddan tashqari ko‘p qo‘llaniladi va bu hodisaning xavfi ommaviy axborot vositalari va o‘z mahsulotlarini sotishni ko‘paytirishni xohlaydigan axborot xavfsizligi vositalarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan bo‘rttiriladi.[2]

Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi kiberterrorizmni “muhim milliy infratuzilma (xususan, energetika, transport, hukumat) faoliyatini to‘xtatish yoki hukumat yoki tinch aholini majburlash yoki qo‘rqitish uchun kompyuter tarmog‘i vositalaridan foydalanish” deb ta’riflaydi.[3]

Kiberterrorizm harakatlarining potensial xavfi jamiyat, olimlar va davlat tashkilotlarining diqqat-e’tiborida bo‘ladi, ammo bunday turdagi aniq hujumlarni nomlash deyarli mumkin emas.

Uilyam Tafoya kiberterrorni “siyosiy, diniy yoki mafkuraviy maqsadlarga erishish uchun yuqori texnologiyalarni qo‘llash orqali jamiyatni qo‘rqitish, shuningdek, infratuzilma obyektlari uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlar yoki ma’lumotlarni yopib qo‘yish yoki olib tashlashga olib keladigan harakatlar” deb ta’riflaydi. [4]

Kiberterrorizm rasman bir shaxs yoki bir nechta ishtirokchilardan iborat mustaqil guruhlar tomonidan sodir etilgan harakatlar deb tan olinadi. Agar hukumatlar yoki boshqa davlat tuzilmalari ushbu ta’rifga kiruvchi faoliyatga jalb qilingan bo‘lsa, bu kiber urushning ko‘rinishi hisoblanadi.

Bunday harakatlarning iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarga ta’siri ko‘pincha ommaviy axborot vositalaridagi jurnalistlar va Gollivud blokbasterlari yozuvchilari tomonidan bo‘rttiriladi, bu esa hozirgi vaziyatni noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin.

Kiberterror akti (kiberterror akti) – kompyuter va aloqa vositalari yordamida amalga oshirilgan, ulardan foydalanish inson hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan yoki yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan, moddiy boylikka jiddiy zarar yetkazgan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan siyosiy maqsadli harakatdir. Ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishi yoki maqsadi terrorchilarning siyosiy talablariga maksimal darajada e’tiborni qaratadigan obyektlar. [5]

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda qonun ustuvorligining pasayishi hamda umuman, aholining siyosiy institutlarga va xususan hukmron elita siyosatiga ishonchsizligi tufayli vayron qiluvchi hodisalarning xavfi tobora ortib bormoqda. Bu va boshqa hodisalar qaysidir ma’noda kiber terrorizmni boshlab, uni hokimiyatga bosim o‘tkazish usuli sifatida amalga oshirishga, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy tizim faoliyatidagi beqarorlikka, siyosiy institutlar va shaxslarning harakatlari va o‘zaro munosabatlaridagi nomuvofiq holatlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Кибертерроризм: угроза национальной и международной безопасности. www.arms-expo.ru. Дата обращения: 19 апреля 2016.

2. Anderson, Kent Virtual Hostage: Cyber terrorism and politically motivated computer crime. The Prague Post (13 октября 2010). Дата обращения: 14 октября 2010.

3. Lewis J. Assessing the Risks of Cyber Terrorism, Cyber War and Other Cyber Threats. Center for Strategic and International Studies. Дата обращения: 19 января 2014.

4. Tafoya W. L. Cyber Terror. FBI Law Enforcement Bulletin (ноябрь 2011). Дата обращения: 19 января 2014.

5. Кибертерроризм: мифы и реальность. BIS-Expert. bis-expert.ru. Дата обращения: 19 апреля 2016.

Shermatilla YUSUPOV,
Toshkent davlat transport universiteti
“O‘zbek (rus) tili” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MILLIY ADABIYOTNING RIVOJLANISH DINAMIKASIDA MILLIY MANFAATNING IFODALANISHI

Annotatsiya:ushbu maqolada o‘zbek milliy adabiyotining rivojlanish jarayonida milliy manfaatlarning ifodalanishi va uning ijtimoiy ahamiyati o‘rganiladi. Milliy adabiyot xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va qadriyatlarini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Adabiyot orqali milliy o‘zlikni anglash, milliy manfaatlarni amalga oshirishga qaratilgan asarlar yaratish milliy taraqqiyotga katta hissa qo‘shadi.Maqolada O‘zbekiston milliy adabiyotining asosiy bosqichlari, uning milliy manfaatlar bilan bog‘liqligi va zamonaviy yondashuvlar keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *milliy adabiyot, milliy manfaat, rivojlanish dinamikasi, o‘zlikni anglash, madaniy meros, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar*

Аннотация: в данной статье рассматривается выражение национальных интересов и его социальная значимость в период развития узбекской национальной литературы. Национальная литература играет важную роль в сохранении исторической памяти, культурного наследия и ценностей народа и передаче их будущим поколениям. Реализация национальной идентичности через литературу, создание произведений, направленных на реализацию национальных интересов, вносит большой вклад в развитие страны. В статье рассматриваются основные этапы развития национальной литературы Узбекистана, ее связь с национальными интересами и современными подходами.

Ключевые слова: *национальная литература, национальный интерес, динамика развития, самосознание, культурное наследие, историческая память, национальные ценности.*

Annotation:this article examines the expression of national interests and its social significance during the development of Uzbek national literature. National literature plays an important role in preserving the historical memory, cultural heritage and values of the people and passing them on to future generations. The implementation of national identity through literature, the creation of works aimed at realizing national interests, makes a great contribution to the development of the country. The article examines the main stages of the development of national literature of Uzbekistan, its connection with national interests and modern approaches.

Key words: *national literature, national interest, development dynamics, self-awareness, cultural heritage, historical memory, national values.*

Milliy adabiyot jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlashda, milliy ongni shakllantirishda va xalqning ma’naviy boyligini namoyon etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda milliy manfaatning adabiyot orqali ifodalanishi har bir davr uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va mentalitetini anglash imkonini beradi.

Milliy manfaat xalqning uzoq muddatli maqsad va intilishlarini ifodalaydi. Bu manfaatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning turli sohalarida namoyon bo‘ladi. Adabiyot esa bu manfaatlarni aks ettiruvchi va ularni keng ommaga yetkazuvchi kuchli vositadir.O‘zbek milliy adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi buyuk ijodkorlarning asarlari milliy manfaatning chuqur ifodasidir.

Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa” asarlarida xalqning ma’naviy kamoloti, adolat va insonparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan.Bu asarlar o‘sha davr milliy manfaatlarining badiiy aksidir.Xuddi shunday, XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan namoyondalari Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon asarlarida xalqning mustaqillik va erkinlikka bo‘lgan intilishlari ifodalanadi.

Milliy adabiyot va milliy manfaat tushunchalari. Milliy adabiyot bu xalqning madaniy merosi, tarixiy qadriyatlari va o‘ziga xosliklarini aks ettiruvchi adabiy asarlar yig‘indisi bo‘lib, uning asosiy maqsadi milliy manfaatlarni yoritish va targ‘ib qilishdir. Milliy manfaat – xalqning mustaqilligini saqlash, milliy madaniyat va tilda izchil rivojlanishga erishish, urf-odat va an’analarni saqlash va kelajak avlodga yetkazishdan iborat. Ushbu manfaatlar milliy adabiyotning rivojida, uning asarlarida va mavzularida o‘z aksini topadi.

O‘zbek milliy adabiyotining rivojlanish bosqichlari. O‘zbek milliy adabiyoti tarixiy davrlar davomida xalqning o‘ziga xosligini, milliy manfaatlarini aks ettirishda muhim vazifani bajargan. O‘zbek adabiyoti rivojlanishining har bir bosqichida milliy manfaatning aks etishi kuzatiladi.

1. Temuriylar davri adabiyoti. Amir Temur davrida va keyinchalik temuriylar hukmronligi ostida yashab ijod qilgan shoir va adiblar milliy manfaatlarni asarlari orqali ifodalashgan. Masalan, Alisher Navoiy o‘zining

“Xamsa” asarida adolat, ma’rifat va ezgulikni targ‘ib qilgan bo‘lsa, “Farhod va Shirin” asarida xalqning ma’naviy qadriyatlari va orzularini aks ettirgan.Navoiy ijodi nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun Markaziy Osiyo uchun milliy o‘zlikni anglashda katta hissa qo‘shdi.

2. Jadidchilik harakati. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati milliy o‘zlikni anglash va mustamlakachilikka qarshi kurashishga qaratilgan edi. Jadid adiblarining asarlarida xalqni ma’rifatga chorlash, o‘zligini anglash va milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish asosiy g‘oya hisoblangan. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi shoir va yozuvchilar xalqni uyg‘otishga, ularning o‘z erkinligi va mustaqilligi uchun kurashiga chorlagan. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani orqali milliy qadr-qimmat, erkinlik va vatanparvarlik tuyg‘ulari targ‘ib etilgan.

3. Mustaqillik davri adabiyoti. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy adabiyotning rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik davrida adabiyot xalqning milliy o‘zligini anglash, qadriyatlarini saqlash va mustahkamlash uchun yangi asarlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Iste’dodli yozuvchi va shoirlar milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniyatni ifodalash uchun yangi asarlar yaratishga kirishdilar. Mustaqillik davri adabiyotida milliy manfaatlar ochiq ifoda etilib, milliy g‘urur, mustaqillik va erkinlik mavzulari keng yoritiladi. Masalan, Muhammad Ali, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar xalqning milliy manfaatlarini, mustaqillik va vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi asarlar yaratgan.

Milliy manfaatlarning adabiyotda ifodalanishi. Milliy manfaatlarni ifodalash milliy adabiyotning asosiy vazifalaridan biridir.Bu orqali xalqning milliy qadriyatlari saqlanadi va yangi avlodga yetkaziladi. Milliy manfaatlar o‘zida milliy madaniyat, urf-odatlar, tarixiy xotira va tilni ifodalaydi.

Misol uchun, Erkin Vohidovning “O‘zbegim” she’rida milliy iftixor va vatanparvarlik mavzusi yuksak ohangda tasvirlanadi. Shuningdek, Abdulla Oripovning “Sen yetim emassan, o‘zbek” she’rida milliy g‘urur, mustaqillik va xalqning jasorati haqida so‘z boradi. Bu kabi asarlar orqali milliy manfaatlarning ifodalanishi xalqni milliy o‘zlikni anglashga, madaniy va ma’naviy yuksalishga chorlaydi.

Milliy manfaatlarning adabiyot orqali yangi avlodlarga yetkazilishi. Milliy adabiyot yosh avlodni milliy qadriyatlar va an’analar bilan tanishtirishning samarali vositasidir. Milliy manfaatlarni o‘zida aks ettirgan asarlar yoshlarni milliy iftixor va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Bunday adabiy asarlar orqali yoshlar o‘z tarixini, madaniyatini anglab yetadi va milliy qadriyatlarni saqlashga intiladi.

Masalan, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov asarlari yosh avlodni milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglashga chorlasa, yosh adiblar asarlari zamonaviy yoshlarni milliy va madaniy qadriyatlarni asrab-avaylashga da’vat qiladi.Shuningdek, “O‘zbek adabiyoti” darslari orqali o‘quvchilarga milliy manfaatlarni yorituvchi asarlar o‘rgatiladi.Shu tariqa, milliy manfaatlar yosh avlodga yetkazilib, ularning o‘zlikni anglash jarayoni shakllantiriladi.

Milliy adabiyot va milliy manfaatlar o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ular xalqning ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Milliy manfaatlarning adabiyot orqali ifodalanishi xalqning milliy o‘zligini anglash, milliy qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish jarayonida beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois, o‘zbek milliy adabiyoti rivoji milliy g‘urur, o‘zlik va madaniy merosni saqlash yo‘lida davom etmoqda. Hozirgi zamonda ham milliy manfaatlarni ifoda etuvchi yangi asarlar yaratilib, xalqning milliy qadriyatlari, tarixiy merosi va o‘ziga xos madaniyatini asrab-avaylash yo‘lidagi jarayon kuchaymoqda. Bu esa milliy adabiyotning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini yanada oshiradi va xalqning o‘zligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy adabiyot milliy manfaatlarni aks ettirishda, xalqning ma’naviy-ma’rifiy o‘sishini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U o‘zining badiiy kuchi bilan xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi va unda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytiradi.

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida milliy adabiyotning rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarildi.Bu davrda xalqning o‘z tarixiga, madaniy merosiga va kelajak avlodga nisbatan mas’uliyatini anglashda adabiyotning o‘rni sezilarli darajada oshdi.

Milliy manfaatning adabiyotda ifodalanishi nafaqat milliy qadriyatlarni saqlash va ulug‘lash, balki globalizatsiya sharoitida milliy o‘zlikni asrab qolish masalasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, milliy adabiyotning rivojlanishiga e’tibor qaratish, milliy manfaatlarni targ‘ib etuvchi yangi badiiy asarlarni yaratish hozirgi zamonning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharifxo‘jaev M., Davronov Z. Ma’naviyat asoslari. –T., 2005.
2. A.Abdulayev. Ma`naviyat va iqtisodiy tafakkur. –T: “Ma`naviyat”, 1999.
3. M.Imomnazarov. Milliy ma`naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. –T.: “Sharq”, 1998.
4. A.Qodirov. Ma`naviyatning iqtisodiy tamoyillari. –T.: “O‘qituvchi”, 1999.
5. S.Otamurodov va boshqalar. “Ma`naviyat asoslari” –T.: “Meros”, 2002.

Дилдархан ХАШИМОВА,
доктор педагогических наук,
профессор кафедры "Узбек тили ва адабиёти"
Ташкентского государственного
юридического университета



О ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ И ИНФОРМАЦИОННО ДИДАКТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЯХ МУЛЬТИМЕДИА В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-ЮРИСТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Ключевые слова: *лексическая единица, терминологическая потребность, деревообрабатывающая промышленность, научный термин, стандарт литературного языка, лексема, столярное производство, вариант, доминанта, плеоназм, плеонастическое употребление.*

Annotation: textbooks are represented by diverse concepts, especially, the issue of the carpentry certificate represented by the work of wood work is covered with a parallel application. The optimal option of the word is recommended to use literary language as a norm in the literary language

Key words: *lexical unit, terminological demand, woodworking industry, scientific term, standard of literary language, lexeme, carpentry industry, variant, dominant, pleonasm, pleonastic usage.*

Yog‘ochsozlik, ya’ni yog‘ochga mexanik ishlov beruvchi sanoat sohasi hozirda taraqqiy etgan, texnikalashgan sohalardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda ilm-fanga asoslangan, yuksak konstruksiyada mexanizatsiyalashgan, texnikalashgan yog‘ochsozlik sanoatining rivojlanishi bilan o‘z-o‘zidan uning ilmiy terminologiyasi ham vujudga keldi.

Shunday ekan, leksikaning bu lug‘aviy qatlamini lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilining yog‘ochsozlik terminologiyasi keng qamrovli bo‘lib, u monografik planda o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligidagi ba’zi ishlarda ham yog‘ochsozlik terminlarining ayrimlari xususida so‘z yuritilgan.

N. Doniyorova, L. G‘afurova, Q. Sapayevlarning ilmiy ishlarida yog‘ochdan yasalgan buyumlarni ifodalovchi ba’zi leksemalarning ma’nolari xususidagina so‘z yuritilgan.

Ma’lumki, mustaqillik yillarida o‘zbek tilida barcha sohalarga doir o‘quv qo‘llanmalari ham nashr etila boshlandi. Bularning qatorida yog‘ochsozlikka oid qator darsliklar ham chop qilindi. Bu borada S.A.Azimovning sa’y-harakatlari e’tiborga loyiqdir. U yordamchi maktablar 4, 5, 7-sinflarining “Duradgorlik” darsliklari muallifidir. Ushbu qo‘llanmalarda aksariyat yog‘ochsozlik sohasining u yoki bu tushunchalarini ifodalash maqsadida terminologik talablarga javob beradigan, qo‘llash uchun qulay va ixcham terminlardan foydalanilgan.

Biroq bu darsliklarda ayrim muayyan tushunchaning xilma-xil birliklar orqali ham ifodalanganini oqlash qiyin. Bunday holatni birgina yog‘och ishi bilan shug‘ullanuvchi kasb nomini ifodalovchi ***duradgorlik/ duradgorchilik*** variantining parallel qo‘llanganligida ham ko‘rish mumkin.

Misollar keltiramiz: qattiq yog‘ochlarga ishlov berishda duradgorlik asboblaridan foydalaniladi; har qanday duradgorchilik asbobi qattiq yog‘ochdan tayyorlanishi kerak [1, B. 34, 43].

Bu misollar bir darslikning har xil sahifalaridan olingan. Hatto shu darslikda bir sahifaning o‘zida bu ikki leksemaning har ikkalasidan ham foydalanilganligini ko‘rish mumkin:

Duradgorlik	***Duradgorchilik***
Duradgorlik buyum qismlarini mixchip yordamida birlashtirishda sizga qo‘lda parmalash asbobi yoki parmalash dastgohidan foydalanish kerak bo‘ladi [1, B. 44]	***Duradgorchilik***da qo‘llaniladigan birikmalar va ularning qo‘llanishi ([1, B. 44]

Shu darslikning boshqa sahifasiga qaralganda ham shu holatni ko‘rish mumkin:

Duradgorlikda qanday rejalash asboblaridan foydalaniladi? [1, B.54]	***Duradgorchilik*** go‘niyasini tayyorlash [1, B. 54]

Tabiiyki, savol tug‘iladi, ushbu variantlardan qaysi birining yasalishi adabiy til meyoriga to‘g‘ri keladi Bu savolga javob berishdan oldin, birinchi galda mazkur leksemalar lug‘atlarda qanday berilganligini ko‘rib chiqaylik.

“O‘zbekcha-ruscha lug‘at” [2, Б. 134] da ***duradgorlik*** lug‘aviy birligi qayd etilgan bo‘lib, ***duradgorchilik*** aks ettirilmagan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga murojaat qilinganda, ikkala variant ham ushbu tarzda o‘z ifodasini topgan:

Дурадгорлик *дурадгор с. касб оти+мисол:* ***Дурадгорчилик*** *с.т. Дурадгорлик* [3, Б. 240].

“Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” da “***столярничество***” lug‘aviy birligi duradgorlik leksemasi orqali ifodalangan:

Столярничество *с дурадгорлик; заниматься столярничеством дурадгорлик қилмоқ* [4, Б. 518].

Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan “Imlo lug‘ati” ga duradgorlik leksemasi [5, B. 68] kiritilgan, ***duradgorchilik*** esa aks ettirilmagan.

Yana bir lug‘atlardan biriga murojaat qilinganda ham ***duradgorlik*** variantiga izoh berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Duradgorlik *(duradgorlik. Duradgor ishi, kasbi. Duradgorlik bilan shug‘ullanmoq.*

Duradgorchilik varianti asbob so‘zi uchun berilgan misol tarkibida (*asbob). Biror ishni bajarishda ishlatiladigan qurol, vosita.* ***Duradgorchilik*** *asboblari*) [6, Б.lar 19, 53] ishlatilgan, xolos.

Demak, lug‘atlarda duradgorlik varianti dominant sifatida berilgan.

N.Mahkamov monografiyasida shunday deb yozadi: “Ba’zan uchrab qoladigan me’morchi, mashshoqchi, kulolchi kabi so‘zlarda bajaruvchi shaxs ma’nosi ikki marta ifodalangan: ichki fleksiya orqali va affiks (-chi) orqali. O‘zakning o‘zida ma’lum bir soha bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosi mavjud bo‘lishiga qaaramay, yana shu ma’noni yasovchi –chi affiksi kontakt holatda qo‘shiladi. Bu hodisa shunday tug‘ilgan: bajaruvchi shaxs ma’nosini o‘zak orqali ifodalash o‘zbek tili xususiyatiga mos kelmaganligidan, bu o‘zlashma so‘zlarga o‘zbek tilidagi –chi affiksi qo‘shilgan. Lekin uning normal holat emasligi seziladi” [7, B. 56].

Garchi tegishli manbalarda “*ёғочдан иморат ва бошқа ҳар хил буюмлар ясовчи ҳунарманд*” [3] ma’nosini ifodalovchi ***duradgorchi*** shakli qayd etilmagan bo‘lsa-da, (yoki duradgorchilik leksemasi –***chilik*** murakkab affiksi orqali yasalgan bo‘lsa-da) N.Mahkamovning keltirilgan fikrini quvvatlab, shuni ta’kidlaymizki, duradgorchilik leksemasida **–chi** affiksi pleonastik qo‘llangan, aniqroq qilib aytganda, u lug‘aviy birlik uchun ortiqcha “yukdir”.

Shu o‘rinda A.Hojiyevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “-lik affiksining ma’lum bir ish, kasb-hunar egasini (shu ish, kasb bilan shug‘ullanuvchi shaxsni) anglatuvchi so‘zga qo‘shilib asosdan anglashilgan shaxsga (kasb egasiga) xos ish, mashg‘ulot ma’nosini bildiruvchi ot yasashini ko‘rdik: dekanlik, akusherlik, o‘qituvchilik kabi” [8, B. 44].

“Umuman, aytilgan tipdagi so‘zlarning ***–lik*** affiksi yordamida yasalishi umumiy holat va adabiy norma hisoblanadi. Sanoqli so‘zlarda uchraydigan ***-chilik*** affiksi yordamidagi yasalish esa ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xosdir. Mas., novvoychilik emas, balki novvoylik tipidagi yasalish adabiy norma hisoblanadi. Faqat bir-ikkita so‘zdagina ***–chilik*** affiksi yordamidagi yasalishni, umumiy holatdan istisno tarzida, asosiy variant hisoblash mumkin bo‘ladi. Mas., kosiblik emas, balki kosibchilik asosiy variantdir” [8, Б. 44].

Bu tipdagi yasalgan so‘zlarda umumiy holat nazarda tutiladigan bo‘lsa, yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda ***duradgorlik//duradgorchilik*** variantlaridan ***duradgorlik*** so‘zini asosiy variant hisoblash mumkin bo‘ladi.

Keltirilganlardan tashqari shuni ta’kidlash mumkinki, sohaga oid darslik va qo‘llanmalarning nomlanishida ham duradgorlik leksemasi qo‘llangan. Masalan:

Maqsudov Y.M. Duradgorlik – mebel buyumlarini pardozlash texnologiyasi (Toshkent, 1993).

Buglay B.I. Duradgorlik – mebel korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyasi (Toshkent, 1963).

Azimov S.A. Duradgorlik (yordamchi maktablarning 5-sinfi uchun darslik) (Toshkent, 2000).

Lug‘atlardan va boshqa keltirilgan dalillardan kelib chiqib, o‘zbek tilining yog‘ochsozlik terminologik sistemasida ***duradgorchilik*** o‘rnida ***duradgorlik*** leksemasini termin sifatida qo‘llashni ma’qul deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Азимов С.А. Дурадгорлик. (Ёрдамчи мактабларнинг 7-синфи учун дарслик). – Т., 1999.
2.Ўзбекча-русча луғат. – М., 1959.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (1 жилд). – М., 1981.
4. Русча-ўзбекча луғат. – Т., 1984.
5. Ризаев С., Бўронов Н. Имло луғати. – Т., 1992.
6. Hojiyev A., Nurmonov A. va b. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – T., 2001.
7.Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т., 1988.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Т., 1989.

Botir TAJIBOYEV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: botirtojiboyev19@gmail.com



AYRON VA ATALA LEKSEMALARINING ASSOTSIATIV MAYDONDAGI TAHLILI

Annotatsiya: maqolada assotsiativ maydon tushunchasi haqida ma’lumot berilgan. Assotsiativ maydon a’zolari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq holda xotirasida tiklangan birliklar bo‘lib, turli til egalarida bir-biridan farqlanishi asoslangan. *Ayron* va *atala* so‘zlarining assotsiativ maydoni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *assotsiativ maydon, assotsiativ birlik, funksional- psixolingvistik model, ayron, atala.*

Аннотация: в статье представлена информация о понятии ассоциативного поля. Членами ассоциативного поля являются единицы, восстанавливающиеся в памяти говорящих в связи со словом-раздражителем, и основанные на том, что они отличаются друг от друга у разных носителей языка. Раскрыто ассоциативное пространство слов *а*йрон и *а*тала.

Ключевые слова: *ассоциативное поле, ассоциативная единица, функционально-психолингвистическая модель, айрон, атала.*

Annotation: the article provides information about the concept of associative field. The members of the associative field are units that are restored in the memory of language speakers in connection with the trigger word, and are based on the fact that they differ from each other in different language speakers. The associative field of the words “ayron” and “atala” are revealed.

Keywords: *associative field, associative unit, functional-psycholinguistic model, ayron, atala*

Kirish. Ma’lumki, assotsiativ maydon inson lisoniy xotirasida turtki so‘z rolidagi til birligiga nisbatan tiklangan assotsiatsiyalar majmuyi sanaladi. D.Lutfullayevaning ta’rif berishicha, “*Assotsiativ maydon* – struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqidagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir” [D.Lutfullayeva, 58] [4] Darhaqiqat, assotsiativ maydon insonning nafaqat til birligi haqidagi bilim va tasavvurlari, balki ushbu birlik ortida turgan predmet, belgi, harakat, voqea-hodisa kabilar bo‘yicha bilim va tasavvurlarini aks ettiruvchi o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar tizimidir.

Asosiy qism. Sh.Balli tilni o‘zaro aloqa-bog‘lanishdagi assotsiatsiyalar tarmog‘i sifatida tasavvur qiladi. Uning fikricha, to‘liq motivlashgan til belgisining mohiyati shundaki, u bitta majburiy ichki assotsiatsiyaga tayanadi, nutqda ixtiyoriy qo‘llaniladigan til belgisi esa fikran tashqi fakultativ assotsiatsiyalar bilan bog‘lanadi.

Sh.Balli assotsiativ maydonni biror bir aytilgan so‘zga nisbatan inson ongida tiklangan ko‘p miqdordagi birliklar yig‘indisi sifatida tushunadi. U assotsiativ maydonlar subyektiv xarakterda ekanligini qayd etgan, chunki insonda biror bir psixologik assotsiatsiyaning hosil bo‘lishi uning yoshi, kasbi, ijtimoiy holati, kayfiyati kabilarga bog‘liq. [G.Shur, 90] [10]

Bundan ma’lum bo‘ladiki, assotsiativ birliklar insonning bilim va tasavvurlari, psixologik holati, yoshi, kasbi, qiziqishlari kabilar bilan bevosita bog‘lanadi. Bunday assotsiatsiyalar ongda ham assotsiativ maydonlarga birlashadi.

Tilshunoslikda *assotsiativ maydon* tushunchasi ushbu muammo tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda to‘liq ochib berilgan. Hatto bugungi kunda tilshunoslik terminlari izohiga bag‘ishlangan lingvistik lug‘atlarda ham ushbu termin uchraydi. Masalan, T.V.Jerebiloning “Словарь лингвистических терминов” kitobida *assotsiativ maydon* terminiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Assotsiativ maydon assotsiatlar, ya’ni stimul so‘zga berilgan javob reaksiyalari majmuidir” [Y.Jerebilo, 7] [2]

“Российский гуманитарный энциклопедческий словарь”da esa *assotsiativ maydon* termini quyidagi tartibda izohlangan: “Assotsiativ maydon assotsiativ aloqalari bilan birlashtirilgan so‘zlar (o‘xshashik, zidlik, yondoshlik va boshqa belgilari asosidagi ijtimoiy, tarixiy, psixologik obrazli assotsiatsiyalar)ni qamrab olgan birmuncha keng doiradagi leksik hosilalardir. [Российский гуманитарный энциклопедический словарь, 842] [7]

O.A.Axmanova assotsiativ maydonga “biror bir so‘z bilan u yoki bu darajada bog‘langan assotsiativ tasavvurlar yig‘indisi” tarzida tavsif bergan. [O.Axmanova, 576] [1]

Assotsiativ maydon terminining mohiyati qator rus tilshunoslari asarlarida ham ochib berilgan. Jumladan, M.Patsis assotsiativ maydonga quyidagicha ta’rif bergan: “Assotsiativ maydon – bu so‘zlarning tajriba asosida aniqlangan assotsiativ aloqasini ko‘rsatadigan

funksional-psixolingvistik model hisoblanadi, u muloqot jarayonida real ongni ko‘rsatuvchi modeldir. Bunday modelda til birliklarining paradigmatik va sintagmatik munosabatlari assotsiativ maydonda qanday berilishi, shu bilan birga, nutqiy birliklar(sintagmalar)da qay tarzda namoyon bo‘lishi aniqlanadi”. [M.Patsis, 14] [6]

N.V.Ufimseva assotsiativ maydonning milliy-madaniy belgisiga e’tiborini qaratadi. Uning fikricha, assotsiativ tajribalar orqali aniqlangan assotsiativ maydonlar nafaqat insonning verbal xotirasi fragmentlari hisoblanadi, balki muayyan etnik guruh dunyoqarashining bir bo‘lagi bo‘lib, shu madaniyat vakillarining ichki leksikonida mujassamlashgan, ularning olam haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi motivlar, baholashlar va madaniy stereotiplarida namoyon bo‘ladi. [N.Ufimseva, 140] [9]

Y.F.Tarasov ham assotsiativ maydonda milliy madaniyat aks etishini ta’kidlaydi. Uning qayd etishicha, biror bir turtki so‘zga nisbatan yuzaga kelgan assotsiatsiyalar maydoni milliy madaniyatga mansub bilimlarni “tashqariga chiqaradi”. [E.Tarasov, 38] [8]

Darhaqiqat, assotsiativ maydon til jamiyati a’zolarining tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlarini namoyish qiladi. Assotsiativ maydon birliklari jamiyat ongi, dunyoqarashi, mentaliteti, olamga bo‘lgan munosabatidan darak beradi.

Ilmiy manbalarda asosiy hollarda assotsiativ maydon turtki so‘zga nisbatan berilgan javob reaksiyalari (assotsiatlar) majmuyi sifatida tavsiflanadi. [E.Kuchinskaya, 5] [3] Bizningcha ham, bunday tavsif assotsiativ maydonning bir qarashda anglash mumkin bo‘lgan mohiyatini aks ettiradi. Assotsiativ maydonning milliylik, jamoaviylik, tajribaga asoslanganlik, cheksizlik kabi qator xususiyatlari uning ichki belgilari sanaladi. Biz *assotsiativ maydon* terminiga berilgan yuqoridagi ta’rifni ma’qullagan holda unga quyidagicha tavsif beramiz: Assotsiativ maydon turtki so‘zga nisbatan hosil bo‘lgan, u bilan assotsiativ bog‘langan birliklar majmuyidir.

Anglashiladiki, assotsiativ maydon muayyan bir turtki so‘z bo‘yicha til egalari xotirasida tiklangan so‘zlardan tashkil topadi. Turtki so‘z ta’sirida inson xotirasida tiklanadigan so‘zlar shunchaki assotsiativlik xususiyatiga ega birliklar emas, ular semantik, grammatik, fonetik, derivatsion, uslubiy, pragmatik va boshqa qator umumiy belgisiga ko‘ra turtki so‘z bilan mustahkam aloqada bo‘lgan birliklar sanaladi. Bunday aloqa ularning umumiy maydonga birlashuvini ta’minlaydi.

Assotsiativ maydonni ko‘p qirrali majmua deyish mumkin. Chunki uning tarkibidan har xil strukturaga ega sath birliklari o‘rin oladi. Bu birliklar turtki so‘z bilan turli darajada semantik-mantiqiy aloqada bo‘ladi. Ular muayyan til egalarining olamni qanday idrok etishi, olam haqidagi tasavvurlari, milliy-madaniy qarashlari, olamga munosabati haqida ma’lumot tashiydi.

H.Ortiqova assotsiativ maydonga xos xususiyatlarni tahlil qilar ekan, uning quyidagi asosiy belgilarini ajratib ko‘rsatadi:

“Assotsiativ maydon a’zolari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq holda xotirasida tiklangan birliklar bo‘lib, turli til egalarida bir-biridan farqlanadi.

Assotsiativ maydon birliklari nafaqat til birliklarining assotsiativ aloqasini, balki narsa-hodisalarning inson tasavvuridagi assotsiativ bog‘lanishlarini ham aks ettiradi.

Assotsiativ maydon birliklari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq tasavvurlari, bilimi, qiziqishlarini ifoda etadi.

Assotsiativ maydon birliklari til egalari ongdan o‘rin olgan tayyor birliklar – leksemalar, iboralar, maqollar, hikmatli so‘zlar, ongda barqaror birlik kabi o‘rnashib qolgan ayrim so‘z birikmalari, sodda gaplar, shuningdek, inson ichki nutqida shakllangan nutqiy sintaktik birliklardan tashkil topadi.

4. Assotsiativ maydon turtki so‘zning ma’no mohiyatini ochib beruvchi tizim vazifasini bajaradi. Assotsiativ maydon til birliklarida davr o‘tishi bilan yuzaga kelgan ma’noviy o‘zgarishlarni ochib bera oladi. Assotsiativ maydon til birligining uzual ma’nosi va vertual ma’no xususiyatini farqlashga imkon beradi. Assotsiativ maydon tilning milliy-madaniy xususiyatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Assotsiativ maydondan turtki so‘z bilan semantik jihatdan o‘zaro bog‘langan va, shu bilan birga, semantik jihatdan turtki so‘zga aloqador bo‘lmagan birliklar o‘rin oladi. Keyingi turdagi birliklar turtki so‘z bilan talaffuziga ko‘ra, tovush tarkibi yaqin bo‘lgan yoki shakliy tuzilishi bir bo‘lgan birliklardan tashkil topadi.

6. Assotsiativ maydon birliklari turli sathga mansub bo‘lgan birliklardir. Maydondan asosiy hollarda leksik va sintaktik sathga ega bo‘lgan birliklar o‘rin oladi.

7. Assotsiativ maydon funksional-semantik maydon kabi yadro va chegara qismlaridan tashkil topadi. Maydonning yadro qismidan qo‘llanish chastotasi yuqori bo‘lgan birliklar o‘rin oladi, maydon chegarasidan turtki so‘z bilan semantik aloqasi uzilgan, ammo shakliy, talaffuziga ko‘ra umumiy bo‘lgan birliklar joylashadi.

8. Turtki so‘zning mohiyati, til egalarining ushbu so‘z bilan bog‘liq bilimlari, tasavvurlariga bog‘liq holda assotsiativ maydonlar ko‘lami va tarkibi turlicha bo‘ladi.

9. Assotsiativ maydon individual xususiyatga ega. Shu bois uning tarkibi har bir til egasida turlicha va miqdori har xildir”. [H.Ortiqova, 85-86] [5]

Anglashiladiki, assotsiativ maydon o‘ziga xos qirralarga ega. Shu sababli ham u tilshunoslikning turli aspektlari tadqiq obyekti bo‘la oladi.

Fikrimizni dalillash maqsadida “O‘zbek tili

assotsiativ lug‘ati”da berilgan ayron leksemasining assotsiativ maydoni birliklarini ham tahlil qilamiz:

AYRON: ichimlik 66; qatiq 34; sut 21; suzma 14; yoz 8; oqlik 7; lazzat 5; muzdek 5; sovuq 5; oppoq 4; chakki 4; rayhon 3; muz 3; chalop 3; chanqoq 3; achchiq 2; bakalashka 2; bolalar 2; issiq 2; ko‘katlar 2; kosa 2; mazza 2; mineral suv 2; olma 2; suv 2; suyuqlik 2; tushlik 2; yalpiz 2; yoz fasli 2; sharbat 2; chanqash 2; chanqovbosdi 2; chakkining suyuq holati 2; cho‘ponlar 2.

Assotsiativ maydondagi quyidagi birliklar ayron turtki so‘zi bilan milliy-madaniy belgisiga ko‘ra assotsiativ bog‘langan: qatiq, suzma, oqlik, chakki, chalop.

Quyidagi birliklar esa ayron turtki so‘zi bilan ayronni tarkib toptiruvchilar sifatida assotsiativ bog‘langan: qatiq, sut, suzma, chakki, rayhon, muz, chalop, ko‘katlar, mineral suv, olma, suv, yalpiz.

Ayron leksemasiga qatiq, suzma, chakki, chalop assotsiatsiyalarining berilishi ayronning bu mahsulotlardan hosil qilinishi bilan bog‘liq. Oqlik assotsiatsiyasi esa ayronning rangi bilan aloqador. Ko‘rinadiki, til egalari tomonidan ayron leksemasiga berilgan milliy-madaniy assotsiatsiyalar ham asosan nolisoniy omillar asosida hosil bo‘lgan.

“O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati” materiallari tahlili ba’zan aksincha holatni ham ko‘rsatadi. Atala leksemasi assotsiativ maydonidagi yuqori chastotali birliklarning turtki so‘z bilan munosabatini belgilaymiz:

ATALA: taom 68; milliy taom 19; un 17; suv 9; bo‘tqa 8; yog‘ 8; tug‘ruqxona 7; mazali 6; qiymali atala 6; shakar 6; shirin 6; bolalar bo‘tqasi 4; ovqat 4; sut 4; ayollar 3; bolalar 3; go‘dak 3; quyuq 3; suyuqosh 3; to‘yimli 3; chaqaloq 3; arpa 2; atala qilish 2; atalamoq 2; atala-umoch 2; bolalar ovqati 2; bug‘doy 2; bo‘shang odam 2; go‘sht 2; kasal 2; piyozdog‘ 2; qiymali 2; sariyog‘ 2; suyuq ovqat 2; tuqqan ayol 2; umoch 2; yorma atala 2; yovg‘on atala 2; zig‘ir yog‘ 2.

Ushbu assotsiativ maydonda atala leksemasi bilan assotsiativ bog‘langan quyidagi milliy-madaniy birliklarni ajratish mumkin: milliy taom, qiymali atala, suyuqosh, atala qilish, atalamoq, atala-umoch, bo‘shang odam, qiymali, suyuq ovqat, umoch, yorma atala, yovg‘on atala.

Bulardan quyidagi birliklar atala leksemasi bilan lisoniy omil orqali assotsiativ bog‘langan:

1) semantik tur-jins munosabati asosida: qiymali atala, atala-umoch, umoch, yorma atala, yovg‘on atala, qiymali;

2) lug‘aviy ma’nosidagi semalari asosida: milliy taom, suyuq ovqat, suyuqosh;

3) ko‘chma ma’no asosida: bo‘shang odam;

4) so‘z yasalishida asos qism vazifasini bajarishiga ko‘ra: atala qilish, atalamoq.

Xulosa. Milliy taom assotsiatsiyasini nolisoniy omil asosida hosil bo‘lgan deyish ham mumkin. Atalaning o‘zbek milliy taomi ekanligi haqidagi bilim ushbu assotsiatsiyaning hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ko‘rinadiki, atala leksemasi assotsiativ maydonidagi milliy-madaniy birliklar asosan lisoniy omil asosida hosil bo‘lgan. Xullas, madaniy assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishiga ham lisoniy, ham nolisoniy omillar birdek ta’sir ko‘rsata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.А. Словарь лингвистических терминов. – М., 2005. – С. 576.

2. Жеребило Т.В. **Словарь лингвистических терминов**: Изд. 5-е, испр-е и дополн. – Назрань: Изд-во “Пилигрим”, 2010 //https://rus-lingvistics-dict.slovaronline.com/408-%D0%B0%D1%81%D1%81%D0%BE

3. Кучинская Э.Д., Котяш М.Ф. Сопоставительный анализ ассоциативных полей переводных эквивалентов русского и английского языков // https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/ 241318/1/% D0%9A%D1%83%D1%87%D0%B8%D0%BD%D1%81%; Довголюк М.Н. Ассоциативно-вербальное поле “Армия”: когнитивный аспект: Дисс. … канд. филол.наук. – Саннкт-Петурбург, 2016. – С. 5. (– 167 с.)

4. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б.58.

5. Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. фан. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 85-86.

6. Патсис М. Ассоциативное поле как инструмент анализа значения слова: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2005 // http://www.dslib.net/jazyko-znanie/associativnoe-pole-kak-instrument-analiza-znachenija-slova-na-materiale-grecheskogo.html

7. Российский гуманитарный энциклопедический словарь // https://1597.slovaronline.com/842-%D0% B0%D1%81%D1%81%D0%BE%D1%86%D0%B8%D0%B0%D1%82%D0%B8%D0%B2%D0%BD% D0% BE%

8. Тарасов Е. Ф. Языковое сознание // Вопросы психолингвистики. – 2004. – № 2. – С. 38. (– С. 34–47.)

9. Уфимцева Н. В. Русские: Опыт еще одного самопознания // Этнокультурная специфика языкового сознания. Сб. науч. труд. Рос. акад. наук. Ин-т языкознания. – М.: Ин-т языкознания РАН, 1996. – С. 140. (– С. 139-162)

10. Щур Г. С. Теория поля в лингвистике. – М.: Наука, 1974. – С. 90.



Nafisa MUSAYEVA,
PhD., katta o‘qituvchi, NavDU
E-mail : musayevanafisa19@gmail.com

O‘ZBEK BOLALAR KVAZIDIALOGIDA NUTQIY AKTNING IFODALANISHI

Annotatsiya: nutqiy akt so‘zlovchi subyektning tinglovchi ongi va xatti-harakatiga ta’sir qilish uchun yo‘naltirilgan maqsadli va ko‘p bosqichli nutqiy harakatlar majmuidir. Muloqot jarayonida nutqiy aktning qaysi turidan foydalanish so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga bog‘liq bo‘lsa-da, insonning psixologik-emotsional holati, gender xususiyati, yoshi kabilar ham nutqiy akt turining tanlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarning muloqot jarayonida qanday nutqiy akt turini tanlashi ularning psixologik holati, ayniqsa, yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Ilmiy manbalarda nutqiy aktning uch bosqichli faoliyati: *lokutiv, illokutiv* va *perlokutiv* harakatlari bajarilishi ta’kidlanadi. Shunga ko‘ra, biz ham quyida bolalar kvazidialogik nutqida shu uch nutqiy harakatning namoyon bo‘lishini tahlilga tortganmiz.

Kalit so‘zlar: *nutqiy akt, kvazidialog, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, bolalar nutqi, tinglovchi, so‘zlovchi.*

Аннотация: речевой акт представляет собой комплекс целенаправленных и многоэтапных речевых действий говорящего субъекта, нацеленных на воздействие на сознание и поведение слушателя. Хотя выбор типа речевого акта в процессе коммуникации зависит от коммуникативной цели говорящего, психологическое и эмоциональное состояние человека, гендерные особенности и возраст также оказывают существенное влияние на выбор вида речевого акта. Выбор детьми вида речевого акта в процессе общения осуществляется в зависимости от их психологического состояния, особенно возрастных характеристик. В научных источниках отмечается, что речевой акт выполняется как трехэтапная деятельность: локутивные, иллокутивные и перлокутивные действия. Соответственно, мы также проанализировали ниже проявление этих трех речевых действий в квазидиалогической речи детей.

Ключевые слова: *речевой акт, квазидиалог, локутивный акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, детская речь, слушатель, говорящий.*

Annotation: a speech act is a complex set of purposeful and multi-stage speech actions aimed at influencing the listener’s consciousness and behavior. While the type of speech act used in communication primarily depends on the speaker’s communicative goal, a person’s psychological and emotional state, gender characteristics, and age also significantly impact the choice of speech act. Children’s selection of speech act types during communication is closely linked to their psychological state, particularly their age-related characteristics. Scientific sources emphasize that speech acts involve three stages of activity: locutionary, illocutionary, and perlocutionary actions. Accordingly, we have analyzed the manifestation of these three speech actions in children’s quasi-dialogical speech.

Key words: *speech act, quasi-dialogue, locutionary act, illocutionary act, perlocutionary act, children’s speech, listener, speaker.*

Kirish. So‘zlovchining til birliklaridan foydalanib, muayyan axborotni uzatishi va axborotning tinglovchi tomonidan qabul qilinishi, ta’sirga tushishi nutqiy akt sanaladi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi mazkur nutqiy munosabatda tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da berish, izohlash kabi maqsadli ifodalar yotadi. Sh.Safarov ham “nutqiy akt mazmuni to‘lig‘icha so‘zlovchining muloqot maqsadi bilan bog‘liq”ligini ta’kidlaydi. Nutq akti ma’lum bir ijtimoiy shartli kommunikativ (nutq) vaziyatda, bir qator talablar bilan murakkablashgan holda amalga oshiriladi. Nutqiy akt so‘zlovchi subyektning tinglovchi ongi va xatti-harakatiga ta’sir qilish uchun yo‘naltirilgan maqsadli va ko‘p bosqichli nutqiy harakatlari majmuidir. U ikki asosiy xususiyat – shartlilik va maqsadlilik semantik xususiyatiga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tilshunoslikda nutqiy akt nazariyasi to‘g‘risida qator tadqiqotlar olib borilgan, ilmiy qarashlar bildirilgan. Jumladan, J.Ostinning nutqiy akt masalalari to‘g‘risidagi dastlabki konsepsiyasi Z.Vendler, J.Serl tomonidan o‘rganildi va munosabat bildirildi[1]. Keyinchalik bu masalada V.N.Zabavnikov, A.A.Leontev, A.N.Baranov, G.Y.Kreydlin, I.M.Kobozeva, R.Konradlar maxsus tadqiqotlar olib borishdi. O‘zbek tilshunosligida ham nutqiy akt muammosi M.Hakimov, Sh.Safarov, M.Qurbonovalar tomonidan tadqiq etildi.

Sh.Safarov nutqiy akt ta’limoti to‘g‘risidagi tilshunos va faylasuflarning qarashlarini tahlil qiladi, munosabat bildiradi, mavzu doirasidagi ayrim bahsli o‘rinlarga aniqlik kiritadi. Olim J.Syorlning nutqiy aktni muloqot tizimining asosiy, tayanch birligi sifatidagi xulosasini qo‘llab-quvvatlagan holda, nutqiy aktning

1 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент. 2008. Б.79

diskursni (muloqot matni) tarkib toptiruvchi, tuzuvchi emas, balki uni qismlarga ajratuvchi hodisa deb talqin qilinishiga e'tiroz bildirib, "lisoniy hodisalar talqinida ularning yaratuvchanlik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratmoq darkor. Nutqiy akt ham bundan mustasno emas, u ham matn tuzish, murakkab muloqot birligi bo'lmish diskursni tarkib toptirish vazifalarini bajaradi. Nutqiy aktning bu turdagi vazifalarini aniqlash uchun intensiya tahliliga, ya'ni nutqiy harakat maqsadini aniqlashga yo'naltirilgan tahlilga murojaat qilmoq kerak", – deydi Sh.Safarov[1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Nutqiy faoliyat mavjud sharoit yoki shartlarga qarab o'z maqsadiga erishishi, muvaffaqiyatli bo'lishi yoki erisha olmasligi ham mumkin. Muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nutq akti maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Aks holda, ma'ruzachi kommunikativ qobiliyatsiz sifatida muvaffaqiyatsizlikka duch keladi.

M.Qurbonova ham nutqiy aktning pragmalingvistikada tutgan o'rni, uning tadqiqi, asosiy masalalari, tasnifi to'g'risida qimmatli fikrlar bildirish bilan birga bolalar nutqiy faoliyatida nutqiy akt turlaridan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Olimaning fikricha, muloqot jarayonida nutqiy aktning qaysi turidan foydalanish so'zlovchining kommunikativ maqsadiga bog'liq bo'lsa-da, insonning psixologik-emotsional holati, gender xususiyati, yoshi kabilar ham nutqiy akt turining tanlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning muloqot jarayonida qanday nutqiy akt turini tanlashi ularning psixologik holati, ayniqsa, yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshadi[2].

Shuningdek, N.Ahmedova ham bolalar nutqida so'roq akti orqali yuzaga keladigan matnlarga xos jihatlarni o'rganib, uning yuzaga kelish omillarini tasniflab o'rganadi[3].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida o'rganilgan ilmiy manbalarda, asosan, nutqiy aktning uch bosqichli faoliyat: *lokutiv, illokutiv* va *perlokutiv* harakatlari bajarilishi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, biz ham quyida bolalar kvazidialogik nutqida shu uch nutqiy harakatning namoyon bo'lishini tahlilga tortamiz.

Ma'lumki, kvazidialogik nutqdagi har bir replika shakl va mazmunga ega. Shakliy tomoni uning fonetik, morfologik va sintaktik tuzilishidir. Mazmuniy tomoni ikki: propozitsional va illokutiv jihatni o'z ichiga oladi. Nutqning illokutiv vazifasi ma'lum bir nutq aktiga (tasdiq, so'roq, rag'bat, iltimos va bosh.) muvofiq keladi.

Kvazidialogik nutq jarayoni bolalar tomonidan sahnalashtirib ijro etilishi va bunday o'yin vaziyatida vujudga kelgan nutq aktlarning yuzaga kelishida o'ziga xos bosqichlar amalga oshiriladi.

Jumladan, kvazidialogik nutqdagi har bir gap, boshqa gaplar kabi lokutiv akt harakatiga ega. Chunki lokutiv akt bu gapning talaffuzi, aytilishi, ya'ni so'zlash aktidir. Bolalar kvazidialogik nutqida ham lokutiv akt va uning ichki belgilari (fonetik, fatik, retik) ifodasini kuzatish mumkin. Masalan: Dilshod, 8 yosh. O'yinchoqlarni yig'ib ixtiro qilmoqchi bo'ladi:

Mashinani olamiz va yangi moslama o'rnatib, yorug'lik tezligiga chiqaramiz. Bu mashina ilg'or mashina bo'lishi kerak, to'g'rimi?

To'g'ri.

Qani, buuuffff.

Eh, o'xshamadiku, boshqatdan qilamiz. // Qani? Kim yangi moslama o'rnatib, yorug'lik tezligiga chiqaradi?

Ushbu kvazidialogik nutqda bola gaplarni til me'yorlariga rioya qilgan holda talaffuz etib, lokutiv aktni yuzaga chiqaradi. E'tiborli jihati shundaki, bolalar nutqida fonetik aktning to'liq amal qilishi uning yoshiga ham bog'liq. Ba'zan kichik yoshdagi bolalarda talaffuz me'yorlarining buzilganligini ham kuzatish mumkin. Bizningcha, agar bolalarda talaffuz me'yorlari buzilishi kuzatilsa-da, uning fikrlari atrofdagilar uchun tushunarli bo'lsa, ya'ni adresant sifatida bola o'z fikrini yetkaza olsa, lokutiv akt amal qiladi. Chunki kichik yoshdagi bolalarda ayrim sabablarga ko'ra talaffuz me'yorlarining buzilishi tabiiy holat. Masalan: Habiba, 4 yosh. Qo'g'irchog'ini allalab uxlatadi. – *Allloo-la, uxab tosin, shiyinim. Tatta tizim allaayoyoyo. Uxa, dedim, ana bappa telyapti. Tet bapa, tet.*

Ushbu kvazidialogik nutqdan ma'lumki, qizaloqda tovush tushirilishi, tovush almashishi ***ux**l**a**b//uxab, **qo**l**s**in//**to**s**i**n, sh**i**r**i**nim//sh**i**y**i**nim, **k**atta//**t**atta, **q**izim//**t**izim, **k**et//**t**et* kabi talaffuz me'yorlari buzilishi kuzatiladi. Bolaning yoshini inobatga oladigan bo'lsak, buni o'tkinchi holat sifatida qabul qilish mumkin.

Maqsad va unga erishish turli nutqiy harakatlarga mos keladigan replikalarda ifodalanganligi sababli kvazidialogik nutqda ham illokutiv akt replikalar orqali ifodalanadi. Masalan: Bunyod, 8 yosh. "Mol doktori" sahnalashtirilgan kvazidialogini ijro etadi. Kvazisherik — o'yinchoqlar:

Kettim, xamsiyani qo'zichog'i kasal ekan shuni davolashga. Bular ham moliga hech yaxshi qaramas ekan-da. Men kelguncha tinchgina o'tiringlar, beboshlik qilmay. Shunday deb qatorlashtirib terilgan o'yinchoqlarini bir-bir yana to'g'rilab qo'yadi.

O'rgimchak-odamni yuqorilab uchirib: *Siz*

1 Вендлер З. Иллокутивное самоубийство // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. Вып. XVI. – 233–250 с. Серль Дж. Классификация иллокутивныхактов // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. – М., 1986. Вып. XVII. – 170–194 с.; Серль, Дж. Р. Косвенные речевые акты// Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М.: Прогресс, 1986. 195–222 с.

2 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент. 2008. Б. 80.

3 Қурбонова М. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик аспекти. – Тошкент: Адабиёт учқунлари нашриёти, 2018. 160 б.;

keginizcha orilarni qo‘rib turay, iltimos, zerikdim,-deydi.

Yaxshi, ehtiyot bo‘l, faqat. Chaqib olmasin. Men darrov qaytaman. Hamsiya! Hamsiya-yuyuyu! Hormang! Mana men keldim. Qo‘zichani ayag‘iga nima bo‘ldi? // taxtakach bilan bog‘laymiz, kel o‘zimga qoravoyim. Onangni aytganini qimay, ko‘p dirkillagansan-da.

– Kechiring, boshqa sakramayman.

Bo‘ldi, ayag‘ing yaxshi bo‘sa boqamiz, yangi yil bayramiga.... Yo‘g‘yeye xafa bo‘lma, hazillashdim. Seni hech kimga xafa qildirib qo‘ymayman.

Mazkur o‘yin jarayonida bolaning istak va maqsadlari turli xil illokutiv aktlar orqali yuzaga chiqadi. Masalan: “*Kettim, xamsiyani qo‘zichog‘i kasal ekan”, “Mana men keldim”, “Zerikdim”* kabi gaplarda tasdiq-xabar akti, *“Men kelguncha tinchgina o‘tiringlar, beboshlik qilmay”,“Ehtiyot bo‘l, faqat”, Chaqib olmasin”, “Men darrov qaytaman”, “Onangni aytganini qimay, ko‘p dirkillagansan-da”* kabi gaplarda ogohlantirish, *“Siz keginizcha orilarni qo‘rib turay, iltimos”* gapida iltimos, *“Qo‘zichani ayag‘iga nima bo‘ldi?”* gapida so‘roq, “Kechiring, boshqa sakramayman*”* gapida kechirim, *“Bo‘ldi, ayag‘ing yaxshi bo‘sa boqamiz, yangi yil bayramiga”* gapida istak, *“Seni hech kimga xafa qildirib qo‘ymayman”* gapida va’da nutqiy akti ifodalangan.

Bolalar kvazidialogik nutqining kattalar dialogik nutqidan farqli jihati shundaki, bunda bolalar kattalarga ochiq-oydin aytolmagan istak va xohishlari, maqsadlarini kvazidialogik nutq orqali aytishga harakat qiladi. Masalan: Habiba, 7 yosh. Kvazisherik – qo‘g‘irchoq. “Ona va qizaloq suhbati” sahnalashtirilgan kvazidialogi.

– Endi sen uxla, ustingni yopamiz, - deydi onalarcha mehribonlik qilib, qo‘g‘irchog‘ining ustini mato bilan yopadi.

– Uxlamay, ayajon. Hali vaqtli-ku!

– Ertaga barvaqt turishing kerak. Maktabga kech qolasan bo‘lmasa.

– Ayajon, bir kungina darsdan qolay, iltimos.

– Iye, ikkichi bo‘lib qolasan-da, qizim.

– Mayli. Fotimayam 2 kun kelmadi-ku. Ustoz, baribir besh qo‘ydi. Menam bir kun qolay.

– Xo‘p. Bir kungina qola qol. Ustozingga qizim kasal bo‘lib qoldi, deb aytib qo‘yaman.

– Urrreyeye!!! Multik ko‘raman, kompyuter o‘ynayman! - qo‘g‘irchog‘ini dikonglatib o‘ynatadi.

Ushbu kvazidialogik nutqda iltimos, tasdiq, istak kabi illokutiv aktlar mavjud bo‘lsa-da, bolaning mazkur kvazidialogni sahnalashtirishdan yagona maqsadi maktabga bormaslik istagini ifodalash. Bu jarayonda istak illokutiv aktini bola kichik sahnalashtirilgan o‘yin orqali qo‘g‘irchoq tilidan onasiga yetkazishga harakat qiladi.

Ko‘rinadiki, ko‘p hollarda bolalar kvazidialogik nutqida umumiy illokutiv akt yashiringan bo‘ladi. Bola kattalarga ochiq aytolmagan fikrini kvazidialogni sahnalashtirish orqali yuzaga chiqaradi. Bolalar kvazidialogik nutqi bolaning bor hissiyotlarini, istaklarini erkin ko‘rsatib beruvchi jarayon bo‘lib, kattalarning odatiy nutqiy faoliyatidan farqlanadi. Kvazidialogning yuzaga chiqishi ma’lum vaziyat va muhitga bog‘liq bo‘lganligi sababli, bola bunday vaziyatlarda erkin, xayoliy suhbatdoshlar uchun ochiq bo‘ladi, o‘zining til imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanadi. Negaki, uning nutqini to‘g‘rilovchi, munosabat bildiruvchi jonli muloqot hamkori bo‘lmaydi. U o‘zining sevimli o‘yinchoqlari bilan kattalardan ko‘ra yaqin va erkin munosabatda bo‘ladi. Bolalar kvazidialogik nutqi bolaning beg‘uborligini aks ettiruvchi jarayon bo‘lganligi bois ham, bu nutqda maslahat, kinoyaviy tasdiq, ogohlantirish, va’da aktlari kam uchraydi. Aytish mumkinki, bolalar kvazidialogik nutqi yagona subyekt tomonidan boshqarilgani uchun nutq replikasi orqali ifodalangan illokutiv aktning amalga oshishi yoki tasdiqlanishi javob replikasida oson kechadi.

Iltimos (yoki buyruq) va unga munosabat. Ushbu muloqotda iltimos va buyruq aktlari nutqiy faoliyatni kim boshqarayotganligiga va kimning foydasiga hal bo‘lishiga qarab farqlanadi. Agar boshqaruv so‘zlovchida bo‘lsa, nutq akti buyruq shaklida bo‘ladi va uning javobi ham uning foydasiga muvofiq shakllanadi. Agar boshqaruv tinglovchida bo‘lsa, nutqiy akt iltimos (ba’zan yalinish) shaklini oladi va baribir faoliyat so‘zlovchi foydasiga hal bo‘ladi. Har ikki holat ham umumiy illokutiv yo‘nalish: tinglovchini muayyan harakatni bajarishga undash maqsadi asosida birlashadi.

Masalan: *– Qani, tez-tez ovqatlaringni yeb olinglar! Kim immillab, yemasa, jazolayman! // – Bog‘cha opa, Feruz ovqatini yemayapti. // – Qani Feruz, iye, nimaga ovqatingni yemading? Bor ugolga tur!*

Bu kvazidialogik nutqda tarbiyachi va bolalar muloqoti sahnalashtirilgan bo‘lib, muloqot boshqaruvi tarbiyachi tomonda. U bolaning javob replikasini o‘zining Kim immillab, yemasa, jazolayman! hukm aktiga nisbatan shakllantirgan, ya’ni vaziyatni o‘z foydasiga muvofiqlashtiradi.

Yoki: *– Ayajon, do‘kondan muzqaymoq olib bering, iltimos! // – Yo‘q! – Yemaysan! Tomog‘ing og‘riydi.// – Bir martagina, iltimos. Og‘zimda isitib, kam-kam yeyman. Xo‘p deng, iltimos, ayajon! // – Qo‘ymading, qo‘ymading-da! Faqat bir marta. Boshqa muzqaymoq demaysan!// – Xo‘p, ayajon, xo‘p!*

Mazkur sahnalashtirilgan kvazidialogik nutqda asosiy boshqaruv “ona” tomonda. Bola buni anglagan holda onaning nutqida buyruq aktini, o‘z nutqida esa iltimos, yalinish aktlarini qo‘llaydi. Shunday bo‘lsa-da, ushbu sahnalashtirilgan kvazidialogning muallifi o‘zi ekanligidan foydalanib, vaziyatni o‘z foydasiga yo‘naltiradi.

Bolalar kvazidilogik nutqida illokutiv aktning xabar, tasdiq, talab, undash, kechirim, istak, rad etish, taklif aktlari kabi turli ko‘rinishlari uchraydi. Ularning har biri o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi

nazardan aytish mumkinki, bolalar kvazidialogida nutqiy akt ifodasi maxsus o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Bolalar kvazidialogida lokutiv, illokutiv akt bilan birga perlokutiv akt ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, Hanifa 7 yarim yosh. “Ikki o‘rtoq suhbati” kvazidialogik nutqi. Qo‘g‘irchoqlarini o‘zaro suhbatga kirishtiradi.

– Hanifa, tug‘ilgan kuningga mehmonga chaqirasanmi?

– Ha, onam, ruxsat bersalar, chaqiraman. Kelasanmi? Nima olib kelasan?

– Bilmasam. Koptogimni beraymi?

– Hoo-oo u eski-ku.

– Unda kitob olib boraman. Ertak kitob.

– Mayli. Dadam bilan ayam menga rolik olib bersaydi. Mazza qilib uchardim, – shunday deb ayasiga qarab qo‘yadi. Ayasi esa jilmayib qo‘yadi.

Mazkur kvazidialogik nutqda qizaloq o‘yinchoqlari orqali o‘zi va o‘rtog‘ining suhbatini sahnalashtiradi. Shuningdek, o‘yin maydoniga yaqin joyda onasi borligini ham unutmaydi va o‘z xohishini qo‘g‘irchoqlari orqali aytadi. Bu o‘rinda kvazidialogik nutqning ishtirokchisi bo‘lmagan ona tinglovchi vaziyatida. U suhbatning mazmunidan farzandining istagini tinglaydi va jilmayish orqali munosabat bildiradi.

O‘ktam, 7 yosh. “Gai-gai” kvazidialogik nutqini sahnalashtiradi.

Vaamm. Qiyqqq. Eeee. To‘xtatolmay qoldik.

O‘rtoq haydovchi, nega qizil chiroqda o‘tib ketdingiz?

Kechiring. Mashinamni tormozi ishlamay qoldi. Ozgina eskirgan.

Ustaga ko‘rsating yoki yangilang!

Haa. Akram zo‘r, katta mashina olibdi. Menga juda yoqdi.

Boshqa qoidani buzmang.

Xo‘p. Rahmat. Vaammm. Mana keldik uyga.

Ushbu kvazidialogik nutqda bola yangi mashina olish istagi borligini ochiq bayon etmaydi, *“Akram zo‘r, katta mashina olibdi. Menga juda yoqdi”* gapi orqali yashirin tarzda ifodalaydi. Mazkur gap zamirida *“Men ham shunday yangi mashina olsaydim”* istak mazmunidagi axborot yashirin ifodalangan. Shaklan xabar, mazmunan yashirin-istakni ifodalovchi bu gap kuzatuvchi-tinglovchi vaziyatidagi ota-onani befarq qoldirmaydi, albatta.

Bunday sahnalashtirilgan kvazidialogik nutq 7-10 yoshli bolalarda hamda ota-onasi bilan muloqotga kirishishga tortinadigan bolalarda ko‘proq uchradi. Bizningcha, 7-10 yoshdagi bolalar anchagina ulg‘aygan bo‘ladi va ota-onalarga bilvosita ta’sir o‘tkazish usullaridan foydalanishadi. Tortinchoq bolalar esa jonli shaxs qarshisida emas, jonsiz o‘yinchoqlar qarshisida o‘zlarini erkinroq his qilishadi va ota-onasiga ochiq aytolmagan fikrini shu tarzda yetkazishga harakat qilishadi. Nutqiy aktning bunday bilvosita yetkazilishi uning ta’sir kuchini oshiradi, chunki, ota-onada bolaning ichki istagini amalga oshirish niyati kuchliroq bo‘ladi. Ayniqsa, tortinchoq bolalar ota-onalariga ko‘p talab qo‘yishmagani sababli, ularning ehtiyojini qondirish ota-ona uchun zavq beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Ko‘rinadiki, bolalar kvazidialogik nutqida nutqiy aktning lokutiv, illokutiv, perlokutiv ko‘rinishlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu esa bolalar nutqini lingvopragmatik jihatdan o‘rganish ontolingvistikani qiziqarli va yangi nazariy ma’lumotlar bilan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмедова Н. Образли тафаккур ва ўзбек болалар нутқи. Филол.фан.б.фалс.док. …дисс. – Тошкент, 2021. 135- б.

2. Вендлер З. Иллокутивное самоубийство // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. Вып. XVI. – 233–250 с.

3. Давлатова Р.Ҳ. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2020. 208- б.

4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент. 2008. – Б.79-80

5. Серль Дж. Классификация иллокутивныхактов // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. – М., 1986. Вып. XVII. – 170–194 с.;

6. Серль Дж. Р. Косвенные речевые акты// Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М.: Прогресс, 1986. – 195–222 с.

7. Қурбонова М. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик аспекти. – Тошкент: Адабиёт учқунлари нашриёти, 2018. 160 - б.;

8. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2011. 283- б.

9. Musayeva N. Bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari. Filol.fan.b.fals.dok. …diss. – Qarshi, 2024. 130- b.

10. Musaeva N. Reflection of the Social Environment in Children’s Quasidiological Speech. // “International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis” In Volume 04 Issue 11 November 2021.

11. Musaeva N. SPEECH ACT EXPRESSION IN CHILDREN’S QUASIDIALOGUE // В МЕЖДУРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ НАУК (Т. 2, Выпуск 10, сс. 80–85). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10065357

12. http://www.mirrabot.com/work/work_37262.html

Nargiza AHMEDOVA,
Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

O‘ZBEK TILIDA ASSOTSIATIV MAYDON BIRLIKLARI TAVSIFI

Annotatsiya: assotsiativ tahlil asosida muayyan til egalarining voqelikni idrok etishi, kognitiv bilimi, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklari zaxirasi o‘rganiladi. Ushbu maqolada assotsiativ maydonning o‘zbek tilidagi tavsifi, unga oid ilmiy qarashlar, maydonning markaziy va chegara birliklari o‘rtasidagi munosabat, maydonning leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari, assotsiativ birliklar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *assotsiativ tilshunoslik, assotsiativ tajriba, assotsiativ birliklar, assotsiativ maydon, assotsiativ munosabat, turtki so‘z*.

Annotation: on the basis of associative analysis, the perception of reality, cognitive knowledge, linguistic ability, linguistic memory, and reserve of lexical units of the speakers of a certain language are studied. This article the description of the associative space in the Uzbek language, scientific views on it, the relationship between the central and peripheral units of the space, lexical, semantic and syntactic features of the field, and associative units are studied.

Key words: *associative linguistics, associative experience, associative units, associative space, associative relation, stimulus word*.

Аннотация: на основе ассоциативного анализа изучаются восприятие действительности, когнитивные знания, языковые способности, языковая память, резерв лексических единиц носителей определенного языка. В данной статье изучены описание ассоциативного поля в узбекском языке, научные взгляды на него, соотношение между центральными и периферийными единицами поля, лексические, семантические и синтаксические особенности поля, а также ассоциативные единицы.

Ключевые слова: *ассоциативная лингвистика, ассоциативный опыт, ассоциативные единицы, ассоциативное поле, ассоциативное отношение, слово-стимул.*

Assotsiatsiya tamoyili barcha psixik jarayonlar, jumladan, psixik faoliyat oliy shakllarining universaliyasi hisoblanadi. Bunda assotsiatsiya (lotincha *association* – bog‘lanish) termini ostida ikki va undan ortiq refleks holda namoyon bo‘ladigan psixik hodisalarning (his etish, idrok etish, tasavvur, fikr, obraz va shu kabilar) o‘rtasidagi aloqa tushuniladi; assotsiatsiya bir a’zoning ma’lum sharoitda aktuallashuvi orqasidan boshqasining namoyon bo‘lishiga olib keladi. Tilshunoslikda ham assotsiatsiya natijasida bir birlik ikkinchisini eslatadi, ya’ni til birliklari o‘zaro assotsiativ munosabatga kirishadi. Assotsiativ tilshunoslik asoslarini monografik planda o‘rgangan tilshunos olima D.Lutfullayevaning keltirishicha, “lingvistik assotsiatsiya psixologik assotsiatsiyadan tubdan farq qiladi. Lingvistik assotsiatsiyada tilda aniq verbal ifodasiga ega bo‘lgan va bir-birini yodga solib turuvchi ikki va undan ortiq voqelik, narsa-predmet, belgi, harakat-holat va hokazolar aloqasi aks etsa; psixologik assotsiatsiya inson ongida yuzaga kelgan bir-birini kuzatib yuruvchi psixik elementlar (g‘oyalar, fikrlar, tasavvurlar, his-tuyg‘u va boshqalar) munosabatini ifoda etadi”. [1, 24]

Hozirgi kunda tilshunoslikning yangi sohasi bo‘lgan assotsiativ tilshunoslik tilshunoslarni qiziqtirayotgan yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ma’lumki, tilshunoslikning bu sohasi assotsiativ tajriba natijalariga asoslangan holda ish olib boradi. Assotsiativ tajriba til egalari ishtirokida o‘tkaziladi. Adabiyotlarda ta’kidlanganidek, “assotsiativ tajriba metodi tildagi leksik birliklarning semantik aloqasi, assotsiativ bog‘lanishi va birgalikda nutqiy tuzilmalar hosil qilishi, ularning ijtimoiy, madaniylik, gender xususiyatlari kabi muammolarni shaxs omili bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi metod sifatida amaliy ahamiyatga ega”. [1,92]

Turtki so‘zga mazmuniy, ba’zan shakliy aloqadorligi mavjud bo‘lgan so‘zlar guruhi *assotsiativ maydon* deb yuritiladi. Bunday maydon inson ongidagi tasavvurlar va ular bilan bog‘liq tushunchalar, tilning turli birliklari asosida yuzaga keladi.

Rus tilshunosi Y.N.Karaulov assotsiativ maydonga insonning nafaqat verbal xotirasi, bilimlari, balki tildagi semantik va grammatik munosabatlar, shuningdek, ongdagi obrazlar, motivlar va u yoki bu madaniyat vakillari bahosining yig‘indisidir, deb ta’rif beradi. [8]

Tadqiqotchi V.P.Abramov assotsiativ maydonni bir butun mazmuniy aloqalarining murakkab to‘ri individum ongida aks etishini, ma’lum mazmuniy maydonlarning aktuallashtirilishini hamda so‘zni psixologik tizimning muhim aspekti sifatida ifodalaydi. [9]

O‘zbek tilshunosligida assotsiativ tilshunoslik, assotsiativ maydon masalasiga oid fikrlar tilshunos olim D.Lutfullayeva, N.Hoshimova, B.Tojiboyev, H.Ortiqovalarning ishlarida mavjud. Til birliklarining assotsiativ aloqasi, tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi monografik aspektda D.E.Lutfullayeva tomonidan maxsus o‘rganilgan [1] bo‘lsa, B.Tojiboyev

o‘zbek tili milliy-madaniy birliklarining assotsiativ xususiyatlarini tadqiq qilgan. [2]

Tilshunoslar tilda assotsiatsiyalarning yuzaga kelishiga turli omillar: turtki so‘zning belgi-xususiyatlari bilan bog‘liq lisoniy hamda assotsiativ tajribada ishtirok etuvchi shaxs bilan bog‘liq omil, pragmatik omil ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tishadi. [7] Tilshunos D.Lutfullayeva esa bu omillarni lingvistik va ekstralingvistik omillar tarzida ajratadi.

Haqiqatan ham, assotsiativ tajriba natijalari yuqoridagi omillar bilan bog‘liq holda bir-biridan farq qilishi mumkin. O‘zbek tili materiallari asosida “O‘zbek tilining assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar)” D.Lutfullayeva, R.Davlatova, B.Tojiboyevlar tomonidan yaratilgan. Lug‘atda *ro‘mol* turtki so‘ziga berilgan javob reaksiyalarining ayrimlari biz o‘tkazgan tajriba natijalari bilan mos kelmaganini, farq qilganini kuzatish mumkin. Assotsiativ tajriba 17-35 yoshdagi ayol-qizlar orasida o‘tkazildi. Assotsiativ lug‘atda keltirilmagan *muslima, diniy bilimi bor qiz-ayollar, avrat joy – bosh, sochni bekitishga yordam beradigan kiyim turi, 10-12 yoshdan o‘rash majburiy bo‘lgan bosh kiyim, hijobning bitta qismi, doimo hamma joyda o‘raladigan bosh kiyim*, *namoz o‘qiganda boshda bo‘lishi shart* kabi javob reaksiyalari ham berilganini ko‘rish mumkin. Bu tajriba ishtirokchilarining hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, diniy bilimlari, nasl-nasabi, kasb-kori, mansab-unvoni kabi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bundan tashqari, assotsiativ tajriba o‘tkazilayotgan davr va jamiyat ham bu maydon birliklariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ma’lumki, “assotsiativ maydon stimul so‘zning lug‘aviy ma’nosi, lug‘atlarda aks etmagan ayrim konnotativ, uslubiy, pragmatik, dialektal ma’nolari, nutqiy qo‘llanishdagi xususiyatlari, ko‘chma ma’nolarini aniqlashga imkon beradi” [1, 63]

Lug‘atdan joy olgan ayrim javob reaksiyalari esa yangi tajriba natijalarida umuman keltirilmagan. Masalan, *“Aza ma’rakalarida ro‘mol doim boshda bo‘ladi”, “Azada o‘raladi”, “Azalarda ayollar oq rangli ro‘mol bog‘lashadi”, azali ayollar, “Ba’zi joylarda oq va qora rangli ro‘mollar azadorlik belgisi sanaladi”, “Bizda ko‘proq kelinlar o‘rashadi”, “Hozirgi kelinlar o‘ramaydigan bo‘lib qolishgan”, “Ko‘proq qishloq joylarda ayollar o‘rab yuradilar”, “Ko‘proq qishloqlarda o‘rashadi”, milliy kiyim, milliylikning belgisi, momolar, musulmon ayollar, musulmonlikning belgisi “Ro‘mollar o‘zbek ayollarining milliyligini ko‘rsatadi”, “Turmush qurgan ayollar o‘rab yurishadi”, “Turmushga chiqqan ayol ro‘mol o‘rab yuradi”* kabi. *“Aza ma’rakalarida ro‘mol doim boshda bo‘ladi”, azali ayollar* kabi assotsiatlar hozir ham ayrim guruhlar uchun turtki so‘zga javob reaksiyasi tarzida berilishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ushbu javoblar individual xarakterga egaligi bilan farqlanib turadi. Maydondagi “*Ko‘proq qishloq joylarda ayollar o‘rab yuradilar”, “Ko‘proq qishloqlarda o‘rashadi”* degan javob reaksiyalari bu tajriba materiallarida umuman uchramadi, sababi hozirda shahar joylarida ham diniy urf-odatlarga amal qilgan holda ro‘mol o‘raydigan ayollar ko‘paygani sababli ham bunday javob varianti uchramadi. *“Turmush qurgan ayollar o‘rab yurishadi”, “Turmushga chiqqan ayol ro‘mol o‘rab yuradi”* kabi javob variantlari ham yuqoridagi omil sababli o‘z-o‘zidan bu tajribada uchramasligi ko‘rinib turibdi. Tilshunos D.Hasanova o‘zining “O‘zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari” mavzusidagi dissertatsiyasida leksemalarning yoshga ko‘ra xoslanishini aniqlab *ro‘mol* so‘zi o‘rta yosh va qarilikka xos belgini o‘zida aks ettiradi, deb izohlaydi [4,36]. Ammo ro‘mol leksemasi milliy-madaniy birlik sifatida o‘rta yosh va qarilik belgisini aks ettirishi mumkin bo‘lsa-da, diniy bilimga egalik belgisiga ko‘ra faqat o‘rta yosh va qarilik emas, balki yoshlik, o‘smirlik belgilarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbek tilida verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishida ishtirok etadigan ekstralingvistik omillardan biri tajriba qatnashuvchilarining voqelikka munosabati, istak-xohishiga asoslanishi hisoblanadi. Bu maydonda ham “*barcha qiz-ayollar ro‘mol o‘rashi kerak”, “ro‘mol o‘ragan qizlar muslima sanaladi*”, *“qora ro‘mol o‘rash ko‘p holda ta’qiqlanadi”, “o‘ramaganlar gunoh qilgan bo‘ladi”, “eng yaxshi sovg‘a”* kabi assotsiatlar aynan shu omil asosida yuzaga kelgan. Ayrim assotsiatlar tajriba ishtirokchisining mutaxassisligi bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin, ya’ni individual xarakterga ega: *“ro‘mol qadimda o‘ramol tarzida aytilgan”, “tovush o‘zgarishi hodisasi bo‘lgan”.* Y.N.Karaulovning fikricha, assotsiatsiyalarda sinaluvchilar ongida shakllangan olam manzarasi o‘z aksini topadi. [1,89]

Yuqoridagi tahlillardan ma’lumki, ro‘mol so‘zi til vakillariga turtki so‘z sifatida berilganda, bu so‘z bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar, balki sintaktik birliklar ham eslangan va maydondan o‘rin olgan. Maydonda nafaqat ma’no jihatdan, balki shakl jihatdan bir-birini taqozo qilgan so‘zlar ham o‘rin olgan bo‘lib, maydonning markaz qismida aynan ma’no jihatdan o‘rin olgan antonim va sinonim so‘zlar joylashganini kuzatish mumkin.

Assotsiativ maydon turtki so‘zning mazmunini ochib beruvchi butunlik bo‘lib, unda turtki so‘z bilan mazmun jihatdan o‘zaro bog‘langan, ba’zan esa mazmun jihatdan turtki so‘zga aloqador bo‘lmagan birliklar ham o‘rin oladi. Assotsiativ maydon birliklari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq tasavvurlari, bilimi, qiziqishlarini ifodalaydi. Demak, turtki so‘z asosida aniqlangan assotsiativ maydonda maydonga mansub birliklar sinonimik, antonimik, enantiosemik va antisemik munosabatga kirishadi va maydonning markaz qismidan o‘rin oladi. Til egalari aynan mana shu bog‘liqlik asosida so‘zlarni xotirada eslab qoladi va mazmunini anglaydi. Assotsiativ maydon turtki so‘zning lisoniy kontekstini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.
2. Тожибоев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. автореферати. – Тошкент, 2020.
3. Лутфуллаева Д., Давлатова Р., Тожибоев Б. Ўзбек тили ассоциатив луғати. – Ташкент, 2019.
4. Hasanova D. O‘zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari. Filol.fan.dok.diss. – Qo‘qon, 2022.
5. Хошимова Н. *Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. фан. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018.*
6. Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент, 2022.
7. **Кузнецова** Л.Э. ЛЮБОВЬ как лингвокультурный эмоциональный концепт: ассоциативный и гендерный аспекты: Дис. … канд. филол. нук. – Краснодар, 2005.
8. *Караулов, Ю.Н.* Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС. 2010.
9. Абрамов, В.П. Теория ассоциативного поля // Лексикология, фразеология и лексикография русского языка: https://studfile.net/preview/4513363/



Nilufar MUMINOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti dotsenti
nlu78036@gmail.com

“TEMURNOMA” ASARIDAGI ANTROPONIMIK BIRLIKLAR

Annotatsiya: maqolada Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asaridagi ba’zi bir antroponimik birliklar xususida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *antroponim, antroponimik birliklar, ism, kishi atoqli otlari, nom, nomshunoslik.*

Annotation: the article focuses on some anthroponymic units in the work “Temurnoma” by SalahiddinTashkandi.

Key words: *anthroponym, anthroponymic units, name, proper nouns, name, nomenclature.*

Аннотация: статья посвящена некоторым антропонимическим едини-цам в произведении СалахиддинаТашканди “Темурнома”.

Ключевые слова: *антропоним, антропонимические единицы, имя, имена собственные, имя, номенклатура.*

Temuriylar davri tarixiga bag‘ishlangan “Temurnoma” asaridagi antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni, ularning tasnifi, leksik-semantik xususiyatlarini til ilmi nuqtayi nazaridan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy-badiiy matnda har qanday birlik ahamiyatli, ularning barchasi ham obyektiv mazmun, ham badiiy mazmunning ifodalanishida u yoki bu tarzda ishtirok etadi. Bu o‘rinda antroponimlar doirasida o‘rganiluvchi ismlarning tarixiy asar matnidagi o‘rni va yuzaga chiqadigan ma’nosi bilan bog‘liq masalaga bir qadar to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

O‘zbek ismlarining juda katta boyligini bir joyga to‘plab, ma’nosini izohlab berish orqali kelajak avlodga arzigulik ma’naviy meros qoldirgan E.Begmatovning bu borada quyidagi fikrlarini esga olish joiz: Ismlarning asosiy lisoniy-kommunikativ vazifasi har bir shaxsni yakkalab atash orqali uni boshqa shaxslardan farqlash, ajratishga xizmat qilishdan iborat. E’tibor berib qaralsa, hech bir ism shunchaki tanlanib bolaga qo‘yilmaydi. Har qanday ism berilishi zamirida ota-onalarning biror maqsad, orzu-umidlari, farzandining sog‘ligi, kelajagi, istiqbolini ko‘zlagan ezgu niyatlar yotadi. Mana shu niyatlar bolaga ism tanlash va berish uchun asos (motiv) vazifasini o‘taydi[1].

Darhaqiqat, “Temurnoma” asaridagi antroponimik birliklar temuriylar davri tilida so‘zlashgan xalqning milliy o‘zligi, tarixi, madaniyati, urf-odatlari bilan daxldor jihatlarni namoyon etuvchi birliklar hisoblanadi. Shu sababli bu kabi birliklarni tarixiy - badiiy asarlardan to‘plash va ilmiy jihatdan tahlil qilish til ilmidagi doimiy izlanishni talab qiluvchi masalalardandir.

Jumladan, “Temurnoma” asaridagi antroponimik birliklarning tasnifi va leksik-semantik jihatdan tahlil etish

muammosi bu boradagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytiradi.

Bunda antroponimik birliklarga badiiyatni ta’minlaydigan boshqa vositalar kabi alohida e’tibor qaratish, ularning tarixiy matndagi turli xususiyatlarini ochib berish tilshunosligimizdagi hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biridir. N.Husanovning fikricha, nomshunoslikda quyidagi usullarga asoslangan ilmiy tasniflar mavjud: nomlanuvchi obyektning tipi, uning qaysi tilga mansubligi, nomlarning xronologik, genetik xususiyati va boshqalar [2].

Bugungi mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligida temuriylar davri antroponimlari, xususan, temuriylar sulolasi, Amir Temur va uning avlod-u ajdodlari, davrdoshlari ismlarining majmuasi, ism qo‘yish odatlari, bunday ismlarning ma’nolari, leksik-semantik qatlamlari, nomlanish tamoyillarini lingvistik jihatdan tadqiq etish, o‘sha davr tili, tarixi, madaniyati, ma’naviyati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berishi, shubhasiz.

“Temurnoma”dagi antroponimik birliklar ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagicha tasnif qilindi:

1.Temuriylarning ismlari

Amir Temur ibn To‘rag‘ay [a.+o‘z.]–amir–hokim, hukmron, yo‘lboshchi; temir – temirdek mustahkam, mahkam, ya’ni balo-qazolarga bardoshli, umri uzoq bola. Ibn To‘rag‘ay – To‘rag‘ayning o‘g‘li demak.To‘liq ismi Temurbek ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barkul ibn Ilongiz Bahodir ibn Injil no‘yon ibn Qorajor no‘yon 1336-yili 9-aprelda Shahrisabz (Kesh) yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida Muhammad To‘rag‘aybek Bahodir xonadonida tavallud topgan. 1362-1364-yillarda Amir Temur mo‘g‘ullarga qarshi Amir Husayn bilan bir necha marta jang qilgan (STT-35).

Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”sida Amir Temur shaklida bitilgan. Temurbek, Temur leksemasi asarda ism sifatida uchramaydi. Sohibqiron ismining uch xil tarzda qayd qilinishi, nolisoniy omillar bilan bog‘liq. Lisoniy omil shuki, Temur leksemasi birlamchi, ism uchun asos bo‘lgan. Bek, amir leksemasi Temur ismiga turli ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy, ruhiy, etnologik omillar taqozosi sifatida qo‘shilgan.

Muhammad Jahongir Mirzo (1356-1376). Amir Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li. Jahongir asli forscha ism bo‘lib, “olamni fath etuvchi, muzaffar” ma’nosini anglatadi. Ism tarkibidagi Mirzo qismi esa amirning o‘g‘li, aslzodalarga mansublikni bildiradi. Haqiqiy musulmonlar kabi Amir Temur o‘zining katta o‘g‘liga Muhammad deb payg‘ambar ismini qo‘yadi. Shu yildan boshlab uning jangovar yurishlari boshlangani bois u Muhammad ismiga ikkinchi Jahongir nomini qo‘shadi.

Umarshayx Mirzo (1356-1394). Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li. “Temurnoma”da Umarshayx shaklida keltiriladi. Asli arabcha so‘z bo‘lib, “barhayot, ya’ni yashaydigan” ma’nosini anglatadi. Bu nom Umar ibn Hattobning ismi bo‘lib, choryorlar deb ataluvchi to‘rt xalifaning ikkinchisidir. U o‘g‘lining ismini Xalifa sharafiga Umar deb ataydi va ustozi Shayx Tayobodiyga chuqur hurmatining ramzi sifatida unga “shayx” so‘zini ilova qiladi.

Mironshoh Mirzo (1366-1408). Amir Temurning uchinchi o‘g‘li. Mironshoh[a.+f.] – amirlarning shohi, amirlarning sardori. Amir Temurning Menglibek og‘o Jonqurboniy qizidan 1366-yilda tug‘ilgan farzandi. 1380-yilda Sohibqiron o‘n to‘rt yoshga kirgan mirzoni ellik qo‘shun bilan Xuroson viloyati hukmdori etib belgilagan (STT-165).

Mirzo Ulug‘bek [o‘z.] – ulg‘ayib o‘qimishli, savodxon yigit bo‘lsin; buyuk hukmron, buyuk sulton yoki beklarning eng ulug‘i, sardori. Shoxruh mirzoning farzandi. Asl ismi Muhammad Tarag‘ay milodiy 1394-yil 22-martda Sultoniya shahrida tavallud topgan. 1449-yili Abbos degan kishi tomonidan shahid qilingan (STT–305).

Muhammad Sulton [a.] – maqtovga, olqishlarga sazovor. Shoh, hukmdor, podshoh, ya’ni umri uzoq bo‘lib, baland martabalar egasi bo‘lsin. Jahongir mirzoning 1375-yilda xonzoda Sevinbeka begimdan tug‘ilgan farzandi. Taxt vorisi. O‘ta jasoratli, dovyurak, qat’iyatli, zukko, g‘animga nisbatan shafqatsiz jangchi bo‘lgan (STT– 154).

2.Mo‘g‘ul va turli hukmdorlarning ismlari

Abbosxon[a.+o‘z.] – qovog‘i soliq, badjahl, beshafqat yoki dovyurak, jango-var. Eroniylar shohi (STT–37).

Abdulazizxon [a.+o‘z.] – izzat va e’zoz sohibining, ya’ni Allohning quli; xo – podshoh, hukmdor, hokim, ya’ni ulg‘ayib ulug‘ martabalar sohibi, elboshi. Ubaydullaxonning o‘g‘li (STT –37).

Alibek [a.+o‘z.] –eng ulug‘, yuqori martabali. Valibekning akasi. Mashhadda og‘a - ini hokimlik qilgan (STT-185).

Bayon sulduz [o‘z.] – boy, badavlat, baxtli yoki nozik fikrli, nozik tabiatli. Termizdan Sharqroqda Amudaryoning ikki yoqasi bo‘ylab o‘rnashgan Turkiy Sulduz urug‘ining eng nufuzli rahnamosi. Abdulloh ibn Qazaxonga qarshi kurash boshlagan mo‘g‘ul amiri (STT – 74).

Davlatshoh[a.+f.] – boylik, davlat sohibi. Sevindur otasi. To‘xtamishxonning qaynotasi bo‘lgan (STT–167).

Hoji barlos [turk-o‘z.] – Kesh shahrining hokimi. Amir Temur amakisi bo‘lgan (STT – 99).

Xususan, “Temurnoma”da qo‘llanilgan mo‘g‘ul va turli hukmdorlarning nomlari katta miqdorni – 245 ta ismlar majmuidan iborat bo‘lib, 60 foizni tashkil etadi. “Temurnoma” asari tarixiy-badiiy asarlar sirasiga kirib, yurtimizning XIV–XV asr boshlaridagi buyuk sarkarda Amir Temur yurishlari bilan bog‘liq voqealarni o‘z ichiga oladi. Shubhasiz, bu tarixiy voqealarni tarixiy shaxslarsiz tasavvur etish mushkul. Shu jihatdan qaraganda, asar matnida Iskandar, Jamshid, Afrosiyob,

Rustam ibn Zol, Kaykovus, Dorod, Chingizxon, Yildirim Boyazid, To‘xtamishxon, Amir Temur, Qozag‘on shoh, Bayonqulixon, Shoh Mansur, To‘ktemurxon, Sulton Zaynobiddin, Sulton Muhammad, Baroqxon, Amir Choku, Muso Jaloyir, Bayon Sulduz, Yodgorshoh, Sayfiddin Shayx ul a’lam, Xoja Bahovuddin, Sadr ash-shariat, Shayx Shams Kulol, Shayx Hasan, Shayx Xudoyberdi va boshqa tarixiy nomlar uchraydi.

3.Amir Temur amirlari va safdoshlarining nomlari

Abbosxon[a.+o‘z.]–qovog‘i soliq, badjahl, beshafqat yoki dovyurak, jangovar.Amir Temurning ishonchli amirlaridan. Qipchoq urug‘i sardorlaridan. “Loy jangi”da matonat ko‘rsatgan (STT–268).

Abu Muslim qassob [a.]– islom diniga bo‘ysungan, musulmon; xudojo‘y. Amir Temurning tengqurlaridan biri bo‘lgan (STT 199–200).

Amir Husayn Jondariy [a.+f.] – hokim, hukmron, yo‘lboshchi yoki amr – hayot, tiriklik; egizaklarning kichigiga qo‘yiladigan ism; joni sog‘ bo‘lsin yoki jondor – bo‘ri. Amir Temur yurishlarida birga bo‘lgan amir (STT– 135).

Shoh Barlos [f.+o‘z.] – podshoh, sulton yoki Tangri, Alloh yoki eng yuksak, eng mo‘tabar; mard, botir; sarkarda. Barlos – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabila nomi. Amir Temur xizmatida bo‘lgan amirlardan biri (STT – 268).

4.Ijodkorlar va diniy ulamo, shayxlarning ismlari

Abdulrahmon O‘tro‘t [a.+o‘z] – o‘ta mehribon va mehrlining quli, ya’ni Allohning quli. Mulla bo‘lgan (STT–260).

Abu Lays Shayx [a.] – arslon, sher: kuchli, qudratli. O‘z davrining taniqli shayxi (STT– 170).

Abul Bashir [a.] – xushxabar keltiruvchi: baxt - saodat elchisi. Bashir – Muhammad (s.a.v) ning sifatidan biridir. Salmon va Mohyorning farzandi. Hazrat bo‘lgan (STT–261).

Allamoyi Taftazoniy[a.] –Amir Temur xizmatida bo‘lgan fuzalolardan (STT–269).

5. Xotin-qizlar ismlari

Dilshod xotun [o‘z.+f.] – quvnoq, baxtiyor, shodon yoki ko‘nglimizning quvonchi bo‘lgan farzand. Amir Husaynning xotini. 1370-yilda Amir Husayn qatlidan keyin Amir Temur ko‘rsatmasiga binoan Zindachashmga nikohlab beriladi (STT–50).

Yo‘qun begim [qad.yah.+o‘z.] – xonim, beka, oyim, ya’ni podshoh yoki bekning oilasi farzandi: malika, bekzoda. Amir Qozag‘onning qizi. To‘rag‘ay bahodirning birinchi xotini (STT–47).

Oychigil [o‘z.+ f.] – Qatag‘on xukmdori Berdibekning qizi (STT– 222).

Saroy Mulkxonim// Bibixonim [f.] – qasr, qo‘rg‘on, karvonlar manzili, umri saroydek to‘liq, obod bo‘lsin yoki saroy urug‘iga mansub bola. (Xonim, Amir Temur xotuni. Chig‘atoy ulusi hukmdori Qozonxonning qizi, 1341-yilda tavallud topgan. 1355-yilda balog‘atga yetgan Saroy Mulkxonim Amir Husayn nikohiga kiradi. 1370-yili Amir Husayn Balxda qatl etilgach, Amir Temur uni o‘z nikohiga oladi. Temurbek Saroy Mulkxonimga uylangach, “Ko‘ragon” (kuyov) unvoniga musharraf bo‘lgan. Saroy Mulkxonim xon qizi bo‘lganligi bois saroydagi barcha malikalardan ulug‘ sanalib, “katta, ulug‘ xonim (Bibixonim)” unvoniga ega bo‘lgan (STT – 76).

Sevarko‘z [o‘z.] – suyukli, yoqimtoy; qadrli bola. Qatag‘on elining boshlig‘i Ag‘albekning qizi bo‘lgan. Amir Temur boshini keltirgan yigitga turmushga chiqishini aytgan (STT– 254).

Tegina Begim Moh [o‘z.+f.] – malika, shoh avlodga mansub, aslzoda qiz; moh–oy, yog‘du, ravshan, oydek suluv. Buxoro fuzalolari rahnamosi – Sadr Ush-Shariatning qizi. Muhammad To‘rag‘aybekning zavjasi, Amir Temurning onasi (STT– 45).

O‘ljoy Turkon og‘o [o‘z.] – izlab topishga mohir; aqlli, o‘ta farosatli.Asl ismi Kamolxonim. Amir Temurning xotini, Amir Husaynning qizi (STT – 85).

Qisqasi,Temuriy shahzodalar ismi semantikasida shu ma’lum bo‘ldiki, ular ismi tarkibida, albatta, aslzoda, xon avlodi ekanliklarini ifodalovchi antroponimik indikatorlar mavjud. Biz buni faqatgina Temuriy shahzodalar emas, balki Temuriy malikalar ismlarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Temurning birinchi qizi Tog‘ayshoh begim bo‘lib, Tog‘ay so‘zi turkiycha so‘zlar sirasiga kiradi. Hammamizga ma’lumki, Tog‘ay ismi tog‘asining uyida tug‘ilgan chaqaloqlarga qo‘yiladi. Ism tarkibidagi “shoh” qismi bizga begona emas, lekin “begim” qismi ma’lum izoh talab qiladi. Bu so‘z ham sof turkiycha hisoblanadi. Uning xonim, beka, oyim kabi ko‘rinishlari ham mavjud bo‘lib, podshoh yoki bek avlodlari ismiga qo‘shiladi. Bu so‘zni Temurning ikkinchi qizi Sultonbaxt begim ismi tarkibida ham ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: Fan, 2014. 173- bet .

2.Husanov N. O‘zbek antroponimlari tarixi. – Toshkent: Fan, 2013

3.Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma (Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi). Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, lug‘at muallifi P.Ravshanov. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 1990. 349- bet.

Mehriniso RIZOYEVA,
dotsent,f.f.f.d. (PhD),
Navoiy davlat universiteti

MIFOLOGIK PERSONAJLARNING ZOOMORF SHAKLDAN ANTROPOMORF KO‘RINISHGA O‘TISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada mifologik homiy personajlarning zoomorf shakldan antropomorf ko‘rinishga o‘tishi xususida mulohaza yuritilgan.
Kalit so‘zlar: *marosim, ma’buda, diniy e’tiqod, sakral, mifologik tasavvur, urf-odat, kult.*
Аннотация: в данной статье рассматривается переход мифологических персонажей-покровителей от зооморфной формы к антропоморфной.
Ключевые слова: *ритуал, богиня, религиозная вера, сакральное мифологическое воображение, традиция, культ.*
Annotation: this article examines the transition of mythological patron figures from a zoomorphic form to an anthropomorphic one.
Key words: *ritual, goddess, religious belief, sacred mythological imagination, tradition, cult*

Voqelikni ongsiz his etish asosida qurilgan arxaik mifologiyada borliq olamdagi barcha narsa-hodisalar jonli mavjudot deb tasavvur qilinganligi sababli animatik va totemistik mifologiyada u yoki bu jonivor, o‘simlik, narsa-predmetning odamga aylanishi yoki aksincha holatning ro‘y berishi tabiiy jarayon, deb qaralgan. Qadimgi odamlar ayrim jonivorlarni o‘zlarining ajdodboshisi, ya’ni totemi deb tasavvur qilganligi sababli bunday jonzotlar haqidagi totemistik miflar hamda jonivorlar kulti kelib chiqqan. Bu esa, o‘z navbatida, arxaik mifologiyada jonivorlar obrazining “insonlashtirilgan”, ya’ni odamlar kabi gapirish, muloqot qilish xususiyatiga ega bo‘lgan mifik obraz tarzidagi talqinlari yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbek xalq mifologik afsonalarida tasvirlangan antropomorf (ya’ni inson ko‘rinishidagi) obrazlar salmoqli o‘rin tutadi. Bunday afsonalarda tasvirlangan antropomorf obrazlarning o‘zi ham bir necha tiplarga bo‘linadi:

1)yaratuvchi-qahramon, ya’ni demiurg sifatida tasvirlangan kosmogonik obrazlar (Qayumars, Gavomard, Odami Od, Olang‘asar, Hoji Mulk, Ho‘jimado‘liq, Avj ibn Unuq va h.k.);

2)muayyan sabablarga ko‘ra osmon jismiga aylangan astromifologik obrazlar (Zuhra, Qambar, Hulkar, oymoma kabi);

3)egizaklar kulti bilan bog‘liq tasavvurlar zamirida shakllangan dualistik obrazlar (Angur bilan Tangur, Hasan-Husan);

4)ota-bobolar ruhining madadiga ishonish an’anasi hamda ajdodlar kulti bilan aloqador mifologik tasavvurlarni o‘zida mujassamlashtirgan manistik obrazlar (Xizr, eranlar, chiltan, G‘oyib ota);

5)har bir kasb-hunarning o‘z piri mavjudligi to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘zida aks ettirgan homiy-obrazlar (onalar va yosh bolalarni himoya qiluvchi Umay ona, to‘quvchilar piri Bulqisarmast, yamoqchilar piri Boboyi Porado‘z, Bobo dehqon, Cho‘pon ota, chig‘irlar piri Noiloj bobo va Ali Chinor, qassoblar piri Jo‘mard qassob va h.k.);

6)islom mifologiyasi an’analarining O‘rta Osiyo xalqlari folkloriga ta’siri natijasida shakllangan o‘zlashma obrazlar (Odam Ota, Momo Havo, Azroil, Jabroil, payg‘ambarlar va h.k.).

Biz mifologik afsonalardagi antropomorf personajlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning tarixiy ildizlari, manbalari va epik talqinlarini yoritish maqsadida yuqoridagi tasnifning birinchi bandida qayd etilgan yaratuvchi-qahramon, ya’ni demiurg obrazi tahliliga to‘xtalamiz.

Mifologik afsonalardagi obrazlar orasida yaratuvchi-qahramon, ya’ni demiurg sifatida tasvirlanuvchi obrazlar salmoqli o‘rin tutadi. Xususan, qadimgi Xitoy mifologik afsonalarida tasvirlangan Pangu, skandinaviyaliklar asotirlarida nomi tilga olingan Odin va Imir, ko‘hna Misr miflari talqinicha, oliy tangrilardan biri – Gor, hind mifologiyasidagi Purushu, yunon afsonalari qahramoni Zevs, O‘rta Osiyo xalqlari folklorining qadimiy qatlamiga mansub bo‘lgan Qayumars, Odami Od, Gavomard, Hoji Mulk, Olang‘asar, Hubbi ana shunday antropomorf tabiatga ega bo‘lgan yaratuvchi-qahramon tipiga mansub obrazlar hisoblanadi.

Bunday mifologik personajlarni o‘zaro birlashtirib turuvchi asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ularda mikrokosm (odam tanasi)ning makrokosm(olam) bilan mutanosibligi to‘g‘risidagi qadimgi mifologik konsepsiya o‘z ifodasini topgan. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, odamning tana a’zolari olamdagi moddiy mavjudlikning muayyan bir bo‘lagiga teng, deb qaraladi. Bu mifologik konsepsiya ajdodlarimizning Qayumars-Gavomard to‘g‘risidagi afsonalarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, “Avesto” talqinlariga ko‘ra, Axuramazda Daitiya daryosining bo‘yidagi Aryana Vejada yetmish kun mobaynida birinchi odam – Gaya Martan bilan Buqani tuproqdan yaratgan. Yer yuzida odam va jonivorlar nasli paydo bo‘lsin uchun uni Gaya

Martan bilan Buqaning tanasiga urug‘larni joylashtirgan. Afsonada aytilishicha, Gaya Martan jon berayotganida uning urug‘i yerga to‘kilgan. Bu urug‘larni oftob poklagan. Oradan qirq yil o‘tgach, ikkita o‘simlik ko‘karib chiqib, bir-biriga chirmashib o‘sa boshlagan. So‘ngra bu o‘simliklar odam suvratiga enib, ayol bilan erkakka aylangan. Shu tariqa yer yuzida insoniyat paydo bo‘lgan.[1]

“Avesto” shunoslikda foniy o‘limga mahkum etilgan odam” sifatida talqin qilingan Gaya Martan birinchi odam bo‘lishi bilan bir qatorda, mifologik afsonalar bayoniga ko‘ra, olamdagi moddiy mavjudlikning yaratilishiga asos bo‘lgan deb ham qaraladi. Chunki bu mifologik afsonaning “Rivayat” va “Shayast na-Shayast” kabi pahlaviy manbalaridagi talqinida Gaya Martan dastlab butun olamni o‘zining vujudiga jo etgan. Ikkinchi uch ming yillik davomida esa u o‘z kallasidan – osmonni, oyog‘idan – yerni, ko‘z yoshlaridan – suvni, sochlaridan – o‘simliklarni, o‘zining ilohiy ongidan – olovni, qo‘lidan esa birinchi Buqani yaratgan.[2]

Zardushtiylik e’tiqodi ta’sirida kelib chiqqan bunday mifologik afsonalar ezgulik kuchlarining boqiyligiga bo‘lgan e’tiqodni kuchaytirish orqali yovuzlikni inkor qilish g‘oyasini tashishga xizmat qilgan. Bu afsonalarda tasvirlangan mifologik personaj (Gaya Martan, Gavomard, Qayumars) mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, yaratuvchi personaj bo‘lib, ezgulikdan iborat funksiyasi bilan moddiy mavjudlikning bino bo‘lishini ta’minlagan. Chunki ezgu kuchlarning ashaddiy dushmani hisoblangan yovuz Axriman Qayumarsni o‘ldirganidan so‘ng uning “jasadining ho‘kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o‘simlik, sigir va buqa, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo‘ladi. Odam qismidan insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga keladi”.[3] Mazkur mifologik konsepsiyaga ko‘ra, Gaya Martanning bosh suyagidan – qo‘rg‘oshin, qonidan – bronza, miyasidan – kumush, oyog‘idan – temir, suyaklaridan – qalay, yog‘idan – shisha, yelkasidan – po‘lat, uchib ketgan jonidan esa oltin paydo bo‘lganligi aytiladi.[4]

Gaya Martan obrazi o‘zining mifologik tabiatiga ko‘ra yaratuvchi-personaj, ya’ni demiurg sifatida talqin qilinganligi sababli uning tana a’zolaridan turli-tuman narsalarning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlar kelib chiqqan. O‘zbek xalq afsonalarida yovuz dushman yoki nomahram raqiblardan qochib yer ostiga yashiringan qizlarning sochi yulg‘un, na’matak, yalpiz va boshqa o‘simliklarga aylanishi, xalq qo‘shiqlarida “ko‘z yoshim daryo bo‘lib, baliqlari yutsin seni” tarzidagi “ko‘z yoshi – suv(daryo)” analogiyasining poetik obraz asosiga olinishi kabi badiiy talqinlarning genetik ildizlari demiurg to‘g‘risidagi miflarga borib taqaladi.

O‘zbek xalq mifologik afsonalaridagi yaratuvchi-personaj – Gaya Martan (Qayumars, Gavomard)ning tana a’zolaridan turli narsalarning paydo bo‘lishi motivining tipologik parallellari dunyo xalqlari mifologiyasida, xususan, qadimgi Xitoy mifologiyasidagi Pangu obrazi talqinida ham uchraydi. Xitoy miflarida hikoya qilinishicha, birinchi odam bo‘lgan Pangu jon berayotganida uning vujudida g‘ayrioddiy o‘zgarish sodir bo‘ladi: uning so‘nggi nafasidan shamol va bulut, ovozidan – momaqaldiroq, chap ko‘zidan – quyosh, o‘ng ko‘zidan oy, oyoq panjalaridan dunyoning to‘rt tomoni hamda beshta ulug‘ tog‘, qonidan – daryo, pay va tomirlaridan – yer yuzidagi yo‘llar, go‘shtidan – tuproq, sochlaridan – yulduzlar, tishlaridan – oltin, suyaklaridan – tosh, urug‘idan – zumrad, miyasidan – billur, ter tomchilaridan – yomg‘ir va shudring paydo bo‘lgan. Panguning badanida o‘rmalab yurgan hasharotlar esa shamolda bir yumalab, odamlarga aylangan emish.[5]

Mikrokosm timsoli hisoblangan Gaya Martanning tana a’zolaridan makrokosm(olam)ning paydo bo‘lishi haqidagi afsonaning pahlaviy yozma yodgorliklaridagi talqinida bosh suyagidan osmonning hosil bo‘lishidan iborat mifologema jahon xalqlari mifologiyasining mushtarak elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki “qadimgi hind asotirlarida osmon olamni bino etgan samoviy qahramon Braxmaning bosh suyagidan yaratilgan, deb naql qilinadi. Skandinaviyaliklar eposi bo‘lmish “Edda” da esa olam afsonaviy pahlavon Imirning vujudidan paydo bo‘lgan, ya’ni uning bosh suyagi osmonga aylangan, deyiladi”.[6] Qadimgi mifologiyada demiurg bosh suyagining “yuqori olam – osmon” ifodasi sifatida timsollashtirilishining sababi birinchidan, bosh (kalla) demiurg tanasining tepa qismida joylashganligi uchun yuqori olam timsoli sifatida tasavvur qilinishi uchun asos bo‘lgan bo‘lsa, bosh suyagining shakliy tuzilishi osmonning dumaloqligiga o‘xshashligi ana shu mifik tasavvurlarni yanada mustahkamlagan. Shuning uchun ham, rus olimi N.A.Afanasyev “ko‘kning doirasimon-bo‘rtma shaklida tuzilganligi uni inson bosh suyagining tepa qismi bilan assotsiatsiya qilish uchun asos bo‘lgan”, – deb yozgan edi.[7]

Bizningcha, yaratuvchi-qahramon(demiurg)ning tana a’zolaridan olamdagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lishi haqidagi mifologik konsepsiya Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi folkloridagi bu kabi mushtarak syujetlarning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan. Animistik e’tiqodlar ustuvorlik qilgan davrlarda odam jonining turli narsa-hodisalar shaklida namoyon bo‘la olishi to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlar keng tarqalgan edi. Bu esa butun kosmik butunlikni tashkil etuvchi mavjudlikning dastlabki odam tanasidan paydo bo‘lganligi haqidagi mifologik konsepsiyani keltirib chiqargan.

1 **Рак И.В.** Мифы древнего и раннесредневекового Ирана. - Санкт Петурбург, 1997. - С.88-94.

2 **Рак И.В.** Мифы древнего и раннесредневекового Ирана. - Санкт Петурбург, 1997. - С.89.

3 Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.45-bet..

4 **Корогли** Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. – М., 1983. – С.59.

5 Евсюков В.В. Мифология китайского неолита. – Новосибирск: Наука, 1988. – С.39.

6 Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995. 38-bet.

7 Афанасьев Н.А.Дерево жизни. Избранные статьи. – М.: Наука, 1983. – С.52.

Arxaik mifologiyada shakllangan demiurg obrazining o‘ziga xos tabiati quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi: 1) demiurg – olamda yaratilgan birinchi odam; 2) demiurg – olamdagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan, ya’ni olam uning vujudidan yuzaga kelgan; 3) demiurg – bo‘yi haddan ziyod uzun (ya’ni boshi osmonga tegib turadigan) ulkan odam; 4) demiurg – osmon bilan yerni bir-biridan ajratib, makrokosmning hozirgi holati yuzaga kelishini ta’minlagan asotiriy personaj.

Mikrokosm sifatida tasavvur qilingan demiurg to‘g‘risidagi mifologik konsepsiyani o‘zida mujassamlashtirgan yaratuvchi-qahramon obrazining mifopoetik talqinlari o‘zbek xalq afsonalaridagi Hubbi, Olang‘asar, Ho‘jimado‘liq, Avj Ibn Unuq, Hoji Mulk, Odami Od singari mifik obrazlar talqinida o‘z ifodasini topgan. Ushbu mifologik personajlarda yaratuvchi-qahramon demiurgning barcha sifatlari yaxlit holda aks etgan bo‘lmasa-da, har bir obrazda mikrokosm timsoli sifatida talqin qilingan demiurgning u yoki bu xususiyati namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shuningdek, bu tip obrazlarning shakllanishida turli-tuman diniy e’tiqodlar, turkiy xalqlar mifologiyasining o‘zlashtirma syujetlari va kitobiy manbalarda naql qilingan miflar ta’siri kuchli bo‘lgan.

Jahongir ISMAILOV,
O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
O‘zbek va chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ismailovzahongir74@gmail.com



TILSHUNOSLIKDA MATN VA UNING TADQIQIGA ALOQADOR HODISALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada matn – bu muloqotning asosiy ahamiyati, matn tilshunosligi alohida fan sohasi sifatida endigina shakllana boshlagan paytlarda bildirilgan bu fikr o‘z ahamiyatini haligacha yo‘qotgani yo‘q. Nutqiy jarayondagi voqealanishi, xalq og‘zaki ijodi asarlarining tarbiyaviy ahamiyati, xalq og‘zaki ijodiga tegishli asarlarning kognitiv va diskurs tahlili o‘z ifodasini topgan.

Tilshunoslik va matn grammatikasi matnning umumiy tuzilishi qonuniyatlarini, uning rasmiy tuzilishi va mexanizmlarini, gaplar, paragraflar va murakkab sintaktik birliklar orasidagi bog‘lanishlarni ko‘rib chiqadi. Demak, matn lingvistikasining obyekti matn yaratish vositalari va kategoriyalari hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *lingvistika, pragmatika, sintaksis, matn, leksema*

Аннотация: в данной статье основное значение коммуникации имеет текст, эта идея, высказанная в то время, когда лингвистика текста как отдельная область науки только начинала формироваться, не потеряла своего значения. Выражены события в речевом процессе, воспитательное значение произведений фольклора, когнитивный и дискурсивный анализ произведений, связанных с фольклором.

Языкознание и грамматика текста рассматривают законы общего строения текста, его формальную структуру и механизмы, связи между предложениями, абзацами и сложными синтаксическими единицами. Итак, объектом лингвистики текста являются средства и категории текстообразования.

Ключевые слова: *лингвистика, прагматика, синтаксис, текст, лексема.*

Annotation: this article discusses the main importance of the text in communication, the idea expressed when text linguistics was just beginning to take shape as a separate scientific field, and has not lost its relevance. Its occurrence in the speech process, the educational value of works of folk oral art, cognitive and discourse analysis of works of folk oral art are reflected in it.

Linguistics and text grammar consider the laws of the general structure of the text, its formal structure and mechanisms, the connections between sentences, paragraphs and complex syntactic units. Therefore, the object of text linguistics is the means and categories of text creation.

Keywords: *linguistics, pragmatics, syntax, text, lexeme*

Matn lingvistikasi matn sintaksisi va semantikasi, grammatika va pragmatikadan iborat. Sintaksis va grammatika matnning aloqadorligi va yaxlitligini, matn rivojlanishidagi mavzu dinamikasini o‘rgansa, semantika uning mazmun tomonini, tarkibiy, oshkora va yashirin ma’nolarini tekshiradi. Matn semantikasi matnni izohlash bilan shug‘ullanuvchi germenevtika bilan chambarchas bog‘liq. Matn pragmatikasi asosiy e’tiborni nutq predmeti, adresat va ularning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan masalalarga qaratadi. Chunki pragmatikaning obyekti muloqot va nutqni samarali qurishdan iborat.

Ma’lumki, insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichi fan va madaniyat, adabiyotning shakllanishi, rivojlanishi va

tadqiqi haqidagi o‘ziga xos fikrlari bilan ajralib turadi va yangi yo‘nalishlar, yangi bilish apparati, yangi terminologiyani vujudga keltiradi. Shuning uchun ham XX asrning so‘nggi choragi va XXI asr boshlarida matn va uning hosilalari ko‘plab fan sohalarida qo‘llaniladigan va turli atama ta’riflariga ega bo‘lgan so‘zlardan biridir.

“Matn” so‘zining birinchi qo‘llanilishi XVIII asrning oxirlarida ingliz tilidagi hujjatlarda kuzatilgan. O‘shandan beri “matn” so‘zining inklyuziv tushunchasi goh kengayib, goh torayib, turli ta’riflari bilan ilmiy muomaladan tushib qolgani yo‘q. Dastlab badiiy adabiyotning matn leksemasi filologiya fanining tadqiqot obyekti sifatida qaralgan bo‘lsa, uning elementlari hozirda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, terminologiya, terminografiya, falsafa, informatika, psixologiya, madaniyatshunoslik va nutq aktlari nazariyasi kabi fanlarda qo‘llanilmoqda. Jahon tadqiqot amaliyotida matn so‘ziga 300 dan ortiq ta’rif berilganiga qaramay, haligacha barcha fanlarda amal qiladigan izchil ta’rif mavjud emas. Buning natijasi o‘laroq, matn nima ekanligi, uning til tizimi yoki nutq tili bilan aloqasi haqida olimlar orasida ko‘plab fikrlar mavjud.

Matn – bu rasmiy aloqaga, mazmun yaxlitligiga va ularning formal-semantik tuzilma bilan o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘lgan ketma-ketlikka ega bo‘lgan belgilardan tashkil topgan xabar . U (lotincha textus – birlashma, bog‘lanish semantik va grammatik bog‘lanish orqali birlashgan nutq birliklari yig‘indisi) gaplar ketma-ketligi sifatida belgilanishi mumkin . Matn deganda har xil turdagi leksik, mantiqiy va grammatik bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan, ma’lum bir tarzda tashkil etilgan va yo‘naltirilgan ma’lumotlarni yetkazishga qodir bo‘lgan gaplar yig‘indisi tushuniladi. Bundan tashqari, matn tarkibiy-semantik birlik vazifasini bajaradigan murakkab bir butunlikdir .

Matn – bu muloqotning asosiy birligi, axborot berish va saqlash usuli, madaniyatning turmush tarzi, ma’lum bir tarixiy davr mahsuli, shaxsning ruhiy holatining ifodasi va boshqalar bilan belgilanadigan birlikdir .

“Adabiyot ensiklopedik lug‘ati”da ma’noli bog‘langan ramziy birliklar ketma-ketligidan iborat bo‘lmish matnning asosiy xususiyatlariga bog‘liqlik va yaxlitlik kiritilgan. U asosan, yozma nutqiy asar bo‘lganligi uchun matnning boshqa muhim belgilari sirasiga uning janri, subyektivligi va mualliflik masalasi kiritiladi .

“Matn eng yuqori kommunikativ birlik hisoblanadi. Bu nutqiy vaziyatga ko‘ra, muallifning kommunikativ niyatini amalga oshirish uchun tizimda tashkil etilgan kommunikativ-funksional elementlardan tashkil topgan butun birlikdir ”.

Keltirilgan ta’riflarning ba’zilari matnning faqat bitta xususiyatini ko‘rsatadi, boshqalari esa uning bir nechta muhim xususiyatlarini ko‘rsatadi. Bu xilma-xil ta’riflar ichida, bizningcha, eng to‘liq va eng to‘g‘risi I.R. Galperinning quyidagi ta’rifi hisoblanadi: “Matn nomlar va maxsus birliklar (murakkab sintaktik birlik) dan iborat bo‘lgan batafsil, o‘ziga xos birlik. Shuningdek, u leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy bog‘lanishlar, ma’lum bir maqsad uchun yo‘naltirilgan va pragmatik ta’sirga yo‘naltirilgan, yozma hujjat shaklida rasmiylashtirilgan nutq jarayoni mahsulidir ”.

Matn tilshunosligi alohida fan sohasi sifatida endigina shakllana boshlagan paytlarda bildirilgan bu fikr o‘z ahamiyatini haligacha yo‘qotgani yo‘q. Aytish joizki, hozirgi ilmiy muomalada bu ta’rifga nisbatan tanqidiy qarashlar ham mavjud . Ular asosan, matnning asl turkumlarining hajmi, tuzilishi va mavjudligiga asosan yuzaga kelgan.

Keyingi yillarda chop etilgan bir o‘quv qo‘llanma muallifi N. Kurmanova matnni lingvodidaktika nuqtai nazaridan tadqiq qiladi va uning yaxlitligini ta’minlovchi asosiy belgilar, tarkibiy qismlar va tarkibni ko‘rsatadi. Olim mahalliy va xorijiy tilshunoslar, psixolingvistlar, psixologlarning asarlariga tayanib, matn yaratish va matnni qabul qilish va tushunish psixolingvistik omillarga asoslanishini qayd etadi.

Matn ijod mahsuli bo‘lgani uchun uning o‘ziga xos parametr va toifalari mavjud. Kategoriyaning o‘zi obyektiv borliq hodisalari va predmetlarining faolligi, bog‘lanishlari, umumiy belgilari va farqlarini ko‘rsatishini hisobga olib, matn kategoriyalari uning eng asosiy va ahamiyatli belgilarini guruhlaydi.

Har bir davlat matn tadqiqotchilarining qarashlari, tadqiqot tamoyillari va uslubiy yo‘nalishlarida izchillik bo‘lmagani uchun ular turli belgilarni matn kategoriyalari deb atashadi. Masalan, taniqli fransuz tadqiqotchisi T.Todorov matnning asosiy toifalarini uchtaga ajratadi: og‘zaki, sintaktik, semantik toifa. Og‘zaki parametr matnni tashkil etuvchi haqiqiy jumlalardir. Uning sintaktik kategoriyasi matn qismlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqsa, semantik parametr matnning asosiy g‘oyasini ifodalaydi .

Ya’ni matnning asosiy mazmuni uning asosi bo‘lsa, fokus aniq uslubiy belgiga ega so‘z, so‘z birikmalarining ifodasidir. Jumlalar, stilistik yondashuvlar va aloqa matn qismlarini bog‘laydigan harakatlardir.

Albatta, bu parametr – toifalarning har biri matnning turiga qarab paydo bo‘ladi va amalga oshiriladi. O‘z navbatida, ular mazmunni (ma’lumotlarni), qiymatni (murakkab sintaktik birliklar yoki gaplarda berilgan fikr) va ma’noni (morfema, so‘z, ibora, sintaktik konstruksiya) ochib beradi. Ya’ni ular matndagi yashirin va aniq fikrlarni ko‘rsatishga, o‘sha fikrlarni bog‘lashga, ularni tartibga solishga, ularni aktuallashtirishga va matnning modalligini aniqlashga yordam beradi. Tadqiqotchi A.I. Novikov matnga nisbatan to‘liqlik, izchillik, bog‘lanish, puxtalik kabi kategoriyalarni qayd etadi . Yana bir rus olimi A.A. Leontiyev esa bu borada matnning yaxlitlik masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

R. Galperin matn kategoriyalarini ikki katta guruhga birlashtiradi:

- Semantik;

➢ Formal-strukturaviy.

Matn nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, badiiy matnning boshqa xususiyatlari ham bor. Ular orasida matnning semantik-tarkibiy ko‘p qirraliligi, ko‘p qatlamliligi, matndagi muallif niyati, matnning ma’lum bir o‘quvchilar guruhiga bag‘ishlanishi, uning madaniy hodisa sifatida e’tirof etilishi, matn bilan bog‘liq lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlar shular jumlasidandir. Ko‘rinib turibdiki, badiiy matn qaysi tilda yozilishidan qat’i nazar, uning kelib chiqishi, semantikasi va tuzilishidagi qonuniyat va kategoriyalar universaldir. Shuning uchun ham ilmiy nutqda intertekstuallik muammolarini o‘rgangan E.V. Mixaylova matnni tizim sifatida ko‘rib, kategoriyalarni tizim yaratuvchi va tizimga betaraf toifalarga ajratadi.

Matn murakkab obyekt bo‘lib, uni lingvistik nuqtai nazardan tasvirlash juda qiyin, chunki uning mazmuni nafaqat paragrafning oddiy yig‘indisi yoki uni tashkil etuvchi murakkab sintaktik butunlik bo‘lmish konkret lisoniy birliklar, balki o‘sha davrning turli ekstralingvistik omillari bilan ham bog‘liq. Har bir matn jamiyat a’zolari uchun har xil vazifani bajaradi, uning axborot beruvchi, kommunikativ, estetik, jamlovchi imkoniyatlari inson, zamon va makon kabi universal kategoriyalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ko‘pgina tadqiqotchilar matnda ko‘rib chiqiladigan obyektlar tufayli matn semantikasi va matn grammatikasini alohida yo‘nalish sifatida asoslab, uning asosiy belgilari, kategoriya va parametrlarini aniqladilar. Ammo bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning yutuq va kamchiliklari turli qarama-qarshi fikrlarni yuzaga keltirganligi sababli, matnni til tizimi yoki nutq birligi sifatida tan olish haqidagi bahslar hamon davom etmoqda.

Matnni psixolingvistik nuqtai nazardan o‘rganish juda samarali bo‘ldi. Chunki unda til birliklarining matn yaratishga munosabati turli eksperimental usullar orqali tekshirildi. Psixolingvistlar matnni aloqani yaratish/qabul qilishning ikki tomonlama jarayoni sifatida tushundilar va uni dinamik tuzilma deb hisoblashdi. Ya’ni matn so‘zlovchi tomonidan boshqa shaxs bilan o‘zaro munosabatda bo‘lganda hosil bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish tadqiqotchilari matn yaratish modelining asosiy bosqichlarini quyidagicha ko‘rsatadilar:

1) motivatsiya va niyat (dastur, reja);
2) rejaning bajarilishi;
3) amalga oshirilgan ish va belgilangan niyatni solishtirish.

Psixolingvistlar matnni idrok etish uning yaxlitligi va uni ifodalovchi tayanch so‘zlar yig‘indisi bilan bog‘liqligini aniqladilar va matnni idrok etish dinamik jarayon degan fikrga keldilar. Har qanday matn o‘quvchi ongida kalit so‘zlar yordamida saqlanishi mumkin. Bu esa kerak bo‘lganda matnning mazmunini qayta yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ammo bu jarayonda ba’zan matndagi ma’lumotlarning to‘liqligi va izchilligi saqlab qolinmasligi ham mumkin.

Matnni pragmatik ma’noda o‘rganish uni yagona murakkab nutq akti sifatida tan olish bilan bog‘liq. Muallifning niyat va maqsadiga muvofiq yaratilgan nutq aktida adresatga ta’sir etuvchi turli lisoniy vositalardan foydalanadi. Ular orqali yozuvchi yaratgan borliq haqida kommunikantlar o‘rtasida fikr almashish jarayoni sodir bo‘ladi.

Kognitiv yo‘nalishga ko‘ra, dunyoni bilishning asosiy vositasi tildir, shuning uchun ham matn muallifning borliqni tan olishi va anglashining alohida lingvistik obrazi sifatida qaraladi va tushuncha orqali tahlil qilinadi. Tushuncha muayyan xalq madaniyatini ko‘rsatadigan, yozuvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan g‘oyalar majmui bo‘lgani uchun badiiy matn muallif bilimining murakkab ramzi sifatida tushuniladi. Ko‘p sonli lisoniy birliklarga ega bo‘lgan, maqol, she’riy va nasriy matnlarning predmeti bo‘la oladigan voqelik hodisalarigina qimmatli, dolzarb, o‘sha madaniyatda mustahkamlanib, ifodalanishi mumkin bo‘lgan tushuncha bo‘la oladi.

Muayyan geosiyosiy, ijtimoiy-madaniy hamjamiyatning har xil a’zolarining muloqotini soddalashtirish, tezlashtirish va aniqlashtirish uchun hamma uchun umumiy matnlar yaratiladi. Matnlarning funksional xususiyatiga ko‘ra, ularni rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy matnlarga bo‘lish mumkin. Tadqiqotimiz obyekti, badiiy matnlar bo‘lganligi sababli ishimizning navbatdagi qismida biz badiiy matnlarning diskursiv xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективи. –М.: Прогресс, 1978. 39- с.
2. Новиков А.И. Художественный текст и его анализ. – Москва: Наука, 1988. 304- с.
3. Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глюттоник дискурс мисолида). Автореф.дисс…доктор.фил.наук. – Фарғона, 2020. 72- бет .
4. Раупова Л.Р. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2012. 220-бет.
5. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. 29- bet.
6. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. 104 -bet.
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zME, 2008. 247- bet.
8. Ашурова Д.У. Производное слово в свете коммуникативной теории языка. – Ташкент: Фан, 1991. 100 с.

Ra'no UZOQBOYEVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
ranoanvarova@98gmail.com

TILSHUNOSLIKDA O'ZLASHMALAR: MORFOFONEMIK VA SEMANTIK O'ZGARISHLARNING LINGVISTIK VA IJTIMOIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola tilshunoslikda o'zlashmalar jarayonlarini, xususan morfofonemik va semantik o'zgarishlarni tahlil qiladi. Tadqiqot, lingvistik o'zgarishlarning madaniy va ijtimoiy jihatlarini sotsiolingvistik yondashuv orqali o'rganib, tillararo integratsiya dinamikasini yoritadi. Til o'zlashmalarining tizimlarni boyitishdagi ahamiyati va jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *o'zlashmalar, morfofonemik o'zgarishlar, semantik o'zgarishlar, tilshunoslik, sotsiolingvistika, kalklar, leksik qardoshlik, qayta qarz olish, fonosemantik moslashuv, tillararo integratsiya, madaniy ta'sir, lingvistik evolyutsiya.*

Аннотация: в данной статье анализируются процессы заимствования в лингвистике, в частности морфофонемические и семантические изменения. Исследование изучает культурные и социальные аспекты языковых изменений с социолингвистической точки зрения, раскрывая динамику межъязыковой интеграции. Подчеркивается значение заимствований в обогащении языковых систем и их роль в межкультурных взаимодействиях.

Ключевые слова: *заимствования, морфофонемические изменения, семантические изменения, лингвистика, социолингвистика, кальки, лексическое родство, повторное заимствование, фоносемантическая адаптация, межъязыковая интеграция, культурное влияние, лингвистическая эволюция.*

Annotation: this article analyzes the processes of borrowing in linguistics, particularly morphophonemic and semantic changes. The study examines the cultural and social aspects of language change through a sociolinguistic approach, highlighting the dynamics of interlinguistic integration. The importance of borrowings in enriching linguistic systems and their role in intercultural interactions is emphasized.

Key words: *borrowings, morphophonemic changes, semantic changes, linguistics, sociolinguistics, calques, lexical kinship, re-borrowing, phonosemantic adaptation, interlinguistic integration, cultural influence, linguistic evolution.*

Kirish. Tilshunoslikda o'zlashmalar fenomeni tillararo aloqalar, madaniy va ijtimoiy integratsiyaning asosiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. So'z va iboralar bir til tizimidan boshqasiga o'tganida yuz beradigan o'zgarishlar lingvistik jarayonlarning murakkabligi va dinamikasini namoyish etadi. Bu jarayonlar orqali so'zlar yangi fonetik, morfologik va semantik shaklga ega bo'lib, maqsad tilga moslashadi. Morfofonemik o'zgarishlar, ayniqsa, til elementlarining fonologik va grammatik strukturaviy moslashuvini aks ettiradi, semantik o'zgarishlar esa so'zlarning ma'no doirasini kengaytirish yoki o'zgartirish orqali ularning funksional xususiyatlarini boyitadi.

Tarix davomida tillararo o'zaro ta'sir iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar asosida shakllanib kelgan. Bugungi globallashgan dunyoda esa radio, televideniye va internet tarmoqlari tilning o'zlashish jarayonlarini yanada tezlashtirmoqda. Natijada, o'zlashmalar til tizimlarining boyligi va moslashuvchanligini namoyon qilib, jamiyatlar o'rtasida lingvistik ko'prik vazifasini bajaradi.

Ushbu maqola tilshunoslikdagi o'zlashmalar jarayonlarini morfofonemik va semantik o'zgarishlar, sotsiolingvistik yondashuvlar hamda kalklar va qayta qarz olish kabi hodisalar misolida o'rganadi. Tahlillar orqali so'zlarning til va madaniyatlar o'rtasida qanday evolyutsiya qilishi, ularning fonetik va semantik moslashuvi hamda bu jarayonlarning lingvistik va ijtimoiy dinamikaga ta'siri yoritiladi. Shu bilan birga, tilning o'zlashish jarayonlari faqat lingvistik voqea sifatida emas, balki kengroq ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning aks ettiruvchisi sifatida ko'rib chiqiladi.

Morfofonemik o'zgarishlar.

Morfofonemik o'zgarishlar so'zlar bir tildan boshqasiga o'tganda ro'y beradigan o'zgarishlarni anglatadi. Morfofonemik jarayon bu tilning morfemalari allomorflarining fonologik amalga oshirilishini yoki turli muhitlarda morfemalarining fonemik tasvirlanishini o'rganish jarayonidir. Morfofonemik jarayonlar, ayniqsa, affikslar (qo'shimchalar) jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonlarga "morfofonemik jarayonlar" deb nom berilgan. Bu jarayonlar tilning strukturaviy va fonetik xususiyatlarini chuqur tushunish uchun muhimdir va har xil til muhitlarida morfemalar qanday o'zgarishini o'rganishga yordam beradi. Ushbu o'zgarishlar so'zning talaffuzi va yozilishida namoyon bo'ladi. Masalan, "Computer" so'zi ingliz tilidan ko'plab tillarga o'zlashganida, har bir tilning fonetik va orfografik qoidalari asosida talaffuzi va yozilishi o'zgartiriladi[2.36] Bu jarayon til elementlarining yangi til muhitiga moslashuvini ta'minlaydi va til o'rganishdagi osonlik yoki qiyinchiliklarni belgilaydi. Morfofonemik o'zgarishlar tilshunoslikda muhim o'rganish obyekti hisoblanadi, chunki ular til o'zaro ta'sirining aniq misollarini taqdim etadi va tillararo integratsiyaning dinamikasini ko'rsatib beradi.

Ramlan morfofonemikni fonemaning o'zgarishini bir morfema boshqasi bilan birlashishi natijasida sodir bo'ladigan jarayon sifatida ta'riflaydi.[1.180] U shuningdek, morfofonemik jarayon ema va morfema jalb qilingan shakl o'zgarishlar jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Dobrovolsky va Aronoffga ko'ra, morfologiya lingvistikasi so'z tuzilishini o'rganishdir va so'z shakllanishi hamda talqin qilinishida qatnashadigan toifalar va qoidalar tizimini aniqlashga intiladi. Psixolingvistik

morfologik jarayonlarni o‘rganish so‘z tuzilishi tilni qayta ishlashdagi o‘rni qanday ekanligini tushunishga qaratilgan. Dobrovolsky va Aronoff shuningdek, allomorflar o‘rtasidagi alternatsiyalarni tushuntiradigan qoidalarni morfofonemik qoidalar deyishadi[4.210].

Semantik o‘zgarishlar.

Semantik o‘zgarishlar, so‘zlar yangi tilga o‘zlashganda ularning ma’nosida yuz beradigan o‘zgarishlarni anglatadi. Misol uchun, rus tilidagi "магазин" so‘zi ingliz tilidagi "magazine" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ingliz tilida bu so‘z asosan "jurnal" ma’nosini anglatadi, rus tilida esa "do‘kon" degan ma’noni bildiradi[11.325]. Bu kabi o‘zgarishlar, so‘zlar yangi tilga moslashganda, ularning dastlabki semantik yuklari qanday qilib o‘zgarishi yoki kengayishi mumkinligini ko‘rsatib turadi. Bu jarayon, so‘zlar va iboralar turli tillar va madaniyatlarga kirib borishi bilan ularning ma’nolari ham o‘zgarib turadi.

Einar Haugenning o‘zlashish jarayonida morfofonemik va semantik o‘zgarishlar haqida qilgan tadqiqotlari, bir tildan boshqasiga morfemalar integratsiyasi natijasida fonemalar qanday o‘zgarishini ta’kidlaydi. Ushbu jarayonlar shaklning o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi, bu yerda fonemalar va morfemalar muhim komponentlar hisoblanadi. Bu asosiy tushuncha yangi til tizimida qarz so‘zlar qanday moslashishini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ularning fonetik va semantik jihatlarini ta’sirlaydi.

Fransuz tilidagi "souris" so‘zi "sichqon" (hayvon) ma’nosini anglatadi. Ingliz tilidagi "mouse" so‘zi kompyuter sichqonchasini anglatadigan qo‘shimcha ma’noni qabul qilgandan so‘ng, fransuz tilida so‘zlashuvchilar ham kompyuter sichqonchalarini "souris" so‘zi orqali ingliz tilidagi kengaytma analogiyasi bilan ta’riflashni boshladilar[12.383]. Agar fransuzlar "mouse" so‘zini ishlatishni boshlaganida, bu o‘zlashma bo‘lar edi. Lekin ular so‘zning ma’nosini ko‘chirib olishdi va bu semantik o‘zlashmaga sabab bo‘ldi. Shu o‘rinda “qayta qarz olish” kabi tushunchaga to‘xtalib otish muhim hisoblanadi.

Qayta qarz olish.

Qayta qarz olish tilshunoslikdagi hodisa bo‘lib, bir tildan boshqa tilga o‘zlashgan so‘z yanada semantik, fonetik yoki morfologik o‘zgarishlarga uchragach, yangi xususiyatlari bilan asl tilga qaytariladi. Bu jarayon tillar o‘rtasidagi dinamik va aylanma til almashinuvining tabiatini yoritib, lingvistik rivojlanish jarayonini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Qayta qarz olish ko‘pincha madaniy aloqalar, ijtimoiy o‘zgarishlar yoki yangi tushunchalarning shakllanishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilidagi "pioneer" so‘zi o‘rta fransuz tilidan "qazuvchi, piyoda askar" ma’nosida o‘zlashgan, keyinchalik ingliz tilida "erta mustamlaka, yangilik kashfiyotchisi" ma’nosini olgan va bu ma’no fransuz tiliga qayta o‘zlashgan. Ushbu jarayon tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni va tillarning bir-biriga qanday moslashuvchan ta’sir o‘tkazishini ko‘rsatadi. Qayta qarz olish jarayonida so‘zlarning ma’nosi kengayishi, torayishi yoki butunlay yangi semantik yuk olish holatlari kuzatiladi. Bu hodisa nafaqat lingvistik tizimlarning boyligini oshiradi, balki madaniyatlararo muloqotning ahamiyatini ham oshiradi.

Lingvistikada “Boomerang Words” yoki “Qaytarib olingan so‘zlar” deb ataluvchi hodisa bir tildan boshqa tilga o‘zlashgan so‘zning, o‘zgarish yoki moslashuv jarayonidan o‘tgach, qayta dastlabki tilga qaytarilishi va ko‘pincha yangi ma’nolari yoki nuanslari bilan qaytishini o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilidagi 'anime' so‘zi yapon tilidagi 'アニメ' (anime) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida ingliz tilidagi 'animation' so‘zidan olingan. 'Anime' so‘zi ingliz tiliga qayta kirganda, aniqroq ma’noda yapon uslubidagi animatsiyani bildiradi[13.40]. Bu jarayon tillararo madaniy aloqalar davomida yuz beradi va tillarning o‘zaro ta’siri natijasida yangi terminologiyalar yaratilishiga yordam beradi.

Shuningdek, o‘zlashma so‘zlar leksik qardosh so‘zlar (shuningdek, leksik qardoshlar deb ham ataladi) bilan farq qiladi, ular ikki yoki undan ortiq tillarda bir xil kelib chiqish etimologiyasiga ega bo‘lgani uchun o‘xshash bo‘lgan so‘zlar sifatida ta’riflanadi. Ya’ni, bir so‘z boshqa so‘z bilan qardosh deb hisoblanadi, agar ikkalasi ham ajdod tilidagi bir xil so‘zdan kelib chiqqan bo‘lsa. Masalan, ingliz tilidagi ‘gratitude’ so‘zi ispan tilidagi ‘gratitud’ bilan bir ma’noni anglatadi (ikki so‘z ham lotin tilidagi ‘gratitudo’ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu minnatdorchilik degan ma’noni anglatadi). Yana bir misol – ingliz tilidagi ‘dish’ va ‘desk’ so‘zlari hamda nemis tilidagi ‘Tisch-table’ so‘zi qardosh so‘zlar hisoblanadi, chunki ularning barchasi lotin tilidagi ‘discus’ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu ularning tekis yuzalariga ishora qiladi. Darhaqiqat, ‘cognate’ so‘zi lotin tilidagi ‘cognatus’ otidan kelib chiqqan bo‘lib, bu ‘qon qarindosh’ degan ma’noni anglatadi[7.560].

O‘zlashma so‘zlar, shuningdek, kalklar (inglizchada "loan translation" deb ham ataladi) bilan farq qiladi, bu jarayon boshqa tildan so‘z yoki iboraning komponentlarini to‘liq tarjima qilishni o‘z ichiga oladi, natijada maqsadli tilda yangi leksema yaratiladi. Darhaqiqat, "kalk" atamasi o‘zi ham fransuz tilidan olingan qarz so‘z bo‘lib, "nusxa olish", "taqlid qilish" va "yaqin nusxa" degan ma’nolarni anglatadi[8.650]. Durkinga ko‘ra, kalklar yoki (qarz tarjimalar) "chet tilidagi so‘z yoki iboraning tuzilishini, qarz oluvchi tilning sinonimik so‘z shakllaridan foydalanib, ko‘chirishni ko‘rsatadi". Boshqacha qilib aytganda, bu qarz olinayotgan so‘z kamida-kam yoki to‘liq tarjima qilinadi. Ingliz tilida boshqa tillardan tarjima qilingan umumiy iboralar kalklarining ko‘plab misollari mavjud. Masalan, "Adam's apple" fransuz tilidagi "pomme d'Adam" iborasining kalki bo‘lib, "beer garden" esa nemis tilidagi "Biergarten" so‘zining kalkidir. Har ikkala holda ham inglizcha iboralar asl matndan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, so‘zma-so‘z tarjima qilingan.

Kalklash va fonosemantik moslashuv bir-biridan farqli jarayonlardir. Kalklashda manba so‘zning ma’nosi tarjima qilinib, maqsadli tilda shunga mos ekvivalentga aylantiriladi. Fonosemantik moslashuvda esa so‘zning tovushi va ma’nosi maqsad tilidagi mavjud elementlarga moslashtiriladi. Masalan, arab tilidagi ‘arḍī shawkī’

("yengil bodom") so‘zi tarixiy ravishda ‘al-khurshūf’ sifatida ishlatilgan bo‘lsa-da, keyinchalik fonosemantik moslashuv orqali yangi shaklga o‘zgartirilgan.

Xulosa. Ushbu maqolada tilshunoslikdagi o‘zlashmalar jarayonlari, jumladan, morfofonemik va semantik o‘zgarishlar, kalklar, qayta qarz olish va leksik qardoshlik fenomenlari tahlil qilinadi. O‘zlashmalar til tizimlarining dinamikasi va evolyutsion jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Morfofonemik o‘zgarishlar so‘zlarning fonetik va morfologik moslashuvini, semantik o‘zgarishlar esa ma’no torayishi yoki kengayishini aks ettiradi. Globallashuv davrida o‘zlashmalar lingvistik va madaniy aloqalarning yangi shakllarini yuzaga keltirgan bo‘lsa, sotsiolingvistik yondashuvlar ularni ijtimoiy va madaniy jarayonlar kontekstida o‘rganishga imkon beradi. Tadqiqot o‘zlashmalarni tillararo integratsiya va madaniy ta’sir dinamikasini yorituvchi muhim manba sifatida qaraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurhayati D. A. W. Morphological and morphophonemic process of Alay variation //Lingua: Jurnal Bahasa, Sastra, dan Pengajarannya. – 2015. – T. 12. – №. 1. – C. 59-70.
2. Hidayat R. Kaidah Morfofonemik Bahasa Sumbawa Dialek Sumbawa Besar //GENTA BAHTERA: Jurnal Ilmiah Kebahasaan dan Kesastraan. – 2018. – T. 4. – №. 1. – C. 11-22.
3. Aronoff M., Dobrovolsky M., O'Grady W. (ed.). Contemporary linguistics: an introduction. – Bedford/St. Martin's, 1997.
4. Haugen E. The analysis of linguistic borrowing //Language. – 1950. – T. 26. – №. 2. – C. 210-231.
5. Durkin P. The Oxford guide to etymology. – OUP Oxford, 2009.
6. Crystal D. A dictionary of linguistics and phonetics. – John Wiley & Sons, 2011.
7. American Heritage Dictionary, American Heritage Publishing Staff. The American heritage dictionary. – Dell Publishing Company, 1987.
8. Domínguez P. J. C., Nerlich B. False friends: their origin and semantics in some selected languages //Journal of pragmatics. – 2002. – T. 34. – №. 12. – C. 1833-1849.
9. Knapp K. et al. (ed.). Handbook of foreign language communication and learning. – Mouton de Gruyter, 2009.
10. Durkin P. The Oxford guide to etymology. – OUP Oxford, 2009.
11. Schmitt N., Schmitt D. Vocabulary in language teaching. – Cambridge university press, 2020.
12. Bloomfield L. An introduction to the study of language //An Introduction to the Study of Language. – 1983. – C. 1-383.
13. Zuckermann G. Hybridity versus revivability: Multiple causation, forms and patterns //Journal of Language Contact. – 2009. – T. 2. – №. 2. – C. 40-67.

Ёркиной АЛТМИШЕВА,
доктор философии (PhD)
по филологическим наукам, доцент Андижанский ГИИЯ

К ВОПРОСУ ПЕРЕВОДА РЕЛИГИОЗНОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: статья посвящена изучению перевода религиозных терминов в отечественной терминологии. Акцентируется внимание на происхождения и историю становления узбекской лексикографии и терминологии. Автором приводятся сведения о создании религиозных словарей, дается анализ научных трудов на религиозную тематику. Сделан вывод о том, что изучение исламской религиозной лексики, создание словарей исламских религиозных терминов с учетом социальных процессов являются актуальными проблемами современного отечественного языкознания, религиоведения и переводоведения.

Ключевые слова: *ислам, религиозный термин, религиозный стиль, терминология, религионим, экзотизм, реалия.*

Annotatsiya:maqola mahalliy terminologiyada diniy atamalarni o‘rganish masalasiga bag‘ishlanib, unda o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasining vujudga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti yo‘li yoritilgan. Muallif tomonidan Mustaqillik davrida yaratilgan ayrim diniy lug‘atlar haqida ma’lumotlar va diniy mavzuga oid maqolalar tahlili berilgan. Islomiy leksikani o‘rganish, ijtimoiy jarayonlarni hisobga olgan holda islomiy atamalar lug‘atlarini yaratish mamlakatimizda zamonaviy tilshunoslik, dinshunoslik va tarjimashunoslik fanlarining dolzarb muammolaridan birib bo‘lib qolmoqda degan xulosaga kelingan.

Kalit so‘zlar: *islom, diniy atama, diniy uslub, terminologiya, religionim, ekzotizm, realiya.*

Annotation: the article is devoted to the study of the translation of religious terms in domestic terminology.

Attention is focused on the origins and historical development of Uzbek lexicography and terminology. The author provides information on the creation of religious dictionaries and analyzes scholarly works on religious topics. It is concluded that the study of Islamic religious vocabulary and the creation of dictionaries of Islamic religious terms, considering social processes, are pressing issues in modern domestic linguistics, religious studies, and translation studies.

Keywords: *islam, religious term, religious style, terminology, religionym, exoticism, reality.*

Большую актуальность в мире приобретает изучение теологических философских идей и концепций, представленных в произведениях средневековых мыслителей, особенно исследование трансляции данных концептов в переводах на другие языки. Исследователи религиозных текстов отмечали и отмечают огромную значимость в русле эффективного приобщения как к общечеловеческим, так и к традиционным восточным духовным ценностям народов мусульманского вероисповедания. Однако вопросы изучения религиозных реалий и терминов, ретрансляции идиостиля автора как особых граней его мировоззрения оказываются наименее изученными в современном переводоведении.

Транслатологи для передачи содержания религиозных текстов на другом языке следуют традициям воссоздания теологических сочинений, в которых использована религиозная терминология, устоявшиеся обороты и штампы, буквализмы из-за боязни исказить религиозный контент. Эти факторы наносят ущерб смысловой ткани перевода и приводят к относительной эквивалентности религиозных и иных реалий. Таким образом, сегодня остро стоит вопрос о корректности употребления религиозного терминологического аппарата. Учет социальных процессов изучения исламской религиозной лексики представляется актуальным в современном языкознании.

Социально-религиозные, в частности, вопросы ислама изучаются рядом узбекских ученых. Хотя исследовательских работ мало, но имеющиеся труды ученых являются существенным вкладом в современное узбекское языкознание и переводоведение.

В настоящее время в Узбекистане появились широкие возможности по объективному изучению религиозных источников, сакральной терминологии. Доказательством сказанному служит работа по составлению словаря религиозных терминов, системное их дополнение, исследования отношений между языком и религией. Известно, что исследование и перевод религиозных терминов тесно связаны с религиозными словарями. Необходимо отметить, что одной из таких работ является “Англо-узбекский словарь социально-религиозных терминов”[Раҳимжонов Д, Қодиров А., Собиров Д., Мавлонов О., Жўраев Ҳ. Инглизча-ўзбекча диний-ижтимоий истилоҳлар луғати. – Тошкент: Mavoraunnahr,2011. – 160 б.].

В “Толковом словаре духовно-религиозных терминов”[Маърифий-ирфоний истилоҳлар луғати. –Тошкент:Mumtoz so‘z, 2014. – 252 б.] Ж. Омонтурдиева и А. Омонтурдиева наряду с узбекским звучанием исламских терминов был предложен арабский вариант произношения, что повышает заинтересованность читателя.

Достойны внимания несколько работ, которые являются актуальными в науке по изучению религиозных аспектов узбекского языка и их трансляции: научные и научно-публицистические статьи о религиозном стиле профессора М.Э. Умарходжаева, диссертация Н.М. Улукова об экзотической лексике в религиозных текстах, диссертация Р. Х. Ширинoвой о принципах воссоздания религиозных реалий в художественном переводе, диссертация Ш.М. Султановой о лингвокультурной характеристике глагола в священных текстах, а также докторская диссертация М. Р. Галиевой по изучению роли религиозного мифологического мышления в языковой картине мира.

М.Э. Умарходжаев в статье “Когда будет составлен словарь религиозных терминов узбекского языка?”[7] заявляет, что данный пласт языка еще глубоко не изучен в лингвистическом ракурсе. Из-за господства научного атеизма многие годы не было обращено должного внимания на изучение религиозной лексики. Допущены субъективность и односторонность в переводе и толковании заимствованных религиозных терминов, в некоторых случаях имеет место явления арабизации и персизации.

Учитывая богатство религиозного лексико-семантического пласта узбекского языка, образовавшегося с древних времен, ученый предлагает изучение терминов, разделив их на периоды: досоциалистический период, эпоха советов, период Независимости. М.Э. Умарходжаев подчеркивает, что в узбекском языке, как в других языках, существует религиозный стиль, имеющий фонетические, лексико-грамматические особенности, что “Словарь религиозных терминов и сочетаний”являясь показателем этого стиля [6], указывает на неограниченность единиц указанного словаря одной религией и о чем свидетельствуют статьи словаря. Например: ajr, animizm, Vatikan, otashparast, samo‘ и т.д.

В словаре религиозная лексика распределена нескольким тематическим группам: термины, обозначающие основные религиозные понятия в узбекском языке; религиозные, морально-этические

концепты, 99 имен Аллаха, имена ангелов, имена пророков, Мухаммада (Мир ему!) и членов его семьи и сподвижников, религиозные термины, представляющие названия религиозных должностей и степеней, понятия, обозначающие богослужение и время их исполнения, имена лиц, упомянутых в Священном Коране, имена великих мусульманских святых, богословов и ученых, наших великих предков-земляков и топонимов, связанных с именами этих предков, названия городов и мечетей, термины и понятия, связанные с хаджем, названия религиозной одежды, различных религиозных предметов, религиозные исламские юридические термины [6].

Лингвистические и экстралингвистические особенности любого языка отражаются в лексике: национальная языковая картина мира способствует образованию новых языковых единиц.

В исследовании Н.М. Улукова “Экзотическая лексика узбекских религиозных текстов”[5] рассматрены религиозные термины как экзотизмы. Исследуя труды русских переводчиков С. Влахова и С. Флорина, автор отмечает, что учеными путем глубокого анализа были рассмотрены понятие реалии, история ее изучения, разные взгляды по наименованию концепта терминами “безэквивалентная лексика”, “экзотическая лексика”, “экзотизм”, “варваризм”, корректность этих терминов. В работе освещены семантические, лексико-грамматические, функционально-стилистические особенности и специфика видов реалий с точки зрения переводоведения. Ученый именует языковое явление религиозного содержания “экзотической лексикой”и аргументирует правильность своего выбора. По его мнению, целесообразно назвать экзотизмом термин реалия, так как термин “экзотика”заимствован из греческого языка exotikos и значит “чуждый, иноземный”. В лингвистике этот термин обозначает то, что характерно для природы, быта, культуры отдаленных, малоизвестных стран, что кажется необычным, причудливым [10]. Соответственно, такие слова встречаются в переводных произведениях и не имеют аналогов в переводимом языке.

По мнению автора, экзотизмы узбекских религиозных текстов в соответствии с их значением классифицированы на тематические группы как экзотические слова, экзотические нарицательные имена существительные, экзотическая фразеология. По утверждению автора, с помощью классификации раскрываются лексико-семантические, функциональные и другие языковые особенности экзотизмов [5].

В XXI веке ученые-языковеды стали выделять в религиозный стиль среди других функциональных разновидностей как самый востребованный в эпоху духовно-религиозного возрождения общества. Как и все другие функциональные стили, в нем имеются специфические черты, проявляющиеся также и в переводах текстов с одного языка на другой. Известно, что становлению науки о переводе дала толчок именно ретрансляция текстов религиозного содержания. По мнению ученых [1; с.139–145], передача религиозного содержания представляет собой сложную, многоуровневую процедуру, которая считается в языкознании малоисследованным участком транслатологии.

Специфика перевода религиозного текста в значительной степени заключается в том, что от филолога, взявшего на себя этот труд, требуется не только глубокое знание двух языков, но и тонкое осознание смысла текста, фоновые знания в этой области. При ретрансляции текстов исламского содержания сложность заключается в наличии в них арабизмов, так как необходимо находить эквиваленты концептов и структур в переводимом языке, сохраняя при этом специфику подлинника. Переводчик должен хорошо знать Коран, подтекст и переносные значения слов, не имеющих аналогов в другом языке. В противном случае, вместо перевода получится передача краткого содержания дискурса [3; с.88].

Особое место при переводе религиозного контента занимает специфика перевода религиозных терминов, которые по своей специфике переводятся с помощью методов транслитерации и калькирования. Для более аутентичной передачи значения религиозных реалий используется прием транслитерации, т.е. заимствование слова иной религии, изображаемое на письме буквами языка перевода, а в устной речи произносится согласно его произносительным правилам, например: имам, шейх, медресе, ханака, дервиш. В калькировании безэквивалентного слова или словосочетания заменяются буквальными соответствиями на языке перевода, например: дуо – молитва; ийд – праздник.

В докторской диссертации М.Р. Галиевой “Отражение религиозного мифологического мышления в языковой картине мира”выдвигается идея о необходимости рассмотрения связи между религией и языком в новом направлении лингвистики – теолингвистике. Комплексные исследования ученой посвящены проблеме связи “языка-культуры-религии”[2]”. В этой работе рассматривается вопрос о взаимодействии языка и религии. Ученый, определяя религиозно-мифологические концепты, разрабатывает критерии классификации отмеченных языковых единиц, выявляет лингвистические и экстралингвистические факторы религиозной картины мира, связанные с лексическими, фразеологическими, паремиологическими единицами, также анализирует их вербализацию.

М.Р. Галиева в теолингвистике выделяет два основных направления:

1) религиозный язык и лингвистические особенности текстов, также

2) отражение религиозной картины мира в общелитературном языке.

Ш.М. Султанова в своей диссертации “Лингвокультурные особенности категории времени в священных текстах”разрабатывает основы лингвокультурологического анализа категории времени в священных текстах. Автор на основе лексико-семантического анализа темпоральных слов выявляет языковые и культурные особенности священных книг Коран и Библии, указывает на семантику святости темпоральных слов, не отраженных в толковых словарях. Также она отмечает, что в проявлении темпоральности пословиц, поговорок и устойчивых сочетаний в священных текстах отражаются лингвокультурные особенности [4].

Р. Х. Ширинова [8] подчеркивает, что главным критерием правильного отражения религиозных реалий является точное определение их методологической функции. Поэтому переводчик прежде всего должен вжиться в текст и вникнуть в смысловую и стилистическую особенность каждого слова. По мнению ученого, религиозные реалии можно разделить на 2 группы:

1) Религиозные реалии, связанные с религиозными учениями и святыми местами. Реалии, относящиеся к этой группе, можно разделить еще на две подгруппы:

а) реалии, связанные с христианской религией;

б) факты, связанные с религией Ислам, ее историей и святыми местами. 2) Реалии, связанные с церковью, религиозными лидерами и религиозными атрибутами 4; с.20).

Религиозные термины, использованные в “Бабурнаме”и в его переводе на русский язык, выполненным М. Салье, составляют большой пласт в лексическом массиве произведения, в некоторой степени определяющий его духовную и художественную направленность.

В результате исследования перевода религиозной лексики сочинения мы пришли к выводу, что переводчику целесообразно ориентироваться на комбинированный способ передачи исламских реалий, который поможет достичь максимальной близости к тексту оригинала; религиозные термины в русском переводе “Бабурнаме”не всегда находят точного соответствия и требуют адекватного пересмотра; в переводе “Бабурнаме”на русский язык целесообразно сохранить исламский контент, термины и дать комментарии, уточняющие их значения.

Исследование религиозных понятий и терминологии в Узбекистане, а именно, на материале указанного сочинения Бабура имеет важное значение в процессе определения аутентичности перевода на русский язык религиозной лексики.

ИСПОЛЬЗОВАНАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бредихин С.Н., Серебрякова С.В., Лиховид А.А. Способы компрессии когнитивной информации в научно-популярном тексте// Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики. – 2019; – №3: – с.139–145.
2. Галиева М.Р. “Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши”, Фарғона, 2019, филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. б.6.
3. Кручинина Л.И., игумен Алексей (Смирнов)// Крылова Л.В. Метод. указания к самост. работе студентов-теологов. – Ставрополь: Изд-ство Ставропольской духовной семинарии, 2018. – 88 с.
4. Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари, филология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган докторлик диссертацияси, Фарғона, 2019.
5. Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси., Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, Тошкент, -1997. www.disnatlib
6. Умархўжаев М.Э. Диний атамалар ва иборалар. изоҳли луғати, Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент, 2016 й.
7. Умархўжаев М.Э. “Ўзбек диний атамалари луғати қачон тузилади?”
8. Ширинова Р. Х. “Диний реалияларни бадиий таржимада кайта яратишнинг айрим тамойиллари” (фил.ф.н. даражасини олиш учун ёзилган диссертация, - Тошкент : 2002.
9. Қўшоқова Б.Й. Ўзбек тилшунослигида исломий – диний масалалар // Хорижий филология №2, 2020 г., 108-111 б.
10. https://ru.wiktionary.org/wiki/%D1%8D%D0%BA%D0%B7%D0%BE%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0

Tadjixon SABITOVA,
Alfraganus universiteti prof.v.b., f.f.n.,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi (DSc)

FOLKLOR ASARLARINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA JANRIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda folklor asarlarining o‘qitilish holati, uning pedagogik-psixologik ahamiyati hamda talabalarga folklor asarlarini o‘rgatishda janriy xususiyatlarning ahamiyati xususida fikr va mulohazalr yuritilgan. Folklor asarlarini o‘qitishning dunyo hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilayotgani, millatning, xalqning qadimiy, ma’naviy an’analarini saqlab qolishda asosiy rol o‘ynovchi folklor asarlarini o‘qitishning roli keng qamrovli yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *tafakkur, folklor, doston, xalq, millat, epos, qadriyat, ma’naviyat, tarbiya, psixologik-pedagogik xususiyat.*

Annotation: this article deals with the state of teaching folkloric works today, its pedagogical – psychological significance and the importance of genre features in teaching folkloric works to students. The wide recognition by the world community of the teaching of Folklore Works has been widely covered by the role of teaching folklore works, which play a key role in the preservation of the nation, the people, the ancient spiritual traditions.

Keywords: *thinking, folklore, Epic, people, nation, epic, value, spirituality, upbringing, psychological and pedagogical feature.*

Аннотация: данная статья посвящена состоянию преподавания фольклорных произведений на сегодняшний день, его педагогико – психологическому значению и значению жанровых особенностей в обучении студентов фольклорным произведениям. Широкое признание мировым сообществом обучения фольклорным произведениям широко освещается роль обучения фольклорным произведениям, играющим ключевую роль в сохранении нации, народа, древних духовных традиций.

Ключевые слова: *мышление, фольклор, Былина, народ, нация, эпос, ценность, духовность, воспитание, психолого-педагогическая характеристика.*

Kirish. Bashariyatning eng qadimiy, tafakkuriy, madaniy-ma’rifiy jarayonlarini aniqlashda, eng avvalo, turkiy dostonchilikning ildizlariga diqqat-e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi. Bu nihoyatda qiziq va g‘aroyibdir. Turkiy dostonchilik jahon xalqlari eposlari singari o‘zining yuksak g‘oyaviyligi, badiiy kamoloti bilan alohida o‘rin tutadi. Doston epik ijodiyotning juda qadimiy turi sifatida barcha xalqlar og‘zaki adabiyotida mavjud. Uning yuzaga kelishi ko‘p xalqlar hayotidagi epik-qahramonlik davriga borib taqaladi. Albatta, dostonlarning yuzaga kelishidan oldin katta epik asarlar, ya’ni epos yaratilgan. Demak, qadimiylik barcha xalqlar eposlari uchun tipologik hodisa bo‘lib, uning yaratilishi xalqining boshidan kechirgan muayyan iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar, uning tarixidagi voqealarning bosqichlari bilan bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Folklor ilmning bilimdoni, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining asoschilari V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar o‘zlarining tadqiqotlarida turkiy xalqlarning eposlari va dostonlari haqida juda qimmatli, shuningdek, kelajak avlodga ibrat bo‘ladigan o‘zlarining fikrlarini yozib qoldirganlar. Ayniqsa, bu tadqiqotlar ularning juda katta, monumental asarlari “Tyurkskiy geroicheskiy epos”[1] va “Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos” [2] hamda boshqa asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Tahlil va natijalar. Janrlar folklor tarixining mahsuli hisoblanadi. Janrlar folklor evolyutsiya lahzalari, bosqichma-bosqich uzilishlar va turli xil o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayon natijasidir.

Folklor asarlarining janr xususiyatlari va uning tarixi borasida fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda folklor asarlarini o‘qitishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari ham mavjuddir. Folklor insonga hissiy psixologik katta ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Eng muhimi insonning ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Folklor asarlari insonning emansipasiyasi, o‘zini-o‘zi aniqlashi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va ijtimoiylashuvi, axloqiy me’yorlar hamda xulq-atvor me’yorlarini qabul qilishiga yordam beradi. Folklor asarlarini o‘qitish orqali talabalarda hissiy tajribani rivojlantirish mumkin. Ularning xulq-atvorining rivojlanishi hamda o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Xalq og‘zaki ijodi orqali barcha psixik jarayonlar rivojlanadi. Ko‘p qirrali aqliy faoliyat, voqelik haqida umumiy bilim, faol shaxsiy pozitsiyani rag‘batlantirish, axloqiy jihatlarni tushunish, kishida dunyoqarash va ko‘rish, tinglash, eshitish qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Musiqiylik – xayoliy fikrlashni ya’ni idrok etishni yanada yuksaltiradi. Kishida turli to‘qimalarni eshitish va ajratib olish qobiliyatini yanada rivojlantiradi.

Folklor asarlarini o‘qitish orqali talaba yoshlarda ijodiy ishtiyoqqa qiziqishni oshirish, uning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Insonda tassavurni yanada boyitadi. Folklor asarlarini o‘qitish natijasida inson tafakkurida tasavvur rivojlanadi, uning xayoliyotining rivojiga va o‘zining erkin tasavvurini shakllantirishiga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Xalq pedagogikasining asosiy vositalari xalq og‘zaki ijodi, xalq qo‘shiqlari, xalq raqslari va musiqasida ko‘rinadi. Buning barchasi folklorda mujassamlashgan.

Buning natijasida kelajak avlodga folklor asarlarini tushunarli va o‘zgarishlarsiz yetakazib berish zaruriyati mavjuddir. Folklor asarlarining saqlab qolinishi va rivojlanishi millatning, davlatning o‘zligini saqlab qolish imkoniyatini yanada kuchaytiradi.

Shunday ekan, yoshlarning hissiy holatlarini rivojlantirish va ularning faolliklarini oshirishda folklor asarlarining psixologik imkoniyatlari va pedagogik ahamiyati borasida tadqiqotchi Y.A.Medvedevaning fikriga ko‘ra “San’at bilan bog‘liq va ontogenezning dastlabki bosqichlarida namoyon bo‘lgan faoliyat insonning madaniyat subyekti sifatida individualligini namoyon etishga yordam beradi”[3]. Insoniyat tarixi davomida folklor shaxsni shakllantirish tizimida asosiy o‘rinlarni egalab kelgan.

Folklor asarlari orasida xalq og‘zaki ijodi va musiqa san’atining roli insonga psixofiziologik jihatdan metobolizmni faollashtirish, qonning daqiqali hajmiga, yurak urishining tezligiga, qon bosimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘rish, eshitish va boshqa retseptorlarning faollashishiga hamda tananing fiziologik, biologik ritmlarining o‘zgarishi va reaksiyalarni oshirishga olib keladi. Folklor asarlarini o‘rganish psixologik jihatdan va inson salomatligiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Kichik tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, folklor asarlarini o‘rganish shaxsning hissiy rivojlanishiga, hissiy sezgirlik va idrokning rolini oshishiga, tinglovchida his-tuyg‘ular, fikrlar va hissiy intellektual, insonning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Folklor asarlarini o‘rganish orqali insonda quyidagi holatlarda o‘zgarish bo‘ladi:

Birinchi navbatda, aqliy faoliyat faollishadi.

Ikkinchi navbatda, intellektual va ijodiy faoliyat optimallashadi.

Uchinchi navbatda, diqqatni jamlashga yordam beradi.

To‘rtinchi navbatda, qisqa muddatli xotirani yaxshilaydi.

Beshinchi navbatda, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aql ko‘rsatkichlarini oshiradi.

Oltinchi navbatda, tasavvurni rag‘batlantiradi.

Yettinchi navbatda, inson xatti-harakatlarini o‘zgartiradi.

Inson psixologiyasining o‘zgarishi va uning rivojlanishiga faolklor asarlarining ijobiy ta’siri doirasida N.V.Shutova o‘zining tadqiqotlarida bolalik davrida aqliy tuzilmalar rivojlanishining notekisligi va plastikligini hisobga olgan holda folklor asarlarining maxsus tashkil etilgan tarkibiy va dinamik tizimini taklif qiladi. Folklor ta’sirini tuzilishi integratsiyalashgan tizimning iyerarxik darajalari bo‘lgan uchta quyi tizimning o‘zaro ta’siri bilan ifodalaydi.

1) psixofiziologik daraja: vizual, eshitish va boshqa retseptorlarning faollashishi, so‘ngra tananing fiziologik va biologik ritmlari (qon aylanishi, nafas olish, ichki sekresiya va boshqalar) o‘zgaradi), jismoniy ishlashning oshishi, reaksiyalarning o‘zgarishi;

2) psixologik daraja: hissiy va ixtiyoriy sohada o‘zgarishlar yuz beradi, shaxsning psixologik faoliyati, uni idrok etish, e’tibor, xotira o‘zgaradi;

3) ijtimoiy-shaxsiy daraja: shaxsga ta’sir qiluvchi musiqa unda katartik reaksiyaga sabab bo‘ladi, uni o‘zgartiradi va uyg‘unlashtiradi; dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, shaxsga yo‘naltirish, xarakter uning ta’siriga tushadi.

Shunday qilib, tadqiqotchi N.V.Shutovaning fikriga ko‘ra, umuman olganda, folklor odamga psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-shaxsiy darajada ta’sir qiladi. Shuning uchun uning bola psixikasiga ta’sirining tabiatini o‘rganish ushbu murakkab ta’sirni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bunday konseptual yondashuv yangi istiqbollarni ochib beradi, bunda folklor asarlari bir vaqtning o‘zida bolaning hissiy va aqliy faoliyatini optimallashtirish vositasi bo‘lib, uning shaxsiyatining ma’naviy o‘sishi va axloqiy yaxshilanishiga olib keladi[4].

Bolalar folklorining eng yirik tadqiqotchisi G.S.Vinogradovning so‘zlariga ko‘ra, “bolalar folklori psixologlar uchun ham, ilmiy fikr vakillari uchun ham, amaliy o‘qituvchilar uchun ham qiziqish uyg‘otadi”. Bolalar folklorining individual janrlarini ularning intensiv yosh dinamikasida o‘rganish bolalarning badiiy tafakkurining rivojlanish qonuniyatlarini tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, bu asosan xalq ijodiyoti asarlarini idrok etish orqali shakllanadi. Musiqiy folklor – bu bolalarning hissiy buzilishlarini tuzatish, uning barcha parametrlarini rivojlantirish, shuningdek, uning ta’sirchan tarkibiy qismlari bilan bog‘liq psixikaning kompensatsion imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadiga erishishga yordam beradigan tuzatish vositasidir.

Ko‘plab psixologlar o‘z tadqiqotlarida hissiyotlar va fantaziyalar o‘rtasida bog‘liqlik borligini tasarruf etishadi. L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra “hissiyot tanamizning mimik, pantomimik, sekretor va somatik reaksiyalarida emas, balki bizning tasavvurimiz orqali ma’lum bir ifodaga muhtoj. Folklor har doim sirlar va sarguzashtlarni, ajoyib, xayoliy elementni, aniq, shaffof qurilgan to‘qnashuvlarni o‘z ichiga oladi”[5].

Musiqani idrok etish, odamning ongida tovushli materialning aksi sifatida, shuningdek, psixofiziologik jarayondir, chunki musiqa tufayli kelib chiqadigan his-tuyg‘ular va hissiyotlar insondan ma’lum bir reaksiya usulini talab qiladi (ilhom, ko‘z yoshlar, kulgi, yurak urishi, nafas olish, puls, turli xil galvanik teri reaksiyalari). L.S.Vigotskiy o‘z asarlarida san’at markaziy tuyg‘u ekanligini ta’kidlaydi. San’at hissiyotlari aqlli hissiyotlardir. Mushtlarni qisish va qaltirashda o‘zini namoyon qilish o‘rniga, ular asosan fantaziya tasvirlarida hal qilinadi – deya o‘z fikrini bildirgan.

Xulosa. O‘rganishlarimizdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o‘zbek folkor san’ati miloddan oldingi vaqtlarga borib taqalishini, shu bilan birgalikda folklor asarlarini o‘qitishda talaba yoshlarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zaruriyati ilmiy asoslar bilan ochib berildi.

Folklor asarlarini o‘qitishda o‘rganuvchining psixologik

ruhiyatiga ta’sirini inobatga olish, dostonlarni o‘rgatishda, avvalo, bola yoshiga mos dostonlarning tanlab olinishi o‘zlashtirishning oson bo‘lishiga yordam beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan folklor san’atini rivojlantirish va o‘zbek folklor namunalarini jahonga yetkazish borasida filmlar suratga olish va namoyishini kuchaytirish, talabalarning folklor san’atiga qiziqishini oshirish maqsadida folklor san’ati turlari naminatsiyalari bo‘yicha kichik tadbirlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л., 1974.
2. Жирмунский В.М. Узбекский народный героический эпос. – М.,1947.
3. Медведева, Елена АлексеевнаАртпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для вузов / Е. А. Медведева [и др.]; под редакцией Е. А. Медведевой. 2-е изд., испр. и доп. Электрон. дан. – Москва: Юрайт, 2024. 274 с
4. Шутова Н. В. Интегрированное психическое развитие проблемных детей старшего дошкольного возраста средствами музыкального воздействия: монография. – Москва: МГГУ; – Нижний Новгород: НГПУ, 2008. 225 с
5. Выготский Л.С. К вопросу о психологии и педологии // Культурно-историческая психология. 2007. № 4.

Normuhammad UBAYDULLAYEV,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
normuhammadubaydullayev@gmail.com

BIOGRAFIK ASARLARNING TARIXIY ILDIZLARI

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Boburning jahonga mashhur qomusiy asari «Boburnoma»ni hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘qishni tavsiya etgan bo‘lardik. «Boburnoma» – o‘zbek mumtoz adabiyotining nodir yodnomasidir. Jahon sharqshunoslari Boburning kitobiga shunchalik qiziqadilarki, asar ingliz tiliga o‘n marotaba tarjima qilingan. «Boburnoma» – birinchi navbatda shahanshoh Bobur, padar Bobur, lashkarboshi Bobur, samimiy Bobur, saxovatli Bobur, haqgo‘y Boburning umriy tarjimayi holidir. Dunyo olimlari Boburni jahonning yirik imperatorlariga qiyoslab, yakdillik bilan uning dilbar shaxsligini ta’kidlashadi. «Boburnoma»ni o‘qisangiz, Bobur haqidagi haqiqiy ko‘p seriyali kino ko‘rganday huzur qilasiz. Muhimi, Bobur shaxsiga sizda havas uyg‘onadi. Va ijodkorni o‘zlari yaqindan biladigan bir odam sifatida yaxshi ko‘rib qoladilar. Bilmay turib sevish, sevmay turib chuqur bilish mumkin emas. Bu hol “Boburnoma”ni o‘qish va o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli oshiradi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma” asari, hujjatli asar, badiiy haqiqat, hayotiy haqiqat, memuarlar, kundaliklar, xotiralar, esdaliklar.*

Аннотация: мы бы порекомендовали прочитать всемирно известное комическое произведение Захириддина Мухаммада Бабура «бабурнома»на современном узбекском литературном языке. “Бобурнома” – редкий памятник узбекской классической литературы. Книга Бабура настолько заинтересовала мировых востоковедов, что произведение было переведено на английский язык десять раз. “Бабурнома” - это прежде всего жизнеописание шаханшаха Бабура, падар Бабура, полководца Бабура, искреннего Бабура, щедрого Бабура, справедливого Бабура. Ученые всего мира сравнивают Бабура с крупнейшими императорами мира, единодушно подчеркивая его очаровательную личность. Когда вы читаете “бабурному”, вы чувствуете себя так, как будто смотрите настоящий многосерийный фильм о Бабуре. Важно то, что в вас проснется зависть к личности Бабура. И создателя будут хорошо видеть как человека, которого они хорошо знают. Любить, не зная, невозможно познать глубоко, не любя. Это обстоятельство значительно повышает эффективность чтения и усвоения “Бабурномы”.

Ключевые слова: *«Бобурнома», документация, художественная правда, жизненная правда, мемуары, дневники, воспоминания, реминисценции.*

Annotation: Zahiriddin would have recommended Muhammad Babur's world-famous Qomusi work, "Baburnoma", to be read in the present Uzbek literary language. "Boburnoma" is a rare ode to Uzbek classical literature. World Orientalists are so interested in Beaver's book that the work has been translated into English ten times. "Baburnoma" is primarily a lifetime biography of Shahanshah Babur, Padar Babur, Army Chief Babur, heartfelt Babur, generous Babur, khaggi Babur. Scholars of the world compare Babur to the major emperors of the world and unanimously emphasize his charming personality. If you read "the beaver", you will enjoy it as if you were seeing a real multi-series movie about the Beaver. The important thing is that the person of

Babur wakes up in you with enthusiasm. And they love the creator as a person with whom they know closely. It is impossible to love without knowing, to know deeply without loving. This case significantly increases the efficiency of reading and mastering the “bubble”.

Keywords: *"Boburnoma", documentary, artistic truth, life truth, memoirs, diariyes, memoriyes, reminiscyencyes.*

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, adabiyot kitoblarida muallif tomonidan berilgan avtobiografik ma’lumotlardan tashqari, u haqida boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarga ham tayanish jiddiy didaktik samara keltiradi. Mumtoz adiblar haqidagi bunday manbalar kitobxonni adiblarning ma’naviy dunyosiga yaqinlashtiradi, uni bir tirik odam sifatida tuyish imkonini beradi. Adib shaxsiyatini yaxshi biladigan zamondoshlarining yozgan xotiralari kitobxonlarning ijodkor va uning asariga qiziqib qolishini ta’minlaydi. Bu to‘g‘risida adabiyotshunos va metodist olim professor B.To‘xliyev o‘zining “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kitobida: “Ayrim adiblarning tarjimayi holini o‘rganishda boshqa kishilar, mashhur shaxslar, yirik olimlar, yirik davlat va jamoat arboblarining fikrlaridan ham foydalanish mumkin bo‘ladi. Masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Erniyozbey o‘g‘li Ogahiy, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat singari ko‘plab mumtoz adabiyotimiz vakillarining hayoti va ijodini o‘rganishda shu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi”[To‘xliyev, 2010;123], – degan fikr bildiradi.

Yozuvchining shaxsi to‘g‘risida muhim ma’lumot beruvchi manba ijodkorning zamondoshlari, u bilan muloqotda bo‘lgan, turli suhbat, voqealarda ishtirok etgan yoki uning shaxsiyati va ijodini puxta o‘rgangan kishilar hisoblanadi. Masalan, Bobur to‘g‘risida quyidagi fikrlar Boburni ijodkor shaxs sifatidagi qiyofasini tiklash hamda uning ko‘rkam bitiklarini anglab yetishga yordam berishi shubhasiz:

“Tarixi Rashidiy”dan: “U turli go‘zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelar edi“.

Hasanxo‘ja Nisoriy: “Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi“.

Javoharla’l Neru: “Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan“.

Monstyuart Yelfinston: “Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o‘z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir“.

Rumer Goden: “Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo‘lsa-da, u o‘z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko‘tarildi. O‘z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o‘lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi”.

Pirimqul Qodirov: “Bobur mirzo so‘z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o‘zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o‘g‘li Humoyunga “Boburnoma” ni tugallab taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu “Vaqoyi’”ni o‘qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g‘amlar ko‘rdum[To‘xliyev va b., 2017;135].

Ingliz olimi Denison Rossning Bobur haqidagi fikrlari kitobxonlarning Bobur shaxsiyati borasidagi tasavvurlarini kengaytiradi: “Bobur turkiy she’riyatda Alisher Navoiydangina keyingi o‘rinda edi. U sof va nafosatli turkiyda devon tartib etdi. U nazm yo‘lida “Mubayyin“ atalmish asarini yaratib, shu bilan ko‘pchilik tomonidan foydali deb topilgan islomiy huquqshunoslikka doir ta’limotning muallifi bo‘ldi, shuningdek, turkiydagi aruz vazni haqida benazir risola yozdi va “Risolayi volidiya“ni tarjima qildi. Uning bequsurlikda yagona hamda jo‘n uslubda yozilgan “Vaqoye’“ yoki “Tarixi turkiy“ asari ham bor. U musiqa va o‘zga san’atlarni g‘oyatda nozik idrok etardi”[To‘xliyev va b., 2018;161].

Mutaxassislar biografik asarni boshqa bir qator adabiy janrlar bilan kesishuvchi janr deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham, biografik asarning memuarlar, kundaliklar, xotiralar, esdaliklar, sayohatnomalar bilan o‘xshash tomonlari bor. Lekin o‘zga janrlardagi bitiklardan biografik va avtobiografik asarlarda muallifning diqqat markazida o‘zining voqelik bilan uzviy aloqadagi shakllanish tarixi, qalb va ongi tarixi turadi[Quronov, 2013;5].

Tarixiy-memuar asarlar ham ba’zan qaysidir ijodkorlarning hayot yo‘li va shaxsiyatini bilishning muhim manbasi bo‘lishi mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida tarixiy voqealar, ba’zi shoir va yozuvchilarning hayot yo‘liga oid qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. “Boburnoma” – biografik asar deyishimizga sabab, asarining “To‘qqiz yuz o‘n birinchi (1505-1506) yil voqealari” sarlavhali

qismida bir yo‘la ikki buyuk shaxs haqida: “...Yana, Alisherbek Navoiy edi. Begi emas, balki suhbatdoshi edi, kichikligidan maktabdosh bo‘lishgan ekan“[Bobur, 2008;132], – yo‘sinida ma’lumot berilgan. Ushbu ma’lumotdan Alisher Navoiyning bolalikdan birga o‘ynab katta bo‘lgan do‘sti sulton Husayn mirzo ekani anglashiladi. Bu ma’lumot kitobxonlarga Alisherning sulton Husayn oldidagi beqiyos obro‘sining sababini izohlaganday bo‘ladi. Boshqa bir o‘rinda Bobur mirzo Navoiy shaxsiyatiga xos g‘oyat muhim bir xususiyatni alohida ta’kidlaydi: “Alisherbek mizojining nozikligi bilan mashhurdir. Odamlar nazokatini davlatining g‘ururidan deb tasavvur qilardilar. Unday emas ekan. Bu sifat unga tug‘ma ekan. Samarqandda yekanida ham xuddi shunday nozikmizoj ekandir” [Bobur, 2008;133]. Qisqagina bu chizgi yordamida Zahiriddin Muhammad Bobur Alisherbekning tabiatidagi juda muhim bir jihatni ko‘rsatib beradi. Alisher Navoiyning g‘oyat nazokat bilan bitilgan, o‘ta nozik insoniy tuyg‘ular injalik bilan ifoda etilgan asarlarini tahlil qilishda bu chizgi katta ahamiyat kasb etadi. Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Mehr, Suhayl timsollaridagi ingichkalik va noziklikning ildizi buyuk mutafakkir shoirning shaxsiyatidan suvlanishi kitobxonlar tomonidan bilib olinishi bu asarlarni teranroq tushunishga xizmat qiladi.

“Boburnoma“da buyuk Navoiyning shoirlik iste’dodi to‘g‘risida: “Alisherbek o‘xshashi yo‘q kishi edi. Turkiy til bilan to she’r bitibdilar, hech kim unchalik ko‘p va yaxshi yozgan emas. Olti masnaviy (doston) kitob nazm qilgan: beshi “Xamsa” javobida, yana biri “Mantiq ut-tayr“ vaznida “Lison ut-tayr“ nomli. To‘rt g‘azaliyot devonini tuzgan: “G‘aroyib us-sig‘ar“, “Navodir ush-shabob“, “Badoye’ ul-vasat”, «Favoid ul-kibar»… Fazl ahli va hunar ahliga Alisherbekchalik murabbiy va homiylik qilgan odam dunyoda boshqa topilmasa kerak. Sozda peshqadam bo‘lgan ustoz Qulmuhammad, Shayx Noyi va Husayn Udiy bekning tarbiyasi va homiyligi bilan shuncha kamol topib, shuhrat qozondilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa’y-harakati bilan ma’lum va mashhur bo‘ldilar. Shunchalik ko‘p xayriy binolar bunyod qildiki, oz kishi bunday ishga muvaffaq bo‘la oladi» [Bobur, 2008;134]. Alisher Navoiyning zamondoshi tomonidan qilinayotgan ushbu e’tirof keyingi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga qaraganda kuchliroq tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni kitobxonlar buyuk Navoiy faqat bizning zamonimizda emas, balki o‘z davrida ham eng talabchan va sinchkov odamlar tomonidan tan olinganini bilib olishadi. Bu hol uning beqiyos shaxsiyatiga muhabbat uyg‘otadi, ijodkor shaxsiga bo‘lgan muhabbat uning asariga muhabbatga aylanishi shubhasiz.

Navoiyning boshqa bir yosh zamondoshi va shogirdi Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida buyuk mutafakkirning shaxsiyatidagi qo‘li ochiqlik, g‘arazsizlik, bag‘rikenglik, yosh ijodkorlarga e’tibor, obodlikka o‘chlik, adolatsevarlik, topqirlik singari go‘zal fazilatlarni hayotiy misollar bilan ko‘rsatib beradiki, bularni bilish va kitobxonlarga bildirish Navoiy asarlarini o‘rganishning samaradorligiga kafolat bo‘ladi.

“Boburnoma” asarida Bobur taxtga chiqqan 1494-yildan 1530-yilgacha, ya’ni umrining oxirigacha muallif boshidan kechirgan voqealar tasvirlangan. Bobur asarida voqealarni qayd etish bilan cheklanib qolmay, bu voqealarning ishtirokchilari tasviriga ko‘p o‘rin bergani sabab o‘sha davrda yashab, mamlakat tarixida muayyan iz qoldirgan taniqli shaxsiyatlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi. Muallif otasi Umarshayx Mirzo, onasi, momosi, opasi, ukasi to‘g‘risida; amakisi Sulton Ahmad, tog‘asi Sulton Mahmud, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Umarshayx kabi ko‘plab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Husayn Udiy, Kamoliddin Binoiy, Mirak naqqosh, Behzod singari adabiyot va san’at arboblari haqida ularning shaxsiyatidagi eng muhim jihatlar ko‘rsatib berilgan qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Muallif asarda har bir yil voqealarini alohida kitobxonlar e’tiboriga havola qilib, Bobur shaxsidagi o‘sish-o‘zgarishlarni kuzatishga chaqirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Boburnoma”ni sinchiklab tahlil qilish kitobxonlarda maqsad yo‘lida qiyinchiliklardan cho‘chimaslik, intiluvchanlik tuyg‘ularini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Ayniqsa, asardagi Samarqanddan quvilgan, Andijonga kiritilmagan Boburning o‘sha vaqtdagi holatining: “Aksar yalangoyoq yurur edim, yalangoyoq ko‘p yurgandin oyoqlarim andoq bo‘lub edikim, tog‘ va tosh tafovut qilmas edi”, – yo‘sinidagi tasviri mohiyati anglab yetilsa, muallif obrazi kitobxonlarning idealiga aylanishi mumkin.

Adabiy ta’lim tajribasidan yaxshi ma’lumki, badiiy asarlarni o‘rganishda suhbat metodini qo‘llash ko‘p samara keltiradi. Ushbu usul orqali kitobxonga nafaqat bilim beriladi, balki u tarbiyalanadi va mustaqil fikrlashga ham yo‘naltiriladi. Suhbat xotira va kuzatuvchanlik, tasavvur va xayolotni faollashtiradi. Suhbat davomida o‘rganilayotgan asarning mohiyati namoyon bo‘libgina qolmay, har bir kitobxonning o‘ziga xos xususiyatlari ham oydinlashadi. To‘g‘ri tashkil etilgan didaktik suhbat sinfdagi har bir kitobxonni fikrlashga undaydi. Adabiyot saboqlarini suhbat shaklida tashkil etishda avtobiografik xarakterdagi asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. O‘rta maktabning yuqori sinflarida Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishga bag‘ishlangan saboqlarda

Bobur, Vosifiy, Xondamir va boshqa mualliflarning buyuk mutafakkir shoir shaxsiyatiga doir ma'lumotlaridan foydalanib suhbat uyushtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. 123-bet.
2. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi (1-qism) uchun darslik. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 135-bet.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi (1-qism) uchun darslik-majmua. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 161-bet.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. 5-bet.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi NMIU, 2008. 132-bet.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi NMIU, 2008. 133-bet.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi NMIU, 2008. 134-bet.

Shoiraxon TOSHXO'JAYEVA,
PhD, Qo'qon DPI dotsenti

ERKIN A'ZAM ASARLARIDA ELLIPSIS

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida ellipsis hodisasi va uning o'rganilishi tadqiq etiladi. Shuningdek, yozuvchi Erkin A'zam asarlarida qo'llangan elliptik vositalar hamda ularning lingvopoetik tahlili beriladi.
Kalit so'zlar: *ellipsis, kontekstual ellipsis, situativ ellipsis, lingvopoetika, ekspressiv-sintaksis.*
Аннотация: в работе исследованы случай эллипсис и его изучение в лингвистике узбекского языка. Также, приводится анализ эллипсис в произведениях писателя – Эркина Аъзама и их лингвопоэтический анализ.
Ключевые слова: *эллипсис, контекстуалный эллипсис, ситуативный эллипсис, лингвопоэтика, экспрессив-синтаксис.*
Annotation: in paper the ellipsis and their study in modern uzbek linguistics were explored. In addition, in Erkin A'zam works synonyms was analyzed and their lingvopoetic investigation were showed.
Key words: *ellipsis, contextual ellipsis, situational ellipsis, expressive syntax.*

Ma'lumki, ijtimoiy hayotning barcha tarmoqlarida bo'lgani kabi tilda ham tejamkorlik va ortiqchalilik tamoyili mavjud. Aloqa jarayonida doimo qisqalikka intilish tabiiy ravishda yuzaga keladi. So'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan nutqiy ifodani yuzaga chiqarishda tildagi mavjud vositalardan to'g'ri kelganini emas, balki nutqiy vaziyat, holat uchun zarur hisoblangan, fikrni aniq, lo'nda va qisqa tarzda tinglovchi yoki o'quvchiga yetib borishini ta'minlashga xizmat qiluvchi til birliklaridan foydalanadi. Tildagi tejamkorlik tamoyili asosida tilshunoslikda ellipsis hodisasi paydo bo'ladi va bu hodisa tilning sintaktik sathida voqelanadi.

O'zbek tilshunosligida ellipsis hodisasi birinchi marta monografik aspektda N.Mahmudov tomonidan o'rganilgan. Olimning "O'zbek tilida ellipsis" nomli nomzodlik dissertatsiyasida bu hodisaning stilistik vosita ekanligi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da[1;110], asosiy e'tibor ellipsisning sodir bo'lishidagi sintaktik va semantik xususiyatlar tadqiqiga qaratilgan. Unda semantik va situativ – kontekstual ellipsislar o'zaro farqlanib, ularning sodir bo'lishiga sabab bo'lgan semantik-sintaktik omillar matn doirasida emas, gap doirasida ko'rsatib berilgan.

So'nggi paytlarga kelib, turli tilshunosliklarda badiiy matn tadqiqida ellipsisning lingvopoetik vazifalari tilshunoslarning jiddiy e'tiborini tortdi, ellipsisning lingvopoetik imkoniyatlarini alohida muammo sifatida o'rganishga kirishildi.[2;188] Badiiy matn tarkibida ellipsisning alohida lingvopoetik qimmatga ega ekanligi o'zbek tilshunosligida ham turli o'quv qo'llanmalarda qayd etila boshladi.[3;112]

Erkin A'zam asarlarida ellipsislarning asosan, kontekstual va situativ kabi turlari qo'llanilgan.

1.**Kontekstual ellipsis.** Ellipsis hodisasining yuzaga kelishida kontekst va situatsiya asosiy omillardan hisoblanib, axborot mazmunini tinglovchiga yetkazishda yordam beradi. Kontekst deganda, nutq muhitlari majmui tushuniladi. Kontekst til omili sifatida, vaziyat esa tildan tashqari, ya'ni ekstralingvistik omil sifatida namoyon bo'ladi. Kontekstual ellipsislar, asosan, dialoglarda sodir bo'ladi. Ammo bu monologik nutqda kontekstual ellipsis sodir bo'lmaydi, degani emas. Monologik nutqda ham kontekstual ellipsis kuzatiladi. Masalan: *Sirasi, o'zim shu yaqin atrofda katta bo'lib, mulla Uzoq kimligini aniq bilmasdim. O'sha ko'chada nechundir qari-quri ko'proq, uch-to'rt kishilashib u yoq-bu yoqqa gangir-gungir qilib yurishar, bularning orasida mulla*

Uzog‘i kim – bilib bo‘lmas edi. Mudom oppoq soqolini tutamlab yerga o‘ychan boqib yuradigan bir mo‘ysafid bor edi, xayolimda, o‘shanisi bo‘lsa kerak. (“Manzuma otin”,274) ushbu parchani o‘qish jarayonida kitobxon muallif monologik nutqida ataylab tushirib qoldirilgan mulla Uzoq shaxsini anglab olishi qiyin emas. Chunki fikr aynan mulla Uzoq to‘g‘risida boradi va kitobxon ko‘z o‘ngida o‘sha shaxs aniq gavdalanadi.

Kontekstual ellipsislar adib asarlarida xilma-xil lingvopoetik imkoniyatlarga ega. Masalan: *Nihoyat, qo‘ng‘iroq chalinib, yo‘lak g‘ala-g‘ovurga to‘ldi. Eshikdan chiqib, u yoq-bu yoqqa alanglagan Akbarova meni ko‘rdiyu chopqillab oldimga keldi.*

- Aytib qo‘ying, dugonangizni ko‘rgani ko‘zim yo‘q!

- Xo‘p, aytib qo‘yaman, - dedi Akbarova mendan tezroq qutulishning evini qilolmay.

- Sizni ham! (“Otoyining tug‘ilgan yili”,21) parchasida Asqarning sevgilisi tushunchasini ifodalovchi so‘zlar Asqar Shodibek o‘g‘li va “yaltiragan” Akbarova nutqlarida ataylab tushirib qoldirilgan. Bunga kontekst, ya’ni parchadagi boshlovchi jumla imkon bergan. Kontekstual ellipsis mazkur holatda Akbarovaning Asqarga bo‘lgan hurmatini, uning ko‘ngliga ozor bermaslikka intilishini ta’kidlash maqsadida qo‘llanilgan. Asqar fikrlarining elliptik tarzda ifodalanishi esa kontekstda alohida badiiy-estetik ta’sirchanlikka ega. Agar uning fikrlari *“Sizni ham ko‘rgani ko‘zim yo‘q!”* tarzida to‘liq yakunlanganda yozuvchi ko‘zlagan maqsad amalga oshmas, balki asar qahramonining ichki his va kechinmalarini to‘liq ko‘rsatib bera olmas va andishasizlik, pisanda qilish, zaxarxandalik kabi ma’nolar matnda bo‘rtib ko‘rinmas edi.

Dialoglarda kontekst, ya’ni nutq ishtirokchilarining gaplari g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Shu asosda so‘zlovchi tomonidan asosiy deb hisoblanmagan bo‘laklar tushirib qoldiriladi. Kontekstual ellipsis gapning aktual bo‘laklanishi nuqtayi nazaridan, tema ifodachisi bo‘lgan bo‘lakni tushirib, remani birinchi planga chiqarish, uni ta’kidlash uchun xizmat qiladi.

Ba’zan kontekstual ellipsis frazeologik iboralarning muayyan qismlarini tushirib qoldirish hisobiga ham bo‘ladi. Masalan: *- Zanjabil ham esdan chiqmasin, hoy Shamsiddinxon aka!*

- Chiqmaydi, chiqmaydi, - deydi Shamsiddin qo‘llarini ko‘kragida qovushtirib. (“Farishta”)

Parchada birinchi replikada esdan chiqmoq iborasi qo‘llangan bo‘lib, ikkinchi replikada uning esdan qismi kontekstual ellipsisga uchragan. Bu iboraning tayanch qismi chiqmaydi shaklida elliptik gapni hosil qilgan va u ikki marta takrorlangan. Buning natijasida mazkur iboraning ma’nosi ikkinchi replikada kuchli ta’kid olgan, ayni paytda bo‘lishsizlik ma’nosi ham yanada qat’iylashgan. Ana shu asosda frazeologik iboradagi kontekstual ellipsis lingvopoetik salmoqqa ega bo‘lgan.

2.**Situativ ellipsis.** Situatsiya aytilmagan fikrning – bo‘lakning kompensatsiyasi sanaladi. Bunda gapirayotgan va tinglayotgan kishilar gap nimada ekanligini, kim va nima haqida so‘z borayotganligini bilishadi. Tabiiyki, gap strukturasidagi har qanday bo‘lak situativ ellipsisga uchrashi mumkin va har qanday holatda ham situativ ellipsis lingvopoetik qimmatga ega bo‘laveradi. Ayniqsa, yozuvchi ijodida gap kesimining situativ ellipsisi natijasidagi lingvopoetik ta’kid boshqa holatlarga qaraganda sezilarli darajada kuchli bo‘ladi. Mana bu parchani ko‘raylik: *Yigit ko‘zimga tanishdek ko‘rindi. Esladim: o‘yin kunlari “Paxtakor” stadioniga kiraverishdagi maydonda somsa sotardi. Boshida paqirdek oq qalpoq, egnida cho‘ntaklarining og‘zi moy bosgan yag‘ir xalat, oldida aravacha – “Kepqoli-ing, dumbali somsa!..”*

Sayra, qo‘bizim, sayra!

Bashariyat, aql bobida o‘z ajdodlaridan ilgarilab bormoqda, inson yuragi bilan ish ko‘rib jumlai jahonni hayratga solgan mashhur jarroh Kristian Barnard, qo‘llari bodga chalinganiga qaramay, hamon ana shu nozik uzvga yo‘l izlamoqda, jamiyatga ko‘proq naf keltirish maqsadida badiiy ijod sohasida ham kuch sinamoqda; yer yuzida besh million odam ochlikdan azob chekmoqda.....- Los-Anjeles, Buenos-Ayres, Addis-Abeba, Rio-de-Janeyro singari doimo g‘aroyib hodisa-hangomalar sodir bo‘lib turadigan manzillarda aqlni shoshiradigan ne-ne turfa gaplar kechmoqda. Bu esa... “Kepqoli-ing, dumbali somsa!..” – shundan boshqasini bilmaydi, qiziqmaydi, o‘ylamaydi. Somsa sotadi, bashang kiyinadi, jirkanch loflari bilan sodda-bayov qizlarning boshini aylantiradi – qiladigan ishi shu. Azza-bazza shuning uchun dunyoga kelgan! (“Otoyining tug‘ilgan yili”,25) Keltirilgan matnda vaziyat ta’sirida asar qahramonida hosil bo‘lgan ruhiy- emosional holat ellipsis vositasida yanada ta’kidlangan. Nutq vaziyati o‘laroq tasvirlangan somsa sotuvchi yigitning dunyodan bexabar *“Kepqoli-ing, dumbali somsa!..”* deb xaridorlarni chaqirishi aslida noelliptik shaklda *“Kepqoli-ing, dumbali somsa!..”* deya baqiradi – shundan boshqasini bilmaydi... tarzida tuzilishi lozim bo‘lgan gapdagi deya baqiradi kesimining situativ ellipsisi uchun imkoniyat bergan.

Ko‘pincha, yozuvchi nutq vaziyati tasvirida situativ ellipsisga uchraydigan bo‘lak, masalan, ko‘rsatish olmoshi vazifasidagi so‘z ifodalagan shaxs tushirib qoldiriladi. Ammo situativ elliptik gap orqali asosiy fikr – rema mantiqiy-badiiy ta’kid oladi. Quyidagi misolda bu holatni kuzatish mumkin: *Biroq, men bu orzumga yetishga ulgurmasdan Akbarova navbatdagi axboroti bilan osmonimni yana alamzadalik bulutiga ko‘mib yubordi. ....*

*- **(Uni)** Ko‘rsangiz – tanimaysiz, og‘zi to‘la tish! – deya u hech kim so‘ramagan bo‘lsa-da, Matluba haqida axborot berishga tushdi.*

- Bundan chiqdi, eri aspirant emas, magazinchi yoki qassob ekan-da? – dedim o‘zimni loqayd ko‘rsatishga tirishib.

*- Yo‘q, nega, **(uning eri)** aspirant... - dedi fe’limga hiylagina ko‘nikib ketgan Akbarova xotirjam ohangda . –*

(Ular) *Yaqinda mashina olisharmish...*

- Surishtirib ko‘rmadingizmi, qachon samolyot olisharkan? – dedim uning ko‘ziga g‘azab bilan tikilib... (“Otoyining tug‘ilgan yili”,27)

Nutqiy vaziyat, so‘zlovchilarning mimika va jestlari kabi ekstralingvistik omillar situativ elliptik gaplar qurishning asosidir. Situativ elliptik gapdagi ma’lum bir fikr yoki fikrning muhim qismi mantiqiy-poetik ta’kid oladi, ayniqsa, adib E.A’zam ijodida vositasiz to‘ldiruvchi va kesim situativ ellipsisga uchraganda bu ta’kid juda kuchli bo‘lishi ko‘plab kuzatiladi.

Yozuvchi vaziyat tasviri va qahramon nutqini shunday sintezlaydiki, natijada nutqiy vaziyat ham “gapirganday bo‘ladi”. Masalan: *Man filfakdaman. Bu yil bitirvopman. Hozir-chi, diplom yozvopman. Tildan. Shevalardan. (“Bayramdan boshqa kular”189.); Lekin bir yil ham yashar-yashamas, qudalar o‘rtasida eski oldi-berdidan gap qochib, nizo chiqibdi. Bu katta mojaroga aylanib, otasiyu akalari kelib qizni olib ketishibdi. O‘shandan beri yosh er-xotin bir-biriga talpinib sarson. (“Bayramdan boshqa kular”,246.) ; Otamni yaxshi ko‘rardim-da, uni dunyodagi eng zo‘r, eng pok-pokiza odam xayol qilardim. (“Shovqin”, 93); Farhod xotiralarga sho‘ng‘ib o‘tirarkan, zinapoyada ko‘zlari olazarak Antonina Mixaylovna paydo bo‘ldi. Yana qo‘ng‘iroq emish!*

Sur’at ekan.

- Eshitgandirsan? – dedi u atay xushhol suyunchilab. – Akang sening o‘rningga Xitoy jo‘nayapti. (“Shovqin”, 100) Quyidagi misollarda yozuvchi tomonidan atayin tushirib qoldirilgan aslida esa noelliptik tarzda quyidagicha *“Hozir-chi, diplom* ***ishi*** *yozvopman.” “O‘shandan beri yosh er-xotin bir-biriga talpinib sarson* ***yasharmish****.” “Otamni yaxshi ko‘rardim-da, uni dunyodagi eng zo‘r, eng pok-pokiza odam deb xayol qilardim.” va “Akang sening o‘rningga Xitoyga jo‘nayapti.”* tarzida ifodalanuvchi gaplar yozuvchi badiiy-estetik maqsadi bilan misollarda aynan elliptik ko‘rinish kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке: Дис. ...канд. филол. наук. –Т., 1977. 110 с.

2.Аржанова И. А. Функционально-коммуникативные и лингвопоэтические функции эллиптических конструкций в современной художественной литературе на английском языке. Дис. ...канд. филол. наук. – М., 1999. 188 с.

3.Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Т.: Фан, 2007. 123 б; Йўлдошев М., Ядгаров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили фанидан амалий машғулотларни ташкил этиш. –Т.:ТДПУ, 2007. 112 б

Ne’mat KUSHVAKTOV
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti
Jo‘rabek RAXIMBOEV
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA TARBIYA IMKONIYATLARI

Annotatsiya:mazkur maqola Muhammad Yusuf she’rlari misolida va undan foydalangan holda yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlari borasida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Muhammad Yusufning ijodi, she’riyat, adabiyot, ma’rifatdagi o‘rni haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *she’r, vatan, muhabbat, kuy, buyuk siymolar, ta’lim , tarbiya, metodlar.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о возможностях воспитания молодежи на примере стихов Мухаммада Юсуфа. Также представлены сведения о творчестве, поэзии, литературе Мухаммада Юсуфа, его роли в просветительстве.

Ключевые слова: *поэзия, Родина, любовь, мелодия, великие деятели, образование, воспитание, методы*

Annotation: this article provides information about the possibilities of educating young people using the example of the poems of Muhammad Yusuf. Information about Muhammad Yusuf's work, poetry, literature, and role in enlightenment is also presented.

Key words: *poetry, Motherland, love, melody, great figures, education, upbringing, methods.*

Juda qadimdan sharq mumtoz adabiyoti yosh ijodkorlar kamolotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Zamondosh shoirlarimiz ham sharq adiblarining faoliyatini qunt bilan o‘rganishgan. Shuning uchun ham buyuk siymolar ijodi ular uchun ijod maktabini o‘tashgan desak xato qilmagan bo‘lamiz. “Sharq shoirlari ijodiy tajribalarini o‘rganish, an’analarini yangicha yo‘nalishda davom ettirish ijodkorlarimiz uchun davr adabiyoti taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish va

o‘z ijodiy uslubiga ega bo‘lish imkonini bergan” [1].

Muhammad Yusufni she’riyat osmonidagi qisqa, lekin ibratli umri davomida zamondoshlariga, kelajak avlodga, barcha-barchaga bir-biridan go‘zal, bir-biridan chiroyli, bir-biridan ma’noli she’rlaridan iborat bebaho meros qoldirib ketdi. U millat dardini, go‘zal ishtibohlar orqali insonlarning nozik kechinmalarini ko‘rsatib berdiki, shuning uchun uning she’rlari insonlar qalbidan chuqur joy oldi.

O‘zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusuf ham sharq shoirlari ijodiy tajribalarini o‘rganib, ular tomonidan yaratilgan ijodiy an’analarini yangicha yo‘nalishda davom ettirib xalqimiz qalbidan o‘rin olgan ijodkor hisoblanadi. Muhammad Yusuf shu darajaga yetgunga qadar buyuk shoirlarning ijodi kuzatgan. Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat, Muhammad Rizo Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va Saida Zunnunova, To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripov, u nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyoti, balki rus adabiyoti namunalarini ham qunt bilan o‘rgangan va ulardan ma’naviy ozuqa olgan.

Shoirhaqidaspektaklsahnalashtirildi,kinofilmsuratga olindi, “Muhammad Yusuf xonasi”, “Muhammad Yusuf ko‘shki”, institut axborot-resurs markazida “Muhammad Yusuf burchagi” tashkil qilindi, shoirning chop etilgan yangidan-yangi kitoblari bilan boyitildi. “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarlari” nomli ilmiy jurnalda shoir ijodiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy maqolalar yaratildi. Bugunga kelib esa “Muhammad Yusuf ovoz yozish studiyasi” qurib bitkazildi va ishga tushirildi. 3 yildirki shoir ijodiga bag‘ishlab xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya yuqori saviyada o‘tkazib kelinmoqda. Bunday ezgu ishlarda institut jamoasining o‘z hissasi bor albatta. Demak, doimo izlanishda bo‘lgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Muhammad Yusuf nomini abadiylashtirish vazifasini sidqidildan bajardi va kelgusi rejalarini tuzishda davom etmoqda.[2]. Shoir ilk ijodidan to umrining oxirigacha milliy qadriyatlarni sevib yashadi.

Qo‘shiqlarim bo‘lib ovoza,
Yurtda mashhur emishman toza!..
Barcha yozgan she’rim bir kosa
Sumalakka almashaman men.

Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligi she’riyat, adabiyot, ma’rifat bayrami sifatida keng nishonlanmoqda, - dedi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid. Sana munosabati bilan “Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida” nomli kitob chop etildi. Shoir she’riyatining ohangdorligi, jozibasi o‘zgacha edi. Muhammad Yusuf o‘zini to‘kib, sochib ketgan ijodkor edi. Biz “Toshkent oqshomi” gazetasida birga ishlagandik. Gazetaga “Maqsad Yaxshiev” nomi bilan ham she’r yozar edi. Surxondaryoga borganda, “onangiz mening ayamlarga o‘xshar ekanlar” deb ko‘p aytardi. Uning she’riyatida onalar, Vatan, mehnatsevar xalqimiz timsoli ustuvor edi .[3].

Muhammad Yusufning she’rlari hech kimga malol kelmasdi,-dedi O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov. Har bir she’r uning og‘zidan chiqishi bilan odamlar ko‘ngliga etib borardi. Muhammad Yusuf hammani o‘ziga yaqin olar va barchaga birdek samimiy muomalada bo‘lar edi. Uning har bir satrida o‘zbekning hech qachon sinmaydigan qilichining jarangi yangraydi. Men ba’zan buyuk ajdodlarimizning, bobolarimiz, momolarimizning, xalq qahramonlarining so‘zlarini eshitmoqchi bo‘lsam, go‘zallikni ko‘rmoqchi bo‘lsam, Muhammad Yusuf ijodini o‘qiyman. Uning she’rlari xalqimiz mulki. Bu she’riyat bizning insonlik sha’nimizga, nomusimiz, orimizga murojaat etayotgan she’riyat. Bu she’riyat tirik, bizga yo‘ldosh, doim biz bilan birga yangrayotgan she’riyatdir.[3].

Taniqli yozuvchi, shoir Muhammad Ali esa: “Muhammad Yusuf she’riyatining eng oliy fazilati, fikrimcha, bu uning sof va pok samimiyatida mujassamdir. Samimiyat, xalqona ruh uning she’rlarini jilolantirib, bezab, ularga betakror ko‘rku tarovat bag‘ishlaydi” deydi. Sirojiddin Sayyid haq gapni aytgan: “Uni el rag‘batiga sazovor etgan - she’rlari, dehqon qo‘lidagi nonday jaydari va soddavash she’riyati. Ularda da’vo yo‘q, o‘ziga mahliyolik va bodilik yo‘q. She’rlar - ko‘ngil bog‘ining shavq shamollarida shovullab to‘kilgan yaproqlaridir.”

Biz talabalar bilan birga ishlash jarayonida O‘zbekiston qahramonlari xalq shoirlarining Muhammad Yusufga bo‘lgan muxabbatini ko‘rsatish bilan bilan bir qatorda shunday buyuk shaxslarga hurmat va extirom tuyg‘usini shaklantirib bordik. Talabalarga Muhammad Yusufning she’riyatida ilgari surilgan g‘oyalar, so‘zlar qalbga tez ko‘chadi deb aytishimiz bilan bir qatorda uning isbotini ham ko‘rsatib o‘tdik. Biz qaysi bir she’rini o‘qimaylik talabalar bizlarga jo‘rovoz bo‘lishdi. Qo‘shiqqa aylangan qaysi bir she’ri ijrosini eshitirmaylik talabalar bunga ham qo‘shilib ketishdi. Shuning o‘zi shoirning qalblarda biz bilan birga yashayotganligidan dalolat beradi.

Xalqimiz suygan qo‘shiqlardan biri Muhammad Yusufning “Vatanim”she’rini Sevara Nazarxon ulkan mahorat va dard bilan muhtasham etgan qo‘shiqdir… Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda yuqorida zikr etilgan qo‘shiq ma’nosiga mos ravishda yana nimalarni misol qilib keltirish mumkin deya talabalarga murojaat qilganimizda ular Alisher Navoiy, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Oripov ijodlaridan misollar keltirishdi.Biz talabalarga Vatan mavzusida sahna ko‘rinishini tayyorlashni topshirganimizda ular bir hafta tayyorgarlik ko‘rib, Muhammad Yusufning “Vatanim”she’riga innovatsion

yondoshib, topshirilgan vazifani sidqidildan bajarishdi. Buning sababi har bir inson o‘zligini ko‘rsatishni ich-ichidan istashsada bunga imkoniyat , shart sharoit etishmasligi mumkin, bugun esa ularga imkoniyat yaratildi. Ana shu imkoniyat doirasida undan samarali foydalanib, inson qanday yashashi kerak degan savolga javob izladik va unga o‘zimiz javob bera boshladik.Bu talabalarda Vatanga bo‘lgan muhabbat, o‘z xalqiga cheksiz hurmat tuyg‘usini shakllantirishga yordam berdi.

“Muhammad Yusuf xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflangan she’rlari bilan tanilgan va shuhrat qozongan. Uning she’rlari bir qarashda juda sodda, jo‘n yoziladiganga o‘xshab tuyuladi. Ammo unga o‘xshatib yozib ko‘ring-chi? Qo‘lingizdan kelmaydi! Uning oson yoziladiganga o‘xshab ko‘ringan misralari muhlislarini yig‘latadi, kuldiradi, o‘z og‘ushiga tortib oldi”, deb yozgan edi. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov [4,5].

Muhammad Yusuf she’rlarining ochilmagan qirralari haqida, ulardagi go‘zal tashbehlar haqida, ko‘p va xo‘p gapirsa bo‘ladi, Shoir o‘zining o‘lmas asarlari orqali kelajak avlod qalbida mangu yashaydi. Uning she’rlari o‘z Vataniga, ona yurtiga cheksiz muhabbatidan darak beradi.

Talabalarni har bir so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishga odatlantirishda yana shoirning ijodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda biz talabalar bilan birgalikda sahna ko‘rinishlarini amalga oshirdik.Bizga ma’lumki, bu san’at turi yoshlarni tarbiyalovchi muhim vositadir. Buni amalga oshirishda biz birinchi bo‘lib she’rlarni tanlab oldik.Tajriba shuni ko‘rsatdiki, kreativ fikrlashni o‘ziga ep bilmagan, bunga xohish bildirmagan talabalar bilan ishlash o‘qituvchiga zavq bag‘ishlamaydi. O‘qituvchi zavq-shavq bilan ishlashi uchun talabalar ijodiy tafakkur sohiblari va sohibalari bo‘lishlari kerak. Biz nima uchun aynan Muhammad Yusuf she’rlari orqali talabalarda nutq tarbiyasini amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ydik. Buning sababi shundan iboratki, bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqi chiroyli, jozibali, ta’sirchan bo‘lishi kerak. Xulosa shundan iboratki, shoirning asarlaridan ta’lim tarbiya jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyoqubova T. R. Sharqona poetik ifoda imkoniyatlari //O‘zbekistonda xorijiy tillar. 2020. № 3 (32), 257-275 bet.
2. Xalikulova G. E. Madaniyat va san’at jurnali, №5 2024
3. https://uza.uz/uz/posts/muhammad-yusuf-barhayot-sheriyat-sohibi 640155
4.O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov \\ https://uza.uz/uz/posts/ muhammad-yusuf-barhayot-sheriyat sohibi_640155

Go‘zal HIMMATOVA,
Termiz davlat universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
gozalximmatova97@gmail.com

QO‘CHQOR NORQOBIL NASRIDA SHAXS TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada yo‘qolib borayotgan mehr-oqibat va uning davr va insonlarga ta’siri borasida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: *davr, inson, hayot, texnika, mehr-oqibat, sog‘inch, hikoya, telefon, ayol, dunyo, ota-ona.*
Аннотация: в этой статье говорится об исчезновении доброты и ее влиянии на время и людей.
Ключевые слова: *период, мужчина, жизнь, технологии, привязанность, тоска, история, телефон, женщина, мир, родители.*
Annotation: this article discusses the disappearing love and its impact on the era and people.
Key words: *era, person, life, technology, love, longing, story, telephone, woman, world, parents.*

Bugungi davrda insonning yashash tarzi murakkablashib bormoqda. Odamzod dunyo tashvishlari, moddiy farovonlik uchun doim yelib yugurishda. Ba’zida tashvishlarga ko‘milib, ota-onamiz, yaqinlarimizning holidan xabar olishni ham unutamiz. Onda-sonda telefon qilib hol-ahvol so‘rab qo‘yganimiz bilan o‘zimizni ovutamiz. Ammo dunyoning tashvishlari tugamasligini unutamiz. Mehr, yaqinlar sog‘inchi, ota-ona diydoriga to‘yish tuyg‘usidan tobora uzoqlashayotgandekmiz.

Atoqli adibimiz Erkin A’zamning o‘tgan asrning 80-yillarida yaratgan “Piyoda” nomli hikoyasini esga olaylik. Hikoya qahramoni Berdiboy zamonasidan ortda qolgan odam. U davrning yangiliklari, zamonaviylikni qabul qila olmaydi. Uning nazdida odamlar, hatto ota-ona va farzandlar, aka-ukalar o‘rtasida ham mehr-oqibatning yo‘qolib borishiga

texnika aybdor. Uning orzulari, istaklari oddiy: “Qani endi aka-ukalar barimiz bir joyda, masalan deylik, momomizning bog‘ida – dashtda yashasak, bir qo‘ra, bir qo‘rg‘on bo‘lib! Topgan tutganimizni kechqurun bir qozonga solsak, birga yesak, birga tursak! Mayli, boboy yotsa yotaversin, bizning davrimizda davron surib… Singillar ham shu yaqin atrof xesh-hamsoyaga uzatilgan bo‘lsa, issiq-sovug‘-u, yaxshi-yomon kun degan gaplar bor. O‘, qani bunday bo‘lsa! Ana o‘shanda mehr-oqibat ham, og‘a-inichiligu, ota-bolalik deganlari ham boshqacha bo‘lardi”. [1.110]

Afsuski, yuqoridagi kabi holatlar bugungi davrimiz uchun ham xosligicha qolmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda guvoh bo‘layotganimiz ota-ona va farzandlar, qon-qarindosh, aka-uka, opa-singillarning mol, boylik talashib, bir-birlariga shafqatsizlarcha munosabatlarini ko‘rib, hayratga tushasiz. Millatimiz, ota-bobolarimiz tomonidan e’zozlab kelingan qadriyatlarimizning oyoqosti bo‘layotganidan tashvishga tushasiz. Bu kabi voqea-hodisalarni Qo‘chqor Norqobil asarlarida ham uchratamiz.

Masalan, adibning “Bu yerlarda hayot boshqacha” hikoyasining asosiy mavzusi mehr-oqibat tuyg‘usining tobora yo‘qolib borayotganligi haqidadir. Hikoya qahramoni Guldurak momo (asli Toshbuvi. Hikoyada keltirilishicha, qishloqdoshlari uni shunday deb ataydi – G.H.) o‘zbekning kayvoni ayollaridan biri. Bu obraz ko‘p jihatlari bilan “O‘tkan kunlar”dagi O‘zbek oyim, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”dagi Anzirat buviga o‘xshab ketadi:

“Guldurak momo supada gum-gursday bo‘lib urchuq yigiryapti. O‘tirishini ko‘ring. Urchuq emas, charxi dunni aylantiryapti, go‘yo. So‘l qo‘l havoda, ipni tutgan, o‘ng qo‘l bilan esa ip tutashgan urchuqni shipillatib aylantirib yuboradiki, bu keskin harakat go‘yo chavandozning qilich sermashidagi oniy holatga o‘xshab ketadi” .[2.72]

Guldurak momo va Rahim bova farzandlarini halol mehnati bilan unib-o‘stirib, uyli-joyli qilgan. Guldurak momoning dardi ichida. U Rahim bovaga botinidagini ochar ekan, uning, birinchi navbatda, Ona ekanligi va bu tuyg‘uning naqadar buyuk maqom ekanligini anglab yetamiz:

“ – ... Besh bolani ko‘kayimiz qurib, ko‘k tomirimiz chirib katta qildik, qiz endi mayli, birovga atalgan omonat, joyini topdi – uchdi-ketdi. Taqdiri imdod – azali odat bu. Baxtli bo‘lishsin. Oyda-yilda bir keladi, ko‘rib suv ichgan daraxtday yashnaymiz. Uch ul-chi, uch ul! Ullar ham har joyga sochildi, nasibasi ekan, omon-eson yurishsin! Kenjamizni ko‘rmaysizma, ishi Sherobodga ovushganakan, uyam kelindiyam oldi-ketdi, nima deysiz, davlatning ishi. Nevaramdi eslasam, yuragimning suvi oqib ketyapti, bovasi. Siz erkak kishisiz, siz buni bilmaysiz, bovasi. Uch bolamni tuproqqa qo‘yganimda, uch bolam yerni to‘ydirganida kuyib kul bo‘lganman, bovasi. O‘shandayoq, tomirlarim chirib bo‘lgan, bovasi. Mening quruq savlatim, quruq govoram qolgan, bovasi”.[3.77]

Ota-ona har doim ham o‘g‘lim, qizim deydi. Farzandlari qayerda bo‘lmasin sog‘-omon bo‘lsa, ular uchun shuning o‘zi kifoya. Ammo ota-onani sog‘inch qiynaydi. Bugungi kunda har birimizda uyali aloqa vositasi bor. Dunyoning qaysi burchagidan bo‘lmasin, bir-birini ko‘rib gaplashish imkoni mavjud. Ammo Guldurak momo Rahim bovaga aytganidek, “Shu kenjangiz uyali telefonni qaysi go‘rdanam obberdi, sizga. Telpon quloq bo‘lar, ikki ko‘z bo‘lolmaydi, ko‘ngil bo‘lolmaydi, mehr bo‘lolmaydi. Odamni odamdan uzoqlashtirarkan...”.[4.73]

Rahim bova va Guldurak momo katta farzandini ko‘rish uchun shaharga yo‘l olishadi. Farzand sog‘inchi, nevaralar diydori ularni shaharga intiltiradi. Ammo ular farzandi uyida hashamatdan, ularga tamomila begona bo‘lgan muhitdan boshqa narsani topa olishmaydi. O‘g‘il ota-onasi bilan taomiliga ko‘ra suhbatlashadi. Boshqa mehmonlar kelgani bois, asosan, ular bilan bazm-u jamshidga beriladi. Hashamatli xonadonda bahaybat it va unga qarovchi itboqar otaning ensasini qotiradi.

Chol va kampir davr o‘tganini, odamlar, ularning yashash tarzi o‘zgarib ketganini anglab yetishadi. Q.Norqobil qahramonlari kechinmalari orqali zamonamizning eng muhim og‘riqli tomonlarini poetiklashtirishga intiladi. Guldurak momoning mana bu aytgan gaplari tom ma’noda davrning jarohatlarini aks ettiradi: “... Men buni aytmayapman, bovasi, bolalar bizdanmi, biz bolalardanmi uzilib boryapmiz. Bir bizamas, boshqa tengqurlarimiz ham shundayga o‘xshaydi... Shundan qo‘rqishimiz kerak, bovasi, shunga yig‘lashimiz kerak, bovasi...” .[5.76]

Darhaqiqat, inson o‘zining tarixini, madaniyati-yu, urf-odatlarini, qadriyatlarini e’zozlamas ekan, shaxsiy fikriga ega bo‘lmas ekan, bir kun kelib u o‘zining o‘zligini ham yo‘qotadi. “Fikrlayotgan odam – o‘zining mavjudligini isbotlashga urinayotgan odam. Mavjudlikka intilish – falsafiy va murakkab jarayon. Jamiyatda mavjud bo‘lib yashashdan mavjudlikka intilmay yashash oson. Mavjudlikka intilish o‘zlikni anglash va uni himoya qilish, unga intilish, muhitni, qotib qolgan tushunchalarni, qarashlarni, aqidalarni yangilash, taraqqiyotga va yangilikka, o‘zgarish va o‘sishga yo‘l ochish, umuman, tiriklarga xos yashash degani. Fikrsizlik ma’naviy o‘limdir. Fikr to‘xtagan joyda insoniylikka xos hamma narsa to‘xtaydi. Ehtimol, biologik odam hayoti davom etar, lekin yuksak inson tushunchasi o‘ladi”. [6.15]

Darhaqiqat, inson o‘zligini topishi, unga sodiq qolishi hayotdagi muhim masala. Q.Norqobilning Guldurak momosi ana shunday o‘zlik tuyg‘usi kuchli, e’tiqodi mustahkam, fikri tiniq ayol. Uning fikrlari o‘quvchini mushohadaga chorlaydi.

Ma’lumki, har doim ham ziyolilar jamiyatning eng

muhim qatlami bo‘lib kelgan. Ularning zimmasidagi vazifa mas’uliyatlidir. Millatning kelajagi, ilm-fan, ta’lim, taraqqiyotning olg‘a qadamlarda bo‘lishida ziyolilarning o‘rni benihoya kattadir. Ayniqsa, ustoz va muallimlar eng sharafli kasb egalari sifatida qadrlanadi. Hazrat Navoiy ham bejizga ushbu misralarni bitmagan:

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Dunyo adabiyotida muallimlar, ustozlar obrazi aks etgan ko‘plab asarlar yaratilgan. Ular orasida mashhur qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatovning “Birinchi muallim” qissasi alohida ajralib turadi. Qissa qahramoni Duyshen millatni savodli qilish uchun yolg‘iz o‘zi qishlog‘ida maktab barpo etadi. Bolalarga beg‘araz saboq beradi. Ota-onalarni farzandlarini ilm egallashga da’vat etadi. Bugungi kunda bu xuddi ertakdek, o‘z ahamiyatini yo‘qotgandek tuyulishi mumkin. Ammo o‘sha davrdagi qahramonlik, jasoratdir.

Umuman, ustozning jamiyatdagi mavqeyi, ahamiyati, o‘rni har bir davrda ham yuksak bo‘lgan. Ularga har doim ham ehtiyoj tug‘ilgan.

Qo‘chqor Norqobil barcha asarlarida zamonasining og‘riqli masalalarini, ham ijodkor va bir inson o‘laroq qalbida kechayotgan kechinmalarini qog‘ozga tushiradi. Adib qahramonlari ruhiyatini xolis yoritadi, har bir voqelikni boricha tasvirlaydi, yolg‘on aralashtirmaydi. Yuqorida tahlilga tortilgan har ikki hikoyada adib zamonaning eng og‘riqli masalalarini tasvirlaydi. Mehr-oqibatning yo‘qolishi, ilmsizlik, boylikka ruju qo‘yish insoniyatni tubanlikka yetaklashi haqida bong uradi.

Qo‘chqor Norqobil nasrida davr va inson konsepsiyasi ko‘p bor va rang- barang talqin etilgan nuqtalar uning afg‘on urushi xotiralari asosida tanlangan asarlarida aniq va yorqinroq ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A’zam Erkin. Piyoda/ Ertak bilan xayrlashuv. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2007. 110-bet.
2. Norqobil Qo‘chqor. Bu yerlarda hayot boshqacha/Samodil: hikoyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. 72-bet.
3. Norqobil Qo‘chqor. Bu yerlarda hayot boshqacha /Samodil: hikoyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. 76-77-betlar.
4. Norqobil Qo‘chqor. Bu yerlarda hayot boshqacha /Samodil: hikoyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. 73-bet.
5. Norqobil Qo‘chqor. Bu yerlarda hayot boshqacha / Samodil: hikoyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. 76-bet.
6. Nazar Eshonqul. Mendan “men”gacha. – Toshkent.: “Akademnashr”, 2014. 15-bet.

Naima KELDIYOROVA,
Renessans ta’lim universiteti v.b.dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: naima.2020@bk.ru

AZIM SUYUN DOSTONLARIDA VATANPARVARLIK G‘OYALARINING AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada ko‘p qirrali ijodkor Azim Suyun ijodidagi doston janriga mansub asarlarga murojaat qilingan. Uning dostonlaridagi o‘ziga xoslik – vatanparvarlik g‘oyalarini baxshiyona ruh bilan aks ettirganligi misollar yordamida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *epik janr, doston janri, leymotiv, vatanparvarlik g‘oyasi, obrazlar tizimi, milliylik ruhi.*

Аннотация: в данной статье речь идет о творчестве эпического жанра художника-универсала Азима Суюна. На примерах показано, что своеобразие его былин состоит в том, что он с благотворительным духом отражает идеи патриотизма.

Ключевые слова: *эпический жанр, лейтмотив, патриотическая идея, образная система, национальный дух.*

Annotation: this article discusses the work of the epic genre of the universal artist Azim Suyun. The examples show that the uniqueness of his epics is that he reflects the ideas of patriotism with a charitable spirit.

Key words: *epic genre, leitmotif, patriotic idea, figurative system, national spirit.*

Azim Suyun o‘zini badiiy ijodga bag‘ishlagan shoir sifatida o‘zidan kattagina ijodiy meros qoldirgan. Buni biz shoir she’riyatidan tashqari turli davrlarda yaratilgan (“Zamin taqdiri” (1983), “Sarbadorlar” (1987, dramatik doston), “O‘zbekiston”, “Imorat va yoki bir tomchi suv dengizga aylangan kecha” (1989) dostonlari va publitsistik maqola, esse hamda adabiy suhbatlari misolida ham ko‘rishimiz

mumkin.

Dostonlar epik va lirik unsurlarning birikuvidan hosil bo‘lib, janr xususiyatiga ko‘ra lirik, epik, dramatik doston kabi turlarga bo‘linadi. Nazariy adabiyotlarda muayyan dostonni bulardan biriga mansubligini belgilashda o‘sha doston strukturasida lirik, epik yoki dramatik elementlardan qay birining yetakchi maqomga egaligidan kelib chiqilishi qayd etiladi [1.94]. Mana shu tamoyil asosida yondashsak, Azim Suyun dostonlarini ham uch turga ajratish mumkin:

1. Epik dostonlar – bunda she’riy rivoya asosida syujetni hikoya qilish ustuvorligi kuzatiladi. “Imorat va yoki bir tomchi suv dengizga aylangan kecha” dostoni.

2. Lirik doston – lirik qahramonning kechinmalarini ifodalash asosi hisoblanadi. “O‘zbekiston” dostonini kiritish mumkin.

3. Dramatik doston – syujet voqealari dramatik tarzda tasvirlanadi. “Sarbadorlar” dostoni misol bo‘ladi.

“Sarbadorlar” dostonida ilgari surilgan asosiy g‘oya erk va adolat, birdamlik va vataparvarlikdir. Umuman, Azim Suyun dostonlarini bog‘lab turuvchi umumiy xususiyat bu – ozod va farovon hayot, erkin va obod vatan g‘oyasi barcha dostonlari mohiyatiga singdirilgan. Jumladan, “Zamin taqdiri”, “Sarbadorlar”, “Imorat va yoki bir tomchi suv dengizga aylangan kecha”, “O‘zbekiston” kabi dostonlarining asosiy leymotivini ham yuksak vatanparvarlik motivlari tashkil etadi. Umuman, shoir shaxsiyatida, she’riyati va publitsistikasida ham aks etadigan vatanga muhabbat tuyg‘ulari uning dostonlariga ham birdek taalluqlidir.

“Sarbadorlar” dostoni personajlarining aksariyati tarixiy shaxslar hisoblanadi. Jumladan, Abu Bakr Kalaviy, Mavlonazoda Samarqandiy, Mavlono Hurdaki Buxoriy, Amir Husayn, Amir Temur, Ilyosxo‘ja kabi tarixiy shaxslarning tarix haqiqati va badiiy haqiqatga monand qiyofasi, a’mollari dostonda kuchli dramatik holatlarda, jonli tasvirlanadi. Doston muqaddimasi va xotimasida kitobdor bukri cholning kitob haqidagi ibratli o‘gitlari, pandlari keltirilgan.

“Kitob – el yurt baxti!
Har qanday Inson
Oddiy tirikchilik, manfaatlardan
Yuksak tursa agar
Xalq va vatanin
Baxt – taqdiri haqda o‘ylashga qodir!” [2.254]

Inson hayotida kitobning ma’rifiy qimmati cheksiz. Ammo shunday davrlar bo‘lganki, ajdodlardan qolgan bu bebaho boylik, insoniyat yaratgan muqaddas obida yo‘q qilingan, yashirilgan, chang bosgan, unutilgan... Xalqimizning uzoq yillik tarixini qayta tiklash, kitobxonni milliy g‘urur, el-yurt manfaati, yurt ozodligini mustahkamlashga, birdamlikka chorlashni, tarix haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishni maqsad qilgan muallif dostonda kitob detalidan shu ma’noda foydalanadi. Kitob – unutilgan, yo‘q qilingan tarix ma’nosida qo‘llanilgan. Bejizga xotimada sarbadorlar yo‘lboshchisi Mavlonozoda jasadi ulkan kitobga aylangani “Bu kitob – siz bilan yonma-yon yurgan!// Bu kitobning faqat o‘qildi yarmi!” deya kitobni quyoshday porlashi bitilmagan. Ya’ni sarbadorlar hayotidan olingan bir necha tarixiy faktlargina yoritilgani, o‘qilgani, taftish etilganiga urg‘u qaratilayotirki, tariximizni hali-hamon ochilmagan ko‘pgina qirralari borligiga ham ishora qilinadi.

Dostonda so‘nggi mo‘g‘ul xoqoni Ilyosxo‘ja timsolida davlatni qo‘lga kiritish uchun har qanday razolat va xiyladan tap tortmaydigan, xalq orasiga nifoq solib, birdamlikka putur yetkazadigan mo‘g‘ul bosqinchilarining umumlashma obrazi yaratiladi. Asirga tushgan Amir Temur va Amir Husayn sarbozlari orasiga nifoq solib, qilich tutib bir-birini o‘ldirishini jimgina kuzatib quvongan Ilyosxo‘ja va uning bosh noibi Teginbek bilan bo‘lgan dialogida ham muallif mo‘g‘ul xonlarining manfur qiyofasini chizish bilan birga xalqimizning birdamligiga putur yetkazuvchi tarqoqlik illatini qalamga oladi.

“Bu el fe’li shundoq! Bobomiz Chingiz
Bu yurtni olmoqqa qiynalgan chog‘i.
Mahmud Yalovochni xo‘b ishga soldi!
Chingiz kuchi emas yovni qiyratgan,
Mahmud Yalovochning kuchidir, bilsang!..
Qumirsqa birlashsa birlashar, lekin
Bu el birlasholmas – unutma buni!” [2.259]

Ilyosxo‘ja mag‘lub bo‘lishi muqarrar bo‘lgan jangda ikki amir: Amir Husayn va Amir Temur o‘rtasiga xiyla bilan nifoq solib g‘alaba qozonishi, sohibjamol asira qizning iffati va sha’nini saqlash uchun qarshilik ko‘rsatganda Ilyosxo‘ja tomonidan vahshiylarcha o‘ldirilishi epizodlari ham so‘nggi mo‘g‘ul xonining manfur qiyofasini fosh etadi.

Aslida, asarda xalqni birdamlikka, hamjihatlilikka chorlash, tarixdan achchiq saboq chiqarish kabi konsepsiyasi doston syujet liniyalarining barchasiga singdirilgan. Inchunun, hatto sarbadorlar orasidagi nifoq, kelishmovchilikdan Movarounnahrni bir butun davlat qilishni niyat qilgan buyuk sarkarda Amir Temur hamda uning qaynisi Amir Husaynlar ham foydalanishi epizodi keltiriladiki, bu ham dostondagi umumiy konsepsiyada hamohanglik kasb etadi. Dostonda ushbu holat Amir Temur nutqi orqali quyidagicha ifodalanadi:

“Asov otni faqat taqa to‘xtatar,
Sardori norozi sarbadorlardan.
Ichdan qurt kemirsa tez qular daraxt...” [2.319]

Dostonnavis dostonda xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan maqollarning mazmunidan ham unumli foydalangan. Masalan, Kalaviy tilidan “Birlashgan

daryodur, tarqalgan irmoq” (Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar), “Yomg‘irdan qolganin selga oldirmoq” (Yomg‘irdan qochib, do‘lga tutilmoq), “Ho‘kizning oyog‘i bo‘lgandan kishi// Bo‘lgani yaxshiroq buzoqning boshi!” (Ho‘kizning oyog‘i bo‘lgandan ko‘ra, buzoqning boshi bo‘lgan afzal) kabi qayta ishlangan maqollar qo‘llaniladi. Bular Kalaviy obrazining donishmandona qiyofasini yaratishda hamda asarning estetik ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Umuman, Azim Suyunning xalq og‘zaki ijodiga o‘zgacha muhabbati lirikasi va dostonlarining ham shu manbadan oziqlanishiga, xalqona ruh va baxshiyona uslub sohibi bo‘lishiga ham sabab bo‘lgan. Shoirning “Imorat va yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha” dostonida ham ayni shu jihatlar ustuvorlik qiladi. Doston muqaddimasi nasriy yo‘sinda, saj’ san’ati asosida yozilgan. Ota yurtiga bir uy – imorat qurish maqsadida tashrif buyurgan shoir onasining maslahatiga ko‘ra avval qo‘y so‘yib ikki-uch oqsoqolni, besh-olti yor-birodarlarini chorlab maslahat qilishni niyat qiladi. Shoirning do‘stlari, yor-birodari ham “elning chechanlari, so‘zonlari, so‘zamollari, suxangarlari, shirin zabonlari, yaxshilari, baxshilari, qolaversa, unday-bunday quloqchilari” bo‘ladi. Shu maqsadda: “Qayirsam – etagim, shimarsam – yengim, o‘ng qo‘lim, so‘l qo‘lim – bari o‘z qo‘lim – Nurota, Qo‘shrabot, Forish muzofotlariga dong‘i ketgan bir-ikki oqsoqol baxshilarni yo‘qlatdim, ular Qashqadaryoda bo‘ladigan qandaydir yig‘inga ketgan ekan, topolmadim, ammo-lekin ko‘ngilsozlarim Chori chechan, Sori chechan, Alp termachi, Tolib termachi, Otash matalchi, Bolibek so‘zamol, Oltiboy do‘mbirachilar og‘zi qulog‘ida – gurung-maslahatga chaqirilganidan xurram-xursand kunbotar qontalash bo‘lgan shomda birin-ketin uzun-qisqa bo‘lib...” [3.45] kirib kelishadi. Doston qahramonlari ham ayni shu so‘z san’atkorlari hisoblanadi. Syujetning rivoji ularning tilidan kuylangan xalqona ohang va baxshiyona uslubdagi termalar (Yilboshi – Navro‘z, Har o‘zbekning hovlisi), hikoyat-u rivoyatlar, matallar, (dehqonchilik ilmini mukammal egallagan Shirin qul haqida hikoya, shafqatsiz Bek va O‘roqchi haqidagi hikoyat, “Yovqurlar qo‘shig‘i”, “Buzilgan elni botir tuzatar”, hazil she’rlar: “Qisir echkilar”, shoir tarjimasidagi “Kavkaz xalq qo‘shiqlari”, qarg‘ishlar, topishmoqlar, xalq aytimlari ijro etilib baxshixonlik kechasi uyushtiriladi. Ushbu terma, aytim va hikoyatlar vositasida xalq donishmandligi, milliy qadriyatlar, birdamlik, botirlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi.

Doston nihoyasida shoir niyat qilgan so‘z imorati (doston) bitadi va quyidagicha yakunlanadi: “Alqissa, shu kecha “Imorat” bitdi. Bu shunday imoratki... mana, qo‘lingizda! Ammo uni Mo‘min quloqchi buzib qo‘ymasin – bu el ichida qadim-qadimdan yurgan eski, boqiy yo‘lovchi qo‘shiqlarni boshqacha talqin etib yurmasin, mendan markazga o‘zi va yoxud “dumaloq xat”i yetmasin deb, bola-chaqani olib, onamga “xayr-xo‘sh”ni ham nasiya qilib, mana kelib turgan joyim bu.

Ertaklardagi kabi xayrli va orzumand yakun bilan tugagan dostonda xalq hayotining keng ko‘lamli tasviri o‘zining oq va qora tomonlari bilan aks ettiriladi. Azim Suyunning mahorati shundaki, bir kecha tasvirida xalqona ohangdagi turli mavzuga bag‘ishlangan ijod namunalarini bir umumiy ruh va vatanparvarlik, birdamlik, chin insoniylik g‘oyalari bilan umumlashtira olgan. Muallifning maqsadi uy-imorat qurishgina emas, balki kitobxon qalbida ezgulik, hamjihatlilik, birdamlik imoratini barpo etishdir. Aslida, dostonning ma’rifiy qimmati ham shunda. Azim Suyunning “Zamin taqdiri”, “O‘zbekiston” dostonlari mohiyatiga ham ayni shu g‘oyalar singdirilgan.

Umuman olganda, Azim Suyun ijodining she’rlari orasida vatan, tabiat va insonga bo‘lgan munosabat doimo yetakchilik qilgan. Bunda shoir obrazga badiiy mazmunning mavzu, g‘oya, lirik kechinma, muammo kabi tarkibiy qismlarini o‘zaro, mutanosib ravishda beradi, natijada she’rlari shakl va mazmun nuqtayi nazaridan yetuklik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б.94.
2. Суюн А. Танланган асарлар: 7 китоб. 2-китоб. – Т.: Ғ.Ғулом, 2015. –Б.254.
3. Суюн А.Ўзбек юртим (Эссе-бадиа): Иккинчи дафтар. – Т.: Ғ.Ғулом, – Б.45.
4. Тўйчиев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. – Т.: Фан, 1966. – 180
5. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002. – 256 б.
6. Форобий. Шоирлар санъати қонунлари ҳақида / Аристотель. Поэтика. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 63-74-б.
7. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Шарқ, 1995. 368-б.

Xurshida RAHMONOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi, PhD

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA NASRIY ASARLAR BADIIYATIGA XOS TAMOYILLAR XUSUSIDA

Annotatsiya: adabiyotshunoslikda nasriy asarlar badiiyatini, undagi obrazlar mohiyatini anglab yetish, tushuntirish hamisha muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. Maqolada o‘zbek adabiyotshunos olimlarining nasriy asarlar badiiyatiga, xususan, obraz va tasvir masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganilib, adib Xurshid Do‘stmuhammad hikoya va qissalari misolida tahlil qilindi. Adib asarlaridagi obrazlar tabiati, individual metaforalarning mohiyati, qahramon ruhiyatini chuqur yoritib berishdagi adibning o‘ziga xos uslubi tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: *obrazlar tabiati, an’anaviy va individual metaforalar, ramzlar, badiiy umumlashma, zamondosh inson hamda tarixiy shaxs obrazi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, tarixiy muhit, peyzaj, psixologik tasvir.*

Аннотация: понимание и объяснение художественности прозаических произведений, сущности их образов всегда было одним из важнейших вопросов литературоведения. В статье изучены и проанализированы научно-теоретические взгляды узбекских литературоведов на искусство прозаического произведения, в частности на вопросы образов и образов, на примере рассказов и рассказов писателя Хуршида Достмухаммада. Изучены характер образов в произведениях писателя, сущность отдельных метафор, своеобразная манера писателя глубоко освещать психику героя.

Ключевые слова: *природа образов, традиционные и индивидуальные метафоры, символы, художественное обобщение, образ современного человека и исторического лица, национальные и общечеловеческие ценности, историческая среда, пейзаж, психологический образ.*

Annotation: one of the most important issues in literary criticism has always been to understand and explain the art of prose and the essence of its images. The article examines the scientific and theoretical views of Uzbek literary scholars on the art of prose, in particular, on the issues of image and imagery, and analyzes the stories and narratives of the writer Khurshid Dostmuhammad.

The nature of the images in the author's works, the essence of individual metaphors, the writer's unique style of deepening the psyche of the protagonist were studied.

Key words: *nature of images, traditional and individual metaphors, symbols, artistic generalizations, image of contemporary man and historical figure, national and universal values, historical environment, landscape, psychological image.*

O‘zbek adabiyotshunosligida badiiyatga doir nazariy qaydlar uzoq tarixga borib tutashadi. Badiiy-estetik tafakkurning taraqqiyot tamoyillari hozirgi adabiy jarayonning tarkibiy va ajralmas bir bo‘lagi sifatida o‘rganilmoqda. Badiiy tafakkur hamisha o‘zgarib, yangilanib turadi. Negaki, badiiy tafakkur – muayyan bir davrdagi milliy adabiyot holatini, muayyan manzarasini, yangiliklari, kamchiliklarini o‘z ichiga oladi. Bu – uning tabiatidagi ustuvor xususiyat. Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiy o‘ziga xosligini, obrazlar tizimini to‘g‘ri tushunmoq, tili go‘zalligini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak. Chunki chinakam badiiy hodisa davr ruhini ifodalash bilan bir qatorda o‘zi yaratilgan vaqtdan uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg‘unroq bo‘ladi.

Tarixga nazar solsak, sharq adabiyotshunosligida badiiyat ilmiga oid dastlabki qarashlar Abu Nasr Forobiy kitoblarida uchraydi. Buyuk qomusiy olim Forobiy va Abu Ali ibn Sino Aristotelning “Poetika” asariga sharh yozdilar. Sharh hozirgi taqriz tushunchasiga birmuncha to‘g‘ri keladi. “Forobiyning aytishicha, obrazli qilib aytilgan so‘z kishi ruhini o‘zida bo‘ysundiradigan bir holat kasb etadi. Ba’zi narsalar xush ko‘rinadi, ba’zisi kishini bezovta qiladi” .

O‘zbek filologiyasi tarixida poetika, jumladan, badiiyat bo‘yicha dastlabki kuzatish “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Xojib), “Devonu lug‘otit turk” (Mahmud Koshg‘ariy) asarlaridan boshlangan. She’r nazariyasini rivojlantirishda Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”, Boburning “Muxtasar” asarlari muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyot nazariyasi sharh, risola, tarixiy asar, tazkira, she’riy asar, nasr, debocha, bayozlar, tarjimalar orqali ham rivojlandi. Muqimiy, Furqat kabi ijodkorlar realistik oqimda ijod qildi, realistik estetika yaratilishiga turtki berdi. Bu esa XX asr boshidagi jadidlarning milliy ozodlik g‘oyasiga asoslangan, ma’rifatparvarlik yo‘nalishidagi ijodiga zamin bo‘ldi.

Yurtimizda adabiy-nazariy qarashlarning bunday takomili va taraqqiyoti adabiyot nazariyasining, badiiyatning bir qadar rivojlanishiga olib keldi. Bunda Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Vadud Mahmud, Otajon Hoshim, Abdurahmon Sa’diylarning xizmati katta.

Adabiyotshunos M.Qo‘shjonov A.Qodiriy ijodini badiiy tahlil qilar ekan shunday yozadi: “Yetuk ijod qimmatini belgilash uchun, odatda, badiiyatning har xil talablari nuqtayi nazaridan tahlildan o‘tkazib ko‘ramiz. Ma’noning haqqoniyligi, xarakterlarning yorqinligi, pafosning yuqoriligi, ziddiyatlarning keskin va mantiqiyligi, kompozitsiyaning pishiqligi, syujetning o‘ziga xosligi, tilning jozibaliligi va hokazolar. A.Qodiriy romanlari shu yo‘sinda tadqiq qilinsa, ular talabga to‘la bardosh berishi aniq. Bu xildagi tahlillar qilingan ham. Biroq, adib romanlarining fazilati, nafosati – milliylik, milliy ruhning aks etishidadir” . Adib Xurshid Do‘stmuhammad ham o‘z asarlarida obraz yaratar ekan, ularning ma’naviy saviyasiga, milliy va umumbashariy ruhning ifodalanishiga alohida e’tibor qaratadi. Uning ko‘pgina asarlarida o‘zbek xalqiga xos fazilat-u kamchiliklar bor-bo‘yicha aks etgan. O‘zbek adabiyotimiz va jahon adabiyoti sirlaridan voqif bo‘lgan Xurshid Do‘stmuhammad zamondosh obrazini yaratishda ham, tarixiy shaxs obrazini yaratishda ham umumbashariy va milliy qadriyatlar talabidan kelib chiqadi. “O‘zgarayotgan voqelikdan badiiy umumlashma yasashda hikoyaning imkoniyati katta. Lekin badiiylik sharti shundaki, hikoya nechog‘li bugunbop janr ekanligidan qat’i nazar unda bugunning qadriyatlari, bugunning muhim gapi abadiy va o‘zgarmas qadriyatlar qiyofasida ifoda topmog‘i kerak. Hikoya dolzarb (o‘tkinchi desak ham yanglishmaymiz) va mangu qadriyatlar orasida dunyoga keladi. Hikoyaning bugungi kun ko‘rinishi nisbatan oson, biroq uning mag‘ziga singdirilgan mangu qadriyatlarning ifodasi asarning umumbashariy va umrboqiyligini ta’minlaydi. Dolzarb qadriyatlar soyasida qoldirilib abadiy qadriyatlar kamsitilgan joyda badiiy tafakkur soxtalashadi, rivojdan qoladi” , – deb yozadi Xurshid Do‘stmuhammad. Adib yozgan fikrlar tatbig‘ini uning hikoyalaridagi obrazlar misolida ko‘rishimiz mumkin. “Qazo bo‘lgan namoz” hikoyasida Mirkomilboy xarakterida ham milliy, ham umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan vatanparvar shaxs obrazini, “To‘xtaboyning boyliklari” hikoyasida imon-e’tiqodga sobit inson qiyofasini, “Mahzuna”da sharqona ibo-hayo fazilatlariga ega ayol timsolini, “Vasiy”dagi yigit xarakterida sof milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan g‘amxo‘r uka obrazini uchratamiz. Yigitdagi mardlik, opasiga mas’ullik, tug‘ishgan birodarini har qanday injiqliklariga sabr qilish hissi faqat o‘zbek farzandlariga xos ekanligini ko‘rsatib bergan. Umuminsoniylik va milliylik ma’lum muhitda tanlangan obrazlar qiyofasida ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, san’at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettirilar ekan, badiiy adabiyot obrazli fikrlash natijasida dunyoga keladi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov obrazga shunday ta’rif beradi: “San’atda voqelik ijodkorning estetik qarashlari, prinsiplari va ideali orqali ijodiy idrokidan o‘tganligi, binobarin, o‘zgartirilganligi sababli unga nisbatan “badiiy” aniqlovchisini qo‘shib ishlatamiz. Bevosita mana shu xususiyati tufayli san’at asari, ulardagi badiiy obrazlar inson his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi, uning aql-idrokini takomillashtiradi. Demak, san’atdagi obraz va obrazlilikning asosini ijodkorning voqelikni hissiy-aqliy idrok etishi, qayta ijodiy gavdalantirishi tashkil etadi” . Insondagi muayyan his-tuyg‘uni, holat va harakatni, o‘y va kechinmani o‘zgalar qalbiga, shuuriga ta’sir etadigan darajada ifodalashda so‘zning o‘rni beqiyosdir. So‘zlardan qay darajada foydalanib badiiy obraz yaratish yozuvchining mahoratiga bog‘liq.

“Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k) badiiy asardagi aksi... Badiiy obrazning xususiyatlari haqida so‘z ketganda, birinchi galda, uning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo‘lishi xususida to‘xtalish zarur. Ma’lumki, voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan birga uning o‘zigagina xos xususiyatlar mujassamdir” , – deb yozadi taniqli adabiyotshunos D.Quronov. Badiiy asarda ifodalangan badiiy obraz umumlashma natijasigina bo‘lmay, ayni chog‘da, konkretlashtirish, individuallashtirish mahsuli hamdir. “Shu ma’noda konkretlilik – badiiy obrazning spesifik xususiyatlaridan biri sanaladi” . Chunki yozuvchi badiiy obrazda individual xususiyatlarni namoyon qilishi orqali uni konkretlashtiradi, obrazga jonlilik, haqqoniylik, tabiiylik baxsh etadi. O‘quvchi hissiyotiga ta’sir qiladi, uni ishontiradi. Adibning “Shabada” hikoyasidagi Komron obrazi o‘zida katta badiiy umumlashmani tashiydi, ya’ni globallashayotgan zamonda ma’naviy inqirozga uchrayotgan insonlar qiyofasini gavdalantiradi va shu bilan birga o‘quvchi ko‘z o‘ngida alohida bir shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi umumlashmaga individual xususiyatlarni bo‘rttirish orqali erishadi. Masalan, muallif Komron nutqida: “Dunyo juda keng, odamlar ham, orzu-havaslar ham xilma-xil. Siz jon kuydirib aytayotgan nasihatlaringizni hozir dunyoning hech yerida ota-onalar farzandlariga aytishmaydi” , “onam bilan qoni bir odamda, ikki dunyoda ham tushunmaydi” kabi gaplari, fikrlari orqali individual belgilarni ifodalaydi. Ayni shu o‘ziga xos belgilarning ifodalanishi hisobiga obraz badiiy umumlashmalikka

erishgan. Hikoyada adib butun dunyo jamiyatidagi illatlarni, globallashuvning inson ong-u tafakkuriga ta'siri, oiladek muqaddas ne'matlarga befarqlik, e'tiqodsizlik, ma'naviy qashshoqlik natijasida kelib chiqadigan oqibatlar haqida qayg'uradi.

Adib nasrining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu tasvirda voqealarning, obrazlarning ma'lum bir tomonini sir saqlashdir. Obrazlarning turfa olami, qahramon psixologiyasida ro'y berayotgan ma'lum o'zgarishlar voqealar rivoji davomida retrospektiv syujet asosida kitobxonga yetkazib beriladi. "Beozor qushning faryodi", "Shabada", "Jodi" hikoyalari va "Katta ko'cha", "Kuza..." qissalari ana shunday syujet asosiga qurilgan asarlar sanaladi.

Poetikaning ajralmas qismi bo'lgan badiiy asar o'z maqsadini obrazlar vositasida aks ettiradi. Obraz mohiyatiga ko'ra harakatdagi voqelikdan iborat. Real borliqdagi, inson xarakteri, ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilish oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir kashfiyotdir. Bunday obrazlar inson ma'naviy dunyosini boyitadi, tafakkur doirasini kengaytiradi, ruhiyatini kirlardan tozalaydi. Bunday obrazni yaratish uchun, birinchidan, voqelik materialida obyektiv asos, soddaroq qilib aytganda, xamirturish kerak. Ikkinchidan, tanlangan hayotiy materialni qanday tasvirlash yoki ifodalash ijodkorning xohish va maqsadi, iqtidori va mahoratiga bog'liq holda kechadi.

Badiiy obraz tabiatining muhim jihatlaridan biri uning metaforikligidir. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov bu haqida shunday yozadi: "Badiiy ko'chimlar ichida metafora (istiora) juda katta o'rin egallaydi... So'zning istioraviy ko'chimiga asoslangan badiiy tasvir va ifodasi o'ta darajada favquloddalik kasb etadi. Natijada, vujudga kelgan obrazning ta'sirchanligi yuksak bo'ladi" . Yana bir taniqli adabiyotshunos D.Quronov esa: "metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi" , – deb ta'rif beradi. Yozuvchi voqelikdagi narsa-hodisaning hammaga ko'rinib turgan tashqi o'xshashligiga emas, balki odamlar nazaridan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. Masalan, Cho'lpon go'zal obrazi va inson erki-ozodligi, Abdulla Qahhor xalqni aldayotgan Amin, pristav obrazlari bilan o'g'rilar, Abdulla Oripov tilla baliqcha bilan o'z qobig'iga o'ralib yashayotgan odamlar, Said Ahmad ongsiz yirtqich hayvon bo'ri bilan o'z yurtidan, elidan, iymon-e'tiqodidan mosuvo bo'lgan Bo'rivoy obrazi o'rtasida o'xshashliklar topadi. O'z navbatida Xurshid Do'stmuhammad ham "Jajman" hikoyasida bozorga kirib, moslashib hamma ozuqani yeb bitirayotgan to'rtoyoqli g'alati maxluq bilan insonning bitmas-tuganmas orzu-havaslari, nafsi, "So'roq" qissasidagi "uchar likopcha"da kelgan o'zga sayyoraliklar bilan insonni so'roq qiluvchi vijdon o'rtasidagi o'xshashlikni topishi – metaforik fikrlash natijasidir. Bundan kelib chiqadiki, obrazni metaforik, ya'ni mazmunni yashirin asosida tasvirlash kitobxonni asarning mazmun-mohiyatini anglab yetish uchun bir oz aqlini charxlashiga, asar haqida mantiqiy fikrlashga undaydi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov metaforalarni yaratilish tarziga ko'ra ikkiga ajratadi. "1. An'anaviy metaforalar. 2. Individual metaforalar.

An'anaviy metaforalar allaqachonlar yaratilib, til mulkiga aylangan va ijodkorlar ularga tez-tez murojaat qilib turadilar... Individual metaforalar esa u yoki bu ijodkor tomonidan ilk bor yaratilib, uning ko'chma ma'nosi ham ko'pchilikka u qadar ma'lum bo'lmaydi" . Demak, individual metaforalarda ijodkorning tafakkuri, voqelikka bo'lgan munosabati, hislari, estetik ideali mujassamlashgan bo'ladi. Shuningdek, muayyan badiiy asar g'oyasini, mazmunini baholash ana shu individual metaforik obrazlar mohiyatini, ularda jamlangan hissiy quvvatni to'g'ri anglash orqali amalga oshadi. Adib Xurshid Do'stmuhammad ijodida individual metaforik obrazlarni uchratish mumkin. Muallifning "Jajman" hikoyasida jajman, "Qoyalardan balandda" asarida burgut, "Saf" hikoyasida uzun saf, qator, "Qichqiriq"da suv, "Shabada" hikoyasidagi olov, "Panoh" qissasida ona o'rik daraxti, "Katta ko'cha"da oromkursi obrazlari fikrimizning dalilidir. Individual metaforalar ijodkor tasavvuri, xayoli, estetik bahosi, tafakkur doirasi, dunyoqarashi bilan aloqadorlikda o'zga ma'noga ko'chirilgan so'z emas, balki ma'lum jihatlardan ko'chma ma'no kasb etgan metaforik obrazlardir. Asarning badiiyligini ta'minlashda an'anaviy metaforalari bilan bir qatorda individual tarzda yaratilgan metaforalar ham faol ishtirok etadi. Individual metaforalar ko'chim darajasi, hissiy chuqurligi, favqulodda obrazliligi, betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Istioraning bu turi ijodkor uchun yuksak falsafiy-estetik xulosalar qilishga ko'plab imkon beradi.

Xurshid Do'stmuhammad ijodining dastlabki bosqichdagi asarlarida, xususan, "Saf", "Etakdagi uy", "Vasiy", "Mahzuna", "Jajman", "Qazo bo'lgan namoz", "Beozor qushning faryodi" hikoyalarida milliylik, milliy qadriyatlar, urf-odatlarning ulug'lanishi, sof o'zbekona ruhning yetakchilik qilganligi kuzatilsa, keyingi boqichdagi asarlarida, jumladan, "Shabada", "Jim o'tirgan odam", "Muhtaram, jallod janoblari" hikoyalari, "Kuza...", "Katta ko'cha", "Hijronim – mingdir mening", "Men – sensiz, sen – mensiz", "Yolg'iz" qissalarida inson, uning tuyg'ulari, orzulari, xayollari, fikrlari, tafakkuri,

boringki, insonning o‘zi bosh qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Bu tipdagi asarlarida adib inson tuyg‘ularining kuzatuvchisi, ko‘ngil tebranishlarini, kayfiyat va uning natijasida kelib chiquvchi fikrlarni tekshiruvchi, ruhiyat qatlamlarini tadqiq etuvchi, bir so‘z bilan aytganda, insonni murakkab rakurslarda tasvirlovchi ijodkorga aylandi.

Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar badiiyatining muhim jihatlaridan yana biri bu tasvirdir. Bunda peyzaj, badiiy asar tili, psixologik tasvir, qahramon psixologiyasini ochib berish vositalari, yozuvchi uslubi, mahorati bir-biriga uyg‘un holda o‘rganiladi. Ya’ni ijodkorning hayotni qanday anglashi, anglagan hamda his qilganlarini qay usulda tasvirlab berish mahorati muhim sanaladi. “Badiiy tasvir asar poetikasining tarkibiy qismi bo‘lib, u qahramonlarni ta’rif-tavsiflashda, ichki dunyosini tahlil etish va tashqi qiyofasini chizishda, tabiat manzaralarini ifodalashda, voqelikning ma’lum bir qirrasini ochishda yordamlashadigan epizodlarni bayon qilishda, uni umumiy syujet chizig‘i zanjiriga ulay olishda, personajlar tasavvurini tiklashda namoyon bo‘ladi” , – deb yozadi K.Hamrayev.

Badiiy adabiyotdagi tabiat tasviri peyzaj deb yuritiladi. U adabiy asarda muayyan g‘oyaviy-kompozitsion vazifani bajaradi. Peyzaj muammosini maxsus monografik yo‘sinda ishlagan M.Sultonova mazkur vositaning badiiy asardagi o‘rni masalasi haqida shunday deydi: “Yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonning xatti-harakati orqali emas, balki ularni o‘rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o‘quvchiga ta’sir etishni, undagi go‘zallik tuyg‘ularini tarbiyalashni ham nazarda tutadi” . Demak, adabiyotshunos peyzaj tasvirining qahramon xatti-harakatlari bilan uyg‘un kelishidan tashqari, kitobxon qalbiga ta’sir o‘tkazuvchi ma’rifiy va estetik vazifasini ham uqtirib o‘tadi. “Tabiat manzarasi tasviridan turli xildagi maqsad kuzatiladi. U goh voqea sodir bo‘lgan faslni bildiradi, goh qahramonlar kayfiyatini ochishga yordam beradi, goh asar voqealarini bir-biri bilan bog‘lash vazifasini o‘taydi” .

Adabiyotshunos olim M.Qo‘shjonov “O‘tkan kunlar” romanidagi peyzaj tasviriga Otabek ota-ona orzusiga bo‘yin egib, istar-istamay rozi bo‘lib Marg‘ilonga ketib borish epizodi munosabati bilan murojaat qilgan. Olimning fikricha, Otabek Marg‘ilonga jo‘narkan, uning ma’yusligi, g‘amginligini qirlarda bahorning quvnoqligiga, keng osmon sahnida erkin uchib yurgan qushlarga qarshi qo‘yadi. Ya’ni, Abdulla Qodiriy Otabek kayfiyatini, ruhiy holatini ifodalashda bahor fasli manzarasini qahramon ruhiyatiga kontrast holatda tasvirlaydi .

Abdulla Qahhor esa “Sarob” romanining 8-bobi peyzajdan, ya’ni qishning asta-sekin bahorga o‘z o‘rnini berishi, tabiatning go‘zalliklarini tasvirlashdan boshlanadi. Bu peyzaj ikki yoshning – Munisxon va Saidiy muhabbatlarining ta’rifi bilan hamohang tarzda ifodalangan. Xurshid Do‘stmuhammadning esa adabiyotshunos sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Xo‘ja Maoz qabristoni manzarasi va qahramon ruhiyatining tasviriga ayricha munosabat bildiradi. “Qorong‘ulik manba bo‘lgan mozoriston changalzorini Marg‘ilon ko‘chalarida telbalarcha yugurayotgan Otabekning dardi dunyosi deb tasavvur qilaylik. Shu damda Otabekning shuurida kuchli bir yel turdi, “sochlari o‘sib soqolig‘a qo‘shilib ketgan bir devona” timsolidagi yovuz kuchlar Otabek shuurini xuddi gulxan yanglig‘ kavlab to‘zitib yubordi; “bitta – yarimta to‘kilmay qolgan yaproqlar shitir-shitir to‘kilishka oldilar” – Otabekning so‘nggi umidlari uzila boshladi; “yel kuchaygandan kuchayib borar” – g‘arazgo‘ylar tahdidi avjga mindi; Otabekning metin bardoshi ustma-ust bosib kelgan yel bo‘kirigiga dosh berolmaslik xavfi tug‘ildi – “shox-shabbalar qars-qurs sinar”di;” . Munaqqid Otabek ruhiyatidagi tushkunlikni, qalbidagi og‘riqlarni qorong‘ulik, zimiston tun va qattiq shamol, bo‘ron natijasida “qars-qurs” qilib sinayotgan shoxlarga qiyoslaydi. Kumushdan umidini uzgan Otabek ruhiyatining eng og‘ir, musibatli onlari qabriston tasviri bilan parallel qo‘yadi.

Shuningdek, Xurshid Do‘stmuhammad nasrida tabiat va joy tasviri qahramonning ruhiy kechinmalari bilan uzviy ravishda bog‘liqligi hamda badiiy-falsafiy ma’no kasb etishi bilan alohida ajralib turadi. “O‘ktabr yarimlamay qishning nafasi izg‘ib qoldi. Nonushta payti yilt etib borliqni yoritgan quyosh zimda g‘oyib bo‘ldi-qo‘ydi. Peshin edi, qo‘noqqa qaytayotib birpas havoning avzoyini kuzatib turdi. Osmonni paqqos qalin qora bulut qoplay boshlagan, havoning avzoyida pilikning uchicha yorug‘lik belgisi sezilmas, balki o‘zidagi tundlik siyohi bila dov-daraxt, atrof-jovonib, odamlarni-da bosh-oyoq bo‘yashqa boshlagandi” . Ushbu parcha nosirning “Umid guli” hikoyasidan olingan bo‘lib, peyzaj tasviri professor Fitratning Moskvada musofirchilikda kechirgan hayoti, tushkun kayfiyati bilan hamohang tarzda berilgan. Qahramon qalbidagi dard, millat taqdiri boshiga tushishi mumkin bo‘lgan falokatlarni go‘yo osmon oldindan sezgandek uni qora bulut qoplashi, kunduz bo‘lishiga qaramasdan atrofni qora tundlik o‘rab olishi, bu tundlik nafaqat tabiatni, balki odamlar qalbini-da egallab olayotganligi tarzida tasvirlarning berilishi kitobxon ruhiyatini badiiy asar olamiga, uning pafosiga olib kirishga xizmat qilgan. Hikoyada peyzaj shunchaki tabiat tasviri bo‘libgina qolmasdan, balki zamon va makonda ro‘y berayotgan voqealarga adabiy-falsafiy ruh bag‘ishlab, kelajakda o‘zbek xalqining

boshiga tushishi mumkin bo‘lgan falokatlarga, noxushliklarga ishora qilingan.

Mustaqillik sharofati tufayli ijod erkinligi, so‘z erkinligiga erishildi, yangicha badiiy tafakkur qamrovining kengayishi, o‘zgacha adabiy-uslubiy tamoyillarning qaror topishiga imkon yaratdi. Shulardan biri o‘zbek nasrida paydo bo‘lgan modernizm yo‘nalishidir. Akademik B.Nazarov Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqullarning modernizm yo‘nalishdagi asarlari xususida shunday yozadi: “So‘nggi bosqich o‘zbek adabiyotidagi bu yo‘nalishlar muayyan yangilanish namunalaridir. Ular jahon adabiyotida sodir bo‘lgan va bo‘layotgan yangiliklarga hamohangdir” . Yangilanayotgan realizm uslubda ijod qilayotgan Xurshid Do‘stmuhammadning “Kuza...” va “Yolg‘iz” qissalarida shaxs va jamiyat munosabati, xususan, inson tabiatining murakkab qirralari, tafakkuridagi yangilanishlar aks ettirilgan. Davrning qahramonini yaratish orqali qahramonning davrga bo‘lgan munosabati yoritiladi. Zero, “Yolg‘iz” qissasida qahramon talqinida o‘zlik, inson sha’ni, yurt qayg‘usi, ma’naviy komillik yo‘lidagi fidoyi inson timsoli yetakchilik qilsa, “Kuza...” qissasida insonning hayotni anglashi, yashash tarzi yangicha talqinda o‘z aksini topgan. Xususan, Ustoz hayotni ma’rifat orqali anglab, insonlar bir-birining nigohi, kuzatuvlari ta’qibidan qochib qutulsa ham, doimo u Yaratganning kuzatuvida ekanligiga ishora qiladi.

Shu bilan birgalikda globallashuvning yoshlar ongiga ta’siri haqida qayg‘uradi. Mavjud an’ana-yu qadriyatlarni, urf-odatlarni odamgarchilikni bema’nilik, vaqtni behudaga sarflash deb bilgan, o‘z maqsadi, orzularini hamma narsadan ustun qo‘yadigan, jamiyat va odamlardan begonalashgan shaxs taqdiri yoritib berilgan. 2010-yil qissalari haqida fikr bildirgan adabiyotshunos olim A.Ulug‘ov shunday yozadi: “Adabiyotda, har qanday janrning mavqeyi, maqomi unda inson obrazining gavdalantirilishi bilan belgilanadi. O‘tgan davrda qissalarda inson haqida, uning murakkab ma’naviy olami, qalbidagi turfa xil o‘zgarishlar to‘g‘risida yangicha qarashlar o‘z ifodasini topdi va ular badiiy salmoqdor asar sifatida e’tibor qozondi. Xurshid Do‘stmuhammadning “Kuza...”, “Men – sensiz, sen – mensiz”, Nosirjon Jo‘rayevning “Noyabr kuyi”, Abdunabi Abdiyevning “Muallaq odam”ida voqelikka va inson dunyosiga o‘ziga xos yondashilgani, uning qalbini taftish, tahlil etish diqqat markaziga qo‘yilgani qissachilikda yangicha intilish jarayoni davom etayotganidan dalolat beradi” .

Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida uslubiy rang-baranglik, nasriy asarlar poetikasi muammolari badiiy tafakkurda kechayotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liqlikda o‘rganilmoqda. Asarlardagi voqelik va ruhiyat qamrovining kengayishi, ramziylik an’anaviy va modernistik usulida talqin qilinmoqda.

Yuqoridagi mazkur qisqacha qaydlar zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida nasrdagi badiiyat masalalarini yoritishda xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Do‘stmuhammad X. Qichqiriq. – T.: Sharq, 2014.
2. Do‘stmuhammad X. Hikoya. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Nazarov B. Adabiy ta’sir va tipologik yaqinlikni o‘rganishning ayrim metodologik masalalariga doir. O‘zbek adabiyoti, ta’sir va tipologiya. – Toshkent: Muharrir, 2013.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004.
5. Sultonova M. Peyzaj san’ati. – T.: Fan, 1983.
6. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslika kirish. – T.: Sharq, 2008.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Abdulla Qodiriy, 2004.
8. Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi. – T.: Abdulla Qodiriy, 1994.
9. Hamroev K. Hikoya kompozitsiyasi. – T.: Nurafshon-business, 2020.

Dissertatsiyalar

1. Do‘stmuhammad X. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida badiiy tafakkurning yangilanishi. Fil.fan.nomz. ...diss. – T., 1995.

Maqolalar

1. Do‘stmuhammad X. “Xo‘ja Ma’oz” tasviri – “O‘tkan kunlar” kulminatsiyasi // Yolg‘iz. – T.: Mashhur-press, 2019. 164-bet.
2. Ulug‘ov A. Qissalarda qalb aksi (2010-yil qissalarini o‘qib) // Sharq yulduzi. 2011. №4. 137-bet.

Raxima SHARIPOVA,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi f.f.f.d (PhD)
sharipovaraxima801@gmail.com

HOZIRGI O‘ZBEK LIRIKASIDA TABIAT RAMZLARI (QOR TASVIRINING BERILISHI)

Annotatsiya: dunyo adabiyotshunosligida tabiat ramzlarining istioraviy, semantik ma’nolari, inson ruhiyati, tuyg‘u-kechinmalari ifodachisi sifatida ifodalagan umumbashariy va milliy jihatlari, peyzaj lirikasining bir muhim qismi ekanligini aniqlash, ularning yil fasllari bilan bog‘liq tomonlarini tekshirish kabi masalalar bo‘yicha muayyan izlanishlar olib borilmoqda. Shu ma’noda lirikada katta o‘ringa ega bo‘lgan tabiat ramzlari tasviridagi o‘ziga xosliklar, kelib chiqish asoslari, timsoliy ma’nolari, ular bilan yonma-yon keladigan lirik obrazlar mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga alohida diqqat qaratilmoqda. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida shamol, yomg‘ir, qor, bulut singari tabiat ramzlari talqini alohida o‘rin tutadi. Bu timsollar inson ruhiyati, his - kechinmalarini ochib berishning obrazli vositasidir. Maqolada yangi o‘zbek she’riyatidagi shamol, yomg‘ir, bulut kabilarning timsoliy-ramziy ma’nolari bahor, kuz, qish fasllari talqini bilan uyg‘unlikda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *motiv obraz, shamol, bulut, yomg‘ir, tashxis, lirik qahramon, ramz, ruhiyat.*

Аннотация: в мировом литературоведении ведутся определенные исследования по таким вопросам, как определение метафорических, смысловых значений символов природы, их выразителей общечеловеческих и национальных аспектов человеческой психики, чувств и переживаний, как важной части пейзажной лирики, исследование их граней, связанных с временами года. В этом смысле особое внимание уделяется научно-теоретическому изучению своеобразия в изображении символов природы, основ их происхождения, образных значений, сопутствующих им лирических образов, которым отводится большое место в лирике. В современной узбекской поэзии особое место занимает интерпретация природных символов, таких как ветер, дождь, снег, облака. Эти эмблемы являются образным средством раскрытия человеческой психики, чувств. Статья раскрывает символические значения ветра, дождя, облаков и т.д. В работе современной узбекской раскрыты гармонии с интерпретацией весны, осени и зимы.

Ключевые слова: *мотив изображения, ветер, облако, дождь, диагностика, лирический герой, символ, психика.*

Annotation: in modern poetry, it is revealed that the image of the wind expresses the mood of the lyrical hero who yearns for spring, the beginning of a new day, the transience and brevity of human life, the message of happiness, and the bond that connects yesterday and today. In modern Uzbek poetry, interpretation of natural symbols such as wind, rain, snow,clouds occupies a special place. These emblems are a figurative means of revealing the human psyche, feelings. The article reveals the symbolic meanings of wind, rain, clouds,etc. In the work of in modern poetry, harmonies with the interpretation of spring, autumn and winter are revealed.

Key words: *image motive, wind, cloud, rain, diagnostics, lyrical hero, symbol, psyche.*

Kirish. Ushbu tadqiqotning maqsadi har bir xalq yoki elatning turish-turmushi, urf-odati, dunyoqarashi o‘ziga xos, ular uzoq davrlar mobaynida shakllangan. Bu narsa hatto rangga bo‘lgan munosabatda ham namoyon bo‘ladi. O‘rta Osiyoda, xususan, o‘zbeklarda yorqin ranglarga ijobiy ma’no yuklanadi. Shular jumlasidan, oq rangga ham. Oq rang – ezgulik, soflik, ma’sumlik, pokizalik belgisi sanaladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, qor lirik qahramonning mahzun kayfiyatini, hayotsevarlik ruhini, lirik qahramon tuyg‘u-kechinmalarini ifodalab keladi.

Qor peyzaj tasviri sifatida lirik qahramonning ko‘tarinki kayfiyatini aks ettiradi, rizq-ro‘z manbayi, o‘tib borayotgan umr ramzi bo‘lib kelgan, tog‘ cho‘qqisidagi erib tushayotgan qorlar bahorning tashrifini ifodalaydi, lirik qahramon go‘zallikni tuyadi, muhabbatdan ozorlangan ko‘ngil erimagan qorga qiyos etiladi.

Muhokama va tahlil. Adabiyotda tabiat va u bilan bog‘liq tushunchalarning berilishi bu har qanday asarning yuragi hisoblanadi. Inson tabiatning tarkibiy qismi va farzandi sifatida vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyat o‘z his – tuyg‘ularini, kechinmalarini ta’sirliroq ifodalash maqsadida she’riyatdan foydalangan. Turli ramzlar, obrazlar, timsollarni keltirish ularning yanada o‘qimishli bo‘lishiga yordam bergan. Zamonaviy she’riyatda tabiat hodisalari tasvirida qorning berilishi she’rga o‘zgacha jilo baxsh etadi. Qor tabiatning eng go‘zal ijod namunalaridan biridir. Bunday nafis shaklni yasash o‘ta mashaqqatli ish. Masalan, qor yoqqanda millionlab bunday uchqunlar yerga tushadi, ammo ular orasidan ikkita bir xil uchqunni topishning imkoni yo‘q.

– Boshimdan ***qor*** erimadi, onajon!
– Kuyma, senga quyosh beraman, bolam!

– Ko‘zimdan yosh arimadi, onajon!
– Sen chidaysan, bardosh beraman, bolam! [1,54]

Shoiraning mungli misralarida ifodalangan qor ramziydir. Shoira “boshimdagi qor” iborasi orqali hayot tashvishlarini, sovuqlik va yolg‘izlikni ramzlantirgan. Qor nega sovuq? Qor qanday paydo bo‘ladi?

Qor muzlagan suvdan boshqa narsa emas. Uning sovuqligi ham shundan. Qor donalari muzning kichik kristallchalaridan tarkib topgan va yorug‘lik uning behisob qirralaridan qaytgani uchun ham qor donalari shaffof emas, oq bo‘lib ko‘rinadi. Qor parchalari olti qirrali bo‘lib, tabiatda ikkita bir xil qor donasini topish qiyin. Qor hamisha ham oq rangda bo‘lavermaydi. Dunyoning ko‘pgina mintaqalarida qizil, yashil, zangori va hatto qora qorlar ham yog‘ib turadi. Uning bunday turfa rangda bo‘lishi sababi shundaki, qor donalari yerga tushayotganda, havoda mavjud mayda bakteriyalar, zamburug‘lar va changni yutadi.

Adabiyotda “qora qor” ramziy iborasining uchrashi ham shundan. Unda salbiy bo‘yoqdorlik kuchli bo‘lib, odatda, juda tushkun vaziyatda ishlatiladi.

Oy suzadi. Muzlagan kecha.
Qor ufurar.
Tumanlarda bir yulduz muncha
G‘amgin turar. [5,84]

Shoirlar, asosan, qor tasvirini berishda muzlagan, sovuqlik, qahraton kabi so‘zlar bilan birgalikda tasvirlaydilar. Bunda ham she’rning jilodorligi oshadi, ham qahramonning ruhiy holati to‘laligicha ochib beriladi. She’rda oyning harakatini suzishga, tunni esa sovuqlikka monandlikda tasvirlangan. Shoirning “qor ufurar” deya ta’kidi ham she’rning go‘zalligini yana bir bor oshirgan. Ya’ni ko‘chada yog‘ayotgan qor dimoqqa uriladi, demoqchi shoir. Shuningdek, tumanni adabiyotda ifodalanishining turli qirralari mavjud. Tuman tushgan paytda hech qayerni ko‘rishning imkoni bo‘lmaydi. Lekin shunday vaziyatda ham shoir g‘amgin yulduzni ko‘rmoqda.

Aylanib tushar ***qor*** yo‘limga,
Qo‘lingni qo‘ygil yor, qo‘limga. [5,90.]

Yuqoridagi misralarda yor-qor so‘zlari bir-biriga mos tarzda mahorat bilan tanlangan. Qor qish faslida yog‘adi. Qish esa odatda, ayriliq ma’nosini ifodalaydi. Lirik qahramon ayriliqning sovuq nafasi kelmasdan turib, yorining qo‘llariga talpinmoqda.

Shamol uvillaydi, / ***Qor, bo‘ron*** toshib,
Tepalik to‘shiga o‘zni uradi. / U yerda tuproqqa bag‘rini bosib
Tanho bir sag‘ana ma’yus turadi.[3,68]

Har bir tabiat hodisasining o‘z xarakter xususiyati mavjud. Masalan, shamolda ovoz chiqarish xususiyati bo‘lganligi uchun unga nisbatan “uvillamoq” so‘zi ishlatiladi. Bo‘ron ko‘p talofat yetkazishi uchun “toshmoq” so‘zlari qo‘llanadi. She’rda qor va bo‘ronning toshib, hammayoqni boshiga ko‘tarishiga qaramasdan qabriston va undagi sag‘analar jim, sukunatda.

Yo‘q, ko‘rishmaymiz, xayr endi,/Ortiq ko‘rishmaymiz yuzma-yuz.
Sahrolarda sevgimiz qoldi,/***Qor*** ostida qoldi sevgimiz.
Qor ostida qoldi sevgimiz,/Sho‘rlik sevgi topmadi omon.
Yakka-yakka bo‘ldi ismimiz,/Har xil yo‘ldan ketdik har tomon.[5,78.]

Rauf Parfi ijodi rang-barang ramzlarga, timsollarga burkangan. Shoirning mahorati shundaki, u aynan kerakli so‘zni ishlatmasdan turib ham kitobxonni o‘z yo‘nalishiga boshlay oladi. Yuqoridagi misralardan ayonki, shoir ayriliq va qorni sinonim tarzda qo‘yadi. Teranlik bilan nazar solinsa har ikkalasida ham o‘xshashliklar mavjud. Jumladan, sovuqlik, yolg‘izlik singari. Qor uyumi ostida qolgan nihol unmagani kabi ayrilgan sevgining yana qayta birlashishi ancha dushvor.

Eslaysanmi izg‘irin kecha,/Darchaga ***qor urar*** besabr.
Yiroq o‘ylar edi ketgancha,/Yiroq o‘ylar edi bir og‘ir.
Yiroq o‘ylar edi bir og‘ir,/Qarg‘ar edi balki sukunat.
Erimagan qor kabi bag‘ir,/Buni hozir angladik faqat.[5.64.]

Qorning foydali jihatlari ham mavjud. Masalan, nabotot olami uchun. Adabiyotda esa ayniqsa, she’riyatda u tushkunlik, sovuqqonlik ramzini aks ettiradi. Bu xususiyatlar uning tabiatidan kelib chiqqan holda olingan. Ushbu she’rda Rauf Parfi ko‘ngilni erimagan qorga qiyos etadi. Qor yoqqanidan so‘ng bir muddat o‘tib erib ketadi, lirik qahramonning ko‘nglidagi og‘riqlar esa hali erib ketmagan, qalbidagi ozorlar erimaganini esa endigina anglamoqda.

Pag‘a-pag‘a ***oppoq qor*** yog‘ar,/Bog‘lar kiymish ilohiy libos.
Yuragimni bir otash dog‘lar,/Quyosh tutib kelayotir yoz.[5,98.]

She’rda qorning tabiiy jarayoni ya’ni pag‘a-pag‘a bo‘lib yog‘ishi aytilmoqda. Bunda shoir qorni ilohiylashtirgan. Buning sababi uning oq rangida. Birinchi misrada ham “oppoq qor” ta’kidi keyingi misra uchun zamin hozirlagan.

Har bir xalq yoki elatning turish-turmushi, urf-odati, dunyoqarashi o‘ziga xos, ular uzoq davrlar mobaynida shakllangan. Bu narsa hatto rangga bo‘lgan munosabatda ham namoyon bo‘ladi. O‘rta Osiyoda, xususan, biz – o‘zbeklarda yorqin ranglarga ijobiy ma’no yuklanadi. Shular jumlasidan, oq rangga ham. Oq rang – ezgulik, soflik, ma’sumlik, pokizalik belgisi sanaladi. Masalan, o‘tmishda asir tushgan yoki yengilgan qo‘shin oq bayroq ko‘tarishgan. Rauf Parfi ham shunga ishora qilib, oppoq qor yog‘gan bog‘ ilohiy bir joziba baxsh etib turganligini ta’kidlamoqda.

Har bir tabiat hodisasining ijobiy va salbiylik xususiyatlari mavjud va bu xususiyatlar ularning

qirralarida yotadi. Ushbu qirralarni kashf qilib yangicha iboralar, tashbehlar yaratgan shoirlarning she'rlarigina o'z yashovchanligini yo'qotmay, hamisha sevib mutolaa qilinadi. Xulosa qilib aytganda, Yangi o'zbek she'riyati milliy istiqlol bergan ijod erkinligidan foydalanib, mavzular qamrovini yanada kengaytirib borayotgan, turli timsollar, ramzlar vositasida kitobxonlar ruhiyati va shuuriga yo'l ochayotgan she'riyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guljamol Asqarova "Onam bilan ko'zim suhbati"
2. Рауф Парфи. Сўнгги видо. – Т.: Ўзб. Миллий кутубхонаси, 2006.
3. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт санъат, 2000.
4. Жўраев А. Онажон. – Т.: Ўзбекистон, 2013.
5. Rauf Parfi. Sakina (she'rlar). – T.: Muharrir, 2013. 376 –bet.
6. Qo'shjonov M., Meli Suvon. Abdulla Oripov. – T.: Ma'naviyat, 2000. 136 - bet.
7. Qayumov A. She'riyat jilolari. –Toshkent: O'qituvchi, 1996. 128- bet.
8. Davronova M. Hozirgi o'zbek she'riyatida individual uslub poetikasi. (U.Azim, I.Mirzo, Faxriyor va A.Qutbiddin she'riyati misolida). Filol .fan. dok. diss. avtoref. – Samarqand, 2019. 66 -bet.

Shoira ISAYEVA



THE TRAGEDY OF THE PERIOD IN THE STORIES OF ABDULLA KAKHHOR

"You have fire in your soul, spread your fire,
burn wet and dry together "
(Abdulla Kakhhor)

Annotation: this article analyzes the ideological and artistic aspects of Abdullah Qahhor's stories. In addition, attempts have been made to portray the tragedy of the period in the writer's style and narratives. Abdulla Kakhhor is a writer who vividly reflected the tragedy of time, the suffering of people, social problems in all his works and left an indelible mark on our literature with his works of genius. In his works, the author was able to reveal the truth of life, sometimes with irony, sometimes with laughter.

Key words: *poetics, tragedy, aspect, sociality, style of writer, horizon.*

Аннотация: в данной статье анализируются идейные и художественные аспекты рассказов Абдуллы Каххора. Кроме того, предпринимались попытки изобразить трагедию того периода в стиле и повествованиях писателя. Абдулла Каххор – писатель, ярко отразивший во всех своих произведениях трагедию времени, страдания людей, социальные проблемы и оставивший неизгладимый след в нашей литературе своими гениальными произведениями. В своих произведениях автор сумел раскрыть правду жизни, иногда с иронией, иногда со смехом.

Ключевые слова: *поэтика, трагедия, аспект, социальность, стиль писателя, горизонт.*

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Qahhor qissalarining g'oyaviy-badiiy jihatlari tahlil qilinadi. Yozuvchi uslubi va hikoyalarida davr fojiasini tasvirlashga harakat qilingan. Abdulla Qahhor o'zining barcha asarlarida zamon fojiasi, odamlar dardi, ijtimoiy muammolarni yorqin aks ettirgan, daho asarlari bilan adabiyotimizda o'chmas iz qoldirgan adiblardan biridir. Yozuvchi o'z asarlarida goh kinoya, goh kulgu bilan hayot haqiqatini ochib bera olgan.

Abdullah Kahhor is a real writer, a talented storyteller who has a place in life and art, and who won the hearts of people with his unique talent and sharp pen. He is one of the most influential figures in Uzbek literature with his inexhaustible works, unique artistic style and ability to express many meanings in a few words. In his works, the author was able to reveal the truth of life, sometimes with irony, sometimes with laughter and it was not for nothing that he was recognized as the "King of Fairy Tales". In recent years, a lot of creative work has been done to reveal the creative path of

Abdulla Kakhhor and the essence of his works. In particular, Naim Karimov in his work "Landscapes of the 20th century literature" gave information about the life and work of A. Kakhhor, which we do not know. Literary critic Rahmon Kochkor prepared the author's program "Astonishment", dedicated to the life of the writer. Also, young artists such as Umarali Normatov, Ibrahim Hakkul, Markhabo Kochkarova studied the life and work of Abdulla Kakhkhor. The reason for the interest in the unparalleled creativity and life of the author is his courage. What courage can you say?!

We all know that the author's work was carried out under the pressure of an authoritarian regime that opposed any news. Abdulla Kakhhor was not afraid to reveal the plight of the oppressed people in his works at a time when the so-called Soviet poets of that time were singers of truth and truth, and at the same time persecuted writers. ... He sought to bring people out of spiritual poverty, depravity and warn them of the dark days of colonialism. As the author himself put it: "Better a poor horse than no horse". This bitter truth is the truth of the past. The writer managed to convey this to his contemporaries and to us, generations, not simply, but through his satirical and humorous works. The condition of our people, the oppression to which our country is subjected, corruption and deception of the government, whose intentions boil down only to robbing the people, are clearly demonstrated in their masterpieces. In a word, Abdulla Kakhhor is a translator of the national language.

We want to prove this by analyzing several of the author's stories throughout the article. First of all, let's talk about the story of “The Thief”. In the story, we become witnesses of the adversity of the time in which the writer lived and worked, the fact that the spiritually poor were a puppet in the hands of the colonialists. The robbery of the house of Cain, the protagonist of the story, depicts the actions of dishonest, corrupt officials. This is evidenced by the epigraph to the story "Death of a Horse, Dog Feast". According to the plot, the cow of Cain's grandfather was kidnapped. Here the author quotes a proverb: "Let the house of the farmer burn down and the ox will not be lost." Only this proverb can tell us about the financial situation of people of that time. Reading this story, we see that Cain's grandfather was robbed again, and Cain was the first to rob him by making fifty promises to his grandfather. When fifty did not work, Cain ran to his grandfather. Through Amir and his speech, our writer described the officials of that time who were interested only in their own interests and were indifferent to the plight of the people. Let's take a look at the next sentence in history:

He will return? Would someone volunteer to come up with a beautiful template? Why are you crying? Do not Cry! Cain looked at the ground and spoke.

Already in this proposal, we see that our ordinary people have always been a plaything in the hands of corrupt officials. Throughout history, Cain is also robbed by his grandfather’s Tilmoh and Prestav. Obviously, the thief is not the one who stole the bull, but the real thief of the tyrannical government. This is how the then government deceived the people. It is no coincidence that at the end of the story, the bull's father-in-law gave him two oxen. Cain tells his grandfather that there is a "small" condition in return and that it will become known in the fall. This one sentence is a sign that Cain is still being robbed. In the stories of Abdulla Kakhhor, the past is directly condemned. Speaking about the tragic days of the past, one cannot but dwell on the author's story "Horror". In this story, the author reflects the atmosphere of that time, the spiritual backwardness of people, the tragedy of the time, that is, horror. We see the unprecedented skill of Abdulla Kakhhor from the very beginning of the story. In the epigraph to the story, we see proof of this: "Women who do not know the day when women saw him in the past do not believe what they say". Indeed, in the past, women had no rights and were looked down upon. The fact that Unsin's father, the protagonist of the story, was married to the same man as the eighth wife was a nightmare in itself. The disgusting atmosphere of that time made the poor do it. Our people suffered a lot during the Soviet era and it was financial difficulties that forced them to do what they did not want to do. We can see this in the story of how young Unsin was given to Olimbek Dodho, an old and humble man, in exchange for his father's debts. For a young girl, life in the dojo house was hell. Because in this story, if the Dodho blames one wife, he hits them all the same. Tired of living in such an environment, the depressed never tired of going to the cemetery at night to return home and return for tea. Because for this young girl, the horror of the cemetery was nothing compared to the horror of the Dodho‘s house. In that moment, he was able to do anything to escape the terror of the Dodho‘s house and live a free, free life. At the end of the story, Unsin performs this terrible task, but his heart cannot bear this horror. This is a worthy act, and this should be the end of it. But the spirit goes free. As for the analysis of A. Kakhhor's story "The Patient", the story reflects the invisible

shortcomings of a sick woman in the whole society. Thus, through the events of the story, the author reveals that the original patient is society. It's as the if the writer was thinking about our society through storytelling. The story skillfully describes the suffering of our people from poverty, the fact that they could not even find a loan to treat a sick woman and the idea of a hospital with "money depicting a white padsha."

In an interview with Mushtum magazine, Abdullah Qahhor said: He has destroyed the art, the most important educational tool. " It makes every writer feel proud and proud. Because it's not for nothing, it's up to each writer to understand. Therefore, the writer cannot explain his feelings in any way. He tries to explain the sincere words of his heart to young readers and all his fans through his works. This requires great courage, contentment and patience from the writer. Abdullah Qahhor was such a brave, contented and patient man.

In today's process of globalization and integration, there is no need to explain how important it is for each nation to know its past, the heritage of its ancestors, and the history of the formation of the nation. At the same time, the works of art that play an important role in shaping the worldview of today's man, in particular, the works that reflect the way of life, thoughts and aspirations of our people in a particular period are especially invaluable. By reading and studying such works, we can better understand the spiritual values and changes in the spiritual worldview of our people. From this point of view, if we talk about the works of Abdullah Qahhor, a writer who created his own great school of literature in the literature of the twentieth century, we will be able to put forward a very pure truth. Abdullah Qahhor's stories, first and foremost, amaze with their sincerity and persuasive power. Everything in the author's image is a life event, an event that happened, a part of real life, an episode; most of the stories are based on real life, they are taken from the events that the writer saw and heard in his life, from the lives of acquaintances. But they are not exactly a copy of life. "If writing was about copying from life, there would be no easier job in the world", he said. Copying from life is like copying from a book. Copies will remain. You can't expect originality from such things. Originality comes from experiencing the realities of life, feeling them, absorbing what you are thinking and expressing your desires".

Abdullah Qahhor was also an effective translator. He skillfully translated the centuries of Pushkin, Tolstoy, Gogol and Chekhov into Uzbek. In particular, Chekhov translated his works with special interest and experience. Of course, the writer's services and hard work paid off. In 1966, he was awarded the Hamza State Prize, in 1967 the People's Writer of Uzbekistan and in 2000 the Order of Merit. Abdulla Qahhor is named after several streets, schools and collective farms in Tashkent and Kokand, as well as houses of culture and the Republican Satire Theater. In 1987, the Abdulla Qahhor House-Museum was opened in Tashkent. His works have been translated into Russian, Kazakh, Ukrainian, Belarusian, Kyrgyz, Karakalpak and Tajik languages. Some of his stories have been published in English, German, French, Czech, Polish, Bulgarian, Romanian, Arabic, Hindi and Vietnamese.

In conclusion, we can say that Abdulla Kakhhor is one of the writer who vividly reflected the tragedy of time, the suffering of people, social problems in all his works and left an indelible mark on our literature with his works of genius. In his works, writer openly described the situation of people. With his works, he strove to bring people oppressed by Soviet oppression out of the spiritual quagmire. We can see this from the stories analyzed above. In the following articles, we will focus on the work of Abdulla Kakhhor and many other writers.

References:

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -T.: Akademnashr, 1999. 580 b.
2. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. Toshkent. „Yosh gvardiya“, 1988.
3. Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984.
4. Abdulla Qahhor. Asarlar (5 tomlik). -T. : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987–1989.
5. Q.Mamiraliyev. Some reviews on the mutation of genres in uzbek poetry. International journal for innovative engineering and management research. ISSN 2456 – 5083. Vol 10 Issue03, Feb2021. www.ijiemr.org

Nodira KHAYRULLAEVA
associate professor of Asia International University,
Jumaeva Dilnavoz Tulkinovna
master students of Asia International University

DIFFERENCES AND COMMON ASPECTS OF NATURALISM AND REALISM

Annotation: two significant literary tendencies that arose in the 19th century and influenced the development of contemporary literature and art were naturalism and realism. Despite their shared goal of accurately portraying life, their philosophical foundations and creative methods differ greatly. In order to provide light on these two movements' historical background and ongoing influence, this article analyzes their fundamental ideas, distinctions and overlapping features.

Key words: *naturalism, realism, literary movements, 19th century, determinism, representation, philosophy, art.*

Annotatsiya: 19-asrda vujudga kelgan va zamonaviy adabiyot va san'at rivojiga ta'sir ko'rsatgan ikkita muhim adabiy tendensiya naturalizm va realizm edi. Ularning umumiy maqsadi hayotni to'g'ri tasvirlash bo'lishiga qaramay, ularning falsafiy asoslari va ijodiy usullari bir-biridan keskin farq qiladi. Ushbu ikki harakatning tarixiy kelib chiqishi va davom etayotgan ta'sirini yoritish uchun ushbu maqola ularning asosiy g'oyalari, farqlari va bir-biriga mos keladigan xususiyatlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: *naturalizm, realizm, adabiy oqimlar, 19-asr, determinizm, vakillik, falsafa, san'at.*

Аннотация: двумя значительными литературными тенденциями, возникшими в XIX веке и повлиявшими на развитие современной литературы и искусства, были натурализм и реализм. Несмотря на их общую цель — точное изображение жизни, их философские основы и творческие методы существенно различаются. Чтобы пролить свет на исторический фон и продолжающееся влияние этих двух движений, в этой статье анализируются их основные идеи, различия и пересекающиеся черты.

Ключевые слова: *натурализм, зеализм, литературные течения, XIX век, детерминизм, репрезентация, философия, искусство.*

Introduction

Significant social, political and scientific change occurred during the 19th century. Traditional romantic ideals were replaced by more realistic and grounded portrayals of life in literature and art, reflecting these shifts. During this period, naturalism and realism were the two main schools of thought, each reacting to the growing knowledge of society and the human condition. Naturalism expanded realism's emphasis on accurately portraying daily life by adding a deterministic, scientifically inspired perspective on human existence.

Naturalism and realism are two distinct philosophical perspectives that share some common ground, yet also exhibit significant differences. Naturalism posits that the natural world, understood through scientific inquiry, is the sole domain of reality, rejecting the existence of any supernatural or non-physical realm. Realism, on the other hand, asserts that there exists an objective external reality, one that is not contingent upon our subjective perceptions or the extent of our knowledge about it.

While naturalism and realism share a commitment to the primacy of the natural world, they diverge in their fundamental assumptions and implications. Naturalism's emphasis on the physical world aligns with realism's acknowledgment of an objective reality, but naturalism goes further by categorically denying the existence of anything beyond the natural realm. Realism, as presented in the provided sources, offers a distinct perspective on the nature of causation and explanation in the sciences. Realism prioritizes causal explanations over mere descriptive accounts and utilizes qualitative approaches to uncover the social contexts underpinning such explanations. This anti-positivist stance of realism, which prioritizes the importance of causal explanation and the use of qualitative methods to offer insights into social contexts, contrasts with the more empiricist leanings of naturalism, which places greater emphasis on observable phenomena and scientific verification through quantitative methods.

Realism, which peaked in the middle of the 19th century, was distinguished by its dedication to accurately and truthfully depicting life. Authors like George Eliot and Gustave Flaubert aimed to depict common people and circumstances without exaggeration or idealization. Among the main characteristics of realism are:

Emphasis on Daily Life: realist literature frequently

focuses on the hardships of middle-class or lower-class individuals, providing an unbiased perspective on society.

Moral Ambiguity: realist stories steer short of absolute moral conclusions, enabling readers to make nuanced interpretations of the characters and events.

Detailed Descriptions: to convey a feeling of realism, realist writers use great detail.

Realist philosophy rejects the romantic emphasis on emotion and imagination and supports the idea that art should reflect reality.

The late 19th-century movement known as naturalism is sometimes seen as a continuation of realism with unique philosophical undertones. Naturalism portrays human behavior as a result of social, environmental and genetic factors. It was influenced by Emile Zola's literary theories and Charles Darwin's theory of evolution. Stephen Crane, Theodore Dreiser and Emile Zola are well-known naturalist writers. Naturalism's salient features include:

Determinism: naturalist literature emphasizes the lack of free will, portraying individuals as governed by forces beyond their control.

Focus on the Marginalized: naturalist works often explore the lives of society's outcasts, revealing the harsh realities of poverty, addiction and oppression.

Objective Tone: naturalist writers maintain a detached, almost clinical perspective in their narratives.

The Distinctions Between Naturalism and Realism

The intellectual underpinnings and narrative focus of realism and naturalism are where they divergemost:

Philosophy: Naturalism takes a deterministic stance toward human behavior, while realism is based on the idea that moral complexity and human agency exist. Scope: Naturalism emphasizes extreme circumstances and the impact of outside factors, but realism frequently depicts a wide range of existence. Tone: Naturalist literature is usually harsh and unyielding, while realist literature is more complex and sympathetic.

Naturalistic Examples in "Sister Carrie"

In American literature, Theodore Dreiser's "Sister Carrie" is a classic example of naturalism. The novel examines how the individuals' lives are shaped by the deterministic forces of their surroundings, aspirations and social expectations. Important aspects of naturalism that are present in the book include:

1. **Determinism and Environment:** Carrie Meeber's rise from a small-town girl to a successful actress is depicted as a product of her environment and circumstances. Her ambitions and relationships are influenced by external forces, including economic hardships and societal pressures.
2. **Focus on the Marginalized:** the novel delves into the struggles of individuals on the fringes of society, such as Hurstwood's downward spiral into poverty and despair. His fate is portrayed as inevitable, shaped by his inability to adapt to changing circumstances.
3. **Objective and Unflinching Tone:** Dreiser's narrative voice remains detached, avoiding moral judgment of Carrie's actions or Hurstwood's decline. Instead, the novel presents their lives as case studies in human behavior shaped by larger forces.
4. **Portrayal of Economic and Social Forces:** the novel underscores the impact of industrialization and urbanization on individuals. Carrie's experiences in Chicago and New York highlight the opportunities and challenges of modern urban life, illustrating how these forces shape personal ambitions and relationships.

Conclusion

Despite their differences, realism and naturalism are connected trends that have had a significant impact on literature and the arts. We can better comprehend how these movements represent the complexity of human experience and societal change by comparing and contrasting them. When taken as a whole, they mark a turning point in the artistic pursuit of reality depiction, opening the door for postmodern and contemporary methods.

References

1. Dreiser, Theodore. Sister Carrie. New York: Doubleday, Page & Co., 1900.
2. Becker, George J. Realism in Modern Literature. New York: Frederick Ungar Publishing Co., 1963.
3. Zola, Emile. The Experimental Novel. Paris: Charpentier, 1880.
4. Pizer, Donald. Twentieth-Century Naturalism. Carbondale: Southern Illinois University Press, 1982.
5. Watt, Ian. The Rise of the Novel. Berkeley: University of California Press, 1957.

Buzulayho QODIROVA,
ADPI PhD. dotsenti

BADIIY ASARLARNI O‘RGANISH JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TARIXIY KONSEPTLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga badiiy asarlar orqali tarixiy kontseptlarni o‘rgatish ularning tafakkurini kengaytirish, tarixiy xotirani shakllantirish va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani chuqurlashtirishga yordam beradigan konseptlar haqida yoritib beramiz. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar tarixiy davrlarni, voqealarni va shaxslarni o‘rganib, ulardagi sabab va oqibatlarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirish va voqealarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy konsepsiya, tarixiy jarayon, boshlang‘ich sinf, tarixiy davr, fantastika, ko‘rgazmali o‘qitish, obrazli o‘qitish.*

Аннотация: в данной статье мы осветим концепции преподавания исторических понятий учащимся начальных классов посредством художественных произведений, что поможет расширить их мышление, сформировать историческую память, углубить духовно-просветительское воспитание. С помощью произведений искусства студенты изучают исторические периоды, события и отдельных лиц и учатся анализировать их причины и следствия. Это помогает развивать историческое мышление и более глубокое понимание событий.

Ключевые слова: *историческая концепция, исторический процесс, начальная школа, исторический период, художественная литература, наглядное обучение, образное обучение.*

Annotation: in this article, we will shed light on the concepts of teaching historical concepts to elementary school students through artistic works, which will help to expand their thinking, form historical memory, and deepen spiritual and educational education. Through works of art, students study historical periods, events, and individuals, and learn to analyze their cause and effect. It helps to develop their historical thinking and a deeper understanding of events.

Key words: *historical concept, historical process, elementary school, historical period, fiction, visual teaching, figurative teaching.*

Kirish. Tarixiy konsepsiyalar – bu tarixiy jarayonlar, hodisalar va voqealarni tushunish va tahlil qilish uchun asos bo‘ladigan asosiy g‘oyalar, tushunchalar yoki tamoyillardir. Ular tarixni o‘rganish va uni tizimli ravishda tushuntirishda yordam beradi. Tarixiy konsepsiyalar o‘quvchilarga o‘tgan davr voqealarini anglash, tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarga tarixiy davrni tushuntirish uchun asarlar tanlanishi zarur. Bu asarlar o‘quvchilarga turli tarixiy voqealar va shaxslarni tanitish imkoniyatini beradi.

Badiiy adabiyot – bu tasavvurdan yaratilgan adabiyot. Garchi u haqiqiy voqea yoki vaziyatga asoslangan bo‘lsa-da, u haqiqat sifatida taqdim etilmaydi. (Faktlarga asoslangan yozuv fantastika deb ataladi.) Yaxshi yozilgan tarixiy romanning shakli o‘quvchilarning tasavvurlarini ushbu romanning vaqt doirasiga moslashtirishga imkon beradi. Ular tarixni bir qator alohida voqealar emas, balki insoniy tajriba sifatida tushunishni boshlaydilar va eng muhimi bu shunchaki sinov uchun yodlanishi kerak bo‘lgan bir qator sanalar emasligini bilishadi [4: 210].

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’limda tarixiy konsepsiyalar sodda va tushunarli misollar orqali o‘rgatiladi, bu esa o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tarixiy konseptlar bilan ishlashda foydalanish mumkin bo‘lgan ba’zi badiiy asarlar:

“Alisher Navoiy” (P.J. Zalayev) Tarixiy konseptlar: madaniyat, adolat, ijodkorlik, insoniyat tarixining rivoji. Metodika: o‘quvchilarga Navoiy hayoti va uning asarlarini o‘rganish orqali o‘zgarish va davomiylik tushunchalarini kiritish mumkin. Asar orqali o‘quvchilar shaxsiy va tarixiy ta’sirlarni tahlil qilishadi.

“Menga o‘xshash bolalar” (Sh. Hamid) Tarixiy konseptlar: inson huquqlari, tenglik, jamiyatdagi o‘zgarishlar. Metodika: o‘quvchilarga tarixiy voqealarni keltirib chiqaradi, hozirgi davr bilan solishtirishni qayta tiklash. O‘quvchilar tarixiy konseptlarni real hayot bilan bog‘liq o‘rganadilar. Ayniqsa, tarixiy ongning va tarixiy xotiraning hozirgi kunda o‘quvchilarda ilmiy-tarixiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni haqida R. Raxmonov, F. Fayziyevlarning “Yoshlar dunyoqarashi

shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira” [5] risolasini misol keltirib o‘tsak bo‘ladi. Risolada tarixiy ong va tarixiy xotira tushunchalarini falsafiy tahlil qilish bilan bir qatorda uning kelib chiqishi, shakllanishiga ham bir darajada e’tibor beriladi. Bundan tashqari, bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tarixiy ong u yoki va unga aloqador boshqa madaniy-falsafiy tushunchalarga oid ishlari mavjud [5].

“Qahramon” (S.Qoziyev) Tarixiy konseptlar : qahramonlik, fidoyilik, urush va tinchlik. Metodika : urush va tinchlik haqidagi asar orqali tarixiy voqealarni tahlil qilish va qahramonlarning jamiyatdagi o‘rni haqida o‘quvchilar muhokama qilishlarining yo‘qotilishi.

“Temur Toshkentda” (Sh. Xudoyberganov) Tarixiy konseptlar : imperiya, urush, ijtimoiy o‘zgarishlar, tarixiy xotira. Metodika : Temur bilan bog‘liq tarixiy voqealarni va uning davridagi siyosatni muhokama qilish, o‘quvchilarni sabab va oqibatlarni keltirib chiqarishga undaydi.

“Birinchi qadam” (J.Qudratov) Tarixiy konseptlar : inson huquqlari, tenglik, adolat. Metodika: asardagi voqealar orqali o‘quvchilarning o‘zgarishlari, mustaqillik va demokratiya kabi tarixiy konseptlarni ko‘paytirishga yordam berishlarni olib borish mumkin.

Tarixiy konsepsiyalarning ahamiyati o‘quvchilar tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni o‘rganadilar. Tarixiy jarayonlarni chuqurroq tushunish va ulardan bugungi kunga xulosa chiqarish imkonini beradi. Tarixni o‘rganish nafaqat voqealar zanjiri, balki ularning ortidagi g‘oyalarni tushunishni ham rivojlantiradi [10: 7].

Tahlil va natijalar. O‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish uchun o‘yinlar, rasmlar, multfilmlar yoki hikoyalar yordamida tarixiy konsept bayon qilish. Tarixiy konseptlarni o‘quvchilarning yoshiga mos soddalashtirish orqali oson tushuniladigan shaklda yetkazish kerak. Masalan, “adolat”, “vatan”, “jasorat” kabi xususiyatlarni “qiymat asar qahramonlari hayotidan olingan real voqealar bilan izohlash. Asarda tilga olingan voqealarni tarixiy davrlar bilan bog‘lash, masalan, “Alpomish” qissasi orqali qahramonlik va milliy o‘zlikka erishish. Asarni o‘qigandan keyin qahramonlar harakati orqali tarixiy konseptlarni o‘quvchilar bilan birga muhokama qilish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarixiy ongni shakllantirish masalasi uzoq yillardan buyon o‘qituvchilar va uslubchilarni tashvishga solib kelgan. Bu kichik yoshdagi o‘quvchilar tomonidan tarixiy materialni o‘zlashtirishning va tarixiy dalilning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq edi. Shu munosabat bilan mustaqillikkacha bo‘lgan davrlar uslubchilar tomonidan taqdim qilingan ishlarda boshlang‘ich sinflarda tarix fanini obrazli o‘qitish, o‘qituvchining hikoyasi, suhbati, ko‘rgazmali o‘qitish vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning tarixiy tasavvurlarini boyitish yo‘llarini belgilash zarurligi asoslab o‘tilgan [12: 188].

Rus uslubchi va amaliyotchilari maktab o‘quvchilarida tarixiy ong va tarixiy g‘oyalarni shakllantirish nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo‘shgan, tarixiy ong va g‘oyalar tarixiy tushunchalarni shakllantirishning dastlabki zaruriy bosqichi sifatida belgilandi, bu esa, o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quchilarining tarixiy dunyoqarashi shakllanishiga olib keladi. Uslubchilar bir qator samarali tarixiy tasvirlarning tasnifini taklif qildi, vaqt, makon, o‘tmish dalillari bo‘yicha har bir turdagi tarixiy tasvirlarni yaratish usullarini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ladi. Zamonaviy uslubchilar o‘z ishlarida o‘qituvchilarning e’tiborini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida asosiy fanga oid va ularni mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish sharti sifatida tarixiy ongni shakllantirish zarurligiga qaratadilar. Biroq, ilmiy va o‘quv adabiyotlarini tahlil qilish bizga hozirgi bosqichda o‘qituvchilarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarixiy ong va tarixiy g‘oyalarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, jumladan, dars ishlanmalari taklif qilinmaganligi bu mavzuni chuqurroq tadqiq qilish zarurati borligini bildiradi. Demak, hozirgi kunga qadar boshlang‘ich maktab o‘quvchilari rivojlanishining yoshga bog‘liq qonuniyatlarini, ularni hisobga olgan holda o‘quv fanlari mazmuniga kichik yoshdagi o‘quvchini mustaqil va nostandart fikrlashga, jamiyatda o‘z faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga erishishimiz mumkin.

Tarix nafaqat insoniyatning faoliyati va merosi, balki u insoniyatning ma’lum bir davrdagi harakatlari va hodisalari yig‘indisidir. Tarix ham vaqt yig‘indisidir, u faqat vaqt ichida mavjud. Tarixiy tafakkurda aks etgan tarixiy taraqqiyot, uning qarama-qarshiliklarining namoyon bo‘lishi hamisha insoniyat tafakkurini band etib kelgan. Tarixiy ong tushunchasi tarix falsafasining asosiy mavzusidir. Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo‘lni bosib o‘tgan o‘z genezisiga ega. Tarixiy ong “dengiz ko‘pigidan” birdaniga paydo bo‘lmagan. Uning shakllanishi insoniyatning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bilan birga kechdi. Ijtimoiy ong siyosiy, mafkuraviy, huquqiy ong, axloq, din, fan, san’at va falsafa shakllarida mavjud. Lekin tarixiy ong ijtimoiy ongning turli shakllarida uning elementi, qismi sifatida vujudga keladi va ularning rivojlanishi va xilma-xilligi tabiat va jamiyat taraqqiyoti va xilma-xilligi bilan belgilanadi. Tarixiy ong falsafiy-

tarixiy tushunchadir. Ushbu konsepsiyaning mohiyatiga kirishdan oldin, biz falsafiy dunyoqarash haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz kerak. Falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkurining rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma’lumot beradi. [8].

Tarixiy ongning shakllanish jarayoni nihoyatda murakkab va bir-biriga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillarga bog‘liq. Xususan, bolada tarixiy ongni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyati millatning ko‘p madaniyatli tuzilishi bilan belgilanadi, har bir jamiyatning o‘ziga xos qadriyatlari, urf-odatlari, diniy marosimlari va shaxsiy tajribasi hamda o‘rganish asosida shakllangan madaniyati mavjud. Tarixiy ongni belgilovchi omillar ko‘p va xilma-xildir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarixiy ongi turli omillar ta’sirida shakllanadi. Shu bilan birga, uning holatiga, birinchi navbatda, fanlarni o‘qitish va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida olingan bilimlar ta’sir qiladi, ularning obyektivligi va ishonchliligi maktab darsliklarining mazmuniga va o‘qituvchilarning pozitsiyasiga bog‘liq, chunki maktab o‘quvchilari deyarli har kuni o‘quv jarayonlarida tarixiy materiallardan foydalanmaydilar.

Xulosa va takliflar. Boshlang‘ich ta’limda tarixiy konsepsiyalar sodda va tushunarli misollar orqali o‘rgatiladi, bu esa o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tanlangan badiiy asarlar tarixiy voqealarni sodda va qiziqarli tarzda taqdim etish orqali o‘quvchilarning tarixga bo‘lgan harakatini rivojlantirish, tarixiy konseptlar — masalan, o‘zgarish va davomiylik, sabab va oqibat, adolat, qahramonlik kabi xususiyatlarni chuqurroq yaratishga yordam beradi. Bu metodika orqali o‘quvchilar tarixiy tafakkur, tahliliy fikrlash va insoniyat tarixini rivojlantiradilar, zamonaviy hayot bilan bog‘lashni o‘rganadilar. Badiiy asarlar yordamida o‘quvchilar tarixiy voqealarni jonli va faol shaklda tushunib, konseptlar bilan ishlashda tajriba orttiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллажонова Д. Тарихий онг ва тарихий хотира. // Фалсафа ва хукук.. – Тошкент, 2004. - № 2, 83-бет.
2. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи. – Т.: “ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ”нашриёти, 2007. 278- б.
3. Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. – Т.: Маънавият, 2007. 160- б.
4. Matyew Gareth. Philosofy and the young child. – Cambridge: Harward Temnl University Nress, 1988. – 210 p
5. Raximov R., Fayziyev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira – T.: O‘zbekiston, 2008. 18- bet.
6. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-jild, – T.: O‘zbekiston, 2001. 438- bet.
7. Raximov R., Fayziyev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira – T.: O‘zbekiston, 2008. 18- bet.
8. Ҳошимов К., Нишонова С., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996. 446- б
9. Tulenov J. Qonun falsafiy tushuncha sifatida. – T., 1959.
10. Туленов Ж., Жабборов И. Тарихий онгни ривожлантириш – давр талаби. – Т.: Мехнат, 2000, 7-бет.
11. Тоштемирова С.А. Минтақавий таълим кластерларида педагогик-касбий компетенцияларни ривожлантириш: талаб ва таклиф // Analyticai Journal of Education and Devolopment, Special issue 2012 // www.sciencebox.uz.
12. Тоштемирова С.А. Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш / монография. – Тошкент: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021. 188 -б.
13. Мухамедов Е.И., Ходжамкулов У.Н., Тоштемирова С.А. Педагогик таълим инноватsion кластери / монография. – Тошкент, 2020. 280- б.
14. Toshtemirova, S. A. (2021). Tarix fanlarini o‘qitish samaradorligiga qaratilgan ta’lim klasterlarini tashkil qilish asoslari. Academic research in educational sciences, 2(5), 1073-1081.
15. Toshtemirova S.A., G‘afforov Ya.X., Abduraxmonova J.N. Mutaxassislik fanlarini kasbga yo‘naltirish metodikasi // o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: "MALIK PRINT CO", 2021. 204- b.
16. Туленов Ж., Жабборов И. Тарихий онгни ривожлантириш – давр талаби. – Т.: Мехнат, 2000, 7-бет.

Rayxon RASULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi v.b.dots., p.f.f.d (PhD)



O‘QUVCHILARINING MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSION YONDASHUVLARNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarining matn yaratish qobiliyatlarini rivojlantirish omillari, tashqi integratsiya sharoitida ta’lim oluvchilarni kasbga yo‘naltirish haqida fikr bildiriladi.

Kalit so‘zlar: *tashqi integratsiya, matn yaratish, ijtimoiy tarbiya, badiiy adabiyot, matn usullari, ijod, ijodiy jarayon.*


Annotation: this article will comment on the factors of the development of text-making abilities of students of secondary schools, on the orientation of those educated in the context of external integration to the profession.

Key words: *external integration, Text creation, social education, fiction, text methods, creativity, creative process.*

Аннотация: в данной статье выражены факторы развития навыков текстообразования у общеобразовательных школьников, ориентация учащихся на профессию в условиях внешней интеграции.


Ключевые слова: *внешняя интеграция, текстотворчество, социальное образование, художественная литература, текстовые методы, творчество, творческий процесс.*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga mos kadrlar tayyorlash talabi yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, intellektual qobiliyatlarini namoyish etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan. Har bir o‘quvchi o‘ziga yarasha qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlarga ega va bular uning qiziqishlari asosida takomillashadi. Bunday individual xususiyatlar, asosan, maktab jarayonida namoyon bo‘ladi, ba’zan o‘quvchining o‘zi ham oldin sezmagan qobiliyatlarini, amaliyot jarayonida sezib qoladilar. Keyingi yillarda oliy pedagogik ta’limda “4+2” tizimi asosida amaliyot va nazariyaning qo‘shib olib borilishining yo‘lga qo‘yilishi milliy pedagogikamizning eng katta yutuqlaridan biri deya e’tirof etishimiz mumkin. Kelajakda yetuk va tajribali kadrlar tayyorlash maqsadidagi bunday tadbirlar integratsiyalashgan ta’limning klaster modeliga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ushbu sa’y-harakatlarda kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga innovatsiyalarni kiritish, sinalgan tajribalarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim-fan-ishlab chiqarish uchligi o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjud. Zero, sohibqiron Amir Temur “O‘z o‘rnida qilingan tadbir, behuda sarflangan umr, samarasiz sa’y-harakatlarning oldini oladi hamda bajarilishi shart bo‘lgan tadbirlarning ta’rifidan va zikridan so‘ng qat’iylik, sabr, chidamlilik, sog‘lig‘u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur”, deb bejizga ta’kidlamagan. Zamon talabi tajribali, ishbilarmon, tadbirkor avlodni tayyorlash ekan, buni Amir Temurning davlat uchun har jihatdan yetuk insonlarning ahamiyati haqidagi fikrlaridan ham bilish mumkin: “Tajribamdan ko‘rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi, ming kishiga ish buyuradi”. Barcha zamonlarda ham ta’lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lgan. Inson kamoloti va tafakkuri, avvalo, uning fikrlashidagi mantiq hamda nutqiy salohiyati bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Buning uchun, avvalo, ajdodlarimiz ta’kidlaganlaridek, o‘sib kelayotgan avlodning fiklash salohiyatini kengaytirish, nutqini rivojlantirish asosiy mezondir. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy-madaniy hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga e’tiborni kuchaytirish, jumladan, o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish zarur. Albatta, ta’lim ikki tomonlama fenomendir, u integratsion yondashuvda samarali kechadi, shuningdek, ta’lim tizimi mahalla va oilalar bilan hamkorlikda ish olib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir o‘quvchining oilasi va mahallasi bilan uzviy aloqa o‘rnatgan holda tadbirlar uyushtirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Matn yaratishda zarur bo‘ladigan kitobxonlik musobaqalariga oila a’zolarini ham jalb qilib mahallalarda uyushtirilsa, ahamiyatlilik darajasi oshadi. O‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy hamda kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi,



Ayni zamonda, ta’lim amaliyotini integratsiyalashning shakllarida ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Masalan, “o‘quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi” o‘quvchining matn yaratish faoliyatida adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix, onomastika, etnografiya, psixologiya va boshqa fanlar orqali o‘zlashtirgan bilimlarini badiiy asarlar tahlili jarayonida umumlashtirgan holda qo‘llay bilish nazarda tutiladi. Shu sababli, o‘quvchilar faoliyatini ijtimoiy hayot bilan hamkorliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki bu tizimlar integratsiyasi katta ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning olimlar, shoir va yozuvchilar, radio-televideniye boshlovchilari va suxandonlari, jurnalistlar bilan hamkorlik qilishi, bu sohalarning xususiyatlaridan xabardor bo‘lishi “mutaxassislar, ijodkorlar va o‘quvchilarning ijodiy jamoasi integratsiyasi”ni yuzaga keltiradi. Tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va olib boriladigan ishlarga sohibqiron Amir Temurning “kengash egalari birlik, ittifoqlik bilan so‘zda sobit, ishda chidamli bo‘lishlari shartdir” degan fikrlari nuqtayi nazaridan qaralmog‘i zarur bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim maqsad va vazifalarini o‘quvchilarning maqsad va vazifalariga hamda ularning qiziqishlariga moslashtira bilishi taqozo etiladi. O‘qitish jarayonida ona tili, adabiyotshunoslik, tarix, pedagogika, san’atshunoslik, onomastika, etnografiya fanlari bo‘yicha bilimlari bilan bevosita; psixologiya, tabiatshunoslik, biologiya va boshqa bir qator fanlar bilan esa bilvosita integratsiyalashadi. Berilgan ma’lumotlar integratsion klaster usulida barcha qirralarini ochish, bilim berishda samaradorlikka olib keladi. O‘quvchilarda loqaydlik illatining oldi olinib, zukkolik, hayotni sevish, bilimga chanqoqlik oshadi.



Integratsiyaga asoslangan tizimli harakatlar “oddiydan murakkabga”, “nazariydan amaliyga” tizimli yondashuv va prinsiplariga asoslanadi. Har bir tizim o‘ziga xos tuzilishga ega va o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat bo‘lsa, ta’limning barcha darajalarida ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi va mantiqiy izchilligini ta’minlashga imkon beradi.

Zamonaviy o‘qitishda motivatsiya uyg‘otish, bilim olish ishtiyoqini yaratish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Quyidagi tamoyillarga amal qilish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yordam

berishi talab etiladi:

– ta’lim-tarbiya va kompetentlikning uyg‘unligi;

– bosqichlilik va tizimlilik;

– turli to‘garaklar, fakultativ kurslar va o‘quv dasturini o‘quvchilarning muloqotini ta’minlashuviga moslashtirish;

– nutq turlari va fanlararo integratsiya;

– ijodkor o‘quvchilarning ijod kunlari va haftaliklarini tashkil etish va unda olimpiadalar, bellashuvlar, tadbirlar tashkil etish;

– uzviylik va uzluksizlikka erishish, ota-onalar hamda mahallalar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish;

– nazariyani amaliyot bilan bog‘lash;


– o‘qituvchining malakasini orttirish.

Mazkur tamoyillar ta’lim oluvchilarda kommunikativ-kognitiv o‘rganish istagini shakllantiradi hamda hayotda moslashuvchanlik, o‘z o‘rnini topa olishda zarur tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida tilga olingan barcha tadbir va sa’y-harakatlardan kutilayatgan natija, albatta, yoshlarimizning zamon bilan hamnafas yashashlariga erishishdir.

Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan bugungi ijtimoiy talab o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish ekan, bunga barchamiz dolzarb muammo sifatida qarashimiz lozimdir.

I.L.Beam kommunikativ kompetensiyani quyidagilarga ajratadi: 1) lingvistik; 2) nutqiy; 3) ijtimoiy-madaniy; 4) kompensatsiya kompetensiyasi.



Natijada, olim kommunikativ kompetensiya haqidagi qarashlarida o‘qish qobiliyati, gapirish qobiliyati, yozish qobiliyati, tinglash qobiliyati, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, kompensatsiya kompetensiya kabi keng qamrovli qobiliyatlarni o‘zida mujassam etishini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur. “Temur Tuzuklari” / A.Sog‘uniy, H. Karomatov tarjimasi / “Buyuk davlatchilik silsilasi” turkumi. – T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. 144-bet.

2. Rasulova R.B. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda reminissensiya hodisasining ahamiyati (7-9-sinflarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi) MUG‘ALLIM HAM UZLUKSIZ BILIMLENDIRIO‘. Ilmiy-metodikaliq jurnal № 6/1 2021. 8-12-betlar.

Otabek YO‘LDOSHEV,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti dekani,
PhD, dotsent
Elektron pochta manzili: otabekyoldashevtipi@gmail.com

ZAMONAVIY BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TEXNOGEN SIVILIZATSIYANING O‘RNI: MUAMMOLAR TAHLILI VA RIVOJLANISH YO‘LLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimida texnogen sivilizatsiyaning roli va uning ta’lim jarayonlariga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilingan. Bugungi kunda texnologik taraqqiyotning jadallashuvi ta’lim sohasida turli imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Maqolada texnogen rivojlanishning boshlang‘ich ta’limga ta’siri, o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyani integratsiya qilish usullari hamda bu jarayonning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda texnogen sivilizatsiya tomonidan yuzaga keladigan muammolar tizimli ravishda tahlil qilingan. O‘quvchilar tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda texnologik vositalarni qo‘llashning afzalliklari va pedagogik ta’lim jarayonida ta’lim sifatiga ta’siri haqida ham aniq ma’lumotlar keltirilgan.

Maqolada kelgusida texnologik taraqqiyot bilan boshlang‘ich ta’limni uyg‘unlashtirishning istiqbollari va bu jarayonda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, texnogen sivilizatsiya, pedagogik metodlar, ta’lim tizimi, ta’lim muammolari, metodik ziddiyatlar, innovatsion yondashuv.*

Аннотация: в статье анализируется роль техногенной цивилизации в современной системе начального образования и ее влияние на образовательные процессы. Сегодня ускорение технологического прогресса в образовании наряду с различными возможностями создает и определенные проблемы.

В статье представлена информация о влиянии развития технологий на начальное образование, методах интеграции современных технологий в образовательный процесс, а также о положительных и отрицательных последствиях этого процесса. Кроме того, в статье системно анализируются проблемы, вызванные техногенной цивилизацией в начальном образовании. Также представлена конкретная информация о преимуществах использования технологических средств в развитии мышления и творческого потенциала учащихся и их влиянии на качество образования в процессе педагогического образования.

В статье рассматриваются перспективы дальнейшей гармонизации начального образования с технологическим прогрессом и значение инновационных подходов в этом процессе.

Ключевые слова: *начальное образование, техногенная цивилизация, педагогические методы, система образования, образовательные проблемы, методические конфликты, инновационный подход.*

Annotation: this article analyzes the role of technogenic civilization in the modern primary education system and its impact on educational processes. Today, the acceleration of technological progress, along with various opportunities, also creates certain problems in the field of education.

The article provides information on the impact of technogenic development on primary education, methods of integrating modern technology into the educational process, and the positive and negative consequences of this process. In addition, this article systematically analyzes the problems caused by technogenic civilization in primary education. It also provides specific information on the advantages of using technological tools in developing students' thinking and creative potential and their impact on the quality of education in the pedagogical education process.

The article discusses the prospects for further harmonization of primary education with technological progress and the importance of innovative approaches in this process.

Key words: *primary education, technogenic civilization, pedagogical methods, education system, educational problems, methodological conflicts, innovative approach.*

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan, ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Texnogen sivilizatsiya davrida zamonaviy boshlang'ich ta'limni samarali tashkil etish nafaqat texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishni, balki ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur o'rganishni ham talab etadi [Ismoilov, 2021]. Ta'lim jarayonida texnologiyalarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarning individual o'sishini ta'minlash va o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga erishish mumkin.

Texnogen sivilizatsiyaning rivojlanishi ta'lim jarayonlariga turli yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Masalan, interaktiv doskalar, raqamli darsliklar va onlayn ta'lim platformalari o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilmoqda [Kadirov, 2020]. Texnologiyalarning o'quv jarayoniga integratsiyasi dars materiallarini o'quvchilarga tezroq va samarali yetkazishga yordam beradi. Shu bilan birga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirib, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Biroq, haddan tashqari texnologiyalarga bog'liqlik o'quvchilarning tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda cheklovlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, bu holat bolalarda ijtimoiy o'zaro aloqa ko'nikmalarining susayishiga olib kelishi mumkin [Ahmedov, 2019].

Boshlang'ich ta'limda texnologiyalarni to'g'ri integratsiya qilish o'quvchilarning aqliy rivojlanishi va darslarni oson o'zlashtirishiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich yoshdagi bolalar interaktiv o'yinlar va raqamli ilovalar yordamida ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi [Ahmedov, 2019]. Shu bilan birga, pedagogik metodlar va texnologiyalarni muvozanatli qo'llash o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishi lozim. Masalan, dars rejalashtirishda raqamli vositalardan foydalanish o'quv jarayonining izchil bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, texnologiyalarning haddan tashqari ishlatilishi bolalarning o'quv jarayoniga bo'lgan tabiiy qiziqishini pasaytirishi mumkinligi haqida ogohlantirish zarur [Abdullayev, 2022].

Boshlang'ich ta'lim tizimida texnogen rivojlanish sabab yuzaga keladigan muammolarga metodik ziddiyatlar, texnologiyalarga haddan tashqari ishonch va pedagogik nazoratning zaiflashishi kiradi. Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Metodik yondashuvlarni takomillashtirish — texnologiyalarni ta'lim jarayonida maqsadli va tizimli qo'llash bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish zarur.

2. O'quvchilarni tarbiyalashga e'tibor qaratish — texnologiyalardan foydalanishda mas'uliyat va cheklovlarni belgilash lozim [Abdullayev, 2022].

3. O'qituvchilarning malakasini oshirish — zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to'g'ri qo'llash bo'yicha o'qituvchilarga trening va seminarlardan foydalanish taklif etiladi.

4. Pedagogik va texnologik integratsiyani rivojlantirish — innovatsion texnologiyalarni an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishni ta'minlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish.

Xulosa. Zamonaviy texnogen sivilizatsiya sharoitida boshlang'ich ta'limni tashkil etish uchun innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni o'quv jarayoniga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida texnologiyalarning ta'sirini muntazam kuzatib borish va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda o'qituvchilarning malakasi, metodik yondashuvlarning to'g'riligi va o'quvchilarning qiziqishi hisobga olinishi kerak. Kelajakda texnologiyalarni ta'lim jarayoniga yanada chuqurroq integratsiya qilish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev D. (2022). Ta'limda muammolarni hal etish metodlari. – Toshkent: "Barkamol avlod".
2. Ahmedov B. (2019). Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning roli. Ta'lim va Fan jurnali, 12(3), 45-50.
3. Ismoilov A. (2021). Zamonaviy ta'limda texnologiyalar. – Toshkent: "Ilm nashr".
4. Kadirov Sh. (2020). Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: "Sharq nashriyoti".

Zamira ERDANOVA
Termiz davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: ushbu maqola, ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish masalasini yoritadi. Maqolada matn ustida ishlashning ahamiyati, uning o‘quvchilarda fikrlash, tahlil qilish va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qanday yordam berishi ko‘rsatilgan. Matnni tahlil qilish, kreativ yondashuv, Sokratik metod, vizualizatsiya qilish kabi texnologiyalarni taqdim etish orqali o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga undash mumkinligi ta'kidlanadi

Kalit so‘zlar: *ona tili, matn ustida ishlash, texnologiyalar, ta'lim, tahlil qilish, ijodiy fikrlash, Sokratik metod.*

Аннотация: в данной статье освещается вопрос совершенствования технологий работы над текстами на занятиях родного языка. В статье показано значение работы над текстом, как она помогает учащимся развивать мышление, аналитические и творческие способности. Подчеркивается, что предоставляя такие технологии, как анализ текста, творческий подход, сократовский метод, визуализация, можно стимулировать студентов к углублению своих знаний и ясному выражению своих мыслей

Ключевые слова: *родной язык, работа над текстом, технологии, обучение, анализ, творческое мышление, сократический метод.*

Annotation: this article highlights the issue of improving technologies for working on texts in mother tongue classes. The article shows the importance of working on the text, how it helps students develop thinking, analytical and creative skills. It is emphasized that by providing technologies such as text analysis, creative approach, Socratic method, visualization, students can be encouraged to deepen their knowledge and express their thoughts clearly.

Key words: *native language, working on the text, technologies, education, analysis, creative thinking, Socratic method.*

Kirish. Ona tili darslari o‘quvchilarda tilni ongli ravishda o‘rganish, nutq madaniyatini oshirish, mantiqiy fikrlash va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, matn ustida ishlash texnologiyalari bu jarayonni yanada samarali qilish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Matn ustida ishlashning turli texnologiyalarini takomillashtirish orqali o‘quvchilarni faol o‘qish va mustaqil tahlil qilishga o‘rgatish mumkin.

Kreativ yondashuv texnologiyasi o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi. Bu texnologiyada o‘quvchilarga matndan yangi hikoyalar yoki qisqacha ertaklar yaratish, matn asosida rasm chizish yoki dramatizatsiya qilish kabi ijodiy vazifalar beriladi. O‘quvchilar matnni ijodiy ravishda qayta ishlash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi va yangi g‘oyalar yaratishga o‘rgatishadi. Sokratik metod o‘quvchilarga o‘z fikrlarini rivojlantirish, savollar orqali o‘ylash va tahlil qilishni o‘rgatadi. Matn ustida ishlashda o‘quvchilarga muallifning fikrini sinchiklab o‘rganish va undan savollar berish orqali o‘z fikrlarini izchil va aniq ifodalash talab qilinadi. Bu metod orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va bahsmunozara qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Matnni vizualizatsiya qilish. Matnni vizualizatsiya qilish texnologiyasi matnni tasvirlar, diagrammalar, xaritalar yoki grafikalar yordamida tushuntirishni o‘z ichiga oladi. Bu usul orqali o‘quvchilar matnni o‘zlashtirish jarayonida tasavvurlarini kengaytiradilar. Masalan, o‘quvchilar matndagi asosiy g‘oyalarni diagramma yoki reja shaklida chiqarish orqali matnning tuzilishini yaxshiroq anglashlari mumkin. Matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish yo‘llari. Matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirishda bir nechta muhim yo‘nalishlar mavjud: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash: Matn ustida ishlash jarayonida yangi texnologiyalarni, masalan, multimedia vositalarini, internetresurslarini va interaktiv ta'lim texnologiyalarini kengaytirish zarur. Bu o‘quvchilarning diqqatini jalb etishda va matnni samarali o‘rganishda yordam beradi.

Differensial yondashuvni qo‘llash: Har bir o‘quvchining o‘rganish ehtiyojlari va qobiliyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni turli vazifalar bilan ta'minlash, ularning qobiliyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni amalga oshirishi kerak. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish: O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish mumkin. O‘quvchilarga matnni ijodiy tarzda qayta ishlash, yangi hikoyalar yaratish, matn bo‘yicha dramatik ishlar olib borish tavsiya etiladi. Formativ baholash tizimini qo‘llash: Matn ustida ishlashda o‘quvchilarning yutuqlarini baholashda formativ baholash tizimini qo‘llash matnni o‘rganish jarayonini yaxshilaydi. Bu tizim o‘quvchilarning matnni qanday tushunganini, qanday kamchiliklarga ega ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni matnni chuqurroq o‘rganishga, uni tahlil qilishga va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rgatish mumkin. Matn ustida ishlash jarayonini takomillashtirish o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ular uchun o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Ona tili darslari o‘quvchilarni nafaqat til bilimlari bilan ta’minlash, balki ularda mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shadi. Dars jarayonida matn ustida ishlash texnologiyalari o‘quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish, ularni faol o‘qish va mustaqil fikrlashga o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarga matnni tahlil qilish, mazmunini anglash, til va uslubiy jihatlarini o‘rganish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashda yordam beradi. Ushbu maqola ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rib chiqadi.

Matn ustida ishlashning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga matnni to‘g‘ri tahlil qilish, asosiy g‘oyalarni ajratib olish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rgatishdir. Matn ustida ishlash texnologiyalarining ahamiyati quyidagi jihatlardan iborat: Tahliliy fikrlashni rivojlantirish: O‘quvchilar matnni o‘qish orqali uning mazmunini, strukturasini, asosiy g‘oyalarini tahlil qilishga o‘rganadilar. Ijodiy yondashuvni oshirish: Matn asosida turli ijodiy vazifalarni bajarish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Nutq madaniyatini oshirish: Matn ustida ishlash o‘quvchilarda tilni to‘g‘ri va ravon ishlatish, so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida matn ustida ishlashning turli texnologiyalari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘quvchilarda turli ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.Quyida matn ustida ishlash texnologiyalarining ayrim turlari keltirilgan:Diskussiya asosida matn ustida ishlash texnologiyasi o‘quvchilarga matnni tushunish va baholashni o‘rgatadi. O‘quvchilar matnni o‘qib, uning mazmuni haqida fikr almashadilar, o‘z nuqtai nazarlarini bildiradilar. Diskussiya jarayonida o‘quvchilarning fikrlarini izchil va aniq ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi. Matnni tahlil qilish texnologiyasi matnning tuzilishi, til va uslubiy jihatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quvchilar matnni qismlarga ajratib, uning asosiy g‘oyasini aniqlaydilar, til vositalarini tahlil qiladilar va matnning mantiqiy tuzilishini o‘rganadilar. Matnni tahlil qilish o‘quvchilarga aniq va izchil fikrlashni o‘rgatadi.Kreativ yondashuv texnologiyasi o‘quvchilarga matnni ijodiy tarzda qayta ishlash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilar matndan yangi hikoyalar yoki qisqa ertaklar yaratish, matn asosida dramatizatsiya qilish kabi ijodiy vazifalarni bajaradilar. Bu usul o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash: Interaktiv ta'lim texnologiyalari, multimedia vositalari va internet resurslaridan foydalanish matn ustida ishlash jarayonini yanada samarali qiladi. O‘quvchilar vizual va audio materiallar yordamida matnni o‘rganishadi. Differensial yondashuv: O‘quvchilarning individual o‘rganish ehtiyojlarini hisobga olish, har bir o‘quvchiga uning qobiliyatiga mos vazifalar berish o‘quvchilarning samarali o‘rganishini ta'minlaydi. O‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish: Matn asosida ijodiy vazifalar (hikoya yozish, dramatizatsiya qilish) berish o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Bu jarayon o‘quvchilarni o‘z fikrlarini aniq ifodalashga, o‘z g‘oyalarini boshqalarga yetkazishga o‘rgatadi.Formativ baholashni qo‘llash: O‘quvchilarning matn ustida ishlashdagi muvaffaqiyatlarini baholashda formativ baholash tizimidan foydalanish, ularning o‘rganish jarayonini monitoring qilish imkonini beradi. Bu usul o‘quvchilarning zaif tomonlarini aniqlash va ularni yanada rivojlantirishga yordam beradi.Ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish o‘quvchilarning o‘qish va fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik metodlar, kreativ yondashuv va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning matnni o‘rganish jarayonini samarali qilish mumkin. Matn ustida ishlash texnologiyalari o‘quvchilarga faollikni oshirish, tahliliy fikrlashni rivojlantirish va nutq madaniyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish o‘quvchilarda bir nechta muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada ko‘rib chiqilgan matn ustida ishlash texnologiyalari – diskussiya asosida ishlash, matnni tahlil qilish, kreativ yondashuv, Sokratik metod va vizualizatsiya qilish – har biri o‘zining muhim jihatlari bilan o‘quvchilarni yanada faol va ijodiy qilishga qaratilgan.

O‘quvchilar matnni faqat o‘qish bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlardan baholash va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rgatiladi.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar, va multimedia vositalari matn ustida ishlash jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu usullar o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini ko‘proq jalb etib, o‘quvchilarda tahliliy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, differensial yondashuvni qo‘llash orqali har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkoniyati yaratildi.

O‘quvchilar matnni o‘qib, tahlil qilish va baholash orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar. Bu o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga hamda tilni ravon va to‘g‘ri ishlatishga yordam beradi. Pedagogik samaradorlik: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ta'lim

jarayonini yanada samarali qiladi. Matnni tahlil qilish va diskussiya asosida ishlash o‘quvchilarda fikrlarni izchil va aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga ularning bilim darajasini oshiradi. O‘quvchilarning faolligi: Matn ustida ishlash texnologiyalari o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi. O‘quvchilar matnni nafaqat o‘qish, balki uning mazmunini tahlil qilish, baholash va ijodiy tarzda ishlash orqali o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radilar.

Xulosa. Ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish o‘quvchilarning fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Matn ustida ishlash jarayonida qo‘llaniladigan turli pedagogik texnologiyalar, jumladan, diskussiya, matnni tahlil qilish, kreativ yondashuv, sokratik metod va vizualizatsiya qilish o‘quvchilarga nafaqat matnni to‘g‘ri o‘qish, balki uning mazmunini chuqurroq anglash, tahlil qilish va o‘z fikrlarini aniq ifodalash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, G. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Murodov, A. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda innovatsion yondashuvlar – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Bergen, D. (2014). "The Use of Drama Techniques in Primary Education". International Journal of Educational Research, 53(1), 112-124.
4. Kuchkarov, B. (2017). Boshlang‘ich ta'limda innov atsion pedagogik texnologiyalar – Toshkent: Pedagogika.
5. Davronova, L. "Matn ustida ishlash texnologiyalari: O‘qish jarayonida samaradorlik". Ona tili va adabiyot o‘qitish usullari, 2020.4(2), 45-52.
6. Erdanova Zamira Olimovna REFLECTIVE IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS CULTURE DEVELOPMENT PROCESSES IMPROVEMENT International Journal of Pedagogics. VOLUME04ISSUE04PAGES:8790, 2024yil. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue0416
7. Erdanova Z.O., Safarqulova N.O. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refliksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. Volume 01, Issue 02, 2024, 2024yil.

Dilbar DAMINOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

ONA TILINI FANLARARO O‘QITISHDA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Nutqiy faoliyat o‘quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini oshiradi, ularning fikrlarini ravon, to‘g‘ri va mazmunli ifoda etishiga yordam beradi. Bugungi kunda fanlararo yondashuv bilan ona tilini o‘qitish orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin.

Kalit so‘zlar: *ona tili, fanlararo boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, nutqiy faoliyat, fanlararo integratsiyaga.*

Аннотация: в обучении родному языку большое значение имеет развитие речевой деятельности учащихся. Речевая деятельность повышает коммуникативные способности учащихся, помогает им свободно, правильно и содержательно выражать свои мысли. Сегодня этот процесс можно сделать более эффективным, обучая родному языку с междисциплинарным подходом.

Ключевые слова: *родной язык, междисциплинарность, связь с другими дисциплинами, речевая деятельность, К междисциплинарной интеграции*

Annotation: in the teaching of the native language, the development of the speech activity of students is of great importance. Speech activity increases the ability of students to communicate, helps them to express their thoughts fluently, correctly and meaningfully. Today, with an interdisciplinary approach, this process can be made more effective by teaching the native language.

Keywords: *native language, interdisciplinary, connection with other disciplines, speech activity, To interdisciplinary integration*

Kirish. Fanlararo yondashuv bir fanning mavzusini boshqa fanlar bilan bog‘liq holda tushuntirishni o‘z ichiga oladi. Bu metod orqali ona tili darslari faqat grammatik va stilistik qoidalarga asoslanib qolmay, balki boshqa

fanlardan olingan ma’lumotlar orqali kengayadi. Masalan, ona tili darsida tarixiy voqealarni muhokama qilish orqali o‘quvchilar tarix fanidan ham bilimga ega bo‘lishadi. Shu tariqa, o‘quvchilar tilni chuqurroq o‘rganish bilan birga, boshqa fanlarni ham yaxshiroq tushunishadi.

Tahlil va natija. Fanlararo yondashuv asosida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning bir necha samarali metodlari mavjud:

1. Bahs va munozaralar tashkil etish. O‘quvchilarga mavzuga oid savollar berish orqali ularni mustaqil fikrlashga undash va bahslarda qatnashishga rag‘batlantirish mumkin. Masalan, adabiyot bilan bog‘liq muammolarni muhokama qilish, tarixiy hodisalar haqida fikr almashish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

2. Matn ustida ishlash. O‘quvchilarga turli mavzulardagi matnlarni o‘qitish va ularni tahlil qilish orqali fikrlarini aniq ifoda etishga o‘rgatish mumkin. Masalan, geografiya yoki biologiya fanlari bilan bog‘liq matnlarni o‘qitib, o‘quvchilarni ilmiy nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash mumkin.

3. Ijodiy yozuv. O‘quvchilarga turli mavzular bo‘yicha insho yozdirish yoki hikoya tuzdirish orqali ularning ijodiy va erkin fikrlash qobiliyatlarini oshirish mumkin. Masalan, tarixiy bir voqeani o‘quvchilar o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilish orqali ular tarixiy voqealar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

4. Fanlararo loyihalar tayyorlash. O‘quvchilarni boshqa fanlar bilan bog‘liq mavzular bo‘yicha guruhlarda loyiha yaratishga jalb qilish ham nutqiy faoliyatni rivojlantirishda samarali usuldir. Masalan, tabiatshunoslik yoki ijtimoiy fanlar bo‘yicha loyihalar yaratish orqali o‘quvchilar nafaqat ma’lumotni to‘plashni, balki uni aniq va lo‘nda tarzda taqdim etishni ham o‘rganadilar.

Fanlararo yondashuv o‘quvchilarga bir nechta fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganishga imkon beradi. Ona tili fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Masalan, matematika, tabiiy fanlar yoki tarix darslarida ona tilini o‘rganish jarayonida, o‘quvchilar faqat tilni o‘rganish bilan cheklanmay, balki turli fanlarga oid tushunchalarni va fikrlarni ifodalashda nutqiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

Nutq faoliyati bir nechta aspektlardan iborat bo‘lib, ular orasida tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari alohida ahamiyatga ega. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirishda fanlararo o‘qitish jarayonida har bir fan o‘ziga xos usullardan foydalanishi mumkin.

Tinglash: o‘quvchilarga tilni faqat yozma shaklda emas, balki eshitish orqali ham o‘rganish imkoniyatlari yaratish zarur. Fanlararo o‘qitishda darslarda auditoriya orqali taqdimotlar va tinglash mashqlari orqali nutqiy faoliyatni rivojlantirish mumkin.

Gapirish: o‘quvchilarga nutqni aniq va ravon ifodalashni o‘rgatish muhim. Buning uchun turli xil munozaralar, suhbatlar, debatlar va o‘z fikrlarini ifodalashga yo‘naltirilgan faoliyatlar tashkil etish kerak. Fanlararo darslar bu kabi faoliyatni o‘z ichiga oladi.

O‘qish va yozish: o‘quvchilarga o‘qish va yozishda to‘g‘ri grammatika, so‘z boyligi va ifodali tilni qo‘llashni o‘rgatish fanlararo yondashuvda qo‘llaniladi. O‘quvchilar turli fanlarda yozilgan matnlarni tahlil qilib, fikrni to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadilar.

Nutqiy faoliyatni rivojlantirishda foydalaniladigan metodik yondashuvlar o‘qitish jarayonining samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Quyidagi metodlardan foydalanish muhimdir:

Interaktiv metodlar: o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan metodlar, masalan, guruh ishlari, fikr almashish, o‘zaro taqdimotlar. Bu metodlar orqali o‘quvchilar o‘z nutqiy ko‘nikmalarini oshiradilar.

Lisoniy o‘yinlar va vazifalar: o‘quvchilarga qiziqarli lisoniy o‘yinlar va topshiriqlar berish, ular orasida sinonimlar va antonimlarni o‘rganish, jumla tuzish, tarjima qilish kabi vazifalar nutqni rivojlantirishda samarali vosita bo‘ladi.

Loyiha ishlari: o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash, bahs-munozaralar olib borish va ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyatini beruvchi loyiha ishlari tilni rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ yozuv va nutq mashqlar: o‘quvchilarga matnlar yaratish, xayoliy hikoyalar yozish, maqolalar yoki eslatmalar tayyorlash kabi vazifalar ham nutqiy faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ona tilining fanlararo o‘qitishda o‘rnini oshirish, o‘quvchilarning butunlay o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotga qo‘llashga yordam beradi. Masalan, tarix fanini o‘rganishda o‘quvchilar turli tarixiy shaxslar, davrlar va hodisalar haqida gaplashadilar, shuningdek, bu jarayonda o‘rganilgan terminlar va tushunchalar ona tili bilan bog‘lanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarga matnlarni yaxshiroq anglash va nutqni aniqroq ifodalash imkoniyatini beradi.

Ona tilini fanlararo o‘qitishda nutqiy faoliyatni rivojlantirishning qo‘shimcha jihatlari. Ona tili darslarini fanlararo yondashuv orqali o‘qitishning yana bir muhim jihati o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fanlar bilan bog‘liq tushunchalarni aniq tushunishiga ko‘maklashishdir. Bu metodika nafaqat ona tilini,

balki boshqa fanlarni o‘rgatishda ham muhim ahamiyatga ega.

Quyida fanlararo yondashuv yordamida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha usullarni keltirib o‘tamiz.

1. Interaktiv metodlar qo‘llash.

Fanlararo yondashuvda interaktiv usullarni qo‘llash o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Masalan, rolli o‘yinlar, muloqot simulyatsiyalari yoki debatlar orqali o‘quvchilar mavzuni chuqurroq tushunishadi va o‘z fikrlarini ravon va to‘g‘ri ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Ona tili darsida bu usullarni boshqa fanlar mavzusi bilan bog‘liq holda amalga oshirish nutqiy faoliyatni rivojlantirishda samarali bo‘ladi.

2. Texnologiyalardan foydalanish.

Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning ona tili darslarida yanada qiziqish bilan ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Masalan, elektron platformalarda video materiallar yoki infografikalar bilan ishlash, ona tili mavzularini vizual ma’lumotlar bilan boyitish orqali o‘quvchilarning tushunchalarini mustahkamlash mumkin. Bu jarayonda nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun o‘quvchilar o‘z fikrlarini yozma yoki og‘zaki tarzda bayon qilishadi.

3. Integratsiyalashgan topshiriqlar.

Fanlararo integratsiyaga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarni turli fanlar bo‘yicha o‘zaro bog‘liq ma’lumotlarni mustaqil topishga undaydi. Masalan, matematika va ona tilini bog‘lash orqali o‘quvchilarga arifmetik masalalarni ifodalashga doir matnlar tuzdirish yoki tarixiy hodisalar haqida qisqa hikoyalar yozdirish mumkin. Bunday topshiriqlar nafaqat nutqiy faoliyatni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarni turli fanlarni bir-biriga bog‘lab fikrlashga o‘rgatadi.

4. Tahliliy va tadqiqot yondashuvi.

O‘quvchilarga turli fanlar bo‘yicha tahliliy ishlar topshirish ularning mavzuni chuqur o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Masalan, tarix yoki geografiya fanlarida olingan ma’lumotlar asosida tahliliy insho yoki tadqiqot maqolalari yozish o‘quvchilarning ilmiy nutq va ifoda qilish qobiliyatlarini oshiradi. Bu metodika o‘quvchilarni mustaqil izlanish va fikrlarini ravon bayon qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

5. Fanlararo musobaqalar va tadbirlar.

Fanlararo musobaqalar va tadbirlar tashkil qilish o‘quvchilarga o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Masalan, ilmiy viktorinalar, insho tanlovlari yoki mavzu bo‘yicha nutq so‘zlash tanlovlari o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu usul orqali o‘quvchilar nafaqat ona tili bo‘yicha, balki boshqa fanlarga oid bilimlarini ham kengaytirishlari va ularni og‘zaki yoki yozma tarzda taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Ona tilini fanlararo yondashuv asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan usullar juda xilma-xildir. Bu metodika o‘quvchilarni turli fanlararo bog‘lanishlarni aniqlashga o‘rgatadi va ularning o‘z fikrlarini to‘g‘ri, mazmunli va aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchilarning ijodiy, mantiqiy va ilmiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ona tilini fanlararo yondashuv orqali o‘qitish o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bunday metodika o‘quvchilarni nafaqat ona tilini mukammal o‘rganishga, balki boshqa fanlar bilan bog‘liq bilimlarni ham kengaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ijodiy, tahliliy va muloqot qobiliyatlari ham rivojlanadi, bu esa ularni kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lib shakllanishiga yordam beradi.

Nutqiy xatolarga noto‘g‘ri (noo‘rin) tanlangan so‘zlar, noto‘g‘ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto‘g‘ri ishlatish kiradi. Boshlang‘ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin, chunki ularni to‘g‘rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma'lumot yetarli emas [3]. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o‘rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldosheva D.N. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. 168-bet.
2. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o ‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2001. 221- bet. 6. Aminova S. Ona tili darslarida noan’anaviy usullar // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 1995. – № 1.17-18-betlar.
3. Xalilova Ruxsora Raupovna Ona tili o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma.
4. Buxoro – 2022 “Fan va ta’lim” nashriyoti.
5. D.R.Shabbozova Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. “Metodist nashriyoti”, 2023.

Gulnora UMARBEKOVA,
Alfraganus University nodavlat oliy ta’lim tashkiloti katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’limning maqsadlari maktab o‘quvchilarining yangi imkoniyatlarini aks ettiradigan, ularning shaxsiy o‘sishini aks ettiradigan maxsus so‘zlar bilan tavsiflanadi. Shakllangan asosiy vakolatlar ta’limning “yakuniy natijalari” sifatida qaraladi. Lotin tilidan tarjima qilishda “kompetensiya” insonning ma’lum bir tajribaga, bilimga ega bo‘lgan qator masalalarini anglatadi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, pedagogik yondashuv, pedagog, baholash.*

Аннотация: в данной статье описываются цели образования специальными словами, которые отражают новые возможности учеников, отражают их личностный рост.

Ключевые слова: *компетентность, компетентностный подход, педагогический подход, педагог, оценивание.*

Annotation: this article describes the goals of education in special words that reflect the new capabilities of students and reflect their personal growth.

Key words: *competence, competency-based approach, pedagogical approach, teacher, assessment.*

Til ta’limida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni uzviylik va uzluksizlik hamda izchillik asosida rivojlantirish, eng avvalo, ta’lim beruvchining mahorati, fani yuzasidan egallagan bilimlari, orttirgan tajribasiga ham bog‘liq.

Ta’lim izchilligi uchun tizimlilik o‘lchov hisoblanadi. Til o‘quv fani sifatida ma’lum tizimdan iborat, ya’ni fonetikani o‘rganmasdan turib, leksikani puxta o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Leksikani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilarga morfologiyani o‘rganish oson kechadi.

O‘quvchilarning avvalgi olgan bilimlarini hisobga olish, o‘rganilgan va o‘rganilayotgan bilimlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni ta’minlash izchillik tamoyili orqali amalga oshiriladi. Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili o‘qitish metodikasi o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg‘unligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, “o‘quvchi – ta’lim – o‘qituvchi” munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish – ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Ona tili darsligida ketma-ketlikda berilgan mavzular o‘quvchilarni oldingi bilimlarini mustahkamlashlariga yordam beradi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar so‘zlar, so‘zlar vositasida so‘z birikmalari va gaplar tuzishni o‘rganishi tizimli va izchil bilim olishga yordam beradi. Yangi o‘quv materialini oldin o‘rganilganlar bilan bog‘lash bilimlarni yangi sharoitda qo‘llash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchini ijodiy faoliyati uchun imkoniyat beradi.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirishda:

–o‘quvchi faoliyati mazmunini tahlil qilish;

–natijalarni oldindan ko‘ra bilish;

–rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o‘qituvchining mustaqil, shu bilan birga, o‘quvchi bilan hamkorlikda o‘quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash faoliyati yetakchi o‘rin tutadi.

O‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirish va rivojlantirishda o‘quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish tizimi quyidagilarga imkon beradi:

–o‘quvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi;

–o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;

–o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

–axborot bilan ishlashni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi;

–ta’limda o‘quvchining individuallik darajasini oshiradi;

–o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;

–materiallar mazmunining ketma-ketligi o‘quv materiallari doirasini kengaytiradi va o‘quvchilarning oldingi bilimlarini mustahkamlanishiga yordam beradi;

–o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilishi, ya’ni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Ona tili ta’limida o‘qitish samaradorligini oshirishning yana bir samarali usullari mavzulararo, bo‘limlararo, sinflararo, fanlararo bog‘lanishdir.

Mavzulararo aloqadorlikda bir predmet ichidagi bilimlarni tizimlashtirish olamni bir butunlikda, yaxlit tasavvur qilish jarayonida ma’lumotlarni jamlab, bir tizimga qo‘yishdan iborat. Bu turdagi aloqadorlik

alohida o‘quv predmetini qamrab oladi.

Fanlararo aloqadorlikning mohiyati va ahamiyati ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. Jumladan A.A.Xasanov “O‘quvchilar bilimi va ilmiy darajasi, ular fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanishida o‘qitishning ahamiyatini oshirishning, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirishning, bilishga oid mahorat shakllanishining va yakuniy hisobda o‘quv jarayonini takomillashtirishning didaktik sharti” sifatida qaraydi.Metodistlar olimlarimiz fikricha fanlararo bog‘lanish turli ta’lim bosqichlaridagi ona tili darsliklarida (o‘quv topshiriqlari tizimida) ko‘proq o‘z yechimini topishi darkor. Aniq va ijtimoiy- gumanitar fanlardan matnlar tanlash, boshqa o‘quv fanlariga oid atamalardan foydalanib, kichik matnlar yaratish, berilgan matndan tilga oid atamalarni ajratish va sharhlash, so‘z ma’nolarini matn ichida farqlash ko‘nikmalarini singdirish – o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi hamda nutqiy savodxonligini oshiradi. Ona tili materiallarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish, til hodisalarini kuzatish, guruhlarga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, til hodisalari mohiyatini chuqurroq o‘rganishga, nutqda so‘zni me’yorida va o‘rnida ishlatish ko‘nikmalarini mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi.

Ta’limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv ma’lum metodlar va pedagogik yondashuvlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu atama mahalliy fanni sezilarli darajada modernizatsiya qilgandan keyingina qo‘llanila boshlandi. Hozirgi vaqtda asosiy vakolatlarni shakllantirish muammolarini tahlil qiladigan jiddiy ilmiy, uslubiy va nazariy ishlar paydo bo‘ldi. Masalan, A. V. Xutorskiyning “Didaktik evrika” monografiyasi, shuningdek, L.F.Ivanovaning mualliflik metodikasi, boshlang‘ich, asosiy, o‘rta maktablarda ta’limni modernizatsiya qilishga qaratilgan.Ta’limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv - bu maqsadlarni aniqlash, mazmunini tanlash, o‘quv jarayonini tashkil etish, umumjahon natijalarini baholash tamoyillari to‘plamidir. Ular orasida: maktab o‘quvchilari tomonidan o‘zlarining ijtimoiy tajribalarini qo‘llash asosida faoliyatning turli sohalari va variantlarida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal qilish yo‘llarini ishlab chiqish; dunyoqarash, siyosiy, axloqiy, bilim muammolarini hal qilishda didaktik va ijtimoiy tajribani moslashtirish.

Ta’limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’limning ma’lum bir bosqichida o‘quvchilar erishgan ta’lim darajasini tahlil qilish orqali ta’lim qobiliyatlarini baholashni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy ta’limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv - olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyatiga e’tiborni qaratish usuli. Ta’limning maqsadlari maktab o‘quvchilarining yangi imkoniyatlarini aks ettiradigan, ularning shaxsiy o‘sishini aks ettiradigan maxsus so‘zlar bilan tavsiflanadi. Shakllangan asosiy vakolatlar ta’limning “yakuniy natijalari” sifatida qaraladi.Lotin tilidan tarjima qilishda “kompetensiya” insonning ma’lum bir tajribaga, bilimga ega bo‘lgan qator masalalarini anglatadi.

Ta’lim sohasidagi vakolatga asoslangan yondashuv - bu noaniq vaziyatda odamning aniq va samarali harakat qilishidir. Uning asosiy xususiyatlarini ta’kidlab o‘tamiz:

– faoliyat doirasi;
– vaziyatning noaniqlik darajasi;
– harakat usulini tanlash variantini;
– qabul qilingan usulni asoslash.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan umumiy o‘rta ta’limni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish maqsadida ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi va ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi [1].

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy davlatlarning o‘qitish borasidagi tajribasini o‘rganish hamda ta’lim mazmuniga tatbiq etish borasida yangicha qarashlar, yangicha yondashuv, yangi fikr va mulohazalar yuzaga kelmoqda.

“Kamroq –bu ko‘proq” Finlyandiya ta’lim tizimiga singib ketgan minimalizm. Ya’ni ta’limda yaxshi natijaga erishish ko‘proq o‘qish, nazariy bilimlarning egallanishi bilan belgilanmaydi. “Kamroq rasmiy ta’lim = ko‘proq qo‘shimcha imkoniyatlar” demakdir. Finlyandiya ta’lim tizimini o‘rganish asosida yangi Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Uning amaldagi DTS dan farqi shundaki, ilgari o‘quvchilar 80% nazariy va 20% amaliy bilim egallashlariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, endilikda 50% nazariy va 50% amaliy ko‘nikmalarning egallanishiga ahamiyat berish ko‘zda tutilgan. Shu davrgacha o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lsa, endilikda o‘quvchilarning nafaqat bilimi, balki shakllantirilayotgan kompetensiyalari ham baholanishi nazarda tutilgan [2].

O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda ham qo‘llay olishlari va mustaqil fikr bildira olish qobiliyatlarining o‘sishiga erishish bugungi ta’limning asosiy maqsadidir. Yangi Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan yangi o‘quv darsliklari ham aynan o‘quvchilarda muayyan kompentensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi amalda o‘z ifodasini topmoqda.

Kompetensiya – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – fan bo‘yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda

qo‘llay olishdir [3].

Ta’lim jarayoniga nisbatan kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi o‘quv maqsadlari kabi eski ta’lim maqsadlariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, ular quyidagilarda ham namoyon bo‘ladi:

– kompetensiya bu bilim yoki ko‘nikmalarning alohida elementlari emas, balki har bir o‘quvchi uchun yangi muammoga muvofiq turli individual yutuqlarni muvofiqlashtirilgan qo‘llashdir;

– u mavhum maktab materiallariga emas, balki doimo o‘quvchining hayotiy yo‘l-yo‘riqlariga, “hayotda o‘zini o‘zi tasdiqlash” iga e’tibor qaratadi [4].

– kompetensiyaga asoslangan ta’lim mazmunga asoslangan ta’limdan ko‘ra o‘quvchi va ularning ta’lim talablariga ko‘proq e’tibor beradi.

Kompetensiyaga hech qachon to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashxis qo‘yish va baholash mumkin emas, balki har doim uning samaradorligi nuqtayi nazaridan bilvosita anglash mumkin. Zamonaviy ta’limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv – olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyatiga e’tiborni qaratish usulidir. Ta’limning maqsadlari maktab o‘quvchilarining yangi imkoniyatlarini aks ettiradigan, ularning shaxsiy o‘sishini ifodalaydigan maxsus so‘zlar bilan tavsiflanadi. Shakllangan asosiy tushunchalar ta’limning “yakuniy natijalari” sifatida qaraladi.

Bugungi kunga kelib, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, o‘zaro muloqot qobiliyatiga ega, har tomonlama komil avlodni tarbiyalashga qaratilgani

Ekologik kompetensiya-bu sinfda va maktabdan tashqari ekologik tadbirlarda shakllangan va yangi vaziyatda mustaqil ravishda qo‘llash qobiliyatidir. Shaxsiy natijalar-bu ularning mustaqil ravishda tanlov qilish, o‘z harakatlari va ishlari uchun javobgar bo‘lish, atrof-muhit holatini yaxshilash bo‘yicha ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat kontekstida ekologik jihatdan barkamol xatti-harakatlar, shaxsiy o‘sish va rivojlanish asoslarini rivojlantirish qobiliyatidir. Ekologik kompetensiya natijalari-o‘quv vazifasini tushunish, ularning ekologik faoliyatini rejalashtirish, hodisalar o‘rtasidagi sabab-ta’sir munosabatlarini o‘rnatish va fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo‘lishi lozim:

- pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish;
- ulg‘aygan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigitning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e’tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xilda bo‘lishi mumkin:

a) fan to‘garaklari;
b) mohir qo‘llar to‘garaklari;
v) duradgorlik to‘garaklari;
g) sport to‘garagi;
d) badiiy havaskorlik to‘garagi.

O‘rta umumta’lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to‘garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo‘lgan o‘z o‘quvchilarini biror to‘garakka a’zo bo‘lishga chorlaydi.

Xullas, o‘quvchilarining ekologik tayyorgarligi va ta’limdagi o‘rnini takomillashtirish texnologik yondashish o‘qituvchilarning bu yo‘nalishdagi tajribasini to‘la-to‘kis tashkiliy, o‘quvchilarining ekologik kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlari bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy-nazariy g‘oyalar va uslubiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilganligi, ekologik tarbiya texnologiyalarining bilish, hissiy-qadriyatli va faoliyatli tarkibiy qismlari amalda ishlab chiqilganligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurasulova U. Kompetentlikni shakllantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik // Я русский бы выучил... .Материалы международной научно-практической конференции. – Наманган, 2018. 22 – 24-б.
2. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 176-b.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.219-b.
4. Xasanov A.A. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik ta’lim, 2011. – № 5.16-b.

Nodira MAXMANAZAROVA,
O‘zDJTU Ingliz tili 2-fakulteti
Ingliz tilini o‘qitish metodikasi
Chto‘ik, tipologiya, stilistika fanlari o‘qituvchisi

TA’LIMDA INNOVATSIYA-YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.Mazkur maqola ta’limda innovatsiya-yangi pedagogik texnologiyalarining samaradorligi mavzusini keng yoritadi.

Kalit so‘zlar: *interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar, rivojlantiruvchi ta’lim, zamonaviy texnik vositalar, pedagogik maqsad, tarqatma material, texnologik xarita.*

Аннотация: инновационные технологии – это инновации и изменения в педагогическом процессе и деятельности учителя и ученика, при их реализации преимущественно используются интерактивные методы. В данной статье рассматривается эффективность инновационно-новых педагогических технологий в образовании.

Ключевые слова: *интерактивные методы, педагогические технологии, развивающее обучение, современные технические средства, Педагогическая цель, раздаточный материал, Технологическая карта.*

Annotation: innovative technologies are innovations and changes in the pedagogical process and the activities of teachers and students, and interactive methods are mainly used for their implementation. This article broadly covers the topic of the effectiveness of innovative new pedagogical technologies in education.

Key words: *interactive methods, pedagogical technologies, developmental education, modern technical means, Pedagogical goal, handout, Technological map.*

Kirish.O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan borayotgan bir paytda pedagogik oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi har tomonlama yetuk, islohotlarda faol ishtirok etadigan barkamol insonni tarbiyalash, yuqori malakali pedagog mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Mamlakatimiz rivojlanishining, modernizatsiyalashuvining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida pedagogik kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini amal qilishiga erishishdir.Oliy ta’limning bugungi asosiy vazifalaridan biri talabalarni kun sayin murakkablashib borayotgan axborot - ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Tadqiqotlar metodologiyasi.Pedagogik oliy ta’limning samaradorligini oshirish va talabalarning o‘z ixtisosliklari bo‘yicha bilimlarni to‘la egallashlariga erishish, shaxsning diqqat markazida bo‘lishini va yoshlarning tanlagan mutaxassisliklariga monand, mustaqil, chuqur bilim olishlarini ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalariga yuqori malakali va o‘z sohasidagi zarur bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda samarali foydalana oladigan professor-o‘qituvchilar kerak. Buning uchun pedagogika-psixologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda bilimlarini boyitib borish lozim.

Interfaol (Inter - bu o‘zaro, —act - harakat qilmoq) - o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqatda bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni, qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga yo‘naltirishga olib keladi. Hozirgi kunda oliy ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlarning mazmuni, talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto mustaqil xulosalarni chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, tashkilotchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida talaba asosiy figuraga

aylanadi. Hozirgi davrda oliy pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, yangi pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish va bo‘lajak pedagog mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatining kengligida. Shuning uchun ham Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida oliy pedagogik ta’limni takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, yangi pedagogik texnologiyalar oliy pedagogik ta’limdagi o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli yondashuvni chuqur joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, yangi pedagogik texnologiya professor o‘qituvchilarni ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To‘rtinchidan, yangi pedagogik texnologiya zamonaviy ta’lim vositalari va axborot usullarini o‘quv jarayonida qo‘llashga asoslanganligi sababli, ulardan samarali foydalanish Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi. O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning o‘quv jarayoniga keng joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishini talab qiladi. Bu esa talabadan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda ko‘proq mustaqil fikrlashni, ijodiy yondashuvni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talabaga kim dars berayotganligi va professor o‘qituvchi kimlarni o‘qitayotganiga bog‘liq. Yangi pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini e’tiborga olib, ularni ijodiy fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini ilmiy asoslashga imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi davrdagi oliy pedagogik ta’limdagi innovatsion jarayonlarda, ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun talabalarning yangi axborotlardan unumli foydalanishi va o‘zlashtirgan bilimlarini mustaqil baholashga qodir, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar zaruriyati vujudga keldi. Shuning uchun ham, oliy pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy faoliyatida zamonaviy o‘qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Yangi pedagogik texnologiya va ularning pedagog mutaxassislar tayyorlashda qo‘llanishiga oid maxsus bilimlar, pedagogik tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Yangi pedagogik texnologiya masalalarini va ta’lim muammolarini o‘rganayotgan ba’zi professor o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan o‘qitishning zamonaviy texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalardan iboratdir. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyalarning asosiy negizi – o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan ko‘zlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan pedagogik usullarga bog‘liq.

O‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kutilayotgan natijaga erishishda qo‘llaniladigan pedagogik ta’lim texnologiyasi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil qilib, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib tahlil etib, o‘zlari xulosa qilsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bersa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratsa, bizning fikrimizcha, ana shu – yangi pedagogik texnologiyani qo‘llash asosida o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi mavjud. O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni provard natijada pedagogik texnologiyaga bog‘liq. O‘qituvchi va talabaning dars jarayonida maqsaddan natijaga erishishida qanday pedagogik texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratigan bo‘lib, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, foydalaniladigan pedagogik texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, o‘quv uslubiy adabiyotlar) zarur bo‘ladi.Bularning hammasi o‘qituvchi va talabalarga bog‘liq.

Xulosa.Xulosa o‘rnida aytish joizki, o‘quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur.Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talabalarning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak va loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchi uchun bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit

holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini dars texnologik xaritasini qay ko‘rinish (yoki shakl)da tuzish, bu o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o‘qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatining barcha qirralari o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliqulova M.M. Innovatsion pedagogika. Uslubiy qo‘llanma. –Toshkent, 2012.
2 .Muxamedov G‘.I., To‘raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy nazariy asoslari.– Toshkent:Fan, 2004.230-b.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T., 2006. 156-b.
4. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I., Usmanov N.O‘.Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 482-b.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari (2 kitob).—T.: TDPU, 2009. 108-b.



Muattar PANJIYEVA
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

MAHALLIY DIDAKTIK VOSITALARNING TA’LIMIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada mahalliy didaktik vositalarning ta’limiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ta’limda qo‘llaniladigan mahalliy didaktik vositalar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bilimlarni mustahkamlash va mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Mahalliy vositalar an'anaviy va zamonaviy usullarni birlashtirgan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu vositalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *mahalliy, didaktik, vositalar, ta’limiy, xususiyatlar, o‘qitish.*

Аннотация: в данной статье анализируются образовательные особенности местных дидактических средств. Местные дидактические средства, используемые в обучении, играют важную роль в развитии мыслительных способностей студентов, закреплении знаний и обеспечении активного участия в занятиях. Эти средства объединяют традиционные и современные методы, эффективно организуя образовательный процесс. Они адаптированы под индивидуальные потребности учащихся

Ключевые слова: *местные, дидактические, средства, образовательные, особенности, обучение.*

Annotation:this article analyzes the educational features of local didactic tools. The local didactic tools used in education are crucial for developing students' thinking skills, reinforcing knowledge, and ensuring active participation in lessons. These tools combine traditional and modern methods, serving to organize the educational process effectively. They are adapted to meet the individual needs of students.

Key words: *local, didactic, tools, educational, features, teaching.*

Kirish. Ta’lim jarayoni har doim yangi, samarali metodlar va vositalarni izlash bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, mahalliy didaktik vositalar ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Mahalliy didaktik vositalar — bu o‘quvchilarning ta’lim olishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam beradigan va ularga ma'lum bir bilimlarni va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda yordam beradigan vositalar bo‘lib, ular har bir jamiyatning madaniy, tarixiy, va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mahalliy didaktik vositalarning ta'limdagi o‘rni haqidagi birinchi yirik tadqiqotlar 20-asrning ikkinchi yarmida o‘qitish va o‘qish metodikasiga oid ishlar orqali boshlangan. Bu mavzuga oid birinchi asarlar odatda umumiy ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib,

mahalliy materiallar va usullarni ta'lim jarayoniga kiritishning ahamiyatini ta'kidlagan. Masalan, V.A.Krutetskiy (1960-yillar) va N.A.Zaitsev (1970-yillar) o‘zlarining ishlarida ta'lim jarayonini jonlantirishda an'anaviy va zamonaviy didaktik vositalarning o‘rin tutishi zarurligini ko‘rsatdilar. Ularning fikriga ko‘ra, mahalliy didaktik vositalar, ayniqsa, vizual materiallar va mahalliy tarixiy-madaniy elementlar, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda va ularning ta'limga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mahalliy didaktik vositalar ta'lim tizimida samarali ishlatilishi uchun ularning ta'limiy xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbekistonda bu borada alohida ilmiy ishlar amalga oshirilgan. O‘zbekistonlik ta'limshunoslar, ayniqsa, mahalliy til va madaniyatni ta'lim jarayoniga kiritishning ahamiyatiga to‘xtalib, M. A. Kholmatov (2000-yillar) va G.A.Tursunov (2010-yillar) kabi ilmiy tadqiqotchilar o‘z asarlarida, mahalliy madaniyatning ta'lim jarayoniga qo‘shgan hissasini va mahalliy didaktik vositalarning samarali ishlatilishini ko‘rsatganlar. Ular ta'kidlashlaricha, o‘quvchilarga mahalliy madaniyat, til, an'analar haqida chuqurroq ma'lumotlar berish, o‘qitishda ko‘rgazmali materiallar va mahalliy materiallardan foydalanish ularning o‘ziga xos fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Mahalliy didaktik vositalarni ta'lim jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarning madaniy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. I.P.Pavlov (1990-yillar) o‘zining ishlanmalarida mahalliy didaktik vositalarni o‘quvchilarning madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi vositalar sifatida ko‘rgan. U, ayniqsa, xalq ertaklari, rivoyatlar va madaniy an'analar orqali o‘quvchilarning til va adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirishning samarali usul ekanligini ta'kidlagan.

Mahalliy didaktik vositalarni har bir mamlakatda o‘ziga xos tarzda qo‘llash an'anasi mavjud. T.A.Karpova (1980-yillar) o‘zining tadqiqotlarida mahalliy didaktik vositalarning turli sharoitlarda (masalan, qishloq va shahar o‘quvchilarida) ta'limdagi samaradorligini o‘rganib, ularning turli ijtimoiy guruhlar uchun moslashuvchanligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, mahalliy didaktik vositalar nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning psixologik va hissiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Mahalliy didaktik vositalar — bu o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlash, o‘qish va o‘rgatish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun ishlatiladigan turli xil metodik vositalar va materiallardir. Ular an’anaviy va zamonaviy shakllarda bo‘lishi mumkin, masalan, plakatlar, taqdimotlar, elektron resurslar, ko‘rgazmalar, mahalliy folklor va badiiy asarlar, tabiiy materiallar, rangli diagrammalar va boshqalar. Mahalliy didaktik vositalar o‘quvchilarning mavjud bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi hamda ularning yangi bilimlarni tezroq va samarali o‘zlashtirishlariga imkon yaratadi.

Mahalliy didaktik vositalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarga o‘qish, o‘rganish va rivojlanishda yordam beradigan vositalar bo‘lib, ayniqsa, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga moslashtirilgan materiallar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Mahalliy didaktik vositalar o‘quvchilarga o‘zlarining atrof-muhitini, madaniyatini, tarixini o‘rganish imkoniyatini beradi va ta'limni hayot bilan bog‘laydi. Jahon va O‘zbekistondagi tajribalar bu vositalarning ta'limdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Dunyo bo‘ylab mahalliy didaktik vositalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda keng qo‘llaniladi. Ko‘plab davlatlar o‘z madaniyatlari va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda didaktik vositalarni ishlab chiqishadi. Masalan, Yaponiyada “kentei” deb ataladigan maxsus test va materiallar o‘quvchilarning o‘zlariga xos bilim va ko‘nikmalarini o‘rganishda yordam beradi. Yapon ta'lim tizimida mahalliy didaktik vositalar, shu jumladan, turli xil taqdimotlar, ko‘rgazmalar, va an'anaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilarni jamiyatga mos ravishda tayyorlashadi.

O‘zbekistonda ham mahalliy didaktik vositalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning turli hududlarida o‘qituvchilar mahalliy an'analar, madaniyat, va tilni o‘rgatishda mahalliy didaktik vositalardan faol foydalanadilar. Masalan, O‘zbekistonda ona tili, adabiyot va tarix fanlari bo‘yicha mahalliy materiallar, shu jumladan, xalq ertaklari, rivoyatlar, o‘zbek xalq musiqasi va san'ati ta'limda keng qo‘llaniladi. Bunday vositalar o‘quvchilarning til va madaniyatni o‘zlashtirishiga yordam beradi hamda ularni milliy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Mahalliy didaktik vositalarni ishlab chiqishda O‘zbekistonning ta'lim tizimi har doim an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg‘unlashtirishga intiladi. Bu o‘quvchilarning ilmiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar uchun tayyorlangan interaktiv materiallar, mobil ilovalar, va elektron resurslar o‘quvchilarning ta'limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘zbekistonning o‘qituvchilari, shuningdek, mahalliy madaniy materiallardan foydalangan holda darslarni yanada qiziqarli va samarali qilishadi.

O‘zbekistonning ta'lim tizimi mahalliy didaktik

vositalarni yaratishda milliy merosni saqlab qolishga katta e'tibor qaratmoqda. Bunga misol qilib, O‘zbekistonning turli viloyatlarida o‘qitiladigan ona tili va adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodi, jumladan, maqol va matallar, masallar va hikoyalar kabi materiallar keng qo‘llanilmoqda. Bu o‘quvchilarga o‘z xalqining qadriyatlarini o‘rganish va ularga hurmat bilan qarashni o‘rgatadi.

Mahalliy didaktik vositalarning ta’limiy xususiyatlari ular o‘quvchilarga ma'lum bir bilimlarni, ko‘nikmalarni va qadriyatlarni o‘rgatishdagi samaradorligini belgilaydi. Ushbu vositalarning bir necha ta’limiy xususiyatlari mavjud:

1. Mahalliy Kontekstga Moslashganligi. Mahalliy didaktik vositalar, avvalo, o‘quvchilarning yashash sharoitlariga, ularning madaniy va ijtimoiy holatiga moslashgan bo‘lishi kerak. Har bir hududning o‘ziga xos ehtiyojlari, madaniyati va tarixi mavjud. Masalan, Qoraqalpog‘iston yoki Farg‘ona vodiysi kabi hududlar o‘rtasida farq qiladigan pedagogik materiallar talab etilishi mumkin. Mahalliy didaktik vositalar, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

2. Vizual va eshitish materiallari. Mahalliy didaktik vositalar ko‘pincha vizual va eshitish materiallari sifatida ishlatiladi. Masalan, rangli plakatlar, diagrammalar, ko‘rgazmalar va videolavhalar o‘quvchilarning tushunish va eslab qolish qobiliyatini yaxshilaydi. Bu turdagi materiallar ta’lim jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi, o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi.

3. Faollashtiruvchi xususiyat. Mahalliy didaktik vositalar faollashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi. O‘quvchilar o‘zlarining ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan faoliyatlar bilan shug‘ullanishadi. Masalan, o‘quvchilarga mahalliy madaniyat, san’at yoki tabiat haqidagi ma'lumotlarni o‘rganishda, ular ushbu materiallarni o‘zgartirish yoki yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

4. Tilni o‘rganishning samaradorligini oshiradi. Mahalliy didaktik vositalar ona tilini o‘rganishda samarali yordam beradi. O‘quvchilar mahalliy tilning lug‘aviy boyligi, grammatika va sintaksis qoidalarini o‘rganish bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar orqali bu bilimlarni hayotda qo‘llashni o‘rganadilar. Bunday vositalar o‘quvchilarning tilni yaxshi o‘zlashtirishiga va mustahkamlashga yordam beradi.

5. O‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Mahalliy didaktik vositalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Mahalliy xalq ertaklari, rivoyatlar, folklor elementlari, o‘quvchilarga tanish bo‘lgan mavzular orqali ta’limni qiziqarli qilish mumkin. Bu o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, darslarni yanada samarali qiladi.

Mahalliy didaktik vositalar ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat o‘quvchilarga bilimlarni yetkazishda, balki ularni hayotda qo‘llashga o‘rgatishda ham katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari kengayadi, ular madaniy va ijtimoiy muhitni yaxshi tushunishga yordam beradigan materiallar bilan tanishadilar. Mahalliy didaktik vositalar o‘quvchilarning o‘zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli hayot kechirishlariga yordam beradigan eng muhim vositalardan biridir.

Xulosa. Mahalliy didaktik vositalar ta’lim jarayonining samarali tashkil etilishida muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning mavjud bilimlarini mustahkamlashga va yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Mahalliy madaniyat va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan didaktik vositalar ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krutetskiy B.A. An’anaviy va zamonaviy didaktik vositalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni – Moskva:Pedagogika nashriyoti, 1960

2. Zaitsev N.A. Ta’lim jarayonini jonlantirishda mahalliy didaktik vositalarning roli–Leningrad Ta’lim va fan nashriyoti, 1970.

3. Kholmatov M.A. Mahalliy til va madaniyatni ta’lim jarayoniga kiritishning ahamiyati– Tashkent: O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim Vazirligi, 2000.

4. Tursunov G.A. Mahalliy madaniyatning ta'lim jarayoniga qo‘shgan hissasi–Tashkent: Ta’lim va Innovatsiya nashriyoti, 2010.

5. Pavlov I.P. Mahalliy didaktik vositalar va madaniy ongni rivojlantirish –Moskva:Xalq ta’limi nashriyoti,1990.

6. Karpova T.A.Mahalliy didaktik vositalarning turli sharoitlarda ta’limdagi samaradorligi – Toshkent:O‘zbekiston ta’limi nashriyoti,1980.

Inoyat ELMURODOVA
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUV JARAYONINI FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH (Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari misolida)

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari integratsiyasi o‘quvchilarning nutqiy va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu usul ta’limning samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning bilimlarni yaxshiroq egallashlariga yordam beradi. Shuningdek, o‘quv jarayonida turli fanlar orasidagi bog‘lanishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, fanlar integratsiyasi, ona tili, o‘qish savodxonligi.*

Аннотация: в статье рассматривается улучшение образовательного процесса в начальных классах через интеграцию предметов. Интеграция родного языка и грамотности чтения играет важную роль в развитии речевых и мыслительных способностей учеников. Этот метод повышает эффективность образования, помогая учащимся лучше усваивать знания. Также способствует укреплению связи между различными предметами в учебном процессе.

Ключевые слова: *начальные классы, интеграция предметов, родной язык, грамотность чтения.*

Annotation: this article discusses improving the educational process in primary grades through the integration of subjects. The integration of the Uzbek language and reading literacy subjects plays a key role in developing students' speech and thinking skills. This method enhances the effectiveness of education, helping students better acquire knowledge. Additionally, it strengthens the connection between different subjects in the learning process.

Key words: *primary grades, subject integration, native language, reading literacy.*

Kirish. Bugungi kunda boshlang‘ich ta'lim tizimida o‘quv jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ko‘plab innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar qo‘llanilmoqda. O‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlashda fanlar integratsiyasi metodini qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Fanlar integratsiyasi orqali o‘quvchilar bilimlarni bir-biriga bog‘lab, ular orasidagi bog‘liqlikni anglab, yanada chuqurroq va kengroq tushuncha hosil qiladilar. Xususan, boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari integratsiyasini amalga oshirish, o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, nutq madaniyatini oshirish va o‘qish savodxonligini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, fanlar integratsiyasini boshlang‘ich ta'limda qo‘llashning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlagan. Xususan, Sh.T.Qodirova fanlar integratsiyasini o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o‘zaro bog‘liq bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan pedagogik yondashuv sifatida ko‘rsatgan. U, ona tili va o‘qish savodxonligini integratsiya qilishning o‘quvchilarning nutq madaniyati va yozma ifodalash ko‘nikmalariga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini ta'kidladi. Uning fikricha, o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonida tilning grammatik va semantik tomonlarini mukammal o‘rganishlari zarur.

O‘zbek olimlari, ayniqsa ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini integratsiya qilishda o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, matnni tahlil qilish, o‘z fikrlarini izohlashda muvaffaqiyat qozonishlarini ko‘rgan. A.T.Ergashev o‘zining tadqiqotida, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarining integratsiyasi orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va analitik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ta'kidladi. U shuningdek, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini birgalikda o‘rganishning o‘quvchilarning fikrlarni aniq va to‘g‘ri ifodalashiga yordam berishini ko‘rsatgan. Ergashev o‘quvchilarga matnni o‘qish, uni tahlil qilish va so‘z boyligini oshirish orqali o‘qish savodxonligini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan.

O‘zbekistonlik bir qator olimlar, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda integratsiyaning muhimligini aniqlagan. Sh.T.Ismailova o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirishda fanlar integratsiyasining roli haqida so‘z yuritib, bu jarayon o‘quvchilarga matnlarni tahlil qilish, uning mazmunini to‘g‘ri tushunish va xulosalar chiqarish imkoniyatlarini yaratishini ta'kidladi. Ismailova ona tili fanining o‘quvchilarga grammatik va sintaktik qonuniyatlarni o‘rgatishda, o‘qish savodxonligi fanining esa matnni to‘g‘ri o‘qish va uning mazmunini anglashda katta rol o‘ynashini ko‘rsatgan.

O‘zbekistonlik ilmiy tadqiqotlarda, fanlar integratsiyasining metodlari va texnologiyalaridan ham keng foydalanilgan. M.X.Mustafayev (2020) pedagogik

texnologiyalarni qo‘llash orqali fanlar integratsiyasini samarali tarzda amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatgan. Mustafayev (2020) multimedia texnologiyalaridan foydalanishning o‘quvchilarga matnni o‘qish, uni tahlil qilish va yozma ishlarda muvaffaqiyat qozonishda yordam berishini ta'kidladi. U shuningdek, o‘quvchilarga interfaol darslar va differensial yondashuvlarni qo‘llash orqali integratsiya jarayonini yanada samarali qilish mumkinligini ko‘rsatgan.

Boshqa tadqiqotchilar, o‘quvchilarga mustaqil ishlashni o‘rgatishning fanlar integratsiyasi orqali yanada samarali amalga oshirilishini aniqlagan. A.T.Ergashev va Sh.T.Qodirova o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirishda integratsiyaning rolini alohida ta'kidladi. Ular, o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘quv materiallarini tahlil qilish va o‘z fikrlarini erkin bayon etish qobiliyatlarini rivojlantirishda fanlar integratsiyasining samarali ekanligini ta'kidladi.

Tahlil va natija. Fanlar integratsiyasi — bu bir nechta fanlarni birgalikda o‘rganish va o‘quvchilarga o‘zaro bog‘lanishli bilimlarni taqdim etish jarayonidir. Bu yondashuv o‘quvchilarga biror mavzu yoki masala doirasida turli bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Integratsiya metodining asosiy maqsadi o‘quvchilarga faqatgina biror fan bo‘yicha bilim berish emas, balki turli fanlar orasidagi bog‘liqlikni tushuntirish va o‘quvchilarga keng qamrovli dunyoqarashni shakllantirishdir.

Boshlang‘ich ta'limda fanlar integratsiyasining afzalligi shundaki, bu yondashuv o‘quvchilarga o‘rganilgan mavzularni turli burchaklardan ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratadi. Bunday usul o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, yaratish va o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Aynan ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida integratsiya o‘quvchilarning fikrlash va nutq ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari o‘quvchilarning asosiy ta'lim sohalari bo‘lib, ular nafaqat lingvistik bilimlarni o‘rganish, muloqot, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish, matnni tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu fanlar integratsiyasi o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga, matnlarni o‘qish va tushunishga jalb etish uchun ideal asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tili fani o‘quvchilarga tildan samarali foydalanish, lug‘at boyligini oshirish, nutqni rivojlantirish va yozuvni mukammallashtirish imkoniyatini yaratadi. Ona tili orqali o‘quvchilarga grammatika, fonetika, morfologiya, sintaksis kabi tilshunoslik bo‘limlari o‘rgatiladi. Bu bilimlar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini to‘g‘ri va aniq ifodalash, izohlarni tuzish va nutq madaniyatini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishlari va muvaffaqiyatlari aynan ona tili orqali shakllanadi.

O‘qish savodxonligi fani o‘quvchilarga matnni to‘liq va samarali o‘qish, mazmunini tushunish, matnni tahlil qilish va o‘z fikrlarini bayon etish ko‘nikmalarini o‘rgatadi. Bu fanni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘qilgan materialni anglash, o‘z bilimlarini kengaytirish va so‘z boyligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qish savodxonligini rivojlantirish o‘quvchilarga matnlar asosida mustaqil fikrlashni va bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari integratsiyasi o‘quvchilarda bir nechta muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar orasida o‘qish va yozish savodxonligini oshirish, nutqni rivojlantirish, ijodkorlikni kuchaytirish va mantiqiy fikrlashni takomillashtirish kabi jihatlar muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda integratsiya jarayonining muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari orqali o‘quvchilar o‘qish va yozish ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantiradilar. Masalan, o‘qilgan matnlar asosida savollar tuzish, matnni tahlil qilish, uning mazmunini bayon etish orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi oshadi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari integratsiyasi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shadi. O‘quvchilar matnni o‘qish va tahlil qilish jarayonida nutqiy vositalar, jumlalar, so‘zlar va ifodalash usullaridan samarali foydalanishni o‘rganadilar. Nutqni rivojlantirishda o‘quvchilarga matnlarni mustaqil o‘qish, ularni tahlil qilish, izohlarni yaratish va muloqotda bo‘lish ko‘nikmalari zarur bo‘ladi.

Integratsiya jarayonida o‘quvchilar mantiqiy fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Masalan, o‘quvchilar o‘qish jarayonida matnni to‘liq tushunib, uning asosiy fikrini aniqlash, undan xulosalar chiqarish, shuningdek, yangi g‘oyalarni yaratishda va mulohazalar yuritishda o‘z ijodkorliklarini namoyon etadilar.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari integratsiyasini amalga oshirishda zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

Multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarga matnlarni nafaqat o‘qish, balki ularni audiovizual vositalar yordamida tinglash, video va audio materiallar orqali matnni tushunish imkoniyatlari taqdim etiladi. Bunday usul, o‘quvchilarning diqqatini jalb etish, ularni o‘qishga qiziqtirish va o‘quv materiallarini o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Interfaol darslar orqali o‘quvchilar guruhlar bo‘lib ishlashadi, fikr almashadilar va muhokama qilishadi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodkorligini, muloqotda bo‘lish ko‘nikmalarini va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning mustaqil ishlashini, fikrlarini erkin ifodalashini va muammoni hal qilishdagi faoliyatini oshiradi.

Differensial ta'lim yondashuvi orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarga o‘zlarining imkoniyatlariga mos ravishda darslar olib borishga, o‘rganilgan materialni chuqur o‘zlashtirishga imkon

yaratadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish o‘quvchilarning bilimini kengaytirish, ularning fikrlash va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarining integratsiyasi o‘quvchilarga tilni samarali o‘rganish, matnlarni o‘qish va tushunish, nutq madaniyatini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar yordamida bu integratsiya jarayonini yanada samarali qilish, o‘quvchilarga yanada chuqurroq bilimlar berish va ularni umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergashev A.T. Boshlang‘ich ta'limda o‘qish savodxonligi va ona tili fanlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari–Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2017.
2. Ismailova Sh.T. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarining o‘zaro integratsiyasi– Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Akademiyasi, 2018.
3. Mustafayev M.X. Pedagogik texnologiyalar va fanlar integratsiyasini boshlang‘ich ta'limda qo‘llash–Toshkent: Xalq ta'limi vazirligi.
4. Qodirova Sh.T. Boshlang‘ich sinflarda fanlar integratsiyasini qo‘llashning metodik asoslari– Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim markazi, 2015.
5. Zhang L. Teaching reading and writing in integrated subjects: The role of literacy development in elementary education. Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 2017.

Shalola RAHMONOVA,
ISFT instituti ingliz tili o‘qituvchisi



OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanib, ushbu yo‘nalishda juda ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.Shu jumladan, quyida oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarga ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ba’zi masalalar hamda ularning yechimlariga qaratilgan fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *chet tilini o‘qitish, innovatsiya, internet, o‘qituvchi, pedagogik texnologiya, ta’lim texnologiyasi.*

Аннотация: повышение эффективности преподавания английского языка в высших учебных заведениях является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня, и в этом направлении проводится множество исследовательских работ. В частности, ниже освещены некоторые вопросы повышения эффективности обучения английскому языку студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, а также идеи, направленные на их решение.

Ключевые слова: *обучение иностранному языку, инновации, интернет, учитель, педагогические технологии, образовательные технологии.*

Annotation: improving the effectiveness of English language instruction in higher education institutions is considered one of the pressing issues of today, and numerous research projects are being conducted in this direction. In particular, some issues related to improving the effectiveness of teaching English to students studying in higher education institutions and ideas aimed at their solutions are highlighted below.

Key words: *foreign language learning, innovation, internet, teacher, pedagogical technology, educational technology.*

Kirish. Bugungi kunda, sifatli ta’limni, ayniqsa chet tillarini o‘qitishda yuqori natijalarga erishishning asosiy metodikalarini innovatsion pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas.Ma’lumki, bunday texnologiyalar ta’lim jarayonida elektron axborot-resurs platformalari va masofaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, yakka yoki jamoaviy bajariladigan loyiha ishlari, multimedia dasturlari, taqdimotlar tayyorlashga mo‘ljallangan “offline” va “online” platformalar hamda turli internet resurslaridan

foydalanishni qamrab oladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish kommunikativ malakani shakllantirishda chet tilini o‘qitishning kommunikativ va kognitiv maqsadlarini birlashtiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek dunyo miqyosidagi o‘zgarishlar jadallashayotganligi sababli yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish shunchaki “trend” emas, balki sifatli ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun g‘oyat muhim vazifaga aylanib bormoqda [1].

Asosiy qism. Chet tilida so‘zlashish qobiliyati har doim chet tillarni o‘qitish metodikasining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelgan.O.P. Datskiv, Y.O. Dyachkova, V.L. Skalkin, A. Meyli, A. Daf, V.V. Safonov kabi xorijiy olimlar, shuningdek mahalliy olimlarimizdan U.N. Xodjamqulov, H.Sh. Kadirov, S.Z. Tillayeva, M.I. Akbarova va boshqalar chet tilini o‘qitish va o‘rganishda hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, turli xil yondashuvlarni qo‘llaganlar. Olimlarning tadqiqotlari va oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilimlariga qo‘yiladigan talablar chet tilini o‘rganishning eng samarali usullari va texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim jarayonini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Muallif tadqiqotining ba’zi natijalarini bayon etuvchi ushbu ilmiy maqola milliy oliy ta’lim tizimimizda chet tilini o‘qitish va o‘rganishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tahlil qilish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili filologiyasi yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlarini aniqlash hamda yoritib berishdan iborat.

Hozirgi kunda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy omillaridan biri, ushbu jarayonda innovatsion ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishidir. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘qitish jarayoniga joriy etilishi oliy ta’lim muassasasining pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida raqobatbardoshligini ta’minlash asos yaratadi va ayni paytda, bo‘lajak ingliz tili filologlarida kasbiy o‘sish hamda ijodiy izlanish malaka va ko‘nikmalarini shakllantiradi [2].Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi professor-o‘qituvchilarimizning asosiy vazifalaridan biri bu har bir tahsil oluvchining chet tilini amaliy o‘rganishi uchun barcha sharoitlarni yaratishdan iborat. Ushbu vazifaning samarali amalga oshirilishi esa professor-o‘qituvchilardan talabaning faolligi va ijodkorligini namoyon qilish imkonini beradigan o‘qitish usullarini amalda qo‘llashni talab etadi.

ISFT instituti faoliyatining tahlili tilni amaliy o‘rganishda ko‘pqirralik tamoyilini ta’minlash bilim berish jarayonining har qanday ta’lim shakli va vazifalariga moslashuvchanligiga xizmat qilishini namoyon qildi. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari” jumlasining asl mazmuni va uning turli ko‘rinishlari haqida fikr yuritishda, avvalo ta’lim sohasiga ta’lim texnologiyasi tushunchasining kiritilishiga sabab bo‘lgan g‘oyalarni aniqlashimiz lozim.Ma’lumki, har qanday faoliyat, mahorat yoki san’atda qo‘llaniladigan usullar majmui – texnologiya deb ataladi. Shuningdek, B.T. Lixachev ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif bergan: “Texnologiya bu - pedagogik jarayonning tashkiliy va uslubiy jihatlarini shakllantiradigan ta’lim shakllari, usullari, o‘qitish metodlari va vositalarining maxsus to‘plami hamda tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik yondashuvlar majmuidir” [3].

Bugungi kungacha xorijiy va milliy olimlar tomonidan bu tushunchaga umumiy hisobda deyarli bir xil asosga ega turli tavsif va xulosalar taklif etilgan. Biz quyida mavjud va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ro‘yxati orasidan vaqt bilan sinalganlarini keltirishga harakat qildik. Ya’ni, ko‘p bosqichli o‘qitish; hamkorlikda o‘qitish; individual va tabaqalashtirilgan yondashuv; loyiha usuli va boshqalar. Ushbu, samarador texnologiyalarning barchasi ta’limda innovatsiyalarni rivojlantirishga, o‘qitish usullari va vositalarini takomillashtirishga, o‘quvchilarning ma’lumotlar bilan ishlash va ularni tahlil qilish orqali harakatga undash qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, ularning ijodiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birlashtirib qo‘llash ingliz tilini o‘qitish jarayonining didaktik funksiyalarini ochib berish va potensial imkoniyatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirda, zarur ma’lumotlardan erkin foydalanish talab qilinayotgani bois, axborot markazlarida ta’lim jarayonining bir qismi sifatida o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini shakllantirishga yordam berish maqsadida dunyo bo‘ylab ilmiy, madaniy va axborot markazlariga kirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan, jumladan respublikamizda aksariyat institut va universitetlarida milliy va xorij elektron ma’lumotlar ba’zasiga ulangan, kompyuter texnologiyalari bilan jihozlangan hamda to‘laqonli ravishda avtomatlashtirilgan kutubxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bunday imkoniyatlar nafaqat ma’lumotlarni izlash va olish, balki bilish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish hamda murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ham muhimdir. Mazkur jarayon axborot-kommunikatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda yanada samarali kechadi.Bunda ma’lumotlar bilan ishlashning maxsus usullari va texnik vositalari (kompyuterlar, audio va video qurilmalar, telekommunikatsiya tarmoqlari va boshqalar)

qo‘llaniladi.Hozirgi kunda bu turdagi pedagogik texnologiyalar “kompyuterli o‘qitish texnologiyasi” atamasi bilan nomlanmoqda.Bu texnologiya dasturlashtirilgan ta’lim g‘oyalarini rivojlantirishda davom etib, kompyuter va telekommunikatsiyalar bilan bog‘liq afzalliklardan foydalangan holda ta’lim jarayonining yangi texnologik imkoniyatlarini ochib bermoqda [1; 4].

Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, ayniqsa Internet orqali taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan, hozirda yurtimizda ham sanoqli universitetlar ta’lim jarayonida (seminarlar va konferensiyalarda) innovatsion texnologiyalardan foydalanmoqda. Bu jarayonlarda oliy ta’lim muassasalari mutaxassislari va milliy universitetlarimizning professor-o‘qituvchilari bir ishtirok etishmoqda. Ta’kidlash kerakki, bunday oliy ta’lim muassasalari doimo zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga ochiq bo‘ladi. Bunday ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida loyihalar ishlab chiqish, treninglar, ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o‘tash, shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida ishtirok etish hamda turli xil amaliyotlar kabi ta’lim shakllari mavjud.

Pedagogika institutlari va universitetlarda chet tillarini o‘qitishning texnologik jihatlarini o‘rganib chiqish jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar shaxsga yo‘naltirilgan va axborotga asoslangan o‘qitish texnologiyalaridan iborat ekanligi aniqlandi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar o‘qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish, loyihalash texnologiyalari kabi usullarni o‘z ichiga oladi.

Ayni paytda ta’lim jarayonida juda zarur bo‘lgan axborot manbalarining keng tanlovini taqdim etuvchi manba sifatida Internetga katta urg‘u berilmoqda. Undagi ma’lumotlar bazasi esa Veb va tarmoq serverlarida joylashtirilgan asosiy ma’lumotlar, elektron pochta orqali yuborilgan xabarlar, turli axborot markazlarining ma’lumotlar bazalari, onlayn do‘konlarning kitob va jurnallari haqidagi ma’lumotlardan tashkil topgan bo‘ladi. Internet axborot resurslari o‘quv jarayoniga samarali tarzda qo‘shilgan bo‘lib, ingliz tilida turli didaktik vazifalarni hal etishga yordam beradi. Masalan: o‘qish va yozish malakalarini takomillashtirish; ovozli matnlarni tinglash; o‘rganilayotgan til mamlakatining madaniyati, nutq odobi va nutq xususiyatlari bilan tanishish; chet tilidagi nutq faoliyatiga qiziqish uyg‘otish hamda akademik yozuv uslublarini o‘rganish. Bu masalalarni hal qilish uchun talabalarga o‘z bilimlarini kengaytirish, mustaqil ta’lim olish, shuningdek, mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun real sharoitlar yaratiladi.

Ta’kidlash kerakki, xorijiy til ko‘nikmalari bundan biyon ish beruvchilarning eng muhim talablaridan biriga aylanadi. Talabalarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari (loyiha ishlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xorijiy tillarni o‘qitishda kompyuter dasturlari bilan ishlash, xorijiy tillarni o‘qitishda masofaviy texnologiyalar va hokazo) dan foydalanmasdan sifatli til o‘rgatish imkonsizdir.

Xulosa. Hozirgi zamon tendensiyasidan kelib chiqib, xorijiy tilni amaliy ravishda bilishga talablar tobora kuchayib bormoqda.Bu sohada innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Maqolada tahlil qilingan o‘qitish dasturlari amaliyotda shuni ko‘rsatadiki, ular an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda afzalliklarga ega, binobarin ular nafaqat nutq faoliyatining ayrim turlarini o‘rgatish va ulardan turli kombinatsiyalarda foydalanish imkonini beradi, balki individual yondashuvni qo‘llash va talabalarning mustaqilligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Terletska, Liubov.(2020).MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL SPECIALTIES.Pedagogy of the formation of a creative person in higher and secondary schools.3. 129-132. 10.32840/1992-5786.2020.69-3.26.

2. Борецька Г.Е. Современные технологии формирования англоязычной компетенции говорения у учащихся основной и старшей школы. Иностранные языки. 2010. № 2. С. 23–26.

3. Волков И.П. Цель одна – дорог много: Проектирование процессов обучения : книга для учителя : Из опыта работы. Москва : Просвещение, 1990. 159 с.

4. Maley A. Drama techniques: a resource book of communication activities for language teachers.Third edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. 246 p.



Aziza KARIMOVA,
O‘zbek-Fin pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi.
El-manzil: karimovaaziza797@gmail.com

SCAMPER TEXNIKASI ORQALI PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARINI BOLANING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASIGA O‘RGATISH

Annotatsiya: ushbu maqolada SCAMPER texnikasidan foydalangan holda bo‘lajak pedagoglarni bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasiga o‘rgatish masalalari ko‘rib chiqiladi. SCAMPER texnikasining teoretik asoslari, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Maqolada SCAMPER texnikasining bolalar kognitiv rivojlanishiga ta’siri, uni pedagogik ta’limga integratsiya qilish yo‘llari va samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *SCAMPER texnikasi, kognitiv rivojlanish, pedagogik ta’lim, metodika, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы обучения будущих педагогов методике развития познавательных способностей детей по методике SCAMPER. Анализируются теоретические основы методики SCAMPER, ее значение и применение в образовательном процессе. В статье освещается влияние методики SCAMPER на познавательное развитие детей, пути и эффективность ее интеграции в педагогическое образование.

Ключевые слова: *методика SCAMPER, когнитивное развитие, педагогическое образование, методика, креативное мышление, инновационный подход.*

Annotation: this article examines the issues of teaching future educators to the methodology for the development of children’s cognitive abilities using the SCAMPER technique. The theoretical foundations of the SCAMPER technique, its importance and application in the educational process are analyzed. The article covers the impact of the SCAMPER technique on children’s cognitive development, ways and effectiveness of integrating it into pedagogical education.

Key words: *SCAMPER technique, cognitive development, pedagogical education, methodology, creative thinking, innovative approach.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy ravishda yangilanib, takomillashib bormoqda.Bu jarayonda bo‘lajak pedagoglarni innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini yuqori darajada shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. SCAMPER texnikasi ana shunday zamonaviy pedagogik vositalardan biri bo‘lib, u kreativ fikrlashni rivojlantirish, muammolarni nostandart usulda hal etish va innovatsion g‘oyalarni yaratish imkoniyatini beradi [1:45].

Bo‘lajak pedagoglarni SCAMPER texnikasi bilan tanishtirish va uni bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasiga yo‘naltirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin.Bu texnika nafaqat talabalarning o‘zlarida kreativ fikrlashni rivojlantiradi, balki ularni kelajakdagi pedagogik faoliyatda bolalarning intellektual salohiyatini oshirishga tayyorlaydi [2:128]. SCAMPER texnikasining har bir elementi - almashtirish, birlashtirish, moslash, o‘zgartirish, boshqa maqsadda foydalanish, olib tashlash va teskari qilish kabi jarayonlar bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Asosiy qism.SCAMPER texnikasi kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik vosita sifatida Bob Eberle tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, Alex Osborn g‘oyalariga asoslanadi. Bu texnika yetti asosiy elementdan iborat bo‘lib, har biri alohida ahamiyatga ega. Substitute (almashtirish) elementi mavjud g‘oya yoki predmetni boshqasi bilan almashtirish imkonini beradi.Combine (birlashtirish) elementi turli g‘oyalarni sintez qilish va yangi yechimlar topishga yordam beradi. Adapt (moslash) elementi mavjud g‘oyalarni yangi sharoitlarga moslashtirish imkonini yaratadi. Modify (o‘zgartirish) elementi g‘oyalarni takomillashtirish va yangilash uchun xizmat qiladi. Put to another use (boshqa maqsadda foydalanish) elementi mavjud g‘oyalardan yangi maqsadlarda foydalanish imkonini beradi. Eliminate (olib tashlash) elementi keraksiz elementlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan. Reverse (teskari qilish) elementi esa g‘oyalarni qarama-qarshi nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish imkonini beradi [3:56].

SCAMPER texnikasini pedagogik ta’limga integratsiya qilish. SCAMPER texnikasini pedagogik ta’limga samarali integratsiya qilish bir necha muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.Birinchidan, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash orqali talabalar texnikaning

har bir elementini real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishlari lozim.Bu jarayonda aniq pedagogik muammolar yechimini topishda SCAMPER texnikasining turli elementlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [5:167].

Ikkinchidan, innovatsion metodlarni ishlab chiqish yo‘nalishi bo‘lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan. Talabalar SCAMPER texnikasi asosida o‘zlarining yangi pedagogik metodlarini yaratish, mavjud metodlarni takomillashtirish va zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Uchinchidan, kreativ yondashuvlarni shakllantirish orqali pedagogik faoliyatda noan’anaviy yechimlarni topish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.Bu jarayonda talabalar SCAMPER texnikasining har bir elementini turli pedagogik vaziyatlarga tatbiq etishni o‘rganadilar [6:234].

Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.SCAMPER texnikasi asosida bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi kompleks yondashuvni talab etadi.Bu metodika avvalo mavjud pedagogik usullarni chuqur tahlil qilish va baholashdan boshlanadi. Talabalar an’anaviy metodlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar, ularni SCAMPER texnikasi elementlari orqali takomillashtirish yo‘llarini izlaydilar [7:145].

Innovatsion yondashuvlarni joriy etish bosqichida talabalar ishlab chiqqan metodlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.Bu jarayonda ular SCAMPER texnikasining turli elementlarini pedagogik vaziyatlarga qarab moslashtirishni o‘rganadilar [8:78].

Quyidagi jadvalda SCAMPER texnikasi elementlarining pedagogik ta’limdagi ahamiyati va qo‘llanilish yo‘nalishlari keltirilgan:

1-jadval

SCAMPER texnikasi elementlarining pedagogik ta’limdagi ahamiyati va qo‘llanilish yo‘nalishlari

S C A M P E R elementi	**Pedagogik ahamiyati**	**Qo‘llanilish yo‘nalishlari**
S u b s t i t u t e (Almashtirish)	An’anaviy metodlarni zamonaviy metodlar bilan almashtirish	Dars o‘tish metodlari, baholash usullari
C o m b i n e (Birlashtirish)	Turli pedagogik yondashuvlarni sintez qilish	Interfaol metodlar, integratsiyalashgan darslar
Adapt (Moslash)	Mavjud metodlarni yangi sharoitlarga moslashtirish	Masofaviy ta’lim, individual yondashuv
M o d i f y (O‘zgartirish)	Ta’lim mazmunini takomillashtirish	O‘quv dasturlari, didaktik materiallar
Put to another use (Boshqa maqsadda foydalanish)	Mavjud resurslardan yangicha foydalanish	Ta’limiy o‘yinlar, multimedia vositalari
Eliminate (Olib tashlash)	Samarasiz elementlarni bartaraf etish	Ta’lim mazmunini optimallashtirish
Reverse (Teskari qilish)	Muammolarga qarama-qarshi nuqtai nazardan yondashuv	Muammoli ta’lim, loyiha metodlari

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, SCAMPER texnikasining har bir elementi pedagogik faoliyatning muayyan yo‘nalishida samarali natija berishi mumkin. Masalan, “Almashtirish” elementi orqali an’anaviy dars o‘tish metodlarini zamonaviy interfaol metodlar bilan almashtirish, “Birlashtirish” elementi orqali turli fanlarni integratsiyalash va fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash mumkin [5:167].

SCAMPER texnikasini pedagogik ta’limda qo‘llashning yana bir muhim jihati - bu uning kognitiv rivojlanishga ta’siridir.Texnika elementlari orqali talabalar nafaqat o‘zlarining, balki kelajakdagi o‘quvchilarining ham kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini o‘zlashtirishlari mumkin. Bu jarayonda quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Analitik fikrlashni rivojlantirish - SCAMPER texnikasi elementlari orqali pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarni hal etish;

Ijodiy yondashuvni shakllantirish - yangi g‘oyalarni yaratish va mavjud metodlarni takomillashtirish;
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - mavjud yondashuvlarni baholash va takomillashtirish;
Tizimli fikrlashni shakllantirish - pedagogik jarayonning barcha komponentlarini o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rish [7:189].

Xulosa.SCAMPER texnikasi pedagogik ta’limda muhim innovatsion vosita sifatida alohida ahamiyatga ega.Ushbu texnika bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini oshirish bilan birga, ularga bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini o‘rgatishda samarali natija beradi [10:167]. SCAMPER texnikasining har bir elementi pedagogik jarayonning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, bu orqali ta’lim-tarbiya ishlarining samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, SCAMPER texnikasi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qilishi, pedagogika yo‘nalishi talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirishi va umuman olganda ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абдуллаева Ш.А. Педагогик технологиялар. – Тошкент: Фан, 2022. 245- б.
Йўлдошев Ж.Ғ. Таълим янгиланиш йўлида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2023. 205-б.
Eberle, B. SCAMPER: Creative Games and Activities for Imagination Development. – New York: Prufrock Press, 2021. – 198 p.
Рахимов Б.Х. Инновацион таълим методлари. – Тошкент: Наврўз, 2023.167-б.
Ҳасанов Р. Педагогик компетенция асослари. – Тошкент: Фан ва технология, 2022. 234-б.
Williams, F. Creativity Assessment Packet. – Buffalo: DOK Publishers, 2020.245- p.
Каримова В.М. Педагогик маҳорат асослари. – Тошкент: Фан, 2023.189-б.
Смирнов В.И. Педагогические технологии. – Москва: Академия, 2021. – 267 с.
Johnson, D. Creative Teaching Methods. – London: Routledge, 2022. – 234 p.
Peterson, R. Educational Psychology. – Cambridge: Cambridge University Press, 2023. – 289 p.

Мадина БУРАНОВА,
PhD, и.о. доцента кафедры английского языка СамГИИЯ

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ УРОВНЯ В 1

Аннотация: в статье рассматриваются инновационные технологии, которые активно используются для совершенствования прагматической компетенции студентов на уровне B1. Прагматическая компетенция включает в себя умение использовать язык с учетом контекста общения, цели и социальной роли участников. В статье подробно анализируются современные подходы, включая цифровые технологии, игровые методики, методы проектной деятельности и искусственный интеллект. Автор выделяет основные направления, которые позволяют эффективно развивать прагматические навыки студентов, подчеркивая значимость использования интерактивных и адаптивных образовательных инструментов.

Ключевые слова: *прагматическая компетенция, студенты B1, инновационные технологии, цифровые инструменты, игровые методики, проектная деятельность, искусственный интеллект, адаптивное обучение.*

Annotation: : this article discusses innovative technologies that are actively used to enhance the pragmatic competence of students at the B1 level. Pragmatic competence includes the ability to use language considering the context of communication, the purpose, and the social role of the participants. The article analyzes modern approaches in detail, including digital technologies, game-based methods, project-based learning, and artificial intelligence. The author highlights the main directions that allow for the effective development of students' pragmatic skills, emphasizing the importance of using interactive and adaptive educational tools.

Key words: *pragmatic competence, B1 students, innovative technologies, digital tools, game-based methods, project-based learning, artificial intelligence, adaptive learning.*

Annotatsiya: ushbu maqolada B1 darajasidagi talabalarda pragmatik kompetensiyani takomillashtirish uchun faol qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar muhokama qilinadi. Pragmatik kompetensiya – bu tilni muloqot kontekstini, maqsadini va ishtirokchilarning ijtimoiy rolini hisobga olgan holda ishlatish qobiliyatidir. Maqolada

zamonaviy yondashuvlar, shu jumladan raqamli texnologiyalar, o‘yin metodikasi, loyiha faoliyati usullari va sun'iy intellekt batafsil tahlil qilinadi. Muallif talabalarning pragmatik ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga imkon beradigan asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatib, interaktiv va adaptiv ta'lim vositalaridan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *pragmatik kompetensiya, B1 talabalari, innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar, o‘yin metodikasi, loyiha faoliyati, sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim.*

Введение

Современное образование требует от студентов не только овладения базовыми языковыми навыками, но и способности адекватно использовать язык в различных социальных и коммуникационных ситуациях. Прагматическая компетенция – это способность понимать и эффективно использовать язык в контексте реального общения. На уровне B1 студент должен уметь участвовать в простых разговорах, выражать свои мысли и эмоции, а также интерпретировать информацию с учетом культурных и социальных аспектов.

Прагматическая компетенция играет ключевую роль в эффективном использовании языка в реальных коммуникативных ситуациях. Она необходима для того, чтобы:

понимать и использовать язык в различных контекстах. Прагматическая компетенция позволяет выбирать правильные слова и фразы в зависимости от ситуации общения, социальной роли участников, их ожиданий и контекста;

интерпретировать намерения и чувства других. Прагматическая компетенция помогает распознавать подтекст, эмоции и намерения собеседников, что важно для успешного взаимодействия в разговоре.

Цифровые технологии становятся важным инструментом для развития прагматической компетенции. Онлайн-платформы, такие как Duolingo, Babbel и другие, предоставляют студентам доступ к интерактивным упражнениям и заданиям, которые моделируют реальную языковую ситуацию. Эти ресурсы не только обучают грамматике и лексике, но и предоставляют возможности для практики в контексте, что способствует развитию навыков, необходимых для эффективного общения.

Исследования показывают, что использование цифровых инструментов в обучении способствует лучшему усвоению материала, а также мотивирует студентов продолжать обучение [Smith, 2020].

Игровые технологии также занимают важное место в обучении. Ролевые игры, симуляции реальных ситуаций и геймификация обучающих процессов способствуют активному вовлечению студентов. Например, использование платформы Kahoot позволяет преподавателю создавать викторины, которые не только проверяют знания, но и стимулируют студентов к активному участию в процессе. Эти методы создают атмосферу, в которой студенту необходимо принимать решения, действовать в реальном времени и осознавать последствия своих слов и поступков, что напрямую связано с развитием прагматической компетенции [Brown, 2019].

Проектная деятельность

Проектная деятельность также является важным аспектом в обучении студентов. Задачи, которые требуют от студентов сотрудничества, презентации результатов или анализа информации, позволяют развивать навыки эффективного общения в разных социальных контекстах. В проектной деятельности студент сталкивается с необходимостью использования языка в реальных или приближенных к реальным ситуациям, что стимулирует развитие прагматической компетенции.

Многочисленные исследования подтверждают, что проектное обучение способствует более глубокому усвоению материала и развитию ключевых компетенций у студентов [Johnson, 2021]. Кроме того, проектная деятельность позволяет интегрировать различные виды деятельности – чтение, письмо, устную речь, что способствует комплексному развитию языковых навыков.

Вот несколько примеров проектной деятельности, которые могут быть использованы для улучшения языковой и прагматической компетенции студентов:

1. Создание видео-сценария для рекламного ролика. Один из эффективных способов развить прагматическую компетенцию – это задание, связанное с созданием рекламного ролика.

Проектная деятельность, как показано в исследовании Johnson (2021), способствует развитию языковых навыков через активное вовлечение студентов в реальные или приближенные к реальным ситуациям, что способствует более глубокому усвоению материала и развитию ключевых компетенций у студентов.

2. Организация культурной презентации. Студенты могут разработать проект, посвященный представлению культурных особенностей различных стран или регионов. В рамках этого проекта они должны изучить традиции, социальные нормы, а также особенности общения в разных культурах.

Brown (2019) подчеркивает, что проектное обучение способствует более глубокому пониманию культурных и социальных аспектов языка, что напрямую влияет на развитие прагматической компетенции у студентов.

3. Проведение интервью с носителями языка. Проект, включающий проведение интервью с носителями языка, является отличным способом развить прагматическую компетенцию.

Smith (2020) утверждает, что проектная деятельность, связанная с реальным взаимодействием с носителями языка, помогает студентам развивать способность адаптировать свою речь в зависимости от контекста и социальной ситуации.

4. Планирование и проведение дебатов. Дебаты на актуальные темы являются еще одним примером проектной деятельности, способствующим развитию прагматической компетенции. В ходе подготовки и проведения дебатов студенты должны продумать стратегию общения, учесть целевую аудиторию, сформулировать аргументы и контраргументы на иностранном языке.

Johnson (2021) отмечает, что участие в дебатах помогает студентам улучшать навыки аргументации и взаимодействия в разных социальных контекстах, что является неотъемлемой частью прагматической компетенции.

Проектная деятельность является эффективным инструментом для развития не только языковых, но и прагматических навыков. Через такие проекты, как создание рекламных роликов, культурные презентации, проведение интервью и дебатов, студенты учат не только грамматические структуры языка, но и его использование в различных коммуникативных ситуациях, что способствует их успешной социализации и более глубокому освоению языка.

Технологии искусственного интеллекта (ИИ) также начинают занимать важное место в процессе обучения языкам. Программы, основанные на ИИ, такие как чат-боты, могут симулировать разговоры и взаимодействие в реальном времени. Эти инструменты могут предоставлять студентам возможность практиковать прагматические навыки в безопасной и контролируемой среде. К тому же ИИ-системы могут адаптироваться под уровень студента, что помогает ему развивать навыки в соответствии с его индивидуальными потребностями [Williams, 2022].

Заключение

Использование инновационных технологий в обучении на уровне B1 является важным аспектом развития прагматической компетенции студентов. Цифровые инструменты, игровые методики, проектная деятельность и искусственный интеллект позволяют создавать обучающие ситуации, приближенные к реальной жизни, что способствует более эффективному освоению языковых и коммуникативных навыков. Внедрение этих технологий в процесс обучения помогает студентам развивать способность понимать и использовать язык с учетом контекста общения, что является важнейшим аспектом в изучении иностранных языков.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Brown P. Gamification in language education: Benefits and challenges. Journal of Educational Technology, 2019, 58(4), 312–326.

2. Buranova M.U. English in the era of digital literacy. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 2 issue 17 (39) | ISSN: 2181–4163 | Impact Factor: 8.2, 2024, 155–160.

3. Buranova M.U. Enhancing Student Engagement Trough Traditional and Digital Tools in the Educational Process, Scientific and Practical Research of Scientists of Uzbekistan (Scientific-Theoretical and Methodological Journal), 93–99

4. Smith J. The impact of digital tools on language learning. Educational Technology Research and Development, 2020, 68(3), 543–561.

5. Johnson L. Project-based learning and language acquisition. Language Learning & Technology, 2021, 25(2), 80–95.

6. Williams R. Artificial intelligence in language education: Opportunities and challenges. Journal of Language and Technology, 2022, 10(1), 22–35

Zukhriddin AKBAROV
Teacher, English Philology Department,
University of Business and Science.
zuhriddinakbarov1993@gmail.com



IDENTIFYING LEARNER NEEDS FOR AN EFFECTIVE ESP COURSE HIGHLIGHTING THE CASE-STUDY APPROACH:

Annotation: this article describes an ESP course designed for a group of business students at the University of Business and Science in Tashkent. The students have a B2 level of English and are looking to improve their writing and speaking skills. The course uses a case-study approach to help students learn business vocabulary and grammar in a real-world context. The article first discusses the importance of needs analysis in ESP course design. The author then describes the different methods of needs analysis, such as questionnaires, surveys, interviews and language audits. The course will use formative assessment to provide feedback to students on their writing and speaking skills. The chosen approach for this ESP course design is a case-study approach. This approach provides authentic business scenarios that learners can practice and experience language learning and practical cases in the business context. The case studies encourage active participation and require students to discuss, debate and collaborate to arrive at solutions.

Key words: *business English, productive skills (writing & speaking), grammar, vocabulary, sentence structure, needs analysis, questionnaires, surveys, interviews, triangulation approach, assessment, formative assessment role-play, class discussion, writing assignments, case-study approach, authentic business scenarios, active participation, collaboration.*

Аннотатция: в этой статье описывается курс ESP, разработанный для группы студентов-бизнесменов в Университете бизнеса и науки в Ташкенте. У студентов уровень английского языка B2, и они хотят улучшить свои навыки письма и говорения. В курсе используется подход кейс-стади, чтобы помочь студентам изучить деловую лексику и грамматику в реальном контексте. В статье сначала обсуждается важность анализа потребностей в разработке курса ESP. Затем автор описывает различные методы анализа потребностей, такие как анкеты, опросы, интервью и языковой аудит. В курсе будет использоваться формирующее оценивание для предоставления студентам обратной связи по их навыкам письма и говорения. Выбранный подход для разработки этого курса ESP — подход кейс-стади. Этот подход предоставляет аутентичные бизнес-сценарии, которые учащиеся могут практиковать и испытывать на практике изучение языка и практические случаи в деловом контексте. Кейс-стади поощряют активное участие и требуют от студентов обсуждать, дебатировать и сотрудничать для нахождения решений.

Ключевые слова: *деловой английский, продуктивные навыки (письменная и устная речь), грамматика, словарный запас, структура предложений, анализ потребностей, анкеты, опросы, интервью, триангуляционный подход, оценка, ролевая игра по формирующему оцениванию, обсуждение в классе, письменные задания, подход с использованием тематических исследований, аутентичные бизнес-сценарии, активное участие, сотрудничество.*

Annotatsiya: ushbu maqolada Toshkentdagi Biznes va fan universitetining bir guruh biznes talabalari uchun mo‘ljallangan ESP kursi tasvirlangan. Talabalar ingliz tilining B2 darajasiga ega va yozma va nutq qobiliyatlarini yaxshilashga intilishadi. Kurs talabalarga real dunyo kontekstida biznes lug‘ati va grammatikasini o‘rganishga yordam berish uchun keys-stadi usulidan foydalanadi. Maqolada birinchi navbatda ESP kursini loyihalashda ehtiyojlarni tahlil qilish muhimligi muhokama qilinadi. Muallif so‘ngra anketalar, so‘rovlar, intervyular va til auditi kabi ehtiyojlarni tahlil qilishning turli usullarini tavsiflaydi. Kursda talabalarga yozish va nutq qobiliyatlari haqida fikr bildirish uchun formativ baholash qo‘llaniladi. Ushbu ESP kursini loyihalash uchun tanlangan yondashuv keys-study yondashuvidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga til o‘rganish va biznes kontekstidagi amaliy misollarni amaliyotda qo‘llashi va boshdan kechirishi mumkin bo‘lgan haqiqiy biznes stsenariylarini taqdim etadi. Keys tadqiqotlari faol ishtirok etishni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarni muhokama qilish, bahslashish va yechim topish uchun hamkorlik qilishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: *ishbilarmon ingliz tili, samarali ko‘nikmalar (yozish va gapirish), grammatika, lug‘at, jumlalar tuzilishi, ehtiyojlarni tahlil qilish, so‘rovnomalar, so‘rovlar, intervyular, triangulyatsiya yondashuvi, baholash, formativ baholash rolli o‘yin, sinf muhokamasi, yozma topshiriqlar, keys-stadi yondashuvi, haqiqiy biznes stsenariylari, faol ishtirok etish, hamkorlik.*

Introduction

This ESP project focuses on developing a Business English course for a group of 14 final-year students at the University of Business and Science in Tashkent. The students have a B2 level in English and they have comprehensive receptive skills in reading and listening, but they have challenges in productive skills, particularly in writing and speaking. Their difficulties lie in grammar accuracy, vocabulary choice and coherent sentence structure. The course aims to address these deficiencies by emphasizing the development of productive language skills through a case-study approach. By focusing on real-world business scenarios, students will have opportunities to practice and improve their writing and speaking abilities while improving their business knowledge. Moreover, to identify the language needs of the participants, quantitative and qualitative needs analysis will be conducted using questionnaires, surveys and interviews. The collected data inform the language levels of the students which is important to develop the course and content-related materials. Formative assessment strategies will be used throughout the course to check student progress and provide ongoing feedback, focusing on the improvement of the writing and speaking abilities of the students.

Following this, two ESP projects language in the workplace by Catherine Nickerson and Writing in Your Field with Corpora by Maggie Charles helped me to outline my ESP project. The first work explains the importance of the participants` needs while developing the ESP project and it focuses on business communications so the students benefit in terms of contents-related communication. The second work focuses on the role of corpora in developing business-specific vocabulary and writing skills, which is important for students struggling with word choice and sentence structure in business-related content. These two works helped me to focus on the main key elements of developing a business-related ESP project by matching the students' needs.

ESP Context Selection

- The chosen ESP course is Business English.

Description of ESP Context

The number of course participants is 14 and they are final-year students of the University of Business and Science in Tashkent. The ages of the participants are between 22 and 24. Their level is B2 according to the CEFR and they can use English in daily conversation. All of them are Uzbek by nationality and their first language is Uzbek. Some of them can speak in Russian as well but they cannot write and read appropriately in this language. Furthermore, most of them are from regions and varied families, some of them are from high-class families whereas others belong to middle-class families.

Each student has a varied background in language. Some participants have studied English for a year, while others have struggled for two years or more. Although they have reached a B2 level, they struggle with using proper grammar in both writing and speaking, and they have a general understanding of grammar but less practice with productive skills but the participants have a better understanding of reading and listening domains.

Regarding reading and listening comprehension, the participants have comprehensive receptive skills and they can understand even complicated reading passages and conversations while listening. However, they have problems with productive skills. They have less practice with writing and speaking. The main issue is difficulty in finding the right words, forming sentences or expressing oneself clearly while producing speech whereas, when they write the structure is confusing, making it difficult for the reader to follow the ideas.

The participants of the course should focus on improving their productive skills and the use of correct grammar rules while writing and speaking, including, grammar, word choice and appropriate sentence structure. Improving these aspects of the language can help them achieve their aim by taking ESP courses.

Selected ESP Course Examples

1. Language in the Workplace by Catherine Nickerson.

2. Writing in your field with corpora by Maggie Charles.

I chose Language in the Workplace by Catherine Nickerson. Because it is also specialized for small groups and matches participants' needs. The example discusses the matched needs of the students for business-related international communication. Furthermore, the course is relevant for the content because it offers an understanding of how ESP classes can be made appropriate and relevant while there are time limitations and students` different levels of English competence. As my students are struggling with productive skills the chosen ESP project helps me to develop my ESP project. In addition, the information about students is collected by individual interviews in the chosen project so it helps me to identify how individual data collection by interviews is important concerning the needs of participants of the ESP course.

The latter ESP course is Writing in Your Field with Corpora by Maggie Charles. This project is more about using the Corpora in the ESP context. This project helps me to introduce the use of business-related vocabulary in different genres such as spoken magazines, fiction, academic or non-nonacademic. As my students have problems with word choice and sentence structure this project totally helps me to match my students' needs while developing my ESP

context for Business English. Moreover, the role of corpora can be irreplaceable while learning the specific vocabularies in industry reports, company websites, meeting minutes or business emails.

Needs Analysis Quantitative: Questionnaires and surveys.

(“Nega bezovta qildiz?” yoki “Kim kerak?” kabi gumon semasi), biror qabul jarayonida navbatingiz kelganda qabuldagi shaxs “Keling!” deyishi (“Siz navbatdagi mijozsiz!” semasi) Sintaktik birlik hisoblangan gap – turli nutqiy muhitda turli illokutiv kuchga ega ekanligidan darak bermoqda. Muhit yoki makon kommunikativ jarayonda lisoniy birliklarining muloqot mavzusini, nutqiy harakat mazmunini belgilab beradi. Demak, bozor munosabatlarida muhit va nutqiy harakat mazmuni bilan bog‘liq element hisoblanadi. Agarda shunday bog‘liqlik bo‘lmaganda, iste’molchiga sotuvchining muloqot maqsadini, u bajarayotgan nutqiy harakat mazmunini anglash qiyin bo‘lar edi. Bir narsani tan olishimiz kerak, har qanday sintaktik birlikning turli pragmatik ma’no anglatishi chegaralangan bo‘lib, uning illokutiv kuchi muloqot maqsadini ifodalash imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Aytmoqchi bo‘lgan fikr – har qanday sintaktik birlik o‘z ma’nosida yoki ko‘chma ma’noda pragmatik sema anglatish muhiti bo‘ladi. Ana shu muhitga qarab muloqotning davom etishi yoki etmasligi illokutiv jarayonning keyingi bosqichga o‘tish masalasini hal qiladi. Sotuvchining lingvistik va paralingvistik birliklarni to‘g‘ri qo‘llashga tayyorligi nutqiy aktning barcha jarayonlari yakunlanishiga xizmat qiladi. Bu sotuvchi uchun ham iqtisodiy daromad olib keladi.

Reklama matnlari ko‘pincha undov va emotsional ta’sir orqali auditoriyani harakatga undashga qaratiladi. Lingvist olim Geoffrey Leech (1983) reklama nutqida ishlatiladigan emotsional frazalarning illokutsiyaviy kuchini o‘rgangan.[9] Misol uchun, “Ishonchli, xavfsiz va sifatli!” kabi iboralar mahsulotning afzalliklariga kuchliroq ta’sir qilish uchun ishlatiladi. Bu esa iste’molchini mahsulot haqida ijobiy fikrlashga olib keladi.

Pragmalingvistlarning o‘zlari e’tirof etganlaridek, “perlokutiv akt illokutivdan farqli o‘laroq, lisoniy hodisa emas, chunki biror - bir perlokutiv natijaga hech qanday nutqiy harakatni bajarmasdan turib ham erishish imkoni bor” (Searle, Vanderveken 1985: 12). Perlokutsiyaning lisoniy tahlil doirasiga kirmasligini J.Lich ham qayd etadi: “Perlokutiv natija tahlili pragmatikaning vazifasiga kirmaydi, chunki pragmatik ta’sir kuchi (nutqiy harakatning – Sh.S.) maqsadi bilan bog‘liq, natija bilan emas” (Leech 1983: 203).[2.203]

Xulosa. Reklama diskursining pragmatik xususiyatlari reklamaning samaradorligini belgilaydi. Nutq aktlari, emotsional va undovchi iboralar, madaniy moslashuv va vizual vositalar yordamida reklama matni auditoriyaning e’tiborini tortadi va mahsulotga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Shu bilan birga, reklama diskursining pragmatik xususiyatlari iste’molchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lib, reklama matnining nutqiy va vizual komponentlari orqali mahsulotning xotirada qolishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blommaert, J., & Bulcaen, C. (2000). Critical Discourse Analysis. Annual Review of Anthropology.
2. Sh.Q. Jumaqulova. PRAGMATIKADA NUTQIY AKT TASVIRI .// “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya// https://www.in-academy.uz/index.php/zdif/article/download/3703/3324
3. Myers, G. (1994). Words in Ads. Edward Arnold.
4. Meyyer, M., & Johnson, T. (2004). Pragmatics and Advertising: A Study of Language Use. Cambridge Scholars Press.
5. Levinson, S. C., & Brown, P. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
6. Cook, G. (2001). The Discourse of Advertising. Routledge.
7. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.
8. Searl, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.
9. Leech, G. N. (1983). Principles of Pragmatics. Longman.
10. Abdullayev Begzodbek Xoldaraliyevich. (2024). Bozor munosabatlarida nutqiy aktning o‘rni. Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 2(2), 477–486.

Ozoda ANORQULOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

IBORALARDA “OILA” KONSEPTINING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklar sanaladigan iboralarda “oila” konseptining voqelanishiga doir lingvistik tahlillar amalga oshirilgan. Iboralar xalqning milliy-madaniy hayotiga doir muhitni o‘zida juda yorqin tarzda namoyon etadi. Maqolada “oila” konseptini shakllantiruvchi konseptosfera birliklar ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *konsept, ibora, oila, qarindosh-urug‘, farzand, nor.*

Аннотация: в данной статье проведен лингвистический анализ реализации понятия “семья” в словосочетаниях, в которых перечисляются фразеологизмы. Фразы очень ярко отражают в себе атмосферу национально-культурной жизни народа. В статье также перечислены концептосферные единицы, формирующие понятие «семья».

Ключевые слова: *понятие, фраза, семья, родственник, ребенок, нар.*

Annotation: in this article, linguistic analysis of the reality of the concept of “family” was carried out in phrases in which phraseological units are counted. Phrases show the atmosphere of the national-cultural life of the people in a very vivid way. The article also cites conceptuospheric units that form the concept of “family”.

Keywords: *concept, phrase, family, kin-seed, child, nor.*

O‘zbek tilida iboralar sermahsul, shu sababli “oila” konseptini ifodalab keladigan iboralar ham talaygina. Ular so‘z birikmasi yoki gap shakliga hamda mazmun planiga ega birliklar bo‘lib, bevosita oila, uni tashkil etish tuzilmasiga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan, oilaning asosi nikoh qurish bilan boshlanadi. Shunga muvofiq nikoh bilan bog‘liq iboralar quyidagilarni tashkil etadi:

Bir yostiqqa bosh qo‘ymoq. Mazkur ibora mustaqil leksemalardan tashkil topgan bo‘lib, ma’lum bir butunlik qism orqali ifodalanib, gapga teng birlikni hosil qilmoqda. Aksariyat hollarda ibora shakli u ifodalamoqchi bo‘lgan mazmunga mos kelmasligi mumkin, ya’ni tarkibdagi leksemalar alohida holda boshqa, kontekstda esa boshqa ma’noni tashishga xizmat qiladi. Ushbu iborada esa yostiq va bosh qo‘ymoq leksemalari qaysidir ma’noda nikohni anglatadi. Semantik jihatdan ushbu ibora monosemiya hosil qiladi, chunki undan faqat oila qurishga nisbatan foydalaniladi. Keltirilgan iboraning ichki semantik qurilishi gapga teng bo‘lganligi uchun uni tuslashning imkoni yo‘q, u (shu shakldagi boshqa iboralar ham) III shaxs formasida turibdi, fe’l esa o‘timsiz shaklga ega. Unda ishtirok etgan ot komponentlar esa jo‘nalish kelishigi asosida turlangan. Mazkur iboraning sinonim variantlari: *boshini qovushtirmoq, boshini ikkita qilmoq, turmush qurmoq, oila qurmoq*; **antonim varinatlari**: *so‘qqabosh qolmoq;* **omonim varianti:** *bir yostiqqa bosh qo‘ymoq (o‘z ma’nosida);* **paronim variant**: *yostiqqa bosh qo‘ymoq (o‘z ma’nosida).*

Iboralarda variantlashuv masalasi ham mavjud. Unga ko‘ra bir ibora boshqasi bilan bir xil shaklga, mazmunga ega bo‘lishi yoki bir iboradan boshqasi o‘sib chiqqan bo‘lishi mumkin. Masalan**,** *boshini ikkita qilmoq* iborasining *bir boshini ikki qilmoq, bitta boshni ikkita qilmoq, boshini qovushtirmoq, boshlarini qovushtirmoq* kabi varinatlari mavjud. Keltirilgan variantlar turli tarkibiy o‘zgarishlar sababli *boshni ikki qilmoq* iborasidan o‘sib chiqqan. Ularda o‘zgarishlar mavjud bo‘lsa-da, nutqiy, stilistik belgilari farq qilishi-qilmasligidan qat’i nazar asosida aynan bir mazmun bo‘ladi, sababi o‘sib chiqqan variant tarkibidagi umumiy so‘z asos vazifasini bajaradi. Umuman olganda, variantlashish natijasida bir ibora boshqa iboraga aylanib qolmaydi, aksincha, shu iboraga xos yaxlitlik saqlanib qolinadi. Faqatgina ibora tuzilmasidagi leksik-grammatik birliklar variantlilik hosil qiladi. Yuqoridagi variantdoshlarda esa dona son yasovchi (ta) qo‘shimcha-komponent, qovushtirmoq so‘z-komponent qo‘shilgan, ba’zilarida esa bu birliklar tushirib qoldirilgan. Bu holatlarni iboralarda leksik, grammatik almashtirish deb atash mumkin bo‘ladi.

E’tibor berilsa, keltirilgan iboralarning aksariyati orttirma nisbat qo‘shimchasi orqali hosil qilingan. Ya’ni bir harakat boshqa bir shaxs tomonidan bajartirilishi nazarda tutilsa, oila qurishda ham uchinchi shaxslarning ishtiroki, o‘rni nihoyatda muhim bo‘ladi. Odatda, yoshi katta kishilar aralashuvi bilan sovchilik, to‘y harakatlari amalga oshiriladi. Shu mohiyatga tayanib “boshini qovushtirmoq” kabi ibora shakllari hosil bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Xullas, “bir yostiqqa bosh qo‘ymoq” iborasi ikki insonning birgalikda hayot kechirishi, oila qurishiga nisbatan aytiladi, shoir Matnazar Abdulhakimning quyidagi misralarida yuqorida izohlangan iboradan mohirona foydalanilgan**:** ***Ikki boshga oshiq bir yostiq, Bir yostiqqa oshiq ikki bosh. Bir yostiqqa bosh qo‘ydik, bu dard, Unuttirar hijron ozorin***. [1]

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da 50 ga yaqin “oila” konseptiga doir iboralar uchraydi[2]. Ular orasida oila qurishga tayyor yigit yoki qizlarga nisbatan qo‘llaniladiganlari, onaga, otaga tegishlilari, o‘zaro munosabatlarni aks ettirganlari mavjud. Masalan, turmush qurishga tayyor

[1] Matnazar Abdulhakim. Muhabbatdan boshqa shafqatlar — zulm…& O‘tkir Rahmat. Tiniq tuyg‘ular kuychisi | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)

[2] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1978. – Б.407.

deb hisoblanadigan qizlarga nisbatan *“balog‘atga yetmoq”, “bo‘y yetmoq”, “bo‘yiga yetmoq”, “er yetmoq”* kabi iboralar qo‘llaniladi**.** *“Bo‘y yetmoq”* iborasi qizning**, “***er yetmoq”* iborasi esa yigitning ham jismoniy ham ma’naviy jihatdan turmushga chiqishga tayyor ekanligini anglatadi. Mazkur iboraning ham ifoda shakli mazmun planiga bir muncha mos keladi. Shaklan gapga teng bo‘lgan birlik mazmunni yaxlitlasa, ibora bo‘ladi, biroq har bir mustaqil leksema o‘z ma’nosini saqlasa, so‘z birikmasi hosil qilib, bo‘yi baland joyga yetdi (o‘z ma’nosida) deya tushuniladi. Mazkur holat iboraning omonimlik xususiyatini hosil qiladi**.** *“Bo‘yi yetmoq”* va *“balog‘atga yetmoq”* iborasi o‘zaro sinonimlik hosil qiladi. Bu yerda variantlashuv hodisasi ham mavjud bo‘lib, ular bo‘y va balog‘at leksemalari, -ga jo‘nalish kelishigining almashinishi natijasida boshqaruvli munosabat hosil qilmoqda. Mazkur iborada bo‘y so‘zi asosiy leksema sanaladi va qizning nafaqat bo‘yining o‘sishi, balki yoshi oila qurish darajasiga yetgan qiz ma’nosi ifodalangan. Balog‘atga yetmoq iborasida esa mazmun biroz boshqacharoq, uni yigitga ham qizga ham nisbatan qo‘llash mumkin, asosan, genetik jihatdan yetilish mazmuni hukmronlik qiladi. O‘zbek oilalarida farzandining turmush qurishini istayotgan ota-onalar, albatta, kelin yoki kuyovning har tomonlama sog‘lomligiga alohida e’tibor qaratadi. Chunki tug‘ilajak farzand, naslning davomi, avlodning sog‘lomligi otaning, ayniqsa, onaning jismoniy salomatligiga bevosita bog‘liq.

Iboralarda ham farzand, uning tug‘ilishi bilan bog‘liq holatlar ham mavjud. Jonli muloqotda, qolaversa, adabiy tilda ham ulardan keng foydalaniladi. Oilada farzandning tug‘ilishi *“dunyoga kelmoq”,* onaning farzandini dunyoga keltirishi esa *“ko‘zi yorimoq”, “qaroz qilmoq”* iboralari bilan ifodalanadi. “Dunyoga kelmoq” iborasi shakl va mazmun birligidan tashkil topib, gapga teng birlik sanaladi. Uning sinonimlari **–** *“Olamga kelmoq”, “Olam yuzini ko‘rmoq”,* antonimlar **–** *“Olamni tark etmoq”***, “**Dunyodan o‘tmoq”, omonimi – biror fikr, yangi g‘oyaning tug‘ilishiga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘ladi. Mazkur ibora -tir orttirma nisbat shakli orqali variantlar hosil qiladi (dunyoga keltirmoq), shuningdek, sodda va murakkab morfemalardan tashkil topib, ikkita mustaqil leksema asosida yangi tug‘ilgan go‘dak yoki uning onasiga nisbatan aytiladi.

“Ko‘zi yorimoq” iborasi endigina farzandini dunyoga keltirgan ayolga nisbatan aytiladi. Uning *“Ko‘z yormoq”* varianti ham bor, ularning mazmun plani aynan bir xil. Shakliy tuzilishda sodda va murakkab morfemalardan tashkil topgan. Aytish mumkinki, ikkala ibora ham bir asosdan o‘sib chiqqan. Egalik qo‘shimchasining qo‘llanilishi yoki tushirilib qolishi bilan farqlanadi hamda frazeologik polisemiyani tashkil etadi. Uzoq davom etgan kasallikdan tuzalgan kishiga nisbatan ham ushbu iborani qo‘llasa bo‘ladi. Farzandni dunyoga keltirish ma’nosi iboraning bosh ma’nosi bo‘lsa, qolganlari esa yasama (hosila) ma’no hisoblanadi. Aytish joizki, o‘zbek tilida ko‘z tana a’zosi ishtirokida juda ko‘p iboralar shakllangan. Masalan, uzoq vaqt ko‘rmagan insonni ko‘rish, ko‘p hollarda uzoq safardan qaytgan insonlarning qavm-qarindoshlariga *“ko‘z oydin”* (ko‘rganidan xursand bo‘lganlik) deb aytish odat tusiga aylanib qolgan. Ma’lumotlarga qaraganda insonning ko‘zlari miyani boshqarish xususiyatiga ega bo‘lgan eng muhim, nozik va qadrli tana a’zosi hisoblanadi. Qolaversa, mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, odamning ko‘ziga uning ichki energiyasi, sog‘lig‘i, mehri, atrof-muhit va yaqinlariga nisbatan qiziqishi go‘zallik, jo‘shqinlik baxsh etib turadi. Ota-onalar tomonidan o‘z farandlari *“Qora ko‘zim”, “ko‘zimning oq-u qorasi”, “Ko‘zimning nuri”, “ko‘z gavharim”* deya erkalatiladi. Bundan bilish mumkinki, farzand insonga ko‘z kabi aziz, qadrli va sevimlidir. Farzandsiz hayot zulmat, xuddi so‘qir ko‘z qorong‘ulik va mavhumlikni ko‘rgani kabi. Ko‘z bilan bog‘liq iboralardan yana biri *“ko‘z ostiga olmoq”* yigit-qizning o‘zi yoki ota-onasi, yaqin qarindoshlari tomonidan o‘ziga munosib deb bilgan juftga nisbatan qo‘llaniladi: *Farzandlarini uylantirmoqchi edi,* ***ko‘z ostiga olib qo‘ygan*** *qizlar bor edi, nasib qilmagan ekan… (Muhammad Ismoil. “Qoraqurt” hikoyasidan).* Taomilga ko‘ra nikoh taklifi birinchi bo‘lib yigit tomonidan amalga oshiriladi, shu bois ushbu ibora ko‘proq yigit va uning qarindoshlari tomonidan qo‘llaniladi. Ushbu holatda *“og‘iz solmoq”* iborasini ham uchratish mumkin, u nikoh taklifi bilan qizga murojaat qilishni anglatadi.

Xullas, iboralarda oila bir-biriga mos tushish, nikoh taklifini berish, farzandli bo‘lish, o‘zaro xushmuomalalik kabi xislatlar tasvirlanadi.

Demak, paremiologik birliklar oila haqidagi milliy, madaniy, aksiologik qarashlarni o‘zida aks ettiradi. Yuqorida paremiyalardan maqol, matal, topishmoq hamda iboralarda “oila” konseptiga xos bo‘lgan birliklarni tahlil va talqin qilishga urindik. O‘zbek xalq askiyalari, loflar va boshqa paremiya turlarida aynan oilani aks ettirishga doirlari deyarli uchramadi. Buning sababi oila, ota-ona, farzandlarning ko‘p hollarda kulguga olinmasligi, askiya qilinmasligi bilan bog‘liqdir. Bu bilan ularda oilaga aloqadorlari umuman yo‘q deya olmaymiz, shunchaki yuqoridagi tahlillar bilan cheklanamiz, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. 379-b.

2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 1966. – 46 б.

3. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 1993. – 47 б.

Nigina SADINOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: niginka_9090@gmail.com



BADIIY MATNDA IRONIYA BAHOLASH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilida hajv ifodalovchi vositalardan biri kinoya (ironiya)ning fikr ifodalash vositasi sifatida paydo bo'lishi tarixi va badiiy matnlarda baholash vositasi sifatida qo'llanishi haqida so'z boradi. Badiiy asar tilida, gap qurilishida til birliklarining ma'noviy o'zgarishlarida, ifoda-tasvir vositalarning idrok qilinishida, personajlar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos shakllarida, shuningdek, til birliklarining ijtimoiy faoliyatdagi vazifalarida ham o'z ifodasini topishi yoritilgan. Tilimizdagi ironiya, so'z o'yini, sarkazm, kontaminatsiya, yumor, satira, askiya kabi bir qator nomlar bilan yuritiluvchi hajv ifodalovchi vositalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *ironiya, kinoya, hajv, so'z o'yini, sarkazm, kontaminatsiya, yumor, satira, askiya, badiiy matn, badiiy asar, baholash vositasi, paronomaziya.*

Аннотация: в данной статье рассказывается об истории появления иронии, одного из средств выражения юмора в узбекском языке, как средства выражения мысли и ее использования как средства оценки в художественных текстах. В языке художественного произведения, в построении предложений значение языковых единиц отражается в восприятии выразительных средств, в конкретных формах общения между персонажами, а также в функциях языковых единиц в общественной деятельности. Средства юмористической выразительности в нашем языке раскрываются под рядом названий, таких как ирония, игра слов, сарказм, контаминация, юмор, аския.

Ключевые слова: *юмор, ирония, сарказм, сатира, игра слов, контаминация, художественный текст, художественное произведение, инструмент оценки, парономазия.*

Annotation: this article tells about the history of the emergence of irony, one of the means of expressing humor in the Uzbek language, as a means of expressing thought and its use as a means of evaluation in fiction. In the language of a work of art, in the construction of sentences, the meaning of linguistic units is reflected in the perception of expressive means, in specific forms of communication between characters, as well as in the functions of linguistic units in social activity. . Means of humorous expressiveness in our language are revealed under a number of names, such as irony, wordplay, sarcasm, contamination, humor, satire, askiya.

Key words: *humor, irony, sarcasm, satire, wordplay, contamination, fiction, literary work, evaluation tool paronomasia.*

O'zbek tilshunosligida hajvni yuzaga keltirish, ifodalash vositalari ma'lum darajada o'rganilgan [1;147]. O'zbek tilida hajv ifodalovchi vositalardan biri kinoya (ironiya) hisoblanadi. Lug'atlarda qayd qilinishicha, kinoya ikki xil ma'noni ifodalaydi: "1. Masxaralash, kulish uchun asl ma'nosidan boshqa, majoziy ma'noda aytilgan so'z, gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi.2. ad. Uslubiy vosita: badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat" [2].

Kinoyaning fikr ifodalash vositasi sifatida paydo bo'lishi tarixi olis davrlarga borib taqaladi. Kinoya (qadimgi yunoncha εἰρωνεία "soxtalik"dan) – asl ma'no yashirin yoki ochiq ma'noga zid (qarama-qarshi qo'yilgan) bo'lgan satirik usul; trop turi: nutq kontekstida so'zlar o'zining to'g'ri ma'nosiga qarama-qarshi tarzda qo'llanilganda kinoya, ayyorona majoz yoki masxarani ifodalaydi [3]. Qadimgi yunon tilidan "kinoya" so'zi "o'zini boshqacha ko'rsatish" deb tarjima qilinadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu ritorik usulning asoschisi faylasuf Suqrot bo'lgan. Uning ilmiy munozara olib borish uslubini "o'zini go'llikka solish" iborasi bilan ifodalash mumkin. Kinoyaning eng qadimgi shakli bo'lmish o'zini boshqacha ko'rsatish ana shundan iborat edi [4]. Mavjud lug'atlarda kinoyaviy fikr ifodalashning to'g'ridan to'g'ri kinoya, o'z-o'zini mazax qilish – shaxsning o'ziga qaratilgan kinoya, Suqrotcha kinoya – maevtikada keng qo'llaniladigan suhbatdoshning bilimsizligini fosh etish usuli, postkinoya – samimiylikni kinoyadan ajratish qiyin bo'lgan hajviy usul kabi turlari mavjudligi qayd etiladi [5].

Shuni qayd etish lozimki, til strukturasida, uning lisoniy qurilishidagi o'zgarishlar, lug'at va frazeologiya tarkibidagi semantik jihatdan yuzaga keluvchi turli siljishlar, nutq yo'naltirilgan shaxsga bo'lgan munosabatni ifodalashda kinoya usulidan foydalanish badiiy matnlarda personajlar nutqida mujassam bo'ladi. Bunda albatta, personajlarning hajv, kinoya bildiruvchi til birliklarini qo'llash mahorati ularning ma'naviy olami, ruhiyati tasvirida muhim o'rin egallaydi. Personajlar nutqida qo'llanilgan kinoyaviy mazmun ifodalagan birliklarda ular yashagan davrga, ijtimoiy tuzumga bo'lgan munosabatni, amalda bo'lgan tilning o'ziga xos

xususiyatlari o‘z aksini topadi. Ular badiiy asar tilida, gap qurilishida til birliklarining ma’noviy o‘zgarishlarida, ifoda-tasvir vositalarning idrok qilinishida, personajlar o‘rtasidagi muloqotning o‘ziga xos shakllarida, shuningdek, til birliklarining ijtimoiy faoliyatdagi vazifalarida ham o‘z ifodasini topadi. Shunisi ma’lumki, tilimizdagi ironiya, so‘z o‘yini, sarkazm, kontaminatsiya, yumor, satira, askiya kabi bir qator nomlar bilan yuritiluvchi usullarning mavjudligi badiiy matnlarda fikrlarni badiiy tarzda ifodalash imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi. O‘zbek tilida hajvni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri kontaminatsiya hisoblanadi. Kontaminatsiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi “chatishish, qo‘shilish” (skrishavaniya) bo‘lib, lingvistik jihatdan yangi so‘z, yangi ma’no hosil qilish bilan bevosita aloqadordir.

Ma’lumki, tilda kompozitsiya usuli bilan ham yangi so‘z va yangi ma’no hosil qilinadi. Ammo kontaminatsiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, birinchidan, kontaminatsiyada so‘zning tovush kompleksi o‘zgarmaydi, ya’ni so‘zning tashqi formasi, o‘xshashligi bir xil bo‘ladi. Ikkinchidan, kontaminatsiyada qo‘shilish hodisasi yuzaga keladi, natijada so‘zning semantik strukturasida o‘zgarish yuz beradi, leksik bo‘yoq hosil bo‘ladi. Shu boisdan tilshunoslikda kontaminatsiya hodisasini leksik kontaminatsiya (leksicheskaya kontaminatsiya) nomi bilan atashadi. Uchinchidan, bir xil bo‘lsa ham, ammo so‘zning talaffuzi ikki xil bo‘ladi. To‘rtinchidan, kontaminatsiyada so‘zning formasi sintetik yoki analitik kabi sintaktik hodisani eslatadi [6;54]. Badiiy adabiyotda bu usulni qo‘llashda matnda alohida bir so‘zga e’tibor qaratiladi va uning ma’nosiga asoslangan holda kinoya yuzaga keltiriladi. Masalan, Tohir Malikning “Tilla kalamush” asarida shunday parcha keltirilgan: *“Sotsialistik musobaqa”degan olishuv bu qishloqlarga ham yetib kelgan. Dastlab “musobaqa o‘ynalsin”, degan farmoyish kelganda hamma hayron edi: “Toshbaqani bilardik, qurbaqani bilardik. Muso degani kim bo‘ldiykin, uning baqasi qanaqa baqa ekan, nega endi biz uning baqasini o‘ynashimiz kerak, o‘zimizda ham baqalar bor-ku?”Keyin ma’lum bo‘lishicha, Musoning bunaqa baqasi bu atroflarda yo‘q ekan. Uning ismi-sharifi – “sotsialistik”ekan, Maskov tomonlardan olib kelinarkan. Yillar o‘tib, odamlar Musoning sotsialistik baqasisiz turolmaydigan bo‘lib qolishdi. Urushdan keyingi qaysi bir yili, kimningdir to‘yida Salimbuqoq “Musoning baqasi naq esimizni teskari qilib yuboryapti. Isoning baqasi ham kelib qolsa, enamizni ko‘ramiz shekilli?”degan edi ikki kundan keyin milisaxonaga olib ketishdi. Xotini “Erimni qayoqqa olib ketyapsizlar?”deb so‘ragan edi, “eringga Isoning baqasini ko‘rsatib qo‘yamiz”, deyishdi. Aldashmagan ekan, Isoning baqasini ko‘rib kelsin, deb Solimbuqoqni Sibirga jo‘natishdi. Sibirning sovuq o‘rmonlarida Isoning baqasini ko‘rish Salim-buqoqqa nasib etdimi yo yo‘qmi, noma’lum, lekin enasini ko‘rdiyov, qaytib kelmadi.*

Matnda kuzatilishicha, muallifning asosiy e’tibori “musobaqa” so‘ziga qaratilgan va so‘z o‘yini vositasida kinoyaviy holat yuzaga keltirilgan. Matndan shuningek, o‘sha davrda hukm surgan tuzumni fosh qilishga ishora ham sezilib turibdi. Yana bir holatni qayd etib o‘tish lozim nazarimizda. Hajviy tili va uslubi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan, ya’ni unda Tohir Malik asarda voqealar tafsilotini berishda hikoyachilikka berilmaydi, balki voqealar rivojini o‘z holiga qo‘yadi. Shunisi xarakterliki, asarda voqealar muallif ishtirokisiz sodir bo‘ladi, qahramonlarning qanday davrda yashayotganligi, kim ekanligi, ularning voqealar tizimida qay darajada ishtirok etishi kitobni o‘qish jarayonida asta-sekinlik bilan oydinlashib boradi. Ularni tanishtirish vazifasi personajlar tomonidan amalga oshiriladi. Professor S.Karimovning yozishicha, “Ironiya ham badiiy va so‘zlashuv uslubida keng qo‘llaniladigan stilistik usuldir. Bunda nutq muallifining boshqa bir shaxsga, narsa, predmet va hodisaga bo‘lgan salbiy munosabati tildagi aytaylik, hayvon, it, ho‘kiz, eshak, ablah, iflos, yaramas singari vulgar so‘zlar bilan emas, balki muloyim, odatdagi so‘z yoki iboralar, gaplar yordamida ma’lum qilinadi. Ammo bunda til birliklari o‘z ma’nosida ishlatilmaydi, balki ular, aytish mumkin bo‘lsa, butunlay teskari ma’noni beradi. Bunday paytda so‘zlovchi tomonidan munosabat bildirilayotgan obyektga unda bo‘lmagan fazilatlar yopishtiriladi, ba’zan haddan tashqari maqtaladi, tinglovchi yoki o‘quvchi bu fazilatlarning tasvir obyektida yo‘qligi uchun ham beixtiyor kulishga majbur bo‘ladi. Lekin ironiyalar hamma vaqt ham kulgi tug‘diruvchi vosita sanalmaydi. O‘ta jiddiy, alamli ta’sir qiladigan vaqea-hodisalar ham badiiy asarda kinoyaviy tarzda berilishi mumkin” [7;33]. Olimning fikrlari to‘g‘riligini yuqorida keltirilgan misol ham tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Ш.А.Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар. Филол. фан. номз. дис. – Тошкент, 1997. 147 б.
2. https://izoh.uz/uz/word/kinoya
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Ирония
4. https://www.culture.ru/s/slovo-dnya/ironiya/
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Ирония
6. Юсупов К. Ўзбек адабий тилида контаминация. Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. №6.-Б.54.
7. Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. Б.32-33.

Hakim AHMEDOV,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi, f.f.d. PhD



ALPOMISH DOSTONIDA ONOMASTIK GURUHGA MANSUB MIFOTEONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alpomish dostonida qo‘llanilgan diniy komponentli barqaror qurilmalar va ularning semantikasi, o‘zaro munosabati, dostonda qo‘llanilgan frazeologik birliklarning tabiati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *umumilliy til unsurlaridan tarkib topgan mifik va diniy mazmunli frazeologizmlar, ekzotik leksikaga mansub teonim komponentli diniy barqaror birikmalar, holat bilan bog‘liq frazeologizmlar, faoliyat bilan bog‘liq frazeologizmlar.*

Annotation: this article studies the stable devices with a religious component used in the Alpomish epic, their semantics and their relationship, the nature of phraseological units used in the epic.

Keywords: *phraseologisms with mythical and religious content consisting of elements of the national language, religious stable combinations with a theonym component belonging to exotic lexicon, phraseologisms related to the situation, phraseologisms related to activity.*

Аннотация: в данной статье изучаются устойчивые средства с религиозной составляющей, используемые в саге об Алпомиш, их семантика и взаимосвязь, характер фразеологизмов, используемых в саге.

Ключевые слова: *фразеологизмы мифологического и религиозного содержания, состоящие из элементов национального языка, религиозные устойчивые сочетания с теонимическим компонентом, принадлежащие к экзотической лексике, фразеологизмы, связанные с ситуацией, фразеологизмы, связанные с деятельностью.*

Insoniyat tafakkurining ilk mevasi bo‘lgan miflar va ular majmuasi – mifologiyani o‘rganishga bo‘lgan harakatlar so‘nggi asrlarda benihoyat ortdi. Jahon adabiyoti va san’atining yirik vakillari davr muammolari, ziddiyatlar, inson dunyoqarashining murakkabligi, xarakteri, ruhiyatini ifodalash uchun qadimiy miflarda bayon etilgan voqea-hodisalar, mifologik obrazlarga qayta-qayta murojaat qilmoqdalarki, bu umumjahon dostonchiligining tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zbek dostonchiligi misolida ham tobora kuchayib bormoqda[1].

Ilmiy manbalarda “mif” atamasi yunoncha “mithos” – *afsona, rivoyat, asotir* degan ma’noni anglatishi ta’kidlanib, odamlarning koinot va uning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘zida ifodalovchi qadimgi ibtidoiy tasavvurlari majmuidir.

Fanda *mif strukturasi, mifologik struktura* terminlari ilk bora fransuz antropologi K. Levi-Stross va rus tilshunos faylasufi A.A. Potebnya tomonidan tushuntirib berilgan[2]. Bu o‘rinda doston syujetiga xos mifik unsurlarni pog‘onama-pog‘ona – yaxshi-yomon konsepsiyasi asosida joylashtirib, tasniflab o‘tarkanmiz, “Alpomish” dostonining boshqa variantlaridan farqli, mazkur mifologik strukturaning Abdunazar baxshining olamni ko‘ruvdagi o‘ziga xos konstruksiyani yaratganligini alohida ta’kidlab o‘tamiz.

Mifologik komponentli iboralar ham ushbu komponentning hosil bo‘lish maqsadi, mifonimlashish jarayoniga ko‘ra, yana bir qancha turlarga bo‘linishi mumkin: **1) agionim komponentli frazeologizmlar; 2) mifoantroponim komponentli frazeologizmlar; 3) demonim komponentli frazeologizmlar; 4) mifozoonim komponentli frazeologizmlar; 5) mifotoponim komponentli frazeologizmlar.**

Agionim komponentli frazeologizmlar. Payg‘ambarlarning ismlari agionimlarning asosiy qismini tashkil etadi. “Payg‘ambar” so‘zi forscha bo‘lib, “payg‘om” – xabar, “burdan” – keltirmoq, ya’ni “xabar keltiruvchi”, “elchi” ma’nolarini bildiradi. Diniy adabiyotlarda, xususan, Qur’on va hadislarda payg‘ambarlarga nisbatan “nabi” va “rasul” so‘zlari qo‘llangan.

Bundan tashqari dostonda ko‘p qo‘llangan teonim komponentli frazeologik birliklar orasida islomiy qarashlar tasnifida shakllangan “pir” komponentli frazeologik birliklar ham talaygina bo‘lib tasavvuf ta’limotida *pir* va *pir tutish* tushunchasi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. “Alpomish” dostonida pirlarga bo‘lgan munosabat, ularga bo‘lgan ishonch, qiyin holatlarga tushib qolganda ulardan madad so‘rash tasvirlari ko‘plab o‘rinlarda uchraydi.

Pir (fors. – keksa, qari) – sufiylik an’anasida tariqatlarn-

1 Madiyorov Sh.K. On the statistics of onomastic networks in the lexicon of Khorezm dastans. SEPRA International Journal of Research and Development (IJRD).Volume: 7 | Issue: 5 | May 2022 — https://epra-journals.com/IJSR/article/6954 (August, 2022)

2 Qarang: Ставицкий А.В. Структура мифа по к. Леви-Строссу: опыт несостоятельного / Вопросы психолингвистки 1 (35) 2018; Леви-Стросс К. Мифологики. В 4-х тт. Т.4. Человек голый. М., 2007. 784 с. Леви-Стросс К. Структура и форма. Размышления над одной работой Владимира Проппа // Зарубежные исследования по семиотике фольклора. М., 1985. С. 9-34. Леви-Стросс К. Структурная антропология / Пер. с фр. Вяч. Вс. Иванова. – М.: ЭКСМО-Пресс, 2001. – 512 с.

ing oliy rahnamolari yoki obroʻli rahnamolar. Shuningdek, har bir murid oʻz murshidini ham pir deb atagan. Xalq orasida “pir” tushunchasi boʻyicha ikki xil qarash mavjud:

1. Avliyo, ma’lum bir hunarning asoschisi ma’nosida ham ishlatiladi[1]. Yuqorida ta’kidlab oʻtilgandek *“pir”* tushunchasi xalq orasida keng tarqalgan boʻlib, har bir kasb-hunar egasining piri bor degan tushuncha kishilar orasida ilgari surilgan. Xususan, pirlarga e’tiqod qilish ularga hurmat bajo keltirish xalqning e’tiqodiy qarashlari va kasb-kori negizida paydo boʻlgan jarayondir. 2. Xalq orasida payg‘ambarimizning avlodlari boʻlgan saidlarga nisbatan ham e’tiqod nuqtayi nazaridan “pir”, “pirimiz” jumlasi qoʻllanilinadi. Jumladan, dostonda – *pirlar madad bermoq* (33), *Pirini yod qilmoq* (309), *Pirlarga sig‘inmoq, Yo pirim demoq, To‘qqiz pirdan duo olmoq* (391), *Shohimardon pirim qo‘llasin* (335), *Aylanay taxti Sulaymon pirim* (335), *Hazrati Jaltanga sig‘inmoq* (277) kabi pir bilan bog‘liq boʻlgan frazeologik birliklar faol ishtirok etgan. Masalan,

Sozlanib kelar G‘uncha
O‘zi ziyod parilardan
Badani toza qordan
Duo olgan to‘qqiz pirdan (391)

Dostonda *to‘qqiz pirdan duo olmoq* iborasida G‘uncha kelinning farzand istab ilohiy avliyo pirlarga e’tiqod qilib, ularning mozorini ziyorat qilish nazarda tutilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan baxshi to‘qqiz pir deb Buxorodagi yetti avliyo pirga (1. Xoʻja Abduxoliq G‘ijduvoniy; 2. Xoʻja Orif Regvariy; 3. Xoʻja Mahmud Anjir Fag‘naviy; 4. Xoʻja Ali Romitaniy; 5. Xoʻja Muhammad Boboyi Samosiy; 6. Xoʻja Said Amir Kulol; 7. Xoʻja Bahouddin Naqshband va Surxondaryodagi ikkita avliyo pir (8. Muhammad Zohid hazratlari – Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida; 9. Alauddin Attor hazratlari – Denov tumanida)ga ishora qilganligini ta’kidlab oʻtadi. Bundan tashqari pir tushunchasi yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalq orasida avliyo, ma’lum bir hunarning asoschisi ma’nosida tushunilishdan tashqari Oʻzbekistonning janubiy viloyatlarida xususan, Surxondaryoda said, eshonlarga nisbatan ham “pir” atamasi qoʻllanilib kelinadi

Mifoantroponim komponentli frazeologizmlar. Tahlillarimiz davomida dostonda uchraydigan mifologik qahramonlarning ijobiy va salbiy xarakterdagi nomlari mavjudligini kuzatdik. Xususan, “Alpomish” dostonida farzandning tug‘ilishi, unga ism berilishi bilan bog‘liq o‘rinlar qisqa satrlarda aytib ketilgan boʻlsada, u doston syujetida muhim ahamiyatga ega. Doston qahramoni *Hakimbek yetti yoshga to‘lganda Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon parli yoyni otgani uchun “Alpomish” deb* nom olgan*: “Shunda barcha xaloyiqlar yig‘ilib kelib aytdi: ...bu Alpomish alp bo‘lsin. To‘qson alpning biri bo‘lib sanaga o‘tdi”.* Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan soʻng qahramonga ikkinchi ism berilgan. Bu birinchidan, shomonning eranlar tomonidan tanlanganligini va ruhiy kamolotga yetganligini bildirsa, ikkinchi tomondan uning boshqa qiyofaga kirganligini, magik qudratga ega boʻlganligini ham koʻrsatgan. Bugungi kunda ham respublikamizning janubiy viloyatlarida ba’zan oilada o‘g‘il farzand tug‘ilsa, uni “orqalik” ekan deb, hamda ins-u jins, har xil yomon ruhlardan asrash maqsadida bolaga dastlab yolg‘on ism beriladi. Agar shunday qilinmasa, u xastalikka chalinishi mumkin degan qarashlar mavjud.

Marosimda magik harakatlar ritual ahamiyat kasb etsa, eposda u badiiy koʻrinishga ega. “Alpomish” dostonida qahramonning tug‘ilishi, homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar bilan jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi ushbu shomonlik marosimiga xos xususiyatlardandir. Arxaik, jumladan, “Alpomish” eposida ham shajaraga alohida urg‘u berilishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya’ni ramziy “o‘lik”lik holatidan so‘ng, qayta tirilib chiqib, Qultoy qiyofasiga kirishi struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz. Bundan tashqari dostonda antroponimlar qatnashgan frazeologizmlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *Hazrati Jaltanga sig‘inmoq* (277), *Cho‘pon ota qo‘ylarga oralamoq* (25) Masalan: – *Maboda birov bilib qolsa, quvsa, kimga sig‘inaman – dedi. Alpomish aytdi: O‘g‘rining piri Hazrati Jaltangga sig‘inasan – dedi* (277) .

Demonim komponentli frazeologizmlar. Onomomastikaga doir ilmiy tadqiqotlarda teonim tushunchasiga yondosh hodisa sifatida *demonizm* termini tilga olinadi. *Demonizm* – yunoncha “daimon” – “ruh”, “jin” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insonlarning yovuz ruhlar, shaytoniy xislatlarini ifodalovchi termin hisoblanadi.

Abdunazar Poyonov ijrosidagi “Alpomish” dostoni frazeologik birliklar orasida *shayton* nomi bilan bog‘liq komponentli frazeologik birliklar ham uchraydi.

“Shayton” arabcha so‘z bo‘lib, islom, xristianlik va boshqa dinlarning ta’limotlariga ko‘ra, yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig‘i, dunyodagi yovuzliklarning aybdori, odamlarni gunohga yetaklovchi kuch. Shayton to‘g‘risidagi tasavvur “satanas” shaklida yunon tilidan xristian adabiyotiga, undan Yevropa tillariga, “satana” shaklida rus tiliga o‘tgan.

Alpomish dostonida *Shayton* komponentli quyidagi frazeologizmlar uchraydi: *shayton shobiriga tushmoq* (112), *shayton dumini ushlab kelmoq* (118), *shaytonning izmida bo‘lmoq* (147), *shayton jilovini ushlamoq* (153), *shaytonga bo‘la bo‘lmoq* (207), *shaytonlab qochmoq* (434) va h.k.

Ushbu frazeologik birliklarning aksariyati dialektal iboralardir. Ushbu iboralar tilshunosligimizning asosiy bosh lug‘ati “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va boshqa frazeologizmlar izohi berilgan lug‘atlar, ilmiy manbalarda uchramaydi. Quyidagi matnda ***shaytonning shobiriga tushmoq*** iborasi dialektal xarakter kasb etib, “*shobiriga tushmoq*” – nayrangiga uchmoq, izmiga kirmoq kabi ma’nolarni hosil qiladi.

Qayd etish lozimki, Abdunazar baxshi Poyonov

1 qomus.info > p harfi > pir — https://qomus.info/oz/encyclopedia/p/pir/ (August, 2022)

kuylagan “Alpomish” dostonida teonim komponentli frazeologik birliklarning ma’lum qismi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2 va 5 jildlik lug‘atlar), Sh. Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili frazeologizmlarining qisqacha izohli lug‘ati”da uchramaydi. Ushbu iboralar dialektal xarakterga ega bo‘lib, ularni semantik tahlil qilish dono xalqimizning tafakkuri, ijtimoiy munosabatlari, eng muhimi, tilimizning jozibadorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Dilafruz SAYIPOVA,
SamDUKF “O‘zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



“BOBURNOMA” – ORIGINAL MEMUAR ASAR

Annotatsiya: maqolada “Boburnoma”dagi tarixiy faktlarning haqqoniy aks ettirilishi hamda boshqa tarixiy asarlardan farq qiladigan jihatlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, muallifning obraz yaratish mahorati, asar badiiyligini ta’minlashdagi yuksak iqtidori to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *hukmdor, umaro, memuar, tarixchi, obyektiv, badiiylik, devon, “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, obraz, personaj.*

Аннотация: в статье дается правдивое отражение исторических фактов в “Бабурноме”, а также то, что отличает его от других исторических произведений. Также размышляется о мастерстве автора в создании образа, о его высоком таланте в обеспечении художественности произведения.

Ключевые слова: *правитель, умаро, мемуары, историк, объектив, артистизм, девон, “Хамса”, “Хазоин уль-маони”, образ, характер.*

Annotation: the article gives a true reflection of historical facts in Baburnom, as well as what distinguishes it from other historical works. He also reflects on the author's skill in creating an image, on his high talent in ensuring the artistry of the work.

Keywords: ruler, umaro, memoirs, historian, lens, artistry, devon, “Hamsa", “Hazoin ul-mahoni", image, character.

“Boburnoma” – Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Eron va Hindistonning XV asrning so‘nggi o‘n yilligi va XVI asrning yaqin 30 yillik tarixini qamrab olgan yirik monumental tarixiy-memuar asar ekanligi fanda o‘z isbotini topgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu memuar asarda tarixiy hodisalarni nafaqat kuzatuvchisi, balki bevosita ishtirokchisi sifatida tasvirlaydi. Sharq tarixnavisligining ilg‘or an’analari va jihatlarini o‘zlashtirgan holda asar yozishga kirishgan muallif o‘ziga xos original uslub va yondashuvni namoyon etadi.

“Boburnoma”da davr ijtimoiy-siyosiy holatining tasvirlanishi ma’lum ma’noda tarixiy voqea-hodisalarga bevosita guvoh va ishtirokchi – Boburning nigohlari orqali bayon etiladi. Shu bilan birga, muallif Sharq tarixchiligiga xos xususiyatlarni ham ko‘zdan qochirmaydi. Aytish mumkinki, u tarixni yoritishda o‘z falsafiy mushohadasiga ega ijodkor sifatida yondashadi. O‘rta asrlar Sharq tarixchisi o‘laroq davrga nazar tashlaydi. “Sharq tarix falsafasining o‘ziga xosligi shundaki, unda turli davrlarda hukm surgan podsholiklar va ularning sulolalari tarixiy davri sifatida qabul qilinadi va ana shu davrda yuz bergan barcha voqealar, ma’naviy-axloqiy mezonlar, madaniy va ijtimoiy taraqqiyot bevosita ana shu podsholiklar va ularning sulolalari yurgizgan siyosat asosida o‘rganiladi...” Albatta, bu jihat ham Bobur nasrida o‘z aksini ko‘rsatgan. Bobur o‘z davrining muhim siyosiy hukmdori bo‘lish bilan birga, nozik didli ijodkor ham edi. “Boburnoma”ning ko‘p o‘rinlarida bu jihat yorqin aks etgan. Mazkur masala birinchi galda Boburning tarixni anglashi bilan bog‘liqdir.

Alisher Navoiyning tarixiy qarashlarini izchil tadqiq etgan adabiyotshunos O.Jo‘raboyev shunday yozadi: “Navoiy uchun tarixiy haqiqat bevosita aniq-konkret davr kishilari hayoti va hayot mantig‘idir. Tarixda esa mavhum hodisa yoki tushuncha bo‘lmasligi ma’lum. Tarix ham mantiqan, ham tabiatan aniqlik orqali idrok etiladi va u aniq voqelik natijasida o‘z mazmuni, falsafasi yoki boshqacharoq aytganda, o‘z hukmini ko‘rsata oladi. Navoiyning Ajam podshohlari tarixiga doir asarida ham mana shu haqiqat va mantiqning yuksak darajada bajo keltirilganiga guvoh bo‘lamiz...”. Boburning tarix va tarixiy haqiqatni anglashi hamda taqdim etishini ham aynan shunday ta’riflasak, ham mantiqan, ham tarixan to‘g‘ri bo‘ladi. Bobur o‘ziga xos sifatlarga ega bo‘lgan siymo bo‘lish bilan birga, “U avvalo, o‘z davrining, o‘z sinfining farzandidir, murakkab davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning va g‘oyaviy-siyosiy qarashlardagi, yo‘nalishlardagi ziddiyatlarning mahsulidir. Uning hayoti va faoliyatiga tarixiy-konkret munosabatda bo‘lmay turib, unga to‘g‘ri va atroflicha baho berish mumkin emas”. Shu nuqtayi nazardan, Bobur tarixiy voqea-hodisalarni o‘rganish

va ularga qarashda Navoiyning kichik zamondoshi o‘laroq deyarli bir xil xulosalar berishi muhimdir. Bu har ikki daho ijodkor bir tarixiy davrning butun qirralaridan ogoh va u haqida dohiyona fikr bera oladigan shaxslar edi. Bobur yashagan davr tarix maydonidagi murakkab, keskin va ziddiyatli hodisalarga boy bo‘lib, Bobur mazkur siyosiy-ijtimoiy jarayonda har tomonlama toblandi. Akademik V.Zohidov ta’biri bilan aytganda: “Bobur tarix maydonida paydo bo‘lgan davr juda katta, murakab va ziddiyatli hodisalarga to‘la edi. Boburning ilmiy va adabiy faoliyati ana shu hodisalarga bog‘liq bo‘lib, uning taqdirida o‘sha hodisalar katta rol o‘ynagan”. Chindan ham tadqiq etilayotgan Amir Temur saltanati davri siyosiy holat jihatidan juda murakkab va ziddiyatli davri bo‘lib, umuman Sharq mintaqasida joylashgan hududlar tarixida ham keskin jarayonlar yuz berayotgan edi. Ayni bu davr temuriy shahzodalarning toj-taxt uchun kurashi avj olgan palla hisoblanadi. Aslida bu voqealar hali Amir Temur hayotlik paytidayoq boshlangan edi. Amir Temur valiahd qilgan Jahongirning o‘g‘li Pirmuhammadni katta yer egalari va amirlar tan olmagan va o‘zaro nizolar boshlanib ketgandi. Ushbu qarama-qarshiliklar Amir Temur saroyidagi goh oshkora, goho yashirin tarzda yuz bergan ziddiyatlarda paydo bo‘lgan edi. Saltanat yemirilishiga jiddiy asos bo‘luvchi harakatlar Movarounnahr va Xuroson tarixiy-ijtimoiy holatiga ta’sir etmasdan qolmasdi. Misol uchun, “hijriy 821-822-yillarda O‘zbek ulusi ustidan hukmronlik qilishga Kuyrichoq o‘g‘lonining o‘g‘li Baroq o‘g‘lon va Tug‘a Temurning avlodi Ulug‘ Muhammad (Muhammadxon) da’vogarlik qildilar... Shunisi e’tiborga molikki, Shohruh o‘sha yillari Baroq o‘g‘lonni qo‘llab-quvvatlagan o‘g‘liga qarama-qarshi o‘laroq Ulug‘ Muhammmad bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatdi va bu bilan o‘zbeklar ulusidagi o‘zaro nizoni quvvatladi”. 1428-1429-yillarda esa Shohruh va Ulug‘bek qoraqo‘yunli turkmanlar, afg‘onlar, Oq O‘rdalik ko‘chmanchi o‘zbeklar bilan uzoq, muttasil kurashlar olib borishiga to‘g‘ri keldi. Bu kurash goh u taraf, goh bu tomonning ustunligida o‘tar va ko‘chmanchi qabilalarning Xuroson va Movarounnahrda doimiy qilib turadigan urushlarining oldini olishga qaratilgan edi. Bundan tashqari, har ikkala tomon o‘z oldiga siyosiy ta’sirini qo‘shnisiga o‘tkazish vazifasini qo‘ygandi.

Movarounnahr va Xurosonda bunday ijtimoiy-siyosiy holat Bobur yashagan davrda, ayniqsa, Shayboniyxon tomonidan katta hududlar zabt etilib, Husayn Boyqaroning 37 yillik saltanati tugatilgunga qadar hukm surdi. “Boburnoma”da 1494-yil voqealari Movarounnahr va Osiyoning boshqa hududlar tarixi yoritilsa-da, undagi voqealar dinamikasi avvalgi va keyingi davrlarni ham qamrab oladi. Boburning fikr doirasi nihoyatda keng, eruditsiyasi juda chuqur, xotirasi kishini hayratda qoldiradigan darajada kuchli edi. Uni koinot – u tabiatdagi barcha hodisa va sohalar qiziqtirgan, hamma vaqt kamolotga va yangilikka intilib yashagan. Shu jumladan, uning iqtidori davr tarixini xolis bayon eta olishda ham ko‘rinadi.

“Boburnoma” O‘rta Osiyoni XV asr oxiridagi siyosiy, madaniy ahvoli to‘g‘risida ishonchli manba bo‘lib qolmasdan, balki XVI asr boshlaridagi Afg‘oniston va Hindiston haqida ham ishonchli ma’lumotlar beradigan qimmatli manbadir. Asarda tanazzulga yuz tutgan temuriylar saltanatining o‘zaro urush va talashlariga ajoyib darajada rostgo‘ylik, xolislik bilan qaralib, voqealar jonli, ravon shaklda bayon qilinadi. Masalan, saroy fitnalari va toj-u taxt talashishlar Amir Temur avlodidan Samarqand podshohi Abusaid vafotidan keyin uning o‘g‘illari (Boburning otasi va amakilari) o‘rtasida chiqqan janjallar, Bobur mirzo va uning amakivachchalari o‘rtasidagi kurashlar, hukmdorlar va beklar o‘rtasidagi nizolar, Husayn Boyqaroning o‘z o‘g‘li va Xisravshoh ustiga qilgan yurishlari, shayboniylarning Movarounnahrni egallash yo‘lida olib borgan kurashlari, Afg‘oniston va Hindistonning temuriylar tomonidan istilo qilinishi kabi jarayonlar xolislik bilan bayon qilingan.

Mazkur voqealarning aniqligi va obyektivligi bilan boshqa tarixchilarning asarlaridan ajralib turadi. Ular tarixiy shaxslar ishiga tor nuqtayi nazardan qarashga, voqealarni hukmdorlarga, yurt kattalariga bo‘lgan munosabatlari bilan yoritishga, tarixiy hodisalar bayonini mumkin qadar yuqori, jimjimador usulda ifodalashga uringanlar. “Boburnoma”da bu hol ko‘zga tashlanmaydi, uning muallifi o‘tmish tarixchilarining bu kamchiliklarini tuztadi, tarixiy ifodani real berishga harakat qiladi.

Ma’lumki, hukmdor kuchsizlanib qolsa yoki bek kuchaygudek bo‘lsa, u o‘z podshohiga qarshi qilich ko‘tarishgacha boradi. “Boburnoma”da tarixiy voqealarning ko‘rsatishicha, Xisravshoh, Ahmad Tanbal va Uzun Hasan kabilar shu taxlitda mustaqillikka intiluvchi zo‘ravon beklardan edilar. Boburning amakisi Mahmud mirzoning umarosi Xisravshoh o‘z podshohini yashirincha hech kimga bildirmay o‘ldirtiradi. O‘zini uning eng katta viloyatining merosxo‘ri deb e’lon qiladi. So‘ngra Mahmud mirzoning yosh o‘g‘illarini qilichdan o‘tkazadi. Temuriylar xonadonidan chiqqan boshqa shoh va shahzodalarga ham bo‘ysunmay o‘z harbiy kuchini, mulkini, navkarlarini tobora orttira boradi. Katta harbiy kuchga ega bo‘lgan Shayboniyxon uni fojiali tarzda halok etgunga qadar soliq va bojlar bilan Hisor o‘lkasiga ko‘p ozor beradi. Bobur xolis tarixchi sifatida bu haqiqatlarni ochganini ko‘rish mumkin. “Boburnoma”da juda ko‘p obrazlar ko‘zga tashlanadi. Hatto ular belgili bir qahramon obrazi – Boburning o‘z obrazi atrofida to‘planadilar. Asarning ruhi bo‘lgan Bobur obrazi barcha voqealarni izchillik bilan bir ipga bog‘laydi. Boshqa obrazlar ko‘pincha epizodik tarzda beriladi va biror sabab bilan asosiy obrazga bog‘lanadi. Bu esa asarning kompozitsiyasini mukammallashtiradi.

Xullas, “Boburnoma”da voqealarning xronologik tarzdagi bayoni bilan tarixiylikning kuchliligi namoyon bo‘ladi. Bu tarixiylikda, o‘z navbatida, haqqoniylik va badiiylik o‘zaro qo‘shilib ketadi. Asar o‘zining ko‘pqirraliligi, hayotiyligi, ilmiy va badiiyligi bilan, muallifning nihoyat rostgo‘y va insoniyligini namoyish ettiruvchiligi bilan kishini hayratda qoldiradigan ajoyib badiiy obidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Жўрабоев О. Навоий ва тарих. – Тошкент: Tamaddun, 2016.
2.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002.
3. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1961.

Ra’no MULLAXO‘JAYEVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
rano-05@list.ru

POETIK TAFAKKUR XOSSALARI

Annotatsiya: maqolada poetik tafakkurning asosiy xususiyatlari, uning estetik va emotsional ta’siri, shuningdek, poetik asarlarning mazmun va shakl o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tahlil qilinadi. Unda poetik tafakkurning individual va umuminsoniy his-tuyg‘ularni ifodalashdagi roli, she’riyatning ijodiy jarayonidagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *poetik tafakkur, insonshunoslik, ijodkor, ichki olam, ilmiy tafakkur, she’riyat, estetik material, mantiq, mezon.*

Аннотация: в статье анализируются основные особенности поэтического мышления, его эстетическое и эмоциональное воздействие, а также взаимодействие содержания и формы поэтических произведений. Показана роль поэтического мышления в выражении индивидуальных и общечеловеческих чувств, значение поэзии в творческом процессе.

Ключевые слова: *поэтическое мышление, гуманитарные науки, творец, внутренний мир, научное мышление, поэзия, эстетический материал, логика, критерий.*

Annotation: the article analyzes the main features of poetic thinking, its aesthetic and emotional impact, as well as the interaction between the content and form of poetic works. It shows the role of poetic thinking in the expression of individual and universal feelings, the importance of poetry in the creative process.

Key words: *poetic thinking, humanities, creator, inner world, scientific thinking, poetry, aesthetic material, logic, criterion.*

Adabiyot avvalo, insonning ko‘ngil bilan chambarchas bog‘liq kamolot yo‘lidagi iqroridir. Bu iqror badiiy shaklda, obrazlar vositasida go‘zal va ta’sirchan holda voqe bo‘ladi. Adabiyotning insonshunosligi, “ko‘ngil mulki”ning tafakkur prizmasidan o‘tib san’at hodisasiga aylanishi shunday tug‘iladi. Xususan, she’riyat inson kechinmalarini, uning inja tuyg‘ularini, orzu-istaklarini, o‘y-fikrlarini ko‘ngildan ko‘ngilga yetkazadi. Jaloliddin Rumiy: “Ko‘ngildan ko‘ngilga darcha bor”, deb ta’riflagan “sehrgar darcha” ochiladi. Muhimi, ana shu “darcha”dan oquvchi so‘zning ijodkor olamidan o‘quvchi olamiga yetib, uning o‘zligini qayta kashf etilishiga xizmat qilishida, shaxsiy hodisaning umum ma’naviy mulkka aylanishidadir. Bu jarayon o‘ta murakkab bo‘lib, barcha davrlarda ijod va ilm ahlini qiziqtirib kelgan. “She’r – san’at asari. Uni san’atkorlik tafakkuri obrazlilik va mahorat qonuniyatlari asosida tadqiq etishi lozim” [1,10]. Badiiy so‘zning ruhiy va aqliy asoslari o‘rganilib, har bir davr va ijod ahlining unga qo‘shgan hissasi, yangiligini belgilashga doimo harakat qilingan. XX asrda olimlar adabiyotni tafakkurning badiiy ko‘rinishidagi ijtimoiy ong mahsuli sifatida keng talqin etdilar. “Badiiy tafakkur” tushunchasi ham, asosan, shu davrda keng iste’molga kirdi. O‘zbek adabiyotshunosligida ham “badiiy tafakkur” atamasi adabiyotning nazariy masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qo‘llanilib, unga bog‘liq bir qator fikr-mulohazalar bayon etildi.

O‘zbek adabiyotshunosligida “poetik tafakkur”, “badiiy tafakkur” atamalari baravar qo‘llaniladi. “Adabiyot nazariyasi” kitobining “Ijodiy metod” bo‘limida [2, 400] muallif bevosita “badiiy tafakkur” atamasini qo‘llaganligi ham bizga asos bo‘ldi. Bunda badiiy tafakkur tushunchasiga bevosita ta’rif berilmasa-da, uning badiiy tafakkur – “romantik tafakkur tipi”, ikkinchi xil tafakkur – “realistik tafakkur tip” deb ajratilgan. Muallif badiiy tafakkur deyilganda “...yozuvchilarning hayotga, tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabatlarining va hayotni tasvir etishlarining o‘ziga xosligi” [2,309]ni nazarda tutadi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov “Badiiylik asoslari va mezonlari” kitobida badiiylik san’atning barcha turlari

uchun mezon ekanligini ta'kidlab, san'atga tegishli atamalar "badiiy asar", "badiiy obraz" va boshqalar qatorida "badiiy tafakkur"ni ham keltirib, ularda badiiylik asosiy aniqlovchi sifatida kelishini ko'rsatadi [3, 4]. Muallif badiiylikka "san'atning bosh xususiyati sifatida badiiylik voqelikni betakror obrazlar asosida aks ettirishini, tor ma'noda esa "badiiylik" san'at asarining estetik mohiyatini belgilovchi mezonni anglatadi", deya ta'rif beradi.

Badiiy tafakkurda tushunchalar o'rnida badiiy obraz keladi. Bunda har bir ijodkorning dunyoqarashi, ichki olami muhim rol o'ynaydi. Badiiy obraz ibtidosi ijodkorning ichki dunyosidan kelib chiqadi. Shoir yoki yozuvchining ichki hissiyotlari, ruhiy holatlari qo'shilib, favqulodda obrazlar tug'iladi. Ijodkorning ongosti ruhiy holatlari ham o'zi anglamagan ravishda qo'shilib ketishi mumkin. Ayni paytda ijodiy jarayondagi ratsionallik o'rnini ham inkor etib bo'lmaydi. Ijodkor ichki olami, kechinmalari, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlarini obrazli ifodalar ekan, ushbu obrazlarning asosi g'ayrimantiqiy bo'lmasligi lozim, aks holda obrazli tafakkurning hayotiy asosi yo'qoladi. Masalan,

Joylashgansan shunchalar chuqur...
O'z tubiga yashirgan yurak.
Senga yetib bormaklik uchun
Uzun umrim yetmasa kerak [4, 3].

Shoir Vatan haqida kuylar ekan, tug'ilgan zaminga bog'langanlik, undan uzila olmaslik va yurtga muhabbat tuyg'ularini oddiy, barcha uchun birdek tushunarli tushuncha – obrazlar vositasida mubolag'ali tasvirlaydi. Yurakka nisbatan moddiy o'lchov chuqur so'zining qo'llanilishi, uning tubiga yetib borish uchun uzun umrning yetmasligi shoir badiiy g'oyasining to'la anglanishiga yordam beradi. Shoir vatanini yurakning eng chuqur tublariga joylab sevishning o'lchamsiz o'lchamini topa bilgan. O'quvchi esa o'z tafakkuridagi ushbu obrazlarga zamin bo'lgan tushunchalar vositasida shoirning kechinma va fikrini uqadi.

Badiiy tafakkurda yozuvchining dunyoqarashi katta ahamiyatga ega. Ijodkor dunyoqarashi orqali yuzaga kelgan badiiy tafakkur mahsuli bir jihatdan ma'lum darajada falsafaga yaqinlashib boradi. Falsafaning irratsional oqimi badiiy tafakkurga yondashadi. Irratsianal faylasuflar badiiy tafakkurga jiddiy e'tiborda bo'lganlar. Ular aynan badiiy tafakkur orqali inson qalbi ochiladi, deb hisoblaydi. Shu bois ular badiiy tafakkur "meva"lariga yuqori baho berganlar. A.Shopengauer, F.Nitsshe, O.Shpengler falsafiy asarlarida obrazli ifoda ustuvor ko'rinish oladi [5,104].

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, badiiy va ilmiy tafakkur o'rtasidagi farqli jihatlarni quyidagi ko'rinishda aytib o'tish mumkin: badiiy tafakkurda ilmiy-mantiqiy tafakkurdagi izchillik, aqliy o'lchamlar buziladi. Badiiy tafakkur ifodalari anglanadi, his etiladi, ular isbot talab etmaydi. Ilmiy tafakkur natijalari o'z isbotiga ega bo'ladi. Badiiy tafakkur obrazlari avvalo, kishining ko'ngliga ta'sir qiladi, hayrat va hayajon tug'diradi. Ilmiy tafakkur esa birinchi galda aql bilan qabul etiladi. Kishining bilimlari, dunyoqarashini kengaytiradi.

Izzat Sulton ilmiy va badiiy tafakkur o'rtasidagi asosiy tafovutlarni, shuningdek, san'atning ilmdan farqli jihatlarini ko'rsatar ekan, adabiyot "... isbot etishi emas, balki ko'rsatishi lozim, "sillogizmlar va dilemmalar bilan emas, balki obrazlar va manzaralar bilan tafakkur etishi lozim. Bu qonuniyat poeziyani (ya'ni adabiyotni I.S.)... haqiqatni bevosita mushohada etish yoki obrazli tafakkur (мышление в образах) deb ta'riflashning o'zidan kelib chiqadi" [6,49-50], deya qayd etadi.

Izzat Sulton XX asr adabiyotshunosligida "obrazli tafakkur" o'rnida badiiylik keng qo'llanilayotganligini N.K.Geyning quyidagi fikrlari orqali eslatib o'tadi: "badiiylik san'at asarini inson ongining boshqa sohalariga, ilmiy va texnikaviy tafakkurga... nisbatan alohida bir vaziyatga qo'yadigan xususiyatdir va xususiyat bo'lganda ham yetakchi xususiyatdir" [7,3]. Adabiyotshunos B.Sarimsoqovning jahon adabiyotshunosligi manbalariga tayanib, badiiylikning asosini obraz va obrazlilik tashkil etadi, degan fikri bilvosita badiiy tafakkurga ham tegishlidir.

Keltirilgan fikr va mulohazalardan shunday xulosalarga kelishimiz mumkinki, badiiy tafakkur tushunchasi badiiylik hodisasining voqe bo'lish jarayonlarini o'zida to'liq qamrab oladi. "Demak, so'zning obrazga aylanishi oddiygina hodisa yoki jarayon emas. Bu – inson badiiy tafakkurining murakkab chig'iriqlaridan o'tib, sintezlashadigan og'ir jarayondir. Buning uchun so'z estetik qimmatga ega bo'lgan kontekstda bo'lishi lozim. Faqat estetik qimmatga molik kontekstgina so'zni obrazga aylantiradi: u biror holat, harakat yoki munosabat bajaruvchi estetik materialga aylanadi". Masalan:

Muhabbat – chiroyli kapalak,
Qo'rqaman sho'rlikni tutgani.
Kapalak quvganim yodimda,
Yodimda yo'q ammo yetganim [8,41].

Ushbu to'rtlikdagi asosiy obraz – kapalak. Kapalak tabiatdagi go'zal mavjudot. U guldan gulga qo'nib, kishi ko'zini quvontiradi, dilini yayratadi. Bolakaylar quvnab uni tutishga chog'lanadilar. Kapalak tutqich bermay, gir aylanib uchadi. Uning aylanib uchishi, bolakayning tinmay ta'qib qilishi nihoyatda go'zal va ta'sirchan holat. Shoir muhabbatni chiroyli kapalakka mengzaydi. She'rning "qo'rqaman sho'rlikni tutgani" misrasi real voqelik asosida mengzalayotgan holatga qo'shilib yangicha mazmun kasb etadi. Lirik qahramon qalbidagi beg'ubor sevgisini noo'rin bir

harakat bilan yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqadi. O‘z holatini kapalak tutayotgan bolaning harakatlariga o‘xshatar ekan, bexosdan nozik kapalakni tutib, unga zahmat yetkazmaslikni istaydi. To‘rtlikning navbatdagi misralari lirik qahramonning ko‘ngil tubida cho‘kib yotgan armonlarining ifodasiga aylanadi. Ya’ni istihola sabab izhor etilmagan muhabbat o‘kinchi o‘z aksini topgan. Ko‘rib turibmizki, kapalakning mavjudotdan badiiy matnda obrazga aylanishi sezish, aql bilan jamlash kabi badiiy tafakkurning murakkab jarayonlaridan o‘tib, san’at namunasida jilolantirilmoqda.

Haqiqiy she’r falsafiy fikrga yo‘g‘rilgan bo‘ladi. She’r o‘qilar ekan, o‘quvchi qalbiga yetib boradi, ongiga ta’sir qiladi. Insonning asl mohiyati uning qalbidir. Aql esa uning to‘laqonli yashashi, jamiyat me’yorlarini, insoniyat bilim va tajribalarini o‘zlashtirib, o‘zligini namoyon etishida muhim vazifa bajaradi. Demak, she’riyat go‘zal, ta’sirchan, ayni paytda hikmatli ham bo‘lishi kerak. She’rning hikmati badiiy shaklda ifodalanib, insonlarni tarbiyalashga, ular qalbidagi ezgulikni yuzaga chiqarishga xizmat qilishidadir.

She’rda xususan, obrazning yaratilish jarayonida ijodkorning voqelikni hissiy va aqliy idrok etishida me’yorning saqlanishi muhim ahamiyatga ega. Aslida “Obrazning doyasi hissiyot bo‘lsa, murabbiysi aql va mantiqdir” [2, 78]. Qayerdaki bu mezon buzilsa, san’atga putur yetadi. Ijodiy jarayondagi aql va mantiqning hissiy obrazlarga qorishuvi bevosita badiiy tafakkurning namoyon bo‘lishidir.

She’riyatda mantiqiy fikr mavqeyining oshishi adabiyotning ijtimoiylashuvi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. XX asr o‘zbek she’riyatida badiiy tafakkur tadrijini monografik planda tadqiq etgan Ulug‘bek Hamdamov XX asr adabiyoti, xususan, she’riyatidagi g‘oyaviy-tematik tadrijni, ijodkor va davr munosabatini, adabiyotning ijtimoiylashuv jarayonini tekshirar ekan, har bir davrga xos umumiy va xususiy jihatlarni yoritib: “...adabiyotdagi, xususan, she’riyatdagi yangilanish qaysidir ma’noda hayot ritmining rivojlanib borishi bilan yonma-yon tarzda ham sodir bo‘ladigan jarayon ekan” [9,7], deb yozadi. Muallif o‘zbek adabiyotidagi badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy hayot bilan bog‘liq nuqtalariga alohida diqqat qaratar ekan, shakl va vaznda bo‘lgan o‘zgarishlarni ayni hodisa bilan bog‘liq izohlagan va o‘zgarishlar asosida ijodkorning “men”i turadi, deb ta’kidlaydi [9, 7-8]. Bu jarayon badiiy tafakkurning voqe bo‘lish vositalari – she’riy shakl, vazn, qofiyalar sistemasi, mavzu va boshqa jihatlarda ham namoyon bo‘lishini bilvosita aytib o‘tgan. Muallif haqli ravishda qayd etganidek, XX asr o‘zbek she’riyati shakl va mazmun, maqsad va mohiyat hamda badiiy tafakkur tarziga ko‘ra ham avvalgi adabiyotga nisbatan yangi bosqichga o‘tdi. Bu davr she’riyati: a) ijtimoiylashuv; b) mavzuning hayotiy asosga yaqinlashuvi; d) lirik qahramonning individuallashuvi; e) e’tiqodda moddiyunchilikning bosim kelishi kabi xususiyatlari bilan aniq ajralib turadi.

Adabiyotning ruhga murojaati insonni o‘z mohiyati sari yaqin olib kelsa, ijtimoiylashuvi va moddiylashuvi uni ushbu asosdan shunchalik uzoqlashtiradi. Ijtimoiylashuv, moddiylashuv qanchalik maydalashgani sari she’riyat ham shunchalik maydalib boradi.

Tom ma’noda, adabiyotning mavzusi inson hayoti bo‘lsa-da, lekin har bir davrda insonning orzu-intilishlari, ijtimoiy-siyosiy mavqeyi va boshqa jihatlari bilan bog‘liq u yoki bu mavzu dolzarb ko‘rinish oladi. Bu holatlar esa badiiy tafakkurning yangilanishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri bo‘lib maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳаққулов И. Англаш ва ҳис этиш санъати. Катта йўл бошида (мақолалар тўплами). –Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б. 10.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. Адабий асар. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 398.
3. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: 2004.
4. Шавкат Раҳмон. Рангин лаҳзалар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, –Б. 3.
5. Жуманиёзова Г. Мутафаккирлар Ф.Ницше ва А.Бергсоннинг ҳаёт фалсафасида инсон муаммоси.– Т. Фалсафа ва ҳуқуқ институти.– Б.104.
6. Адабиёт назарияси. Икки томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 49-50.
7. Гей Н.К. Художественност литературы. Поэтика. Стиль. – М.: 1975. С.3.
8. Раҳмон Шавкат. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.41.
9. Ҳамдамов Улуғбек. Бадиий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002.

Shahnoza MAJIDOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti,
f.f.f.d (PhD) katta o‘qituvchi
majidovashahnoza59@gmail.com

SURXONDARYO VILOYATI TOPONIMLARINING AYRIM GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Surxondaryo viloyati oykonimlari va uning geografik xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, viloyatning geografik nomlar ma’lum bir hududning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlari bilan bog‘liqligi, joylarni, aholi manzillarini nomlashda hududlarda muayyan geografik andoza va qoliplarga amal qilinishi kuzatiladi. Ana shunday qoliplar geografik jihatidan ma’lum me’yorlarga tushganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *toponim, geografik xususiyat, toponimik indikator, gidronomiya, tarix, iqtisodiy sharoit.*

Annotation: in the article, opinions are expressed about the landmarks of Surkhandarya region and its geographical features. In addition, it is observed that the geographical names of the region are related to the natural, historical, social and economic conditions of a certain region, when naming places and addresses of the population, certain geographical patterns and patterns are followed in the regions. Such patterns show that they have fallen into certain geographical norms.

Key words: *toponym, geographical feature, toponymic indicator, hydronomy, history, economic conditions.*

Аннотация: в статье высказаны мнения о достопримечательностях Сурхандарьинской области и ее географических особенностях. Кроме того, замечено, что географические названия региона связаны с природными, историческими, социальными и экономическими условиями определенного региона, при наименовании мест и адресов населения в регионах следуют определенным географическим закономерностям и закономерностям. Подобные закономерности показывают, что они соответствуют определенным географическим нормам.

Ключевые слова: *топоним, географический объект, топонимический показатель, гидрономия, история, экономические условия.*

Kirish. Istiqlol xalqimizga o‘zini anglash baxtini va milliy, madaniy adabiy va diniy qadriyatlarini tiklash, asriy an’analarga qayta jon bag‘ishlash imkoniyatini yaratdi. Joy nomlari uzoq tarixiy davrning yodgorligi bo‘lib xalqimiz tarixini, uning etnik tarkibini, shuningdek, aholi manzilgohlarining hududiy xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlartahlilivametodologiya. Mamlakatimiz hududiga xos bo‘lgan ayrim nomlarning turkiy tillar yoki tojik tiliga mansubligini, shuningdek, boshqa hududlar toponimiyasini aniqlash maqsadida bir qator hollarda qiyosiy tadqiqot usuli qo‘llaniladi. Toponimlarning geografik xususiyatlarini tahlil qilishda mashhur o‘zbek olimlari – Suyun Qorayev, R.Musin, X.Raxmatullayev, A.G‘.G‘ulomov, Sh.Sh.Shabdurahmonov, F.A.Abdullayev, Sh.R.Rahmatullayeva, A.P.Xojiyeva, M.Mirzayeva, X.Xasanova, S.Karayeva, T.Nafasova va boshqalar [1].

Geografik joy nomlari (toponimlar)ni o‘rganish bugungi kunning eng zaruriy masalalaridan biri hisoblanadi. Sababi, har bir joy nomi shu hududning tabiatini, tarixini, madaniyatini, shu hududda yashovchi xalqlarning urf-odati va an’analarini o‘zida aks ettiradi. Yurtimizda so‘nggi yillarda geografik joy nomlarini o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. Hukumatimizning geografik joy nomlarini o‘rganishga qaratgan yuksak e’tiborini 2011-yil 12-oktabrda qabul qilingan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni [2] va unga muvofiq holda 2012-yil 16-oktabrda tasdiqlangan geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 295-sonli qarori [3] misolida ko‘rib turibmiz.

Muhokama va natijalar. Surxondaryo toponimik havzasini o‘z ichiga qamrab oladi, u respublikamizning eng janubiy qismida joylashgan bo‘lib, Sharqda Bobotog‘, Shimolda Bosh Hisor tizmasi, Shimoliy-g‘arbda Boysun va Ko‘hitang tizmalari, janubda Surxon-Sherabod cho‘llari bilan o‘rab olingan. Nihoyatda murakkab cho‘l, adir, tog‘, balandtog‘ga mansub relyef formalari mavjud va quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

– shimol, sharq, g‘arb tarafda tog‘lar bilan bog‘liq oronimlar, buloq, soy, daryo, ko‘llar bilan bog‘liq gidronimlar turkumining keng tarqalishi; markaziy qismida pastak tog‘lar, janubda esa cho‘l, tekisliklar bilan bog‘liq holda shakllangan oronimlarning keng rivojlanishi;

– ushbu rayonda stratigrafik qatlamning turkiy hamda forsiy o‘zakdagi ko‘rinishlari gegemonlik qilishi;

– “qo‘rg‘on”, “obod” qo‘shimchali oronimlar arealining mavjudligi “Qumqo‘rg‘on”, “Jarqo‘rg‘on”, “Muzrabot”, “Sherobod” va hokazolar [4]. Joy nomlarini

geografik tahlil etish ma’lum hududda yashagan aholining shug‘ullangan kasb-koriga yoki boshqa bir o‘ziga xos jihatlariga ko‘ra alohida areallarni ajratishda katta ahamiyatga egadir.

Geografik nomlarni uch yo‘nalishda tasniflash mumkin:

1. Hududiy yo‘nalishda geografik toponimlar; 2. Semantik yo‘nalishda – so‘z turkumlari va gap tuzilishi jihatidan; 3. Tarixiy yo‘nalishda – qadimgi ma’nosi oydin, qadimgi ma’nosi nooydin nomlar.

Bulardan tashqari geografik nomlarni joyning relyefi nomlari – oronimlar, suv bilan bog‘liq – gidronimlar, el-elatlar bilan bog‘liq etnonimlar, kishilar nomi – patronimlar, entroponimlar, shahar nomi – urbonimlar, o‘simlik va hayvon nomlariga qo‘yilgan fitonim va zoonimlar, umuman yer ustidagi aholi manzillari, yo‘llar, kommunikatsiyalar nomlari – oykonimlarga bo‘lib o‘rganish mavjud.

Geografik nomlar xalq tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib ularda joy nomlarini yaratgan kishilarning turmush hayoti, yashash tarzining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topadi. Joy nomlari turli tarixiy hodisalar, xalqlar, migratsiyasi, xalqaro aloqalar, shuningdek, til taraqqiyoti bilan bog‘liq holda shakl va mazmun jihatidan o‘zgarishi mumkin.

Joy nomlari o‘zining qadimiyligi va turg‘unligi bilan ajralib turadi. Surxondaryo viloyatining geografik joy nomlari hali yaxshi o‘rganilgan emas.

Ma’lumki, geografik nomlar ma’lum bir hudud bilan, ushbu hududning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlari bilan bog‘liqdir. Shu uchun ularni o‘rganishda hududning tabiati, tarixini ham hisobga olish zarur. Zero, geografik nomlar uzoq davrlar mahsuli bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan shaklan va mazmunan o‘zgarib boradi va bu nomlar elat, qabila, xalqlarning ko‘chishi asnosida boshqa joyga o‘tib qoladi [5].

Joy nomlari bir necha turlarga bo‘linadi. Bular gidronomiya, ya’ni daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, sharsharalar, bo‘g‘izlar nomlari; oronimiya ya’ni relyef shakllari nomlari (tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, tekisliklar, vodiylar, platolar); oykonimiya (polinimiya, urbanonomiya) ya’ni qishloq va shaharlarning nomlari; mikrotoponimiya ya’ni kichik obyektlar nomlari [6].

Geologik qidiruv ishlarini toponimika fani bilan hamkorlikda olib borish, uni muvaffaqiyatli yakunlash uchun zamin yaratib beradi. Chunki bir qancha geografik nomlarning ma’nosida o‘sha joy uchun xususiyatli bo‘lgan qazilma boyliklar nomi aks etishi ma’lum. Chunki bu yerdagi ayrim elementlar qadimdanoq mahalliy aholi uchun ma’lum bo‘lgan va shu tufayli ular geografik nomlarning ma’nosida o‘z aksini topgandir.

Ba’zan gidronimlar shaklidagi atamalar ham aynan qazilma boyliklar bilan bog‘lik tarzda shakllangan toponimlarga misol bo‘la oladi. Chunki yer osti suvi ham muhim qazilma boyliklar tarzida o‘rganiladi. Shu boisdan ham Surxondaryodagi Xo‘jaipok, Achchibuloq, Obigarm kabi atamalar tarkibida foydali elementlar mavjud bo‘lgan mineral suv manbalari – buloq, ko‘llar mavjudligidan dalolat beradi.

Hududning relyefi, tog‘ jinslarining turlari, iqlimi, ichki suvlari, tuproq qoplami, organik dunyosi bilan bog‘liq ravishda shakllangan xalq terminlari va joy nomlaridir.

Surxondaryo viloyatining, Bobotog‘ etagidagi daryo va qishloq Selga nomi bilan atalgan. Ko‘klam yoki kuz fasllari keladigan soylik va shuningdek, daryo og‘zida sel olib kelgan loyqa qumlardan iborat unumdor yerlar “selga” yoki “selga yerlari” deb ataladi. Selga, to‘g‘riroq shakli selgoh – “sel” va tojikcha harakat joyi affiksi “goh” qo‘shimchasidan tarkib topgan [7]. Bunday unumdor yerlar aslida sobiq selxonaning kosa qismidir. Uning tagiga to‘plangan loyqa yillar davomida qalinlashib, unumdor tuproqni tashkil etadi. Selxonalar gidrotexnik inshootlar, sel kuchiga uzoq bardosh bera olmaganligi uchun, muvaqqat suv to‘planadigan hududlar quruqlikka aylanib, selxonalarning nomigina saqlanib qolish holati ko‘p uchraydi.

Viloyat toponimlari quyidagicha tasnifladik:

1. Etnooykonimlar. Bunday oykonimlar turli xil xalqlarning, urug‘-aymoqlar nomlaridan kelib chiqadi. Aytish joizki, viloyat toponimlarining asosiy qismini aynan etnotoponimlar tashkil etadi. Ular quyidagilardir: Nayman, Uyg‘ur, Do‘rmon; 2. Gidrooykonimlar – aholi yashaydigan joy nomlari tarkibida suv bilan bog‘liq terminlar qatnashadi. Viloyat hududida quyidagi gidrooykonimlar uchraydi: Jo‘yiadoq, Rabot; 3. Din va diniy shaxslarga bilan bog‘liq oykonimlar: Eshonlar, Maxsumlar, Xo‘jalar; 4. Obyektning geografik o‘rni va o‘sha joyning xususiyatini bildiruvchi oykonimlar: Teshiktepa, Teraklik, Panob; 5. Aholi punktlarini dastlabki tipini bildiruvchi oykonimlar: Yangirabot, Yangihayot; 6. Tarkibida rang-tus bildiruvchi qo‘shimchali oykonimlar: Ko‘kdala; 7. Kasb-hunariga qarab nom berilgan oykonimlar: Temirchi, Novvoy; 8. Orooykonimlar: Talgandum, Bug‘doytepa.

Surxondaryo viloyatida bunday nomlar juda ko‘p va ular xilma-xil.

Xulosa. Oykonimlarni tahlil qilishda funksional-stilistik, ruhiy-psixologik yondashuvlardan foydalanish oykonimlarning yangi informatsion tomonini ochish imkonini berdi. Bu masala oykonimlarning hosil bo‘lish mexanizmining umumiy nazariyasini ishlab chiqish, oykonimlarni denotatlar bo‘yicha tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish, tipik topografik asoslar va oykonim yasash modellarini o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. 69-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”. 2011-yil 12-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikai Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrda “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 295-son qarori.
4. Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010. 204-bet.
5. Oxunov N., Ahmadaliyev Y. Farg‘ona viloyati oykonimlarining nomlanish xususiyatlari. – Farg‘ona, 2010. 29-bet.
6. Rajabov O‘. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari: filol. fan. nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2009. 24-bet.
7. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. 237-bet.

Shohista TOJIBOYEVA,
Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti
PhD student in English
e-mail:shoxista0472@gmail.com

“MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI” ASOSIDA BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARNING INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola ta’lim jarayonlarida “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” asosida bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari haqida bo‘lib, bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlanganligi, dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi – televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo‘lganligi, bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilishi haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *media, kompetensiya, axborot madaniyati, fake, viziual.*

Аннотация: в данной статье речь идет о педагогических особенностях развития информационно-аналитической компетентности будущих учителей иностранного языка на основе “Медиаграмотности и информационной культуры”в образовательном процессе. Сегодняшние классы сильно отличаются от тех, что были десять лет назад, и классы оборудованы. компьютеры, iPad, планшеты, смарт-доски и т. д. он оснащен другими видами образовательных технологий, как и в других частях мира, в Узбекистане появилось семиэкранное поколение цифрового поколения – телевизоры, компьютеры, планшеты, планшеты, фаблеты, смартфоны и умные часы, имеющие такой плотная цифровая среда и постоянное взаимодействие с ним в результате установки также дается информация о том, что процессы мышления и обработки информации современных студентов принципиально отличаются от прежних процессов мышления и информации.

Ключевые слова: *медиа, компетентность, информационная культура, фейк, визуал.*

Annotation: this article is about the pedagogical features of the development of the informational-analytical competence of future foreign language teachers based on “Media literacy and information culture” in the educational process. Today's classrooms are very different from ten years ago, and classrooms are equipped with computers. , equipped with iPads, tablets, smart-boards and other types of educational technologies, the seven-screen generation of the digital generation - TV, computer, tablet, tablet, phablet, smartphone and smartwatch - has appeared in Uzbekistan, as in other parts of the world. It is also reported that the thinking and information processing processes of today's students are fundamentally different from the previous thinking and information processes as a result of having such a dense digital environment and constant interaction with it.

Key words: *media, competence, information culture, fake, visual.*

Jahonda global axborot makonining yuzaga kelishi bilan ishlab chiqarishning turli sohalari mutaxassislarini mediasavodxonlikka bo‘lgan ehtiyoji oshib bormoqda. So‘nggi yillarda xorijiy tillarni chuqur o‘rgatish, o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari, oliy o‘quv yurtlarida mediata’limning o‘ziga xos xususiyatlari, mediasavodxonlikni shakllantirish vositalari va usullarini o‘rganish ta’lim jarayonida mediatexnologiyalar, mediamatnlardan foydalanish o‘ta muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham mediasavodxonlik va axborot madaniyati ta’limi vositasida bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish, ularni zararli axborotlar ta’siridan himoya qilish, informatsion tahdidlar va ularni bartaraf etish layoqatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Globallashuv sharoitida media ta’sirning ko‘lami va tezligi oshib, ommaviy axborot vositalari, Internet va undagi ijtimoiy saytlar, kino sanoati orqali katta miqdor va miqyosda axborotlar uzatilmoqda. Zamonaviy dunyoni ommaviy axborot vositalari — mediasiz tasavvur etish qiyin. Media – bosma nashr, matbuot, televideniye, kino, radio, ovoz yozish va internet tizimini o‘z ichiga oladi. Shu bois jamiyatda mediata’limni rivojlantirish, bu orqali insonlarda mediasavodxonlikni shakllantirish, medianing axboriy ta’siriga tushib qolmaslikka o‘rgatish, o‘qitish muhim va ustuvor vazifalardan biridir. Buning uchun ta’lim tizimida axborot xavfsizligini ta’minlashga doir ta’limiy-tashkiliy ishlarni qayta ko‘rib chiqish, yangicha kurash mexanizmlarini yaratish, o‘quvchilarda va talaba-yoshlarda mediamadaniyatni shakllantirishga yangicha yondashuvni olib kirish talab etiladi.

Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish tizimi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Har qanday pedagogik tizim tarkibida ikkita tushuncha aniq ko‘rinadi: didaktik vazifa va uni hal qilish texnologiyasi. Didaktik vazifa tuzilishida istalgan inson faoliyati sohasidagi kabi vaziyatlar (sharoitlar) va mavjud axborot (faoliyat mazmuni)ga asoslangan maqsadlar aks etadi[9].

Jamiyatning barcha jabhalarini keng ko‘lamda egallagan kommunikatsiya vositalari insoniyat rivojlanishining yangi davrini boshlab berdi. Globallashuv sharoitida media ta’sirning ko‘lami va tezligi oshib, ommaviy axborot vositalarining insoniyat hayotiga allaqachon kirib borganligi, yosh chegarasidan qat’iy nazar kundalik turmushning axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmas darajada muhim elementiga aylanganligi ko‘p munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Internet va undagi ijtimoiy saytlar, kino sanoati orqali katta miqdor va miqyosda axborotlarning uzatilishi XXI asrga kelib, “Mediasavodxonlik” tushunchasini keng qamrovli tadqiqot obyekti sifatida shakllantirdi.

O‘zbekistonda bo‘lajak pedagoglarda media madaniyatini rivojlantirish, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullari, shuningdek, media kompetensiyasini shakllantirish masalalarini A.A.Abduqodirov, A.H.Taylaqov, B.E.Qarshiyev, Sh.N.Taylaqova, N.R.Rustamova, S.I.Kulmamatov, S.S.Babadjanov, I.M.Rasulov, S.S.Babajanov va D.M.Teshaboyevalar tadqiq etishgan.

Mediasavodxonlik va axborot madaniyati asosida bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning maqsadi umumiy holda, salbiy axborotlar ta’siridan himoyalanish hamda talabalarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning optimal tizimlarini tuzish sifatida qarashimiz mumkin. Qayd etilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun, odatda, juda oddiy himoya modelidan foydalaniladi. Ma’lumki, himoyaning mustahkamligi to‘siqning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, to‘siqni oshib o‘tuvchilar yoki buzuvchilarning qurbi bilan aniqlanadi[4]. Real holatlarda, ya’ni informatsion tahdiddan himoyalanish yuqori darajada talab etilsa, u holda yuqori darajadagi himoyalanish modelidan foydalaniladi. Bu holda man etilgan ma’lumotga yetib borish uchun tahdid qiluvchi subyekt bir necha himoya to‘siqlarini oshib o‘tishi yoki uni sindirishi kerak bo‘ladi.

Internetning rivojlanib borishi natijasida tarmoqqa kirish imkoniga ega bo‘lgan har bir foydalanuvchida axborotni ishlab chiqarish, uni tarqatish va axborot olish imkoniyati yaratildi[4]. Bu faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Tashabbuskor blogerlar jurnalistlarning vazifasini bajara boshlaydilar, ular haqiqatda o‘zgarishlarni tezkorlik bilan aks ettiradilar. Bir tomondan, bu demokratik qadriyatlarning g‘alabasini namoyish etadi, boshqa tomondan, ommaviy axborot vositalarining faktlar bilan ishlash tamoyillarini tan olmaydi va natijada feyklar paydo bo‘la boshlaydi. So‘nggi yillarda, noprofessionallar “yangilik” yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ldi[9].

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, soxta xabarlar avlodi ijtimoiy tarmoqlar chegarasidan tashqariga chiqdi va an’anaviy ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, televideniye orqali ommalashdi. Bu ko‘p jihatdan sanoqsiz xalqaro to‘qnashuvlar va axborot urushlari bilan bog‘liq.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi

hamda texnik imkoniyatlarning kengayishi sharoitida mish-mishlar va yarim chin, yarim hazil qabilidagi materiallarni haqiqiylaridan ajratib olish qiyin. Sababi, hozirda har bir foydalanuvchiga hujjatlar, tasvirlar, audio fayllarni osongina nusxa ko‘chirishga “imkon beradigan” texnologiya mavjud bo‘lib, bu har doim ishonchli axborotga nisbatan to‘siq bo‘ladi. Buning oldini olish, to‘xtatish va rad etilishi uchun bo‘lajak kadrlarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish talab etiladi[6].

Xulosa qilganda, bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi – televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 14 (774)-сон, 230-модда // www.lex.uz

2. Арипов А.Н. ва бошқалар. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. – Тошкент, 2004. – 30 б

3. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараènларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиèти. Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун èзилган диссертатция. Тошкент, 2007. –Б. 20.

4. Нарзиева Н. Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода // XV Международная научно-практическая конференция. World science: problems and innovations. Мцнс “Наука и просвещение”. 30 ноября, 2017. – Пенза, 2017.Часть 3. –С. 114.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2–жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриèти, 2008. – 396 б.

6. Chomsky N. Syntactic Structures. Mouton, 1957, 117 p // Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, May 1965. – 261 p.

7. Мавлянов А., Жавлонов Ш.С., Абдалова С., Юсупова Л. Педагогик технология ва таълим жараèни сифатини бошқаришга оид айрим сўзларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: “Voris-nashriyot”, 2010. – 7 б.

8. Қўчқорова Ф.М. Янги авлод дарсликларида тақдим этиладиган ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралаштиришнинг дидактик параметрлари Пед. фан. фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент. 2018 йил. – 7 б.

9. Каршиев Б.Э. Жамият хавфсизлиги ва баркарорлигини таълимлашта медиатаълимнинг урни: PhD автореф. дисс. – Т., 2020.; Тайлакова Ш.Н. Укувчи-ешлар маънавиатини оммавий ахборот воситалари асосида такомиллаштириш: PhD дисс автореферати. – Т., 2018;

10. Рустамова Н.Р. Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси: DS дисс.автореферати. – Т., 2019;

11. Кулмаматов С.И. Мустакил таълимни ташкил этишда компьютер технологияларидан фойдаланиш методикаси: П.ф.н. … дис. автореф. – Гулистон: ГулДУ, 2008; Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларнинг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси: DS дисс автореферати.– Т., 2019;

12. Расулов И. М. Развитие культуры проектирования студентов посредством компьютерных технологий: Автореф. дисс…. к.п.н. – Т.: ТГПУ, 2018.; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутк маданияти аспектида тадқиқи (Узбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Докт. диссертация автореф. – Т.: УзДЖТУ, 2012.

Abdulloh UBAYDULLAYEV,
Oriental universiteti
Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi
abdullox4777@gmail.com

“NASOYIM - UL MUHABBAT” ASARIDA BIR MA’NOLI VA KO‘P MA’NOLI ARABCHA O‘ZLASHMALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: asarda keltirilgan arabizmlar leksemalarning semantik munosabati nuqtayi nazaridan o‘zaro sinonimik qator bo‘lgan sinonimiya hodisasiga ishora qiladi. Lekin leksemalarning semantik tarkibiga ko‘ra bir va ko‘p ma’noli so‘zlar farqlanadi.

Ushbu maqola orqali biz Alisher Navoiyning ushbu asarida tilga olingan so‘zlarning ma’nolarini to‘liq o‘rganishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *so‘fiy, Navoiy g‘azallari, leksik-semantik, Arbain, lingvistik qarashlar.*

Annotation: the Arabisms mentioned in the work refer to the phenomenon of synonymy, which is a series of mutually synonymous lexemes in terms of their semantic relationship. However, according to the semantic composition of lexemes, single and multiple meaning words are distinguished.

Through this article, we can fully study the meanings of the words mentioned in this work of Alisher Navoi.

Keywords: *sufi, Navoi’s ghazals, lexical-semantic, Arbain, linguistic views.*

Аннотация: представленные в работе арабизмы относятся к явлению синонимии, которая представляет собой взаимно синонимичный ряд с точки зрения семантической связи лексем. Однако по смысловому содержанию лексем различают одно- и многозначные слова.

Благодаря этой статье мы сможем полностью узнать значения слов, упомянутых в этом произведении Алишера Навои.

Ключевые слова: *суфий, газели Навои, лексико-семантика, Арбаин, лингвистические взгляды.*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat” asarida qo‘llangan so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’noli so‘zlar hisoblanadi. Navoiy mazkur so‘zlarning ma’no nozikligi, semantik imkoniyatlarini nafaqat “Nasoyim-ul muhabbat” asari orqali, balki boshqa bir qator nasriy asarlaridagi matnlar tarkibida to‘la jilolantira olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur holat uning buyuk so‘z ustasi, so‘z imkoniyatining cheksizligi, tilshunos olim Bahrom Bavoyev ta’biri bilan aytganda, “Navoiy o‘z asarlarida yigirma olti mingdan ziyod so‘z qo‘llagan”, degan fikrning naqadar to‘g‘ri ekanligini isbotlaydi. Shu jihatdan mazkur faslda “Nasoyim-ul muhabbat” asarida qo‘llangan arabizmlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Jumladan, yuqorida asarda keltirilgan ***ilm*** so‘ziga to‘xtaldik. ***Ilm*** so‘zining ma’nosi turli adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur so‘z quyidagicha talqin etiladi:

ILM – [arabcha – **bilim, fan; nazariya**] 1. **O‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma’lumot**. *Ilm darajasi. Ilm olish huquqi.* 2. **Ish-faoliyatning ilm bilan bog‘liq sohasi**; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi; fan. *Ilm va hunar.* 3. **Ish-faoliyatning ma’lum bir sohasiga oid bilim, ta’limot, malaka.**

Ilmi g‘ayb (s.t. ilmi g‘oyib) *Yashirin, sirli narsalarni bilish ilmi.* [7, 195]

Shuningdek, mazkur asarda quyidagicha ta’rifni uchratamiz: *“**Ilm** – biz ko‘p ishlatadigan atama. Ammo chuqur va nozik mazmunga ega ekanini Abu Tohir al Abg‘ariy bayonida yozadi: “Andin so‘radilarki: Haqiqat nedur? Dedikim: Barchasi ilmdur. Dedilarki: Ilm nedur? Dedikim: Barchasi haqiqatdur”. Ya’ni har qanday haqiqat – ilm bilan isbotlanishi va har qanday ilm – haqiqatga tayanishidir”.* [5, 5]

Bu o‘rinda, ko‘rinadiki, mutafakkir **ilm** so‘zini haqiqatga – Ollohga, Haqqa, komillikka erishmoq ma’nosida qo‘llaydi.

Diniy adabiyotlarda esa quyidagicha ta’rifni ko‘rish mumkin: *“Ilm dunyoda azizlik, oxiratda sharafdir. Ilmga ana shunday ta’rif berilgan. Demak, kimga dunyo kerak bo‘lsa, ilm olsin, kimga oxirat kerak bo‘lsa, ilm olsin, kimga ikki dunyo kerak bo‘lsa, ilm olsin. Zanjiy ibn Xolid r.a aytadi: “Bolalik paytimizda Zuhriy (r.a.)ning huzuriga kirgan edik, u zot bizga: “Ilm talab qilinglar. Shunda siz dunyoni istasangiz unga yetishasiz, oxiratni istasangiz ham unga yetishasiz”, dedilar”. Ilmning darajasi ana shunday ulug‘dir. Ilm dinimizda ulkan darajalarga, maqomlarga ko‘tarilgan ulug‘ bir xislat, go‘zal bir*

amal hisoblanadi. Ilm olish dinimizda eng ulug‘ ibodatlardan sanaladi. Chunki banda ilm vositasida Rabbisini tanishga, U zotning buyruqlarini bajarishga, shuningdek, barcha mavjudotlarga taalluqli bo‘lgan haqlarni ado etishga muvaffaq bo‘ladi”. [4, 71]

Demak, aytish mumkinki, Navoiy ham o‘z asarida ilm so‘zini qo‘llash, birikma hosil qilish yoki sintaktik-stilistik imkoniyat jihatdan matn tarkibida turli ma’nolarni yuklash orqali o‘z tasavvufiy maqsadini ko‘zda tutadi. Xuddi shu asnoda, Navoiyning so‘z qo‘llash mahorati bilan, mazkur so‘z ko‘p ma’nolilik xususiyatini kasb etadi.

“Nasoyimul muhabbat”da Alisher Navoiy tasavvuf ta’limotiga oid ilmlarni ikki turga ajratadi va quyidagicha tasniflaydi:

1.Zohir ilmlar. 2. Botiniy ilmlar.

Asarda **Zohir ilmlar** – bu ko‘z bilan ko‘rish va aniqlash mumkin bo‘lgan, aniqrog‘i, konkret ilmlarni o‘zi ichiga olishini belgilaydi.

Mazkur ilmlar:

1)aynul yaqin, ilmul yaqin; 2) **haqqul yaqin**.

Ushbu birikmalar ayni arabcha o‘zlashmalar bo‘lib, manbalarda mazkur tasavvufiy tushunchalar quyidagicha izohlanadi:

Alloh taolo Qur’oni Karimda shunday deb marhamat qilgan:

وَعَرَضْنَا جَهَنَّمَ يَوْمَئِذٍ لِّلْكَافِرِينَ عَرْضًا

“U Kunda kofirlarga jahannamni namoyish qilurmiz”.

Ya’ni, ular jahannamni ko‘rishlari uchun ularga jahannam ro‘para qilinadi, ko‘rsatiladi. Bu ro‘para qilish, bu ko‘rsatish mo‘minlarga ham bo‘ladi. Bu haqida Alloh taolo shunday deb marhamat qilgan:

وَإِن مِّنكُمْ إِلَّا وَارِدُهَا ۚ كَانَ عَلَىٰ رَبِّكَ حَتْمًا مَّقْضِيًّا

“Sizlardan har biringiz unga (jahannamga) tushuvchidirsiz. (Bu) Rabbingiz (irodasiga binoan) vojib bo‘lgan hukmdir”.[4, 71]

Ba’zilar ushbu oyatdagi وَارِدُهَا ni “unga (do‘zaxga) kiruvchi” deb o‘ylashgan. Yo‘q, unday emas, balki, “uni (do‘zaxni) ko‘ruvchi va uning ustidan o‘tuvchi” degan ma’nodadir. Arablarda ورد عامل (taridul maa’a) degan jumla ishlatiladi. Buning ma’nosi “suvning oldiga yetib boradi, lekin o‘sha suvdan ichmaydi” deganidir.

Shunday! Chunki barcha insonlar o‘tadigan Sirot ko‘prigi mo‘min ham, kofir ham jahannamni ko‘rishi uchun jahannam ustiga o‘rnatilgandir.

Mo‘min kishi jannatga kirishidan oldin jahannamni ko‘rishiga kelsak, bu ko‘rish unga Allohning ne’matini, rahmatini ko‘rsatadi, esiga soladi. Axir Alloh taolo uni o‘sha ko‘rib turgan do‘zax azobidan qutqardi. O‘shanda mo‘min kishi iymonning naqadar buyuk ne’mat ekanini his qiladi. O‘sha iymon uning qo‘lidan yetaklab, jahannam ustidan sog‘-salomat olib o‘tadi. Shuning uchun Alloh taolo bizga ushbu masalani eslatib, Qur’onda shunday degan: فَذُوقُوا بِمَا نَسِيتُمْ لِقَاءَ يَوْمِكُمْ هَٰذَا إِنَّا نَسِينَاكُمْ وَذُوقُوا عَذَابَ الْخُلْدِ بِمَا كُنتُمْ تَعْمَلُونَ

“Bas, (o‘sha kuni) kim do‘zaxdan uzoqlashtirilib, jannatga kiritilsa, demak, u (katta) yutuqqa ega bo‘libdi”. [4, 189]

Ammo, kofir kimsa esa, unga avval jahannam ko‘rsatiladi. Do‘zaxga kirishidan oldingi ushbu ko‘rish kofir uchun hasrat, nadomat va qo‘rquv ko‘rishi bo‘ladi. Chunki, u birozdan keyin o‘sha do‘zaxga kirishini, undan qutulolmasligini biladi. Ushbu masala Takasur surasida bayon qilingan.

Alloh taolo shunday deb marhamat qiladi:

أَلْهَاكُمُ التَّكَاثُرُ
حَتَّىٰ زُرْتُمُ الْمَقَابِرَ
كَلَّا سَوْفَ تَعْلَمُونَ
ثُمَّ كَلَّا سَوْفَ تَعْلَمُونَ
كَلَّا لَوْ تَعْلَمُونَ عِلْمَ الْيَقِينِ
لَتَرَوُنَّ الْجَحِيمَ
ثُمَّ لَتَرَوُنَّهَا عَيْنَ الْيَقِينِ
ثُمَّ لَتُسْأَلُنَّ يَوْمَئِذٍ عَنِ النَّعِيمِ

(Ey, insonlar!) Sizlarni (mol-dunyo) ko‘paytirish (Allohga ibodat qilishdan) mashg‘ul qildi. Hatto, maqbaralaringiz (ko‘pligi bilan faxrlanish)gacha bordingiz. Yo‘q! Yaqinda (buning oqibatini) bilursiz. Yana bir bor yo‘q! Yaqinda bilursiz! Yo‘q! Agar (dunyoparastlik oqibatini) aniq ilm bilan bilganingizda edi (uni do‘st tutmas edingiz). Qasamki, albatta, sizlar do‘zaxni ko‘rasiz! Yana bir bor qasamki, sizlar uni ayni ishonch bilan ko‘rasiz! So‘ngra ana o‘sha kunda (qiyomatda), albatta, (sizlarga ato etilgan barcha) ne’matlar to‘g‘risida so‘roq qilinursiz! [4, 187]

Ushbu suradagi لَوْ تَعْلَمُونَ عِلْمَ الْيَقِينِ oyatidan murod quyidagicha:

“*Agar sizlar Mendan sizlarga xabar bergan narsam – do‘zax va undagi azob haqidagi yaqiniy (o‘ta ishonchli) ilmni olsangiz, xuddi do‘zaxni ko‘rgandek bo‘lasiz. Chunki, Men sizlarga do‘zax haqida ishonchli, ilmiy ko‘rinishni xabar bermoqdaman*”.

Mana shu holat “**ilmul yaqiyn**” deb ataladigan holatdir. Alloh taolo Qur’onda do‘zax haqida nima deb xabar bergan bo‘lsa, o‘shani tasdiqlab, ishonish ilmul yaqiyn bo‘ladi.

“*Ammo oxiratda do‘zaxning o‘zini ko‘rasizlar*”.

Bu esa, “**aynul yaqiyn**”dir. Ya’ni, qiyomat kuni Sirot ustidan o‘tayotganda do‘zaxning qanaqaligini ko‘rasizlar. Demak, ko‘z bilan ko‘rish qiyomatda, Sirot ustidan o‘tish chog‘ida yuz beradi. Alloh taoloning mo‘min bandalariga rahmati va fazli sababli mo‘minning do‘zax bilan bo‘ladigan aloqasi shu chegarada (ya’ni faqat do‘zaxni ko‘rish bilan) tugaydi. Keyin unga do‘zaxdan najot, qutulish yo-

ziladi.

Shuning uchun Alloh taolo Takasur surasining oxirida:ثُمَّ لَتُسْأَلُنَّ يَوْمَئِذٍ عَنِ النَّعِيمِ

“So‘ngra ana o‘sha kunda (qiyomatda), albatta, (sizlarga ato etilgan barcha) ne’matlar to‘g‘risida so‘roq qilinursiz!” deyapti.

Ammo kofir esa – Alloh asrasin – uning uchun do‘zax bilan bog‘liq uchinchi bosqich boshlanadi. Bu bosqich – haqqul yaqiyndir. Bu bosqich Qiyomat kuni do‘zaxga kirganda va u yerdagi azobni totganda bo‘ladi. Bu haqida Alloh taolo shunday deb marhamat qilgan:

فَنُزُلٌ مِّنْ حَمِيمٍ وَتَصْلِيَةُ جَحِيمٍ إِنَّ هَٰذَا لَهُوَ حَقُّ الْيَقِينِ فَسَبِّحْ بِاسْمِ رَبِّكَ الْعَظِيمِ وَأَمَّا إِن كَانَ مِنَ الْمُكَذِّبِينَ الضَّالِّينَ

“Bordi-yu, u (dinni) inkor etuvchi gumrohlardan (chap tomon egalaridan) bo‘lsa, bas, qaynoq suvdan iborat “ziyofat”va do‘zaxda kuyish bordir. Albatta, bu (zikr qilingan narsalar) ayni haqiqatdir. Bas, Ulug‘ Rabbingiz ismi bilan tasbeh ayting! (Uning go‘zal ismlari ko‘p)”. [4, 92-96]

Demak, bizda do‘zax haqida ilmul yaqiyn bor. Bu do‘zax haqidagi ilm bo‘lib, Qur’ondagi do‘zax haqida kelgan ma’lumotlardir. Bu Rabbimizning bizga do‘zax haqida bildirgan ilmidir. “Albatta, do‘zaxning sifatlari mana bunday, mana bunday” deb, bizni do‘zaxdan ogohlantirgan. Biz shu dunyoning farovon hayotida yashab turganimizda, Alloh bizga do‘zaxni tanitib, undan ehtiyot bo‘lishga chaqirgan va ehtiyot bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatgan.

Aynul yaqiyn esa, oxiratda, Sirot ustidan o‘tayotganimizda, ostimizdagi do‘zaxni ko‘rganda bo‘ladi. O‘shanda do‘zaxni ko‘zimiz bilan ko‘ramiz. Haqqul yaqiyn esa, faqat kofirlarga bo‘ladi. O‘sha Kunda kofirlar do‘zaxga tashlanadilar va azobni boshlaridan kechiradilar. Mana shu **haqqul yaqiyn**dir.

Ko‘rinadiki, Navoy mazkur asarda “ilm” so‘zini ko‘p ma’noli so‘z sifatida qo‘llaydi.

Yuqorida keltirilgan ma’nodan tashqari mazkur so‘z asarda **ILM - 1. Bilim, ma’rifat. 2. Fan, biron sohaga oid bilimlar majmuasi:** *a)* ***ahli olimlar***; b) ***talabasi*** -o‘quvchilar; v) ***i musiqiy*** - musiqa ilmi nazariyasi; g) ***i lorayb*** – shaksiz to‘g‘ri ilm, diniy ilm; d) ***i g‘ayb*** – g‘oyibni bilishlik, kelajakdan xabar berish; e) **u amal** – ilmiga e’tiqod qilmoq; f) ***u fazl*** – ilm va fazilat kabi ma’nolarda ham qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Masalan,

*...**ilm talabasi** uchun madrasa ham ihdos qildi.* (Nasoyimul muhabbat, 122-b.)

Shuningdek, asarda **iltiyom** so‘zi ham qo‘llangan bo‘lib, mazkur so‘z ham asarda semantik tarkibiga ko‘ra ko‘p ma’nolilik kasb etadi. Masalan,

ILTIFOT – **lutf, e’tibor, marhamat**: *Va bu haqir borasida **iltifot**lari ko‘p erdi va ko‘p qatla fotiha bila duoyi xayr qilibturlar.* (Nasoyim-ul muhabbat. 160-b.)

Bundan tashqari, bu so‘z Navoiyning boshqa asarlarida yana boshqa qator ma’nolarda: **-ayla** *-qaramoq, marhamat;*[1, 11] **-ko‘rguz** *-lutf qilmoq, e’tibor qilmoq;* [3, 13] **-qil – 1.E’tibor qilmoq; lutf qilmoq** [2, 111]. **2. Lutfan tashrif buyurmoq** [3, 13] ma’nosida ham kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Asarda e’tiqod, ishonch, Xudoga ishonish; din ma’nosida keluvchi **imon** so‘zi ham Navoiyning so‘z qo‘llash mahorati asnosida ko‘p ma’nolilik kasb etganini ko‘rishimiz mumkin. Sababi, birgina “Nasoyimul muhabbat” asarining o‘zida matn tarkibidan turli ma’nolarda qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bir o‘rinda **-duosi** ma’nosini (*Bir niyozmand dediki, Xoja bizga **imon** duosi bila madad qilsalar bo‘g‘ayki, bu shayton domgog‘idin salomat jon eltgaybiz*),

LISON – **til, suxan, so‘z: -og‘riqi** -dil ranjishi, xafachilik, **-i hol** -tashqi holatidan ichki ma’nosining bilinishi, zohir bo‘lishi; **-ul g‘ayb -g‘aybdan keladigan ilhom, ilhomi ilohiy ma’nosini bildiradi.** Masalan,

...Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy-Alar **lisonul-g‘ayb** va tarjimonul-asrodurlar. (Nasoyimul muhabbat. 184-b.)

LIQO – uchrashish, ko‘rishish, vosil bo‘lish; **-ko‘rguz-//top** -ko‘rsatmoq, uchrashmoq; -siga musharraf bo‘lmoq, diydor ko‘rishmoq, uchrashmoq ma’nosini asardagi matnda uchratishimiz mumkin. Masalan,

*Chun alar **liqo**sig‘a musharraf bo‘ldum.* (Nasoyimul muhabbat. 127-b)

LIHOF – ko‘rpa, yopinchiq; kiyim ma’nosini ifodalovchi so‘zning ko‘p ma’nolilik kasb etishi o‘zgacha ekanligi kuzatiladi. Xususan, ba’zi o‘rinlarda, **Lo 1. -ku; -da** yuklamasini, **Lo 2. -yo‘q, emas** (inkor alomati)ni ifodalashini kuzatishimiz mumkin:

***Lo** iloha illalloh – faqat yakka Ollohdan boshqa iloh yo‘q: Jomi’da birov dedi: **Lo** iloha illalloh.* (Nasoyim-ul muhabbat. 110-b.) kabi.

MABSUD – sharhlangan, yoyilgan; yuborilgan vakil, ochiq keng; **mavlid – tug‘ilgan joy: tavallud vaqti.**

– *Alarning **mavlid**i Toshkandur va otalari darvesh kishi ermish* (Nasoyimul muhabbat. 139-b.)

MAVOIZ – va’zlar, nasihatlar, pandlar, o‘gitlar: *Va aning tili turk alfozi bila **mavoiz** va nasoiha go‘yo ermish* (Nasoyimul muhabbat. 157-b.)

MAJZUB – 1. Aqldan ozgan; devona; jinni:

majnun. 2. Tasavvuf ahli. *(...Xoja Ubaydulloh debturki, Mir hazratlari buyurrubturlarki, har yerga yetsam erdi,* ***majzub****lardin so‘rar erdim)* [4, 166].

Shuningdek, **majma’ – 1. G‘uruh, jamiyat** (*Ul aziz dedi; Bale va men ul* ***majma’****da shayx xizmatida hozir erdimki, birov aning zikrin qiladurlar erdi*). [4, 165]

Asarda bunday so‘zlar juda ham ko‘p kuzatiladi. Masalan, **imlo, imo, imomat, maylon** (xohish), **makkiy** (makkalik), **malbusat** (kiyimlar), **maloyik/ maloik** (farishtalar, malaklar), **mankuha** (nikohli xotin), **manoqid** (sifatlar, fazilatlar, go‘zal xislatlar), **mansuran** (yordam olgan holda), **mansha’** (biror narsaning o‘rni, kelib chiqish joyi), **manhiy** (man qilgan, ta’qiqlangan, qilib bo‘lmaydigan ishlar), **maorifpanoh** (ilm-ma’rifat homiysi: *...murod bu mubham adodin ul hazratqa janobi* ***maorifpanoh*** *Xoda Hofiz Ali Jomiydur…*) [4, 165], **marotib** (darajalar, martabalar: *Bovujudi bu biyik marotib ulcha oshubidin va muhabbat lag‘adko‘bin shayx boshig‘a tushubtur*) [4, 100], **marg‘inoniy** (marg‘ilonlik, taxallus), **marhalpaymon** (yo‘lchi, sayyoh, sayr qiluvchi, safarga otlanuvchi: *...mundoq arz qilur jahl vodiysining marhalpaymoni Alisher mulaqqab bin Navoiykim....*) [4, 95].

Asarda **joriq** so‘zi qo‘llanilgan. Ushbu so‘z polisemantik so‘z sifatida lug‘atlarda quyidagicha izohlanib: 1. Oquvchi, oqib turgan; aylanib yurgan; yurib turgan; kechgan; yurgan. 2. Amalga oshirish. 3. Yuritilgan. 4. Tasvirlanish, nishonlanish, namoyon bo‘lish, ko‘rinish – bo‘l-/o‘l- 1) oqmoq, oqib turmoq; 2) davom etmoq, uzaymoq; 3) taqozo qilmoq, hukm bo‘lmoq; 4) aytilgan, tilga olmoq ma’nolarida qo‘llanilib, “Nasoyimul muhabbat”da **aytilgan, tilga olmoq** ma’nosida qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Yana sidqdur ki g‘ayri voqi’ ***so‘z tilga*** *joriy bo‘lmag‘ay.* (Nasoyimul muhabbat, 172-b.).

Xulosa. Alisher Navoiy nafaqat adabiyotshunos, balki tilshunos olim sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning so‘z qo‘llash mahorati, umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati boshqa mutafakkirlar ijodida bu qadar yuqori darajada sezilmaydi.

Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida qo‘llangan so‘zlarning kamida 55-60% ini arabiy o‘zlashmalar tashkil etadi.

Asardan keltirilgan arabizmlar leksemalarning ma’no munosbatiga ko‘ra o‘zaro sinonimik qator, sinonimiya hodisasiga kirishadi. Biroq leksemalarning semantik tarkibiga ko‘ra, monosemantik va polisemantik so‘zlar sanaladi. “Nasoyimul muhabbat” asarida qo‘llangan arabizmlar ichida joy ma’nosini anglatgan (**marg‘inoniy** – marg‘ilonlik), martaba va daraja nomini anglatuvchi (shayx, **mujtahid** (jiddu jahd qiluvchi, sa’y-g‘ayrat bildiruvchi, din allomasi), **muzayyin** (ziynat beruvchi, bezovchi), kishi ism va taxalluslarini anglatuvchi, **mavlono** (ulug‘, buyuk, sohib, ustod), joy nomlarini anglatuvchi arabizmlar bir ma’noli – monosemantik so‘zlar sanaladi.

Asarda ko‘p ma’noli – polisemantik so‘zlarning qo‘llanilishi esa, albatta, Alisher Navoiyning so‘z qo‘llash mahoratining buyukligi, betakrorligini isbotlaydi va uni tilshunos Abdulhamid Nuromonov, [6, 219] N.Sayidiraximovalar [8, 116] ta’biri bilan aytganda, “buyuk tilshunos olim” ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 11-jild: Saddi Iskandariy. – Toshkent: Fan, 1993.

2.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild: Munshaot. – Toshkent: Fan, 1998.

3.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 15-jild. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. – Toshkent: Fan, 1999. 527-bet.

4.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 17-jild: Nasoyimul muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001. 527-bet.

5.Alisher Navoiy. Nasoyimul muhabbat. Nashrga tayyorlovchi Homidxon Ismoiliy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.

6.Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 328-bet.

7.O‘zbekiston Milliy ensklopediyasi, 2001. 80-bet.

8.Sayidiraximova N. Alisher Navoiy buyuk tilshunos olim sifatida // Islom tafakkuri. – Toshkent: O‘zXIA, 2022.

Zilola XUDOYQULOVA ,
QarMII akademik litseyi o‘qituvchisi
zilolaxudoyqulova007@gmail.com



“BOBURNOMA”DAGI LAQAB, NISBA VA TAXALLUSLARNING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada “Boburnoma”dagi onomastik birliklardan biri – laqab, nisba va taxalluslar va ularning leksik-semantik tasnifi haqida ilmiy manbalarga tayangan holda tahlillar keltirilgan hamda Boburning lingvistik va poetik birliklarni qo‘llash mahorati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *laqab, nisba, taxallus, tasnif, struktur-morfologik, Badaxshiy, Jomiy*

Аннотация: в данной статье анализируется одна из ономастических единиц в “Бобурноме”- прозвище, нисба и прозвища и их лексико-семантическая классификация на основе научных источников, а также описывается мастерство Бабура в использовании языковых и поэтических единиц.

Ключевые слова: *прозвище, нисба, прозвище, классификация, структурно-морфологическое, Бадахши, Джами*

Annotation: this article presents an analysis of one of the onomastic units in the “Boburnoma” - nicknames, nisba, and nicknames, and their lexical-semantic classification, based on scientific sources, and describes Babur’s mastery of using linguistic and poetic units.

Keywords: *nickname, relation, nickname, classification, structural-morphological, Badakhshi, Jomi*

Ism va ism qo‘yishning qadimiy va zamonaviy odatlari bor. Shaxslarni nomlashning eng qadimiysi ismlarga qo‘yilgan urug‘ va qabilalar nomlaridir. Laqab va taxalluslar esa ma’lum shaxsning nomini yanada oydinlashtirish uchun xizmat qilgan. Ular keyinchalik, kishilarga qo‘yiladigan ismlardan keyin paydo bo‘lgan [1]. Antroponimik ko‘lamga kiruvchi nom tiplaridan biri laqabdir. Laqab o‘tmishda taxallus, familiya ma’nosini ham anglatgan. Shu sababli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Laqab (a). 1. Biror xususiyatga ko‘ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom. 2. *esk. ayn.* taxallus. 3. *esk. ayn.* familiya”. 4. Hayvonlarga qo‘yilgan nom [2], deb izohlangan. O‘zbek tilidagi laqablarga oid bir qator tadqiqotlar ham mavjud. Ular E.Begmatov[3], S.Rahimov [4]. A.Ishayev [5], R.Sapayev [6], M.Rashidovalar [7] qalamiga mansubdir. “Boburnoma” asaridagi laqab va taxallus haqida esa F.Rajabov o‘z tadqiqotida alohida to‘xtalgan va asarda *Kark, Masnapiygo‘y, Sallox, Hizabrulloh, Bo‘ka, Darmiyon, Olachaxon, Chopuq, Hez, Xonikaxon, Qorako‘zbegim, Oqbegim, Miraki ko‘r devon, Xoja Husayn devon, Shoh Muhammad devona, Qorlugoch baxshi, Xalil devona* kabi laqablar hamda *Badaxshiy, Bayoniy, Binoiy, Faqiriy, Foniy, Gozurgohiy, Hiloliy, Hotifiy, Husayniy, Jomiy, Muammoiy, Osafiy, Suhayliy, Tufayliy, Vafoiy, G‘aribiy, Faqiriy* kabi taxalluslar borligi qayd etilib, laqablarning nomlanishiga qarab quyidagi semantik guruhlarga ajratilgan: 1) ikkinchi nom sifatida qo‘llangan laqablar: *Olachaxon, Xonikaxon, Qorako‘zbegim, Oqbegim;* 2) mashg‘ulotiga qarab qo‘llangan laqablar: *Masnapiygo‘y, Salloh;* 3) kuch-qudratni ifodalovchi laqablar: *Bo‘ka, Hizabrulloh;* 4) shu shaxs bilan bog‘liq bir voqeaga asoslangan laqabi: *Kark, Darmiyon* [15].

Asarda uchraydigan har bir laqabning qo‘yilish sabablari va holatlarini aytib o‘tiladi. “Boburnoma” asarida keltirilgan laqablarning atoqli ot kategoriyasiga mansubligi, onomastik ko‘lamga tegishliligi quyidagilarda ko‘rinadi: 1) laqab yakka shaxsni o‘zgalardan ajratishga xizmat qiladi va yakka individual tushuncha bilan bog‘lanadi. Bu jihatdan u atoqli otlik talabiga javob beradi; 2) ba’zan laqab o‘zi alohida ism o‘rnida qo‘llangan hollar uchraydi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida laqablar haqida quyidagi ma’lumotlar mavjud: *“Xonning Shohbegimdan ikki o‘g‘il va ikki qizi bor edi. Bu o‘g‘illardan kattasi va qizlardan kichik Sulton Mahmudxon edi. Samarqand va o‘z tumanlarida ba’zilar uni Xonikaxon deydilar. Sulton Mahmudxondan kichigi Sulton Ahmadxon bo‘lib, Olachaxon ismi bilan mashhur. Olachaxon deb atalishining sababi shundaki, aytishlaricha, qalmoq va mo‘g‘ul tilida qotilni “olachi”, deydilar. Qalmoqlarni bir necha marta bosib, ko‘plab odamlarini qirgani uchun “Olachi” deyilaverib, iste’molda Olacha atalib ketgan”* [B/N-35]; *“Yana bir qizi Ruqiya Sultonbegimning onasi Maxdum Sultonbegim edi, uni Qorako‘zbegim derdilar”* [B/N-33]; *“Ikkinchi qizi Soliha Sultonbegim edi, uni Oqbegim der edilar”. (B/N-40); 3) laqab ko‘p holda shaxsning ismi bilan birga va yaxlit holda shaxsning atoqli oti maqomini oladi. Masalan, “Bir marta Xiyobonda Ibrohim bekchik qilichbozlik qilganda yuzini chopdilar. Shundan so‘ng uni Ibrohim chopuq der edilar”* [B/N-52]; *“Yana, Shayx Abusaidxon darmiyon edi. Bilmadim, bir urushda Sulton Husayn mirzoga ot keltirganmi yo mirzoga qasd qilgan g‘animni daf qilganmi, har qalay bu laqab berilib edi”* [B/N-135]; *“Boshqa safar — Axsidan chiqayotgan*

mahalimiz Boqi hez bilan chopishdi. Hez desalar ham jasur va qilichini mahkam tutadiganlardan edi” [B/N-176] kabi.

Asarda laqab, nisba, sifatlash yoki taxallusning ismga aylanganini kuzatish mumkin. Masalan, *Mir Murtoz* “ro‘zani sidqidildan tutuvchi”*: Yana, Mir Murtoz edi. Hikmat ilmlari va aqliy ilmlarni yaxshi bilardi. U ko‘p ro‘za tutgani uchun shunday laqab olgan* [B/N-138]. Bu nisba mazkur shaxsning, asosan, nafsini tiyishda va ro‘za amallarini bajarishda atrofidagilar e’tiborini qozonganligini ifodalagan.

F.Rajabov tomonidan asardagi antroponimlarning tarkibidagi nisba va laqablarni struktur-morfologik jihatdan quyidagicha tasniflangan: 1) joyni ko‘rsatuvchi nisba: *Ali Seyistoniy, A’zam Humoyun Sarvaniy, Sulton Husayn Sharqiy;* 2) *mansab va martabani bildiruvchi nisba: Abdulaziz miroxo‘r;* 3) kasb-korni bildiruvchi nisba: *Abdulmuhammad nayzaboz, Mir sartarosh;* 4) alohida mahoratni ko‘rsatuvchi nisba: *Mavlono Masnadiy shoir, Mullo Muhammad Muzahhib;* 5) urug‘-qabilani bildiruvchi nisba: *Mirzoshoh qovchin;* 6) kasb-kori va urug‘-qabilani bildiruvchi nisba: *Qanbar Ali salloh mo‘g‘ul, Muhiddin Miskin Hofiz do‘ldoy;* 7) mansab va urug‘-qabilani bildiruvchi nisba: *Sayyid Qosim eshik og‘a jaloyir;* 8) laqab va urug‘-qabilani bildiruvchi nisba: *Muhiddin Husayn ko‘ragon do‘g‘lat;* urug‘-qabila+urug‘-qabilani bildiruvchi nisba: *Ya’qubbek oqqo‘yluq turkman;* 9) jismoniy mahoratni bildiruvchi laqab: *Humoyun bahodir;* 10) nuqsonni bildiruvchi laqab: *Sulton Muhammad ko‘sa;* 11) nasl-nasabni bildiruvchi nisba: *Abulmuhsin mirzo, Yodgor Muhammad Nosir mirzo* [15].

“Boburnoma” asarida laqab va nisbalardan tashqari ko‘plab taxalluslar keltirilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Asardagi taxalluslar haqida gapirishdan oldin nomshunoslikda taxalluslarning paydo bo‘lishi, tanlanishi haqida fikr yuritsak. “Onomastik tekshirishlar tilda taxallusning paydo bo‘lish, yasalish xususiyatlari hamda semantik tomonlarini o‘rganish, taxalluslarning ism hamda laqablardan, familiya hamda ota ismlardan farqli xususiyatlarini belgilash singarilar bilan shug‘ullanadi”[3]. Shu nuqtayi nazardan taxalluslarni o‘rganish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Taxallus bu shunchaki bir so‘z emas, balki adibning ijoddan ko‘zlagan maqsadini belgilovchi nom hamdir. Masalan, Navoiy – haq va haqiqat, adolat yo‘lida navo qiluvchi, Maxmur – ilohiy ishqdan mast bo‘lgan darvesh”[7] Manbalarda *Taxallus* so‘zi asli arabcha bo‘lib, “xalos bo‘lmoq”, “qutulish” ma’nolarini anglatadi [8]. Shuningdek, u “she’rda o‘zining asl otidan boshqa ikkinchi bir ot qo‘yish” tarzida ham izohlanadi, “Taxallus – ramziy nom, taxallus” [9] kabi izoh va dalillar keltiriladi. Ularning paydo bo‘lish sabablari esa manbalarda quyidagicha izohlanadi: “Muqaddas Islom dini ta’limotiga, payg‘ambar Muhammad alayhissalom o‘gitlari hamda o‘tmishdagi ulug‘ ajdodlarga ergashib yoki tug‘ilgan yeriga nisbat berib, taxallus tanlaganlar [11] yoki allonim – boshqa shaxsning nomi tarzida olingan taxallus; anagramma – ijodkor ismidagi harflar o‘rnini almashtirish orqali olingan taxallus; anonim – o‘z ismi va familiyasini teskarisiga o‘qish tarzida olingan taxallus; astronim – turli yulduzlar shaklida qo‘yiladigan taxalluslar; kriptonim – ijodkorning ismi va familiyasining bosh harflaridan yoki shu mazmunni ifodalovchi istalgan harflardan iborat taxallus va h.k.

Umuman olganda, taxalluslar atoqli ot sifatida tilda juda qadimgi davrlardan beri mavjud. Uning dastlabki namunalari qadimgi Gretsiyada paydo bo‘lgan. Shu sababli ham bir qator slavyan hamda rus tilida qo‘llanuvchi *psevdonim* so‘zi grekcha *psevdonymos* – “soxta nom” degan tushunchani anglatadi [12]. Onomastikada antroponimiyaning bir qismi sifatida tahlil va tadqiq etilmoqda. O‘zbek filologiyasida taxalluslarni to‘plash va o‘rganishga oid olib borilgan tadqiqotlarga o‘zbek matbuoti sahifalaridan 430 taxallusni to‘plagan T.Qorayev hamda Y.Is’hoqovning maqolalarini, T.Qorayev, R.Vohidovlarning “Taxalluslar” kitobini misol qilish mumkin. Shuningdek, taxalluslar haqidagi ba’zi ma’lumotlar “Nomlar va odamlar”, “Ismingizning ma’nosi nima?, “Nomnoma” kabi asarlarda uchraydi. T.Qorayev va V.Vohidovlarning “Taxalluslar” kitobida taxallusning qachon qo‘llanila boshlagani haqida fikrlar keltiriladi va turli manbalarga tayanib, arab va eron adabiyotida VII-VIII asrlardan taxallus udum bo‘lganligi aytiladi. E.Begmatov aniqlagan ma’lumotlarga ko‘ra Sharq xalqlarida, jumladan, o‘zbeklarda taxallus tanlash VII-VIII asrlarga borib taqalar ekan. Ayniqsa, adiblar o‘zi tug‘ilgan joyiga nisbat berib yasagan taxalluslar buni isbotlaydi: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy [12] va boshqalar.

Y.Avlakulov tadqiqotida taxalluslarning lug‘aviy asoslari, ularning tanlanish motivlarini 6 guruhga ajratib tahlil qiladi [13]. Shu tasnifga qarab “Boburnoma”da keltirilgan taxalluslarni quyidagicha tasnif qilish mumkin: 1. Taxallusga adib didiga maqbul tushgan mavhum so‘zlar asos bo‘lgan: *Vafoiy, Foniy, G‘aribiy, Faqiriy* va b. 2. Taxallus ijodkorning kasbi, hunariga ishora qilgan: ***Binoiy*** (binokor) va b. 3. Otasining ijtimoiy mavqei motiv yoki shaxsning nasl-nasabini ifodalovchi taxallus: ***Osafiy*** va b. 4. Ba’zan taxallus shaxsning ismidan yasalgan: *Husayniy* (Sulton Husayn Boyqaro) va b. 5. Taxallus shaxsning ona yurti, turar joyi nomidan yasalgan: *Badaxshiy, Jomiy* va b. 6. Mahoratiga qarab berilgan taxallus: ***Muammoiy*** va b. 7. Osmon jismlariga ishora qilib qo‘yilgan taxallus: ***Suhayliy, Hiloliy*** va b.

Xulosa qilib aytganda, olima Z.Xolmonova va bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, antroponimlar tarkibidagi nisba, laqab, taxalluslarning berilishini quyidagicha izohlab o‘tish mumkin: 1) nisba, laqab, taxalluslar shaxsni bir xil ismdagi boshqa shaxslardan farqlash vazifasini bajargan; 2) shaxsning jismoniy imkoniyati, tashqi ko‘rinishini tasvirlashga xizmat qilgan; 3) shaxsning fe’l-atvori, xarakter-xususiyatini

yoritgan [14]; 4) shaxsning mansab-martabasi, kasb-korini bildirgan; 5) shaxsning nasl-nasabidan darak bergan; 6) shaxsning ona yurti, turar joyini ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdialiyev A. Qarindoshlik atamalari tizimiga xos ba’zi nomlarning antroponimlar vazifasida qo‘llanishi haqida // “Onomastik birliklarning sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik tadqiqi masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Namangan, 2022-yil 15-16-aprel . – Toshkent, 2022.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
3. Begmatov E. Antroponimika uzbekskogo yazika: Avtoref. diss. … kand. filol. nauk. – Tashkent, 1965.
4. Rahimov S.M. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fanlari nomzodi diss. … avtoref. – Toshkent, 1988.
5. Ishayev A. Ob uzbekskix prozvishax // Onomastika Uzbekistana. – Tashkent, 1987.
6. Sapayev R. XIX asr Xiva davlat hujjatlaridagi ba’zi laqablar haqida / Respublika yosh filologlarining an’anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 1990.
7. Rashidova M.O‘zbek tilidagi laqablarning leksik-semantik uslubiy xususiyatlari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008.
8. Shamsiyev P. Ibrohimov S., O‘zbek klassik adabiyoti uchun qisqacha lug‘at. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1953.
9. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent, 1972.
10. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. III. – Toshkent: Fan, 1984.
11. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot (7-sinf), – Toshkent, 2017.
12. Andaniyazova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. Fil. Fan. b. f. dok. (Phd) diss. – Toshkent, 2017.
13. Avlakulov Y. O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi. Fil. Fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2012.
14. Xolmonova Z. “Boburnoma” leksikasi. Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2009.
15. Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari. Fil.fan.fal.dok(PhD) disser… – Toshkent, 2022.

Shahnoza BOZOROVA,
QarMII akademik litseyi o‘qituvchisi
Guljon0707@gmail.com



BADIIY MATNDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI
(“Boburnoma” asari misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada “Boburnoma” badiiy matnida keltirilgan onomastik birliklardan biri antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari, Boburning lingvistik va poetik birliklarni qo‘llash mahorati bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, antroponimlar, iyhom, talmeh, o‘xshatish, metafora, ta’rix, allyuziya.*
Аннотация: в данной статье описываются лингвопоэтические свойства антропонимов, одной из ономастических единиц, упомянутых в художественном тексте “Бобурнома”, и мастерство Бабура в использовании лингвопоэтических единиц.
Ключевы слова: *языкознание, антропонимы, аллюзия, сравнение, метафора, история, аллюзия.*
Annotation: this article describes the linguopoetic properties of anthroponyms, one of the onomastic units presented in the literary text “Boburnoma”, and Babur’s mastery of using linguistic and poetic units.
Keywords: *linguvopoetics, anthroponyms, innuendo, allegory, simile, metaphor, history, allusion.*

Til tinglovchiga ta’sir qiladigan qudratli vosita bo‘lgani uchun tilshunoslik fani adabiyot bilan uzviy bog‘liq va bu lingvopoetika fanini yuzaga keltirgan. “Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o‘rganuvchi bo‘limidir” [1;163]. Lingvopoetika yozuvchi hamda shoirlarning asarlarini o‘rganish, til va adabiy til namunalari bilan tanishish imkonini beradi. Asarning nafaqat til, balki mazmun jihatini ham qamrab oladi va faqat lingvopoetik tahlilgina matnning mazmun va shakl uyg‘unligini ko‘rsatib bera oladi. Badiiy matnlarda

ifoda usullari va ularning o‘quvchiga estetik ta’sirini tadqiq etuvchi poetikaning tasviriylikka xizmat qiladigan til vositalarini o‘rganishga ehtiyoj sezishi uni lingvopoetika bilan chambarchas bog‘laydi. Bu sababdan poetik til elementlariga lingvopoetikaning predmeti sifatida qaraladi. Shundan kelib qaraydigan bo‘lsak, “Boburnoma” asarining badiiy matnida qo‘llanilgan onomastik birliklar xususan tarixiy antroponimlarning badiiy matndagi o‘rni keng qamrovli bo‘lgani uchun, funksional faolligi uchun ularning antropoetonim sifatida talqin qilinishiga asos bo‘ladi. Matnda tilga olingan tarixiy antroponimlar ijodkorning maqsadini ko‘rsatib beradi. Bu maqsadni biz asarda keltirilgan she’riy parchalar yoki nasriy matnlarda ko‘rishimiz mumkin. Ijodkor muhim bir sana yoki biror voqeaga sababchi bo‘lgan kishi faoliyatiga *ta’rix* usulida fakt keltiradi:

***Ulug‘bek** bahri ulum-u xirad,*
Ki dunyov-u dinro az o‘ bud pusht.
Zi Abbos shahdi shahodat chashid,
*Shudash harfi ta’rix: “**Abbos kusht**”.* [2; 111]
yoki
Abdullatif xisravi Jamshid far ki bud,
Dar silki bandagonash Faridun-u Zarduhusht.
Bobo Husayn kusht jum’aash ba tir,
*Ta’rixash in naviski **“Bobo Husayn kusht”**.* [2; 112]

“Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma’lum bo‘lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg‘un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish” [3;124] usuliga allyuziya deyiladi. Bu misralarda keltirilgan *Ulug‘bek, Abbos, Abdullatif, Bobo Husayn* antroponimlari orqali tarixiy shaxslar tilga olinadi hamda ularning tarixda tutgan o‘rni haqida ma’lumot beradi va allyuziv nom vazifasini bajaradi. Ammo “*Abbos o‘ldirdi*”, *“Bobo Husayn kusht”* antroponimlari o‘z ma’nosidan yiroqlashib, endi bu so‘zlar shaxs ismidan tashqari ma’lum bir voqeaning sodir bo‘lgan kunini ham ifodalaydi va qo‘shimcha axborot beradi. Shu tariqa ma’lum bir voqea sanasi va shu voqeaga sababchi bo‘lgan kishini bilib olishimiz mumkin.

Asarda Bobur Samarqandni ikkinchi marotaba egallaganda shoirlar bu g‘alabani voqeaning she’riy ta’rixini aytgan: *Boz gufto xirad, ki ta’rixash: **“Fathi Bobur bahodur ast”**, bidon.* [2; 148] Bu baytda ham *“Fathi Bobur bahodur ast”* so‘zlar tizmasi orqali sodir bo‘lgan voqea va voqea sababchisiga ishora qilingan, shu bilan birga Bobur Mirzoni zamondosh shoirlar madh etgan.

Bilamizki, lirik janrlarda *o‘xshatish, iyhom, ta’riz, nido* va boshqa badiiy tasviriy vositalardan foydalaniladi. *Abdullatif edi **Jamshidsimon** shoh, Qullar safida **Faridun, Zardusht**. Bobo Husayn otdi juma kech uni, Ta’rixini yozgin: “Bobo Husayn kusht” (o‘ldirdi)*). Ushbu she’riy ta’rix Abdulatif haqida bo‘lib, she’rning birinchi misrasida Abdulatifni afsonaviy shoh Jamshidga o‘xshatishgan va unga kinoya qilingan. She’riy matnda Jamshid *o‘xshatish etaloni* bo‘lib kelgan. Ikkinchi misrada ham Faridun va Zardusht kabi hamma uchun tanish nomlar orqali uning yonida yuruvchi hamrohlarini aytib, *o‘xshatish* va *kinoya* qo‘llangan.

“Boburnoma”da keltirilgan ushbu qit’ada esa antroponim orqali iyhom san’ati qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin: *Ul sarvning harimig‘a gar yetsang , ey sabo,*

*Bergil bu hajr xastasidin yod ko‘ngliga. Rahm aylabon sog‘inmadi Boburni, bor umid Solg‘ay Xudoy rahmni **Fo‘lod** ko‘ngliga.* [2; 333]. Qit’aning 4-misrasida keltirilgan **Fo‘lod** antroponimi ikki xil ma’noda qo‘llanilganidan bilishimiz mumkin. 1-ma’nosi Fo‘lod (sulton) “*shaxs ismi”* ma’nosida, 2-ma’nosi “*po‘lat*”(qattiq jism) ma’nosida.

“Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o‘quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi.” [4; 88] Bobur asarda “…Muhammad Solih haqida gapirib, …bir yaxshi bayti budir: *Bo‘ldi **Tanbalg‘a** vatan Farg‘ona, Qildi Farg‘onani **tanbalxona**.*” [2; 262], deb baytni keltirib o‘tadi. “Andijon viloyatini **Tanbalxona** deydilar” [2; 262] deb izoh qoldirgan. “Allyuziya (lot. allusio — ishora, hazil) — barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul” [5; 27] bu baytda shu usulni ko‘rishimiz mumkin. Bu baytda *ta’riz* badiiy san’ati ham qo‘llangan. “Tanbal antroponimi orqali *tanbal* **(o‘ta ketgan dangasa, yalqov) so‘zining ma’nosida** *tanbalxona,* **ya’ni dangasalar, yolqovlar makoni hosil qilingan. Bu esa erkin o‘xshatishning ajoyib namunasi hisoblanadi. Tanbalxona so‘zi orqali zimdan** *mubolag‘a* **va** *kinoya* **kabi badiiy matn ko‘chimlarini tushunish mumkin”. [8; 55].**

Mifologik antroponimlar ham ayni shaklda badiiyatga aloqador bo‘lsagina mifopoetonimlik maqomini oladi. “Boburnoma”da keltirilgan ushbu to‘rtlikda mifopoetonimlar ham lingvopoetik xususiyatlarini ifodalagan. *Abdullatif xisravi **Jamshid** far ki bud, Dar silki bandagonash **Faridun-u Zarduhusht**. Bobo Husayn kusht jum’aash ba tir, Ta’rixash in naviski “Bobo Husayn kusht”.* [2; 111]. Bu she’riy ta’rixda *Jamshid, Faridun* va *Zardusht* mifopoetonimlari matnning onomastik ko‘lamini ken-

gaytirmoqda. “Muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlalar hamda matnlar pretsedent birliklar” [7; 87]. Bu ismlar pretsedent nom sifatida ko‘pchilikka tanish va ular bilan bog‘liq xususiyatlar ma’lum. Mifopoetonimlar badiiy matnda o‘xshatish, qiyoslash, onomastik metafora kabi vazifalarni bajarib keladi.

Asarda “…Bu Obburdandan quyiroqda bir chashma bo‘lib, bu chashma tepasida bir **mozor** turipti. Ushbu chashmadan yuqorisi Maschoga qarashli. Quyisi Palg‘arga taalluqlidir. Ushbu chashma boshida, uning yoqasidagi toshga bu uch baytni o‘yib yozdirdim:

Shunidamki, ***Jamshedi*** *farruxsirisht, Ba sarchashmaye bar sange navisht:*

“Bar in chashma chun mo base dam zadand, Biraftand to chashm barham zadand. Giriftem olam bo mardi-yu zo‘r, Va lekin naburdem bo xud ba go‘r”. Bu tog‘li maskanda toshga o‘yib bayt va narsalar bitish odatdir”. [2;163] Ushbu misralarda keltirilgan *Jamshedi* antroponimi hamma uchun tanish bo‘lgan nomdir. Bu misralar Shayx Sa’diyning “Bo‘ston” asarida keltirilgan hisoblanadi. Bu yerda Bobur misralar muallifini tilga olmaydi. Lekin bu misralar orqali shu hudud vakillarining odati aytiladi va matnda mozor tilga olinadi, shuning uchunmi Jamshiddek podshoh qabristonga quruq borganini yoki o‘ziga taskin bergandir, ehtimol. Birgina *Jamshid* antroponimi kitobxonga shu kabi ma’lumotlarni tanishtiradi. “Boburnoma” asarining badiiy matnida keltirilgan she’riy matnlardan tashqari nasriy matnlarida keltirilgan antroponimlar ham poetik, ham lingvistik yuk tashigan. Masalan, “…G‘aroyib voqealardan biri shuki, Sulton Husayn mirzo Badiuzzamon mirzoni yenggan **chorshanba** kuni, Astrobodda Muzaffar mirzo Muhammad Mo‘min mirzoni yengadi. Bundan ajabrog‘i shundaki, **Chahorshanba** ismli kishi Muhammad Mo‘min mirzoni qo‘lga tushirib keltiradi…” [2; 102]. F.Rajabov bu ism haqida quyidagilarni keltiradi: “Bu parchada **Chahorshanba** antroponimi orqali Chahorshanba ismli kishining chorshanba kuni tug‘ilganligini, ya’ni shu antroponimning nominatsiyasi ma’lum bo‘lsa, ikkinchi tomondan chorshanba kuni bo‘lgan voqeani Boburning xotirasida uzoq qolishi uchun sabab bo‘lgan. Boshqa bir baytda Bobur antroponimlar orqali *talmeh* lafziy sa’natini qo‘llagan: ***Shayx****-u* ***Mullo Shihob****-u* ***Xondamir****, Keling uch-uch, ikki-ikki, bir-bir.* [2; 510]. Bu misralarda antroponimlar orqali so‘z o‘yini qilib, *laf va nashr* badiiy-tasviriy san’ati qo‘llanib, kitobxonga estetik zavq bergan. Ya’ni birinchi misrada 3 nafar shaxs ismi keltirilib, ularni ikkinchi misrada 3 kishi bo‘lib yoki 2 kishi bo‘lib yoki bitta-bitta bo‘lib keling ma’nosida qo‘llangan. Yoki 1-misrada keltirilgan antroponimlar *uyushiq bo‘lak,* ya’ni sanash ohangida keltirilib, *ta’did* badiiy san’atiga asos bo‘lgan” [8; 66].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Boburnoma” asarida qo‘llanilgan onomastik birliklar badiiy matnda lingvopoetik xususiyatlar kasb etmoqda. Bu esa bu tarixiy matnda keltirilgan onomastik birliklarni tahlil qilishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati // Tanlangan asarlar. 3 jildli. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild.
2. Z. M. Bobur “Boburnoma”. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Mahmudov N. va boshqalar Ona tili (11-sinf) – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Andaniyazova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017.
7. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
8. Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari. Fil.fan.fal.dok. (PhD) disser… – Toshkent, 2022.

Maksadxon XAKIMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tilini o‘qitish metodikasi va
ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
maqsadxonhakimova@gmail.com

ADRIAN HENRI IJODIDA SEVIMLI SHAHAR OBRAZLARI VA ODDIY KISHILAR HAYOTINING POETIK IN’IKOSI

Annotatsiya: ushbu maqola Adrian Henrining hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir ijodining poetik talqini uning Liverpul madaniyati, shahar manzaralari va oddiy odamlar turmush tarziga hurmati va muhabbati orqali tahlil qilinadi. Maqolada shoirning o‘quvchilarni hayotning o‘tkinchiligi, muhabbatning mohiyati va ijodiy energiyaning tuganmas qudrati haqida mulohaza yuritishga undashi ta’kidlanadi. Shuningdek, Adrian Henrining Liverpul shoirlari harakatida tutgan o‘rni hamda ingliz adabiyoti va san’atiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *liverpul shoirlari, she’r, shoir, ingliz adabiyoti, ingliz poeziyasi, manzuma.*

Annotation: this article is dedicated to the study of Adrian Henri’s life and creative legacy, the poetic interpretation of his work is analyzed through his deep respect and love for Liverpool's culture, urban landscapes, and the lifestyle of ordinary people. The article emphasizes how the poet inspires readers to reflect on the transience of life, the essence of love, and the inexhaustible power of creativity. Additionally, it examines Adrian Henri’s role in the Liverpool Poets movement and his contributions to English literature and art.

Key words: *liverpool Poets, poetry, poet, English literature, English poetry, verse.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению жизни и творческого наследия Адриана Хенри. Поэтическая интерпретация его творчества анализируется через призму уважения и любви автора к культуре Ливерпуля, городским пейзажам и образу жизни простых людей. В статье подчеркивается, как поэт вдохновляет читателей размышлять о быстротечности жизни, сущности любви и неиссякаемой силе творчества. Кроме того, рассматривается роль Адриана Хенри в движении ливерпульских поэтов, а также его вклад в английскую литературу и искусство.

Ключевые слова: *ливерпульские поэты, поэзия, поэт, английская литература, английская поэзия, стихотворение.*

O‘tgan asrning 60-yillarda Liverpul shahrida vujudga kelgan adabiy oqim ayni davr yoshlarining fikrlari va his-tuyg‘ularini o‘zida aks ettirib, ingliz adabiyotiga yangi ruh olib kirdi hamda ingliz poeziyasida yangi yo‘nalish va estetik dunyoqarashning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Liverpul shoirlari nomi bilan adabiyot tarixi sahifalariga muhrlangan shoirlar orasida faqatgina Adrian Henri, safdoshlari Roger McGough va Brian Pattendan farqli o‘laroq, Londonning zamonaviy sahnasidan yuz o‘girib, Liverpulda qolishni afzal ko‘rdi va boshqa hech bir joyni bu shaharchalik yaxshi ko‘ra olmasligini aytdi. U asli liverpullik bo‘lmasa-da, bu shaharni hammamizdan ortiq sevardi va qayga bormasin, albatta, bir dunyo xotiralari bilan baribir Liverpulga qaytib kelar edi, deydi yozuvchi Willy Russell: “Throughout his adult life Adrian’s home was, resolutely, Liverpool. He was not a native – he came, travelled here, fell in love with this scabby whore of a city/this golden girl of a City, “dangling her landing stage in the water”. Many of Adrian’s contemporaries moved away from Liverpool, found and fell in love with other places. And yet amongst those same contemporaries, Adrian – the one who remined – was the true cosmopolitan. Where many, myself included, merely went to places, sometimes stayed in places, came back from places, Adrian travelled, journeyed, sojourned; and however apparently mundane or exotic his destination, he would always find riches, gaudy baubles, exquisite treasures all of which he sent or brought back in postcards, poems, stories, pictures an bags of glee. ”

Liverpul uning ilhom parisi, ijod bulog‘i, hayotga muhabbati edi.Shoir Liverpul shahri ko‘chalarining shovqini, ko‘chalardagi binolarning aksi, binolar bo‘g‘otidagi qushlar sayrog‘i-yu, quyuq daraxtlar soya-salqinini satrlari orasiga yashirdi.

Adrian Henrining Liverpul haqidagi ilk she’ri amerikalik shoir va yozuvchi Allen Ginsbergning 1965-yilda ushbu shaharga tashrifidan ilhomlanib yozilgan bo‘lib, u “Albion xonim, sizning ajoyib qizingiz bor” deb nomlanadi va unda shahar port sifatida tilga olinadi. Shoir Buyuk Britaniyani “Albion xonim”, Liverpulni esa “Albionning Mersi qirg‘og‘ining suvga o‘tish yo‘lagida tebranib o‘tirgan eng yoqimtoy qizi” (Albion’s most lovely daughter sat on the banks of the Mersey dangling her landing stage in the water) sifatida ta’riflaydi.

Shoirning 1971-yilda nashr etilgan Autobiography to‘plamining birinchi qismi Liverpulga bag‘ishlangan.

Birkenxedda o‘sgan Adrian Henri 1963-yil 17 yoshida Kaning ko‘chasidagi Liverpul 8-uy chordog‘iga ko‘chib keladi va shu yerdan uning ijodiy hayoti boshlanadi hamda 60-yillardagi she’riyat sahnasining muhim qismiga aylandi. Shoirning chordog‘i Brian Pattenning dastlabki she’rlaridan biri “Nonushtadan keyin”da ham uchraydi.

… coffee and a view	... qahva va manzara
Of teeming rain and	Shivalagan yomg‘irning,
the Cathedral old and grey but	eski va kulrang soborning
Smelling good with grass and ferns	O‘t-u o‘lanlarning xushbo‘yi bilan
(After Breakfast)	(Nonushtadan keyin)

Liverpul va 8-uy Adrian Henri uchun alohida ahamiyatga ega ekanligi uning “Liverpul she’rlari”, “Liverpulga Melodning kirib kelishi”, “Pere Ubu Liverpulda”, “Liverpul 8” nomli asarlari borligida ham yaqqol ko‘rinadi.

Liverpool, I love your	Liverpul men sening
horny-handed tons of soil.	shox-shabbali tuprog‘ingni yaxshi ko‘raman.
(Liverpool Poems)	(Liverpul she’rlari)

“Liverpul 8” boy tarixi, madaniy xilma-xilligi va jo‘shqin energiyasi bilan mashhur bo‘lgan Liverpul shahrining qiyofasi va ruhini aks ettiruvchi manzuma hisoblanadi. Asar shahar va bu yerda istiqomat qiluvchi aholining o‘ziga xos xarakteridan so‘zlaydi. Shoir shahar ko‘chalari, diqqatga sazovor joylar va kishilarning yorqin tasvirini chizadi. U shaharni rang-barangliklar va qarama-qarshiliklar maskani sifatida ta’riflaydi. Bu yerda baxtli yamaikan oilasi ham, tushkun kayfiyatdagi irland qo‘shni ham, shoir-u, o‘g‘ri, rassom-u talaba – turfa xil insonlar yashaydi. Mag‘rur, ammo qiyinchiliklarga ko‘nikib ketgan mehnatkash va bardoshli Liverpul xalqi tun-u kun mehnat qiladi. Shoir shahar haqida yozish bilan birga, uni tasvirlab suratlar ham chizgan. “Men biz yashagan va ishlagan tumanning pochtaxonasidan nariroqda joylashgan hududdagi har qayoqqa tashlangan chiqindilar, salfetkalar, devorlardagi yozib-chizib ketilgan skechlar, reklama taxtalaridagi e’lonlarga qarab “Liverpul 8” deb nomlangan bir qator turkum rasmlar yaratdim”2 , deydi u.

Shahar haqidagi qaydlarni shoirning yana boshqa ko‘plab she’rlarida ham uchratish mumkin. Masalan, “Men chizishni istayman” she’rida Adrian Henri “Kaning ko‘chasi yo‘laklaridagi har bir toshning ulkan suratlarini” yoki “Laym ko‘chasida tungi soat 11da mast kezib yurgan Pere Ubu qo‘shiqchilarini” chizishni xohlashini aytadi. “Adrian, agar men yaqin tarixning eng hayajonli davrlaridan birida yashayotganimni bilganimda, yana ham e’tiborliroq bo‘lgan bo‘lardim, deb hazil qilar edi. Lekin aslida, Adrian o‘zi yashagan davr va hududni juda yaxshi bilardi va agar kimdir 60-yillarning bilagidan bo‘yoq yuqi barmoqlari bilan tutib pulsini o‘lchagan bo‘lsa, bu u edi”3 deydi Roger McGough.

Liverpul shoirlari asarlarini tarix sahifalariga muhrlagan hodisa ham aynan shu – o‘z davri va zamondoshlarini yaxshi bilishlari va his qila olishlari edi.Ular she’riyat faqat ozchilikni tashkil qiluvchi elita kishilargagina tegishli yoki ziyolilar yig‘ilgan joylardagina o‘qiladigan narsa emas, deb hisoblashardi. Shu sababli ham o‘z she’rlari bilan jamiyatning hatto-ki “non-literary audience” (adabiy bo‘lmagan auditoriya) qismlarigacha kirib borishga harakat qilishardi. Bu haqida Adrian Henri tabaqalarga bo‘linib ich-ichidan parchalanib borayotgan jamiyat ichiga imkon boricha chuqurroq kirib borish o‘zining asosiy maslagi ekanligini aytib o‘tgan edi. U she’riyatga va rassomlikka muloqotning bir turi deb qarardi va “muloqot vositasi”4 sifatida she’riyat tasviriy san’atdan ham samaraliroq, deb hisoblardi.

Adrian Henri she’riyatni xat-savodi bo‘lmagan odamlarning qo‘llari yetmaydigan balandlikdan pastga olib tushgan va Liverpulning jafokash xalqi ongini uning qanotlarida yuksaklarga olib chiqqan ijodkorlardan biri edi. Aqlan yetuk inson ong darajasida, ma’nan yetuk inson qalb darajasida, ruhiyat darajasida o‘ylaydi, so‘zlaydi va shunday so‘zlarni tushunadi. Bor sa’y-harakati kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish va qorin to‘ydirish g‘amida bo‘lgan odam uchun yuqori pafosli so‘zlar tushunarli bo‘lmaydi, qalbdan qalbga yetib bormaydi. Faqatgina tirikchilik ko‘yida yurgan va eng oliy a’moli qorin-qursoqni to‘qlashdan iborat bo‘lgan kishiga biror nimani uqtirish uchun faqatgina yemak-ichmakdan so‘zlab ko‘ngliga yo‘l topish mumkin. Bu holat Liverpul shoirlari ichidan, aynan, Adrian Henri she’rlarida yaqqol ko‘rinadi.Sevgi-muhabbat haqida bo‘ladimi (Meat Poem – Go‘sht she’ri, Kiwi - Kivi), tabiat va landshaftlar tasvirimi (Liverpool Poems: Unfrocked Chinese mandarins holding lonely feasts in – Liverpul she’rlari: Kichkina xitoy mandarinlari yolg‘iz ziyofat o‘tkazmoqda) yoki shoir hurmat qilib, qadrlagan biror shaxsga bag‘ishlab yozilgan she’rlarmi (Salad Poem – Salad she’ri, Tea with the Poet – Shoir bilan choy ustida), barchasida oziq-ovqat mahsulotlari haqida so‘z borganligini va ayrim she’rlarda bu hol sarlavhaning o‘zidayoq aks etganligini ko‘rish mumkin.

Shoir yegulik mahsulotlari obrazi orqali nimalarni nazarda tutganligini tushunish uchun misol tariqasida fransuz rassomi Henri Rousseauga bag‘ishlab yozilgan “Salat she’ri”ni olsak, shoir bu yerda xuddi salatdagi har xil ingrediyentlarning kombinatsiyasi kabi turli tasvirlar va g‘oyalarni birlashtirganligini ko‘rishimiz mumkin. Salat o‘zida turli ta’m va teksturalarni birlashtirganidek,

she’rda haqiqiy hayot va syurreal tasavvurlarning turfa xil unsurlari noan’anaviy tarzda aralashtirib yuborilgan. Sarlavha she’rning eksperimental va eklektik tabiatini, uning Adrian Henri ijodiga va kengroq olib qaraganda Liverpul shoirlari maktabiga xosligini ta’kidlaydi.

I want to paint	Men chizishni istayman
All things bright and beautiful	Yorqin va go‘zal hamma narsalarni
All salads great and small	Katta va kichik hamma saladlarni
I want to make	Qilishni istayman
Blue skies bluer	Moviy osmonni moviyroq
Green grass greener	Yashil maysalarni yashilroq
Pink flowers brighter	Pushti gullarni yorqinroq
Like you	Sizga o‘xshab
Henri Rousseau	Henri Russo
(Salad Poem)	(Salad she’ri)

Adrian Henri oddiy odamlar uchun va ular haqida yozardi.Uning she’rlarida mehnatkash insonlar hayotining kundalik kechinmalari, his-tuyg‘ulari, kurashlari aks etgan. Ko‘proq introspektiv she’r bo‘lgan “Men” she’ri shoirning o‘zligini tadqiq qiladi, lekin bunda u ko‘plab oddiy odamlar boshidan kechirgan o‘z-o‘zini izlashning umumbashariy tajribalariga to‘xtalib o‘tadi.“Agar sen bo‘lmaganingda, kim bo‘lishni istarding?” deya savol beradi shoir she’r avvalida va tanlash uchun variant sifatida yuzga yaqin insonlarning ism-shariflarini sanab o‘tadi. Ular orasida shoir, yozuvchi, jurnalist, kompozitor, rassom, haykaltarosh, aktyor, san’atshunos va hatto siyosatchilar ham bor. Shoir “... va eng so‘ngida men” deya she’rni yakunlaydi. She’r insonni o‘z qiymatini bilishga, biz ideal deb bilgan xayolot aslida tasavvur ekani va real hayotda hammasi ham mukammal emasligini anglashga undaydi. Bu she’rda shoir insonlar, hatto iste’dodlilari va mashhurlari ham, mukammal dunyoning kamchiliklardan holi bo‘lmagan zarralari ekanligini ta’kidlaydi. She’r ko‘plab tasvirlardan tashkil topgan kollaj suratga o‘xshaydi. She’riyatdagi kollaj haqida uning o‘zi shunday deydi: “San’atda meni hayratga soladigan narsa bu metamorfoz jarayonidir.Shuning uchun, menimcha, yigirmanchi asrning yangi kollaj – yig‘ish an’anasi juda hayajonli.Fikrimcha, bugungi kunda ijod qilishning e’tiborga molik jihati, san’at asariga shaxsiy mazmun qanchalik kirib bormasin, uning umumbashariyligiga putur yetkazmasligi kerakligidir.”

Kechagi kunni unutmoq ham bashariyatga xos xususiyat.Qayta-qayta ko‘ylak almashtiraverasan, bitta ham ko‘ylaging bo‘lmaganida-chi, kechagina yegani nonimiz ham yo‘q edi, bugun oltin tovoqlarimiz quyosh nurlarida yaltirayapti, deydi shoir.

We loved each other in poverty	Bir-birimizni sevardik yo‘qchilikda
we lived of love and cold water	muhabbat va sovuq suv bilan yashardik
my body your freehold property	topshirgandim o‘zni senga qulchilikka
(What were you thinking about?)	(Sen nima haqida o‘ylading?)

Adrian Henrining og‘ir-bosiq inson va hamisha oddiylik va kamtarlik tarafdori bo‘lganligini zamondoshi – shoir va yozuvchi Adrian Mitchell shunday xotirlaydi: “Adrian was a great hero-worshipper. Art was his life and he celebrated artists of all kinds, while being modest about his own lovely work. He was also a great friend and comrade, may favourite Blues Brother on my wild poetry gigs. On a stormy night, when the poetry organizer had advertised us for the wrong night, or absconded with the cash, and all around were melting in dismay and anger, there would be a deep, spreading chuckle from the corner, as Adrian greeted disaster like an old friend – with a huge warm hug.” 9

Adrian Henri mazmun borasida keng ko‘lamli, shakl jihatidan anchayin erkin ijod qilgan shoir, she’rlarining asosiy qismi hayotiy global muammolar haqida bahs yuritadi. Insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, yaratuvchanlik va buzg‘unchilik o‘rtasidagi azaliy ziddiyat, kishilarning insoniyat va jamiyat oldidagi burchi kabi masalalar ijodining katta qismini tashkil qiladi. Uning she’rlarini uchta asosiy tematik qismga bo‘lish mumkin:

1. Muhabbat mavzusi. Adrian Henri avvalo san’at, tabiat, musiqa, sayohat, do‘stlik va sevgi oshuftasi edi. Uning bu turkumga kiritilishi mumkin bo‘lgan she’rlarida tasodifiy to‘qnashuvlar, hayot mo‘jizalari, go‘zal visol onlari, aldamchi tuyg‘ular, istaksiz ajralishlar tasvirlangan.

2. Joy tasvirlari. Bu turkum sher’rlariga Liverpul, Manchester yoki qandaydir xayoliy Metropolisning markazidagi shahar manzaralarini, Uels, Nyu-York yoki Janubiy Afrikaning uzoqdan ko‘rinuvchi landshaftlarini kiritish mumkin. Shoir qayerga bormasin, qayerda bo‘lmasin, albatta o‘sha joyning “buzilgan tasvirlar to‘plami” ni olib kelgan va oxir-oqibat ular she’rlar yoki rasmlarga aylangan.10

3. Bag‘ishlovlar. Adrian Henri o‘zi hurmat qilgan juda ko‘plab insonlarga bag‘ishlab she’rlar yozgan. Uning ijodi o‘zining tushunarliligi va she’rlarida tasvirlangan kishilar real hayotdagi odamlarga juda yaqinligi bilan ajralib turadi va XX asr o‘rtalaridagi Britaniya oddiy hayotining mohiyatini aks ettiradi.

Liverpul shoirlarining har uchalasiga birdek mashhurlik olib kelgan The Mersey Sound antologiyasidan keyin

shoirning she’rlari va suratlari jamlangan Collected Poems, 1967–85 (1986), Wish You Were Here (1990) va Not Fade Away (1994), vafotidan keyin esa Selected and Unpublished Poems 1965-2000 (2007) kabi o‘nlab to‘plamlari nashr etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Henri, A. Collected Poems.UK.Allison & Busby. 1986.
2. Henri, A. Contemporary Poets.Third Edition.St.James Press London., St. Martin’s Press New York. 1988.
3. Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965-2000.Liverpool University Press. 2007.
4. Liverpool 8 and 'Liverpool 8': The creation of social space in the Merseybeat movement | Exegesis (wordpress.com)
5. Taylor A. A poetry of place: the flÃ¢neur and Adrian Henri.Lancaster University (United Kingdom), ProQuest, UMI Dissertations Publishing, 2008. U506514.
6. The Liverpool Scene. Lucie-Smith, Edward. ed. New York:Doublday. 1968.

Ozoda ACHILOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

TAQIQ MAZMUNNING DIALOGIK NUTQDA FAOLLASHUVINI TA’MINLOVCHI OMILLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada taqiq ijtimoiy maqom bilan belgilanadigan hodisa ekanligi, turli vaziyatlarda kommunikantlarning yetakchilik holatlari o‘zgarib turishi kabi muloqot matniga oid qoidalar haqida fikr bayon etilgan. Muloqot diskursida ijtimoiy maqom turli tamoyillarga asoslanadi. U, birinchi navbatda, rasmiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu xususiyatlar ko‘proq faoliyat sohasi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, masalan, boshliq-xodim, hokim (gubernator)-fuqaro, zobit-oddiy askar va hokazolar ishtirokida voqelanishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *axloq me’yorlari, ijtimoiy xatti-harakat, taqiq, ruxsat, qatnashchi-so‘zlovchi, tinglovchi, suhbatdosh.*

Аннотация: в данной статье высказывается мнение о правилах текстового общения, например, о том, что запрет – это явление, определяемое социальным статусом, а лидерский статус коммуникаторов меняется в разных ситуациях. В коммуникативном дискурсе социальный статус основывается на разных принципах. Прежде всего, оно может носить официальный характер. Предполагается, что эти особенности проявляются больше в связи со сферой деятельности, например, при наличии начальника-служащего, губернатора-гражданина, офицера-рядового солдата и т. д.

Ключевые слова: *моральные нормы, социальное поведение, запрет, разрешение, участник-говорящий, слушатель, собеседник.*

Annotation: this article presents the idea that prohibition is a phenomenon determined by social status, and that the leadership status of communicants changes in different situations, such as the rules of the dialogue text. In the dialogue discourse, social status is based on various principles. It can, first of all, have an official character. It is suggested that these characteristics are more likely to be manifested in connection with the sphere of activity, for example, in the presence of a boss-employee, a governor (governor)-citizen, an officer-ordinary soldier, etc.

Keywords: *moral norms, social behavior, prohibition, permission, participant-speaker, listener, interlocutor.*

Kirish. Ilmiy manbalarda hurmat tamoyilining muloqot kontekstida faollashuvi faqat turg‘unlashgan formulalar va alohida grammatik shakllarning qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki ushbu tamoyilga amal qilish ijtimoiy xatti-harakat, axloq me’yorlari haqidagi bilimni ham talab qilishini ta’kidlaydi (Safarov, 2018:191-192). Demak, hurmat kategoriyasini keng ko‘lamli hodisa sifatida talqin qilish va uning tarkibiga kommunikantlarning ijtimoiy maqomi, gender xususiyatlari, ma’lumoti hamda ma’lum muloqot vaziyatida bajaradigan rolini kiritish lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har qanday nutqiy akt faollashuvi uchun ma’lum turdagi kommunikativ vaziyat mavjud bo‘lishi kerak. Yuqorida sanab o‘tilgan ko‘rsatkich va omillar kommunikativ vaziyatning asosiy bo‘laklarini tashkil qiladi. Binobarin, taqiq va ruxsat aktlari sodir bo‘lishi kutiladigan vaziyatlar quyidagilardan iborat (Karasik, 1992):

1) kommunikantlar ijtimoiy maqomi;
2) nutqiy harakat asosi;
3) ifoda shakli;
4) yordamchi nutqiy aktlar mavjudligi, asoslash imkoniyati;
5) taqiq yoki ruxsatning ehtimoldagi harakatga munosabati;
6) nutqiy akt natijasi;
7) umumiy vaziyat.

Taqiq vaziyatini belgilovchi dastlabki ko‘rsatkich kommunikantlarning ijtimoiy maqomi zamirida yuzaga keladigan munosabatdir. Taqiq nutqiy akti qatnashchilarining ijtimoiy maqomi bir xil emasligi tabiiy hol. Bunday notekislikda birinchi qatnashchi-so‘zlovchi shaxs ustunlikka ega bo‘ladi. Jumladan, taqiqlash huquqi yuqori tashkilot vakili, boshliq kabilarga tegishli (Karasik, 2002:78). Qiyoslang:

「伯爵は冷ややかに笑って、 『けがをして泣き言を言うなよ』 瞳は剣を手に構えた。」
(赤川次郎 「赤いこうもり傘」:74-b) .

Graf sovuqqonlik bilan kuldi va dedi: “Jarohat olib diydiyo qilib yurma”. Xitomi esa qo‘lida qilich bilan turardi.

Ko‘rinadiki, taqiq ijtimoiy maqom bilan belgilanadigan hodisadir. Biz turli vaziyatlarda kommunikantlarning yetakchilik holatlari o‘zgarib turishini kuzatdik. Zero, ijtimoiy maqom turli tamoyillarga asoslanadi. U, birinchi navbatda, rasmiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu xususiyatlar ko‘proq faoliyat sohasi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, boshliq-xodim, hokim (gubernator)-fuqaro, zobit-oddiy askar va hokazo. Shuningdek, biror kishining ijtimoiy maqomi vaqtinchalik bo‘lishi mumkin: mehmonxona menejeri, mehmonlar, sotuvchi-mijoz, haydovchi-passajir kabilar.

Natijalar. Sh.Safarov qayd etganidek, muloqot ishtirokchilarining maqomi va bajaradigan vazifalarini aniqlash kommunikativ rolni belgilashda muhimdir. “Alohida shaxslar ijtimoiy maqomi va roli ko‘lamidagi farqlar diskursiv birliklar tarkibida mavjud bo‘lgan sotsial-deyktik axborot tuzilishida aks topadi” (Safarov Sh. 2018. 193-b). Jumladan, biz to‘plagan misollar tahlili taqiq huquqi, asosan, ijtimoiy maqomi rasman belgilangan shaxslarga tegishli ekanligidan darak beradi. Bunday misollarning soni umumiy miqdorning 30% ini tashkil qildi. Shuning bilan birgalikda, ayrim diskurslarda taqiq nutqiy aktini bajaruvchi shaxsning ijtimoiy maqomi pastroq bo‘lishi (xodim-boshliq, mehmon-mehmonxona menejeri, mijoz-sotuvchi, askar-zobit kabi) mumkinligi ham kuzatildi. Qiyoslang:

ジェイムス：「動くな。慌ててはいけない。目を慣らすんだ。」
瞳：「どうしたんでしょうか。」
ジェイムス：「電気が消えたようだ。」
(赤川次郎 「赤いこうもり傘」：98-b)

Jeyms: “Qimirlamang, vahima qilmang. Ko‘zlaringiz ko‘niksin”.
Hitomi: “Nima bo‘ldi o‘zi?”.
Jeyms: “Chiroq o‘chdi shekilli” (Kasalxonadagi suhbat).

Muhokama. Ma’lumki, ijtimoiy munosabatlar oila a’zolari diskursiv faoliyatida ham o‘z aksini topadi. Oila a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy tabaqalanish odatda, quyidagi iyerarxik tuzilishga ega: opa-singil, opa-uka, er-xotin va hokazo. Kuzatuvlarimiz bu yerda ham taqiq nutqiy akti ikki tomonlama yo‘nalishga ega bo‘lishidan guvohlik beradi. Masalan:

Ota-ona – farzand munosabatida:

よくお母さんが言っていた「人さまに笑われないように。人さまに、めいわくをかけないように」と。 (高木敏子 「ガラスのうさぎ」: 82-b)

Onam doim: “Odamlarga kulgi bo‘lma. Odamlarni bezovta qiladigan ishlarni qilma” deb aytardilar.

O‘g‘il – ota-ona munosabatida:

「父上、母上様、自分もいよいよ特攻軍として、外地に参ることになりました。つきましては、来る八月二十日午後二時までに、阪急線西宮北口駅前にある広崎宅までおいで下さい。このお宅は宝塚空港隊に転任以来、新しくしていただいているので心配いりません。最後のお別れになるかもしれません。なにとぞお運びください。」
(高木敏子 「ガラスのうさぎ」 : 21-b)

Otajon, onajon. Men ham nihoyat chet elga maxsus hujum armiyasi sifatida jo‘naydigan bo‘ldim. Shu sababli, Hankyu yo‘nalishidagi Nishinomiya-Kitaguchi bekati oldida joylashgan, Hirozaki xonadoniga 20-avgust kuni soat 14:00ga qadar yetib keling. Xavotir olmang, bu uy Takarazuka aeroporti tarkibiga kirganidan keyin yangilangan. Bu so‘nggi vidolashuv bo‘lishi mumkin. Iltimos, albatta, keling.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida tahlil qilingan ko‘plab misollar tahlili natijasi shuni ko‘rsatadiki, tanish, do‘st, hamkasblar kabi ijtimoiy mavqeyi teng keladigan shaxslar muloqoti jarayonida taqiq nutqiy aktlarining faollashuvi eng ko‘p miqdorni (40 %) tashkil qilishi kuzatildi. Masalan:

「成瀬 はさっと躱して私の右手首を強い力で握った。「やめてよ」歯をくいしばりながら叫ぶと、成瀬は無言で手を離し、軽く私を突き飛ばした。」
(桐野夏生 「顔に降りかかる雨」:77-b).

Naruse tezda o‘ng bilagimdan mahkam ushlab oldi. “Bas qil” deya baqirdim tishlarimni g‘ijirlatib. U indamay qo‘yib yubordi va meni yengilgina irg‘itib yubordi.

Suhbatdoshlarning tengqur, do‘stlik munosabatlari juda yaqin bo‘lganida ular o‘rtasida hech qanday ijtimoiy mavqening farqi yo‘q va bunda birgina dialog parchasida taqiq ikki-uch marotaba takrorlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абе Кейко（阿部佳子）疑問命令文について：関連性理論の立場から//人間文化研究科年報、№ 16. – 奈良女子大学．2000．
2. Исикава Микико (石川美紀子)「命令に関する試論一語用論的条件と構文的条件との関係から ー」 2002.
3. Lutfilloeva F., Madaminovich T. I. Teaching Japanese Hieroglyphics Based on Mnemonics //Available at SSRN 3567573. – 2020.
4. Lutfilloeva F., The Japanese language teaching technologies based on computer simulation models //Asian Journal of Research in Marketing. – 2020. – T. 9. – №. 4. – С. 1-7.
5. Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. – Челябинск: 2018.
6. Романов А.А. Перформативные глаголы и иллокутивная функция высказывания // Прагматический условия функционирования языка. - Кемерово, 1987. - С. 7-11.
7. Халмурзаева Н.Т. Япон иш дискурсида ҳурмат коммуникатив категорияси (прагмалингвистик аспекти). Филол.фан бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореферати. – Т., 2018. - Б.49.

Jo‘rabek JOVLIYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA ONA TILI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola “Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida ona tili o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusida yozilgan bo‘lib, ona tilini o‘qitish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini tahlil etadi. Maqolada, milliy qadriyatlar bilan birga, inson huquqlari, erkinlik, tenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar ham ona tilini o‘qitishda qanday aks ettirilishi kerakligi muhokama qilinadi. Shuningdek, ona tili orqali yosh avlodga milliy madaniyat va an‘analarni singdirish, ularni global miqyosda yashashga tayyorlash maqsadlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona tili, jamiyat, o‘quvchilar, dars jarayoni.*

Аннотация: данная статья написана на тему "Особенности обучения родному языку в духе национальных и общечеловеческих ценностей" и анализирует роль и значение национальных и общечеловеческих ценностей в процессе обучения родному языку. В статье рассматривается, как наряду с национальными ценностями в преподавании родного языка должны быть отражены и такие общечеловеческие ценности, как права человека, свобода, равенство. Также обозначены цели привития подрастающему поколению национальной культуры и традиций через родной язык, подготовки их к жизни в глобальном масштабе.

Ключевые слова: *национальные и общечеловеческие ценности, родной язык, общество, учащиеся, процесс урока.*

Annotation: this article is written on the topic "Peculiarities of teaching a native language in the spirit of national and universal values" and analyzes the role and importance of national and universal values in the process of teaching a native language. The article examines how, along with national values, such universal values as human rights, freedom, and equality should be reflected in the teaching of the native language. The goals of instilling national culture and traditions to the younger generation through their native language and preparing them for life on a global scale are also outlined.

Key words: *national and universal values, native language, society, students, lesson process.*

Kirish. Ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonini loyihalash, aslida, ma‘naviyatni shakllantirish, o‘zligini anglashi va global madaniyatga moslashishini ta'minlashga qaratilgan.

Bag‘rikenglik xalqimizning oliy qadriyatlaridan biridir. Bu tuyg‘u qonimizga ulug‘ ajdodlarimizdan o‘tgan bo‘lib, qalbimizni munavvar tutadi,dunyo afkor ommasi orasida xalqimizga cheksiz ehtirom baxsh etib turadi. Xalqimizning Olloh in’om etgan bu fe’li turli og‘ir yillar sinovlarida ham o‘zining bukilmasligi va mustahkamligini namoyish etgandir.

Bu ulug‘ tuyg‘u endilikda, mustaqillik yillarida yanada yorqinlik bilan o‘z ifodasini topib turibdi. Har yili Mustaqillik bayramini nishonlar ekanmiz, uning timsolida, avvalo, mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki

kunlaridan boshlab mamlakatimizda millatlararo ahillik va hamjihatlikni ta'minlashga doimiy muhim ahamiyat berib kelinayotganining dalolatini ko'ramiz.

Bu ulug' tuyg'u xalqimizning tinchligi va omonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli mamlakat rahbari va hukumatimiz xalqimizni xalqaro miqyosdagi turli tahlikali vaziyatlardan ogoh etib, bu masalaga yuksak ahamiyat bermoqda. "Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali vaziyatda bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'imizdek saqlashimiz, yurtimizda millatlar va dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashimiz kerak", deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.[1; 10.].

Ona tilini o'rgatish jarayonida o'quvchilarga nafaqat grammatik va lingvistik bilimlar berish, balki ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash ham muhimdir. Buning uchun o'qituvchilar quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishlari kerak.

Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb sahovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Qadriyatlar va jamiyat munosabatlariga oid masalalar u yoki bu qarashlar tarkibida antik davr mutaffakkirlari Aristotel, Aflotun, Konfutsiy, Suqrot asarlarida, o'rta asr musulmon Sharqi falsafasida insonning zohiriy va botiniy o'zligini anglashga oid masalalar Abu Nasr Forobiy, Aziziddin Nasafiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy, Ibn Sino asarlarida yoritilgan.

Respublikamiz ilm-fan sohasida esa milliy g'oya, milliy qadriyatlar va siyosiy madaniyatning nazariy hamda amaliy jihatlari bilan bog'liq muammolar A.Ashirov, Q.Nazarov, R. Mavlonovaning "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" kitobi, N.Saidmuhammedov "Yangi pedagogik texnologiyalar" kabi olimlarning asarlarida yoritib berilgan.

MDH davlatlarida taniqli olimlardan S.A.Arutyunyan, L.P.Bueva, A.Butenko, A.Lektorskiy, P.I.Kushner chop ettirgan asarlarda insonning ijtimoiy borliqda o'zini idrok etishi, u orqali ijtimoiy jarayonlar holatiga ta'sir qilishi bilan bog'liq muammolar muhokama qilingan.

Rivojlangan mamlakatlarda N.Berdyaev, T.Gobss, G.Gegel, R.Dekart, I.Kant, Sh.Monteske, Z.Freyd, E.Fromm singari mutafakkirlar qarashlarida inson aql-u idroki, qadriyatlar va siyosat uyg'unligi tajribalari murakkab ijtimoiy-ruhiy holat ekani ochib berilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik hamda totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rinliki, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etishga mamlakatimizda o'ziga xos dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Keyingi vaqtda shu yo'nalishda katta ishlar amalga oshirilib, tabarruk qadamjolar obod qilinib, yangi-yangi ilmiy, madaniy va diniy markazlar, ta'lim maskanlari tashkil etilmoqda.

O'zbekistonning "Jaholatga qarshi ma'rifat" degan tamoyil asosida jahon miqyosida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, vijdon erkinligi va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash, islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va dunyo ahliga yetkazish borasidagi tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda."[3].

Darhaqiqat, islomiy ma'rifatning xalqlar o'rtasida o'zaro hurmatni mustahkamlash, shaxsni qadrlash, ayniqsa, farzandlar tarbiyasidagi ahamiyati o'ziga xosdir. Islom ta'limotiga ko'ra, farzand Alloh taolo tomonidan ato etilgan ulug' ne'mat, shu bilan birga, ota-onaga topshirilgan mas'uliyati juda ulkan imkoniyatdir ham. Nasl-u nasab davomchisini aqlan va jismonan sog'lom holda parvarishlash, odob-axloq va musulmonchilikka doir boshlang'ich ma'lumotlarni o'rgatib borish o'ta muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Tahlil va natijalar.O'qituvchilar turli metodlarni qo'llab, o'quvchilarga tilni o'rgatishda va tarbiyaviy jihatdan muvaffaqiyatga erishishda yordam berishlari kerak:

Interaktiv metodlar: Muammoli vazifalar, guruhli ishlar, rolli o'yinlar va muhokamalar orqali o'quvchilarni fikr yuritishga, muloqotga kirishishga va qadriyatlarni baholashga undash.

Darslarni qadriyatlar orqali boyitish: Masalan, biror asar yoki matnni o'qitishda o'quvchilarga qanday axloqiy yoki ijtimoiy masalalar haqida o'ylash, tahlil qilish va o'z fikrini ifodalashni o'rgatish.

Mamlakatimizda diniy bag'rikenglikning ezgu qadriyat sifatida ulug'lanishi xalqaro do'stona aloqalarning yo'lga qo'yilishida ham ahamiyatli

ekanligi xorijlik ulamolar tomonidan ham samimiy e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda dunyodagi barcha musulmon ahli islomning O'zbekistondagi ma'rifatparvarlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlayotgani bejiz emas. Ma'rifat, madaniyat, bag'rikenglik, ta'lim-tarbiya, ayollar va yoshlarga g'amxo'rlik, keksalarga hurmat, o'zga din ahli izzatini joyiga qo'yish kabi insonparvarlikka yo'g'rilgan g'oyalarning barchasi islomga xosdir. Ular bugungi O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgani islom ta'limotining to'g'ri yo'nalishini belgilab olish naqadar zarurligini aks ettiradi."[4].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni dars mazmuniga kiritish. Darslar davomida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni o'rgatish uchun:

Adabiyot: Milliy adabiyot vakillarining asarlari, xalq ertaklari, rivoyatlari va qahramonlari orqali o'quvchilarni milliy o'zlikni anglashga undash.

Tarix: O'quvchilarga milliy tarixiy voqealar va shaxslar haqida ma'lumot berish, ular orqali vatanparvarlik, mardlik va fidoyilik kabi qadriyatlarni o'rgatish.

Madaniyat va san'at: O'quvchilarga milliy musiqamiz, raqsimiz, tasviriy san'atimiz orqali milliy madaniyatni tanitish, shu bilan birga, umuminsoniy san'atning ahamiyatini tushuntirish.

"O'zbek zamini azal-azaldan islom ilmlarining o'chog'i sifatida dunyoga mashhur bo'lgan. Buxoro, Samarqand shaharlarida istiqomat qilgan aziz-avliyolar jahon tamadduniga beqiyos ulush qo'shganlar. Ular ilgari surgan insonparvarlik g'oyalari asrlar davomida dolzarb bo'lib, bugungi kunda ham dunyo afkor ommasining e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Qadimiy hamda biz uchun yaqin va qadrdon o'zbek zaminida bugungi kunda ro'yobga chiqarilayotgan savobli ishlarni diqqat va mamnuniyat bilan kuzatar ekanmiz, Prezident Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosat asosida ulug' allomalar, ma'rifatparvar shaxslarning ezgu g'oyalari yotganiga ishonch hosil qilamiz.

O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolitsiyasi qabul qilindiki, bu hujjat barchaga ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash, savodsizlikka va jaholatni tugatish, bag'rikenglik hamda o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish, diniy erkinlikka erishish, dindorlar huquqini himoya qilish va ularni kamsitishga yo'l qo'ymaslik singari xayrli ishlarga da'vat qiladi. Shu bois ham u butun sayyoramiz aholisi uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. O'zbekistonda ulug' mutafakkirlar va allomalar xotirasini abadiylashtirish bo'yicha tadbirlar bilan bir qatorda, ularning ta'limotlarini o'rganish, targ'ib etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilayotgani tahsinga loyiqdir. Faoliyat yuritayotgan diniy o'quv yurtlari – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti va qator madrasalar yuksak e'tirofga sazovordir. Ularda Buxoro dinshunoslik maktabining an'analari bilan hozirgi zamon fan-texnikasi taraqqiyotining yutuqlari mujassamlashgan" [5].

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yurtimizdagi ziyoratgohlarning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi, islom dinining insonparvarlik, ezgulik mohiyatini yanada chuqur his ettiradigan darajaga yetkazilishi kerak.

Shunday qilib, mamlakatimizda yosh avlodni chin vatanparvar, insonparvar kishilar qilib tarbiyalashda xalqimizning ezgu qadriyatlari, xususan, mehr-muruvvat, himmatlilik, saxovatlilik, o'zaro hurmat, xalqlar do'stligi, diniy bag'rikenglik kabi xalqimizga xos ulug' qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ona tilini o'qitishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash jarayoni orqali o'quvchilar faqat tilni o'rganish bilan cheklanmay, balki butun dunyo bo'ylab axloqiy, madaniy va estetik qadriyatlarni ham anglab yetadilar. Bu ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.–Toshkent: "O'zbekiston" HMUY, 2018. II.TOM
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz–Toshkent:"O'zbekiston" HMUY, 2018
3. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5 tom–Toshkent: "O'zbekiston", 1997. 111-112-betlar.
4. Boronsov V., Tafakur gulshani–Toshkent. Sharifa Abdurazzoqova tarjimasi,1989
5. Boronsov, V. Tafakkur gulshani. Sharifa Abdurazzoqova tarjimasi. –T.

Nargiza BOLTABOYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
boltaboyevanargiza37@gmail.com

ANGLIYA HUDUDIDAGI JOY NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI VA TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada Angliya hududidagi joy nomlarini lingvistik nuqtai nazardan tasniflash va ularning kelib chiqish manbalarini tahlil qilindi. Joy nomlari orqali xalqning madaniyati, urf-odatlari va tarixi haqida ko'plab ma'lumotlarni olish bilan bir qatorda, etimologik, morfologik, semantik, va sintaktik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: *Angliya, joy nomlari, tarixiy, lingvistik, David Abercrombie, Karib orollari, M.A.K.Halliday,toponimika, suffikslar, Albert Forrester, ekologik ahamiyat.*

Аннотация: в данной статье проанализирована лингвистическая классификация топонимов в Англии и источники их происхождения. Помимо получения большого количества информации о культуре, обычаях и истории народа через топонимы, были даны сведения об этимологических, морфологических, семантических и синтаксических особенностях.

Ключевые слова: *Англия, топонимы, историческая, живая история, Дэвид Аберкромби, Карибские острова, М. А. К. Холлидей, топонимика, суффиксы, Альберт Форрестер, экологическое значение.*

Annotation: this article analyzes the linguistic classification of toponyms in England and the sources of their origin. In addition to obtaining a large amount of information about the culture, customs and history of the people through toponyms, information was given on etymological, morphological, semantic and syntactic features.

Key words: *England, toponyms, historical, living history, David Abercrombie, Caribbean Islands, M.A.K. Halliday, toponymy, suffixes, Albert Forrester, ecological significance.*

Kirish. Angliya hududidagi joy nomlari (toponimlar) ko'p asrlik tarixiy, lingvistik va madaniy merosning muhim qismini tashkil etadi. Angliya hududidagi joy nomlarini lingvistik nuqtai nazardan tasniflash va ularning kelib chiqish manbalarini tahlil qilish orqali ko'p ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Joy nomlari orqali Angliya xalqining madaniyati, urf-odatlari va tarixi haqida ko'plab ma'lumotlarni olish bilan bir qatorda, etimologik, morfologik, semantik, va sintaktik xususiyatlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Angliyada joy nomlarining kelib chiqishi, qadimgi yoki zamonaviy toponimlar turiga mansubligi, tarixiy va lingvistik manbalarda qanday nomlanganligi, tarixiy jarayonda qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi,bu joy nomlari tillarning rivojlanishi anglo-sakson tillari birikishi kabi o'zgarishlarni o'rganish zarur.

Angliyada joy nomlari tarixiy va zamonaviy joy nomlari ekanligini isbotlovchi manbalarga e'tibor qaratib, Angliyada joy nomlari tarixda qanday nomlangan va bu joy haqida tarixiy va ilmiy dalillar qanday tadqiq etilganini va qay taraflama o'rganilganini tahlil etib ushbu maqolada tasniflab chiqamiz. Qadimgi tarixiy manbalarda katta qiziqish bilan tilga olingan joy nomlari haqida ko'plab ilmiy fikrlar geograflar, tarixchilar va tilshunoslar tomonidan o'rganilmoqda hamda ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. David Abercrombie Britaniyalik tilshunos, toponimist va antropologiya sohalarida tanilgan olim bo'lib, joy nomlari va ularning lingvistik tahlili bilan shug'ullangan. Uning ilmiy izlanishlarida toponimikaning ahamiyati va joy nomlarining etimologiyasi, ularning tarixi va madaniyati bilan bog'liqligini o'rganib bular haqida ma'lumotlar bergan Uning "Elements General Linguistics"(1968) kitobida umumiy tilshunoslikning asosiy tushunchalari va uning metodologiyalari keltirilgan bo'lib ilmiy izlanishlarda manba bo'la oladi. "The Study of Place-Names"(1970) kitobida joy nomlari tadqiqining lingvistik jihatlarini yoritib bergan [1.29].

Yana bir tilshunos John D. N. Anderson joy nomlari va ularning tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning "The Place Names of the Caribbean"ilmiy ishida Angliya va boshqa Karib orollaridagi joy nomlarini lingvistik jihatdan tadqiq etgan. Angliya hududi Rim imperiyasi Angliyaga kirganida, 1066-yilda Normanlar Angliyani bosib olganida va davrlar o'tishi ta'sirida joy nomlari ham o'zgarib borganligini tadqiq etdik[2.168]. Bunday o'zgarishlarni yana bir tilshunos Graham J.S.M.M. Smith joy nomlari va ularning madaniy kontekstdagi roli bo'yicha ko'plab maqolalar yozgan. Uning "Toponymy and Culture: The Caribbean Experience"ilmiy ishida joy nomlarining madaniy ahamiyatini, etimologik jihatlari va lingvistik o'zgarishlarning sabablarini tahlil etgan [3.208.]

M.A.K.Halliday ingliz tilshunosi lingvistika va til nazariyasi sohalarida tanilgan olim bo'lib tilshunoslik

va semantikaga oid tadqiqotlari bilan tanilgan, uning ishlarida joy nomlari va ularning tilshunoslikdagi o‘rni, struktur-semantik taraflari haqida fikrlar mavjud [4.79]. Michael J. O‘Brien Angliya hududidagi toponimlar va ularning tarixiy rivojlanishi borasida tadqiqotlar olib borgan, uning ishlarida Karib orollaridagi joy nomlari tahlil qilindi [5.127].

Tahlil va natijalar. Bu tadqiqotlar natijasida Angliya hududidagi joy nomlarini lingvistik tasnifini bir nechta asosiy mezonlarga bo‘lib chiqdik:

1. Fonetik xususiyatlar bo‘yicha:

- Tovush o‘zgarishlari: Asrlar davomida fonetik o‘zgarishlar natijasida ba‘zi joy nomlari asl ko‘rinishidan farq qiladigan shaklga ega bo‘lgan. Masalan, Londinium Rim davridan London shakliga o‘zgargan.

- Dialekt ta‘siri: Joy nomlarining talaffuzi va yozilishi mahalliy dialektlardan ta‘sirlangan. Masalan, Derby nomi turli mintaqalarda har xil talaffuz qilinadi.

2. Morfologik tarkib bo‘yicha:

- Suffikslar: Eng ko‘p uchraydigan suffikslar qatoriga -ton, -ham, -by kiradi. Bu suffikslar turli davrlarda joy nomlariga qo‘shilib, ularning ma‘nosini boyitgan.

- Prefikslar: Geografik yoki ijtimoiy ma‘lumot beruvchi prefikslar, masalan, West (g‘arb), North (shimol).

3. Semantik tasnif:

- Tabiat bilan bog‘liq nomlar: Masalan, Blackpool (“qora hovuz”) joyning tabiiy holatini aks ettiradi.

- Tarixiy voqealar yoki shaxslar bilan bog‘liq nomlar: Masalan, Nottingham (“Snot qabilasi joyi”).

4. Sintaktik qurilish bo‘yicha:

- Oddiy qurilish: Bir so‘zli nomlar, masalan, York.

- Murakkab qurilish: Bir nechta so‘zdan tashkil topgan nomlar, masalan, Stratford-upon-Avon.

Angliya joy nomlarining semantik tahlili ularning ma‘nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi va turli toifalarga ajratilib tadqiq etiladi:

1. Tabiat bilan bog‘liq nomlar:

- Suv havzalari: Masalan, Avon (“daryo”).

- Tog‘lar: Masalan, Penines (“tepalar”).

2. Tarixiy hodisalar bilan bog‘liq nomlar:

- Masalan, Battle (“jangi bilan mashhur joy”).

3. Madaniy va diniy ahamiyatga ega nomlar:

- Masalan, Canterbury (“Kanter monastiri”) [7.98.].

Lingvistik o‘zgarishlar orqali joy nomlarining shakli va ma‘nosi asrlar davomida o‘zgarib borgan. Ushbu o‘zgarishlar turli omillarga, jumladan, urushlar, migratsiya va dialektal ta‘sirlarga bog‘liq:

1. Fonetik o‘zgarishlar: Masalan, Londinium nomi bugungi kunda London shakliga ega bo‘ldi.

2. Grammatika va talaffuzdagi o‘zgarishlar: Masalan, Worcester nomi talaffuzda “Wuster” shakliga ega bo‘lgan.

3. Chet tillarining ta‘siri: Viking, Norman va Rim tillarining ta‘siri ko‘plab joy nomlarida uchraydi. Masalan, Chester (“castrum” so‘zidan).

Bugungi kunda zamonaviy toponimika fani joy nomlarini chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ham o‘rganmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

1. Ekologik ahamiyat: Joy nomlari orqali tabiiy resurslar va landshaftni belgilash.

2. Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish: Savdo markazlari va sanoat hududlari nomlarini o‘rganish.

3. Madaniy merosni saqlash: Tarixiy joy nomlarini tiklash va ularning asl ma‘nosini qayta kashf qilish.

Xulosa. Keltirilgan ilmiy dalillar va tarixiy manbalarning malumotlariga tayangan holda xulosa qilib aytish mumkinki, Angliya hududidagi joy nomlari ularning tarixiy, lingvistik va madaniy merosi haqida boy ma‘lumot beradi. Ularning tasnifi va tahlili orqali qadimiy sivilizatsiyalar ta‘siri, til o‘zgarishlari va inson faoliyati haqida chuqur bilim olish mumkin. Shu sababli, toponimlarni o‘rganish faqat lingvistik tadqiqotlar uchun emas, balki tarix, geografiya va madaniyat uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlar davomida joy nomlari nafaqat tilning rivojlanishini tushunishga, balki insoniyat tarixini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelajakda bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar lingvistika, tarix va geografiyaning kesishgan nuqtalarini yoritishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abercrombie, D. The Linguistic Analysis of Place-Names –London: Routledge.1991.
2. Anderson, J. D. N. The Place Names of the Caribbean –Kingston: University of the West Indies Press.2000.
3. Smith, G. J. S. M. M. Toponymy and Culture: The Caribbean Experience – New York: Palgrave Macmillan.2010.
4. Halliday, M. A. K. An Introduction to Functional Grammar –London: Edward Arnold.1994.
5. O‘Brien, M. J. Historical Development of Place Names in the Caribbean –Miami: Caribbean Studies Press.2015.
6. Ekwall, E. The Concise Oxford Dictionary of English Place-Names – Oxford: Oxford University Press.1928.
7. Cameron, K. English Place-Names –London: Batsford.1996.
8. Gelling, M. Signposts to the Past: Place-Names and the History of England – London: J.M. Dent Sons.1988.

Dildora TASHMUXAMEDOVA,
Oriental universiteti o‘qituvchisi

XITOY TILI TAQLID SO‘ZLARINING FONETIK TAHLILI

Annonatsiya: ushbu maqolada xitoy tili taqlid tovushi hamda u ifodalagan ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Taqlid tovushlar biror tovushning aynan o‘zini ifodalash bilan bir qatorda tovushning yozuvdagi ramziy ifodasi ham sanaladi. Tovushdagi birgina unlining o‘zgarishi bilan tovush va u beradigan ma’no ham o‘zgarib ketishi mumkin. Bundan tashqari, xitoy tilida taqlidlarida final ishtiroki hamda har bir unli tovushning taqlidlar hosil bo‘lishidagi o‘rni statistika metodi orqali tahlilga tortiladi. Sodda unlilardan tashkil topgan taqlidlar umumiy taqlidlar leksik fondining katta qismini egallashi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *taqlidlar, fonema, fonetika, initsial, final.*

Annotation*:* this article examines the relationship between the Chinese onomatopoetic sound and the meaning it conveys. Onomatopoetic sounds are not only a representation of a sound itself, but also a symbolic representation of a sound in writing. A single unlinking change in a sound can change the sound and the meaning it conveys. In addition, the participation of the final in the onomatopoeia in the Chinese language and the role of each vowel sound in the formation of imitations are analyzed using the statistical method. It is shown that imitations consisting of simple vowels occupy a large part of the lexical fund of general imitations.

Key words: *onomatopoetic words, phoneme, phonetics, initial and final.*

Аннотация*:* в этой статье рассматривается связь между китайскими звукоподражающими словами и выражаемым ими смыслом. Звукоподражание является не только выражением самого звука, но и символическим выражением звука на письме. Изменение всего лишь одного гласного звука может привести к изменению всего звука и его смыла. Кроме того, статистическим методом анализа является участие финала в звукоподражаниях в китайском языке и роль каждого гласного звука в формировании звукоподражаний. Показано, что подражания состоящие из простых гласных, занимают большую часть лексического фонда общих подражаний.

Ключевые слова: *звукоподражательные слова, фонема, фонетика, инициаль и финаль.*

Til tarkiban juda boy va murakkab bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Olimlar tilning paydo bo‘lishi, uning rivojlanishi, tasnifi, til va nutq, til va inson organizmi hamda til va tovush munosabatlarini o‘rganib, ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Hozirgi zamon olimlari semantika hamda fonetika o‘rtasidagi bog‘likni o‘rganishga harakat qilmoqdalar. Bir guruh olimlar so‘z ma’nosi hamda uning talaffuzi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud desalar, boshqa bir guruh tilshunoslar so‘zning talaffuzi ma’nosiga ta’sir qilmaydi, degan fikrdalar.

Biz semantik ma’no va tovushlar o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q deb hisoblaymiz. Biroq, shunday so‘z turkumi borki, uni amerikalik tilshunoslar Fromkin, Rodman hamda Hyams “ma’nosi talaffuzidayoq aks etuvchi so‘zlardir” deb ta’riflagan[1]. Bunday turkum taqlidlar bo‘lib, tabiat va insoniyat bilan bog‘liq tovushlarni tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib talaffuzda hamda yozuvda aks ettiradi.

Zamonaviy xitoy onomatopeyasi hozirgi zamon xitoy tili lug‘atida o‘ziga xos o‘rin egallaydi va 300ga yaqin taqlidlar so‘z sifatida lug‘at tarkibiga kiritilgan. Taqlidlar masalasi xitoy tilshunosligida ilk marta 1950-yillarda ikki olim Lyuy Shusyang va Dju Desi tomonidan yozilgan “Grammatika va stilistika bobida” kitobida ko‘tariladi. Tilshunoslar, avvalo, taqlidlarning so‘z sifatida shakllanganligi hamda turkumlarga xoslik belgilari haqida fikr yuritadilar. Taqlidlar barcha tillarda o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Ularning boshqa turkumlardan farqi biz tabiiy tovushlarni taqlid qilib fonetik shakllardan foydalanishda sezgi a’zolarimizga tayanamiz, uning ma’nosini ifodalashda esa fonetikadan foydalanamiz. Xitoy tilida taqlidlarning qat’iy ma’nosi bo‘lmasa-da, ma’lum bir til muhitida tovushni ifodalab, tinglovchida tasavvur uyg‘otadi. Masalan, **“**他把汽车嗖地一声开走了**”** 。Bu yerda “嗖” taqlidi faqat mashinaning harakati uchun emas, balki umuman tez sur’atda sodir bo‘lgan ish harakat uchun qo‘llaniladi.

Til muhim ijtimoiy aloqa vositasi, ma’no tashuvchisi va fikrlash vositasidir. Til tizimini tashkil etuvchi eng asosiy elementlar tovush, ma’no va shakldir. Har qanday til tovush va ma’no birikishi orqali hosil bo‘ladi. Semantika ma’lum ma’noni ifodalovchi fonetika shaklida ifodalanadi va fonetikaning tashqi ifodasi hamdir. Tildagi talaffuz va ma’noning kombinatsiyasi ma’lum bir guruhlar tomonidan kelishilib tilga kiritiladi. So‘z tovushlar birikuvidan yuzaga kelsa ham, uning ma’nosida tovushlar va ularning talaffuzi rol o‘ynamaydi, aks holda tilda turli ma’noni beruvchi omonim so‘zlar uchramasdi. Biroq, taqlidlar borasida bunday fikrni berolmaymiz. Dunyodagi barcha tillar taqlidlarida talaffuz

1 Fromkin V., Rodman R. Hyams N.An introduction to language. – Wadsworth: Cengage Learning, 2014. – P.69.

semantikani farqlashda muhim omil bo‘lib, tovush va ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlik ajralmas hisoblanadi. Zamonaviy xitoy onomatopeyasida ham so‘z ma’lum bir tovushga taqlid qilish uchun yaratilgan bo‘lib, tabiiy ravishda tovush va ma’no o‘rtasida yaqinroq munosabat bo‘ladi. Onomatopeyaning ba’zi tovushlari baland, aniq yoki keskin harakatlarni taqlid qiladi, boshqa tovushlar esa tez, kichik tovushlarni yoki yumshoq, yengilroq harakatlarni taqlid qiladi. Xitoy tili taqlidlarning tovush va ma’no bog‘liqligini ko‘rish uchun, avvalo, xitoy tili fonetikasini tahlil qilishni ma’qul ko‘rdik.

Xitoy tili fonetikasi birmuncha murakkab bo‘lib, eng kichik morfema – bu iyeroglifdir. Xitoy belgilari bir morfema, bir bo‘g‘in, bir tovush hamda ma’no birlashuvidan hosil bo‘ladi. Biz iyeroglif tovushini tahlil qilish uchun pinyindan foydalanamiz va aynan lotin alifbosi harf va tovushlarini hozirgi zamon xitoy tili fonetikasi sifatida o‘rganamiz.

Taqlid so‘zlar morfema tarkibidagi bir undosh yoki unlining o‘zgarib qolishi, ya’ni portlovchi undosh sirg‘aluvchi undoshga almashishi yoki keng unli tor unliga o‘zgarishi bilan ma’no hamda taqlid so‘z anglatadigan tovush tubdan o‘zgarib ketishi mumkin. Xitoy tili taqlid so‘zlarini ma’no jihatidan tahlilga tortish uchun, avvalo, pinyin alifbosi va uning tovush tizimini o‘rganish, har bir tovushning xitoy tili taqlid so‘zlarida tutgan o‘rnini aniqlash lozim, deb hisoblaymiz.

Fonema tushunchasi xitoy tilshunosligiga xos emas, buning sababi esa eng kichik til birligi, ma’no va bo‘g‘inning iyeroglif nuqtasida kesishishida yotadi. Biz xitoy tovush tizimini initsial va finallarga bo‘lib o‘rganamiz: undosh tovush asosidagi initsiallar hamda unlilar asosidagi finallar. Ushbu maqolada xitoy tilida taqlid so‘zlarning pinyin alifbosi asosida unlilar tizimi hamda taqlidlardagi unlilar o‘rni o‘rganiladi hamda statistik tahlil qilinadi.

Xitoy tili final tizimi 39 unlidan iborat, bulardan 10 ta bir fonemali unlilar, 13 ta murakkab fonemali va 16 ta burun fonemasi ishtirokidagi finallardir[1]. Ushbu turlarning barchasi orqali xitoy tili taqlid so‘zlarini hosil qilish mumkin (Jadval 1).

1 Лин, Хайань К вопросу о преподавании фонетики китайского языка как иностранного / Хайань Лин // Иностранные языки в высшей школе. – 2014. – № 1. – С.83–89.

№	Final turi	Taqlid tovushlari	Taqlid tovushlardagi ulushi
	Sodda final	ba, bo, pa, po, pi, pu, da, de, du, di, tu, la, lu, li, mi, yi, ze, zi, ci, sa, se,si, su, zha, zhi, cha, chi, sha, qu, qi, xu, xi, ga, ge, gu, ka, ha, he, hu, yu, ye, wu, wa, wo, e, yi, ya, ye	36%
	Murakkab final	biao, mou, miao, mie, dao, dou, tei, tuo, nao, lie, liu, cai, cao, cui, sou, suo, zhou, zhuo, shua, chua chou, jie, jiu, qie, xiao, xiu, gua, guo, hua, huo, hei, hui, yao, er, ao, ou, you, yue	29%
	Burun tovushili final	bang, beng, pang, peng, ping, feng, ming, dang, deng, dong, ding, tang, teng, tong, nan, lang, leng, long, ling, lin, ceng, cong, zheng, zhuan, chan, cheng, chong, jian, qiang, ran, ren, rong, gang, guang, keng, kong, kuang, heng, hong, huang, yin, ying, yong, wang, weng	35%

Jadval 1

Xitoy tili finallarini tovushning asosi sifatida e’tirof etish mumkin. Sodda va murakkab finallarning o‘zi ma’no berishi va bir so‘z doirasiga kiritilishi mumkin, ohang ham final asosida hosil qilinadi. Finallarning struktur tasnifi asosida sodda finaldan iborat taqlidlar eng ko‘p ko‘rsatkichga ega bo‘lib (36%), burun tovushili finallar esa ozgina

farq bilan kamroq (35%), murakkab finalli taqlidlar nisbatan kam bo‘lib, umumiy onomatoplarning 29%ini tashkil etdi.

Xitoy tili finallarini og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra ham turlarga bo‘lish mumkin:[1]

1 Пруцких Татьяна. Проявление иконизма в языке: экспериментально-теоретическое исследование. Дис. – Бийск: Бийский педагогический государственный университет им. В.М. Шукшина, 2008. С.56

Ochiq finallar: i, a, o, e, e, ai, ei, ao, ou, an, en, ang, eng, er

O‘rta ochiq finallar: i, ia, ie, iao, iu, ian, in, iang, ing

Yopiq finallar: u, ua, uo, uai, ui, uan, un, uang, ueng, ong

Cho‘ziq finallar: u, ue, uan, un, iong

№	Final turi	Taqlid tovushlari	Taqlid tovushlardagi ulushi
1	Ochiq final	Zi, ci, si, ba, pa, da, la, sa, zha, cha, sha, ga, ka, ha, bo, po, e, de, ze, se, ge, he, er, cai, tei, hei, ao, dao, nao, cao, ou, mou, dou, sou, zhou, chou, nan, chan, ran, ren, bang, pang, dang, tang, lang, gang, beng, peng, feng, deng, teng, leng, ceng, zheng, cheng, keng, heng	44%
2	O‘rta ochiq final	Yi, pi, mi, di, li, ji, qi, xi, ya, ye, mie, lie, jie, qie, yao, biao, miao, xiao, you, liu, jiu, xiu, jian, yin, lin, qiang, ying, ping, ming, ding, ling	24%
3	Yopiq final	Wu, pu, du, tu, lu, su, gu, hu, wa, chua, shua, gua, hua, wo, tuo, suo, zhuo, guo, huo, cui, hui, zhuan, wang, guang, kuang, huang, weng, dong, tong, long, cong, chong, rong, kong, hong	27%
4	Cho‘ziq final	yu, qu, xu, yue, yong	5%

Jadval 2.

Cho‘ziq finallar umumiy finallarning eng kam miqdorini aks ettirgani holda, taqlid tovushlarining ham 5%ini tashkil qildi. Taqlidlar orasida og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra ochiq finallar eng katta qismni tashkil etdi (44%). O‘rta ochiq hamda yopiq finalli taqlidlar umumiy taqlidlarning 24% va 27%ini tashkil etadi (Jadval 2).

Xitoy tili taqlid leksikasi ko‘lami keng, finallarning og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra hamda struktur jihatidan tasnifiga ko‘ra barcha turlari orqali taqlidlarni hosil qilish mumkin. Ochiq va sodda finallar taqlidlarni hosil qiluvchi finallarning asosiy qismini tashkil etadi, deb xulosa qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.李镜儿. 现代汉语拟声词研究. – 上海：学林出版社，2006.

2.Fromkin V., Rodman R. Hyams N.An introduction to language. – Wadsworth: Cengage Learning, 2014.

3.Лин, Хайань К вопросу о преподавании фонетики китайского языка как иностранного / Хайань Лин // Иностранные языки в высшей школе. – 2014. – № 1.

4.Пруцких Татьяна. Проявление иконизма в языке: экспериментально-теоретическое исследование. Дис. – Бийск: Бийский педагогический государственный университет им. В.М. Шукшина, 2008.

Shavkatillo MAMAJONOV,
Andijon davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
Mamajonovshavkatillo@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “TAOM” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR PRAGMATIKASI VA LINGVOMADANIY JIHATLARI

Annotatsiya: maqola ingliz va o‘zbek tillarida “taom” komponentli frazeologik va paremiologik birliklar pragmatikasi va lingvomadaniy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek tillarida “Taom”leksemasining mohiyati haqidagi xalq g‘oyalari, o‘zbek va ingliz madaniyati vakillari tomonidan ushbu tushunchani tushunishdagi farqlar tilning leksik, frazeologik va paremik birliklarining distributiv munosabatda bo‘lishi o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar*: paremiologik birliklar, frazeologik birliklar, ironiya, idioma, realiyalar, metaforik modellar.*

Аннотация: статья посвящена изучению прагматики и лингвокультурных аспектов фразеологических и паремиологических единиц с компонентом “еда”в английском и узбекском языках, в которой исследуются народные идеи о сущности лексемы “еда”в английском и узбекском языках, а также различия в понимании этого понятия представителями узбекской и английской культур, что связано с распределительными отношениями лексических, фразеологических и паремических единиц

Ключевые слова: *паремиологические единицы, фразеологические единицы, ирония, идиома, реалии, метафорические модели.*

Annotation: the article is devoted to the study of the pragmatics and linguocultural aspects of phraseological and paremological units with the component “food” in the English and Uzbek languages, in which folk ideas about the essence of the lexeme “food” in both English and Uzbek are examined, as well as the differences in the understanding of this concept by representatives of Uzbek and English cultures, which are related to the distributive relationships of lexical, phraseological, and paremical units.

Key words*: paremological units, phraseological units, irony, idiom, realities, metaphorical models .*

Frazeologik birliklar va paremiyalar kabi tipologik jihatdan lingvistik materialga tayanish, ularni qayta qurish imkonini beradi. “Taom”leksemasining mohiyati haqidagi xalq g‘oyalari, o‘zbek va ingliz madaniyati vakillari tomonidan ushbu tushunchani tushunishdagi farqlar tilning leksik, frazeologik va paremik birliklarining distributiv munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi. Madaniy tushunchalar esa o‘z sohalarida, etnik guruh hayotidagi ahamiyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan turli chuqurliklarni ifodalaydi, bu esa ularning ma’no va ahamiyatini yanada kengaytirib, o‘rganishni talab etadi.

Bu birliklar odamlarning dunyoqarashlari, madaniyati va taomlanish odatlari bilan bog‘liq. Masalan, o‘zbek xalqining an’anaviy taomlari oilaviy yig‘ilishlarda muhim o‘rin tutadi, ingliz xalqida esa “taom”ko‘pincha individualizm va shaxsiy ixtiyor bilan bog‘liq. *Mehmonning qorni och, Ra’no, - dedi, - albatta qadrlik mehmon uchun tansiq taom pishirg‘andirsiz, deb o‘ylayman. Bugungi kungi taomingiz ismini lutfan marhamat qilsangiz edi. -Mehmonning vazifasi, - dedi Ra’no javoban, - izzati bilan o‘ltirish va oldig‘a qo‘ygan narsani maxtab-maxtab yeyishdir.... Bu kun sho‘rbag‘a, - dedi Ra’no kulgi ichida, - qattig‘ non to‘rg‘ab yeysiz, jaz o‘riniga shalg‘am chaynaysiz.*

“Taom”komponentli frazeologik va paremiologik birliklar ingliz va o‘zbek tillarida pragmatikasi va lingvomadaniy jihatlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu birliklar tilning madaniy kontekstida shakllanadi va ularning ma’nolari, ko‘pincha, faqat tildan tilga o‘tgan mafkuraviy va tarixiy elementlarga bog‘liq.

Tarjimada frazeologiyaning o‘zi mavjud emas va uning ma’nosi oddiy so‘zlar va ularning erkin birikmalari orqali ifodalanadi. Belgilarning xulq-atvoridagi stereotiplar turli madaniyatlarda farqlanishi mumkin, bu esa quyidagi misolda yaqqol namoyon bo‘ladi. ***“Tuya go‘shti yemoq”***frazasi (jarayonni kechiktirish ma’nosini beradi), ingliz tilida “ ***till the cows come home***”iborasiga to‘g‘ri keladi

“Taom”komponentli frazeologizmlar ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. *Bir ozdan so‘ng et olib kirguzarman, varaqi pishirib qo‘yingiz. Oftob oyim varaqa pishirishdan u kungi mehmonning uncha-muncha bo‘lmag‘anlig‘ini bildi.*

That`s good. In a little while, I will send you to get meat to make us some varaqi. From the mention of varaqi, Oftob Oyim realized this would not be an ordinary guest.

Frazeologik birliklar: yaxshi natijaga erishish uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, biror narsani kuzatish. *Ol qizim shu piyoladagi choyingni ich-chi, - dedi va tag‘in bir qayta kuzatdi. Choyni ichib bo‘lg‘ondan keyin qutudor fotiha o‘qub o‘rnidan turdi.*

My sweet daughter, please drink some tea, he said and again looked her over. After finishing his tea and breakfast , Qutidor recited the Fatiha and rose.

Paremiologik birliklar: *Bo‘sh qop tik turmas, Puli kuygan qalampir chaynar, Qovunning sarasini it yer, olmaning sarasini – qurt; Baqa go‘shti et bo‘lmas, sipohiydan do‘st bo‘lmas; Tuzini yeb, tuzlig‘iga tupirma. Kambag‘alning og‘zi oshga yetganda, boshi toshga tegar; Sherikli oshni it ichmas.*

Taomlar komponentli birliklar insonning do‘stlik munosabatlarini ham ko‘rsatadi: *Arpa-bug‘doy bir kuninga yaraydi, sodiq do‘sting o‘lguncha yaraydi; Do‘stsiz boshim-tuzsiz oshim; O‘pka, yurak go‘sht emas, hisoblashgan do‘st emas Biz ikkov, agar qo‘yib bersanglar, go‘yo bir-birimizni yeb-ichmoqchi edik.*

Ingliz tilida frazeologik birliklar: “***You are what you eat***”*– ovqatlanish insonning shaxsini* ifodalaydi. “***Too many cooks spoil the broth***”*– ko‘p oshpazlar sho‘rvani buzishar, ya’ni “Cho‘pon ko‘paysa, qo‘ylar xarom o‘ladi*”.

“***A way to a man’s heart is through his stomach***”*–* (*erkakning yuragiga borish uning oshqozoni orqali*). “***Don’t bite off more than you can chew***”(*haddan ortiq ish qilish oqibati*) *– imkoniyatlardan tashqari ko‘pini olish, ya’ni o‘z imkoniyatlarini baholash.*

Ikki tildagi “taom” komponentli birliklar, jamiyatning gastronomik an’analarini va madaniyatini ifodalaydi. Masalan, har ikki tilda ham taomni mehribonlik va do‘stlik ramzi sifatida ko‘rishadi. Frazeologizmlar va paremiologik birliklar, ko‘pincha, insonning hayotidagi muhim jihatlarni aks ettiradi. *“Taom – do‘stlik ramzi” va “food is the way to the heart”*degan iboralar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash uchun taomning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Yemoq fe’li o‘zbek tilida taom yemoqdan tashqari ko‘chma ma’noni ham bildiradi. *Adabini yo ta’zirini yemoq. Gap yemoq, dakki yemoq, boshini yemoq. Ichini yemoq, lat yemoq, oftob yemoq, pand yemoq, sovuq yemoq, esini yemoq, quloq-miyani yemoq, boshni yemoq, g‘amini yemoq.*

Shunday, do‘stim. Endi uning o‘zini yo‘q qilmasak, seni xam, meni xam yeydi.. – dedi Davlatyor. Biz ikkov, agar qo‘yib bersanglar, go‘yo bir-birimizni yeb-ichmoqchi edik.

Ingliz tilida ***to eat*** (*iste’mol qilmoq, yemoq*) fe’li quyidagi ma’nolarni ham berishi ma’lum bo‘ldi. “***To eat away***”*— biror narsani asta-sekin yo‘q qilish.****The corrosion is eating away at the metal*** (*Korroziya metallni asta-sekin yo‘q qilmoqda.*) “*To eat into*”*— vaqt yoki resurslarni iste’mol qilish.* ***This project is eating into my free time*** (*Bu loyiha mening bo‘sh vaqtimni yemoqda*) “***To eat one’s words***”(*aytganlarini qaytarish, o‘z so‘zlarini inkor etish*). ***He had to eat his words after realizing he was wrong*** (*U xato ekanini tushunib, aytganlarini qaytarishga majbur bo‘ldi.*) “***To eat someone alive***”*— kimnidir juda qattiq tanqid qilish yoki hujum qilish.* ***The critics will eat him alive if he doesn’t improve*** (*Afsus, u yaxshilanmasa, tanqidchilar uni juda qattiq tanqid qiladilar.*) “***Eat one’s heart out***” (*o‘zini juda yolg‘iz his qilish*) ushbu ibora yana quyidagi ma’nolarni ham anglatadi: ***to be jealous*** *— hasad qilish*, ***to grieve bitterly*** *— qattiq qayg‘urash*. “***Eat out of one’s hand***” (*biror kishining barcha so‘zlariga to‘liq ishonish” yoki “kimningdir ta’sirida bo‘lish*). “***Eat someone’s lunch***” (*kimdandir ustunlikka chiqish yoki kimnidir raqobatda yengish*).

Ingliz tilida yana bir frazeologik birlik borki, ***Too many cooks spoil the broth*** bo‘lib, u metaforaga misol bo‘la oladi, unda uning ma’nosi odamlarning biror vaziyatga aralashib qolganda, natijasi yakshilik bilan tugamaganligini anglatadi. “***When it comes to planning the event, remember, too many cooks spoil the broth***.” Biror bir tadbirda oshpazlarning ko‘payib ketishi taom mazasini o‘ldiradi degan ma’noda qo‘llaniladi.

Yuqorida biz taom leksemasiga doir metaforalarni tahlildan o‘tkazdik, aytish joizki, ushbu metaforalar taom va oziq-ovqat bilan bog‘liq bo‘lsa-da, lekin ular kengroq ma’noda hayot, imkoniyatlar va xulq-atvor haqida ham fikrlarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Qodiriy .Mehrobdan chayon.Roman–Toshkent:Sharq.2007.29-bet.

2.A.Qodiriy.O‘tkan kunlar.Roman.Yangi asr –Toshkent. 2008.29,322,324-bet.

3. O‘tkan kunlar (Bygone days) by Abdullah Qodiriy translated by Mark Reese. Published by Muloqot Cultural Engagement Program https://uzbekmodenist. Com/mereese17@gmail.com P-48, 49.

4. O‘zbek xalq maqollari–Toshkent: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti.1981.62.94-bet.

5.Matvaliev A.O‘zbek tilining izohli lug‘ati,O‘zbekiston nashriyoti–Toshkent. 2020.2-jild 10-bet.

6.P.Tursun.O‘qituvchi.Roman.O‘SSR Davlat badiiy adabiyoti. –T.1958. 47-bet.

7.1989.New York. http/www.britannica.com

8.Safarov Sh.Prarmalingvistika.Monografiya–Toshkent.2008 104-bet.

9.Oybek M.T.Oltin vodiydan shabadalar.Roman–Toshkent:O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti.1976.437-bet.

10.Toxir Malik.Shaytanat R(1-3kitob)–Toshkent:Hilol-nashr nashriyoti, 2017.36-bet.

11. https://online-london.com/blog/interesnoe/angliyskie-idiomy-pro-edu/

Boxodir ZOXIDOV,
Alfraganus universiteti o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston
Email:tartar.pro@gmail.com

TURK TILIGA CHET TILIDAN O‘ZLASHGAN SAYLOVGA OID TERMINLAR

Annotatsiya: mazkur maqola Turkiya Respublikasining ajralmas bo‘lagi bo‘lgan demokratiyaning asosi deb qaraladigan saylov va saylovga oid so‘zlarga bag‘ishlangan. Tadqiqot obyekti sifatida turk tilida chet tillaridan o‘zlashgan saylovga oid so‘zlar tahlili deb belgilandi.

Kalit so‘zlar: *termin, saylov, chet tili, saylovga oid terminlar.*

Аннотация: данная статья посвящена словам о выборах и выборах, которые считаются основой демократии, являющейся неотъемлемой частью Турецкой Республики. Объектом исследования стал анализ заимствованных из иностранных языков турецкого языка слов предвыборной тематики.

Ключевые слова: *термин, выборы, иностранный язык, условия выборов.*

Annotation: this article is devoted to elections and election-related words, which are considered the basis of democracy, which is an integral part of the Republic of Turkey. The object of the study was determined as the analysis of election-related words borrowed from foreign languages in the Turkish language.

Keywords: *term, election, foreign language, election-related terms*

Kirish. Hozirda yurtimizda bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy-huquqiy tizimlardagi islohotlar tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar sonini ko‘paytirmoqda. Bu hol shu sohada faoliyat yuritayotgan insonlardan o‘z kasbiga oid termin va tushunchalar haqida to‘liq va aniq ma’lumotga ega bo‘lishlarini talab etmoqda.

Saylov terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, uning inson aqliy faoliyati va tajribalarining konseptual bosqichlari orqali namoyon bo‘lishida kuzatiladi. Mazkur terminologik tizimda saylov tizimidagi bugungi kunda funksional jihatdan yetakchi terminlar vazifasini bajarayotgan terminlar o‘z ifodasini topadi.

Keng ma’noda saylov bir nechta variant o‘rtasida qilingan tanlovni anglatadi. Kundalik hayotimizdagi ko‘plab qarorlarimiz va xatti-harakatlarimiz doimo qiladigan tanlovlarimiz natijasidir. Biroq ushbu bayonotda ham qo‘llaniladigan konstitutsiyaviy huquq va siyosatshunoslik atamasi sifatida saylov torroq ma’noga ega: tegishli saylovchilar tomonidan davlat lavozimini bajaradigan shaxs yoki boshqaruv kengashini belgilash, ko‘p sonli nomzodlar orasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan parlament va mahalliy hukumatlar kabi turli davlat idoralaridagi saylovlar nazarda tutilgan.

Maqsad va vazifalar: mazkur tadqiqot ishining maqsadi, turk tiliga chet tilidan o‘zlashgan saylovga oid terminlarni aniqlash va tahlil qilish. Ishning vazifalari quyidagilar:

Turk tilidagi saylovga oid teminlarni aniqlash;

Turk tiliga chet tilidan kirgan saylovga oid terminlarni aniqlash;

Usul: Turk tilidagi saylovga oid terminlarni aniqlash uchun tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: Erdoğan Günalning, “Türkiye’de Seçim Sistemlerinin Siyasal Kurumlar Üzerindeki Etkileri” nomli asari hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqot obyekti turk tilida chet tillardan o‘zlashgan saylovga oid terminlarning tahlili va shu terminlarning etimologik tahlili etib belgilandi.

Natija va mulohazalar: Turkiyada saylovlar demokratik tuzumning ajralmas qismi sifatida mamlakatning siyosiy kelajagini shakllantiruvchi muhim jarayon hisoblanadi. Saylovlarning ahamiyatini quyidagi jihatlardan baholash mumkin:

Saylovlar xalqning davlat ishlariga aralashish va o‘z irodasini bevosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan eng muhim maydon hisoblanadi. Fuqarolar o‘z ovozlari bilan mamlakatni boshqaruvchi vakillarni belgilab, shunday qilib, xalq hokimiyati degan demokratik tizimning asosiy tamoyilini amalga oshiradilar.

Turkiyada saylovlar ham ichki siyosat, ham tashqi siyosat uchun muhim oqibatlarga olib keladi. Saylov natijasida hokimiyatga kelgan partiya yoki koalitsiya hukumati mamlakatning ichki va tashqi siyosatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu holat Turkiyaning mintaqaviy va global siyosatdagi o‘rniga ham ta’sir qilishi mumkin”.

İdeoloji **– Mafkura.** Ideal yoki mafkura siyosiy yoki ijtimoiy ta’limotni tashkil etuvchi va hukumat, siyosiy partiya, ijtimoiy tabaqaning xulq-atvorini yo‘naltiruvchi siyosiy, huquqiy, ilmiy, falsafiy, diniy, ezgu, estetik fikrlarning butunligidir.

“İdeoloji” so‘zi fransuzcha “idéologie” so‘zidan kelib chiqqan. “*İdé” fikr,* tushuncha kabi ma’nolarni bildirsa, “logie” esa fan, mutaxassislik kabi ma’nolarni bildiradi. Turk tilida ilk bor “Mehmet Bahaettin”ning yeni “Türkçe Luğat” nomli asarida uchragan.

Demokrasi – Demokratiya

Demokratiya turk tiliga fransuzcha “démocratie” so‘zidan tarjima qilingan va uning turk tilida birinchi qo‘llanilishi 1870-yillarning boshiga taqaladi. Fransuz tiliga

lotincha so‘z bo‘lgan “dēmocratia” so‘zidan kirib kelgan. Bu so‘zning ilk kelib chiqishi grekcha bo‘lib “δῆμος” (dêmos) xalq, “κράτης” (krátēs) esa kuchli hokimyat egasi degan ma’noni bildiradi. Shu so‘zlarning qo‘shilishi orqali “δημοκρατεία” – demokratiya so‘zi hosil bo‘lgan.

11. Referandum – Referendum

Referendum – bu konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish, qonunlar qabul qilish kabi muhim masalalar bo‘yicha xalqning xohish-irodasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan ovoz berishdir.

Referendum so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “Xalq ovoziga murojaat qilish” degan ma’noni bildiradi. Referendum so‘zi aslida “referendus” so‘zidan kelib chiqqan. Bu so‘zning ma’nosi esa murojaat qilish. Turk tilida bu so‘zni ilk marta Mehmet Bahaettin “Yeni Türkçe Lugat” asarida qo‘llagan.

Belediye meclisi – shahar kengashi

Bu ma’muriy va moliyaviy avtonomiyaga ega bo‘lgan davlat muassasasi bo‘lib, shahar aholisining mahalliy va umumiy ehtiyojlarini qondirish uchun tashkil etilgan, a’zolari mahalliy saylovda saylanadi. Shahar kengashning eng yuqori qaror qabul qiluvchi organi bo‘lib, a’zolar soni shahar aholisi soniga qarab o‘zgaradi, lekin to‘qqiz kishidan kam bo‘lmasligi kerak. Assambleya o‘zi qaror qilgan bir oylik ta’tildan tashqari har oy o‘tkaziladi. Shahar kengashiga shahar kengashi raisi raislik qiladi.

Arabcha baladī بلدی “shahar, shaharga tegishli” so‘zidan olingan bo‘lib, arabchadagi بلد o‘zagidan olingan. Bu so‘z arab tilidan avval Qadimgi Yunon tilida ham ayni ma’noda ishlatilgan. So‘zning asil kelib chiqishi “politeía” “πολιτεία” shaklida bo‘lgan.(Umur-i belediyye, daire-i belediyye)” 1854-yilda Istanbulda tashkil etilgan ma’muriy birliklarning nomi.

Parlamento teamülü – parlament amaliyoti

Assambleya ishini amalga oshirish nuqtai nazaridan ular Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlarida hech qanday qoida mavjud bo‘lmagan va qonun hujjatlarida tartibga solinmagan hollarda ishlab chiqilgan yechimlarni bir xil qo‘llash bilan yuzaga keladigan dolzarb vaziyatlardir. Bir muncha vaqt o‘tgach amal qilinadigan qoidaga aylanadi. Italyancha parlament so‘zidan olingan so‘zning asl kelib chiqishi fransuzcha so‘z bo‘lgan “parler”, ya’ni “gapirmoq” fe’liga – menten qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali yasaladi. Mehmet Chalabiy elchilik xatida (1722) Fransiyadan olinganini ta’kidlasa-da, davr talabi tufayli italyancha shakli qabul qilingan. Teamül so‘zi arabcha تعامل so‘zidan olingan bo‘lib, birgalashib ishlash degan ma’noni bildiradi. So‘zning asl kelib chiqishi عمل fe’lidir. Lekin turk tilida ma’no o‘zgarishi ro‘y berib, usul ma’nosiga aylangan. Shu ikki so‘zning qo‘shilishi orqali “Parlamento teamülü” termini yuzaga kelgan.

Başkanlik Divani – Prezident devoni

Deputatlar orasidan saylangan Turkiya Buyuk Millat Majlisi Raisi, 4 nafar Prezident o‘rinbosari, 7 nafar kotib a’zosi va 3 nafar ma’muriyat boshlig‘idan iborat bo‘lgan qonunchilik faoliyatida ham, boshqaruvni tartibga solishda ham muhim vazifalarni bajaradigan boshqaruv kengashi hisoblanadi.

“Başkanlik” so‘zi turkchada “prezidentlik” ma’nosini bildiradi. “Başkanlik” so‘zi turkchada “prezidentning vazifa yoki mavqeyi, rahbarlik, raislik” ma’nolarini bildiradi. “Başkan” so‘zi turkchada “Jamoa, yig‘ilish yoki uyushma boshida turgan kishi, boshliq” kabi ma’nolarni bildiradi. Başkan so‘zi baş+kag‘an so‘zlarining qo‘shilishi orqali yuzaga keladi. “Baş” so‘zi ilk bora O‘rhun yozuvlarida uchragan, unda ham hozirgi bosh ma’nosida ishlatilgan (başligig yükündürmiş tizligig sökündürmiş). Orhun Enasoy 735. “Kag‘an” so‘zi “kağan” yoki “kaan” mo‘g‘ul va turkiy davlatlarda hukmdorlar qo‘llagan unvonlardan biri bo‘lib, nisbatan eng qadimgilaridan biri hisoblanadi. Avarlar davridan beri turon madaniyatida “kağan” so‘zi mavjud. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “kağan” Tanhu, Hoqon, Bey, To‘qtamish, Giray kabi turkiy so‘z bo‘lib, xoqonning xotini “kagatun” deb ataladi.

“Baş” va “kağan” so‘zlarining qo‘shilishi orqali “başkan” so‘zi yuzaga keldi. “Divan” arab va fors tillarida dīwān دیوان ya’ni rasmiy qaror va hisob-kitoblar yozilgan daftar, she’rlar to‘plami, yana – kotib, idora, kotibiyat, mahkama kabi ma’nolarni ham bildiradi. Pahlaviy tilidan olinib dīvān “rasmiy idora, kotibiyat” so‘zi kelib chiqqan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shularni ayta olamiz: Hozirda yurtimizda bo‘layotgan har qanday o‘zgarishlar – u xoh ijitmoiy-iqtisodiy bo‘lsin, xoh siyosiy-huquqiy barcha tizimlardagi islohotlar tilning leksik sohasiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar sonini ko‘paytirmoqda. Buning natijasida shu sohada ish olib borayotgan shaxslardan o‘z sohasiga tegishli atama va tushunchalar haqida to‘liq va aniq ma’lumotga ega bo‘lishlarini talab qilmoqda. Shu bois har bir atamaning qachondan boshlab ishlatilganligi, qanday shakllanganligi, ilk bora qaysi asarda duch kelganligi, qaysi tildan kirib kelganligi kabilar o‘rganib chiqildi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hikmet Sami Türk, Seçim Hukukunun Temel Sorunları ve Çözüm Önerileri, Ankara, 1997.

2.Bahar Nurhan Yaprak İstanbul Ticaret Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi Covid-19 Sosyal Bilimler Özel Sayisi Yil:19 Sayi:37 .

3.Jean Marie Cotteret, Claude Emeri (Çev.: Tanju Gökçöl), Seçim Sistemleri, İstanbul, 1975.

4.John Lyons, Kuramsal Dilbilime Giriş, Çev. Ahmet Kocaman, Türk Dil Kurumu Yayinlari, Ankara, 1983

5.Emine Yavaşgel, Temsilde Ada let ve Siyasal İstikrar Açısından Seçim Sistemleri ve Türkiye’deki Durum, Ankara, 2004

6.Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – T, 1977

Ulug‘berdi PARDAYEV,
ALFRAGANUS UNIVERSITY
Sharq filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: messi13pardayev@gmail.com

MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY HAYOTI VA INSONLARNI YAXSHILIKKA YETAKLOVCHI PAND-U NASIHATLARI

Annotatsiya: maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiy hayoti, asarlari va ularning diniy-falsafiy mazmuni haqida so‘z boradi. Uning mashhur asarlari, jumladan, Masnaviy, Divoni Kabir va Fihi Ma Fihi mazmun-mohiyati, shuningdek, ulardagi hikmatli so‘zlar va pand-nasihatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Jaloliddin Rumiy, Masnaviy, Divoni Kabir, Fihi Ma Fihi, hikmat, tasavvuf, adabiyot.*

Annotation: the article discusses the life of Jalal al-Din Rumi, his works, and their religious-philosophical essence. It provides insights into his famous writings, including Masnavi, Divan-e Kabir, and Fihi Ma Fihi, analyzing their content and wisdom.

Key words: *Jalalaldin Rumi, Masnavi, Divan-e Kabir, Fihi Ma Fihi, wisdom, Sufism, literature.*

Аннотация: в статье рассказывается о жизни Мавлоны Джалалуддина Руми, его произведениях и их религиозно-философском содержании. Рассмотрены его знаменитые произведения, такие как Маснави, Диван-е-Кабир и Фихи Ма Фихи, а также проанализированы содержащиеся в них мудрые изречения и наставления.

Ключевые слова: *Джалалуддин Руми, Маснави, Диван-е-Кабир, Фихи Ма Фихи, мудрость, суфизм, литература.*

Muhammad Jaloliddin Rumiy 1207-yil 30-sentyabrda Xorazmshohlar davlati hisoblangan Xurosonning Balh hududida tavallud topdi. Onasi Balh Amiri Rükneddin’in qizi Mümine Hatun; ota tarafdan buvisi Xorazmshohlar xonadonidan hisoblangan Fors Malikasi, Melîke-i Cihan Emetullah Sultondir. Otasi, “Olimlarning sultoni” unvoni bilan tanilgan Muhammad Bahâeddin Veled, bobosi Ahmed Hatîbî O‘g‘li Huseyin Hatîbî’dir. Mavlono, yozgan “Masnaviya” nomli asarida o‘z ismini Muhammad bin Muhammad bin Husayn al-Balhiy shaklida yozgan. Bu yerda ko‘rsatilgan Muhammad ismlari Ota va Bobosining ismlaridir, Balhiy deb nomlanishi esa tuğilgan Vatani Balhga nisbatandir. Taxallusi esa Jaloliddindir, “Afandimiz” ma’nosini bildiruvchi “Mavlono” esa uning martabasini uluğlash, yuksaltirish maqsadida aytilgan.

Fariduddin Attor “Asrornoma” (Sirlar kitobi) nomli asarida Jaloliddin Rumiy haqida shunday degandi: *“bir deniz bir ırmağın ardına düşmüş gidiyor*” *“Bir dengiz irmoqning ortidan ketmoqda”*. Bahaeddin Valadga esa *“umarım yakın bir gelecekte oğlunuz alem halkının gönlüne ateş verecek ve onları yakacaktır*” dedi. Xuddi shunday bo‘ldi ham. Mavlono Jaloliddin Rumiy bir qancha asar yozdi. Ular: “Mesnevi”, “ Divan-i Kebr”-Büyük Divan, “Fihi ma fih”-Ne varsa içindedir , “Mecalis-i Seba “-Mevlana’nın 7 vaazı , “Mektubat “- Mektuplar. U hikmatli so‘zlar egasidir. Uning hikmatli, falsafiy so‘zlari har bir insonni qalbidan joy olgani aniq. Mavlono hazratlarining hikmatli so‘zlaridan namunalar:

1.Donoga yondoshgil, qoch nodondan sen, Hatto u xavflidir dono dushmandan.

2. Alloh sening yuzingni xunuk qilib yaratgan bo‘lsa, o‘zinga kel, ham yuzi xunuk, ham odobi xunuk bo‘lib o‘tma. [Hazrati Mavlono Muhammed Celâleddin-i Rûmî Hayotı ve Shahsiyati, Yrd.Doç.Dr. A. Selâhaddin Hidâyetoğlu, S.Ü. İlahiyat Fakültesi Türk-İslâm Edebiyatı Anabilim Dalı Öğretim Görevlisi, 1996]

Quyida Mavlononing mashhur asarlari haqida ma’lumot berib o‘tmoqchiman .

1. Mesnevi , Mesnevi-i Şerif yoki Menesvi -i Manevi forscha مثنوی معنوی Mavlono Jaloliddin Rumiyning 6 jildlik fors tilida yozilgan asari hisoblanadi. U o‘zining Masnavi kitobida tasavvufiy fikrlar va qarashlarini bir – biriga bog‘lanib ketgan hikoyalar haqida tushuntirib bergan. Adabiyotda, har bir bayti o‘zaro qofiyali va bayt sonining chegarasi bo‘lmagani uchun uzun asarlarning yozilishida tarjih etilgan, hayot bilan bog‘liq, diniy- tasavvufiy mavzularning, falsafiy qarashlarning, doston va qissalarning mavjud bölgan turiga masnavi nomi beriladi. Mavlono Masnaviyasining birinchi jildidayoq “Bu kitobning nomi Masnavi” deb kitobning nomini bildirgandir. 6 jilddan tarkib topgan Masnavi kitobida birinchi hikoya talqin qilinayotgan payt ikkinchi hikoya ham unga ulanib ketgan. Ya’ni hikoyalar zanjir körinishiga ega, uzilmasdan boshqasi boshqasini davom ettiradi. Masnaviyaning I jildining yozilishi 1259-yilda boshlab 1263 esa yakun berilgan. II jild esa kechiktirilgan. Buning sababi Husameddin Chalabining ayoli vafot etib, dargohga Husameddin Chalabining 2 yil tashrif buyurmaganligidir. Husameddin Chalabi ikki yildan so‘ng o‘z vazifasiga qaytib, 14-may 1264-yilda yozilishni boshla-

gan. V jildi hech to‘xtamasdan 1268-yilda batamom yozilgandir. Dinle neyden ki şikayet ediyor. Ayrılıklardan hikayet ediyor. Ya’ni *Dinle, bu ney nasıl şikâyet ediyor?” “ney hikayet ediyor”* Tarjimasi “ tingla bu nay qanday shikoyat qilyapti?” “Nay hikoyat qilyapti”. Ma’nosi esa hikoyalarni aytayotgan shaxsni nayga o‘xshatgan. Nay esa shunday deydi: *“Ben her toplulukta inledim; kötü hallilerle de arkadaş oldum, iyi hallilerle de. Herkes kendi zannınca bana dost oldu, (ama) kimse içimdeki sırları aramadı. Benim sırrım, feryadımdan uzak değildir*;” Men har jamiyat ichida ingradim, yomon xislatlilar bilan ham do‘st bo‘ldim, yaxshi xislatlilar bilan ham. Hamma o‘z o‘ylashicha menga do‘st bo‘ldi, ammo hech kim ichimdagi sirlarni qidirmadi. Mening sirrim, faryodimdan uzoq emasdur” Albatta bu nay Mavlononing o‘zidir. Masnavi asariga bu kunga qadar 7 kishi tomonidan sharh berilgandir. Ular; Şem‘î Dede, Ankaravî İsmail Rusûhî Şifâî Mehmed, Şeyh Murad-ı Buhârî, Ahmed Avni Konuk, Tâhirü’l-Mevlevî Va Abdulbaki Gölpınarlı’dır. Fransız J.D.Wallenbourg, İngiliz E.H.Vhinfield, İngiliz S.James Redhouse, R.A.Nicholson (ö.1945) George Rosen, Alman kabilar esa o‘z tillariga tarjima qilib, Masnavi kitobiga sharh berishgan. Mavlono Erondan otasi bilan Konya shahriga kelganida Salchuqli Davlatining ham rasmiy tili fors tili edi. Mavlono bu asarni 60 yoshidan keyin yoza boshladi. Masnavi kitobi Eronda “Beshno ez ney” deb boshlanadi deyishadi. Turkiyada esa “Bishnev in ney”. Xo‘sh, bu ikki so‘zning bir-biridan farqi nimada? Bishnev in ney – tingla bu nayni; Beshno ez ney- tingla naydan degan ma’noni bildiradi . Bu ikki tarjimaning bir biridan farqi yo‘q aslida, ammo bunday ulug‘ Zotlarning asarlaridagi har bir harf muhim hisoblanadi.[Masnaviyi ma’naviy [6 j.li], 1—4j.lar, T., 2002-2003.]

2. DIVAN-I KEBIR (BÜYÜK DİVAN) yoki Dîvân-ı Şems-i Tebrizî, Mavlono Jaloliddin Rumiyning 44.834 baytlik asaridir. Devon adabiyotida devonlarning, shoirlarning o‘z ismlari bilan yodga olinishi noodatiy bo‘lganligi uchun Jaloliddin Rumiy o‘z g‘azallarining oxiriga o‘z ismini emas har doim Shams Tabriziyning nomini yozib qoldirgan. Bu asar juda katta hajmlik asar hisoblanib, she’rlarning katta qismi Shams Tabriziyga bag‘ishlangandir. Bu asar ham Masnavi asari kabi olimlar tomonidan tarjima qilingan. Abdulbaki Gölpınarli 7 jildlik shaklida Turk tiliga tarjima qilgan. Misol uchun Divan i Kebirdan parcha *“0 kadar koşmayın, o kadar yorulmayın; şu yerin altında çırak ne olmuşsa, usta da o olmuştur!”* – unchalik Köp yugurmang, unchalik köp charchamang; shu yerning ostida shogird nima bölgan bölsa , usta ham shunday bölgandir!.[**Divan -i Kebir seçmeleri”** *12 iyun 2007 arxiv]*

3. Fîhi Mâ Fîh (Farsça: فیه ما فیه), Arab tilidan olingan söz bolib , “Ichingdagi ichingdadur” ma’nosini bildiruvchi Jaloliddin Rumiyning asaridir. *Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Ichingdagi ichingdadur” (Fihi mo fihi) asari hayot savollariga munosib javoblardan iborat. Unda baxtning eng baland cho‘qqisidan tortib, musibat eshigini ochguvchi sabablargacha bayon etilgan.* Bu asar insonni fikrlashga, fikrlash orqali o‘zligini, o‘zligi orqali Haqni – Yaratganni tushunishga undaydi.

Mavlono Rumiy insonni, avvalo, ko‘zini ochishga va ochilgan ko‘zlar bilan o‘z mohiyatiga nazar tashlashga undaydiki, bu bilan ul valiy zot insonning o‘zi bir butun olam – kichik olam ekanligini uqtiradi. Mavlono Rumiyning “Ichingdagi ichingdadur” asaridan asosan, menga yoqqan parchalar quyidagilar:

Maydonga kelgan noxushligu kasalliklarning barchasi qachonlardir qilgan yomonliklaring va gunohlaring mevasidir.

Inson ko‘rinishidan hech narsa demasa ham ichida doimo gapiradi.

So‘z ko‘payganda maqsad unutiladi. [Ichindagi ichindadir, T., 1997;]

Mecalis-i Seb’a, - Mavlono hazratlarining 7 pand-u nasihatining joylashgan asaridir. Aslan Turk tilida yozilishiga qaramay keyinchalik Fors tiliga tarjima qilingan. Asar birinchi bo‘lib “Mavlononing yetti nasihati” nomi ostida tarjima qilingan va Fors tilidagi matni bilan birgalikda 1937- yilda nashriyotdan chiqqan.

Quyida esa Mecalis- i Seb’a asaridan joy olgan 7 pand- u nasihatlari:

1. Cömertlik ve yardım etmede akarsu gibi ol– jömardlik va yordam berishda oqarsuv kabi bo‘l.

*2. **Şefkat ve merhamette güneş gibi ol**–Shafqat va marhamatda quyosh kabi bo‘l.*

3. Başkalarının kusurunu örtmede gece gibi ol– Boshqalarning qusurini yashirishda tun kabi bo‘l

*4. Hiddet ve asabiyette ölü gibi ol–**ğazab va asabiyatda** o‘lik kabi bo‘l.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdülbaki Gölpınarlı, Mesnevî Tarjimasi va sharhi, I.-II. Jild s. ix; İnkılap nashriyot İstanbul.
2. **“ Divan -i Kebir seçmeleri”** *12 iyun 2007 arxiv*
3. Uchmoqqa qanot yo‘q vale uchgayman [rivoyatlar va ruboiylar]. –T., 1994.
4. Injular ummoni. –T., 1988
5. Ichindagi ichindadir. –T., 1997.
6. Ishq daftari [ruboiylar]. –T., 2000.
7. Masnaviyi ma’naviy [6 j.li], 1-4j.lar. – T., 2002-2003.

Dilorom XAKIMOVA,
Navoiy viloyati O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi metodisti

“NAFS” KONSEPTINI IFODALOVCHI RAMZIY TIMSOLLARNING PRAGMATIK TADQIQI

Annotatsiya: maqolada nafs konseptining tasavvufiy g‘oyadan badiiy obrazga aylanish tarixi kuzatilib, nafsning badiiy g‘oyasi, bu obrazning mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni tahlil qilingan, uning tasavvuf adabiyotidagi takomil dinamikasi kuzatilgan. Nafs obrazi tuproq, suv, olov va havo singari obraz hamda ishq gavhari, shavq sharobi, ruh qushi kabi tasavvufiy timsollar bilan ham qiyos qilingan. Shuningdek, nafsning boshqa obrazlar (havo, g‘azab, g‘aflat va h.k.) bilan hamohang va rishtavor ekanligi haqidagi qarashlar ham tadqiq va talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: *nafs, havo, o‘t, tutun, qorong‘ulik, bug‘, o‘zlik, to‘rt unsur.*

Аннотация: в статье прослеживается история превращения понятия похоти из мистической идеи в художественный образ, анализируется художественная идея похоти, роль этого образа в классической литературе, прослеживается его утонченная динамика в мистической литературе. Образ похоти также сравнивали с такими образами, как Земля, Вода, Огонь и воздух, а также с мистическими символами, такими как драгоценный камень любви, вино страсти, Птица души. А также другие образы похоти (воздух, гнев, негодование и т. д.).k.), а также были исследованы и интерпретированы взгляды на то, что связь является синхронной и взаимосвязанной.

Ключевые слова: *похоть, воздух, трава, дым, тьма, пар, я, четыре элемента.*

Annotation: the article traces the history of the transformation of the concept of lust from a mystical idea into an artistic image, analyzes the artistic idea of lust, the role of this image in classical literature, and traces its subtle dynamics in mystical literature. The image of lust has also been compared to images such as Earth, Water, Fire, and air, as well as mystical symbols such as the jewel of love, the wine of passion, and the Bird of the Soul. As well as other images of lust (air, anger, indignation, etc. D.).k.), as well as the views that communication is synchronous and interrelated were investigated and interpreted.

Keywords: *lust, air, grass, smoke, darkness, steam, four elements.*

Nafs so‘zining genezisi bir qadar chigal tuyulishi tabiiy. Negaki bu so‘zning ma’no ko‘lami nihoyatda keng. Ma’lumki, nafs so‘zi arabcha bo‘lib, ushbu so‘z millat lug‘atlarida turli ma’no sathlarida turlicha ishlatiladi. سفن) nafs) skletidan harakatlarning turlicha qo‘yilishiga qarab qirqdan ortiq ma’nolarda ishlatiladi. Shulardan eng mashhurlari: “(fe’lda) qimmatbaho bo‘lmoq, nimanidir saqlab turmoq, baxil bo‘lmoq, tirishish, jahd qilish, intilish; (otda) shaxs, qalb, ko‘ngil, yurak; qon, bug‘, odam, kishi, xohish-istak, niyat, iroda, shahvat, ishtaha, manmanlik, kibr, g‘urur, iftixor, biror narsaning mohiyati, haqiqat; nafsiy yoki nafsoniy, ya’ni ruhiy-psixologik holat; seziladigan, sezib bo‘ladigan; egoistiklik, xudbinlik, adovat, xusumat; nufus – aholi, xalq; nafiys – qimmatbaho, nafosat – go‘zallik; nafas, muhlat; kuch-quvvat, iqtidor; havodan nafas olish, raqobat, bellashuv; nafs – jon, ruh” va hokazo kabilardir (tasavvuf adabiyotining asosiy manbasi Qur’oni karim bo‘lganligi bois ham biz nafsning yaratilishiga doir istilohlar va anosirlarning ismini arab lug‘atiga tayangan holda keltirdik).

Turkiy tillarda esa nafsni “o‘z” (zot), “qurch”, “mus”, “ilting yoki iltang”, “ko‘kay” yoxud “so‘l”, “so‘m”, “jig‘ildon (ko‘chma ma’noda)” kabi so‘zlar bilan ifodalaganlar. Ammo bu so‘zlar nafsning ifodalovchisi sifatida ancha kam o‘rganilgan, shuningdek, badiiy adabiyotda ham shu ma’noda juda oz talqin qilingan ko‘rinadi. Nima bo‘lganda ham, bu so‘zlardan nafsning botiniy va zohiriy ma’nolariga oid bir qancha mazmun-mohiyatni anglasak-da, bu ifodalar uning bor bo‘yini, ya’ni ichki xarakterini, botiniy qiyofasini to‘liq namoyon qilish uchun kamlik qiladi. Uning ma’nolar olamidagi ko‘zga ko‘rinmas, yashirin, ta’kidlash joizki, asosiy e’tibor qaratilishi lozim jihatlari ham borki, ularni ilg‘ash va idrok etish oson ish bo‘lmagan, albatta. Holbuki, nafs inson tanasida pinhon, zimdan faoliyat olib boruvchi “foil” bo‘lib, har kim ham unga diqqat qilavermaydi. Uning “sir”li ishlaridagi ma’nolarini, asli nimadan yaralgani borasidagi tasavvurlarni tasavvuf lug‘atlaridagi ma’nolardangina anglash, tasavvufiy she’riyatdagi tasvirlardan sizib turgan sizgilardangina uqish mumkin.

Nafsning tub asosi haqida so‘z borganda, adabiyotshunos olim, professor Ibrohim Haqqulov o‘z izlanishlarida unga asos bo‘lgan to‘rt sinch haqida, xususan, shunday deydi: “Tuproqdan insonga to‘rt sifat: sabr, hayo, tavakkul va makrumot paydo bo‘lgan. Suvdan esa to‘rt turli hol: safo, saxo, lutf va visol yuzaga kelgan. Shamol to‘rt havas: yolg‘on, riyo, shoshqinlik va nafsga asos bo‘lgan. Olovdan esa shahvat, kibr, tama va hasad tug‘ilgan”. Darhaqiqat, bu xulosalar, obrazlar tagida chuqur hayotiy, tasavvufiy-mushohadaviy ma’no va mazmun mujassam bo‘lib, unga tasavvufona tafakkur bilan boqish zarur bo‘ladi.

Alisher Navoiyning ijodini mahobatli tog‘ga o‘xshatish mumkin. U shunday buyukki, unda sir-sinoat, yashirin tagma’no bor. Navoiy devonlaridagi g‘azallarning ham badiiy, ham lingvistik tahlilida Navoiyning qarashlarini, ijtimoiy munosabatlar yuzasidan fikrlarini yanada teranroq tushuna boramiz. Ijodkor g‘azallarida ishq, may, soqiy, oshiq, nafs kabi konseptlarni ifodalovchi ramziy timsollarni ko‘rishimiz mumkin. Ramz o‘zi nima? Ramz biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora bo‘lib, ba’zan qochiriq yoki ishora bilan aytilgan gap, imo-ishora, shama ma’nosini ham anglatadi.

Navoiy devonlarida “nafs” konsepti turli timsollarda ifodalangan,ya’ni dunyo, inson, hayvon, qush kabi timsollarida ifodalangan.

Alisher Navoiyning g‘azallarida esa nafs – dunyo, nafs iti timsollari bo‘lib tasvirlanadi.

1. “Dunyo” timsoli inson yashab turgan makon ma’nosida;

2. “Dunyo” timsoli odamzodni ma’rifatdan to‘suvchi parda sifatidagi talqini.

Biz aytmoqchi bo‘lgan jihat, aynan ikkinchi turiga kiradi. Navoiy asarlarida dunyo emas, dunyoparastlik inkor etiladi. Dunyoni emas, dunyoga muhabbatni tark etishga chaqiriladi. Dunyoga muhabbat esa nafsning amrini bajarish asnosida qo‘yiladi. Shu sababli ham Navoiy quyidagi misralarni keltiradi:

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yo‘li bo‘lma zabun bu zoli makkor ollida.

“Ziynatlanib kelin suvratida ko‘ringani bilan u aslida, “zoli makkor” – makr-u hiylani hayotiy a’mol qilgan kampir ekanini aytib, uning oldida hech qachon zabun bo‘lmaslikka chaqiradi. O‘zagi “dun” bo‘lgan “dunyo” so‘zi, bundan tashqari, “tubanlik”, “pastlik” ma’nolarini ham anglatadi. Ya’ni, buyuk mutafakkir nazdida, dunyo – insonning Haq ma’rifatiga erishmog‘i yo‘lidagi to‘siq, uni tubanlikka qulatguvchi illatdir”. “Bu dunyoga ko‘ngil berib u bilan mahliyo bo‘ldim”.

Shoir talqinicha, komillikka eltuvchi yo‘l bu fanodir. Tasavvufga ko‘ra, komillikni namoyon qiladigan sifatlardan biri faqr maqomi shartlarini to‘la-to‘kis ado etishdir. Faqr bu tariqat yo‘liga kirgan solikning to‘rtinchi maqomidir. Faqirlik bu moddiy yetishmovchilik yoki tilanchilik qilish emas, balki orifning Alloh oldida o‘zini ojiz, g‘arib va faqir his qilishidir. Komil insonlar faqirlik bilan faxrlanganlar. Bu maqomda oriflar botiniy olamini poklaganlar. Ahmad Yassaviy faqrning olti odobi bo‘lganligini keltirib o‘tadi:

1. Yaxshi va yomon so‘zga sukut qilmoq.

2. Pir oldida xomush bo‘lmoq va uning ijozatisiz so‘zlamaslik.

3. Hech kim bilan yomon muomalada bo‘lmaslik.

4. “Xos-u omning xizmatini” ado etmoq.

5. Nafsni yengmoq.

6. Havo-yu havasni tark etmoq .

Ko‘rinadiki, faqirlik qanoat, himmat, tama’ qilmaslik kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham Navoiy dunyoning o‘tkinchiligi, ma’naviy yetuklik haqidagi fikr-mulohazalarni faqr maqomi bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Gar fano rasmin qilmoq tilar ersang mazbut, Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut. Fano shartlarini bajarishning o‘ziyoq inson axloqini go‘zallashtiradi. Shoir talqinicha, fano yo‘lini tanlagan kishi nafs bilan ruhni qorishtirmasligi zarur.

Navoiy tasviricha, tiriklik ayshi, avvalo, nafsni ruhga taslim etish, ishq, ma’rifat, go‘zallik nuri bilan ko‘ngilga ziynat berishdir. Shundagina inson dunyoni fath etish uchun lashkar tortmoq “sipoh gardi g‘uborig‘a” arzimasligini ham, odamlar orasidagi bir fursatlik nifoq-u janjallar asrlarga cho‘zilgan umr farog‘atini butkul yo‘qqa chiqarish ehtimolini anglab yashaydi:

Yuz qarn olam ahli apo aylamak nishot,
Bir dam alar nifoqu niqorig‘a arzimas.

Shoir mamlakatda farovonlikka erishmoq, osoyishtalik o‘rnatmoq, el-ulusni baxtiyor ko‘rmoq uchun nimalarga e’tibor bermoq lozimligini ko‘rsatib beradi. Nafs, manmanlik, zulm, hirs, behuda intilishlarga barham bermoq yo‘li bilangina elni shod, mamlakatni obod qilish mumkin deb hisoblaydi: To hirs-u havas xirmoni barbod o‘lmas, To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas. To zulmu sitam joniga bedod o‘lmas, El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas. Shoir nazdida el qalbidagi hirs-u havas xirmoni yelga sovurilmasa, nafs, kibr-u havo qasri barbod bo‘lmasa, zulm-u sitam joniga qattiq sitam berib, uni yo‘qotmoq shart bo‘lsagina el ko‘ngli shod, mamlakat obod bo‘ladi. Bu she’r faqatgina Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari ifodasi bo‘libgina qolmay, undagi obrazli ifodalar, poetik g‘oyaning yuksak san’atkorlik bilan tasvirlangani bilan ham alohida diqqatga molikdir.

Xullas, Alisher Navoiy nafs haqida so‘z yuritar ekan, nafsoniyatga berilgan kishilarni tanqid ostiga oladi. Bunday dardga giriftor bo‘lgan kishilar birovning boshiga tushgan kulfatga parvo qilmaydi, birovga yaxshilikni ravo ko‘rmaydi, har doim yolg‘iz o‘zi haqida o‘ylaydi. Ularga “barchag‘a o‘zgadan o‘zi azizroq va o‘zgalar so‘zidan o‘z so‘zi azizroq”. Navoiy kishilarni yaramas illatlardan xoli ko‘rishni istaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Yigirma tomlik, 4-tom. –Toshkent: Fan, 1990.
2. Alisher Navoiy. Yigirma tomlik, 4-tom. –Toshkent: Fan, 1990.
3. Alisher Navoiy. Yigirma tomlik, 5-tom. –Toshkent: Fan, 1990.
4. Suleyman Uludag. Tasavvuf terimleri sozlugu. – Istanbul,1995.
5. Sayyid Ja’far Sajjodiy. Farhangi istilohot va ta’rifoti orifon. –Tehron.
6. Najmiddin Komilov. Xizr chashmasi. –Toshkent: Ma’naviyat. 2005.

Salohiddin AXMEDOV,
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Nilufar TO‘XTAYEVA,
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti talabasi
s.akhmedov@umail.uz

“QUSAM OTA” QABRISTONINING HAMDA ZIYORATGOHINING ETIMOLOGIYASI

Annotatsiya: O‘zbekiston toponimiyasining boy va serqirra materiallarini turli hududlar bo‘yicha to‘plash va tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.Ushbu maqolada toponimlarning etimologiyasi Koson tumanidagi “Qusam ota” nekronimi misolida amalga oshirilgan. Tadqiqotda toponimlari o‘rganilayotgan hudud tarixi, toponimlarining vujudga kelishi kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Shuningdek “Qusam ota” ziyoratgohi va qabristonining etimologiyasi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *nekronim, etimologiya, toponim, Qusam ota, toponimik obyekt, qabriston nomlari.*

Аннотация: сбор и исследование богатого и богатого материала топонимии Узбекистана по различным регионам является одним из важнейших направлений узбекского языкознания. В этой статье этимология топонимов приведена на примере некронима “Кусам ota” в районе Касан. В исследовании основное внимание уделяется таким вопросам, как история изучаемой территории, происхождение ее топонимов. Также изложена информация об этимологии святилища и кладбища ”Кусам ota”.

Ключевые слова: *некроним, этимология, топоним, Кусам ota, топонимический объект, названия кладбищ.*

Annotation: the collection and research of rich and lush materials of the toponymy of Uzbekistan by different regions is one of the most important areas of Uzbek linguistics. In this article, the etymology of the toponyms is based on the example of the necronym “Qusam ota” in Koson district. The study focuses on issues such as the history of the area whose toponyms are being studied, the occurrence of toponyms. There are also accounts of the etymology of the shrine and cemetery of ”Qusam ota”.

Key words: *nekronim, etymology, toponym, Qusam ota, toponymic object, cemetery names.*

Kirish. Ifodalaydigan ma’nosidan qat’iy nazar, barcha geografik nomlarning asosiy xususiyati manzil vazifasini bajarishdan iboratdir.Agarda shunday bo‘lmaganda edi insonlar bir manzildan ikkinchi manzilga yetib borish uchun juda katta qiyinchiliklarda duch kelar edi. Negaki har bir inson xoh o‘qishga, xoh ishga, xoh sayohat qilish uchun yo‘l olmasin eng avvalo boradigan joy manzilining nomini bilishi lozim bo‘ladi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy vazifasi eng avvalo manzil vazifasini bajarishdir.

Yurtimizda joy nomlari shu qadar ko‘pki, biz bir eshitishda barcha toponimlarning ham ma’nosini anglay olmaymiz. Joy nomlari qancha ko‘hna bo‘lsa, ularning etimologiyasini bilish ham shuncha qiyin bo‘ladi.Hamma nomlardan ma’no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlarni o‘zgartirib, boshqacha atash minglab yillarning mahsuli bo‘lgan ma’naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir. Zeroki, muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi bo‘lmaydi.”[1]

Asosiy qism. Toponimika tarkibiga kiradigan ko‘plab atoqli otlarning nomlanish asoslari bir-biridan farq qiladi. Nekronimlar ham toponimikaning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga bir xil yoki o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra bir turga kiruvchi toponimlarni qabul qiladi.Insonlar dafn qilingan joylar –qabrlar, qabristonlar va boshqa xil ana shu turdagi o‘rin-joylar nomshunoslikda nekronimlar deb yuritiladi.Nekronim yun. nekros-qabriston+onoma-atoqli=qabristonlarga berilgan atoqli ot kabi ma’nolarni ifodalaydi[2].

Istiqlol bizga xalqimiz tarixini xolis talqin etish imkoniyatini berdi. Xalqimizning milliy va ma’naviy qadriyatlarini, ajdodlar qoldirgan boy merosni o‘rganish va izlab topish, ziyoratgoh va qadamjolarni obod qilish, ularning tarixini chuqur o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Qashqadaryo viloyati, Koson tumani, Pudina qishlog‘idagi “Qusam shayx” nomi bilan yuritilayotgan ziyoratgoh va u yerda qabrlarda osuda yotgan buyuk zotlarning ma’naviyatimizdagi tutgan o‘rni haqida ushbu maqola tashkil etildi. Topilgan ma’lumotlarga tayangan holda shu kichik maqolani siz aziz vatandoshlarimizga taqdim etamiz.

“XI asrning oxiri (1198-1199) va XIII asrning o‘rtalarida (1336-1338) yashagan islom olamidagi shayxlardan biri shayx Muhammad Qusamning faoliyati Pudina qishlog‘i bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki shayx

Qusam Turkistonda Ahmad Yassaviy xonadonida tug‘ilgan bo‘lsa ham umrining asosiy qismini Pudina qishlog‘ida o‘tkazdi, shu yerda osudalikka yuz tutadi. U Yassaviy hazratlarining nevaralari Gavhari Shahnoz begimdan bo‘lib, (ota tarafi Buxorolik Husayn shayx avlodidan, Xonzoda Muhammad Xojadir) oilada 5 ta o‘g‘il dunyoga kelgan.

Qusam shayx hazratlari haqida ulug‘ shoir Abdurahmon Jomiy o‘zlarining “Nafosat ul-uns” asarida ma’lumot berib, “Muhammad Qusam Atoyi turkiy shayx bo‘lib, Ahmad Yassaviyning avlodidan, Bahouddin Naqshbandning ustozidur”[3] deya qayd etsa, mutafakkir shoir Alisher Navoiy hazratlari esa “Nasoyim ul-muhabbat” asarida avliyolik maqomiga yetganini bir qancha himoyalar orqali dalillab, ul zotni “Shayxlar shayxi”[4] deya e’tirof qiladilar. Ayniqsa, Navoiy hazratlarining himoyalarida Bahouddin Naqshbandning Qusam shayx huzuriga kelishi muloqotlari bo‘yicha manbaalar keltiradi.

Shuningdek, 1991-yil Toshkentdagi “Yozuvchi nashriyotida Abdul Boqir ibn Muhammad Alining” Bahouddin Balog‘ardon nomli o‘zbek tiliga o‘girilgan asarida ham Qusam shayxnig Bahouddinni Pudina maktabiga qabul qilish davridagi sinovlar hikoya sifatida keltirilgan. Qusam shayxning Pudinada qolib ketishlari to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, oilada to‘ng‘ich o‘g‘il hisoblangan Hazrati Qusam shayx ukalari Is’hoq Muhammad, Mansur Muhammadlar bilan arab mamlakatlariga borib, bilimlarini oshirib, qaytish davrlarida Balx shahrining podshohi bilan suhbatda bo‘ladilar. Suhbat asnosida aka-ukalarning avliyolik darajasida ekanliklarini bilgan podshoh, uch aka-ukani o‘ziga pir sifatida olib qolishini aytadi. Shunda Qusam shayx hazratlari bizlar olgan bilimlarimizni xalqqa yetkazish hamda Allohning rizosini topishga shoshilayotganlarini aytadilar. Shunday bo‘lsa ham Balx podshohining qattiq iltimosiga binoan ukalari Mansur Muhammadni shu shaharga qoldirib pirlik qilishga rozilik beradilar. Qusam shayx ukalari Is’hoq Muhammad bilan Nasaf shahriga kelganlarida shu yerlarda Chingiziylar urushi bo‘layotgan edi. Bir muddat Pudina qishlog‘idan qo‘nim topib turgan vaqtlarida, hozirgi Mirishkor tumaniga qarashli O‘rtabuloq ovulida yashovchi xalq Qusam shayxdan ukalari Is’hoq Muhammadni vaqtinchalik iltimos bilan o‘zlariga pirlik uchun olib ketadilar.

Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Pudina qishlog‘i Qusam shayx yashagan davrda ayniqsa gullab yashnagan.Bu yerda payshanba kunlari bozor bo‘lib, ko‘pgina davlatlardan karvonlar savdo-sotiq uchun kelgan. Samarqand, Balx, Kesh, Buxoro, Nasaf va boshqa shaharlardan polvonlar kelib, kurash musobaqalari tashkil etilgan. Masjid, madrasa, xonaqoh, karvonsaroylar, savdo timlari, hammomlar, rabot va musofirxonalar muntazam ishlab turgan. Madrasalarda yuzlab ilmi toliblar diniy va dunyoviy sohalardan ta’lim olganlar. Ular o‘z davrining yetuk olimlari mashhur shayxlari tomonidan o‘qitilgan, katta miqdordagi kutubxona ham tashkil etilgan. Manbalarga qaraganda, qayerda yangi asarlar bitilsa, albatta Qusam shayx tomonidan bir nusxa olib keltirgan holda, ko‘chirib ko‘paytirilgan. Jumladan, xattotlik maktabi ham faoliyat yuritgan.

Pudinaning yirik madaniy markaz bo‘lishida Qusam shayxning xizmatlari kattadir. Chunki bu yerda yirik qurilishlar bunyod etilishi, ta’limdagi o‘ziga xoslik bu yerda uzoq islom mamlakatlaridan ham talaba va domullo sifatida kelib qolib ketishiga sabab bo‘lgan. Bu markaz ilmi toliblari keyinchalik islom ma’naviyatiga katta hissa qo‘shganini topilgan manbalardan yaqqolroq bilamiz. Jumladan, Sayyid Amir Kulol, Shamsiddin Kulol, Xoja Orif Revgaroniy, Bahouddin Naqshbandiy va hokazo ilmu toliblar Pudina maktabida ta’lim olganlar.

Nasaflik avliyo Sayyid Amir Kulol, Buxoroda Xoja Bahouddinga ta’lim berib bo‘lgandan so‘ng, Pudina markazining otasi Qusam shayxdan borib ta’lim olishni buyuradi. “O‘zimdagi barcha bilimlarni senga berib bo‘ldim, endi Nasaf tomonlarga borib, Qusam shayx va Halil otalardan ta’lim olasan” deganida, Bahouddin Naqshband 16 yoshda ekanligi manbalarda ma’lum bo‘ladi.

Qusam shayx Bahouddinga chuqur bilim beradi, “Bahouddin balogardon” deya nisbatga ham ustozi muyassar ko‘radi. Shogirdini kuzatgan hazrat: “Mening to‘qqiz o‘g‘lim bor, uchinchisi sensan va ularning hammasidan sen muqaddassan deydi[5]. Hazratning aslida 5nafar o‘g‘li bor edi, yana 5 ta shogirdiga ham ma’naviy ota bo‘lganini ko‘ramiz. Qusam shayxning mudarrislik faoliyatini e’tirof etgan holda, Pudinada hadisshunoslik maktabiga asos solganini ta’kidlash lozim. Hazrat o‘z xizmatlarining e’tirofi, mukofoti tariqasida Shayx deb tan olindi. Hatto minglab murid va sahobalari “Shayxlar shayxi” deya e’tirof etdilar. Pudina ma’rifatxonalarida minglab qo‘lyozmalar to‘plandi. Hatto Chingiziylar bosqini davrida ham bu kitoblar omon saqlanib qolindi. O‘sha kitoblar tadqiq etilsa, Qusam shayx va Pudina madaniy markazi haqida yanada to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Mustaqillik tuzumidan keyin, Mustaqillik sharofati bilan ilk bor birinchi marta 2001-yil hazrati Qusam shayx hazratlari to‘g‘risida manbalardan foydalanib risola kitobini yaratishda shu Pudina qishloq fuqarosi, olim N.Eshpo‘latov, viloyat gazetasining muhbiri N.Ahmedov va Koson tuman X.D.P raisi I.Usmonovlar tomonidan “Qusam shayx” hazratlarining risola kitoblari chop ettirilib xalqimizga yetkazildi.

Ikkinchi marta 2005-yil “Qusam shayx” hazratlari to‘g‘risida viloyat “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi rayisi Sh.Ashurova bilan Pudina qishlog‘i fuqarosi oliy toifali o‘qituvchi Q.Ahmedovalar “Qusam shayx va ajdodlar yodi” nomli romanini chop ettirib xalqimizga yetkazdilar. Ayni vaqtda hazrati Qusam

shayx hazratlarini tasavvuf ilmlari to‘g‘risida va u zotning sulukdagi xizmatlarini yoritishda mabalarda qoldirilgan ma’lumotlardan to‘plab kitob qilib chiqarish uchun O‘zbekiston musulmonlari idorasining rais o‘rinbosari shayx Abdulaziz Mansurov hazratlari tomonidan ilmiy izlanishlar o‘rganilmoqda.”

Xulosa.“Pudina” qabristoniga tevarak atrof qishloqdan mayitlar keltirilib dafn etilgani uchun ham bu qabriston qo‘shni qishloq odamlari bilan o‘zaro uzviy bog‘lovchi mozor deb bilishgan.Shuning uchun ham bu yerga ziyoratga keluvchilarning keti uzilmaydi. Shuning uchun ham pudinaliklar bilan qadimdan ko‘plab qishloq odamlari bordi-keldi qilib keladilar. “Pudina” qabristoniga yoshi ulug‘larning hikoya qilishlaricha Qorabayir, Boyg‘undi, Obron, Esaboy qishloqlaridan tashqari Samarqand viloyati, Pastdarg‘om tumanidagi Temirxo‘ja qishlog‘idan shuningdek musofir ya’ni musofir ellardan kelganlarning mayitlari ham dafn qilinib kelingan. Qashqadaryo viloyati hududida ko‘plab qabriston va masjidlar mavjud bo‘lib, ularning etnogenizi, paydo bo‘lishni o‘rganishda asosan ularning kelib chiqish va qurilish sabablari, nomlanish tarixi muhim o‘rin tutadi. Qadamjolarni nomlanishi va ushbu hududlar haqidagi xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlar haqida ham ma’lumotlar kiritish ham maqsadga muvofiqdir. Qashqadaryo viloyati hududida ramziy qabrlar va maqbaralar ham mavjud bo‘lib ular o‘ziga yarasha tarixga ega.

Shu o‘rinda bir narsani aytishimiz kerakki, “Pudina” qabristoni to‘g‘risida to‘plangan manbalarimiz shundan dalolat beradiki, bu maskan xalqimiz uchun katta ahamiyatga molik bo‘lgan qadimiy va ilohiy ziyoratgohdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. –Toshkent: Tasvir, 2021. 31-bet
2. Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. –Namangan, 2006. 31-bet.
3. Jomiy A. Nafahotul-uns / tarjima qo‘lyozma matni/. Qo‘lyozma O‘zRFA Shl Qo‘lyozmalar fondida 7286 raqami ostida saqlanadi (1886-yilda Xiva xoni M.Rahimxon Feruz topshirig‘i bilan Rahmonquli Qori o‘zbek tomonidan qilingan tarjima).
4. Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. –Namangan, 2006. 31-bet.
5. Abdul Boqir ibn Muhammad Ali. “Bahouddin Balog‘ardon”. 1991-yil –Toshkent: “Yozuvchi nashriyoti” , 51-bet.

Abduxoshim ZIYATOV,
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
O‘zbek tili va gumanitar
fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
a_ziyatov@gmail.com

MATBUOT VA UNING JADIDCHILIK HARAKATIDA YETAKCHI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: Samarqand jadid maktabi vakillarining ijodi va faoliyatiga qanday manbalar va omillar ta’sir ko‘rsatganligiga aniq yondashuv muhimdir. Negaki Samarqand Turkiston jadidchilik maktabi zanjirining muhim xalqasi hisoblanadi. Maqolada ko‘hna tarix va boy ma’naviy boylik makoni ulug‘ kentda jadidchilik harakati targ‘iboti va bunda matbuotning tutgan o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *ma’rifatparvarlik, jadid, maktab, matbuot, adabiyot.*

Annotation: a clear approach to what sources and factors influenced the work and activities of Representatives of the Samarkand jadid school is important. Negaki Samarkand is an important people in the chain of the Turkestan School of jadidism. The article details the propaganda of the jadidist movement in great Kent, the abode of co-history and rich spiritual wealth, and the role of the press in this.

Key words: *enlightenment, jadid, school, Press, literature.*

Аннотация: важен конкретный подход к тому, какие источники и факторы повлияли на творчество и деятельность представителей Самаркандской джадидской школы. Потому что Самарканд-важный народ в цепи Туркестанской школы джадидизма. В статье рассказывается о старой истории и пропаганде джадидистского движения в Великом Кенте, месте богатых духовных богатств, и о роли прессы в этом.

Ключевые слова: *просвещение, Джадид, школа, пресса, литература.*

Kirish. Jadid o‘zbek adabiyoti XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tashkil topgan va o‘zbek adabiyotining rivojida

muhim o‘rin tutgan bir davr. Jadidchilik harakati o‘zbek adabiyotining modernizatsiya jarayonini boshlab berdi va yangi adabiy shakllar, janrlar va uslublarni rivojlantirishga zamin yaratdi. Ular nafaqat ilm-fan va madaniyat sohalarida, balki siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Jadid adabiyoti – bu o‘zbek adabiyotining yangi davriga asos solgan harakatdir. U jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy islohotlar orqali o‘zgarishlarni ilgari surib, yangi adabiy shakllar, uslublar va janrlarning rivojlanishiga olib keldi. Jadidlar o‘z asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, xalqni yangi davrga moslashtirishga intildilar va o‘zbek adabiyotining zamonaviy shakllanishiga muhim ta’sir ko‘rsatdilar.

Asosiy qism. Jadidlar ijodini o‘rganishga oid tadqiqotlar deyarli badiiy-adabiy xarakterga egadir. Uzoq yillar davomida faqat adabiyotshunoslargina jadidlar faoliyatini o‘rganishda faollik ko‘rsatdilar. Ammo jadidchilikni faqat adabiy jarayon sifatida o‘rganish yetarli emas.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimizning ijtimoiy-falsafiy, adabiy-badiiy tafakkuri tarixida alohida mavqega ega bo‘lgan jadidchilikni o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Jadidchilikning paydo bo‘lish sabablari, rivojlanish jarayoni, undagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, milliy istiqlol g‘oyalarini tadqiq qilishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shularning samarasi o‘laroq ilmiy asarlar, to‘plamlar paydo bo‘ldi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinib kelinmoqda. Jumladan, Samarqand jadidchiligi vakillari — Siddiqiy Ajziy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin Shukrullo, Sayid Rizo Alizoda va Vadud Mahmudlarning ijodi ham qisman o‘rganilgan.

Samarqand Turkiston jadidchilik maktabi zanjirining muhim xalqasi hisoblanadi. Samarqand jadidlarining faoliyati, badiiy ijodidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ijtimoiy-falsafiy muammolarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Modomiki, Samarqand jadidlarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari jamiyatni isloh qilish, inson manfaatlarini himoya etishni maqsad qilib qo‘ygan ekan, u ijtimoiy xarakter kasb etib, falsafiy mazmunga ega bo‘ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, Samarqand jadidlarining ma’rifatparvarligida ilg‘or g‘oyalar mujassamligi tufayli, ularning hosilasi hisoblanmish ijtimoiy-falsafiy tafakkur mutaassib ma’noga ega bo‘lishi mumkin emas. Demak, shunday o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlik mexanizmini bilish va uni hayotga tatbiq qilish mustaqillikning ijtimoiy negizlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Samarqandda yashab, ijod etgan “o‘nlab ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”[1], deb ta’kidlaydi.

Samarqand jadidlarining mustaqillik g‘oyalariga hamohang bo‘lgan, ijtimoiy hayotni ma’rifat orqali o‘zgartirish va tadrijiy yo‘l orqali rivojlantirish, takomillashtirish konsepsiyalari, Yevropa ilm-fani va texnologiyasini o‘rganish zarurligi, Sharq va G‘arb tillarini o‘rganish xalqlar va millatlar o‘rtasidagi hamkorlik, madaniy aloqalarni mustahkamlashning muhim omili ekanligi, ilg‘or an’ana va urf-odatlarni tadbiq qilishning jamiyat ma’naviy-axloqiy qiyofasiga ta’siri to‘g‘risidagi falsafiy mulohazalari hozirgi paytda avvalgidan ham ko‘ra ko‘proq qadr- qimmat kasb etib, jiddiy e’tibor berishni talab qilmoqda.

Faqat yuqoridagi masalalarni qayd qilish bilan chegaralanib qolish, Samarqand jadidlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlariga bir yoqlama, subyektiv yondashishga olib keladi. Samarqand jadidlari ijodida ijtimoiy ong shakllari tahlili alohida o‘rin egallaydi.

Samarqand jadidlarining chor Rossiyasi, keyinchalik esa sho‘ro tuzumi istibdodiga qarshi Vatan erki, xalq va millatning ozodligi to‘g‘risidagi g‘oyalari xalqimizni mustaqillikning mohiyati va mazmunini teran anglashga, uni qadrlashga, tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga undaydi. Ularning milliy istiqlol g‘oyalari, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida vatanparvarlik hissiyotlarini shakllantirish uchun muhimdir.

Shuning uchun hozirgi globallashuv davrida kelgusi avlodda vatanparvarlik hissiyotlarini shakllantirishning dolzarbligi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd qilganidek, “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”[2].

Demak, Samarqand jadidlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini o‘rganish nihoyatda dolzarb masala bo‘lib, bu bir tomondan, O‘zbekiston falsafa tarixining takomillashuvi va boyishiga, boshqa tomondan esa ularning har qanday “tavqi la’nat” lardan xalos bo‘lib, pok nomlarining tiklanishiga xizmat qiladi.

Samarqand jadidlarining faoliyati, ijodi, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ijtimoiy-madaniy qarashlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham yaratilgan. Bu o‘rinda dastlab, jadidlarning to‘ng‘ich vakili bo‘lgan Siddiqiy Ajziyning ma’naviy merosi haqida yozilgan asarlarni ta’kidlab o‘tish zarur. Ma’rifatparvar shoir Siddiqiy Ajziyning ijtimoiy, adabiy estetik qarashlarini birinchi bo‘lib jadid Vadud Mahmud o‘rgangan. Tursunqul (Otajon Hoshim) esa Vadud Mahmudning fikrlarini to‘ldirdi.

Nafaqat Samarqand, balki Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlari va jadidlari orasida katta nufuz va mavqega ega bo‘lganlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Uning ijodi hamda faoliyati to‘g‘risida

anchagina ijobiy fikrlar bildirilgan. Bu albatta, M.Behbudiy ijodi hamda faoliyatining serqirraliligi va keng qamrovliligi bilan izohlanadi.

Behbudiyning zamondoshlari A.Sa'diy, A.Lazizzodalar dastlab uning ijodiy faoliyatiga murojaat qilib, Turkiston ma'rifatparvarligi tarixida tutgan o'rniga munosib baho berdilar. Uzoq sukutdan so'ng, faqat mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, M.Behbudiyning ma'rifatparvarlik faoliyati va ijtimoiy-siyosiy qarashlari ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillarining tadqiq obyektiga aylandi.

Mustaqillik yillarida Hoji Muinning adabiy merosi, ijtimoiy faoliyatini o'rganish uchun katta imkoniyatlar vujudga keldi. Shu davr mobaynida Hoji Muinning ijodiy yo'li, asarlari to'g'risida A.Jalolov, M.Mahmudov, R.Muqumov, B.Qosimov, S.Halimov, G.Qarshiyevalar muayyan darajada ilmiy izlanishlar olib bordilar va ularning natijalarini chop ettirdilar. Sayid Rizo Alizodaning ijodi va faoliyati S.Atabullayev hamda S.Odjiyevlar tomonidan nashr qilingan risolalarda yoritildi. Bu asarlarda Alizodaning pedagogik faoliyati bilan birga, uning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari kengroq va mukammalroq tahlil qilingan.

Samarqand jadidlarining so'nggi vakili Vadud Mahmuddir. Uning ijodiy faoliyati Oktyabr to'ntarishidan keyingi davr bilan bog'liq bo'lib, maorif tizimi, adabiy jarayonni tanqidiy tahlil qilgan maqolalari 20-yillarning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Shu davrda adabiyotshunos olimlardan A.Sa'diy, shoirlardan Cho'lpon, ziyolilardan N.Hakimlar Vadud Mahmudning adabiy tanqid sohasidagi faoliyatini ijobiy baholab, shu bilan birga uning juz'iy kamchiliklariga ham e'tiborni qaratdilar[3].

Samarqand jadid maktabi vakillarining ijodi va faoliyatiga qanday manbalar va omillar ta'sir ko'rsatganligiga aniq yondashuv muhimdir.

XIX asrning 80-yillarida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan demokratik xarakterdagi ma'rifatparvarlik ham Samarqand jadidchiligi paydo bo'lishining ilk manbalaridan biri hisoblanadi. Bu davrdagi ma'rifatparvarlikning o'ziga xos xususiyati uning bevosita adabiy-publitsistik xarakterga egaligida edi.

Jadid yozuvchilari diniy ta'limotlarga qarshi chiqmagan, ammo ularning fikricha, eski diniy tasavvurlar va qadriyatlar yangi jamiyatni qurishda to'siq bo'lib qolayotgan edi. Shuning uchun ular yangi ilmiy, ma'rifiy va dunyoviy g'oyalarni ilgari surganlar, lekin shu bilan birga diniy ta'limotlarga nisbatan tanqidiy yondashgan. Inqilobiy g'oyalar va ijtimoiy o'zgarishlar: Jadid adabiyotida inqilobiy g'oyalar keng tarqalgan.

Abduqodir Shakuriyning ma'rifatparvarlik g'oyalari shakllanishida "Tarjumon" gazetasining ta'siri beqiyosdir. U shu gazetani o'qigach, Qo'qonda yangi maktab borligidan xabar topib, bu o'quv dargohining tizimi bilan tanishish maqsadida safarga boradi.

Qrim va Volgabo'yi tatarlarining matbuoti, eng avvalo, Ismoilbek Gaspiralining "Tarjumon" gazetasi Behbudiyni buyuk ma'rifatparvar qilib yetishtirdi. Matbuotning taraqqiyparvar kishilar qo'lida qudratli qurol ekanligini his qilgan Behbudiy 1901-yildan boshlab "Turkiston viloyatining gazeti", "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo", "Tujjor" singari mahalliy hamda "Tarjumon", "Vaqt" va "Sho'ro" singari qardosh xalqlarning gazeta va jurnallarida 200 dan ziyod maqolalarini e'lon qildi (Karimov N. Behbudiy va jadid adabiyoti.O'zbek tili va adabiyoti. 1995. 3-son. 4-bet.).

Adib va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning sa'y-harakati va muharrirligida 1913-yilning aprel oyidan boshlab "Samarqand" ro'znomasi nashr etildi, ammo uning jami 45 ta soni chiqqanidan keyin yopildi, o'rniga "Oyina" (1914-1915-yillar) jurnali nashr etila boshlandi [4].

Sayid Rizo Alizodaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifatparvarlik qarashlarining shakllanishida Kalkuttada fors tilida nashr qilingan "Habluya Motin" ("Mustahkam rishtalar"), Misrda chop etilgan "Chehranamo" ("Oyina"), Qrimda bosib chiqarilgan "Tarjumon" gazetalari, Ozarbayjonda nashr qilingan "Mullo Nasriddin" satirik jurnali katta ta'sir ko'rsatdi.

Hoji Muinning 1913-1914 yillardagi mehnat faoliyati bir muddat "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnali bilan bog'liqdir. Hoji Muin ijodkor va tashkilotchi sifatida Behbudiyning hurmatiga sazovor bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. — Тошкент. "Ўзбекистон". 2017. 178-бет

2. Ш.М.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. — Тошкент. "Ўзбекистон". 2017. 157-158-бетлар.

3.B. Qosimov "Jadidchilik", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1994-yil 4-son;

4.D.T.Amriddinova "Samarqand jadidchilik maktabi" Monografiya. — Toshkent: "Navro'z", 2017.

5.D. Alimova "Turkiston jadidlarining musulmon madaniyatga oid qarashlari", "Imom al-Buxoriy saboqlari", 2001-yil 2-son.

Husniddin HASANOV,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Tillar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
assistenti

IDROK KONSEPTLARI TASNIFI
(Chol konsepti asosida)

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvomadaniy birlik sifatida konsept atamasi izohi, idrok konseptlari, jumladan, chol konsepti asosidagi muayyan xulosalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: modus, model, konsept, psixologizatsiya, kognitizatsiya, sotsiologizatsiya, lingvosemantizatsiya, sotsiolektizatsiya, stilizatsiya dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya.

Аннотация: **в статье описано объяснение термина концепт как лингвокультурной единицы, сделаны некоторые выводы, основанные на концепциях восприятия, в том числе на концепции старика.**

Ключевые слова: модус, модель, концепт, психологизация, когнитизация, социологизация, лингвосемантизация, социолектизация, стилизация, диалектизация, вариативность, идиолектизация.

Annotation: in the state, the explanation of the term concept as a lingvocultural entity, made by some vyvody, is based on the concept of perception, and the number of the concept is old.

Key words: mode, model, concept, psychologization, cognitization, sociologization, linguosemantization, sociolectization, stylization, dialectization, variantization, and idiolectization.

Kirish. Konsept – til tizimi birliklarining semantikasini belgilovchi muhim falsafiy-estetik, morfologik va sintaktik moduslardan biridir. Bitta so‘zning bir til doirasida aks etishini va aniq manzarasini idroklashda, odam va olam munosabatlarining tig‘izlashuvini ta’minlashda muhim estetik hodisalardan biri ekanligi ma’lum. Chunonchi, hayotning universal modeli, olamning tartibotlari, rivojlanish qonuniyatlari, tadrijiy o‘sish-o‘zgarishlari shu tushuncha atrofida o‘ziga xos maydon hosil qiladi. Uning pirovard maqsadi lingvomadaniy va psixolingvistik o‘ziga xosliklarini teran poetik talqin etuvchi estetik hodisa bo‘lishi bilan birgalikda shaxsning qay va qanday yo‘sinda namoyon bo‘lish kontentlarini ham ifodalashga xizmat qiladi.

“Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Kognitiv tilshunoslik birligi sifatida esa konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo‘lishi bilan tugaydi. Jahon tilshunosligi tajribasiga suyangan holda kognitiv jihatdan konseptning o‘rganilishi, konseptual tahlil va uning natijalari o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyatda muhim bo‘lgan ma’lumotlarni beradi. Zero, konseptual tahlil natijasida o‘zbek tili egasining tafakkur va tasavvur olami yoritib beriladi”[1]. Mana shu tamoyilning o‘ziyoq biz oldimizga qo‘ygan maqsad va vazifalarning ekspressivligini namoyon etmoqda. Negaki, lingvomadaniy, mental xususiyatlar – ***chol*** leksemasining semasi hadsiz-hududsiz, boshqa xalqlarda aks etish modifikatsiyasining keng qamrovliligini yuzaga chiqishida fragment vazifasini o‘taydi. Inson idrok va tasavvur olamidan yuzaga kelgan ***ota, chol, bobo, qariya, yoshi ulug‘*** kabi leksemalarda olamning bir uzvi ekanligi, ularga munosabatli nutqning davomiy rivojlanishini, olamning bir butun tizimga qo‘yilganligini dalolatlaydi.

Chol konseptining boshqa variantlarida so‘zning qay va qanday o‘rinda tashkillanishi, badiiy matnda namoyon bo‘lish usullarini yuzaga chiqishini dalolatlash borasida aniq tizimlilikni yuzaga chiqishini birlamchi vazifa sifatida ko‘rishni taqozolaydi. Mana shu tamoyilga asoslanib, hayotning universal modeli (manzara)sini ham talqin qilish mumkinligi oydinlashadi.

Tilshunos olim O‘.Q. Yusupov konsept xususida shunday mulohazalarini bayon qiladi: “Tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir. Konsept bilan tushunchani aysbergga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”[2]. Demak, har qanday

1 Кўрсатилган адабиёт, -Б.23.

2 Юсупов Ў.Қ- Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшу-

moddiyat birliklari bizni o‘rab turgan olam haqidagi tasavvurlarimizni nafaqat kengaytirib, balki uni boyitib, sayqallanishiga, tobora chuqurlashuviga olib keladi. Chunonchi, olam haqidagi lisoniy tasavvurlar konseptual mohiyati bilan o‘zining maromida yuzaga chiqadi. Uning har bir predmetni ifodalovchi ma’noviy qatlamlari faqat o‘zigagina tegishli tushunchalar sistemasini dialektik qonuniyatga to‘laqonli bo‘ysundiradi. Natija shuni ko‘rsatadiki, til – orqali yo‘l topilayotgan ma’noviy sarhadlar zamirida ong va tuyg‘u nisbati, tushuncha va talqin muvofiqligi oydinlashadi.

Atoqli tilshunos, professor G‘. M. Hoshimov konseptga quyidagicha ta’rif beradi: “Konsept, bu – tafakkurda kechuvchi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq nafaqat ikki muhim jarayon (konseptualizatsiya (konseptuallashtirish) va kategorizatsiya (kategoriyalashtirish)ning natijasi bo‘lib sanaladi, balki unga qo‘shimcha yana bir qator muhim (psixologizatsiya, kognitizatsiya, sotsiologizatsiya, (lingvo) semantizatsiya, sotsiolektizatsiya, stilizatsiya (dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya kabi) jarayonlarning pirovard natijasidir va u yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda unda til birligi o‘zining semantik sig‘imi bilan bog‘liq holda ma’lum darajada (qisman) aks etadi”[1]. Binobarin, ushbu jarayonda konseptning aniq va ixcham javobi aks etganki, uni idrok qilayotgan so‘zshunos hamisha ikki jihatni yodda tutmoqligi ayonlashdi:

1. Ikki xil madaniy tushunchalar negizida akslangan har qanday ifoda bir-birini to‘laqonli aks ettirishga qodir emas. Chunki madaniyatlar xilma-xilligi bois, bizning mentalitetimizga xos, yaqin va mavjud bo‘lgan til hodisalarini boshqa bir xorijiy tilda yuzaga chiqqan ma’nolaridan to‘liq variantini topish mumkin bo‘lmasa ham, muayyan tushunchalarga yaqinlashish ko‘zga tashlanadi.

2. Har qanday konsept mohiyatida hali tugal bir mantiqni ifodalay olishga qodir birliklar yechimi sodir bo‘lmasligi ham mumkin, negaki, voqelik tasavvur mahsuli bo‘lishi barobarida u moddiylashmagan ko‘rinishga o‘tuvchi semalarni dalolatlaydi. Modda va ruh munosabatida milliy tushunchalar o‘ziga xos yo‘sinda idrok shuurimizda asta-sekinlik bilan reallashadi.

Idrok konseptlari tasnifi. Bizni o‘rab turgan kurrayi zamin har bir mavjudlikning bir-biriga bog‘langan halqasimon materiya ekanligini taqozolaydi. Shu ma’noda, o‘y va xayollarimizning ajralmas bir qatlamida botiniy va hissiy shuurimizda bizning moddiy dunyomizga daxldor so‘z va tushunchalarning turli shakllarini, mazmunini ko‘ramiz. Hayotning nihoyatda bepoyonligini, uning zamirida ne-ne sir-asrorlar mavjudligini bizga ko‘rinmagan ruhiy olamdagi tushunchalar sistemasini idrokimiz orqali ifodalaymiz. Negaki, insoniyat shu choqqacha bilim va tafakkurning naqadar cheksiz ekanligini anglab yetdi va uning nomlanishini ham o‘z quvvayi hofizasi bilan boyitdi, to‘ldirishga urindi. Tilshunos olimlar “Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida lingvokonseptologiyaning bir qancha yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular lingvistik konseptologiya muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib boradilar va ma’lum turdagi konseptlarning tizimli tavsifini amalga oshiradilar. Konseptlarni tushunishdagi ayrim farqlarga, ularni tadqiq etish usullari va metodlaridagi farqlarga qaramay, bu maktablar vakillari konseptning ongning asosiy birligi ekanligini e’tirof etishda o‘xshash nuqtayi nazarni bildirib, konsept lisoniy vositalar orqali moddiylashadi (moddiy tusga kiradi) deb qarashadi; konseptni obyektivlashtiradigan lingvistik vositalar to‘plamini tahlil qilish orqali konseptning mazmuni va tuzilishi haqida tushuncha hosil qilish va bu konseptni ta’riflash mumkin. Har qanday holatda bunday tavsif to‘liq bo‘lmasa-da, u faqat lingvistik ma’lumotlarga asoslangan, konseptlar esa idrok birliklari sifatida mazmunning noverbal qismini ham tashkil qiladi; shu bilan bir qatorda, lisoniy ma’lumotlar orqali konseptni tahlil qilish uni tasvirlash uchun juda boy va eng ishonchli ma’lumotni taqdim etadi”[2]. Darhaqiqat, yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir idrok qilinayotgan tushuncha zamirida insonning tashqi faktorlarga berayotgan munosabatli nutqida ham konseptlar o‘z mavqeyini namoyish qiladi.

O‘zbek tilshunosligida konsept bilan bog‘liq o‘nlab nomzodlik dissertatsiyalari tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, ularning bir atama doirasida ilmiy o‘rganilishi va ularning mohiyatiga kirib borishga urinishlar muammoning u yoki bu tomonlarini anglashga imkon beradi. Mana shu jihatdan olib qaralganda, har bir masala mohiyatan inson idrokining bir bo‘lagini, tuyg‘ularini anglashga

носликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49.

1 Хошимов Г. М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Системструктур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70йиллигига багишланган Республика илмийназарий конференцияси материаллари. –Самарканд, 2010.

2 https://samxorfil.uz/yangiliklar/konceptlarning-lingvomadaniy-va-semantik-tahlili-baht-koncepti-misolida

sharoit yaratadi. Ayonki, konseptning qay maqsadda yuzaga kelishi, u olamning lisoniy manzarasiga daxldorligini hamda voqealanish strukturasini to‘g‘ri talqin etishga yo‘naltiriladi. Jumladan, tilshunos T.Mardiyev yozishicha: “Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog‘liq ma’lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Albatta, konsept tushunchasi borasida fikr va munozaralar ko‘pchilikni tashkil qilib uning ta’rifi borasida aniq to‘xtamni topish qiyin. D. S. Lixachevning keltirishicha, konsept – bu indvidual anglash jarayoni va ma’lum kontekstda so‘z ma’nosini almashtirish hisoblanadi”[1]. Binobarin, turkiy xalqlar adabiyotida konseptlarning xilma-xillashuvi, tarixiy aspektda rivojlanish tamoyillarining o‘ziga xosligi yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni to‘laqonli quvvatlaydi. Ayni chog‘da, har bir muammo negizida yoritilgan atama – bitta tushuncha doirasida o‘nlab masalalarni hal qilishga qaratilgani bilan tahsinga loyiqdir. Chol – konseptining xilma-xil sinonimlarini ko‘rganimizda ham bunda insonning yosh va aql xususiyatidan kelib chiqqan holda namoyon bo‘lishi masalaga teran kirib borishga yetaklaydi. Shu boisdan ham, konseptlarning lingvomadaniy qoliplashuvi negizida hayot haqiqati to‘laqonli o‘z ifodasini topadi.

IX-XI asrlar oralig‘ida yashab ijod qilgan qomusiy olimlarimiz bitiklarida ham diniy va dunyoviy qarashlar segmentida konseptlarning o‘ziga xos xilma-xilligini ko‘ramiz. Ayniqsa, Forobiy, Yugnakiy, Xos Hojib, Qoshg‘ariy, Beruniy, Xorazmiy singari ulug‘ allomalarning olib borgan ilmiy-adabiy izlanishlarida mana shu konseptlarning joriylashuviga yaqin bo‘lgan moduslarga tahsinlar aytamiz. Unda milliy sajiya va madaniy aloqalar jipslashuvi, olamning lisoniy, umuminsoniy manzarasini to‘laqonli anglash imkoniga sidqidildan yaqinlashuvini belgilaydi. Chunonchi, hayot bir joyda to‘xtab qolgan emas, uning o‘ziga xos muhim qirralari borki, tadqiq qilinayotgan muammolar har birimizga katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Falsafiy-estetik qamrov nuqtayi nazaridan ham olamning lisoniy manzarasi har bir konseptlarda o‘z aksini topa boradi. Jarayonning ichiga zimdan kirib borar ekanmiz, ayni shu tamoyil hayotning uzilmas torlari kabi inson fenomenining botiniy qiyofasining yuzaga chiqishiga katta sharoit yaratadi. Demak, borliq – insonning baxt-u iqboli uchun zarur. Uni qanday yashab o‘tish har bir odamning o‘zigagina tegishliligi ayonlashadi. Olamda qancha yechilmagan nazariy muammolar mavjud? Til va nutqning birligi, leksema va morfologik nuqtayi nazardan salmoqning ortishi, ilmiy takomilning har kungidan yangilanishga o‘tishi ana shu maqsadning yuzaga chiqishida katta rol o‘ynaydi. “Forobiyning yozishicha, tafakkur fazilatlari hayot jarayonida vujudga keladigan fazilatlar (axloq-odob normalariga rioya qilish, jamiyat qonunlariga bo‘ysunish va boshqalar) va kasb fazilatlari bilan bog‘liqdir. Keyingi ikki fazilat ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”[2]. Shu ma’noda, ushbu konseptlarning insonning ma’naviy ulg‘ayishi, olam sirlarini bilib borishi, ulardan tayinli xulosalar chiqara olishi kabi mulohazalar tushuniladi. Forobiy ana shu konseptlarni inson omili bilan uzviy bog‘lay olganligida seziladi.

Rus olimi, filosofi Georgiy Gachyovning fikriga ko‘ra: “Olamning milliy obrazi o‘z tarkibida milliy makon, turmush tarzi, til, milliy ruh, milliy mentalitet, borliqni anglashning milliy usuli, borliq haqidagi milliy tushunchalar, qadriyatlar tizimi kabilarni qamrab oladi. Har bir davr o‘ziga xos milliy qiyofani yaratadi”[3]. Haqiqatdan ham, mana shu jihatning o‘zi olamning lisoniy konseptning xilma-xilligini taqozo etadi. Ayni paytda, kishilik jamiyatida inson iroda yo‘nalishining individlashuvi, statik va dinamik tarzda alohidalik sari nihoyalanishini yuzaga chiqarishga zamin hozirlaydi. Dunyo bir maromda harakatlangani bilan uning ilmiy farazlari har bir makon va zamonda boshqacha ravishda tuslanadi. Uning intellektual kapital bilan bog‘liqligi, bugungi global modifikatsiyalarning ranginlashuvida yanada o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Semantik maydon o‘ziga xos til tizimi singari murakkab lisoniy qiyofaga egaligi bilan ajralib turadi. Negaki, maydonning strukturasida barcha paradigmatik birliklar jamlashadi. Maydon negizida ma’no umumiyligi qabarib ko‘rinsa, uning hech bir boshqa semalardan farqli o‘laroq, tub o‘zakning o‘zi bir umumiy maydonning yuzaga chiqishiga imkon beradi. To‘g‘ri, leksik-semantik guruh tabiatida har bir maydon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bir-biriga ma’nan va shaklan bog‘langan so‘zlar umumiyligi bitta maydon atrofida aylanadi. Bu konseptlarning yanada aniq bir mexanizm bo‘lib namoyon bo‘lishini tashkil qiladi. Semantik maydon strukturasida

1 https://samxorfil.uz/images/source/pdf/2016/4/Mardiyev.pdf

2 https://samxorfil.uz/images/source/pdf/2016/4/Mardiyev.pdf

3 Турабаева С. Оламнинг лисоний манзарасида лингвокультурологик бирликларнинг воқеланиши// International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337

lisoniy va konseptual aspektlar namoyon bo‘ladi. Maydon tarkibidagi leksik-semantik va tushunchaviy elementlarni keskin qarama-qarshi qo‘yish (taqqoslash) maqsadga muvofiq emas.

“Semantik maydonning asosiy vazifasi, avvalo, voqelikning ma’lum bo‘lagini adekvat lisoniy aks ettirishdir. Shu tariqa semantik maydon uni hosil qiluvchi so‘zlar vositasida voqelik bilan aloqada bo‘ladi. So‘zning voqelik bilan munosabati, o‘z navbatida, denotativ va signifikativ ma’nolari asosida amalga oshiriladi: denotat so‘z bilan ifodalangan realiyalar sinfini ataydi, signifikat esa bir turdagi realiyalarning o‘ziga xos belgilariga ishora qiladi. Leksikani tavsiflashda maydon orqali lisoniy tushuncha tomon harakat qilishda alohida ma’nolarni umumlashtirib til leksik sostavining bo‘linishini belgilovchi asosiy tushunchalar to‘plamiga ega bo‘lamiz. Bu asosiy tushunchalarga lug‘atlarning mazmuniy tomonini ta’riflash imkonini beruvchi semantik komponentlar sifatida qarash mumkin”[1]. Mana shu keltirilgan ta’rifda olamning lisoniy manzarasiga doir ikki jihat qabarib ko‘rinadi, birinchidan, semantik maydon va uning ko‘p qirrali qiyofasi turkiy xalqlar adabiyotida og‘zaki ijoddan o‘tib, yozma adabiyotda badiiy formulalarga tutashdi. Natijada, har bir idrok qilinayotgan muammo negizida borliq o‘z qiyofasida gavdalantirildi. Jumladan, hayotning turli qatlamlarida aks etgan umumiylik va o‘ziga xoslik imkon qadar odamlar ongida o‘zgarib, tuslanib borayotgan muammolarga teran yondashuvni yuzaga chiqishiga katta imkon berdi.

Umuman, har bir hayot haqiqati bir tushuncha doirasida o‘zgarib borishi tayin. Jumladan, fonetik, leksik va morfologik uyg‘unlashuv so‘zlarning bir yagona estetik markazda uyushuvini yuzaga chiqishi tilshunoslikda kognitiv va lingvopsixoanalitik taqqoslanish qiymatini ham yangilashga yo‘l ochdi. Inson har bir jamiyatda o‘zining yashash maydonini to‘g‘ri belgilab olishi zarur. Jumladan, **chol** – konseptida ham **qariya**, **bobo**, yoshi **ulug‘**, **oqsoqol**, **qaqi**, **g‘arri**, **ko‘ke** kabi atamalar mavjud muammoning turkiy tillardagi ildizlari hayotning achchiq-chuchugini totgan degan ma’nolarda umumiy bir semantik manzarani hosil qiladi. Mana shu tamoyilning ilmiy-nazariy jihatdan hal qilinishi, mavjud tilshunoslik sohasining yanada o‘zgarib, ranginlashib borayotganidan shahodat beradi. Bir tomondan ana shu tadrij o‘zbek lingvokulturologiyasida ayni paytda yangi semalarning qoliplashuvini yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ham isbotlaydi.

1 Эргашева М.В. Оламнинг лисоний манзараси ва семантик майдон//Молодой учёний№3. 2016. -Б.45-49

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Турабаева С. Оламнинг лисоний манзарасида лингвокультурологик бирликларнинг воқеланиши// International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
2. Эргашева М.В. Оламнинг лисоний манзараси ва семантик майдон//Молодой учёний№3. 2016. -Б.45-49
3. Юсупов Ў.Қ- Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшу- носликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49.
4. Хошимов Г. М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Системструктур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70йиллигига багишланган Республика илмийназарий конференцияси материаллари. –Самарқанд, 2010.
5. https://samxorfil.uz/images/source/pdf/2016/4/Mardiyev.pdf
6. https://samxorfil.uz/yangiliklar/konceptlarning-lingvomadaniy-va-semantik-tahlili-baht-koncepti-misolida

Namuna NAZAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
nazarovanamuna819@gmail.com

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUXAMMAS JANRINING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada Sirojiddin Sayyidning muxammas janr rivojiga qo‘shgan hissasi haqidagi fikr - mulohazalar aks ettirilgan. Shoir ijodidagi muxammaslarning o‘ziga xosligi atroflicha o‘rganilib, mavzu jihatdan rang - barangligi, vazn talablari yuzasidan ilmiy mulohazalar aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: *muxammas,vazn, mavzu, bahr, originallik, falsafiylik.*

Аннотация: в этой стати представлении отзиви о вкладе Сироджиддина Сайида в развитие жанра мухаммаса. Оригиналност мухаммаса в творчестве поэта тщательно изучена и отражена в тематическом многообразии, применении художественных приемов, научных рассуждениях о весах мухаммаса.

Ключевые слова: *значимость, вес, тема, смысл, оригинальность, философия.*

Annotation: this article reflects the feedback on Sirojiddin Sayyid's contribution to the development of the mukhammas genre.The peculiarity of mukhammas in the poet's work is studied in detail,reflecting scientific reflections on the topic of colorfulness.

Key words: *mukhammas weight, theme, meaning, originality, philosophy.*

Shoir Sirojiddin Sayyid ijodida aruz she’r tizimida yozilgan ijod namunalari orasida muxammas son jihatidan g‘azaldan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. “Muxammas – mumtoz adabiyotimizda o‘ziga xos qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan beshlik band usulida yozilgan she’r. Qofiyalanish tartibi: a+a+a+a+a, keyingi bandlardagi dastlabki to‘rt misra o‘zaro qofiyalanib, so‘nggi beshinchi misralar birinchi bandning beshinchi misrasi bilan ohangdosh bo‘ladi : b+b+b+b+a”.[1,22]

“Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da muxammasning quyidagi turlari qayd etiladi:

1) biror shoir mustaqil muxammas yozadi;
2) shoir o‘ziga yoqqan biror g‘azalga muxammas bog‘laydi va u taxmis deb ataladi;
3) shoir o‘z g‘azaliga taxmis qiladi;
4) biror shoir muxammasiga muxammas bog‘laydi.[2,80]

Sirojiddin Sayyid ijodida birinchi va ikkinchi turga oid muxammaslar ko‘proq kuzatiladi. 2018-2019-yillarda nashr qilingan to‘rt tomlik saylanmalari ichida “Jonu dilim”, “Nastarin sevgi” kabi mustaqil muxammaslarini kuzatishimiz mumkin. Shoirning “Jonu dilim” nomli muxammasi Vatan madhiga bag‘ishlov tarzda yozilgan:

Hurriyat epkinlari, bog‘ingdadir tomingdadir,
Yulduzing, qutlug‘ hiloling subhu oqshomingdadir,
Fayz ila fazlu farog‘at tinchu oromingdadir,
Ey vatan, jonu dilim, jonu dilim nomingdadir,
Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadir.[3,461]

Band a-a-a-a-a tarzda qofiyalanadi. Keyingi besh bandning har uch misrasi mustaqil tarzda, oxirgi ikki misrasi esa birinchi bandning to‘rtinchi va beshinchi misralarining takroridan hosil qilingan: b-b-b-a-a;v-v-v-a-a…….Ramali musammani mahzuf vaznida bo‘lib taqte’si quyidagicha :

- V - -/- V- -/ - V - -/-V-.

“Nastarin sevgi” muxammasi ishqiy mavzuda bo‘lib, unda oshiq holi, dard -iztiroblari o‘z aksini topgan.

Ikki ko‘ngil, ikki dil osmon edi,
Ikki sohil, ikki yo‘l bir yon edi.
Ikkimizga osmon ayvon edi,
Yor, shirin kulganlaring yodimdadir,
Yoshirin kelganlaring yodimdadir.[4,447]

Bu muxammas ham besh banddan iborat bo‘lib, bandlarning har uch misrasi mustaqil qofiyalanadi, ikki misrasi esa birinchi band to‘rtinchi va beshinchi misralarning takroridan shakllangan. “Ta’bi xud” bo‘lgan bu muxammas besh banddan tashkil topgan. Vazni ramali musaddasi mahzufdir. Misol tariqasida keltirganimiz birinchi bandning uchinchi misrasida vazn talabiga javob berolmaydigan holat kuzatiladi. Ya’ni har bir misra foilotun foilotun foilun shakldagi paradigmaga ega bo‘lsa, uchinchi misra bir hijo yetishmovchiligi bilan bundan mustasno. Lekin muxammasning qolgan bandlarida bunday holat kuzatilmaydi.

Shoir ijodida garchi “Ta’bi xud” muxammaslar soni kam bo‘lsa-da, taxmis muxammaslarning sanog‘i anchaginani tashkil etadi. Bunda shoir mumtoz adabiyotimizga bevosita murojaat etgan:

1.Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari quyidagilar:

“Borini anglatdi oxir…”, “Tushdi endi o‘zga ishqu muddaolar boshima…”, “Zulfing ochilib…”, “Yaxshilar ichra vatan…”, “Xolu xating xayolidin”, “Bizning shaydo ko‘ngul”, “Mohi muaddab, sarvi shakarlab”, “Ko‘zung ne balo”, “Bir kichik yoshlig‘ nigor”, “Chaman sarvi, mening sarvim”, “Chunki ellik manzil o‘tti…”, “Har kunung o‘lsun Navro‘z ”, “Dog‘ini Majnun qonatmish…”, “Junun vodiysig‘a moyil…” .

2. Zahriddin Muhammad Bobur g‘azallariga

bog‘lagan muxammaslari quyidagilar: “Bahor ayyomidur…”, “Yoz fasli, yor vasli”, “Jamoling vasfini, ey oy…”, “Senga ko‘nglumni oldurdim…”, “Umidim borki Boburdin…”.

3.Furqat g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari quyidagilar: “Ko‘zlari begona ermas…”, “Loladek yuz birla …”.

4.Hofiz Sheroziy g‘azaliga muxammas: “Yangi va yangi, xilma xil”, “Ayladi Hofiz Nasihat…”.

5.Mavlono Lutfiy g‘azaliga muxammas: “Ey shohi jahon”.

6.Atoyi g‘azaliga muxammas: “Jamoling vasfini”, “Ochil ey gul, ki bo‘ston vaqti bo‘ldi”.

7.Sobir Termiziy g‘azaliga muxammas: “Sochingday beqarorman…”.

Yuqoridagi tartiblanishga ko‘ra Sirojiddin Sayyid muxammas yaratishda Hazrat Navoiy ijodiga ko‘p bora murojaat qilganligini bilish mumkin. Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan muxammaslar ichida Navoiy ijodiga oid obrazlarning, so‘zlarning o‘zgacha uslub bilan aks etishi Sirojiddin Sayyid she’riyatining badiiy qirralarini ochib bera olgan:

…Urib oyning sariq toshiga men bosh,
To‘kurman kechalar yoding bila yosh.
Dilimni holini ko‘r qalamqosh:
Anga baskim yog‘ar tosh ustiga tosh,
Tanida yora uzra yora bo‘lmish. (Bizning shaydo ko‘ngil…) [5,176]

Muxammas oshiqona ohangda bo‘lib, bu band bosh, yosh, qalamqosh, tosh kabi so‘zlar bilan qofiyalangan: b-b-b-b-a. An’anaviy obraz hisoblangan oy obrazi bu bandda oshiqning mahzun holatini ifodalashda sariq tosh detali bilan shoir Sirojiddin Sayyid tomonidan badiiy boyitilgan. To‘rtinchi misrada “Dard ustiga chipqon…” maqolining band mazmuni, qofiya, ritm va vazn talablariga binoan o‘zgargan, shoir mahorati bilan band detallariga moslashtirilgan variantidir. Yora so‘zining “yara” ekanligi haqida izoh berilganki, bu bevosita Navoiy tilidan olinganligini bilishimiz mumkin.

Sirojiddin Sayyid Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilib muxammaslar bog‘larkan, ham Hazrat Navoiy ijodini o‘qirmanlarga yaqinlashtiradi, ham Navoiy dahosidan ilhomlanib, yangicha badiiy topilmalar bilan adabiyot olamini boyitib boradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi ham Sirojiddin Sayyid ijodiga turtki bo‘lgan. Bir necha g‘azallariga yozilgan muxammaslar va “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli firoq va sog‘inch dostoni ham ul zotning ijodidan ilhomlanish samarasidir. “Yoz fasli, yor vasli…” nomlangan muxammas oshiqona muxammas bo‘lib, Sirojiddin Sayyidning eng sara ijod namunalaridan sanaladi. Bu muxammas vazni ramali muxammasi mahzufdir.

Sirojiddin Sayyidning taxmis muxammaslari ichida “Ochil, ey gul, ki bo‘ston vaqti bo‘ldi” deb nomlangan Atoiy g‘azaliga muxammasi alohida ajralib turadi. Quyidagi misralar asar badiiy quvvatining bir namunasidir:

…Hilol aylar havas qosh-u ko‘zungga,
Atirgul rangi bor lab ham so‘zungga,
O‘zing gul, gul esa o‘xshar o‘zungga,
Qilay nola boqib guldek yuzungga,
Chu bulbullarg‘a afg‘on vaqti bo‘ldi [5,173]

Band qofiyalanishi b-b-b-b-a shaklida bo‘lib, ko‘zungga, so‘zungga, o‘zungga, yuzungga kabi so‘zlar o‘zaro qofiyalanib kelgan. Oxirgi misra esa muxammas yaratilish qoidasiga binoan birinchi band misralariga qofiyadosh shaklda yozilgan. Bu muxammasda yor vasfi kuylangan. Tanlangan badiiy obrazlar ham yor go‘zalligini ochib berishga xizmat qiladi. Yuqoridagi bandda garchi an’anaviy obrazlarga murojaatni ko‘rsak-da, uslubning o‘zgachaligi kitobxon e’tiborini tortadi. She’riyatda yorning qosh - ko‘z shakli hilolga qiyos qilingan asarlar juda ko‘p. Sirojiddin Sayyid bu o‘rinda o‘zgachalikka qo‘l urib o‘xshash yoki -dek, -day kabi vositalarni ishlatmasdan yorning chiroyda tengsizligini ifodalab berishda “hilol havas qilar” jumlasi bilan aks ettiradi. Bandning ikkinchi misrasida bor so‘zi fikrga qat’iylik beradi va yorning ham lablari atirgul monand chiroyliligini, ham yorning so‘zlari oshiq qalbini xushbo‘y iforlarga to‘ldirishini ifodalagan. Uchinchi misrada ham Sirojiddin Sayyid uslubiga xos o‘xshatish o‘z aksini topgan. Ya’ni tabiatning inja ne’matlari ham yor go‘zalligi oldida ojizligini, yor ularga o‘xshamaydi, aksincha, ular yordan andoza olib go‘zal bo‘lishgan. Mana shunday o‘ziga xoslik ijodkor asarlarining originalligini ta’minlagan. Oxirgi misralar oshiqning iztirobli, g‘amboda holini aks ettirgan. An’anaviy obraz hisoblangan bulbulning afg‘on – fig‘on chekishi, oshiqning yor hajrida o‘rtanishini ifodalaydi. Asar vazni hazaji musaddasi mahzuf.

Bu kabi tahlil va sharhlarni shoir ijodidagi har bir muxammas doirasida olib borish mumkin. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Sirojiddin Sayyid mumtoz adabiyotimiz darg‘alari ijodidan kuch olgan, hayratlangan va bu hayratlar yangicha ijod namunalarining paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anvar Hojiahmedov. Aruz nazariyasi asoslari. – T.: “Akademnashr”, 2018.
2. Obidjon Karimov. Mumtoz she’riyat janrlari. “Namangan”, 2015.
3. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi.Elektron jurnal,2024, №1
4.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2002. 490- bet.
5. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: “Iqtisod- moliya”, 2007. 304-bet.
6.Qozoqboy Yo‘ldoshev. So‘z yolqini. – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2018. 504- bet.

7.Sirojiddin Sayyid.Saylanma II jild “Sharq”, 2018, 586 -bet.
8. Sirojiddin Sayyid.Saylanma III jild “Sharq”, 2019, 576- bet.
9. Sirojiddin Sayyid.Saylanma IV jild “Sharq”, 2019, 607- bet.

Shoxida YOKUBOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
yakubovashohida1990@gmail.com

AGNONIM XUSUSIDA MULOHAZALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada agnonimlar haqida atroflicha ma’lumot berilgan bo‘lib, tilshunoslikda agnonimlarning dolzarb mavzu sifatida qay darajada o‘rganilganligi keltirilgan.
Kalit so‘zlar: *agnonim, kam qo‘llaniladigan so‘zlar, tarixiy so‘zlar, shevaga oid so‘zlar.*
Аннотация: в данной статье представлена подробная информация об агнонимах, а также рассматривается, насколько глубоко они изучены как актуальная тема в лингвистике.
Ключевые слова: *агнонимы, редко употребляемые слова, исторические слова, диалектные слова.*
Annotation: this article provides detailed information about agnonyms, as well as discusses how extensively they have been studied as a relevant topic in linguistics.
Key words: *agnonyms, rarely used words, historical words, dialectal words.*

Kirish. Til ijtimoiy vosita sifatida jamiyatda insonlarning o‘zaro muloqotga kirishishiga xizmat qiladi.Aloqa vositasi yordamida jamiyat a’zolari bir-birlari bilan so‘zlashadilar.Ammo bir tilda so‘zlashuvchi insonlarning lug‘at boyligi (leksikoni)ning hajmi va xususiyatlari shaxsning ko‘plab o‘ziga xos jihatlari (yosh, jins, ta’lim, mutaxassislik, qiziqishlar doirasi, o‘qish, xorijiy tillarni bilishi, yashash joyi va boshqalar) tufayli bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan bir tilda so‘zlashuvchi barcha insonlar lug‘ati bilan shu jamiyatning bir a’zosi lug‘ati tarkibi bir-biridan farqlanadi.Tilshunoslikda leksikografik tadqiqotlar, asosan, ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning barchasi uchun tegishli bo‘lgan “umumiy lug‘at” ustida olib borilgan bo‘lib, endilikda til antoposentrik nuqtayi nazardan tadqiq qilinishiga ehtiyoj sezilmoqda. Aloqaga kirishish jarayonida insonlar o‘rtasida lug‘at tarkibining farqliligi tufayli nutqning tinglovchi tomonidan to‘liq anglanishida noqulaylik paydo bo‘lmoqda. Yoki bo‘lmasam, kitob o‘qiyotgan o‘quvchi matn tarkibidagi shevaga oid, tarixiy hamda ma’nosi hatto izohli lug‘atlarda ham to‘liq yoritib berilmagan so‘zlar tufayli matn mohiyatini anglayolmaydi. Natijada shu asardan erishilishi lozim bo‘lgan maqsadga yetib bo‘lmaydi.

Asosiy qism.Barcha tilda bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham chet tillaridan kirib kelayotgan, ma’nosi foydalanuvchining o‘ziga-da ma’lum bo‘lmagan noodatiy, tushunarsiz so‘zlar va so‘z shakllar, birikmalar mavjud.Ko‘pchilik uchun kam qo‘llaniladigan so‘zlar eskirgan so‘zlardan ko‘ra tushunarsizroq bo‘ladi. Chunki har qanday kam qo‘llaniladigan so‘zlar eskirgan bo‘lavermaydi, har qanday tarixiy so‘z esa unutilgan bo‘lavermaydi. Shuningdek, ba’zi keng tarqalgan va faol lug‘at zaxirasiga kiruvchi so‘zning ma’nosi noma’lum bo‘ladi.Bular “agnonimlar” deb ataladi. So‘nggi yillarda ilmiy amaliyotga kiritilgan “agnonim” atamasi terminologik jihatdan juda muvaffaqiyatli hisoblanadi.Ushbu atama, bir tomondan, til egasining leksikonidagi to‘ldirilmagan hujayralarning shaxsiy harakat xarakterini yaxshi ifodalaydi, ikkinchi tomondan, esa zamonaviy til egasining tipik agnonimik faoliyat zonalarini aniqlash imkonini beradi. Agnonimlarda nutq egasining o‘zining leksikoniga bo‘lgan munosabati, leksik elementlarning til egasining ongida mavjud bo‘lish usuli aks etadi.V.V.Morkovkin atamaga quyidagicha ta’rif beradi: “Agnonimlar – bu leksik sintaksisning birlashgan birligi bo‘lib, u o‘z ichiga til egalarining ko‘pchiligi uchun noma’lum, tushunarsiz yoki qisman tushuniladigan ona tilidagi birliklarni oladi”.

Agnonimlar haqida til egalari quyidagi javoblarni berishi mumkin:

1. So‘zning nimani anglatishini umuman bilmayman.
2. So‘z ma’nosi keng, aniq bir soha bilan bog‘liqligini tasavvur qilaman.
3. So‘z ma’nosi aniq bir narsa-predmet bilan bog‘liqligini bilgan holda boshqa narsa-predmetlardan qaysi jihati bilan farqlanishini bilmayman.
4. So‘z biror narsa-predmetni anglatishini bilaman, ammo ushbu narsa-predmetning xususiyatlarini, undan qanday foydalanilishini, vazifalarini bilmayman.
5. So‘zning nimani anglatishini bilaman, lekin tegishli narsa-predmetning ko‘rinishi tasavvur qilolmayman.
6. So‘zni hayotim tajribasi va kasbim bilan bog‘liq

bo‘lganligi sababli bilaman, ammo boshqa til egalari uni yetarlicha bilmaydi, deb hisoblayman.

Har bir inson lug‘at tarkibidagi agnonimlarning tarkibi va miqdori farqlanadi. Tizimli nuqtayi nazardan “agnonimlar” tushunchasi passiv lug‘at tarkibi bilan bog‘liq bo‘lib, leksikaning periferik qatlamlari bilan bevosita aloqadordir.

Agnonimlar ikki xil shart bilan yuzaga kelishi mumkin: vaqtinchalik va ijtimoiy. Ba’zi so‘zlar aynan shu davrda kam ishlatilganligi sababli tushunarsiz bo‘ladi.Bularga yangi so‘zlarni kirgizish mumkin. Ular keyinchalik hamma uchun tanish bo‘lib qolishi mumkin.Ushbu guruhga vaqtincha eskirgan so‘zlari ham kirgizish mumkin.

Agnonimlarning ikkinchi yuzaga kelish sharti – bu ijtimoiy muhit bo‘lib, unda inson o‘sadi va tarbiyalanadi. Agar til egasi o‘z rivojlanish jarayonida ba’zi so‘zlar bilan to‘qnash kelmasa, bu so‘zlar unga tushunarsiz bo‘ladi.

Til til shaxsidan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas, u odamga “sig‘adi”, tizimlilik orqali unga mos keladi.

Leksik tizim shu tilning so‘zlardan tashkil topgan va barqaror munosabatlar bilan bog‘langan birikma bo‘lib, natijada ichki tashkil etilgan birlikni hosil qiladi.

Leksik tizim uch turdagi birliklardan tashkil topgan: sodda, murakkab va birikkan (so‘z ma’lum bir ma’noda, sinonimik qatorlar, antonomik juftlik va h.z.; o‘zlashtirilgan so‘zlar, tarixiy so‘zlar, yangi so‘zlar va boshqalar). Bu birliklar lingvosentrik va antroposentrik talqinlarni qabul qilishi mumkin.Ular orasida faqat antroposentrik yondashuvda ajralib turadigan birliklar mavjud. Bunday birliklardan biri – agnonimlardir.

Morkovkinlar tomonidan ta’kidlanganidek, “Leksik birliklar matnda har doim boshqa so‘zlar bilan o‘ralgan bo‘lib, ya’ni kuchli matnli qo‘llab-quvvatlash sharoitida funksiyalashadi, shuning uchun muloqotda ishtirok etayotgan odamdan so‘z haqida ancha kam ma’lumotga ega bo‘lish talab etiladi. Shuni aytish mumkinki, odam mahsulotli va retseptiv nutq faoliyatlarida ishtirok etishi uchun kerak bo‘lgan bilimlar guruhlari o‘zaro butun va qismlarga taqqoslanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan bilimlar, birinchi navbatda, leksik ma’no tarkibining o‘sha elementlariga tegishli bo‘lib, tadqiqotchilar agnonimlar haqidagi izlanishlarida bu elementlar semalar sifatida paydo bo‘lishini ko‘rsatdilar”.

Ma’lumki, so‘zlarni nutqda ishlatishda bu so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan uyg‘unligi katta ahamiyatga ega.So‘zning uyg‘unligi til birliklarining asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, odatda, sintagmatik til jihati bilan bog‘liq ravishda ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy lingvistik adabiyotda “valentlik” atamasi ishlatiladi, bu “so‘zning boshqa elementlar bilan sintaktik bog‘lanishga kirishish qobiliyati”ni bildiradi.

V.V.Morkovkin til egasining ma’lum bir so‘zni bilishini so‘zning ma’nosi va uning uyg‘unligi o‘rtasidagi ilm-fan tomonidan o‘rnatilgan qonuniyatlar orqali aniqlashni taklif qiladi.Bunday qonuniyatlarning ba’zilari muallif monografiyasida keltirib o‘tilgan.

1. Har bir sema so‘zni leksik uyg‘unlikka olib keladigan semantik asos bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni bu uyg‘unlikni yuzaga keltiradi.

2. Semalar o‘zaro iyerarxik munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular hosil qilgan iyerarxik tuzilmada turli darajadagi statusga ega.

3. So‘zning so‘z birikmasidagi hamkori bilan semantik aloqasi, hamkori uning leksik ma’nosidagi bir yoki bir nechta semalarini aktualizatsiya qilishi bilan namoyon bo‘ladi.

4.Semalar iyerarxik tuzilmani tashkil etganligi sababli har doim pastki darajadagi semalar yuqori darajadagi semalarni aktualizatsiya qilishga olib keladi.

5. So‘zning leksik ma’nosida eng aniq semalar (ya’ni yuqori funksional ahamiyatga ega semalar) aktualizatsiya qilinadigan so‘z birikmalari so‘zni o‘ziga xos uyg‘unligi hosil qiladi. So‘zning leksik ma’nosidagi eng mavhum semalar (ya’ni yuqori tizimli ahamiyatga ega semalar) aktualizatsiya qilinadigan so‘z birikmalari esa so‘zni o‘zgacha uyg‘unlikka olib keladi.

Agnonim tushunchasi kundalik tilga murojaat qilganda juda muhim ahamiyatga ega.Tilning kambag‘alligi, ya’ni “yuqori chastotali so‘zlar sonining cheklanagan bo‘lishi va ularning matnlarda paydo bo‘lishining oson bashorat qilinishi” ayniqsa, tashvishga soladi.“Nima-ki bashorat qilinadi, u infarmativ emasdir. Aksincha kam chastotali so‘zlar ko‘proq diqqatni jalb qiladi, ko‘proq qiziqish uyg‘otadi va ko‘pincha xabarni aniqroq ifodalaydi”.

Xulosa qilib aytganda, agnonimlar– bu ma’lum bir til egasiga tushunarsiz yoki qisman tushunarli bo‘lgan so‘zlardir.Agnonimlar ro‘yxatiga ko‘pincha ilmiy atamalar, maxsus leksika, tarixiy, kam qo‘llaniladigan, yangi va umumiy ishlatiladigan so‘zlar ham kiradi. Yangi so‘zlar ommaviy axborot vositalari tomonidan faol ishlatiladi. Ayrim hududda yashovchi aholigagina tushunarli bo‘lgan so‘zlar ham boshqa hududda yashovchi til egasi uchun agnonim bo‘lib hisoblanadi. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar esa yosh avlod uchun ma’nosini aniq bilmagan holda qaysidir sohaga oid atama hamda u haqida umumiy tasavvurga egaligi holda yoshi katta avlod uchun tushunarsiz so‘zdir. Agnonimlarning ma’nosi matnda nisbatan tarzda anglanishi mumkin.Bunda matnda qo‘llanilayotgan ma’nosi biz uchun tushunarli bo‘lgan boshqa so‘zlarning o‘rinli ishtiroki muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Липнина Е.М. Антропоцентрическая сущность агнонимов. Психология, социология и педагогика.н.ж. –М.,2012.

2. Морковкин В.В., Морковкина А.В. Русские агнонимы: слова, которые мы не знаем. Понятие, состав и смысловое разнообразие. –М., 1997.

Said RAXMANOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: said_rakhmanov@mail.ru

IQTISODIY JURNALLARDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK MAVZUSINING YORITILISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada bosma matbuot, jumladan, jurnallarda paxta-to‘qimachilik sanoati masalalarining yoritilish xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilingan. Vaqtli matbuot turlari orasida jurnal auditoriyaga keng va chuqur axborot berish, taqdim etilayotgan materiallarda tahlilning ustuvorligi bilan alohida ajralib turadi. Keyingi yillarda iqtisodiy jurnallarda to‘qimachilik sanoatiga oid chop etilgan maqolalar har tomonlama o‘rganilib, shu asosida o‘zbek jurnalchiligining yutuq va kamchiliklari aniq misollar orqali ochib berilgan. Maqolada ixtisoslashuv, janriy rang-baranglik, jurnalist mahorati, matn tayyorlashda til va uslubning roli tahlil qilingan. Iqtisodiy mavzularni yoritishda jurnalist bilim va tajribasining o‘ziga xos jihatlari o‘rganilib, ilmiy taklif va tavsiyalar berilgani uning ilmiy jihatdan yangiligini ko‘rsatib turibdi.

Kalit so‘zlar: *matbuot, iqtisodiy jurnalistika, jurnal, mavzu, to‘qimachilik sanoati, janr, intervyu, ixtisoslashuv.*

Аннотация: в статье рассматриваются особенности и специфические аспекты освещения вопросов хлопково-текстильной отрасли в печатных СМИ, в том числе в журналах. Среди видов периодических изданий журнал выделяется предоставлением широкой и глубокой информации аудитории, приоритетом анализа в представленных материалах. В последующие годы были всесторонне изучены опубликованные в экономических журналах статьи о текстильной отрасли, и на основе этого на конкретных примерах раскрыты достижения и недостатки узбекской журналистики. В статье анализируется роль специализации, жанрового разнообразия, журналистского мастерства, языка и стиля в подготовке текста. Изучены уникальные аспекты журналистских знаний и опыта освещения экономических тем, даны научные предложения и рекомендации, что свидетельствует о его научной инновационности.

Ключевые слова: *пресса, экономическая журналистика, журнал, тема, текстильная промышленность, жанр, интервью, специализация.*

Kirish. Hozirgi zamonda insoniyat axborot, matbuot, axborot dunyosi, ommaviy kommunikatsiya tushunchalari mutlaqo yangi voqelikka kirib ulgurgan bir davrda yashamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar taraqqiyoti bilan birga, fuqarolik jurnalistikasi ham rivojlanib boryapti. Natijada aholining informatsiyaga bo‘lgan ehtiyojining katta qismi jurnalistikaning tezkor turlari hissasi evaziga qondirilyapti. Biroq ular orqali taqdim etilayotan ayrim materiallarda jurnalistikaning oltin qoidasi bo‘lgan xolislik tamoyillariga putur etayotgani, fakt va dalillar asliyatdan boshqacha rakursda talqin qilinayotgani, fikrlar kontekstdan “yulib olib” asl ma’nosi buzib tarqatilishi kabi holatlar tufayli jurnalistikada professionalizm, kasbiy etika va ijodiy mahorat masalalari kun tartibiga chiqmoqda. Bunga iqtisodiy mavzular, xususan, paxta-to‘qimachilik masalalarining yoritilishi misolida ko‘p bora guvoh bo‘linyapti.

Binobarin, o‘quvchilar auditoriyasi endilikda axborot eng kuchli qurol ekanligini chuqur anglab etmoqda, axborotlarni faqat ishonchli manbalardan olishga odatlanishmoqda. Bu jarayonda yurtimizda faoliyat yuritayotgan bosma nashrlar sifatli kontentlar tayyorlash orqali o‘quvchilar auditoriyasini kengaytirishga intilayotgani diqqatga sazovor.

Ayni paytda yuritimizda 1255 ta gazeta va jurnallar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning muayyan qismi iqtisodiyot mavzusiga ixtisoslashgan.

Jurnalistika sohasidagi yirik olim Muxtor Xudoyqulovning fikricha, jurnallar boshqa vaqtli matbuot turlaridan farqli ravishda insoniyatga keng va chuqur informatsiya etkazib beradi. “Jurnal vaqtli matbuotning asosiy turlaridan biri bo‘lib, jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish va madaniy-ma’naviy hayotining chuqur qatlamlarini aks ettiradi. Jurnal insoniyatga juda keng jabhada va boy ma’naviy ozuqa etkazib beradi, ijtimoiy borliq bilan ijtimoiy ong o‘rtasida mutanosiblikni chuqurlashtiradi, inson aql-u tafakkurining yanada o‘sish yo‘lida xizmat qiladi” [2, 79].

Yurtimizda jurnalchilik tarixi atoqli ma’rifatparvar adib

va publitsist Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan bog‘lanadi. Sababi ilk jurnal — “Oyina” uning muharrirligida 1913—1915-yillarda Samarqand shahrida nashr qilingan. O‘zbek tilidagi ikkinchi jurnal esa “Al-Isloh” nomi bilan Toshkent shahrida chop etilgan. Umuman olganda, Turkistonda 1918-1924 yillarda jami 129 nomda jurnal va byulletenlar nashr qilingan. To‘g‘ri, ularning asosiy qismi rus tilidagi tarmoq nashrlaridan iborat bo‘lib, ayrim jurnallarning bor - yo‘g‘i bir-ikkita soni chiqqan, xolos. Lekin ular orasida bugungacha yashab kelayotganlari ham borligi quvonarlidir. Bunga misol tariqasida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida o‘zbek tilida tashkil etilgan “Yer yuzi” (hozirgi “Guliston”), “Yangi yo‘l” (hozirgi “Saodat”) jurnallarini keltirish mumkin. Tahlilimizning bosh obyekti bo‘lgan “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” — “Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana” jurnali ham ana shunday vaqt sinovlaridan o‘tib kelayotgan nashrlardan biri sanaladi.

Asosiy qism. Bir asrdan ortiq tarixga ega “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” — “Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana” jurnali o‘zbek iqtisodiy jurnalistikasining yorqin namunasi hisoblanadi.

Ushbu nashr davrning dolzarb masalalariga o‘z vaqtida jiddiy va xolisona baho berish yo‘lidan borib, bugungi kunda keng ilmiy doiralar uchun foydali bo‘lgan iqtisodiy-statistik tahlil manbaiga aylandi. Chop etilayotgan maqolalarda kichik ishlab chiqarish subyektlari faoliyatidan tortib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlar mohiyatini ochib berishga harakat qilinyapti.

Jurnal sifati yildan-yilga takomillashib, maqolalar saviyasi ortmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida jurnal o‘zining ijodiy mavqei va ahamiyatini oshirib, umummintaqaviy nashr maqomiga ega bo‘ldi. Tabiiyki, bunda, milliy akademik maktabning taniqli namoyandalari, iqtisodchi olimlar, faol ziyolilar guruhi va keng jamoatchilikning ko‘magi katta bo‘ldi.

Tahririyat o‘z oldiga nafaqat bozor tartib-qoidalarini tushuntirish, balki bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun zarur ma’naviy resurs hisoblangan iqtisodiy ta’limni rivojlantirishni asosiy maqsadlardan biri etib qo‘ygan. Ya’ni maqolalar mazmuni, materialning tushunarli bo‘lishi, tahlilning chuqurligi va amaliy jihatdan yo‘naltirilishiga harakat qilinyapti. Shu bois jurnalda mualliflik maqolalari muntazam chop etilishiga birinchi darajada e’tibor qaratiladi, unda internet va boshqa manbalardan ko‘chirib bosilgan materiallarni deyarli uchratmaysiz.

Jurnalda iqtisodiy masalalarni yoritishning o‘ziga xosligi shundaki, ijodiy jamoa mavzuli chiqishlarga ustuvor ahamiyat qaratib kelyapti. Ya’ni 2020-2024 yillar davomida nashrdan chiqqan jurnalning har bir soni ma’lum bir mavzuga bag‘ishlangan. Masalan, 2023-yildagi 2 va 3-sonlari to‘liq paxta-to‘qimachilik sanoati masalalarini qamrab olgan. Unda sohaga oid 23 ta matnli, shuningdek, ko‘plab vizuallashgan multimediaviy materiallar taqdim etilgan.

O‘rganishlarimizga ko‘ra, to‘qimachilik sanoatiga oid materiallarning asosiy qismi jurnalistikaning intervyu janriga xosdir. Har bir sonda o‘rtacha 10 ta intervyu beriladi. “Intervyu — axborot janri sifatida ijtimoiy ahamiyatga molik shaxs bilan suhbat demakdir. Mazkur atama inglizchadan “suhbat” deb tarjima qilinadi va ikki ma’noda: 1) so‘rov, muloqot vositasida ma’lumot olish usuli; 2) janr ma’nosida qo‘llaniladi” [5, 99].

Intervyu janri haqida qarashlar har xil bo‘lib, yurtimiz olimlarining bir guruhi uni axboriy janrlar tasnifiga kiritsa, ba’zilar tahliliy jurnalistika va badiiy-publitsistikaning asosiy janrlaridan biri sifatida e’tirof etadi. “Intervyu axborot janrlarining eng asosiylaridan biri bo‘lib, u o‘quvchiga axborotni ilk manbadan bevosita olish imkonini beradi. Intervyuning asosiy maqsadi — nafaqat biror bir voqeani yoritish, balki ana shu voqea xususida muayyan shaxslarning fikrini ham berishdir. Mazkur janr turlarining barchasida ikki yoki undan ortiq odam o‘zaro muloqotda bo‘ladi va shu orqali voqelik to‘ldirilib, kerakli dalillarga aniqlik kiritiladi” [4, 25].

Bizningcha, intervyuni oraliq janrlar qatoriga qo‘shish, suhbatning hajmi, ko‘tarilgan mavzu ko‘lami, xabardor qilish yoki tahlil qilish unsurlarining ustunligiga qarab farqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki intervyu axborot janri bo‘lsa-da, unda maqola, lavhaga xos xususiyatlar ham mujassamlashgan. Masalan, intervyuda mavzu doirasida tilga olingan soha kishilari to‘g‘risida, turli muammolar va ularning echimi haqida maqola, lavha, korrespondensiya janrlaridagi singari qiziqarli hikoya qilish mumkin.

Yurtimiz olimlari intervyuning quyidagi turlarini alohida ajratib ko‘rsatishadi: intervyu-monolog, intervyu-dialog, blis-intervyu, davra suhbati (polilog). Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, iqtisodiy jurnallarda, asosan, intervyu-dialog, davra suhbati (polilog) ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnalida intervyular “Eksklyuziv intervyu”, “Katta intervyu”, “Xalqaro e’tirof”, “Intervyu” , “Nuqtayi nazar” kabi nomlar ostida beriladi. Fikrimizcha, ular orasidan “Katta intervyu”ni tahliliy janrlarga, qolganlarini esa informatsion janrlarga kiritish to‘g‘riroq.

Darhaqiqat, “O‘zto‘qimachiliksanoati” uyushmasi raisi bilan uyushtirilgan “Raqamli transformatsiya: barqarorlik, kuzatuvchanlik va shaffoflik” sarlavhali suhbat (“O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnali, 2023-yil, №2-3-sonlar) janriy imkoniyati jihatdan tahlilga yaqin. Unda to‘qimachilik sanoatida o‘zgarishlar, investor va ishlab chiqaruvchilarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, tikuv-trikotaj korxonalari quvvatini oshirish, eksport salohiyatini ko‘tarish masalalari muhokama qilinib, hayotga tatbiq qilinayotgan dasturlar, yirik loyihalar samaralari tahlil qilingan. Qolaversa, suhbat matnida multimediaviy imkoniyatlardan unumli foydalanilgani katta yutuq bo‘lgan. Chunki unda 3 ta mavzuli infografika berilib, birinchisida, to‘qimachilik sanoatining eksport geografiyasi; ikkinchisida, eksport

tarkibi, GSP+ imkoniyatlari; uchinchisida, to‘qimachilik klasterlarining o‘sish ko‘rsatkichlari haqida qimmatli ma’lumotlar ulashilgan. Biroq jurnalist tomonidan berilgan savollar juda silliq tuzilgan bo‘lib, muammoli masalalar ko‘tarilmagan. Bu esa suhbat ruhida ham sezilib, dialog sokin kechgan, keskin fikrlar aytilmagan.

Jurnal sahifalarida tanqidiy ruhdagi suhbatlar aytarli uchramaydi. Vaholanki, intervyu xususiyatiga ko‘ra, dolzarb mavzuda axborot beradigan, turli muammolarni o‘zida aks ettiradigan, jonli muloqotga asoslangan, ishonchli, aniq manbaga tayangan hozirjavob janrdir. Shuning uchun intervyuga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri uning tili va uslubining ravon, ixcham, ta’sirchan bo‘lishidir. Buning uchun jurnalist mavzuni puxta bilishi, savollarni aniq va konkret qo‘ygan holda, suhbatdoshni yo‘naltirib, suhbatni boshqarib turishi lozim. Agar jurnalist ushbu jarayonda soha vakillarining uslubini saqlay olmasa, barchani bir xil gapirtirsa, unda intervyu zerikarli bo‘lib, oddiy axborot yoki maqoladan farq qilmay qoladi.

O‘rganilayotgan “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnalida intervyularning asosiy qismini intervyu-xabarlar tashkil etadi. Bunday kichik suhbatlar janr talablaridan kelib chiqib, suhbatdosh o‘zi mehnat qilayotgan sohaga oid yangiliklar haqida ma’lumot beradi. Ba’zi hollarda esa matnda jurnalist suhbatdosh javoblarini bayon tarzida keltiradi. Bunga “Yuqori sifat — “Pronto Textile Group” faoliyatining asosiy mezoni” sarlavhali (“O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnali, 2020-yil, №5-son) material misol bo‘la oladi. Unda turkiyalik investor, Toshkent shahridagi “Pronto Textile Group” korxonasi ta’sischisi Nurullax Dursun bilan kichik suhbat berilgan. Matnda korxona faoliyati bilan tanishtirilib, uning kontekstida yashirin reklama unsurlari ko‘zga tashlanadi. Ayrim savollarga esa aniq javob berilmaydi. Shuningdek, ba’zi so‘z va iboralarni qo‘llashda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan.

Bizningcha, jurnalistik materiallar, birinchi navbatda, til, tasvir, format borasida janr talablari, zamonaviy tendensiyalarga javob berishi kerak. Qolaversa, jurnalistlar mavzu ahamiyatini ochib berishda ortiqcha pafos, his-hayajonlardan tiyilib, o‘quvchilarning g‘ashiga tegadigan, ixlosini qaytaradigan maqtovlardan qochishi talab etiladi. Aksincha, o‘zbek tilining jozibasi, so‘z va ma’no boyliklaridan, ifodaviyligidan unumli foydalanishi zurur.

Jurnalda to‘qimachilik sanoatini yoritish jarayonida mavzu yuzasidan yurtimiz mutaxassislari va mas’ullar fikr-mulohazalari, qarashlari bilan chegaralanib qolinmaydi. Xorijlik mutaxassislar va ekspertlarning fikrini olish va munosabatini berishga harakat qilinadi. Tahlilga tortilgan birgina sonda To‘qimachilik sanoati xalqaro federatsiyasi (ITMF) bosh direktori Kristian Shindler, “Better Cotton” bosh ijrochi direktori Alan Makkley, Singapurning “Indorama Group” kompaniyasi rahbari Dipak Reyne, “Better Work” dasturi menejeri Abu Yusuf singari xalqaro darajada taniqli bo‘lgan ekspertlarning fikrlari berilgani e’tiborga loyiq, albatta.

Shu o‘rinda, jurnalda jurnalistika janrlari imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olinmayotganini aytish joiz. Aslida, OAVda janriy rang-baranglikning ta’minlanishi jamoada mehnat qilayotgan jurnalistlarning tajribasi, malakasi va ijodiy mahorati bilan izohlanadi. Qayerdaki, janriy biqiqlik kuzatilayotgan bo‘lsa, demak, jurnalistlar ijodida qandaydir kamchiliklar bor, degan fikrga kelish mumkin bo‘ladi.

O‘zbek jurnalistikasi jahon axborot makoniga tarkibiy bo‘lim sifatida kirib borar ekan, axborotning zamonaviy janr va shakllaridan foydalanishni joriy etish bugungi davr talabidir. Ayniqsa, hozirgi tezkor zamonda mediamatnga ortiqcha zeb berish, so‘zlarni keragidan ortiq ishlatish tavsiya etilmaydi. Chunki dunyo axborot maydonida paydo bo‘layotgan zamonaviy janr va trendlarning barchasi ixchamlik, tezkorlik va kreativlikka yo‘naltirilmoqda. Eskicha, siyqasi chiqqan usullar bilan bugun o‘quvchilar e’tiborini jalb qilib bo‘lmaydi.

Yana bir masala, “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnalida chop etilayotgan materiallarda jurnalist “men”i sezilmaydi, aksariyat materiallar, hatto eksklyuziv intervyular ham muallif nomisiz beriladi. Bu esa o‘quvchida ma’lum ma’noda ishonchsizlik uyg‘otishi mumkin. Xuddi shuningdek, manbalar ko‘rsatilmasligi ham tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigida gazeta va jurnallarda tahliliy sharhlar, bahs-munozaralar sezilarli ravishda ko‘payganini e’tirof etarkan, tanqidiy materiallar mas’ullarni hushyor torttirib qo‘yayotganiga alohida to‘xtaldi. “Xususan, qurilish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashdagi kamchiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi muammolar bo‘yicha berib borilayotgan tanqidiy va tahliliy materiallar joylarda mudrab o‘tirgan ayrim rahbar va mutasaddilarni uyqudan uyg‘otib, yangicha ishlab, odamlarning tashvishi bilan yashashga majbur qilmoqda” [1].

O‘zining ana shunday tahliliy chiqishlari bilan o‘quvchilar auditoriyasiga chuqur iqtisodiy bilimlar berishga xizmat qilayotgan sof iqtisodiy nashrlardan yana biri “Iqtisodiy sharh” — “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalidir. Unda mamlakat iqtisodiy hayotidagi eng so‘nggi yangiliklar mufassal yoritib boriladi. Ya’ni boshqa bosma matbuotlardan farqli ravishda iqtisodiyot, jamiyat, biznes va siyosatdagi asosiy voqea-hodisalar haqida tahliliy sharhlarni nashr etadi. Iqtisodchilar, siyosatshunoslar va boshqa mutaxassislarning dolzarb masalalar va mavzular bo‘yicha fikrlari, muhim fakt va raqamlar haqida infografikalar chop etiladi. “Tadbirkor bilan suhbat” nomli ruknida esa yurtimizda va xorijda biznes sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan insonlar muvaffaqiyat

sirlari haqida hikoya qilinadi.

Ushbu jurnalning paxta-to‘qimachilik masalalarini yoritishdagi o‘ziga xos xususiyati sifatida dolzarb mavzular chuqur tadqiq va tahlil qilingan iqtisodiy sharhlar berilayotganini aytish mumkin. “Jahonda va O‘zbekistonda paxta trendlari” sarlavhali sharh (“Iqtisodiy sharh” jurnali, 2024 yil №3-son) 2024-2032-yillarda jahon paxta bozorining rivojlanish tendensiyalari va o‘rta muddatli prognozlar bayon etilgani bilan g‘oyatda qimmatli. Unda aytilishicha, 2024 - yilda jahon bo‘yicha 24,6 million tonna paxta etishtirilishi, 2032 - yilga borib ushbu ko‘rsatkich 28,2 million tonnaga etishi prognoz qilinmoqda. Bu 2023 - yildagiga nisbatan 12,6 foiz ko‘pdir.

Ta’kidlash kerakki, mazkur jurnalda chop etilayotgan materiallar iqtisodiy jurnalistika talablariga to‘liq javob beradi. Mavzu tanlash, masalaga yondashuv, tahlil — hammasi risoladagidek. Faqat bitta kichik kamchilik bor, u ham bo‘lsa, til va so‘zlarni qo‘llashdagi muammodir. Aftidan, materiallar rus tilida yozilib, so‘ng o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Shu bois ayrim hollarda so‘zlarni qo‘llashda o‘zbek tilining jozibasi yo‘qoladi. “Paxta ishlab chiqarish hajmi”, “qulayroq ob-havo bilan qoplanadi”, “paxta klasteri Buxoro viloyatida” kabi iboralardagi g‘alizliklar bunga misol bo‘la oladi. Sohadan xabardor kishilar yaxshi bilishadiki, paxta ishlab chiqarilmaydi, aksincha etishtiriladi, paxtadan tola ishlab chiqariladi.

Aynan mediamatnlarda o‘zbekcha so‘z va iboralarni qo‘llashdagi muammolarni kichik so‘rovlar orqali o‘rganganimizda, shu narsa aniq bo‘ldiki, aksariyat tahririyatlarda o‘zbek tilida iqtisodiy sharh yozadigan jurnalistlar etishmaydi. Shuning uchun ular, asosan, rusiyzabon mualliflarga murojaat qilishadi. Taniqli jurnalist, “Ishonch” va “Ishonch — Doverie” gazetalari bosh muharriri Husan Ermatov ushbu muammo atrofida mulohaza yuritib, uning ildizi o‘zbek jurnalistikasida hali-hamon ixtisoslashuv masalasi hal etilmaganiga borib taqalishiga e’tibor qaratadi. “Xulosam shuki, agar sohamizni bir butun uyg‘unlikda qarasak, uning ba’zi sohalarga oid salohiyati bundan yigirma besh-o‘ttiz yil oldingidan deyarli farq qilmaydi.

Nega bunday mutlaq to‘xtamga kelyapman?

Biz ko‘p yillardan buyon jurnalistikada ixtisoslashuv degan gapni aytib kelamiz. Ammo bunga erisholmadik. Nazarimda, hamma gap shunda... Eng muhimi, biz jurnalistika janrlarini unutdik. Jumladan, uning tahliliy janrlarini. Xususan, bugun bizda iqtisodiy tahlil qariyb yo‘q hisobi!

Hayotiy misol aytay: muharrir sifatida ba’zi iqtisodiy mavzuda biron jiddiy tahlil material tayyorlash uchun kimga, qaysi jurnalistga murojaat qilishni bilmay qolamiz” [3, 47].

Iqtisodiy maqolalar matnida jumlalarning g‘alizligi, ba’zi so‘zlarning “tishga botishi” yana bir yondosh muammo — mohir tarjimonlarning etishmasligi bilan izohlanadi. Ya’ni bugungi kunda sohada professional tarjimonlar avlodining almashinuvi kuzatilmoqda. Aksariyat mahoratli tarjimonlar pensiyaga chiqib ketishgan bo‘lib, sohaga endi kirib kelayotgan yoshlarda hali bilim, tajriba va malaka etarli emasligi tufayli, ayniqsa, iqtisodiy mavzulardagi materiallarda xato va kamchiliklar ko‘p uchraydi. Faxriy jurnalist kuyinib yozganidek, “...gazeta va jurnallar o‘z faoliyatini zamon talablaridan kelib chiqib batamom qayta qurishi kerak. Ular tezkor axborot tarqatishda yutqazishyaptimi, demak endilikda bosma nashrlar mamlakatda yuz berayotgan olamshumul o‘zgarishlar — ulkan zavod va fabrikalar, uy-joy qurilishlari, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, mavjud muammo va kamchiliklar haqida turkum tahliliy maqolalar, suhbatlar, reportajlar, lavha va ocherklar berib borishi kerak. Hozirgi kunda aksariyat bosma nashrlar hayotdan ancha orqada qolmoqda. Faqat internetdan foydalanib, xonada o‘tirib ishlash bilan ish bitmaydi. Tinimsiz harakat, izlanish kerak”[6].

Xulosa. Iqtisodiy jurnallarda paxta-to‘qimachilik mavzusining yoritilish xususiyatlariga oid tadqiqotimiz bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchisi, o‘zbekzabon jurnalistlar orasida iqtisodiy mavzularni yozadigan sharhlovchilar avlodini tarbiyalash;

Ikkinchisi, iqtisodiy jurnalistikaga mahoratli tarjimonlarni ko‘proq jalb qilish yoki yoshlarni ushbu sohaga yo‘naltirish;

Uchinchisi, iqtisodiy jurnallarda janriy biqiqlikni bartaraf etib, jurnalistikaning janr imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

To‘rtinchisi, tadbirkorlar, fuqarolar va moliya tashkilotlari o‘rtasidagi muammolarning negizi moliyaviy savodxonlikka borib taqalayotganini inobatga olib, iqtisodiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqilib, unga tizimli yondashish kerak. Chunki moliyaviy xizmatlar kundan kunga ko‘payib, oddiy odamlar tushunishi uchun murrakablashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigi // https://president.uz/uz/lists/view/7346
2. Худойқулов М. Журналистикага кириш. — Тошкент: Университет, 2005, 123 б.
3. Ermatov H. Sokin daryo mavjlari. — Toshkent: “Adabiyot”, 2024 - y.
4. Qosimova N., Toshpo‘latova N., Shofayziyeva N., Muratova N. Bosma OAV tahririyatlari uchun o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2008 - y, 77- bet.
5. Журналистика, реклама, паблик рилейшнз. Луғат. Маълумотнома. — Тошкент: Зар қалам, 2003, 400 - б.
6. Razzoqov Jabbor. Jurnalistika — ochilmagan qo‘riq // “Yangi O‘zbekiston”, 2023 - yil 26- iyun/ https://yuz.uz/news/jurnalistika--ochilmagan-qoriq.

Bobur ESHBOLTAYEV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BOLALAR REKLAMA MATNLARINING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya: reklama zamonaviy hayotga mustahkam kirib, nafaqat tijorat sohasi, balki madaniyat va umuman, hayotning bir qismiga aylandi. Shu sababli, u tabiiy ravishda bolalarning ruhiyati va dunyoqarashiga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: *reklama, reklama matni, reklama tili, psixologlar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, marketologlar.*

Аннотация: реклама прочно вошла в современную жизнь и стала не только коммерческой сферой, но и частью культуры и жизни в целом. По этой причине он естественным образом оказывает как отрицательное, так и положительное влияние на психику и мировоззрение детей.

Ключевые слова: *реклама, рекламный текст, язык рекламы, психологи, социологи, культурологи, маркетологи.*

Annotation: advertising has become firmly embedded in modern life and has become not only a commercial sphere, but also a part of culture and life in general. For this reason, it naturally has both negative and positive effects on the psyche and worldview of children.

Keywords: *advertising, advertising text, advertising language, psychologists, sociologists, cultural scientists, marketers.*

Bugungi kunda reklama yaratish san'atga yaqinlashmoqda va uning ishlab chiqaruvchilarining professionalligi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Arsenalda ta'sir qilish va ifoda etishning ko'plab usullariga ega bo'lgan reklama fanning turli sohalari mutaxassislarining e'tiborini tortadi: tilshunoslar, psixologlar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, marketologlar.

Reklama xorijiy olimlar G.Karter; F.Kotler; D.Ogilvi; V.Frayburger, J.Sivulka; K.Rotzoll; C.Sendij, J.Burnet, S.Moriarti, U.Uells; I.L.Vikentyev; B.L.Borisov; T.K.Seregina, L.M.Titkova; L.Ger-mogenova; O.A.Feofanov; I.A.Golman, N.S.Dobrobabenko; V.V.Olimova tomonidan tadqiq etilgan.

Tilshunoslikning eng mashhur yo'nalishlaridan biri bu reklamaning asosiy mahsuloti – reklama matni va reklama tilini o'rganishdir. Reklama tilini o'rganish bilan E.G.Borisova, E.E.Kornilova, A.N.Baranova, E.S.Kara-Murza, L.E.Levit, P.B.Parshin, Y.K.Pirogova, S.Ilyasova, T.N.Lifshits, E.G.Feshchen-ko, E.F.Tarasov, E.B.Kurganova, D.E.Rosental, H.H.Koxtev, E.G.Ryabtseva, O.A.Dmitriyevlar shug'ullanishgan.

Reklama tili bo'yicha ko'plab ishlarga qaramay, bolalar auditoriyasiga qaratilgan reklama matnlari bo'yicha o'zbek tilshunosligida tadqiqotlar ilgari o'tkazilmagan. Bolalar uchun reklama – bu maqsadli guruhning yosh xususiyatlari tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan reklama turi. Shubhasiz, bolalar auditoriyasining o'ziga xos xususiyatlari nafaqat reklamaning texnik mukammalligining ahamiyatini (yorqin rangli rasmlar, harakat, animatsiya, ovoz), balki ularning mazmuni jihatidan ham, til birliklari shakli nuqtayi nazaridan ham til vositalarini tanlashning ko'plab xususiyatlarini belgilaydi.

Bolalar uchun reklamani o'rganish alohida ilmiy, ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega, chunki bolalar jamiyatning kelajakdagi butun madaniy muhitining rivojlanish vektori bog'liq bo'lgan qismidir, bu reklama matnining sifatiga qo'yiladigan talablarni uning mazmuni va shakli jihatidan oshiradi.

Zamonaviy jamiyatda reklamaning keng tarqalishi nafaqat reklama nutqining umumiy uslub xususiyatlarini, balki reklama matnlari ayrim turlarining, xususan, bolalar reklamasining lingvistik xususiyatlarini ham o'rganishni taqozo etadi.

Shunday qilib, bolalar reklamasini lingvistik o'rganishning dolzarbligi o'rganilayotgan matnlarning yuqori ijtimoiy jihati, bolalar va o'spirinlar uchun tovarlarni reklama qilishda til vositalarini tanlashning o'ziga xos xususiyatlarini bilishning ahamiyati bilan izohlanadi.

Bolalarga qaratilgan reklamalarni tanlash sharti reklama qilinadigan tovarlarning tabiatidadir: o'yinchoqlar, kompyuter o'yinlari, bolalar kosmetikasi va kiyimlari, shuningdek, ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari (shokolad va shokolad barlari, shirinliklar, gazlangan suv, makkajo'xori donalari, yogurtlar va bolalar uchun boshqa sut mahsulotlari va hokazo), ya'ni asosiy mahsulotlar iste'molchilari bolalardir.

Bolalar uchun reklama alohida tur sifatida mavjud bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari maqsadli auditoriyaning xususiyatlari bilan belgilanadi: 3 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar va 12-15 yoshdagi o'spirinlar psixofiziologik va kognitiv-nutq xususiyatlari bilan ajralib turadi, ularni kattalardan ajratib turadi: hissiy yetuklik, cheklangan hayot sohalari, fikrlashning rivojlanayotgan bosqichi, kichik hayotiy tajriba va boshqalar.

Bolalar reklamasini umumiy nutqdan ajratish mezonlari quyidagilardan iborat: birinchidan, reklama qilinadigan tovarlarning tabiati (o'yinlar va o'yinchoqlar, bolalar kosmetikasi va kiyimlari, shuningdek, asosiy iste'molchilari bolalar bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari); ikkinchidan, bolaning hayoti qiziqishlari va sohalariga asoslangan umumiy iste'mol tovarlarini yetkazib berish usuli (bolalar o'yinlari, o'qish).

Bolalar uchun reklama uni umumiy nutqdan ajratib turadigan bir qator leksik-semantik xususiyatlar bilan

tavsiflanadi:

– faqat ushbu reklama segmentiga xos bo‘lgan so‘zlarning o‘ziga xos leksik-tematik guruhlarining ishlashi (ota-onalar va do‘stlar, o‘qish, bayram, sehr va boshqalar);

– diminutivlar, okkazionalizmlar va jargonlarning ko‘pligi;

– bolalarning folklor va ertak motivlari bundan mustasno, pretsedent birliklarning kamligi.

Bolalar auditoriyasiga qaratilgan reklama matni, albatta, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan tarkibiy qismlarni birlashtirgan kreolizlangan matndir. Bolalar reklamasida barcha ma’lum grafik vositalar qo‘llaniladi: sinxrafemika, topografemika, suprafemika va piktografemika. Bolalar reklamalarida ekspressivlikni yaratish uchun umumiy nutqqa qaraganda qofiya va boshqa fonetik vositalar (takrorlash, onomatopeya, paronimik diqqatga sazovor joylar, turli xil fonetik o‘xshashlik usullari) tez-tez ishlatiladi.

Bolalar uchun reklama uni kattalar uchun reklamadan ajratib turadigan bir qator morfologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– ertak qahramonlari va mavjudotlarining nomlari, multfilm va kino qahramonlari, shuningdek, ixtiro qilingan mavjudotlarning mavjudligi;

– yordamchi bilan imperativ kayfiyatning og‘zaki shaklidan foydalanish (“Keling o‘ynaymiz!”) va imperativ-neologizmlar, masalan, chipsi, snickers.

– nisbiy yordamchi linzalarda (olma, bolalar poyabzali) vaqti-vaqti bilan taqqoslash darajalaridan foydalanish.

Bolalarga qaratilgan turli xil reklama matnlaridan faqat o‘yinchoq reklama matnlari jinsga yo‘naltirilgan. Oziq-ovqat, ko‘ngilochar xizmatlar, do‘konlar va kafelarning reklamalari neytraldir, ya’ni ikkala jins vakillari uchun teng ravishda ishlab chiqilgan.

V.V.Olimova “reklama – bu ommaviy kommunikatsiyalarning bir tarmog‘i bo‘lib, uning yo‘nalishi bo‘yicha odamlar reklama beruvchiga kerakli tanlov va harakatga undash uchun qaratilgan informatsion-majoziy, ifodali-taklif qiluvchi matnlar yaratiladi va tarqatiladi. Reklama butun jamiyatga emas, balki tanlangan alohida maqsadli guruhlarga yo‘naltirilganligi bois u maqsadli auditoriyaga qarab, taqdimot shaklini, ekspressiv vositalar to‘plamini va boshqalarni o‘zgartiradi. Shuning uchun nafaqat reklama mahsuloti va uning tarkibiy qismlarini, balki reklama mo‘ljallangan guruhning xususiyatlarini ham o‘rganish muhimdir.

Reklama jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsatib, u kattalar dunyosining taqdiridan uzoqlashib, bolalarni faol iste’molchilarga aylantiradi, bozor munosabatlariga faol jalb qiladi. Binobarin, ular reklama kompaniyalarining obyektiga aylanadi, reklama bolalikning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zgarishni boshlaydi.

Reklama qaysi jihatdan o‘rganilganiga qaramay, psixologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy tomondan muhimdir. Barcha tadqiqotchilar reklama uchun, birinchi navbatda, aloqa harakati va eng muhim aloqa vositasi til ekanligini ta’kidlaydilar, shuning uchun reklama tilini, ya’ni reklama matnlarini o‘rganish talab qilinadigan va dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Reklama matnlarini tadqiq etishga ko‘plab olimlarning ishlari bag‘ishlangan: D.E.Rosental, N.N.Koxtev, A.N.Nazaykin, Y.V.Shatin, L.G.Feshchenko va boshqalar.

Adabiyotlarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, jahon tilshunosligida reklamani o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar mavjud, biroq bolalar uchun reklama bo‘yicha maxsus tadqiqotlar hali ham mavjud emas, ayniqsa, bunday reklama matnlarini tizimli o‘rganish borasida tadqiqotlar yetarli darajada emas. Bolalarning idrok etish xususiyatlariga mos keladigan reklama matnlarini o‘rganish reklamani o‘rganishning yangi sohasi bo‘lishi kerak.

Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun reklama o‘spirinlarga qaratilgan reklamalardan sezilarli darajada farq qiladi, bu qabul qiluvchining yosh xususiyatlari bilan izohlanadi. Yosh bolalar reklamalarni ishonchli, yorqin, arzon ma’lumot sifatida qabul qilishadi. Ular uni dinamikligi va eng muhimi, tan olinishi uchun sevadilar. Ular tarqoq e’tibor bilan ajralib turadi, shuning uchun ular reklama kerakli ta’sirga ega bo‘lishi uchun yetarlicha yorqin rasmlar, his-tuyg‘ularga ega. Kichik bolalar auditoriyasi uchun reklamadagi haqiqiy matn kam ma’lumotga ega, chunki bolalar xabarning og‘zaki tarkibiy qismiga unchalik qiziqishmaydi. Reklamaning yana bir xususiyati – kattalarga, asosan, ota-onalar va o‘qituvchilarga cheksiz ishonch, ularga bo‘ysunish va taqlid qilish haqida boradi. Shuning uchun, yosh bolalar uchun reklamada asosiy shaxs ko‘pincha ona timsolidir.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning aksariyati bolalarga qaratilgan reklamalarni qonuniy ravishda cheklaydi. Bolalarga qaratilgan reklama vaqtlari, shakli, mazmuni hisobga olinadi.

Bolalar reklama matnlari so‘z boyligini tizimlashtiradi. Bu yerda uni umumiy nutqdan ajratib turadigan ma’lum tematik so‘zlar guruhlari kuzatiladi. Bolalar atrofdagi dunyoni turli ko‘zlar bilan ko‘rishadi. Ularning dunyoqarashi orzular, ertakka ishonish, mo‘jizalar asosida qurilgan. Bolalar bayramni, quvnoq his-tuyg‘ularni kutish bilan yashaydilar. Bolalar reklamasidagi dunyo tasviri aniq ikki qismga bo‘linadi: haqiqiy va haqiqiy bo‘lmagan dunyo, ixtiro qilingan, sehr va orzular dunyosi. Kopirayterlar dunyoning haqiqiy rasmini yaratishda kundalik bolalar voqeliklaridan foydalanadilar: uy, ota-onalar, do‘stlar, bayramni kutish.

Bolalar uchun reklama yaratishda amalga oshiriladigan kommunikativ strategiyalar va taktikalarni bilish, bolalar reklamasi matnining denotativ-kognitiv va pragmatik-kommunikativ tuzilishini, shu jumladan, matnning semantik maydonlarini o‘rganish bilan bog‘liq.

Xullas, bolalar uchun reklama tadqiqotlari qiziqarli va zarurdir, chunki bolalar madaniy muhitning rivojlanishi bog‘liq bo‘lgan jamiyatning bir qismidir. Shu sababli, bolalar reklama matnlariga qo‘yiladigan talablar kattalar reklama matnlariga nisbatan ham mazmuni, ham til

birliklari shakli jihatidan yuqori bo‘lishi zarur. Bolalar uchun matnlarning madaniy va lingvistik me’yorlarga muvofiqligini nazorat qilish uchun ushbu sohada yuz beradigan eng kichik o‘zgarishlarni kuzatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Медведева Е.В. Рекламная пропаганда, или «почем опиум для народа» // Вестник МГУ. Сер.19. – М., 2003. -№1. -С.27.

2. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика: Пособие для студентов гуманит. вузов и учащихся лицеев. - М.: АО Аспект Пресс, 1994.

3. Марочкина С.С. Введение в специальность. Реклама. Учебного пособия. – М. -2012. –С.4.

4. Мудров А. Н. Основи реклами: учебник.- 2-е изд., перераб. и доп. –М.:
Магистр, 2008. -120 с.

5. Мурашов А.А. Культура речи учителя. Учеб. пособие. -М.: Московский психолого- социальный институт; -В.: МОДЭК, 2002. - 432.

6. Настеранко Ф.П., Бабаджанова Г.Н. Эффективная реклама. – Т., 2003. -135 с.



Zilola RO‘ZIYEVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Magistratura bo‘limi uslubchisi

MUALLIFI NOMA’LUM BO‘LGAN MATNLARNING HUDUDIY XOSLANISHI (QASHQADARYO VA BUXORO KESIMIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida muallifi noma’lum bo‘lgan matnlardagi haqorat so‘zlarning hududiy xosliklari o‘rganilgan.Tadqiqot davomida ikkala hududning lingvistik xususiyatlari, so‘z boyligidagi farqlar va o‘ziga xos jihatlar tahlil qilingan. Mazkur ilmiy ish folklorshunoslik va dialektologiya sohasidagi dolzarb masalalarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *muallifi noma’lum matnlar, hududiy xoslanish, haqorat so‘zlar, Qashqadaryo shevalari, Buxoro shevalari, dialektologiya, lingvistik tahlil.*

Аннотация:в данной статье исследуются территориальные особенности ненормативной лексики в текстах, автор которых неизвестен в Кашкадарьинской и Бухарской областях. В ходе исследования были проанализированы лингвистические особенности, различия в словарном запасе и специфические аспекты обеих областей. Данная научная работа направлена на освещение актуальных вопросов в области фольклористики и диалектологии.

Ключевые слова: *тексты неизвестного автора, территориальная принадлежность, ненормативная лексика, кашкадарьинские диалекты, бухарские диалекты, диалектология, лингвистический анализ.*

Annotation: this article explores the territorial peculiarities of offensive words in texts whose author is unknown in the regions of Kashkadarya and Bukhara. The study analyzed the linguistic characteristics of both areas, differences in vocabulary and specific aspects. This scientific work is aimed at highlighting current issues in the field of folklore and dialectology.

Key words: *texts unknown to the author, territorial appropriation, insults, Kashkadarya dialects, Bukhara dialects, dialectology, linguistic analysis.*

Kirish.O‘zbek tili shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning hududiy taqsimoti til tadqiqotchilari uchun doimo qiziqarli mavzu bo‘lib kelgan. Ayniqsa, muallifi noma’lum bo‘lgan matnlardagi haqorat so‘zlarning hududiy xoslanishi alohida e’tiborga molik masaladir. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari o‘zbek tilining eng qadimiy va boy shevalariga ega hududlar hisoblanadi [1].

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda til va madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlik masalalari, xususan, hududiy shevalardagi haqorat so‘zlarning etimologik va semantik xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish

alohida qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy qism. Tadqiqot metodologiyasi asosan qiyosiy-tarixiy, etimologik va statistik tahlil usullariga asoslangan. Ilmiy ishda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqotlari, dialektologik lug‘atlar hamda arxiv materiallari o‘rganildi.

Dialektologiya va folklorshunoslik sohasidagi mazkur tadqiqot uchun boy nazariy asos mavjud. Begmatov [1] o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlarini keng qamrovli tahlil qilgan bo‘lib, unda hududiy shevalardagi so‘z boyligining shakllanish omillari, tarixiy rivojlanishi va zamonaviy holati yoritilgan. Bu asar tadqiqotimizning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Doniyorov [2] Qashqadaryo shevalari leksikasiga bag‘ishlangan asarida hududga xos bo‘lgan so‘z va iboralarni chuqur tahlil qilgan. Ayniqsa, haqorat so‘zlarning etimologik va semantik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar tadqiqotimiz uchun qimmatli material bo‘ldi.

Mengliyev [3] ning o‘zbek dialektologiyasi sohasidagi izlanishlari mavzuga zamonaviy yondashuv va uslubiy asos yaratdi.Olim tomonidan taklif etilgan dialektologik tahlil metodlari ishimizda qo‘llanildi.

Schmidt [4] tomonidan O‘rta Osiyo tillari dialektologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot xalqaro miqyosda e’tirof etilgan bo‘lib, mintaqadagi til xususiyatlarini qiyosiy o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Shoabdurahmonov [5] ning “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” fundamental asar hisoblanadi.Unda keltirilgan materiallar ayniqsa, hududiy xoslanishni o‘rganishda tayanch manba vazifasini o‘tadi.

Tursunov [6] Buxoro viloyati shevalarini tarixiy-qiyosiy jihatdan tahlil qilgan. Asar Buxoro hududidagi shevalarga xos xususiyatlarni aniqlashda muhim manba bo‘ldi.

Wilson [7] ning O‘rta Osiyo leksikologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqoti soha rivojiga katta hissa qo‘shgan.Uning metodologik yondashuvlari ishimizda keng qo‘llanildi.

Yo‘ldoshev [8] o‘zbek shevashunosligining dolzarb masalalarini yoritib bergan bo‘lib, zamonaviy o‘zbek dialektologiyasining rivojlanish tendensiyalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Mahmudov [9] ning “O‘zbek tili leksikologiyasi” nomli asari ham muhim nazariy manba bo‘ldi. Unda haqorat so‘zlarning semantik tahlili, ularning tarixiy rivojlanishi va hozirgi holati haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Petrov [10] ning “Диалекты тюркских языков Центральной Азии” nomli asari turkiy tillar dialektologiyasining qiyosiy tahlili uchun boy material berdi. Bu manba O‘rta Osiyo mintaqasidagi tillarning o‘zaro ta’siri va rivojlanish tendensiyalarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Olib borilgan tadqiqot natijasida Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida qo‘llaniladigan muallifi noma’lum bo‘lgan matnlardagi haqorat so‘zlarning hududiy xoslanishida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Bu farqlar asosan leksik-semantik, etimologik va uslubiy jihatlarda namoyon bo‘ladi [5].

Qashqadaryo viloyati hududida qo‘llaniladigan haqorat so‘zlarning asosiy qismi mahalliy turmush tarzi, xo‘jalik yuritish an’analari va tarixiy-madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, chorvachilik va dehqonchilik sohasiga oid metaforik ko‘chimlar asosida shakllangan haqorat so‘zlar ko‘plab uchraydi [2]. Masalan, qoramol va mayda chorva hayvonlarining nomlaridan, dehqonchilik jarayonida ishlatiladigan mehnat qurollari va hosilga zarar yetkazuvchi zararkunandalar nomlaridan yasalgan haqorat so‘zlar mahalliy shevalarda faol qo‘llaniladi. Bu hududda fonetik o‘zgarishlar ham keng tarqalgan bo‘lib, bir so‘zning bir necha variant va talaffuz shakllarida uchrashligi kuzatiladi. Shuningdek, arab va fors tillaridan o‘zlashgan leksik birliklarning nisbatan kamligi, o‘z qatlam so‘zlarining ko‘proq qo‘llanilishi ham xarakterli xususiyat hisoblanadi [1].

Buxoro viloyatida esa vaziyat biroz boshqacha. Bu yerda qo‘llaniladigan haqorat so‘zlarning asosiy qismi savdo-sotiq, hunarmandchilik va shahar madaniyati bilan bog‘liq. Buxoro azaldan savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lganligi sababli, bu sohalarga oid metaforik ko‘chimlar asosida shakllangan haqorat so‘zlar ko‘p uchraydi [6]. Arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning faol qo‘llanilishi ham Buxoro shevalari uchun xos xususiyat hisoblanadi. Bu holat Buxoroning tarixan madaniy-ma’rifiy markaz bo‘lganligi, ko‘plab arab va fors tilli aholi yashaganligi bilan izohlanadi [3]. So‘zlarning stilistik bo‘yoqdorligi, ya’ni bir tushunchani ifodalash uchun turli darajadagi salbiy ma’no noziklikliariga ega bo‘lgan so‘zlarning mavjudligi ham Buxoro shevalari uchun xos [8].

Tadqiqot jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat shundaki, har ikkala hududda ham haqorat so‘zlarning qo‘llanilishi ijtimoiy omillarga bog‘liq. Yoshga, jinsga, ijtimoiy mavqega qarab haqorat so‘zlarning tanlanishi va ularning qo‘llanilish darajasi farqlanadi [4]. Bu esa o‘zbek tilining ushbu hududlardagi ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Hududiy xoslanishni yanada aniqroq ko‘rsatib berish maqsadida quyidagi statistik ma’lumotlarni keltiramiz:

Jadval 1.

Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida qo‘llaniladigan haqorat so‘zlarning etimologik tahlili

Til qatlami	Qashqadaryo viloyati (%)	Buxoro viloyati (%)
O‘z qatlam	65	45
Arab tili	15	25
Fors tili	12	22
Boshqa tillar	8	8

Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyatida qo‘llaniladigan muallifi noma’lum bo‘lgan matnlardagi haqorat so‘zlarning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Jumladan, chorvachilik bilan bog‘liq: “ho‘kiz”, “qo‘tos”, “sovliq” kabi so‘zlardan yasalgan haqoratlar; dehqonchilik bilan bog‘liq: “ko‘sak”, “g‘o‘za”, “sho‘ra” kabi so‘zlardan yasalgan haqoratlar ko‘p uchraydi [2].

Jadval 2.

Haqorat so‘zlarning semantik guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi

Semantik guruh	Qashqadaryo viloyati	Buxoro viloyati
Chorvachilik bilan bog‘liq	Ko‘p uchraydi	Kam uchraydi
Dehqonchilik bilan bog‘liq	Ko‘p uchraydi	O‘rta darajada
Hunarmandchilik bilan bog‘liq	Kam uchraydi	Ko‘p uchraydi
Savdo-sotiq bilan bog‘liq	O‘rta darajada	Ko‘p uchraydi
Maishiy hayot bilan bog‘liq	Ko‘p uchraydi	Ko‘p uchraydi

Buxoro viloyatida esa hunarmandchilik bilan bog‘liq: “kosib”, “bo‘zchi”, “kulol” kabi so‘zlardan; savdo-sotiq bilan bog‘liq: “allof”, “baqqol”, “chorus” kabi so‘zlardan yasalgan haqoratlar ko‘proq kuzatiladi [6]. Shuningdek, arab-fors tillaridan o‘zlashgan “beadab”, “badbaxt”, “badkirdor” kabi so‘zlar ham faol qo‘llaniladi [3].

Gender xususiyatlarga ko‘ra, erkaklar nutqida ko‘proq kasb-hunar, jismoniy kuch-qudrat bilan bog‘liq haqoratlar (“lapashang”, “landavur”, “latta”) qo‘llanilsa, ayollar nutqida ko‘proq tashqi ko‘rinish, xulq-atvor bilan bog‘liq (“bashara”, “xunuk”, “beso‘naqay”) haqoratlar uchraydi [8].

Yosh xususiyatlariga ko‘ra ham farqlar mavjud. Katta yoshli kishilar nutqida an’anaviy, tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan haqoratlar ko‘proq uchrasa, yoshlar nutqida zamonaviy tushunchalar bilan bog‘liq yangi haqorat so‘zlar paydo bo‘lmoqda [10].

Shuningdek, haqorat so‘zlarning qo‘llanilishida ijtimoiy mavqe ham muhim rol o‘ynaydi.Yuqori mavqega ega shaxslar nutqida ko‘proq evfemizmlar, ya’ni yumshoqroq iboralar qo‘llanilsa, oddiy xalq vakillari nutqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqorat so‘zlar ko‘proq uchraydi [7].

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, hududiy xoslanish nafaqat geografik omillar, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida qo‘llaniladigan haqorat so‘zlarning hududiy xoslanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu farqlar asosan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar ta’sirida shakllangan. Ushbu hududlardagi haqorat so‘zlarning lingvistik tahlili mahalliy shevalardagi leksik boylikning o‘ziga xos jihatlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Hududiy xoslanishning yana bir muhim jihati shundaki, har ikkala viloyatda ham haqorat so‘zlarning shakllanishida mahalliy urf-odatlar, an’analar va qarashlar muhim rol o‘ynaydi. Bu esa tilning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, haqorat so‘zlarning shakllanishida tarixiy voqealar, mahalliy afsonalar va rivoyatlarning ta’siri ham sezilarli darajada ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlaridagi muallifi noma’lum bo‘lgan matnlardagi haqorat so‘zlarning hududiy xoslanishi murakkab lingvistik hodisa bo‘lib, u ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Begmatov E. O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018.

2.Doniyorov X. Qashqadaryo shevalari leksikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
3.Mengliyev B. O‘zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari. –Buxoro. 2018.
4.Schmidt G. (2019). Dialectology of Central Asian Languages. Berlin: Linguistics Press.
5.Shoabdurahmonov Sh.O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2019.
6.Tursunov, U.Buxoro viloyati shevalari: tarixiy-qiyosiy tahlil. –Buxoro, 2020.
7.Wilson, R. (2021). Traditional Lexicology in Central Asia. London: Oxford Press.
8.Йўлдошев, М. Ўзбек шевашунослиги масалалари.– Самарқанд, 2018.
9.Mahmudov, N.O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2019
10.Петров, В.И. (2018). Диалекты тюркских языков Центральной Азии. –Москва: Наука.

Farida SHUKUROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti
13.00.02- “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)”

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativ kompetensiya va uning ijtimoiy hamda lingvistikadagi ahamiyati, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish usullari haqida izlanishlar olib borilgan.
Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, sotsiolingvistika, til, jamiyat, kommunikativlik, kompetensiyaviy yondashuv*
Аннотация*:* в статье исследуются пути повышения коммуникативной компетенции студентов и ее значение в социально-лингвистическом контексте.
Ключевые слова: *коммуникативная компетенция, социолингвистика, язык, общество, коммуникативность, компетентностный подход*
Annotation: this article investigates the ways of improving the communicative competence of students and its importance in social and linguistics.
Key words: *communicative competence, sociolinguistics, language, society, communicativeness, competency approach*

Hozirgi zamonning yoshlarga qo‘yayotgan eng dolzarb talablaridan biri bu tillarni o‘rganish hamda ular orqali muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi. Ingliz tili esa til o‘rganuvchilar orasida eng keng tarqalgan til hisoblanadi. Bundan tashqari yurtimizda xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro aloqalar yildan yilga yaxshilanib bormoqda bu esa o‘z-o‘zidan xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniyatlararo munosabatlarning rivojlanishiga ham olib keladi, shunday ekan, xorijiy tilni faqat o‘rganibgina qolmay, uni har sohada mohirlik bilan qo‘llashni, muloqot qilishni ham talab qiladi.

Mamlakatlar va ularning xalqlari o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishi tillarni o‘rganishda kommunikativ yondashuv usulini asosiy o‘ringa olib chiqdi. Negaki, aynan ushbu yondashuv usulidan foydalanib xorijiy tillarni o‘qitilganda turli madaniyat vakillarining o‘zaro muloqoti va hamkorligini qamrab olish mumkin. Ushbu nuqtayi nazardan, til o‘rganish maqsadi va mazmuni ham o‘zgaradi ya’ni til o‘rganishdan maqsad uni o‘rganibgina qolmay balki asosiy o‘rinda muloqot qilish turadi.

Chet tilini o‘qitish uchun material tanlayotganda tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarini ham qamrab oladigan manba tanlash talabalarning kommunikativ bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

“Kommunikativ kompetensiya” tushunchasi inglizcha “communication” “muloqot qilish” hamda “kompetensiya” esa A.V. Xutorskiyning fikricha, predmet va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan shakllanuvchi shaxsning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sifatlari (bilimlar, qobiliyatlar, malaka va ko‘nikmalar, faoliyat ususllari) majmuasi bo‘lib, ularga nisbatan sifatli va samarali ta’sir ko‘rsatish demakdir [6;52]. Kommunikativ kompetensiya bu muloqot jarayonida lingvistik (shu jumladan sotsiolingvistik) vositalarni qabul qilish va uzatish kabi jarayonlardan iborat bo‘lgan murakkab tushunchadir. Bundan tashqari u mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy hayot, etiket, xulq-atvor, dunyoqarash kabi tushunchalar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayoni birinchi navbatda o‘rganilayotgan tilning leksik vositalarni o‘zlashtirishga asoslanadi. Bugungi kunda til o‘rganishda eng muhim talablardan biri bu nafaqat tilning o‘zini o‘rganish balki unda har sohada muloqot qila olishdir. Shu nuqtayi nazardan pedagogika sohasida “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi dolzarb hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning turli

kommunikativ vaziyatlarda samarali va mazmunli aloqa o‘rnatish qobiliyati. Ushbu qobiliyat insonga nafaqat til va grammatika qoidalarini bilishni, balki kontekst va madaniyatni ham hisobga olib, to‘g‘ri va samarali muloqot qilishni talab qiladi.

Kommunikativ atamasi fransuzcha *“commune” “birgalikda muloqot qilmoq”* so‘zidan olingan bo‘lib, *kompetensiya* esa lotincha *“competere” “layoqatli, munosib bo‘lmoq”* ma’nolarini anglatadi.

Kompetensiya tushunchasini dastlab amerikalik lingvist N.Xomskiy (1972) o‘z ilmiy asarlarida tilni o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq holda tadqiq qilgan va ilm ahliga tanishtirgan. Uning aytishicha kommunikativ kompetensiya “bolalikda o‘zini tutish va boshqa omillar bilan birgalikda shakllanadigan bilimlar, tushunchalar va aqliy qobiliyatlar tizimi” [5,78].Aksariyat tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra kommunikativ kompetensiya tizimli va funksional tashkil etilgan ijtimoiy, psixologik, semiotik (pragmatik, semantik, grammatik-ekspressiv) qadriyatlar yig‘indisi ya’ni muloqotni qabul qilish va uning faol ishtirokini ta’minlaydigan me’yor va qoidalar to‘plamidir.

O‘tgan asrning 60-yillarida D.Xayms (Dell Hymes) “kommunikativ kompetensiya” konseptini fanga kiritdi. Tadqiqotchining fikricha “kommunikativ kompetensiya tilga bog‘liq holatni ichki sezgi asosida bilishdir”[3;269]. Kommunikativ kompetensiya tuzilishi jihatidan grammatik, diskursiv, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarga bo‘linadi. Hozirgi kunda ularning qatoriga ijtimoiy-madaniy kompetensiya ham kiritilmoqda.

Kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati:

1. To‘g‘ri muloqot qilish qobiliyati odamlarni ona tilida yoki biror bir chet tilida muloqot qilish ularning sotsiollashuviga hamda o‘z-o‘zini anglashiga va **shaxsiy rivojlanishiga** yordam beradi.

2. Yaxshi kommunikativ ko‘nikmalar **ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash**, yangi do‘stlar orttirish va turli ijtimoiy guruhlarda samarali muloqot qilishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Pedagogik faoliyatda samarali muloqot qilish orqali har bir o‘quvchiga alohida individ sifatida qarab ular bilan do‘stona aloqa o‘rnatish va bu orqali dars jarayoniga xalal beradigan shovqin, tartibsizlik kabi muammolarni bartaraf etish, **darslarni muvaffaqiyatli boshqarish** va guruh bilan yaxshi munosabatda bo‘lish imkonini beradi.

4.Ta’lim jarayonida yaxshi kommunikativ ko‘nikmalar o‘quvchilarga bilimlarni yaxshiroq **o‘zlashtirishga va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga** yordam beradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari

Muayyan metodlar va texnikalar (masalan, rolli o‘yinlar, muhokamalar va turli interaktiv metodlar) orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mumkin. Amaliy mashg‘ulotlar va praktika orqali kommunikativ ko‘nikmalarni oshirish samarali usullardan hisoblanadi. Albatta, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun turli metodlar va texnikalar mavjud. Quyida ularning ba’zilarini ko‘rib chiqamiz.

Rolli o‘yinlar: til o‘rganuvchilar (keying o‘rinlarda “o‘quvchilar” deb yuritiladi)ni turli vaziyatlarga qo‘yib, ularga real hayotdagi muloqot vaziyatlarini sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Masalan, do‘stlar bilan suhbat, ish suhbatlari, xarid qilish jarayonlari kabi. Bu usul o‘quvchilarning so‘zlashuv qobiliyatlarini va kontekstual moslikni rivojlantiradi.

Muhokamalar: o‘quvchilarning bir-biri bilan fikr almashishi, munozara qilishi va o‘z fikrlarini himoya qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu usul o‘quvchilarning tinglash va javob qaytarish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Interaktiv o‘yinlar: o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlaydi va ular orqali til qoidalari, talaffuz va boshqa so‘zlashuv ko‘nikmalarini qiziqarli va samarali tarzda o‘rgatish mumkin. Masalan, viktorinalar, topshiriqlar va o‘yinlar.

Drama va teatr: o‘quvchilarni turli rollarga kirishib, o‘zlarini boshqa odamlar o‘rnida ko‘rishlariga yordam beradi. Bu usul o‘quvchilarning empatiya qobiliyatini oshiradi va madaniy farqlarni tushunishni rivojlantiradi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi ***amaliy mashg‘ulotlar*** samarali natija berishi mumkin**:**

Tinglash va so‘zlash praktikasi: o‘quvchilarni muntazam ravishda turli mavzular bo‘yicha suhbatga jalb qilish, ularni aktiv tinglashga va aniqlik bilan so‘zlashga o‘rgatadi. Podcastlarni tinglash, audio materiallarni o‘qib eshitish va ularni muhokama qilish.

Yozma mashqlar: o‘quvchilarga yozuv orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalashga va til qoidalarini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu mashqlar matnlar yozish, insholar va qisqa hikoyalar yaratishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Tilni amaliy qo‘llash: o‘quvchilarni real hayotda, kundalik vaziyatlarda tilni qo‘llashga undaydi. Bu, masalan, chet elda sayohat qilish, xorijiy tilli do‘stlar bilan muloqot qilish yoki xalqaro tadbirlarda ishtirok etishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ushbu metodlar va texnikalar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, samarali kommunikatsiya ya’ni muloqot orqali odamlar turli ijtimoiy guruhlarda o‘zaro munosabatlarda ishtirok etishi va o‘zaro aloqalarni mustahkamlashi mumkin.Bu jamiyatdagi bir-biriga bog‘liq munosabatlarni yaxshilashga olib keladi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetensiya madaniy farqlarni tushunishga va hurmat qilishga yordam beradi. Turli madaniyatlar bilan tanishish orqali odamlar kengroq dunyoqarashga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chomsky.N Syntactic structures. The Hague: Mouton.1957.
2. Chomsky.N Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA: MIT Press.1965.
3. Hymes.D “On communicative competence” In Pride J B & Holmes J (eds.) Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin. 1972
4. Passov E.I.Chet tilidagi nutqni o‘rgatishning kommunikativ usuli. – M.: Akademia, 2005.
5. Xomskiy N.Til va tafakkur. – M: O‘quv adabiyoti,1972.
6. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. — М.: Издательство “Эйдос”; Издательство Института образования человека, 2013.

Gulparshin KUDAYBERGENOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti



KENESBAY RAXMANOV SHE’RLARIDA BADIIY TAKRORNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy takrorning qo‘llanilishi, turlari, lingvopoetik xususiyatlari borasida so‘z yuritiladi. Jumladan, shoir Kenesbay Raxmanov ijodida badiiy takrorning grammatik turlari va qo‘llanilishiga oid ma’lumotlar she’rlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *takror, tashobehul-atrof, halqa, so‘z shakli, so‘z birikmasi, gap, gap shakli, kontakt, distant, misra, band.*

Аннотация: в данной статье рассматривается использование, виды и лингвопоэтические особенности грамматического повтора. В частности, анализируется применение грамматических видов художественного повтора в произведениях поэта Кенесбая Рахманова на основе его стихов.

Ключевые слова:*повтор, периферия, центр, форма слова, словосочетание, предложение, форма предложения, контакт, дистанция, строка, строфа.*

Annotation: this article examines the use, types, and linguopoetic features of grammatical repetition. In particular, it analyzes the application of grammatical forms of artistic repetition in the works of the poet Kenesbai Rakhmanov based on his poems.

Key words: *repetition, periphery, center, word form, phrase, sentence, sentence form, contact, distance, line, stanza.*

Har qanday badiiy matndagi grammatik takror – qo‘shimcha, so‘z birikmasi, gap, gap bo‘laklari, she’riy misra yoki bandning matnda yoki she’r misralarida ijodkor tomonidan biror bir maqsadda takror qo‘llanilishi tushuniladi. Badiiy takrorning bunday qo‘llanishi ma’no ottenkasiga ega bo‘lib, turli xil vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Qoraqalpoq tilida grammatik takror tushunchasi keng qamrovli atama bo‘lib, u o‘z ichiga morfologik va sintaksislik takrorlarni ham qamrab oladi. Morfologik badiiy takrorda, asosan, qo‘shimchalarning biror bir shaklda takror kelishi xisobga olinsa, sintaksislik badiiy takrorda, asosan, so‘z birikmasi, gap, gap shakllari she’riy misra takrorlari hosil bo‘ladi.

Shoir K.Raxmanov poeziyasida grammatik takrorning tashobehul-atrof, halqa, tardi aks, misra va band takrori kabi turlari xarakterli bo‘lib, shoir bu takrorlardan unumli foydalangan. Bu takrorning fonetik va leksik turlaridan farqi shundaki, grammatik takrorda shoir tasvirlayotgan muhit keng va batafsilroq ifodalanadi va aniq yoritiladi. Quyida biz grammatik takrorning tashobehul-atrof va halqa turlariga keng to‘xtab, uning lingvopoetik ma’no anglatishi va bu orqali shoirning emotsionallik tuyg‘ularini his etishi haqida so‘z etmoqchimiz.

“Tashobehul-atrof – arabcha “taraflarning o‘xshashligi” so‘zidan olingan bo‘lib, yozuvchi o‘zi tuzgan gapning oxiridagi so‘zlarini yoki misra oxiridagi bo‘lakni boshqa (keyingi) jumla yoxud misra boshida aynan keltirish (takrorlash) yo‘li bilan taraflarning o‘xshashligiga erishish usuli[1]”. Bu takrorning boshqa takrorlardan farqi shunda, she’riy matnlarda qat’iy qo‘llanish o‘rniga, ya’ni she’rning birinchi misrasining oxirida qo‘llangan so‘z yoki so‘z birikmasi ikkinchi bayt boshida takrorlanadi. Shuningdek, u bandlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi. Bu hodisani shoir K.Raxmanov ijodida, ayniqsa to‘rtlik she’rlarida ko‘p uchratamiz:

Xosh keldińiz, **jańa jılım,**
Jańa jılım – jańa jırım (2.121).

Bu she’r bolalar qo‘shig‘i bo‘lib, shoirning bolalik xotiralari, yoshlik sho‘xliklari badiiy tilda ifodalanadi. She’rning dastlabki bandi birinchi misrasidagi

1 Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. -.: ТДПУ, 2001. –Б.100.

jańa jılım birikmasi ikkinchi misra boshida takror qo‘llangan. She’rdagi badiylik shundaki, takrorlangan so‘z birikmasiga mantiqiy urg‘u berilgan. Shoirning “Jas shayırg‘a aqıl” she’rida ham badiiy takror bilan insoniylik tuyg‘ulari ifodalangan:

Tolǵan waqta **ortaydıq,**
Ortaysaq ta shalqaydıq.
Belgili bir ustazsız,
Shákirt bolıp qartaydıq (2.198).

She’rdagi tashobehul-atrof takrorini *ortaydıq* so‘zi tashkil qilgan. Bu takrorda misralar o‘rtasida bir-biriga bog‘liqlik yuzaga kelgan.Misra oxiridagi so‘z keyingi misra boshida takror keladi.Bu adabiyotimizda keng qo‘llaniladigan *qaytarish* takrorining bir shaklidir. Qaytarish takrori misra yoki bayt atrofida yuzaga chiqadi. “Bir xil ma’nodagi yoki shakldosh ikki so‘zni baytning turli o‘rinlarida keltirish san’atidir[1]”. Bu termin poetikaga oid manbalarda turlicha nomlanadi va olimlar ham har xil fikrlar bildiradi. “Badiiy qaytarish, she’rning tasirchangligini, badiiyligini kuchaytirishda muhim vazifa bajaradi. Qaytarishning kontakt holatdagi va distant holatdagi turlari mavjud[2]”.

Takrorning tashobehul-atrof turi shoir ijodida unumli qo‘llanilgan bo‘lib, quyidagi misralar yaqqol misol bo‘la oladi:

Kelgen menen mıń **báhár,**
Bir **báhár**iń boladı.
Ol ómirge tań sáhár,
Gúlbáhárіń boladı (2.205).

Rehimsiz dawıl **gú**wlep…
gúwlep jaǵımsız,
Edelveysa…
solıp qaldı barlıq gúller de (4.36).

Boladı kól **sonal**ı,
Sonasıl tońadı (2.203).

She’riyatimizda ko‘p qo‘llanadigan badiiy takrorlardan biri halqa takroridir. Bu takrorda esa she’rning boshida kelgan misra oxirida takrorlanadi, natijada halqa figurasi hosil bo‘ladi.Uning nomlanishi ham shunga bog‘liq. Halqaning boshqa takror turlaridan farqli jihati shundaki, u she’rning jozibaligini ta’minlaydi.

K.Raxmanov she’rlari halqa takrori o‘ziga xos shaklda, mahorat bilan qo‘llanilgan.Halqa takrorining ikki turi mavjud: 1) she’r boshida kelgan misra yoki band she’r oxirida qaytariladi; 2) she’r boshida kelgan misra yoki band she’r o‘rtasida, bir yoki bir necha o‘rinda va oxirida qaytariladi. Shoir har ikkala turidan ham unumli foydalangan:

Eger sen umıtsań…
Báhár aqshamı,
Japıraqqa aylanıp jelpildeskende;
Nókis túnleriniń qara aspanı,
San mıń juldız benen móltildeskende;
Hám juldız súwretin julqılap sonda,
Qızketken suwları etkende hallas;
Telmirip qız-jigit baratqan jolǵa,
Tal usha basları etkende talwas –
Yadıńa al meni…
Eger sen umıtsań…
Jaz tańlarınıń,
Altın quyash nurı súygen payıtta;
Saǵınıshtı tókken saz tarlarınıń,
Muńı qulaǵıńa tiygen payıtta;
Àmiw óz kenarın súyip ármansız,
Essiz aǵar bolsa kanalǵa qaray;
Sendey ózin-ózi jubata alǵan qız,
Qosıqların aytsa samalǵa qaray –
Yadıńa al meni…
Eger sen umıtsań…
Gúzgi dawıllar,
Soqpaǵında birge jorǵalaǵanda;
Sarıǵa aylanıp jasıl awıllar,
Bultlardıń dártleri sorǵalaǵanda;
Tolıq ay ayqasıp aq bultlar menen,
Jerge qumar etip telmirgen waqta;
O, sonda kózlerim tolı zar menen,
Turqıńa telmirip dilgir sen jaqqa –
Yadıńa al meni…
Eger sen umıtsań…(4.43).

She’r misralarining boshida takrorlangan *eger sen umıtsa*ń misrasi to‘rt marotaba qo‘llangan bo‘lib, bunday takrorlar oddiy takror emas, uslubiy vazifa bajarishga xizmat qilgan.Shuni ham aytib o‘tish joizki, she’rda lirik qahramonning ichki tuyg‘ulari qaytarilgan takrorlar yordamida qator boshida va oxirida yaqqol ko‘rsatilgan. Shoirning “Saǵınısh” nomli she’rida ham halqa takrori mahorat bilan tasvirlangan:

Ekinshi ret báhár!
Gúller tirilip,
Ana-jer qushaǵın bezey basladı
Shashaw-shashaw qara bulıtlar birigip,
Kúndiz-túni tınbay kózin jasladı.
Teńiz ózi menen jubang‘an yańlı,
Tolqın bolıp jattı sharshamay hasla.
Tawlar tıńlag‘anday meniń nalamdı,
Bir jerde dárpenbey aynaldı tasqa,
Dalalar oyang‘an arıwday bolıp,
G‘arq boldı báhárdiń ıshqısı menen.
Gezende samallar tallarǵa qonıp,
Qosıqların aytti, tillerinde - sen!
Men seniń atıńdı esitip qaldım,
Maysa japıraqlar suwıldısında.
Men seni esittim dáw tolqınlardıń,
Qulaqtı tındırǵan shuwıldısında.
Ekinshi ret báhár:
Gúller tirilip,
Ana-jer qushaǵın bezey basladı.
Sol gúllerdiń jamalına tigilip,
Kózlerim tek seni izley basladı (4.43).

1 Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: “Шарқ”, 1999. – Б.85.
2 Қарлыбаева Г. Әжинияз шығармалары тилиниң семантика-стилистикалық өзгешеликлери. Н.2017. –Б.141.

Har bir misradagi qaytarilgan halqa takrori *Ekinshi ret báhár! Gúller tirilip, Ana-jer qushaǵın bezey basladı* so‘z birikmasi orqali berilib, tasvirlanayotgan fikr she’rning oxirida umumlashgan va gimn kabi ifodalangan.

Shoirning “Dard” nomli she’rida esa, badiiy takrorning halqa turi, ya’ni she’rning boshidagi ikki misrasi oxirida qayta takrorlangan:

Bul adamdı dárt ayar ma?
Ayaǵanda qartayar ma?
Minsedaǵı suwday jorǵa,
Qartayar ma jarı jolda?

She’rning asosiy g‘oyasi ham shu ikki misraga jam bo‘lgan.Bu she’rda inson umridagi achchiq haqiqatlar, taqdirimizda bo‘ladigan muammolar, xullas, umr savdolari falsafiy tarzda tasvirlanganini halqa takrori yordamida tasvirlaydi.

Ketiw menen, keliw menen,
Eki ortada taban tozar,
Taban tozsa adam tozar.
Bul adamdı dárt ayar ma?
Ayaǵanda qartayar ma?… (5.159).

K.Raxmanov poeziyasida har bir element o‘z o‘rnida qo‘llangan.Aytish kerak, shoir halqaning ikki turidan ham o‘z o‘rnida foydalangan.Ya’ni misralarning boshida, o‘rtasida va oxirida halqa shaklini yasay olgan she’rlari ham misraning boshida va oxirida berilgan halqadan ham ma’lum so‘z va so‘z birikmalari yordamida ma’noviy-uslubiy vazifani bajarish maqsadida amalga oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдиназимов Ш.Н. Лингвопоэтика. – Нөкис, 2019.
2. Адабиётшунослик терминлари луғати / Тузувчилар: Ҳ.Ҳомидий, Ш.Абдуллаева, С.Иброхимова. – Т.: “Ўқитувчи”,1979.
3. Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар.ТДПУ, 2001.
4. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: “Шарқ”, 1999.
5. Қарлыбаева Г. Әжинияз шығармалары тилиниң семантика-стилистикалық өзгешеликлери. Н.2017.
6.К.Рахманов “Арғымағым”. Нөкис. “AVANGARD-BASPA”,2022.
7. К.Рахманов “Гүзги муҳаббат”. Нөкис. “AVANGARD-BASPA”,2022.

Mohichehra ALIQULOVA,
GulDU tayanch doktoranti
aliqulovamohichehra543@gmail.com



REKLAMA MATNLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: dunyo tilshunosligida so‘nggi yillarda ijtimoiy hayotning barcha jihatlari tilda o‘z aksini topishi, jumladan, reklama matnlarining tili jamiyat rivojida o‘ziga xos o‘ringa egaligi e’tirof etilmoqda. Shunday ekan bugungi kunda reklama hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Mazkur maqolada reklama matnlarining lingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Reklama matnlarining lingvistik va madaniy moslashuvi, xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *reklama, reklama matni, til, lingvistik xususiyatlar.*

Аннотация: в последние годы в мировой лингвистике признано, что все стороны общественной жизни отражаются в языке, в том числе и то, что язык рекламных текстов занимает особое место в развитии общества. Итак, сегодня реклама стала неотъемлемой частью нашей жизни. В данной статье рассматриваются лингвистические особенности рекламных текстов. Выделены языковая и культурная адаптация и особенности рекламных текстов.

Ключевые слова: *реклама, рекламный текст, язык, лингвистические особенности.*

Annotation: in recent years, in world linguistics, it has been recognized that all aspects of social life are reflected in language, including that the language of advertising texts has a special place in the development of society. So today advertising has become an integral part of our life. This article discusses the linguistic features of advertising texts. Linguistic and cultural adaptatin and features of advertising texts are highlighted.

Keywords: *advertising, advertising text, language, linguistic features.*

Kirish. Reklama – bu mahsulot, xizmat, g‘oya yoki brend haqida ommaga ma’lumot yetkazish va ularning e’tiborini jalb qilish uchun mo‘ljallangan vositadir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi iste’molchini qiziqtirish, ishonch hosil qilish va xarid qilishga undashdir. Yurtimizda reklama va reklama tilining shakllanishi va takomil topib borishi uzoq tarixga borib taqaladi. O‘lkamizda o‘tmishda bozorlarda maxsus jarchilarning xaridor va sotuvchilarni insofga chorlab, oldi-sotdi ishlarida molning kamchiligini aytib sotish, tarozidan urmaslik, halollika rioya qilishga undab turganlari ham reklamaning o‘ziga xos ildizlaridir. Ta’kidlash joizki, reklamaning bosh maqsadi bo‘lgan ishontirish va undashning ta’sirli bo‘lishida badiiyatining ahamiyati ulkan, ko‘p hollarda reklamaning ta’sirchanligi, samaradorligi reklama matni tiliga bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy qism. Reklama ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy mazmundagi axborot tarqatishning o‘ziga xos bir turi sifatida bugun dunyoda eng keng tarqalgan targ‘ibiy-tashviqiy vositalardan, ijtimoiy kommunikatsiyaning benihoya faol qurollaridan biri hisoblanadi. Bu qurolning o‘tkir va mahsuldor bo‘lishi, birinchi navbatda, uning tiliga bog‘liqdir. Dunyo tilshunosligida reklamaning bevosita lisoniy xususiyatlari anchayin mufassal tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilshunosligida reklama matnlarining tili va uslubi yaxlit holda o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Reklamaning mazmuniy mohiyati undash, da’vat qilish, ishontirish ma’nosining o‘zbek tilida ifodalanish usullari, mexanizmlari va qonuniyatlari xilma-xil bo‘lib. Ularni ilmiy asosda ko‘rsatib berish reklama amaliyoti uchun ham, o‘zbek matn tilshunosligi uchun ham jiddiy ahamiyatga egadir.

Reklama quyidagilarga xizmat qiladi:

1. Xabar berish: mahsulot yoki xizmatning mavjudligi haqida xabardor qilish.
2. Ishontirish: mahsulotning sifat va afzalliklarini ko‘rsatish orqali iste’molchida ishonch uyg‘otish.
3. Eslatish: brend yoki mahsulotni doimiy ravishda iste’molchilar yodida saqlash.

Reklama ko‘rinishlari turlicha bo‘lib ular:

- Bosma reklama (gazeta, jurnal);
- Audiovizual reklama (televizion va radio roliklar);
- Raqamli reklama (internet va ijtimoiy taqmoqlar);
- Tashqi reklama (afisha, bannerlar) kabi shakllarda bo‘ladi.

Reklama o‘zbek tilida ham iste’molchi madaniyatiga mos qilib, sodda va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Shiorlar va tasvirlar inson psixologiyasiga ijobiy ta’sir o‘tkazishi reklamaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

O‘zbek reklamasining o‘ziga xos jihatlari:

- Madaniy xususiyatlar: reklama matni va ko‘rinishi o‘zbek xalqining urf-odatlariga mos bo‘lishi kerak.
- Tili va uslubi: reklama o‘zbek tilida sodda, tushunarli va qisqa bo‘lishi lozim.

Reklama bugungi kunda bozorda raqobatdoshlikni oshirishning muhim vositasidir. To‘g‘ri tuzilgan reklama:

- ✓ Mahsulot yoki xizmatga talabni oshiradi.
- ✓ Brendni ommalashtiradi va uning nufuzini oshiradi.
- ✓ Iste’molchilarni to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.
- ✓ Savdoni tezlashtiradi va foydani oshiradi.

Bugungi kunda reklama matnlarini sifatli yaratishga bo‘lgan alohida e’tibor kuchayib bormoqda. O‘zbek tilshunosligida reklama matnlarini yaratishda mualliflarning tildan foydalanish mahoratini shakllantirish, til vositalari nutqiy voqelanishi masalalarining nazariy va amaliy tadqiqiga alohida e’tibor qilish yanada kuchaymoqda.

Reklama matnlarining estetik qiymati, ta’sirchanligi, albatta, lisoniy vositalar – tilning ifoda imkoniyati va mualliflarning tildan foydalanish malakasiga bog‘liq. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida olib borilgan qator tadqiqotlar o‘zbek tilining o‘ziga xos grammatik-uslubiy xususiyatlarini ochib berishga bag‘ishlandi, ammo reklama matnlari tilining leksik-morfologik, grammatik xususiyatlari, ularning pragmatik o‘ziga xosliklari tadqiqiga yetarli darajada e’tibor qaratilmadi. Mana shu zarurat asosida keyingi yillarda tilshunoslikning pragmalingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi yo‘nalishlarida qator tadqiqotlar olib borilib, tilning inson omili bilan bog‘liq holda yuzaga chiquvchi nutqiy imkoniyatlari ochib berilmoqda.

Reklama matnlarining lingvistik xususiyatlari ularning maqsadidan kelib chiqib, e’tiborni tortuvchi, esda qolarli va ta’sirchan bo‘lishi bilan ajralib turadi. Quyida reklama matnlarining asosiy lingvistik xususiyatlari keltiriladi:

1. Qisqaligi va lo‘ndaligi

Reklama matnlari odatda qisqa va maqsadga

yo‘naltirilgan bo‘ladi. Haddan tashqari murakkab tuzilmalardan qochilib, aniq va sodda iboralar ishlatiladi.

Masalan:

“Ta’miga oshiqasiz!”

“Bir zumda yangi imkoniyatlar!”

2. Emotsionallik va ta’sirchanlik

Reklama matnlari ko‘pincha his-tuyg‘ularni uyg‘otish uchun emotsional leksikadan foydalanadi. Ko‘pincha ijobiy his-tuyg‘ular (quvonch, farovonlik, muvaffaqiyat) yoki ehtiyojga urg‘u beriladi.

Masalan:

“Oila bilan baxtli dam o‘tkazing!”

“Haqiqiy sifatni his eting!”

3. Takrorlash va ritm

Ovoz chiqarib o‘qilganda esda qolishini osonlashtirish uchun ritmli iboralar va takroriy so‘zlar qo‘llanadi.

Masalan:

“Sifat, ishonch, muvaffaqiyat!”

“Yuqori sifat – yuqori natija!”

4. Metafora va obrazlilik

Reklamalarda ko‘pincha obrazli ifodalar va metaforalardan foydalaniladi. Bu iste’molchiga mahsulot yoki xizmatni yaxshiroq tasavvur qilishga yordam beradi.

Masalan:

“Bu non – ertalabki quyosh!”

“Energiya dengiziga sho‘ng‘ing!”

5. Buyruq ohangi

Aksariyat hollarda reklama matnlari iste’molchini harakatga chorlaydi. Buyruq ohangidagi iboralar odatda qisqa va ravshan bo‘ladi.

Masalan:

“Hoziroq harid qiling!”

“Imkoniyatni boy bermang!”

6. Brendlash va unikallik

Brend nomi yoki uning asosiy shiorlari reklama matnlarida takror va takror ishlatiladi. Bu brendni osonroq esda qoldirishga xizmat qiladi.

Masalan:

“Coca-cola – har lahzada quvonch!”

“Samsung – kelajak bu yerda!”

7. O‘xshatish va taqqoslash

Reklamada mahsulot yoki xizmatning ustunligini ko‘rsatish uchun o‘xshatish yoki taqqoslash usullaridan foydalaniladi.

Masalan:

“Bu avtomobil – tezlikning o‘zidir!”

“Qanday yangi? Xuddi ertalab yuvilgandek!”

8. Raqamlar va faktlardan foydalanish

Reklama matnlarida faktlar, statistik ma’lumotlar yoki aniq ko‘rsatkichlar beriladi, bu mahsulotga ishonchni oshiradi.

Masalan:

“95% mijozlarimiz bizdan mamnun”

“Atigi 2 daqiqada tayyor bo‘ladi!”

Reklama matnlarining bunday xususiyatlari ularning o‘z auditoriyasiga ta’sir qilishda samaradorligini oshiradi va mahsulot yoki xizmatni yodda qoldirishni osonlashtiradi.

Xulosa. Reklama matnlarining lingvistik xususiyatlari ularning maqsadli auditoriya bilan samarali aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi. Qisqalik va lo‘ndalik, emotsionallik, ritm, metaforalar, buyruq ohangi va raqamli faktlardan foydalanish reklama matnlarini esda qolarli, ta’sirchan va ishonchli qiladi. Shuningdek, brendlash va unikallik mahsulot yoki xizmatni boshqalardan ajratib turishga yordam beradi. Reklama matnlari nafaqat iste’molchining e’tiborini tortish, balki, uni harakatga undashni ham maqsad qiladi. Shu bois, reklama matnlari sodda, lekin ma’noli va ta’sirchan tarzda tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B.X. “Matn lingvistikasi”. –Toshkent, 2010
2. Mahmudov N., Asqarova M. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. –Toshkent, 2006.
3. “O‘zbek tilining reklama tili xususiyatlari” – Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, –Toshkent, 2008.

Nisobegim OCHILOVA,
NavDU 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi 1-kurs tayanch doktoranti
ochilovann@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINING MILLIY-MADANIY TUSHUNCHALARINI KOGNITIV-SEMANTIK QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, har bir millatning o‘ziga xosligi va an’analari haqida ko‘plab asarlarda keltirib o‘tilgan. Shu bois til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi tilda mavjud bo‘lgan tushunchalar va ularning qo‘llanilishi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi milliy-madaniy tushunchalar kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Kognitiv lingvistika orqali tillardagi madaniy xususiyatlarni aniqlash va ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, milliy madaniy tushunchalar, madaniy o‘ziga xoslik, semantika, til ahamiyati, madaniyatlararo muloqot, transkripsiya, leksikologiya, qiyosiy tahlil, lingvistik o‘ziga xoslik.*

Аннотация: взаимосвязь культуры и языка, самобытность и традиции каждого народа упоминаются во многих произведениях. Следовательно, взаимозависимость языка и культуры проявляется через понятия и их употребление в языке. В данной статье национально-культурные концепты в английском и узбекском языках анализируются с когнитивно-семантической точки зрения. Посредством когнитивной лингвистики она направлена на выявление культурных особенностей языков и показ их общих и специфических аспектов.

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, национально-культурные концепты, культурная идентичность, семантика, языковая значимость, межкультурная коммуникация, транскрипция, лексикология, сравнительный анализ, языковая идентичность.*

Annotation: the relationship of culture and language, as well as the identity and traditions of each nation, are mentioned in many works. Consequently, the interdependence of language and culture is manifested through concepts and their use in language. This article analyzes national and cultural concepts in the English and Uzbek languages from a cognitive-semantic point of view. Cognitive linguistics aims to identify the cultural features of languages and show their general and specific aspects.

Key words: *cognitive linguistics, national-cultural concepts, cultural identity, semantics, linguistic significance, intercultural communication, transcription, lexicology, comparative analysis, linguistic identity.*

Globalizatsiya sharoitida madaniyatlararo aloqalar va o‘zaro anglashuv kun sayin dolzarb bo‘lib bormoqda. Har bir millat va madaniyat o‘ziga xos ma’naviy, ijtimoiy va ma’rifiy an’analarga ega va bularning barchasi til orqali ifodalanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi milliy-madaniy tushunchalarni o‘rganish, ularning madaniyatlararo farqlarini ochib berish bugungi kunda lingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot maqsadi ham ingliz va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan milliy-madaniy tushunchalarni qiyoslash, ularning o‘ziga xos tomonlarini kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilishdir. Ushbu qiyosiy tahlil orqali biz qardosh bo‘lmagan tillarning konseptual xususiyatlarini ochib beramiz.

Kognitiv lingvistika – bu tilni insonning aqliy jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganadigan yo‘nalish. Kognitiv lingvistlar tilni faqat mantiqiy va grammatik jihatdan emas, balki uni shakllantiruvchi tasavvurlar va madaniy kontekstlar bilan o‘rganishga harakat qilishadi. Kognitiv lingvistika til va madaniyatni bir butun sifatida ko‘rib chiqadi. Bu tilning o‘ziga xosligini va madaniyatni aks ettirish qobiliyatini kognitiv jarayonlar orqali o‘rganadi. [7:15]

Milliy-madaniy tushunchalar – bu bir xalqning ma’naviy, ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalaridir. Har bir xalq o‘zining madaniyati va an’analari asosida o‘z tushunchalarini yaratuvchi va ifodalovchi qiyosiy vositalarga ega. Masalan, inglizlar va o‘zbeklar uchun “mehmondo‘stlik” va “hospitality” tushunchalari turlicha ko‘rinishda ifodalanadi. Tushunchalar tildan tashqari kontekstdagi ijtimoiy ahamiyatni ham aks ettiradi. Shu o‘rinda tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilishi zarur. O‘zbek tilidagi “mehmondo‘stlik” va ingliz tilidagi “hospitality” tushunchalari o‘zaro o‘xshash ko‘rinadi, ammo ularning konteksti va qo‘llanilishida farqlar mavjud. O‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik nafaqat mehmon kutish, balki insoniy qadriyatlar va munosabatlarni anglatadi. Ingliz tilida esa, “hospitality” ko‘proq rasmiy va tijorat doirasida ishlatiladi.

Ingliz tilidagi ifodasi: “*Hospitality is an essential aspect of British culture.”* Ushbu iborada “hospitality”

tushunchasi rasmiy va tijorat muhitida ko‘proq muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Jane Austen’ning Pride and Prejudice durdona asarida keltirilgan: “The hotel offers wonderful hospitality.”[1:26] – jumlasidan: ingliz madaniyatida mehmondo‘stlik ko‘proq xizmat ko‘rsatish nuqtayi nazarida qo‘llaniladi deya xulosa qilish mumkin

O‘zbek tilidagi ifodasi: *“O‘zbek xalqining mehmondo‘stligi o‘ziga xosdir.”* Bu gapda “mehmondo‘stlik” tushunchasi har bir o‘zbekning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini aks ettiradi, mehmon kutish an’anasi va madaniyati bilan bog‘liqdir. Chunki o‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda chuqur ildiz otgan qadriyat hisoblanadi. Aynan shu sabab “mehmondo‘stlik” konsepti ko‘plab o‘zbek adabiyotida ham aks etgan. Jumladan, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi quyidagi kabi satrlarda yorqin aks etadi: “Mehmon kelgan uyda faqat dasturxon emas, ko‘ngillar ham keng bo‘lishi kerak.”[9:87] Bu jumlada Oybek mehmon kelishi bilan nafaqat dasturxon bezalishi, balki barcha oila a’zolari mehmonni mamnuniyat bilan kutib olib, samimiyat va ochiqlik ko‘rsatishi lozimligini ta’kidlaydi.

Ingliz va o‘zbek tillari ikki turli til oilalariga mansub: ingliz tili german tillari oilasiga kirsa, o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu tillarning farqli oila va tarixiy rivojlanishi ularning milliy-madaniy tushunchalarida o‘z aksini topgan. Shu sababli, ularning semantik qiyosiy tahlili qiziqarli lingvistik va madaniy tadqiqotlar olib borishga imkon yaratadi.

Dastlabki misolimiz, ingliz tilidagi “freedom” va o‘zbek tilidagi “erkinlik” tushunchalari o‘zaro parallel ko‘rinsada, ma’no qatlamlari va madaniy kontekstlari tubdan farq qiladi. Ingliz madaniyatida “freedom” konsepti shaxsiy erkinlik va mustaqillikni anglatadi, o‘zbek tilidagi “erkinlik” konsepti esa ko‘proq jamoat va millat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Bu farq kognitiv semantika yordamida tahlil etilganda: har bir millatning o‘ziga xos ijtimoiy va siyosiy tarixi tushunchalarning ma’nosini shakllantiradi.

Ingliz tilidagi ifodasi: *“Freedom is the right to live without oppression” bu gapda “f*reedom” tushunchasi individualizm madaniyatning asosiy elementlaridan biri sifatida ko‘riladi. Yakka tartibdagi erkinlik va mustaqillik madaniy qadriyat sifatida katta ahamiyatga ega. Bu tushuncha shaxsning huquq va imkoniyatlarini himoya qilish orqali jamiyatda ham taraqqiyotni ta’minlash uchun zarur deb qaraladi. Amerikalik yozuvchi Harper Lining “To Kill a Mockingbird”[4:113] asarida “freedom” tushunchasi adolat, teng huquqlilik va inson erkinligini himoya qilish g‘oyasida o‘z aksini topadi. Asarda qora tanli odamning huquqlari himoya qilinishida “freedom” ijtimoiy erkinlik va tenglik ramzi sifatida talqin qilinadi. Shaxsiy va ijtimoiy erkinlik tushunchalari markaziy mavzular bo‘lib, ular orqali individual huquq va adolatga e’tibor qaratiladi.

O‘zbek tilidagi ifodasi: *“O‘zbekiston erkinlikka erishish yo‘lida harakat qilmoqda.”* O‘zbek madaniyatida “erkinlik” tushunchasi ko‘proq milliy birdamlik, xalqning ijtimoiy va siyosiy ozodligi bilan bog‘liq. Bu tushuncha shaxsiy huquqlarni emas, balki xalq va jamiyat manfaati uchun qilingan kurashni anglatadi. Shu sababli, “erkinlik” tushunchasi o‘zbek adabiyotida millat mustaqilligi, ozodlik va birlashuv mavzularida tez-tez ishlatiladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”[10] asarida “erkinlik” o‘zbek xalqining mustaqillik, ozodlik va milliy birdamlikka intilishlarini ifodalaydi. Roman bosh qahramonlari o‘zbek xalqining mustaqil va erkin bo‘lishga, o‘z madaniyati va qadriyatlarini himoya qilishga intilayotgan xalq hayotini ko‘rsatadi. Bu yerda erkinlik shaxsiy manfaatdan ko‘ra umumiy manfaatlar uchun ko‘proq ma’no kasb etadi va xalqning ozodlikka bo‘lgan orzusini ifoda etadi.

Ingliz va o‘zbek madaniyatidagi bu farqlar jamiyatlararo munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega, chunki “freedom” va “erkinlik” tushunchalari faqatgina lug‘aviy ma’no bilan cheklanib qolmay, balki har bir xalqning o‘ziga xos madaniy va tarixiy tajribalarini ham aks ettiradi.

Ingliz tilidagi “home” va o‘zbek tilidagi “uy” tushunchalari G‘arb va Sharq madaniyatlarining ijtimoiy va shaxsiy hayotga bo‘lgan yondashuvlaridagi farqlarni ko‘rsatadi. G‘arb madaniyatida “home” odatda individual shaxsning o‘zini erkin his qilishi, shaxsiy rivojlanishi va qulayligini ta’minlash manbai sifatida qaraladi. Odamlar uchun bu joy, o‘zlarini himoya qila olishlari va shaxsiy hududlarini boshqarishlari mumkin bo‘lgan makon sifatida muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek madaniyatidagi “uy” tushunchasi esa, aksincha, shaxsdan ko‘ra ko‘proq jamoaviy qadriyatlarni aks ettirgani ham bejizga emas. Chunki o‘zbek madaniyatida uy — oila va ijtimoiy birlik markazi, bu yerda oilaviy birdamlik, mehmondo‘stlik, hurmat va qadriyatlar ustuvorlik qiladi. Uy faqat yashash joyi bo‘lib qolmay, oila an’analari, ota-onaga hurmat va qarindoshlik rishtalarini ifodalovchi muqaddas makon sifatida ham qabul qilinadi. Bu farqlar kognitiv jihatdan madaniyatlarning dunyoqarashi va uni qanday shakllanishini yaqqol ko‘rsatadi: G‘arbda individualistik yondashuv, Sharqda esa kollektivizm asosiy o‘rinda turadi.

Ingliz tilidagi ifodasi: *Ingliz adabiyotida “home” tushunchasi ko‘pincha mustaqil hayot, erkinlik va shaxsiy xohish-istaklarni aks ettiradi. Masalan, T. S. Eliotning “The Love Song of J. Alfred Prufrock” she’rida “home” qayg‘u va yolg‘izlik manbai sifatida tasvirlangan bo‘lib, unda shaxsiy erkinlik, xotirjamlik va o‘z xayollariga cho‘mish holatlari ifoda etiladi. Prufrock o‘z uyida, shaxsiy makonida, ichki xotirjamlikni*

izlaydi, bu o‘zini va o‘z xohishlarini chuqur anglashga bo‘lgan ehtiyojning ifodasidir. Bu o‘rinda “home”ning individualistik, yolg‘iz shaxsning ichki tajribalari bilan bog‘liq jihatlari ko‘rinadi.

O‘zbek tilidagi ifodasi: O‘zbek adabiyotida esa, uy faqat bir shaxsning makoni bo‘lib qolmay, balki avlodlar davomiyligini ifodalovchi o‘zak tushunchadir. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida, uy oilaviy qadr-qimmat, tarix va avlodlar qoldirgan qadriyatlar joyi sifatida gavdalanadi. Roman qahramonlari uchun uy o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi markaz, oila rishtalari mustahkamlangan, madaniy meros va qadriyatlar saqlangan joydir. Bu nafaqat jismoniy makon, balki ular uchun o‘zlikni anglash va oilaga bo‘lgan sadoqat tuyg‘usining ifodasi hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek madaniyatlarining turli qirralari o‘zaro o‘xshashliklar va farqlarni yaratadi. Bu esa madaniyatlararo aloqalarda noqulayliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz madaniyatida shaxsiy chegaralar muhim bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik va yaqin munosabatlar muhim hisoblanadi. Bu turli madaniyatlarda xulq-atvorni tushunish va madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo kommunikatsiyada bunday tushunchalarning to‘g‘ri talqin qilinishi muhim, chunki ular boshqa madaniyat vakillariga bir millatning qadriyatlarini tushunish imkonini beradi. Shu sababli, lingvistika va madaniyatshunoslik sohalarida milliy-madaniy tushunchalarni o‘rganish, tarjimonlar va xalqaro munosabatlar sohasi vakillari uchun madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tillaridagi milliy-madaniy tushunchalarni tarjima qilishdagi nazariya tarjimonlar uchun muhim yo‘nalish bo‘lib, u ikki tildagi madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishda madaniy farqlarni hisobga olish va bu tushunchalarni to‘g‘ri, aniqlik bilan ifodalashni ta’minlashga qaratilgan. Tarjima nazariyasida milliy-madaniy tushunchalar bilan ishlash ko‘pincha ma’nolarni “to‘g‘ri anglash” va “yetkazish” masalalarini o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, tarjimaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib ekvivalensiya nazariyasi xizmat qiladi. Ushbu nazariya asosida milliy-madaniy tushunchalarni tarjima qilishda so‘z yoki iboraning mazmuniy jihatdan to‘g‘ri ekvivalentini topishga urinish yotadi. Ammo, ko‘plab hollarda o‘zbek va ingliz tillarida to‘liq ekvivalent mavjud bo‘lmasligi mumkin, chunki bu tushunchalar har bir madaniyatning o‘ziga xos qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ehson” so‘zini tarjima qilishda uni “charity” bilan almashtirish mumkin, ammo “ehson” ko‘pincha diniy va ijtimoiy ma’noni o‘z ichiga oladi. Shu sababdan tarjima jarayonida to‘liq ekvivalent topishga urinishda tushunchaning asosiy nuqtalari yo‘qolishi mumkin, bu esa tarjima nazariyasida ekvivalentlikni maksimal darajada yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi milliy-madaniy tushunchalarni tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklar asosiy madaniy yuklamalarni to‘g‘ri ifodalash, so‘zlarning emotsional va konnotatsion ma’nolarini saqlash hamda jamiyatlararo qadriyat va uslublar farqini hisobga olishni talab qiladi. Shu sababli, bunday tarjima jarayonlari ko‘pincha chuqur bilim va nozik interpretatsion yondashuvni talab qiladi, bu esa tarjimonlardan ikki madaniyat va tilning xususiyatlarini yaxshi tushunishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Austen, J. Pride and Prejudice. — New York: Penguin Classics, 2003. 423 c.

2.Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 1992. 352 c.

3.Firth, J. R. Papers in Linguistics 1934–1951. — London: Oxford University Press, 1957. 251 c.

4.Harper Lee. To Kill a Mockingbird. — Lippincott, 1960. 281 c.

5.Hofstede, G. Culture’s Consequences: International Differences in Work-Related Values. — Beverly Hills, CA: Sage Publications, 1984. 327 c.

6.Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. 2nd ed. — Chicago: University of Chicago Press, 2008. 256 c.

7.Langacker, R. W. Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. Cognitive Linguistics Research. — Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. 395 -c.

8.Nida, E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. — Leiden: Brill, 1964. 331 -c.

9.Oybek. Qutlug‘ qon. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1948. 412-b.

10.Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. — Toshkent: Yoshlar Nashriyoti, 1926. 320-b.

11.Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. — New York: Harcourt, Brace and World, 1921. 198 c.

12.T.S. Eliot. The Love Song of J. Alfred Prufrock. — URL: https://www.poetryfoundation.org/ (data murojaati: 13.12.2024).

13.Очилова, Н. Семантико-когнитивный интерфейс сравниваемых языков (na primere angliyskogo, uzbekskogo i russkogo yazykov) // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. — 2024. — Т. 2. — № 1/S. — S. 57–63.

Shaxnoza ISMATOVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti



SIYOSIY LINGVISTIKA VA UNING ASOSIY TUSHUNCHAVIY-TERMINOLOGIK APPARATI

Annotatsiya: mazkur maqolada siyosiy lingvistikaning paydo bo‘lishi va uning rivojlanishi haqidagi nazariyalar, shuningdek, bu sohaning asosiy tushunchaviy va terminologik apparati haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Siyosiy lingvistika tilshunoslikning alohida tarmog‘i sifatida davlat rahbarlari, siyosatchilar va jamoatchilik o‘rtasidagi kommunikatsiyaning tahlili, siyosiy nutq va diskursning strukturalari, shuningdek, siyosiy til va uning jamiyatdagi o‘rni haqida ilmiy fikrlar bayon qilinadi. Bu tahlillar, siyosiy lingvistikada ishlatiladigan asosiy atamalar va tushunchalarni aniqlashda, sohaning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar:*siyosiy lingvistika, siyosiy til, siyosiy matn, siyosiy kommunikatsiya, uslub, janr, diskurs, paradigma.*

Annotation:this article presents theories about the emergence of political linguistics and its development, as well as opinions about the main conceptual and terminological apparatus of this field. Political linguistics, as a separate branch of linguistics, analyzes communication between state leaders, politicians and the public, political speech and discourse structures, as well as scientific opinions about political language and its place in society. These analyzes play an important role in defining the main terms and concepts used in political linguistics, and in forming the theoretical and methodological foundations of the field.

Key words: *political linguistics, political language, political text, political communication, style, genre, discourse, paradigm.*

Аннотация: в данной статье представлены теории возникновения политической лингвистики и ее развития, а также мнения об основном понятийном и терминологическом аппарате этой области. Политическая лингвистика, как отдельная отрасль языкознания, анализирует общение государственных лидеров, политиков и общественности, структуры политической речи и дискурса, а также научные мнения о политическом языке и его месте в обществе. Этот анализ играет важную роль в определении основных терминов и понятий, используемых в политической лингвистике, а также в формировании теоретических и методологических основ этой области.

Ключевые слова:*политическая лингвистика, политический язык, политический текст, политическая коммуникация, стиль, жанр, дискурс, парадигма.*

G‘oyalar va fikrlar kurashi avj olgan bugungi axborot asrida davlat rahbarlari, liderlar, siyosatchilar, hukumat vakillarining nutqlari, rasmiy chiqishlar, siyosiy diskurs obyekti bo‘lgan siyosiy lingvistika jahon tilshunosligining faol tarmoqlaridan biriga aylandi. Lingvistik terminologiyada siyosiy lingvistika, til siyosati, til va siyosat, siyosiy olamning lisoniy manzarasi, siyosiy muloqot kabi yangi terminlar paydo bo‘ldi.

Matnga siyosiy nuqtayi nazardan yondashuv tarixi antik davrlarga borib taqaladi. Manbalarga ko‘ra rim va yunon mutafakkirlari miloddan avvalgi V asrlardayoq siyosiy notiqlik muammolari bilan qiziqqanlar[1]. Biroq qadimgi demokratik davlatlarni almashtirgan feodal monarxiyalar paydo bo‘lgandan so‘ng bu mavzudagi ishlar bir muncha to‘xtab qoldi.

Siyosiy lingvistika tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida taraqqiy etgunga qadar ham, siyosiy aloqalar haqidagi nashrlar mavjud edi va ular o‘ziga xos ritorik va uslubiy tahlil etilgan. Bunday nashrlar asosan, maqtov va tanqidiy ko‘rinishga ega edi.O‘sha davrning eng muhim asarlari V. Lippmann, G. Lasswell, P. Lazarsfeld asarlari hisoblanadi.Ular dunyodagi siyosiy vaziyat to‘g‘risida jamiyatning tasavvurlarini o‘rganish uchun kontent-tahlildan foydalangan.

Siyosiy lingvistika sohasini o‘rgangan rus olimi A. Chudinov siyosiy tilshunoslikning boshqa tilshunoslik yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, til va jamiyatning o‘zaro ta’siri masalalari sotsiolingvistika, funksional stilistika, ayniqsa publitsistik uslubni o‘rganish orqali, shuningdek, klassik va zamonaviy ritorika, kognitiv lingvistika va matn lingvistikasining aloqadorligi bilan bog‘liqdir[2].

Tilshunoslikda ma’lum tushunchalarni ifodalovchi umumiy va maxsus terminlar, shuningdek, termin va atama haqidagi qarashlar olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Terminga qo‘yiladigan talablar, atamaning xususiyatlari, uning ko‘p ma’nolilikni ifodalash jihatlari, terminologik birliklarda omonim, sinonim, antonim, polisemiya va polifunksionallilik xususiyatlarining mavjudligi, so‘z birikmalari orqali ifodalash va turli xil so‘zlar bilan yetkazilishiga oid masalalar ko‘plab tadqiqotlarda keng yoritilgan[3].

Terminologiya – bu bilimning turli sohalarida terminlarning shakllanishi, rivojlanishi va ishlashining xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. Terminologiya, shuningdek, “tegishli bilimlar sohasidagi (bitta fan yoki bir yo‘nalish) atamalar majmuasi, tegishli

tushunchalar to‘plamini aks ettiradi” degan ta’rifga ega. Bu fan sohalarda ma’lum tushunchalarni aniqlash va ularni ifodalashda ishlatiladigan atamalarni tizimli ravishda o‘rganadi[4].

Siyosiy lingvistikaga oid tadqiqotlar, asosan, siyosiy til, siyosiy matnlar va siyosiy muhokama kabi materiallarni o‘rganishga asoslangan bo‘lib, bu sohadagi ilmiy izlanishlar hozirgi kunga qadar yagona nazariy asos, metodologiya va terminologiya shakllanishiga imkon bermagan. Biroq, siyosiy lingvistikada tushunchaviy va terminologik minimum shakllanib, bu soha uchun zarur bo‘lgan asosiy atamalar va tushunchalar aniq belgilangan. Siyosiy lingvistika asoslarini tizimli bayon qilishning hozirgi bosqichdagi qiyinchiliklari, bu sohadagi ilmiy ishlarning davomiy rivojlanishini taqozo etmoqda.

Siyosiy axborotni uzatishning asosiy vositasi verbal kommunikatsiya, ya’ni tildan foydalanishdir. Biroq, siyosiy axborotning samarali uzatilishi uchun noverbal vositalar (tasvirlar, ramzlar, mimika, imo-ishoralar, pozalar va boshqalar) ham muhim rol o‘ynaydi. Shunga qaramay, siyosiy lingvistika doirasida verbal muloqot yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, siyosiy kommunikatsiyada tildan foydalanishga oid asosiy tushunchalar va terminlarni tahlil qilish zarurati mavjud

1. Siyosiy til.Siyosat tili yoki siyosiy tilning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u siyosatni amalga oshirish va siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu jihatidan, siyosat tili yuridik, ilmiy, falsafiy, tibbiyot va boshqa funksional tildan farq qiladi.Biroq, siyosat tili umumiy til lug‘at tarkibi va tilning boshqa barcha qismlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Siyosat tili tibbiyot, texnika yoki huquq tili kabi aniq ajralib turmaydi, shuningdek, siyosat tili va umumiy til lug‘at tarkibi o‘rtasida doimiy o‘zaro almashuv yuz beradi. Siyosiy atamalar, so‘zlar va iboralar umumiy til lug‘at tarkibiga kirib, uning boyligiga aylanadi; aksincha, umumiy til lug‘at tarkibidagi ba’zi so‘zlar va iboralar siyosat tili tarkibiga o‘tadi.

2. Siyosiy matn – bu ma’noviy aloqa orqali ifodalangan va bir-biri bilan uzviy bog‘langan so‘zlar (jumlalar) ketma-ketligidan iborat bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari uzviylik va yaxlitlikdir. Siyosiy matn turli janrlarga mansub bo‘lishi mumkin: u og‘zaki shaklda (masalan, miting yoki parlament munozaralaridagi chiqishlar, partiya qurultoyidagi ma’ruzalar, siyosiy yetakchining teleko‘rsatuvlardagi nutqlari va boshqalar) va yozma shaklda (gazetadagi bosh maqolalar yoki tahliliy maqolalar, varaqalar, siyosiy partiya dasturlari va boshqa hujjatlar) bo‘lishi mumkin.

Siyosiy matnlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular nafaqat ma’lum bir voqea yoki masala to‘g‘risida axborotni taqdim etadi, balki boshqa turli funksiyalarni ham bajaradi.Siyosiy matn avvalambor, mazkur masala yuzasidan aniq bir nuqtayi nazarni ifodalovchi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ishlab chiqilgan bir butunlik sifatida mavjud bo‘ladi[5].

Siyosiy matnlar tili ma’lum diplomatik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan va alohida til belgilariga ega bo‘lgan kontekstni tashkil etadi.Shuning uchun, ushbu turdagi matnlarning filologik tahlilini amalga oshirish tilshunoslik sohasidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Siyosiy matnlardagi leksemalarning semantik hajmining chuqurligi, nominatsiyasining aniqligi va taqribiyligi semantik tadqiqotlar asosida olinadigan axborot hajmini sezilarli darajada oshiradi[6].

3.Siyosiy nutq –Nutq (nutqiy faoliyat) tilshunoslikda tildan foydalanish jarayoni sifatida ta’riflanadi va uning natijasi matn yaratishdir.Siyosiy nutq esa notiqlikning eng dastlabki shakllaridan biri hisoblanadi.Notiqlikning vujudga kelishi, asosan, siyosiy ehtiyojlarga bog‘liqdir. Xalqlarni birlikka chaqirish, vatanparvarlikni targ‘ib qilish yoki ilk davlatchilik davrida jangovar ruhni uyg‘otish kabi ehtiyojlar tufayli notiqlik shakllana boshlagan va natijada siyosiy nutq paydo bo‘lgan.

Siyosiy nutqning notiqlikdagi ahamiyatini tushunishdan oldin, uning mohiyatini aniqlash lozim.N.G‘oyibov, D.Yusobov, va A.Mavlyanovlarning “Notiqlik san’ati” asarida siyosiy nutq quyidagicha ta’riflanadi: “Asosan, rahbarlar tomonidan qo‘llaniladi va shuning uchun ham dasturilamal xususiyatga ega bo‘lib, bunday nutqlarda davrning dolzarb masalalari va boy faktik materiallar aks ettiriladi.” Bu ta’rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, siyosiy nutqning asosiy vazifasi jamiyatdagi muhim siyosiy masalalarni ifodalash va xalqqa taqdim etishdir, shu bilan birga u siyosiy jarayonlarda rahbarlar tomonidan qo‘llaniladigan, maqsadga yo‘naltirilgan nutqdir[7].

4.Siyosiy til uslubi — ma’lum bir siyosiy oqim, partiya yoki tashkilotga xos bo‘lgan milliy tildan foydalanishning nutqiy shaklidir. Siyosiy til uslubining o‘ziga xos xususiyatlari, asosan, til vositalarining tanlovi va ularning qanday ishlatilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa siyosiy tilning kommunikativ maqsadlariga xizmat qiladi. Misol uchun, zamonaviy Rossiya siyosatining yetakchi vakillari tomonidan jurnalistlarga berilgan intervyularni tahlil qilganda, M.S. Gorbachyovning javoblarining ko‘p so‘zli ekanligi, B.N. Yelsinning javoblarining esa qisqaroq bo‘lishi aniqlandi. M.S. Gorbachyov, ko‘pincha, chet eldan kelgan, kitobiy umumiste’molga kirmagan so‘zlarni ishlatgan bo‘lsa, B.N. Yelsinning nutqida ba’zan jargon so‘zlar va iboralar mavjud bo‘ladi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda, alohida siyosatchilarning til xususiyatlarini emas, balki ma’lum siyosiy partiyalar yoki harakatlarga xos bo‘lgan ifoda usullarini tahlil qilishga qaratilgan. Masalan, mahalliy liberal qadriyatlarni ilgari suruvchi siyosatchilar (B. Nemsov, I. Xakamada, Y. Gaydar) siyosiy atamalardan faol foydalanishga moyil bo‘ladilar, aksincha, milliy-vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi siyosiy kuchlar vakillari an’anaviy ruscha ifodalarga e’tibor

qaratadilar. Bu jarayonda siyosiy tilning leksik tarkibi va strukturalaridagi xususiyatlar, ularning o‘ziga xosligi va funksional jihatlari tadqiqotlarda alohida o‘rganilishi lozim[8].

Zamonaviy milliy siyosiy tilshunoslikda ham siyosiy partiyalarning uslubiy xususiyatlari, ham ayrim siyosatchilarning nutqiy uslublari faol o‘rganilmoqda.

5. Siyosiy aloqa. Muloqot sohalarini ajratish tamoyillari, ularning an’anaviy funksional uslublar bilan bog‘liqligi hamda bunday sohalarning miqdori masalasi tilshunoslikda kengroq tahlilga muhtoj bo‘lgan masalalardan biridir.Zamonaviy tilshunoslikda ajratilayotgan muloqot sohalari faqat qisman funksional uslublarning qo‘llanish sohalariga mos kelishi mumkin. Kommunikatsiyaning yetakchi sohalari qatoriga siyosiy sohadan tashqari quyidagi sohalar kiradi: moliyaviy, yuridik, ishlab chiqarish, tibbiy, ilmiy, pedagogik, diniy, maishiy, ommaviy axborot sohasi va san’at sohasi.Ushbu sohalar, o‘z navbatida, o‘z muloqot maqsadlariga ko‘ra bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi: siyosiy sohada – hokimiyat uchun kurash, yuridik sohada – huquqiy munosabatlarni tartibga solish, moliyaviy sohada - hisobga olish va taqsimlash, ilmiy sohada – tabiat, inson va jamiyatning tashkil etilishi va rivojlanishining qonuniyatlarini aniqlash, pedagogik sohada esa – shaxsning ijtimoiylashuvi kabi maqsadlar.

Siyosiy kommunikatsiyaning turli darajalari yoki kichik sohalarini ajratish, ularning har biri o‘zining alohida xususiyatlari va funksiyalariga ega bo‘lib, siyosiy tizimda kommunikatsiyaning samarali amalga oshirilishini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy kommunikatsiyaning yana bir muhim jihati, ba’zi hollarda, parlament va muzokaralar kommunikatsiyasini alohida ajratishdir. Parlamentda olib boriladigan rasmiy chiqishlar ko‘pincha ommaviy siyosiy faoliyatning bir shakli sifatida qabul qilinadi, ammo qo‘mitalarda yoki jamoatchilik uchun yopiq bo‘lgan ishlar apparat kommunikatsiyasiga yaqin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, muzokaralar jarayonidagi kommunikatsiya ham ko‘pincha siyosiy jarayonlar va qarorlar qabul qilishning bir turi sifatida ko‘rib chiqiladi, chunki bu jarayonlar siyosiy pozitsiyalarni aniqlash va siyosiy guruhlar o‘rtasidagi kelishuvlarni ta’minlashga qaratilgan.

6. Siyosiy nutq janrlari.Janr shakllari tilshunoslikda shaxsning fikrlash jarayonlari va diskursiv xatti-harakatlarini aniqlovchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi.Ijtimoiy-lingvistik kompetensiyaning rivojlanishi jarayonida janrlar tizimi shaxsning ongida o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘ladi, bu esa fikrlarni shakllantirish va tuzish jarayonlarini yengillashtiradi hamda boshqa shaxsning bayonotini idrok etishni soddalashtiradi.

Siyosiy nutqdagi har bir kommunikativ vaziyatga mos keladigan janrlar korpusi mavjud bo‘lib, og‘zaki siyosiy nutq janrlari (mitingda chiqish, ma’ruza, suhbat, debat, intervyu va boshqalar) hamda yozma siyosiy nutq janrlari (dastur, varaqa, gazeta maqolasi, siyosiy yetakchiga maktub va boshqalar) farqlanadi. Janr, shuningdek, matnni individuallashtirish va uni nutqiy faoliyat shart-sharoitlariga moslashtirishning muhim vositasidir. Har bir janr o‘ziga xos matnni tashkil etishning aniq va qat’iy qoidalariga ega bo‘lib, bu qoidalar matnning kommunikativ samaradorligini ta’minlaydi.

Funksiyasiga ko‘ra, marosim janrlari (inaturatsion murojaat, tabrik so‘zi va boshqalar), oriyentatsion janrlar (ma’ruzalar, farmonlar, shartnomalar, bitimlar), agonal janrlar (slogan, varaqa, mitingda chiqish, nutq) va informativ janrlar (gazeta axboroti, fuqarolarning siyosatchilarga yoki ommaviy axborot vositalariga murojaatlari) farqlanadi.

Siyosiy nutq janrlari o‘rtasida axborot hajmiga ko‘ra kichik (shikoyat, shior, nutq), o‘rta (miting yoki parlamentda chiqish, varaqa, gazeta maqolasi va boshqalar) va yirik (partiya dasturi, siyosiy ma’ruza, siyosiy publitsistika kitobi va boshqalar) turlari farqlanadi.

7.Siyosiy diskurs.Siyosiy lingvistikada “siyosiy diskurs” atamasi alohida e’tiborni talab qiladi.Shu ma’noda biz bu tushuncha haqida to‘xtalib o‘tsak. “Diskurs” atamasi faqatgina tilshunoslikning obyekti bo‘libgina qolmasdan sotsiologiya, kulturologiya, pedagogika, yurispuridensiya sohalarining ham tadqiq obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Diskurs atamasining asl lug‘aviy ma’nosi lotin tilidan (discursus so‘zidan) kirib kelgan bo‘lib, “harakat”, “aylanish”, “suhbat”, “muloqot” degan ma’nolarni anglatadi. “Diskurs” lingvistik termin sifatida birinchi marta 1952-yilda amerikalik olim Z. Harrisning “Discourse analysis” kitobida keltirilgan.

Zarur hollarda miting yoki parlament diskursi, mintaqaviy yoki federal diskursning o‘ziga xos xususiyatlari ajratiladi, muayyan saylov kompaniyasi yoki siyosiy til rivojlanishining ma’lum bir bosqichi diskursi xususiyatlari qayd etiladi. Masalan, miting diskursi iborasi siyosiy diskursning bir turini anglatadi, unda matnlarning mazmuni va dizayniga “miting” siyosiy kommunikativ vaziyat ta’sir ko‘rsatadi. Miting ishtirokchilari ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda o‘zlarini tegishli vaziyatda qabul qilinganidek tutadilar, mitingdagi chiqishlar parlamentdagi yoki partiya forumidagi chiqishlardan boshqacha quriladi. Zarurat bo‘lganda, mutaxassislar siyosiy diskurs boshqa kommunikativ soha (diniy, huquqiy, harbiy va boshqalar) diskursi bilan o‘zaro ta’sir qiladigan kommunikativ vaziyatlarni ham o‘rganadilar.

8. Siyosiy olamning lisoniy manzarasi.Siyosiy olamning lisoniy manzarasi tushunchasi, tilning siyosiy jarayonlardagi o‘rni, davlat boshqaruvi tizimlaridagi roli, qonunchilik faoliyatidagi ishtiroki, ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy ongni shakllantirishda qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadigan ilmiy tushunchadir.Ushbu tushuncha, tilning siyosiy ta’sir ko‘rsatish, g‘oyalarni tarqatish va jamiyatda ijtimoiy-

siyosiy tuzilmani mustahkamlashdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tilning siyosiy jarayonlardagi funksiyalarini ochib beradi.Siyosiy olamning lisoniy manzarasi siyosiy nutqning shakllanishi, ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan til, qonunlar, rasmiy hujjatlar va boshqa siyosiy kommunikatsiya shakllarini o‘rganadi. Siyosiy nutq, hukumatlar va siyosiy partiyalar tomonidan o‘z g‘oyaviy dasturlarini ilgari surishda va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Siyosiy olamning lisoniy manzarasi tilni ijtimoiy-g‘oyaviy va madaniy kontekstda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, jamiyatdagi siyosiy qarashlar va hokimiyat tizimini mustahkamlashda tilning qanday ishlatilishini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Til orqali tarqatilgan qadriyatlar, g‘oyalar va dunyoqarashlar siyosiy qarorlar va siyosatni shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon siyosiy tilning ijtimoiy va siyosiy kontekstda qanday o‘zgarishini, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, siyosiy lingvistika tilshunoslikda o‘zining asosiy tushuncha va terminlariga, tahlil va tadqiq usuliga ega bo‘lgan alohida paradigma sifatida shakllanib ulgurgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oyibov N., Yusubov D. Mavlyanov A. Notiqlik san’ati. –Toshkent, 2012. 47-bet
2. Будаев Э. В., Чудинов А. П. Современная политическая лингвистика. Екатеринбург: УрГПУ, 2006. 252 с.
3. Mamatkulova R. So‘z, termin va atama tushunchalari, ularning o‘ziga xos semantik xususiyatlari.2023
4. Danilenko, V, P. Russkaya terminologiya: Opit lingvisticheskogo opisaniya [Tekst] / V. P. Danilenko. - M.: Nauka, 1977.S.15
5. Siddiqov Z.O‘zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasi va siyosiy terminologiyasi.2022
6. Попова Т.Г. Категория информативной насыщенности юридического дискурса // Профессионально ориентированное обучение иностранному языку и переводу в вузе. Материалы международной конференции. – Москва, 2011. – С. 275. (273-285)
7. G‘oyibov N., Yusubov D.Mavlyanov A. Notiqlik san’ati. –Toshkent, 2012. 47-bet
8. Чудинов А. П. Политическая лингвистика: Учеб. пособие / А. П. Чудинов; Изд-ва “Флинта”, “Наука”. — Москва. 2006. 31-42 с.

Kamola ALLANAZAROVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
allanazarovakamola021@gmail.com

XX ASR BOSHLARI SHOIRALARI SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada XX asr boshlari o‘zbek shoiralari she’riyatining o‘ziga xos xususiyati, badiiy mazmun va shakl jihatdan yangilanish tamoyillari singari jihatlar yoritilgan. Shoiralar ijodida ayollarning ilm-ma’rifatli bo‘lishi, erk va ozodlik masalalari qalamga olingan. XX asr boshlari o‘zbek shoiralarining yangi davr she’riyatiga kirib kelishi, she’riyatning yangilanishida ayol ijodkorlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *adabiy muhit, janr, obraz, shakl va mazmun, she’riyat, qofiya, adabiy jarayon.*

Annotation:the article covers the specific features of the poetry of Uzbek poets of the early 20th century, the principles of renewal in terms of artistic content and form. The poets' work focuses on the issues of women's knowledge and enlightenment, freedom and freedom. The entry of Uzbek poets of the early 20th century into the poetry of the new era, the importance of women creators in the renewal of poetry are analyzed.

Key words: *literary environment, genre, image, form and content, poetry, rhyme, literary process.*

Аннотация: в статье освещаются такие аспекты, как особенности поэзии узбекских поэтов начала XX века, принципы обновления художественного содержания и формы. Творчество поэтов затрагивает вопросы женского образования, свободы и расширения прав и возможностей. Анализируется вхождение узбекских поэтов в поэзию нового времени в начале XX века и значение женщин-творцов в обновлении поэзии.

Ключевые слова: *литературная среда, жанр, образ, форма и содержание, поэзия, рифма, литературный процесс.*

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston yerlari istibdod zanjiriga tushib, mahalliy aholini mustabidlik deb ataluvchi milliy zulm yuki eza boshladi. Tabiiyki, Turkiston aholisi bunga darhol ko‘nikolmasdan milliy zulm yukini yelkadan

uloqtirib tashlamoqchi bo‘ldilar. Erk va ozodlik uchun kurash olib borilar ekan, o‘z mamlakatlarining taraqqiyot darajasi qotib qolganligi, mutaassiblik, jaholatning kuchliligi, amaldorlarning xalqni talashi, mamlakatdagi bedodlik Turkistonni mustabidlik botqog‘iga tortgan omil ekanligini anglab yetdilar. Yurt ozodligiga erishish uchun ana shu omillarni bartaraf etib, mamlakatning iqtisodiy-ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy hayotini tubdan isloh etish yo‘lida, harakatni dastavval ma’rifat orqali milliy ongni o‘stirish, ularga o‘zligini tanitishdan boshlash lozim bo‘ldi.[3: 20]

Ijtimoiy hayotda vujudga kelgan yangi voqealar adabiyotda ham o‘z aksini qoldirdi. Ushbu davrda yaratilgan adabiyot namunalarida asrlar mobaynida davom etib kelgan bir qancha an’anaviy mavzular va g‘oyalar yangi mazmun va mohiyat kasb eta boshladi. Shuningdek, yangi bosqichda xalqning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri va ruhiyatida yuz bergan o‘zgarishlar natijasida badiiy ijod davr ruhini aks ettiruvchi obraz va yangi mavzular bilan boyidi.

XX asr boshlaridagi adabiy jarayonda shoir va yozuvchilarning ijodida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, siyosat, davrning barcha ko‘rinishlari namoyon bo‘ldi. Adabiy aloqalar kuchayib, asr boshlarida lirik, epik va dramatik janrlar yangi mazmunni ifodalashga xizmat qildi. XIX asr oxiri XX asr boshlari adabiyoti mumtoz adabiyotimizdagi mavjud an’analarni o‘z davri sharoitida ijodiy davom ettirib, mantiqiy jihatdan nihoyasiga yetkazdi. Mumtoz adabiyotning qator ijodiy an’analari bu davrda yanada takomillashdi, badiiy jihatdan yanada boyidi.

XX asr adabiyotining eng muhim jihatlaridan biri adabiyotning xalq turmush tarzi va orzu-intilishlariga yaqinlashishida ko‘rinadi. Bu jarayon o‘sha davr adabiyotini mavzu jihatdan boyitdi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan takomillashtirib, satirani rivojlantirdi, til boyligi uchun xizmat qildi, uslub ravonligini oshirdi. Ushbu davr adabiyoti vakillarining ijodida ilm ma’rifat ijtimoiy hayotdagi voqealar, oliyjanoblik va razolat o‘rtasidagi kurashni tasvirlab, xalqning haqqoniy hayotini, adolatli jamiyat haqidagi orzu-umidlarini ham ifodaladilar. Asr boshlari o‘zbek adabiyotining yana bir muhim xususiyatlaridan biri u o‘zigacha bo‘lgan adabiyotdagi barcha ilg‘or an’analarni davom ettirdi. Ta’kidlanganidek, ijodkorlar xalqparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalarini rivojlantirib, adabiyotni hayot bilan yaqinlashtirdilar.

Asosiy qism. XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti eng murakkab hamda ziddiyatli davr sifatida e’tirof etiladi. Ushbu jarayon o‘zbek she’riyatida ham aks etdi. XX asr boshlari o‘zbek she’riyatida mumtoz adabiyot an’analari saqlangani holda, aruz vaznida sifat o‘zgarishlari kuzatilib, barmoq vazni qayta joriylandi, she’riyatda yangi poetik obrazlar tadriji yuzaga keldi. Ushbu davrda she’riyat nasrda yetakchi o‘rinni egalladi. Bu davrning ilg‘or namoyandalari ma’rifatni, ijtimoiy adolatni, farovonlikka yetish yo‘llarini targ‘ib qildilar.

Ular o‘z ijodida hajv orqali mustamlakachilarning kirdikorlarini ochib berdilar, tengsizlikni, zulmni qoraladilar. Ahmad Donish, Behbudiy, Avloniy, Hamza, Muqimiy, Zavqiy, Sadriddin Ayniy kabi ijodkorlar asarlarida tuzumdan norozilik, jaholat botqog‘iga botgan voqelikni keskin qoralash yetakchilik qildi. Tanqidiy realizm ruhidagi chor va mahalliy amaldorlarning kirdikorlarini fosh etuvchi, ularning zulmini qoralovchi ijod namunalari vujudga keldi. XX asrda boshqa sohalar qatori adabiyotda ham qator o‘zgarishlar va yangilanishlar ko‘zga tashlandi. Xususan, bu davrda she’riyatda his-tuyg‘u va g‘oya she’riyati to‘qnash keldi. Bu kurashda his-tuyg‘uga asoslangan mumtoz adabiy an’analar: vazn, shakl va obrazlar tizimida qarashlar o‘zgarib bordi. Bu o‘zgarishlarga jadid adabiyotining ta’siri kuchli bo‘ldi.

XX asrning 1-choragi o‘zbek she’riyati uchun chinakamiga yangilanish bosqichi bo‘ldi. She’rga estetik hodisa sifatida qarash kuchaydi.[7: 5] Jadid adabiyoti realistik tasvirni kuchaytirib, hayot va insonga yangicha munosabatda bo‘ldi. Badiiy tasvir vositalari, nasriy va she’riy shakllarni takomillashtirgan holda adabiy tilni umumxalq tiliga yaqinlashtirdilar. Boshqa xalqlar adabiyoti yangiliklarini o‘rgandilar, xotin-qizlarni ijtimoiy ishlarda faol bo‘lishga undadilar, ularga ozodlik va tenglikni targ‘ib qildilar. Yoshlarni ilm va texnikani o‘rganishga, xorijiy tillarni egallab, mukammal mutaxassis bo‘lishga chaqirdilar. Roman, realistik hikoya va povest, drama, komediya, tragediya janrlarini adabiyotga olib kirdilar, barmoq vaznini adabiyotda keng qo‘llay boshladilar. Bu davr she’riyatida Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Elbeklar yetakchilik qildilar. Ana shu jarayonda o‘zbek shoiralari ham o‘z ijodida adolatli hayotni tasvirlab, shaxs erkini himoya qildilar.

Shoiralar she’riyatida ayniqsa, o‘zbek ayolining orzu-intilishlarini kuylash takomillashdi. Ushbu mavzularni badiiy ifoda etishda o‘zbek shoiralari o‘z davri peshqadam shoirlari bilan hamfikr bo‘lsalarda, she’rlarida erk uchun kurash va orzularini o‘z hayoti bilan bog‘lab aks ettirdilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xoniy, Niso, Muazzamxon, Nozima xonim, Hakima, Muattarxon, Mukarramxon, Miskina, Qamarniso, Maxbuba Raximova, Habibaxon Umar qizi, Osima xonim, Nozik xonim, Sodiqa bibi, Sobira Bibi, Bibi Hamida, Bibi Hanifa, Nodira Xonim, Rizvon Bibi, Zebunniso, Nadima, Hadiya Bibi, To‘ti qiz, Nozuk xonim, Nigor Xonim, Sharaf xonim, Vasilat xonim, Nozik Bibi (Xo‘qandiy), Bibi Maryam (Hirotiy), Layli xonim, Fayzi Bibi, Saida bibi, Mutriba, Mahzodabegim, Jahon Oyim, Hojar G‘ulom qizi, X.Tillaxonova, Erk Chirchiqboyeva, Saodat Shamsiddin, S.Burnosheva, Oydin, Xosiyat Musino, Halima Shoumar qizi kabi shoiralarning adabiy jarayonga kirib kelishi o‘zbek adabiyotida yangi sahifa ochdi.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida shoiralar adabiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayol ijodkorlar ham shoirlar singari taraqqiyotning turli davrlarida adabiyotimiz rivojida o‘z hissalarini qo‘shib kelganlar. Adabiy-tarixiy manbalar, tazkiralarda shoiralar haqida ham ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. “Sha’mi anjuman”, “Mashohir un-niso”, “Subhi gulshan”, “Ro‘zi Ravshan”, “Otashkada”, “Qomus ul- a’lom”, “Mashhur xotunlar”, “Tazkirai Husayniy”, “Javohir ul ajoyibot” “Tazkirat ush-shuaro” kabi asarlar shular jumlasidandir. Tarixiy manbalarda nomlari zikr etilgan Robia Balxiy (X asr), Ismatiy, Oysha Samarqandiy (XI asr), Rayhona, Munisa Mahastiy (XII asr), qoshg‘arlik Mutriba (XIII asr), xorazmlik Podsho Xotun (XIV asr), Navoiyga zamondosh: Nihoniy, Mehriy, Bediliy, Mohiy, Xunboiy, Xayriniso, Munajjima, Oqabeka, Iffatiy, Jamila, Dilshod Xotun, Gavharbegim (XV asr), Nurjahon, Zebunniso, Vazirulniso, Zaynatulniso, Jahonaro, Salima, Buzurgiy (XVII), Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod Barno, Anbar Otin, Samar bonu (XIX asr) kabi shoiralar yashab ijod etganligi qayd etiladi. XX asr boshlari shoiralari Sharq mumtoz she’riyati, xususan, o‘zbek va fors-tojik adabiyoti bilan yaqindan tanish bo‘lganligi bois, ular she’riyatida sharq estetik tafakkur tarsi yaqqol aks etib turadi. Ularda Alisher Navoiy, Mashrab, Fuzuliy, Nodira, Uvaysiy kabi ijodkorlar qo‘llagan an’analarni ko‘rish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, shoiralar tarjimai holi, hayot yo‘liga oid ma’lumotlar ularning chorizm mustamlakasi zamonida dunyoga kelib, sho‘rolar istibdodi davrida ijod etganligi bois mazkur davr sho‘ro siyosati va mafkuraviy ta’qiqlar ularning ijtimoiy-siyosiy ruhdagi she’rlarida o‘z aksini topgan. Ushbu asarlar o‘sha davrning bizga noma’lum ayrim jihatlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shoiralar ijodida hayotdagi voqealarni ayol qalbi bilan his etadi va ularni ayollarga xos nafosat, nazokat bilan ifodalaydi.

XIX asrning birinchi yarmida yashagan Nodira, Uvaysiy, Mahzuna kabi shoiralar ijodida zamona illatlarini ochish, inson erkini kuylash, adolatni ulug‘lash, ifodalangan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida Dilshod, Anbar Otin, Bonu ijodida mavzu doirasi yanada kengaydi. Jamiyat hayotida ro‘y bergan voqealar davr ma’rifatparvarligini yangi mazmun bilan boyitdi. Bu davr adabiyoti shoiralari ijodida tasavvuf, ilohiy ishq g‘oyalari bilan birga farovon turmushga intilish, tuzum adolatsizliklarini qoralash, ilm-ma’rifatni ulug‘lash ohanglari ma’lum darajada o‘z ifodasini topdi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyoning bosib olinishi munosabati bilan vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar ta’sirida inson hayotini adolat, insof bilan yaxshilashdan iborat an’anaviy qarashlar shoiralar ijodida ham yangi bosqichga ko‘tarilganligini ko‘rish mumkin. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan o‘zbek shoiralari ham yuqoridagi mavzularni o‘z asarlarida ifoda etdilar. Mazkur davr adabiyoti namoyandalari yaratgan asarlar davr adabiy muhitini yaqqol gavdalantirishi bilan xarakterlanadi, bunda shoiralarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Shoira Sobira bibi she’rlarida o‘z davridagi ayollar qismatidan kuyinib, faryod chekadi:

Yetarmi subhi maqsuda bizim oqshomimiz, yo rab?
O‘lurmi fayzi iqbola qarin ayyomimiz, yo rab?
Sharaf nisvona Turkiston aro qaydi asoratdur,
Asoratli sharafdin yaxshidur e’modimiz, yo rab.
Aqlsiz garchi nisvona asorat ayni ziynatdur,
Bu ziynatni olub bizdin, karam qil komimiz, yo rab.
Xotun biz suratan, siyratda hayvondek sotunlarmiz.
Birimiz qo‘y, birimiz echku, nisvon nomimiz, yo rab?[2,141]

Sobira bibi yuqoridagi she’rida nafaqat o‘z dardini, balki o‘sha davr ayollarining armonlarini aytib faryod etadi. Hadya bibining “Qandoq qilay” radifli she’ri ham o‘z davri ayollari tilidan aytiladi:

Hech bir shod o‘lmadi menga jahon, qandoq qilay?
Yig‘laram shom-u sahar aylab, fig‘on, qandoq qilay?
Bulbuli sho‘ridaman, hamxonam ammo zog‘dur,
Ohkim, mundoq qafasdin yo‘q omon, qandoq qilay? [2,142.]

Shoiralar ijodini tahlil qilar ekanmiz, ular she’rlarining mavzu-mundarijasining rang-barang ekanligini ko‘rish mumkin. Ilm-ma’rifatni ulug‘lash, jaholatni qoralash mumtoz adabiyotimizda mavjud an’ana bo‘lib, ushbu an’ana XX asr boshlarida shoiralarning asarlari tufayli yangicha mazmun bilan boyidi. Shoiralar ijodi mundarijasini lirik, axloqiy-ma’rifiy, diniy-tasavvufiy, ilohiy ishq, agiografik, ijtimoiy-siyosiy ruhdagi asarlar tashkil etgani holda ilm-ma’rifat, olimlik va maktablarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, inson tarbiyasidagi ahamiyati talqiniga qaratilgan she’rlari XX asr boshlaridagi ma’rifatparvar shoirlar ijodiga yaqin turadi.

Xulosa. Ayrim shoiralar mumtoz she’riyatimizda mavjud ko‘plab tasvir vositalardan mahorat bilan foydalanganlar. XX asr boshlari shoiralari o‘z asarlarida shakl va mazmun uyg‘unligiga alohida e’tibor berib, mumtoz adabiyotimiz an’analarini yangi davr sharoitida muvaffaqiyat bilan davom ettirdilar. Shoiralarning aruz ilmi bilan birga qofiya va ilmi bade’ni mukammal bilishlari ijod namunalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoiralar ijodini badiiylik ilmi nuqtayi nazaridan yoritish, asarlarini yangi mezonlar asosida baholash, ijod namunalarini faqat g‘oyaviy jihatdan emas, balki mazmun, shakl, ohang uyg‘unligi nuqtai nazaridan o‘rganish, shoiralar yashagan davr adabiy muhiti, ular ijodining kamol topishida zamin bo‘lgan omillar, shoiralarning adabiy an’analarga ijodiy munosabati hamda ijodining o‘ziga xos tamoyillari, poetik mahorat qirralari xususida mulohaza yuritishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov T. Qizlar qasidasi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1980. 328-bet.
2. Jalolov T. O‘zbek shoiralari –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1970. 328-bet.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti– Toshkent: O‘qituvchi, 1999. 420-bet.
4. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi–Toshkent: O‘qituvchi, 1965. 388-bet.
5. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 340-bet.
6. Nazarov B. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 368-bet.
7. Nazarova Sh. XX asr boshlarida o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari. –Toshkent: Akademnashr, 2022. 254-bet.

Feruza NAMOZOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: namozovaferuza79@gmail.com
NavDPI filologiya fanlari doktori (DSc) R.H. Davlatova taqrizi asosida

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOSENSORIKANI O‘RGANISH ZARURATI

Annotatsiya: mazkur maqola bilishning dastlabki bosqichi – sezish jarayoni, sezgi turlari hamda ularning tilda ifodalanishi haqida yozilgan. Jahon va o‘zbek tilshunosligida sezgilar to‘g‘risidagi umumiy qarashlar hamda farqli tomonlar yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: *sezgi a’zolari, perseptiv jarayonlar, idrok, sensualizm, sezgi fe’llari, og‘riq hissi, retseptor.*
Аннотация:данная статья посвящена начальному этапу познания – процессу ощущения, видам ощущений и их выражению в языке. В мировом и узбекском языкознании освещены общие взгляды и различия в отношении ощущений.
Ключевые слова: *органы чувств, перцептивные процессы, восприятие, сенсуализм, глаголы ощущений, чувство боли, рецептор*
Annotation: this article discusses the initial stage of cognition – the process of sensation, types of sensations, and their expression in language. It highlights common views and differences regarding sensations in world and uzbek linguistics.
Key words: *sense organs, perceptual processes, perception, sensualism, sensory verbs, sense of pain, receptor.*

Odamlar hissiy dunyoda yashaydilar.Insoniyatning qishloq xo‘jaligidan tortib kosmik sayohatigacha bo‘lgan barcha yutuqlari ko‘rish, eshitish, teginish, ta’m, hid va his qilish orqali yuzaga kelgan.Sezgi – dunyoni bilishning birinchi bosqichi va tarkibiy qismidir[1]. Ingliz faylasufi Jon Lokk (1632-1704) o‘zining “Inson aqli haqida tajriba” asarida shunday yozgan: “Ongda avval sezgidan o‘tmagan hech narsa yo‘q”[2]. Bu fikr bilishning yagona manbayi sezgi ekanligini tan oluvchi sensualizm ta’limoti uchun asos bo‘lib qoldi. Ushbu ta’limotning nomi ham lotincha “sensus” – tuyg‘u, hissiyot so‘zidan kelib chiqqan.

Bilish nazariyasida J.Lokkning izdoshi bo‘lgan fransuzma’rifatparvariEtenBonnodeKondilyak(1715—1780) o‘zining “Traité des Sensations” (“Sezgilar haqida ilmiy risola”) asarida sezgi a’zolarining ongni rivojlantirishdagi ahamiyatini obrazli tasvirlaydi. U marmar haykalga dastlab hid bilish, so‘ngra ta’m, teri sezgisi va nihoyat eshitish hamda ko‘rish qobiliyatining berilishini tasvirlaydi. Birin-ketin his-tuyg‘ularga ega bo‘lgan o‘lik haykal jonlanib, unda g‘oyalar va ong paydo bo‘ladi. Olim o‘lik haykalning jonlanish jarayoni kuzatuvi tahlili asosida kitobxonni quyidagi xulosaga olib keladi: “Ruhning barcha qobiliyatlari... shunchaki his qilishdan kelib chiqishi mumkin”[3].

Ko‘rinadiki, umrimiz davomida egallanadigan bilimlar, umuman, harakat-faoliyat jarayoni sezgilar orqali hosil bo‘lar ekan, sezgilarning ifodalanishi masalasi tilshunoslikning asosiy vazifalaridan sanaladi. Sezgining tildagi ifodasi muayyan xalq madaniyatida rivojlanadigan perseptiv jarayonlarni tushunishda, uni tahlil qilishda kalit vazifasini bajaradi. B.Karabayeva

1 “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti,2000 -2006.619-b.

2 Фейгенберг И.М. Видеть – предвидеть – действовать: Психологические этюды. – М.: Знание, 1986. – 5 с.

3 Фейгенберг И.М. Видеть – предвидеть – действовать: Психологические этюды. – М.: Знание, 1986. – 6 с.

ham sezgini ifodalovchi lisoniy birliklar bilim olishning, olamning lisoniy tasvirini shakllantirishning o‘ziga xos turi sifatida ilm-fanda, xususan, falsafa, psixologiya va kognitiv tilshunoslikda alohida o‘ringa ega ekanligini alohida e’tirof etadi[1].

Lingvosensorika antroposentrik tilshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida jahon tilshunosligida sensor lingvistika, perseptiv lingvistika nomlari bilan atalishini kuzatish mumkin. Mazkur sohada olib boriladigan sezgilar tasnifi, chegarasi, qamrovi, ifoda birliklari o‘rganilgan. Jumladan, V.K.Xarchenko idrok etish beshta sezgi a’zosining (ko‘rish, eshitish, teri orqali sezish, ta’m va hid) ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘lgan til bilimlari sohasini *lingvosensorika* deb atash taklifini beradi[2], ingliz olimi Bodo Vinter esa “Sensoriy Linguistcs” (Sensor lingvistika)[3] deb ataydi. Lingvosensorikaning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi tilshunoslik taraqqiyotidagi zamonaviy tendensiyalar bilan bog‘liq. Yetakchi tendensiyalardan biri antropotsentrik yondashuv bo‘lib, u til imkoniyatlarini tadqiq etishda inson omilini markazga qo‘yish va uning mavjudligi bilan bog‘liq turli jihatlarga ilmiy qiziqishni rivojlantirdi. Shu nuqtayi nazardan o‘rganilib boshlangan lingvosensorik tadqiqotlar ko‘lami ko‘p bo‘lmay, o‘zbek zamonaviy tilshunosligida yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan sanaladi.

Tilshunoslikda mazkur masala yuzasidan I.G.Ruzin, Pak Son Gu, A.Majid, S.C. Levinson, V.K.Xarchenko, D.Howes, C.Classen, A.V.Nagornaya, Bodo Vinter, T.Yu.Peredriyenkolarning[4] ilgari surgan nazariy qarashlari sohaning rivojlanishi uchun muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

Biroq mazkur qarashlar o‘rtasida hanuzgacha muayyan farqlanishlar kuzatiladi, hattoki sohaning tadqiq obyekti masalasida aniq chegaralar, to‘xtamlar mavjud emasligi lingvosensorik yo‘nalishdagi tadqiqotlarga ehtiyoj tug‘diradi. Jumladan, V.K.Xarchenko “Lingvosensorika beshta sezgi: ko‘rish, eshitish, teri orqali sezish, ta’m va hidning lingvistik uzatilishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi”[5] desa, Bodo Vinter sezgilar beshtadan ko‘p bo‘lishi mumkinligi haqida o‘z taxminlarini bayon etadi.[6] D.Howesning fikricha, “Hatto G‘arbning o‘zida ham sezgilar soni bo‘yicha har doim ham kelishuv bo‘lmagan” va barcha milliy madaniyatlar beshta hissiyot modeliga amal qilmaydi[7].

Ko‘rinadiki, olimlar ko‘rish, eshitish, teri orqali sezish, ta’m va hid bilish sezgilariga mos kelmaydigan boshqa sezgilar ham mavjudligini e’tirof etishadi. Masalan, Craig ва Tracey og‘riqni boshqa sezgilardan alohida deb hisoblaydilar va “og‘riqni idrok etish oddiy teri sezgisidan farqli ravishda alohida miya tuzilmalari tomonidan ta’minlanadi”, deya ta’kidlaydi. I.M. Feygenberg og‘riq to‘g‘risida bildirilgan: “Men buni oltinchi sezgi bilan his qildim”, “Men buni qandaydir noma’lum yo‘l bilan his qildim” kabi qarashlar noto‘g‘ri ekanligini, terining o‘zida teginish, bosim, issiq, sovuq, og‘riqni his qilish uchun bir necha sezgilar borligini ko‘rsatadi. Olimning fikricha, “Ular tana bo‘ylab bir xil taqsimlanmagan. Retseptorlar boshqa a’zolarga qaraganda barmoq uchlarida ko‘p joylashgan, shu sababali ularda sezuvchanlik yuqori”[8].

Biroq besh sezgi modeliga sig‘maydigan yana qator: ochlik hissi, chanqoq, bosh aylanishi, muskullar, paylar harakati va hokazolar mavjudki, bu sezgilar ham inson tanasi uchun hayotiy zarurat. Ularsiz harakat qilish va tana holatini saqlash mumkin emas.

Rus tilshunosi A.V. Nagornaya an’anaviy beshta sezgi eksterotseptiv sezgilar toifasiga mansubligini va sensorning faqat bir qismini tashkil etishini aytadi. Bundan tashqari tananing ichki olami, ya’ni ichki a’zolar hamda tana qismlarining holati haqida xabar beruvchi interotseptiv sezgi, tana va uning qismlarining muayyan makondagi harakatli va harakatsiz holati bilan bog‘liq bo‘lgan sezgilarni anglatuvchi proprioseptiv sezgi turlari ham shu sohaga oid ekanligini ta’kidlaydi[9].

O‘zbek tilshunosligida ham inson sezgilarining ifodalanishi bilan bog‘liq qator ilmiy ishlar (K. Rahmonberdiyev, M. Mirtojiyev, T.Sh. Dadayev,

1 Карабаева Б. Инглиз ва ўзбек тилларида кўриш сезгисини ифодаловчи феълларнинг когнитив-прагматик хусусиятлари. Автореф. Т.2021.

2 Нагорная А.В. Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований. – Москва, 2017.

3 Winter B. Sensory Linguistics: Language, perception and metaphor. — Amsterdam: John Benjamins, 2019. — 305 p.

4 Рузин И.Г. Модусы перцепции (зрение, слух, осязание, обоняние, вкус) и их выражение в языке: Дис. … канд. филол. наук. – 1995. – 199 с, *Пак Сон Гу* “Лексика чувственного восприятия в языке российской и корейской рекламы”, *Majid A., Levinson S.C.* The senses in language and culture // Senses and Society. –L.: Berg, 2011. – Vol. 6, is. 1. – P. 5–18., Харченко В.К. Лингвосенсорика: Фундаментальные и прикладные аспекты. –М.: Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2012. – 216 с. *Howes D., Classen C.* Ways of sensing: Understanding the senses in society. – N.Y.: Routledge, 2013. – 200 p., Нагорная А.В. **Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований,** Bodo Winter. Sensory Linguistics: Language, Perseption, and Metaphor, 2019. , Передриенко Т. Ю. 2023. Признаки процесса зрительного восприятия: лексикографический аспект // Вестник Тюменского государственного университета. Гуманитарные исследования. Humanitates. Том 9. № 2 (34). С. 26–39. https://doi.org/10.21684/2411-197X-2023-9-2-26-39 T

5 Харченко В.К. Лингвосенсорика: Фундаментальные и прикладные аспекты. –М.: Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2012. – 4-5 с.

6 Bodo Winter “Sensory Linguistics: Language, Perseption, and Metaphor”2019.– 1 p.

7 *Howes D.* Sensual relations: Engaging the senses in culture and social theory. – Ann Arbor: Univ. of Michigan press, 2003. – 78 p.

8 Фейгенберг И.М. Видеть – предвидеть – действовать: Психологические этю- ды. – М.: Знание, 1986. – 5-6

9 Нагорная А.В. Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований. – Москва, 2017. 25-р

R. Rasulov, T.Musayev, Z.D. Mirzakarimova, S.B.Inoyatov, U.Z.Siddiqov, B. Karabayeva va boshqalar)[1] amalga oshirilgan. Biroq bu ishlarda ham sezgining ma'lum qismi, ya'ni tashqi sezgilarga e'tibor qaratilgan, xolos. Jumladan, K. Rahmonberdiyevning "Глаголы зрительного восприятия в узбекском языке" (Раҳманбердиев, 1969) tadqiqotida ko'rish semasiga ega fe'llar mavzuiy guruhlarga ajratilib, semantik, etimologik va stilistik jihatdan tahlil qilingan. T.Sh. Dadayev ham "Глаголы чувственного восприятия в разносистмных *(узбекском и русском) языках*" nomli ishida inson organizmining beshta sezgi a'zosi (hissiy idrok organlari) faoliyatini asos qilib oladi va fe'llarning sezgi bilan bog'liq mavzuiy guruhlarini qiyosiy o'rganadi.[2]

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida sezgilarning asosiy qismi fe'l so'z turkumi bilan ifodalanadi. Buni R.Rasulovning "O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi" mavzusidagi ishi ham tasdiqlaydi. Olim o'zbek tilidagi holat fe'llari semantik maydonining bir qancha leksik-semantik guruhlarini ajratib, biologik, fiziologik, psixik holat fe'llari guruhida juda ko'plab sezgi ifodalovchi fe'llarning leksik-semantik ma'nosini izohlaydi. Masalan, *bo'shashmoq – shalpaygan, bo'sh holatda bo'lmoq: Qobiljon direktorning kabinetidan lattaday bo'shashib chiqdi (S.Ahmad). Seskanmoq – cho'chigan, xavfsiragan holatda bo'lmoq: – Muqaddasda nima qasding bor edi? Alimardon ich-ichidan seskandi (O'.Hoshimov)*[3].

Z.D.Mirzakarimova "Sezgi fe'llarini bir necha kichik semantik maydonlarga tasnif qilib, keyin ularning holat valentligini tadqiq etishga to'g'ri keladi.Sezgi fe'llarini tadqiq etish, albatta, psixologiya fanidagi sezgi organlari turlariga qarab amalga oshirishga to'g'ri kelishi"ni[4], bunda tusmollash, ko'rish, eshitish, ta'm, hid sezish organlari asos bo'lishini ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida sezgilarning tildagi ifodasi fe'l so'z turkumi doirasidagina o'rganilgan. Biroq matnlar tahlili sezgilar nafaqat fe'llar, balki boshqa qator birliklar orqali ham ifodalanib, o'ziga xos pragmatik tabiatini ham namoyon etadi. Masalan:

Belgi bildiruvchi so'zlar**:** *nordon, taxir, silliq, yopishqoq, g'adir-budur v. b.*

Keltirilgan misollar ta'm bilish va teri sezgisini ifodalovchi sifatlardir.

O'xshatish qurilmalar: 1.*yuringlar endi.* ***Qorin ham piyoz po'stiday*** *bo'lib ketdi* (S.Nurov. "Karvon") Ushbu matnda *qorin ham piyoz po'stiday* o'xshatish qurilmasi orqali *och qolmoq*[5] ma'nosini anglatuvchi interotseptiv sezgisi ifodalangan. Bu o'rinda tananing ichki a'zosi bo'lgan oshqozonning ochligi haqidagi axborot interotseptiv sezgi orqali aniqlanadi.

Yoki: *shunday dedi-yu,* ***dami chiqqan pufakday*** *shalvirab qoldi* (M.M.Do'st. "Lolazor") matnida esa *dami chiqqan pufakday* o'xshatish qurilmasi orqali tana va uning qismlarining muayyan makondagi harakatli va harakatsiz holatini anglatuvchi proprioseptiv sezgi ifodalangan. Bunda mazkur qurilma insonning *shalviragan, bo'shashgan* tana holatini ifodalash uchun qo'llanilgan. Insondagi mazkur holat esa ko'rinmaydi, eshitilmaydi, his qilinadi, seziladi.

Frazeologik birliklar: *bu gaplar katta janjalga aylanib, muharrirning* ***qulog'iga yetdi****.* (A.Qahhor. "Sarob") *Yo nos sop bo'ldimikan?* ***Xumori tutgan*** *bo'lsa kerak.* (P.Tursun. "O'qituvchi") Birinchi gapda eshitish sezgisi *qulog'iga yetmoq,* keyingi gapda *iste'mol qilish* istagining yuqoriligi sezgisi *xumori tutgan* iborasi orqali ifodalangan.

Metaforalar: *va* ***zaxlagan tomirlarimga****, Boshlab kelding olov raqsini!* (Jontemir Jondor. "Madh")Ushbu she'riy matnda qon yurishi susaygan tomirlarning holati inson jismining sovuqda tirishgan holatiga o'xshatish asosida *zaxlagan tomirlar* metaforasi bilan berilgan. Bu ichki holat ham interoseptiv sezgi orqali aniqlanadi.

Ko'rinadiki, bunday holatlar sezgilarning tilda ifodalanishi borasida hali izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Shu o'rinda A.Majid va S.C.Levinsonning "… tilning sezgi a'zolarini to'liq ifodalashdagi kamchiliklarini aniqlash va shu orqali tilning ichki chegaralarini tadqiq etish mumkin"[6]ligi to'g'risidagi fikrini keltirish o'rinli. Tabiiyki, sezgilar o'rtasidagi chegaralarning noaniqligi, o'zaro ta'sirlarning mavjudligi ularni tasniflashga bo'lgan urinishlarda murakkablik tug'diradi.Ammo bu muammo boshqa sezgilarning fan doirasida o'rganishdan chetda qolishiga sabab bo'lolmaydi.

1 Рахмонбердиев К. Глаголы зрительного восприятия в узбекском языке: Автореф дисс. … канд. филол.наук. – Ташкент, 1969. – 19 с., Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке: Автореф.дисс. ... д-ра.филол.наук. –Т., 1989. – 44 с, Дадаев Т.Ш. Глаголы чувственного восприятия в разносистемных (узбекском и русском) языках: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1997. – 36 с.; Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши.Монография – Т.,2008. –52 б, Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 1992. – 145 б.; Mirzakarimova Z.D. Fe'l boshqaruvidagi bilan ko'makchili birikmalar semantikasi.–T., 2008. Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 27 б.; Карабаева Б. Инглиз ва ўзбек тилларида кўриш сезгисини ифодаловчи феълларнинг когнитив-прагматик хусусиятлари. Автореф. –Т., 2021.

2 Дадаев Т.Ш. Глаголы чувственного восприятия в разносистемных (узбекском и русском) языках: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1997. – 36 с.

3 Rasulov. R. O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi.Monografiya –T., 2008.

4 Mirzakarimova Z.D. Sezgi fe`llari boshqaruvidagi bilan ko'makchili birikmalar semantikasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor

5 Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – ТОШКЕНТ: "МАЪНАВИЯТ, 2013.

6 Majid A., Levinson S.C. The senses in language and culture // Senses and Society. – L.: Berg, 2011. – Vol. 6, is. 1. – P. 5–18.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006. 619-b.
2. Фейгенберг И.М. Видеть – предвидеть – действовать: Психологические этюды. – М.: Знание, 1986. – 5 с.
3. Карабаева Б. Инглиз ва ўзбек тилларида кўриш сезгисини ифодаловчи феълларнинг когнитив-прагматик хусусиятлари. Автореф. –Т., 2021.
4. Нагорная А.В.Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований. – Москва, 2017.
5. Winter B. Sensory Linguistics: Language, perception and metaphor. — Amsterdam: John Benjamins, 2019. — 305 p.
6. Рузин И.Г. Модусы перцепции (зрение, слух, осязание, обоняние, вкус) и их выражение в языке: Дис. … канд. филол. наук. – 1995. – 199 с
7. *Пак Сон Гу* “Лексика чувственного восприятия в языке российской и корейской рекламы”, *Majid A., Levinson S.C.* The senses in language and culture // Senses and Society. – L.: Berg, 2011. – Vol. 6, is. 1. – P. 5–18.
8. Харченко В.К. Лингвосенсорика: Фундаментальные и прикладные аспекты. –М.: Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2012. – 216 с.



Mahbuba ASHUROVA,
Qarshi davlat universiteti
tayanch doktoranti

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA SO‘Z YASOVCHI SHAKLLARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya:mazkur maqola o‘zbek va turk tillarida so‘z yasovchi shakllarning qiyosiy tadqiqi bilan bog‘liq. So‘z yasash tilning morfologik tizimida muhim rol o‘ynaydi, chunki so‘zlar yangi ma’no va grammatik shakllar yaratish orqali tilning boyishiga yordam beradi.O‘zbek va turk tillarida so‘z yasovchi shakllar orasida o‘ziga xos farqlar va o‘xshashliklar mavjud.Maqolada, har ikki tildagi so‘z yasovchi morfemalar, qo‘shimchalar va ularning morfologik funksiyalari tahlil qilinadi.So‘z yasash jarayonida qo‘llaniladigan morfemalar, ularning qo‘llanilish kontekstlari, sintaktik va semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek va turk tillarida so‘z yasashning umumiy va maxsus jihatlari, shuningdek, tillar o‘rtasidagi aloqalar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *so‘z yasash, o‘zbek tili, turk tili, morfologiya, qo‘shimchalar, so‘z yasovchi shakllar, qiyosiy tadqiq, semantika, sintaksis, tilshunoslik, turkiy tillar.*

Annotation:this article is related to the comparative study of word-forming forms in the Uzbek and Turkish languages. Word formation plays an important role in the morphological system of a language, because words help enrich a language by creating new meanings and grammatical forms. There are specific differences and similarities between the word-forming forms in the Uzbek and Turkish languages. The article analyzes word-forming morphemes, affixes and their morphological functions in both languages. Morphemes used in the process of word formation, contexts of their use, syntactic and semantic properties are studied. Also, the article examines general and special aspects of word formation in Uzbek and Turkish languages, as well as relations between languages.

Key words: *word formation, Uzbek language, Turkish language, morphology, affixes, word-forming forms, comparative study, semantics, syntax, linguistics, Turkic languages.*

Аннотация: данная статья связана со сопоставительным изучением словообразовательных форм в узбекском и турецком языках. Словообразование играет важную роль в морфологической системе языка, поскольку слова помогают обогатить язык, создавая новые значения и грамматические формы. Между словообразовательными формами узбекского и турецкого языков имеются определенные различия и сходства. В статье анализируются словообразовательные морфемы, аффиксы и их морфологические функции в обоих языках. Изучены морфемы, используемые в процессе словообразования, контексты их употребления, синтаксические и семантические свойства. Также в статье рассматриваются общие и особенности словообразования в узбекском и турецком языках, а также отношения между языками.

Ключевые слова:*словообразование, узбекский язык, турецкий язык, морфология, аффиксы, словообразовательные формы, сравнительное изучение, семантика, синтаксис, лингвистика, тюркские языки.*

I. O‘zbek va turk tillari so‘z yasovchi shakllarining farqlari va o‘xshashliklari. O‘zbek va turk tillari morfologiyasidagi umumiyliklar

O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgani uchun ularning morfologiyasi bir-biriga o‘xshashdir.

Ikkala tilda ham so‘z yasashda morfemalar asosiy rolni o‘ynaydi. Morfema – bu tilning eng kichik ma’noli birligi bo‘lib, u so‘z yasashda ishlatiladi.Morfemalar asosan, ikkita turga bo‘linadi: erkin morfemalar (so‘zning asosiy qismlari) va bog‘langan morfemalar (qo‘shimchalar). So‘z yasashda asosan qo‘shimchalar yordamida yangi so‘zlar hosil qilinadi. O‘zbek va turk tillarida qo‘shimchalar orqali so‘zning grammatik ma’nosi va yangi semantik ma’nolari shakllanadi.Har ikki tilda ham so‘z turkumlarining o‘zaro bog‘lanishi, masalan, ot, sifat, fe’l va boshqalar, so‘z yasashning asosiy mexanizmidir.

O‘zbek tilida ot turkumidagi so‘z yasovchi affikslarni shu turkumga xos leksemalarning semalari asosida turli xil guruhlarga ajratish mumkin. Shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o‘rin-joy otlari, faoliyat-jarayon otlari, mavhum otlar so‘z yasovchi qo‘shimcha orqali yasalish xususiyatiga ega. Turk tilida esa yasalishning asosiy 3 turi bor ekanligini Z.Xudayberganova hamda X.Hamidovlar “Turk tilining nazariy grammatikasi” o‘quv qo‘llanmasida ta’kidlab o‘tishadi.

1. Otdan (ot yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib) ot yasalishi: yama-ci (yamoqchi), goz-luk-gu (ko‘zoynak yasovchi yoki uni sotuvchi), i$-gi-lik (ishchilik), avukat-hk (advokatlik) kabi.

2.Otga fe’l yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib fe’l yasalishi: izle-mek (ta’qib etmoq, tomosha qilmoq), bigak-la-mak (pichoqlamoq), firga-la-mak (cho‘tkalamoq, tozalamoq) kabi.

3. Fe’lga ot yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib (fe’ldan) ot yasalishi: sat-ici (sotuvchi), bil-im (bilim), kur-um (muassasa) kabi.Undan tashqari, turk tilshunosligida fe’l shakllarining yasalishi ham so‘z yasalishining bir turi hisoblanadi. Shu boisdan so‘z yasalishining to‘rtinchi turi ham ajratiladi (fe’l yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib (fe’ldan) fe’l shakllari yasalishi): sez-dir-mek (sezdirmoq), gor-ish (ko‘rishtirmoq, uchrashtirmoq) kabi.

So‘z yasovchi morfemalar va qo‘shimchalar. O‘zbek va turk tillarida so‘z yasovchi qo‘shimchalar umumiy morfologik prinsiplarga asoslanadi, biroq ular o‘zgaruvchan semantik va sintaktik xususiyatlarga ega. Masalan, o‘zbek tilida “-chi” qo‘shimchasi so‘zning ma’nosini o‘zgartirib, u mutaxassislikni yoki kasbni bildiradi (masalan, “o‘qituvchi” - o‘qitmoq + chi). Turk tilida esa **-ci** qo‘shimchasi o‘zbek tilidagi **-chi** qo‘shimchasiga o‘xshash bo‘lsa-da, turk tilida ko‘proq ijtimoiy va professional rollarni ifodalashda ishlatiladi (masalan, “öğretmenci” – o‘qituvchi).

Bundan tashqari, o‘zbek tilida **–lash** qo‘shimchasi yordamida fe’llarni hosil qilish jarayoni mavjud.Masalan, “yaxshilash” (yaxshi + lash) so‘zi yaxshilashni anglatadi. Turk tilida esa bunday qo‘shimchalar **-leş** shaklida ishlatiladi (masalan, “gelişmek” – o‘sish, rivojlanish).Bu farq har ikki tilda qo‘llaniladigan qo‘shimchalar turining farqidan kelib chiqadi.

Semantik farqlar. O‘zbek va turk tillarida so‘z yasovchi morfemalar yordamida hosil bo‘lgan so‘zlarning ma’nolari ham ba’zan farqlanadi. O‘zbek tilidagi **-zorlash** qo‘shimchasi majbur qilishni bildirsa, turk tilida **–leşmek** qo‘shimchasi o‘xshash semantika bilan ishlaydi, lekin ko‘pincha “biror narsaga aylanish” ma’nosini beradi. Bu farq har bir tilning o‘ziga xos sintaktik va semantik qoidalariga bog‘liq bo‘lib, ularning tarixiy va madaniy rivojlanishiga asoslanadi.

II. O‘zbek va turk tillari so‘z yasovchi shakllarining sintaktik xususiyatlari. O‘zbek tilidagi so‘z yasovchi shakllar.

O‘zbek tilida so‘z yasashda qo‘shimchalar yordamida turli so‘z turkumlari hosil qilinadi. Bu jarayon tilning morfologik tizimiga chuqur bog‘liq. So‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘z navbatida nom, fe’l, sifat, ot va boshqa so‘z turkumlarini tashkil etishda muhim vositadir. O‘zbek tilidagi qo‘shimchalar bir nechta sintaktik strukturalarda ishlatiladi. Masalan, “o‘qituvchi” so‘zi (o‘qitmoq + chi) yangi fe’l turini hosil qilsa, “yaxshilash”(yaxshi + lash) qo‘shimchasi yordamida fe’lning yangi shakli yaratiladi. Bu kabi qo‘shimchalar yangi so‘zlar yaratishda faol rol o‘ynaydi, ayni paytda, yangi grammatik va semantik ma’nolarni bildiradi.

Turk tilidagi so‘z yasovchi shakllar. Turk tilida so‘z yasovchi morfemalar yordamida, o‘zbek tiliga o‘xshash tarzda, turli so‘z turkumlaridan yangi so‘zlar hosil qilinadi. Biroq, turk tilida qo‘shimchalar bilan so‘z yasashda sintaktik farqlar ham mavjud. Masalan, turk tilidagi so‘z yasovchi morfemalar yordamida qo‘shimchalar ko‘pincha erkin morfemalar sifatida qo‘llanadi. Bu qo‘shimchalar so‘zning grammatik funksiyasini o‘zgartiradi, masalan, “yazıcı” (yozuvchi) va “öğrenci” (talaba). Bu farq sintaktik tuzilmalarda o‘zgarishlarga olib keladi va har ikki tilning grammatika tizimlarida o‘ziga xos farqlarni ko‘rsatadi.

III. O‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi so‘z yasashdagi umumiyliklar va farqlar.

Umumiyliklar. Turk tilida so‘z yasalishi 3 xil usulda amalga oshiriladi va buni neologizmlar deyiladi. Birinchi shakli faollashgan neologizmlar hisoblanib , turk tiliga arab , fors hamda boshqa tillardan kirgan yangi so‘zlar. Ikkinchisi esa turk tilidagi dealektlarni tanlash yo‘li orqali yasaladi. Bu shakli turk shevalaridan o‘sib chiqqan yangi so‘zlardir. Uchinchi yasalishda turk tilidagi mavjud yasovchi ko‘makchi morfemalar orqali yasaladi . Ushbu usul o‘zbek tilimizga o‘xshab ancha sermahsul usul hisoblanadi. Yana turk tilida konversiya usuli orqali ham so‘zlar yasaladi.

Turk tilida so‘z yasalishida asosning hamda yasovchi qo‘shimchalarning ham to‘rttadan turi bor . Bunday yasalishlarda asoslarning o‘rni katta sanaladi. Yasalishda asosan, ko‘p bo‘g‘inli emas, balki qisqa bo‘g‘inli so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi.O‘zbek va turk tillari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, so‘z yasash tizimida bir qator umumiyliklar mavjud. Har ikki tilda qo‘shimchalar yordamida so‘zlarning ma’nosi kengayadi, yangi semantik kontekstlar yaratish mumkin.Shu bilan birga, har ikki tilda ham fe’l, sifat, ot va boshqa so‘z turkumlari

asosida yangi so‘zlar hosil qilinadi. O‘zbek va turk tillari morfologiyasida umumiy qo‘shimchalar va so‘z yasovchi shakllar mavjud bo‘lib, bu tillar o‘rtasida semantik va grammatik o‘xshashliklarni keltirib chiqaradi. Misol uchun, “o‘qituvchi” va “o‘ğretmen” so‘zlarining semantik ma’nolari o‘xshash, ammo ularning shakllanishi va qo‘llanilishi tillarning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi.

Farqlar. O‘zbek va turk tillarining so‘z yasovchi shakllarida ayrim farqlar ham mavjud. O‘zbek tilida ba’zi qo‘shimchalar (masalan, -zorlash) aniq grammatik funksiyalarni bajaradi, turk tilida esa o‘xshash qo‘shimchalar semantik jihatdan ko‘proq differensial ma’no hosil qiladi. Bundan tashqari, turk tilida so‘z yasashda agglutination (qo‘shish) tizimi yanada rivojlangan bo‘lib, morfemalar ko‘pincha mustaqil va ajralmas birikmalar sifatida ishlatiladi. O‘zbek tilida esa qo‘shimchalar ko‘proq sintaktik qatlamlarni tashkil qilishda ishlatiladi.

Xulosa. O‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi so‘z yasash jarayonlari, qo‘shimchalar va ularning semantik va sintaktik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinganda, umumiyliklar va farqlarni aniq ko‘rish mumkin. Har ikki tilda so‘z yasovchi shakllar tilning boyishiga va yangilanishiga xizmat qiladi. Biroq, turkiy tillarning morfologik tizimidagi farqlar ularning tarixiy va madaniy rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, tilshunoslarga ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. So‘z yasash jarayoni orqali har ikki tilning semantik, sintaktik va morfologik o‘zgarishlarini tahlil qilish, bu tillarning rivojlanishiga yanada yangi yondashuvlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov, S.O‘zbek tilining morfologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
2. G‘ulomov, I. Turkiy tillarda grammatik qo‘shimchalar va ularning tizimi. –Toshkent: Fan, 2001.
3. Bek, M. (2010). Turk dili: Morfolojik analizler ve yapıları. Istanbul: Türk Dil Kurumu Yayınları.
4. Köprülü, M. F. (1995). Türk Dili ve Edebiyatı Üzerine Makaleler. Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları.
5. Abdullayev, Z.Turkiy tillarda sintaktik morfologiya. –Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Sezer, E. (2001). Türk Dilbilgisinde Morfolojik Çözümleme. Istanbul: Boğaziçi Üniversitesi Yayınları.
7. Karaköy, F. (2008). Türkçe’de Yardımcı Fiiller ve Morfolojik Yapıları. Ankara: Yükseköğretim Yayınları.

Shahnozahon TULANBAYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

ERTAKLAR MANIPULYATSION STRATEGIYALARNING KO‘ZGUSI SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqola turli xalq ertaklaridagi manipulyatsion strategiyalarni tahlil qiladi. Ertaklar madaniy va axloqiy qadriyatlarni ifodalash bilan birga, murakkab ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi. Maqolada manipulyatsiyaning nutqiy aktlar va lisoniy vositalar orqali amalga oshirilishi hamda ijtimoiy-madaniy kontekstdagi mazmuni chuqur o‘rganilgan. Tahlil manipulyatsiyaning madaniyatlararo umumiy va o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek xalq ertaklari, manipulyatsiya strategiyalari, nutqiy aktlar, lisoniy vositalar, ijtimoiy manipulyatsiya, madaniyatlararo tahlil.*

Аннотация: данная статья посвящена анализу манипулятивных стратегий, встречающихся в узбекских и других народных сказках. Сказки не только отражают культурные и нравственные ценности, но и служат зеркалом сложных социальных явлений. В статье подробно изучается, как манипуляция осуществляется через речевые акты и языковые средства, а также их значение в социально-культурном контексте. Анализ раскрывает универсальные и уникальные особенности манипуляции в межкультурной перспективе.

Ключевые слова: *узбекские народные сказки, манипулятивные стратегии, речевые акты, языковые средства, социальная манипуляция, межкультурный анализ.*

Annotation: this article focuses on the analysis of manipulative strategies observed in Uzbek and other folk tales. Folk tales function not only as mediums for conveying cultural and moral values but also as intricate representations of complex social phenomena. The study thoroughly examines how manipulation is executed through speech acts and linguistic tools, as well as their layered meanings within socio-cultural contexts. The analysis reveals both the universal and unique aspects of manipulation across cultures, shedding light on the subtleties of human behavior and social relationships.

Key words: *Uzbek folk tales, manipulative strategies, speech acts, linguistic tools, social manipulation, intercultural analysis.*

Kirish. Ertaklar nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki insoniyatning axloqiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Ular insonning psixologik xatti-harakatlarini, ijtimoiy muhitdagi munosabatlarini va murakkab qarorlar qabul qilish jarayonlarini o‘rganish uchun noyob platforma hisoblanadi. Ushbu hikoyalarda manipulyatsiya hodisasi muhim o‘rin tutadi, chunki bu qahramonlarning boshqa shaxslar ustidan ta’sir o‘tkazish orqali o‘z maqsadlariga erishishi, ijtimoiy rollarni o‘ynashi va o‘zaro aloqalarni boshqarishini ochib beradi. Manipulyatsiya o‘zining turli madaniy ifodalari orqali dunyoning ko‘plab xalq ertaklarida uchraydi va har bir millatning o‘ziga xos ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Dotsenko (2000) manipulyatsiyani “ijtimoiy va psixologik ta’sir vositasi” sifatida ta’riflaydi, bunda manipulyatsiya subyektning hissiy holati, fikrlash usuli va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish uchun lingvistik va psixologik vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Fedorova (2006) va Pocheptsov (2001) esa manipulyatsiyani ikki asosiy darajada o‘rganadi: birinchisi, sotsiologik daraja bo‘lib, unda ijtimoiy rollar va munosabatlar o‘z ifodasini topadi; ikkinchisi esa kommunikativ daraja bo‘lib, u nutq aktlari orqali ta’sir mexanizmlarini o‘rganishga asoslanadi. Ushbu ikki darajali model xalq ertaklaridagi manipulyatsiyaning ijtimoiy va psixologik ildizlarini ochib beradi.

O‘zbek xalq ertaklarida manipulyatsiya, ko‘pincha, hissiy dramatizatsiya va madaniy qadriyatlarga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, kampirning Malikaning rahmini keltirish uchun haj ibodatini bahona qilib, o‘zini ojiz ko‘rsatishi bu uslubning yorqin namunasi hisoblanadi [2]. Ushbu manipulyatsion akt ko‘pincha emotsional yuklangan so‘zlar va vizual tasvirlarni ishlatish orqali kuchaytiriladi. Masalan, “yig‘lab”, “sinib”, “madori ketib” kabi so‘zlar kampirning qayg‘usini kuchaytirib, tinglovchining empatiyasini qo‘zg‘aydi.

Nemis xalq ertaklarida manipulyatsiya odatda bolalarning zaifliklariga qaratiladi. *Hansel va Gretel* hikoyasida yovuz kampirning “Kommt herein, meine Kinder, und seid nicht schüchtern” (“Kelinglar, bolalarim, uyga kiravering, uyalmanglar”) kabi gaplari bolalarning emotsional zaifligini ekspluatatsiya qilish uchun ishlatiladi [10]. Rus xalq ertaklarida esa manipulyatsiya ko‘pincha kuchli ijtimoiy rollar va ijtimoiy kutilmalarga asoslanadi. Masalan, “Где моя скалка? Я не возьму гуся взамен!” (“Qayerda mening o‘qlovim? Men g‘ozni buning o‘rniga olmayman!”) kabi manipulyatsion gaplar orqali qahramonlar o‘z maqsadlariga erishadi [4].

Manipulyatsion nutqiy aktlar xalq ertaklarida keng tarqalgan. Ekspressiv aktlar qahramonlarning dramatik holatlarni yaratishi orqali boshqalarning rahmini keltirishga asoslanadi. Masalan, kampirning dramatik tarzda qayg‘usini ifoda etishi va Malikaning rahmini uyg‘otishi ushbu strategiyaning samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, komissiv aktlar ham manipulyatsiyaning muhim qismi bo‘lib, ular orqali qahramonlar boshqalarning ishonchini qozonishga harakat qiladi. Nemis xalq ertaklarida, xususan, *Rumpelstiltskin* hikoyasida yovuz qahramonning yordam evaziga qimmatli narsalarni talab qilishi bunga yaqqol misoldir [10].

Mazkur maqola xalq ertaklaridagi manipulyatsiyaning madaniyatlararo o‘xshashliklari va farqlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu tahlil manipulyatsiyaning faqat milliy xususiyatlarini emas, balki uning universalligini ham yoritadi. Ushbu ertaklar, bir tomondan, inson topqirligini ulug‘laydi, boshqa tomondan esa manipulyatsiyaning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Manipulyatsiya xalq ertaklarida ko‘pincha lingvistik vositalar orqali amalga oshiriladi. Maqolamizda turli xalq ertaklaridan olingan har bir manipulyatsiya misolining lingvistik tahlili taqdim etiladi. Tahlil davomida olimlarning tadqiqotlari va nazariyalari bilan bog‘langan holda misollar o‘rganiladi.

. O‘zbek xalq ertaklaridan “Mehrigiyo” ertagida kampir:

“Ey bolam, men ***hajga ziyorat*** *qilgani borgan edim, shu yerga kelganimda* ***eshagimning oyog‘i sinib, tuyaning madori ketib, yiqildi;*** *o‘zim esa,* ***birgina qizim bor edi, uni ko‘ramanmi yoki yo‘lda qolarmikanman,*** *deb* ***yig‘lab*** *o‘tiribman” (Mehrigiyo. O‘zbek xalq ertaklari, 2006).*

Kampir ekspressiv nutqiy aktlardan foydalanib, Malikaning hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatadi. “Yig‘lab” kabi so‘zlar rahm-shafqatni uyg‘otuvchi hissiy dramatizatsiyani kuchaytiradi. Diniy “hajga ziyorat qilgani” degan ibora esa madaniy qadriyatlarga murojaat qilib, manipulyatsiyani kuchaytiradi.

“Эй қўйчи, *мен* сенга бир совға олиб келдим,*”*— дебди. Қўйчи: *“*Нима берайин*?”*— дебди. Тулки: *“Бир* яхши қўзи бериб ола қол*”(Oyjamol To‘plam*).

Tulki direktiv nutqiy aktdan foydalanib, talabni qo‘ychining o‘z xohishi sifatida qabul qilishiga majbur qiladi. F.M. Berezin va B.N. Golovin (1979) manipulyatsion nutqni tinglovchining xatti-harakatlarini boshqarish uchun ishlatilishini ta’kidlaydi. “sovg‘a”-so‘zi rahm-shafqat uyg‘otuvchi tovushli semantikani o‘z ichiga olgan, bu esa manipulyatsion aktni yanada ta’sirchan qiladi.

*“*Какая славная песенка*! Но* ведь я, Колобок, стара стала**,** плохо слышу**;** сядь-ка на мою мордочку да пропой ещё разок погромче*”*(*Russian Folk Tales, 1984*). Tulkining nutqida assertiv va ekspressiv nutqiy aktlar uyg‘unlashgan. “Славная песенка”kabi maqtov so‘zlari tinglovchining e’tiborini susaytirib, uning ehtiyotkorligini kamaytiradi. R.M. Frumkina (2001) lingvistik noaniqlik va diminutivlarning manipulyatsiyadagi rolini ta’kidlab, bunday iboralar manipulyatorning niyatini yashirishga yordam berishini ko‘rsatadi.

Xalq ertaklarida manipulyatsiya ijtimoiy, psixologik va lingvistik vositalarning uyg‘unlashuvi orqali amalga

oshiriladi. Ushbu vositalar qahramonlarning maqsadlariga erishishida nafaqat syujet rivoji uchun, balki ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni aks ettirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Manipulyatsion aktlarning tahlili ko‘plab olimlarning fikrlari bilan bog‘langan holda amalga oshiriladi. F. de Sossyur (1998) ta’kidlaganidek, til jamiyatdagi munosabatlarni boshqaruvchi asosiy vositalardan biridir, bu esa xalq ertaklarida manipulyatsiyaning murakkabligini ochib beradi.

Manipulyatsiya qahramonlarning ijtimoiy mavqelari va rollariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Masalan, *O‘zbek xalq ertaklarida* podsho qushboniga buyruq berganida, uning nutqida direktiv aktlarning aniq ishlatilishi kuzatiladi: *“Shu qushni qanday bo‘lsa ham topasan, topmasang, moling talonda, boshing o‘limda”* [1]. Bu yerda podshoning nutqi orqali manipulyatsion bosim yuzaga keladi, chunki jazoni eslatish orqali qushbonning ruhiy holati zaiflashtiriladi. Dobrovich (1987) manipulyatsiya nutqining ta’sirchanligi ijtimoiy bosim va noaniqlikning uyg‘unligida yotishini ta’kidlaydi.

Psixologik manipulyatsiya qahramonlarning hissiy zaifliklariga asoslanadi. Ingliz xalq ertagidagi *Molly Whuppie* bu jarayonni aniq aks ettiradi. Molly o‘zining manipulyatsion nutqida qo‘rquvni kuchaytiruvchi va chalkashtiruvchi vositalardan foydalanadi: *“I would put you into a sack, and I’d put the cat inside wi’ you..” [5].*Mollyning detallashtirilgan va bo‘rttirilgan tasvirlari velikaning ruhiy holatini o‘z nazoratiga oladi va uni qaror qabul qilishga majbur qiladi. Steven Hassan (2007) manipulyatsiya jarayonlarida psixologik beqarorlik yaratishning asosiy bosqich ekanligini ta’kidlaydi, bu esa ushbu misolda yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek xalq ertaklarida psixologik zaifliklardan foydalanishning yana bir misoli *Ozodachehra va qaroqchilar* hikoyasida kuzatiladi. Ozodachehra o‘z nutqida hurmatni uyg‘otuvchi ekspressiv aktlardan foydalanadi: *“Hurmatli otalar, sizlarning qo‘lingizdan qirq piyola sharob ichsam ham mast bo‘lmayman...”* [2]. Ushbu iboralar qaroqchilarni o‘ziga jalb qilib, ularning ehtiyotkorligini susaytiradi. Dobrovich (1987) bunday nutq aktlarining ijtimoiy va psixologik ta’sirini chuqur tahlil qiladi va bu strategiyaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tilning manipulyatsion qudrati lingvistik vositalar orqali yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Masalan, *Tulki va Bo‘ri* ertagida tulki direktiv aktlardan foydalanadi: *“Эй ўртоқ, туринг, кечаги қўзини сўйган эдим...”[1].* Dobrovich (1987) lingvistik vositalarning manipulyatsion jarayonlardagi muhimligini ta’kidlab, bunday aktlarning tinglovchining qarorlarini boshqarishdagi rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, Ingliz xalq ertagidagi *Molly Whuppie* va velikan o‘rtasidagi muloqot manipulyatsion nutq aktlarining samaradorligini ko‘rsatadi: *“Well, Molly, I’ll just do that to you”[5].* Velikan Mollyning taklifini qabul qilib, manipulyatsiya qurboniga aylanadi.

Ertaklarda madaniy qadriyatlardan foydalanish manipulyatsion aktlarning samaradorligini oshiradi. Masalan, *Kampir va Malika* hikoyasida kampir diniy qadriyatlarga murojaat qilib, Malikaning rahmini uyg‘otadi: *“Ey bolam, men hajga ziyorat qilgani borgan edim...”* [2]. F. de Sossyur (1998) madaniy qadriyatlar til orqali uzatilishini ta’kidlab, bunday vositalar manipulyatsion ta’sirni kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xalq ertaklari inson tafakkurining nodir namunasi bo‘lib, ular nafaqat ko‘ngilochar syujetlarni yaratadi, balki madaniy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va psixologik mexanizmlarni aks ettirish orqali jamiyatning ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi. Manipulyatsion strategiyalar bu ertaklarda voqealarni boyitish vositasi sifatida ishlatiladi va ular til orqali jamiyatdagi kuch dinamikasi hamda insoniy zaifliklarni yoritadi.

Manipulyatsion aktlar turli nutqiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, O‘zbek xalq ertaklarida diniy qadriyatlarga murojaat, rus ertaklarida qat’iy buyruqlar, nemis ertaklarida bolalarning zaifliklarini ekspluatatsiya qilish va ingliz ertaklarida rahm-shafqat uyg‘otuvchi iboralardan foydalanish kuzatiladi. F. de Sossyur (1998) tilni ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi qudratli vosita deb ta’riflasa, Dobrovich (1987) va Dotsenko (2000) manipulyatsion aktlarning psixologik va sotsiolingvistik ta’sirini chuqur tahlil qilgan.

Manipulyatsiyaning lingvistik vositalari, jumladan, ekspressiv, direktiv va deklarativ nutqiy aktlar, xalq ertaklarining ijtimoiy va psixologik qiymatini oshiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalq ertaklari insoniyatning madaniy va psixologik merosi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ularni o‘rganish esa nafaqat lingvistik va badiiy tahlil uchun, balki insoniyatning umumiy madaniy xotirasini chuqurroq anglash uchun ham katta ahamiyatga ega. Ertaklar inson psixologiyasini tushunish va kelajak avlodlarga madaniy qadriyatlarni yetkazishda bebaho manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1..Afzalov, M., Husainova, Z., & Soburov, N. (Eds.)*Uzbek Folk Tales* –Tashkent: UzNashr.1984.

2. Afzalov, M., Husainova, Z., & Soburov, N. (Eds.) *O‘zbek xalq ertaklari*.–Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2006.

3. Berezin, F. M., & Golovin, B. N. *Lingvisticheskie osnovy teorii kommunikatsii* [Linguistic Foundations of Communication Theory]–Moskva: Nauka.1979.

4. Dotsenko, E. L. *Psikhologiya manipulyatsii: Fenomeny, mekhanizmy i zashchita* [The Psychology of Manipulation: Phenomena, Mechanisms, and Defense]– Moskva: CheRo.2000

Barkamol avlod tomonidan o‘tmishga, madaniy merosga hurmat, bu eng avvalo, uning yaratuvchisi, rivojlantiruvchisi bo‘lgan xalq ommasiga ko‘rsatilgan izzat-ikrom, mehr-oqibat demakdir. O‘zining o‘tmish tarixiga, madaniyatiga, tarixiy merosiga, milliy an’analariga katta e’tibor va hurmat bilan qaraydigan xalqning istiqboli porloq bo‘ladi. O‘tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e’zozlasak, hozirgi davrni, mustaqilligimiz istiqboli va ahamiyatini shunchalik chuqur hamda mukammal tushunib, ushbu muqaddas qadriyatimizga tahdid sifatida ko‘rinish berayotgan ayrim yot g‘oyalarga qarshi yoshlar ongida g‘oyaviy immunitetini rivojlantirishning zaruriyligi shunchalik dolzarblashadi.

Barkamol avlodni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalab, ular ongiga milliy g‘oyada belgilab berilgan dasturiy jihatlarni singdirish ham ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, sadoqat va milliy g‘urur kabi xususiyatlarning rivojida muhim ahamiyatga egadir.

Axloqiy qadriyatlar xalq, millat to‘plagan hayotiy tajribalarning majmuidir, ular ijtimoiy-ma’naviy merosning o‘zagi sifatida mudom jamiyat, olim-u fuzalolar e’tiborida turgan. Sharq donishmandlaridan biri degan: “Odam uchun yarashadigan eng go‘zal kiyim bu – odob-axloq kiyimidir. Kishi qiyofasini bezaydigan, uning husniga husn qo‘shadigan bundan ortiq go‘zal kiyimni topish qiyin”.[2]

Shunday ekan, ijtimoiy-ma’naviy merosga bo‘lgan qiziqishning oshishi obyektiv ehtiyojdir, chunki mamlakatimiz ziddiyatlarga to‘la jahon hamjamiyatiga qo‘shilmoqda, demokratik rivojlanishni strategik maqsad deb e’lon qilgan. Mazkur ziddiyatlarga to‘la ijtimoiy borliq va taraqqiyot yo‘li inson va jamiyat, fuqaro va davlat, biznes va manfaatlarga asoslangan vositalar bo‘lishini taqozo etadi. Ana shunday vositalardan biri bu – axloqiy qadriyatlar.

D.Ausubel “Barkamol yosh avlodga xos bo‘lgan qadriyatlarni yaratish xosligini qayd etadi. Bu qadriyatlar yoshlarning o‘ziga, yon-atrofga, oilasiga, tengqurlariga munosabatlarida aks etadi”[3]. D.Kempbell yoshlik davrida shaxs o‘z “men”ini go‘dak tasavvuridan ajratadi, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvlar yoshlar masalasiga har yoqlama munosabatni ifodalaydi.

Axloqiy qadriyatlardagi eng muhim ijtimoiy belgi, ularning umuminsoniy ehtiyojlarga muvofiqligidir. Avlodlardan avlodlarga o‘tib kelgan, har bir jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan, insonni g‘ayriinsoniy illatlardan asraydigan fazilatlar axloqiy qadriyatlar sifatida e’zozlanadi. Axloqiy qadriyatlar, I.Kant e’tirofiga ko‘ra, insonni falakka ko‘tarib ulug‘lash yoki axloqiy fazilatlardan uzoq kishini esa tubanlikka yetaklashi mumkin.[5]

Konfutsiylikda “Oltin oraliq” (“Zolotaya seredina”) murosa prinsipi ham ushbu yondashishga qurilgandir. Konfutsiyning fikriga ko‘ra, “dao” va “tsi” tartiblariga, Osmon talablariga rioya etilsa, kishilararo munosabatlarda, jamiyat va davlatni boshqarishda murosaga erishiladi. “Bu aslida Osmon – Yer, podshoh (hukmdor) – xalq (avom) pog‘onalarida kamolot, murosa o‘rnatish demakdir. Shuning uchun ham o‘zaro murosa, kamolotni donishmand umr bo‘yi amal qilib yashaydigan “so‘z”, prinsip deb e’lon qiladi”. [6]

Barkamol avlod – bu ijtimoiy fazilatlarga, jamiyat ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan axloqiy xislatlarga ega insondir. Kishi jamiyatdagina o‘zligini, fazilatlarini namoyon etganidek, u ijtimoiy-ma’naviy xislatlarini ham ma’lum bir muhitda qaror toptiradi va shu muhitning manfaatlariga, qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun axloq, odob barkamollik va ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot omili sifatida qaraladi.

Barkamol avlodni shakllantirish insondagi ijodiy kuchlarni, intellektual salohiyatni, iqtidorini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Ilm, fan, ijod, texnika sohasida betakror yutuqlarni qo‘lga kiritgan daholarning fazilatlarini ideal sifatida o‘rgangan V.Pekelis: “Daholar sivilizatsiyaning o‘ziga xos taraqqiyot cho‘qqisidir, ular azaldan kishilarni o‘ziga jalb etib, tashvishga solib, hatto qo‘rquv uyg‘otib kelgan. “Chunki odamlar bunday daholarni anglashga o‘rganishmagan” [7], deb yozgan edi.

Yuqoridagi misollar ko‘rsatadiki, har bir kishi ijodiy qobiliyatlarga ega, agar u istasa, hayot va faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etsa, o‘zidan iqtidorini rivojlantirishi, ya’ni ko‘pchilik uchun ijodiy izlanishlarda, ijtimoiy-ma’naviy sohada ibrat, namuna, ideal bo‘lib kelayotgan timsollar darajasiga ko‘tarilishi, hatto ulardan o‘zishi ham mumkin.

Shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va madaniy ijodiy komillikka intilishi, jamiyat ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning bosh omilidir. Biroq bu fikr hamma istagan, har bir kishi istagan bir sohada dohiyona kashfiyotlar, ixtirolar, betakror izlanishlar qila oladi, degan xulosaga olib kelmaydi. Istagan kishi istagan bir sohada yetuklikka erisha olganida idealga hojat qolmasdi. “Agar, – deb yozadi Ibn Rushd, – har bir shaxs (o‘z tabiatiga muvofiq) barcha insoniy yetuklikka erishishi mumkin bo‘lganida tabiat nimanidir to‘g‘rilash mumkin emas xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lardi... Bu ayniqsa, yuksak darajadagi

yetuklikka oid, istagan har kishi jangchi, notiq, shoir yoki ayniqsa, faylasuf bo‘lavermaydi”.[8]

Barkamol avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida sharq axloqiy qadriyatlari inson-jamiyat munosabatlari va hayotining barcha tomonlari bilan bog‘liq fenomen sifatida qaraladi. Hatto, axloqdan yiroq siyosat ham (ayniqsa G‘arb tafakkurida) axloqiy qadriyatlar tizimidagi o‘rni, ularni o‘ziga qanchalik singdirgani bilan o‘lchanadi. Sharqona ma’naviy-axloqiy meros haqida to‘xtalganda ushbu bog‘liqlikni unutmaslik zarur.

Xulosa qilib aytganda, biz bugungi kunda milliy islohotlarning hamma vositalaridan o‘rinli va unumli foydalanishimiz, ta’lim-tarbiyaning uyg‘unligiga erishishimiz, ijtimoiy muhitni har jihatdan sog‘lomlashtirishga harakat qilmog‘imiz lozim, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda esa, ma’naviy-axloqiy yetuklik asosiy omillardan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.47-b.
2. Donishmandlar odob-axloq to‘g‘risida. – Toshkent.: O‘qituvchi. 1986. 26-33-b.
3.Ausubel D.P. Das Jugendalter. Mu’nchen, 1968. 56-s.
4.Tillayeva G.H. Ma’naviyat va komil inson tarbiyasi. – T. Falsafa va huquq, 2006. 33- 52-b.
5.Kant I. Sochineniya v 6 tomax. – T.4.282-s.
6.Alimasov V. Konfutsiylik va Sharq davlatchiligi. – T. Falsafa va huquq. 2006. 15-b.
7.Pekelis V. Tvoi vozmojnosti chelovek. – M.: Znanie,1984.13-14s.
8. Sagadeev A. Ideya garmonicheskoy lichnosti v musulmanskom srednevekovye// Garmonicheskiy chelovek. – M.: Iskusstvo.1965. 48s.
9.Gazzali, Abu Hamid. Nastavleniye pravitelyam. – M. Ansar. 2007. 15-s.
10.Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: “Minhoj” nashriyoti. 2003. 4-b.

Nigora XOLMATOVA,
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi, (PhD)
xolmatovanigoraxon4@gmail.com

DAVRNING IJTIMOIY MUHITGA TA’SIRI

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zamning “Shovqin” romani tahlil qilingan. “Shovqin” romani, davrning ijtimoiy muhitga ta’siri, yozuvchining kinoyaviy uslubi ochib berilgan. “Shovqin” romanida Farhod Ramazon obrazi orqali 90-yillar voqealari, ijtimoiy muhit ta’sirida duragay bo‘lib qolgan insonlar taqdiri, qiyofasiz odamlar fojiasi, siyosatchilar obrazlari sarkazm tarzda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *“Shovqin”, roman, drama, kino, publitsistika, kinoya, sarkazm, Erkin A’zam.*

Annotation: the article analyzes the novel “Shovqin” by the People's Writer of Uzbekistan Erkin A'zam. The novel “Shovqin”, the influence of the era on the social environment, the ironic style of the writer are revealed. In the novel “Shovqin” the events of the 1990s, the fate of people who became hybrids under the influence of the social environment, the tragedy of faceless people, and the images of politicians are sarcastically analyzed through the character of Farhod Ramazan.

Key words: *“Shovqin”, novel, drama, film, journalism, irony, sarcasm, Erkin Azam.*

Аннотация: в статье анализируется роман народного писателя Узбекистана Эркина Азама “Шум”. В романе “Шум”, раскрывается влияние эпохи на социальную среду, иронический стиль писателя. В романе “Шовкин”через образ Фархода Рамазана саркастически анализируются события 1990-х годов, судьбы людей, ставших гибридами под влиянием социальной среды, трагедия безликих людей, образы политиков.

Ключевые слова: *“Шум”, роман, драма, фильм, публицистика, ирония, сарказм, Эркин Азам.*

Kirish. Yozuvchining jahon adabiyotshunosligida badiiy-estetik qarashlarining shakllanishi, voqelikka munosabatini realistik, romantik, kinoyaviy deb o‘rganish, adabiy-badiiy, ijtimoiy-maishiy adabiyotshunoslik tahlili va tanqidida fiqra, ocherk, xotira kabi janrlardan foydalanish, axloqiy mezonlar uzoq vaqtdan beri ta’kidlangan. Binobarin, yozuvchining badiiy publitsistik uslubdan faol foydalanishi, uning ijodiy niyati va badiiy mahoratini, shuningdek, turli asarlar tuzilishini tashkil etishda adabiy-badiiy, ijtimoiy-falsafiy, badiiy-psixologik omillarni ochib berish zarurati tug‘iladi.

Tadqiqotning vazifalari. Muallifning adabiy-estetik qarashlarini shakllantirishda oila, turmush tarzi, ijtimoiy, adabiy muhitning rolini ochib berish;

“Shovqin” romanida yaratilgan satirik badiiy uslub va shu kabi obrazlar, timsol va metaforalarni, muallifning

tanqidiy-satirik pozitsiyasini ochib berish;

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tahlilning analitik, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, psixologik, strukturaviy, germenevtik usullaridan foydalanildi.

Nazariy tahlil. “Shovqin” romani 90-yillar oxirida sovet tuzumining parchalanishi va keksa avlod fojialari talqiniga bag‘ishlangan. Yozuvchining roman satirik uslubidagi obrazlari, milliy e’tiqodlarning buzilishi, millatlarning aralashib ketishi natijasida e’tiqod va an’analarning mavhumlashishi, qiyofasiz odamlar fojiasi qator badiiy maqolalarida ham tanqid qilinadi. Roman tahlili jarayonida shu mavzudagi publitsistik maqolalar ham tahlil qilindi. Xususan, “-ov”, “-ov” ..., “-vich”, “-vich” ..., “O‘zbekcha qachon gaplashamiz?” [10.25] Bu jiddiy muammo maqola va fiqra-esselarda tanqid qilingan. “Shovqin” romani satirik badiiy uslubga asoslangan. Romanda 40 dan ortiq fantastik qahramonlar mavjud. Ular orasida Farhod Ramazon (ssenariy muallifi), Vika (aktrisa), Gulya Lagutina (kinotanqidchi), Elmira Kamolova (kinoshunos), Salmonova Tarona Samed qizi (beva), Gugushidze (metis), Ravshan Akobirov (rejissyor), Gorbachev bor. (Tashqi ko‘rinishi Mixail Gorbachevga o‘xshagan o‘zbek yigiti). Romanda Platon Sokrotovich (demokratik siyosatchi), Adham Delon (taniqli aktyor Alen Delonga o‘xshagan yigit), Mirzo Ramazon, Sobirjon Mansurovich (zamonaviy sovet xalqi obrazi) va boshqalar ishtirok etadi. Yozuvchi “kino” (kino) so‘ziga katta badiiy-g‘oyaviy yuk yuklaydi. Jumladan, romanda E.A’zam kino so‘zidan o‘zak sifatida foydalanib, 50 ga yaqin so‘z yasagan. Kinobobo, kinomomo, kinoarbob, kinokelin, kinoxonim, kinohujjatchi, kinoafsona, kinojanon, kinoboy, kinoulfat, kinoqiliq, kinokatta, kinoqul, kininosafar, kinog‘urbat va hokazo. Yozuvchi “kino” so‘zidan yangi so‘z yaratishda o‘zak sifatida foydalanib, asarning kinoya uslubini tasvirlaydi. Yozuvchi kino sohasida mehnat qilgan qahramonlarning zaif tomonlarini o‘zlari tushgan vaziyatning bema’niligini kuzatish orqali o‘zak kino bilan yangi so‘zlar orqali tasvirlaydi. Qahramonlar hayotni befarqlik bilan yuqoridan tasvirlaganda satirik rejim paydo bo‘ladi.

Romandagi tashqi ko‘rinish jahon yulduzlari hisoblangan mashhur siyosatchilar, dunyoga mashhur faylasuflar, xonanda va aktyorlarga parodiyadir. V.I. Lenin, M. Gorbachyov, Yeltsin, Alla Pugachyova, Ivan Grozniy, Platon, Alen Delon, Diana, Sokrat, Fidel Kastro, Xoja Nasriddin, Shayx San’an. Masalan, romanda daho chol obrazi bor. Yozuvchi Vladimir Ilich Leninga ishonchi juda baland bo‘lgan bu dahoning qahramonligini kinoya bilan tasvirlaydi.

E. A’zam sovet davridan qolgan “dohiy”, “sovet”, “leninchi kommunist” odamlar obrazini timsollaydi va uni baynalmilal chol obrazi bilan uyg‘unlashtiradi. Muallifning “Daholar dardi” maqolasini alohida ta’kidlash joiz. Muallif ushbu maqolasida sovet davri daholariga sig‘inib, soxta e’tiqodli odamlarni tanqid qiladi. E.A’zam “Shovqin” romanida badiiy obraz sifatida baynalmilalchi va daho insonlar obrazini yaratishdan oldin publitsistik maqolasida kinoyali tanqid qiladi. Baynalmilalchi chol Farhod Ramazonni “mafkuraviy mes” deb tan olgan [7.14] Uning ruhiyatida daholardan qo‘rqish hissi bor. Bu qo‘rquv, qaramlik va hukm uni yolg‘on e’tiqodli odamga aylantirdi. Farhod Ramazon o‘zining eskirgan e’tiqodiga qo‘shila olmaydi va uni tanqid qiladi. Romanda Erkin A’zam jamiyatga, jamiyatdagi kamchiliklarga satirik tanqidiy baho berish orqali o‘zining estetik qarashlarini real tasvirlashga muvaffaq bo‘ldi. Shuningdek, ushbu bobda Farhod Ramazon hayoti va taqdiri Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan “Shayx San’on qissasi”ga ramziy parallel sifatida aks ettirilgan. Bizningcha, “Shayx San’on” kabi mashhur qissani, aniqrog‘i, bir avliyo haqidagi hikoyani badiiy matnga kiritishga hamma ham jur’at eta olmaydi. Erkin A’zam bunga jur’at etdi. Roman matnida, xuddi, “Shayx San’on qissasi” voqealariga o‘xshab, bosh qahramon Farhod boshqa millat qiziga oshiq bo‘lib, Ollohning huzurida turmushga chiqadi va oradan yillar o‘tib farzandli bo‘lganini tushunadi. Erkin A’zam “Shovqin” romanida o‘tmish sog‘inchini badiiy ifodalashni maqsad qilmagan, uning boshqa dardlari, qiziqishlari ham bor. Muallif “Shayx San’on” qissasini asar tarkibiga yangi ijodiy izlanish sifatida kiritib, roman kompozitsiyasini Farhod Ramazonov haqidagi fikr va xotiralar tarzida beradi. *“Odamzotning o‘y-xayollari, qilmishi, mashg‘uloti uning qismatiga ta’sir o‘tkazmay qolmas ekan. Deylik, sen nega kelib – kelib Shayx San’onni yozding? Chunki nimasi bilandir o‘shanga yaqin bir yozug‘ boshing uzra ko‘lanka solib turardi. Yanada aniqrog‘i – imkonsiz ishq savdolariga giriftor bo‘lmaganingda, sen shu mavzuga qo‘l urarmiding yoki uni bu qadar ehtiros ila qog‘ozga tushira bilarmiding?! Sen qayda-yu, ming yillar nari yashab o‘tgan jununvash ko‘ngil, uning ilohiy talpinishlari qayda! Ammo o‘rtada sizlarni o‘zaro bog‘laydigan nozik bir rishta bir-biriga talpingan ikki ko‘ngilni bir-biridan judo etadigan kuchlarga qarshi norozilik isyoni yo‘qmidi?! Bu omonsiz muhorabada kim g‘olib kelgani esa ayon. Shayx San’on, Shayx San’on...”* [10.183]

Farhod Ramazon ming yillar avval yashab o‘tgan ajdodi Shayx San’on ruhiyati bilan o‘zining ruhiyati o‘rtasida qandaydir bog‘liqlikni ko‘radi. Natijada Shayx haqida ajoyib ssenariy yozadi.

“Shayx San’on qissasi”ning “Shovqin” romani qahramoni Farhod Ramazon butun insoniyat hayoti qatori Ramazon hayotiga ham o‘xshash ramziy majozdir. “Shayx San’on” qissasi kirish hikoyasi sifatida asar yaxlitligi bilan mazmunan bog‘lanib, adibning badiiy konsepsiyasini ifodalashga xizmat qiladi. U Erkin A’zamning olam, inson va zamon haqidagi badiiy tushunchasini ifodalaydi. “Shayx San’on” ertagi asar tarkibidagi janr xususiyatlariga ko‘ra qissa, ssenariy bo‘lib, Farhod Ramazon ssenariysi qo‘lyozmasida asar tarkibiga kirish hikoyasi sifatida kiritilgan. Bu

kirish hikoyasi ham asosiy voqealarga parallel ravishda berilgan bo‘lib, ular ham yozuvchining g‘oyaviy maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. *Erkin A’zamning “Shovqin” romani tuzilmasida “Shayx Sanon qissasi”ning syujeti, obrazlari va tafsilotlari Insonning sinov dunyosida hamisha gunohkor banda ekanligi ramzidir. Muallif roman qahramoni Farhod Ramazonning taqdiri, kechinmalari orqali tavba qilib, o‘zini izlagan insonning psixologik dramasini chuqur tahlil qilgan.*

Natijalar va muhokama. Maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati Erkin A’zamning adabiy-estetik qarashlariga ilmiy-nazariy ta’rif berishda o‘z ifodasini topib, tadqiqot natijalaridan yozuvchining adabiy portretini yaratishda, shuningdek, ijod psixologiyasi, ijodiy estetik ideallar va monografiyalarda foydalanish mumkin.

Xulosa. Adib romanda “Shayx San’on” haqidagi qissa mazmunidan unumli foydalanib, XXI asr odami hayotiga Shayxning xatolarini va muhabbat yo‘lidagi adashishlarini, har qanday vaziyatda ham o‘zini izlashni parallel qo‘yish orqali romanda yangicha badiiy tasvirga erishadi. “Shayx San’on” qissasi kiritma hikoya bo‘lib, asar kompozitsiyasida hikoyat, ssenariy (janr xususiyatiga ko‘ra), sifatida kiritiladi. “Shayx san’on” asar strukturasiga Farhod Ramazon ssenariysi qo‘lyozmasi usulida kiritilishi bilan birga asosiy voqealarga parallel tarzda berib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Священный Коран. (Автор перевода и комментариев – Алауддин Мансур) – Т.: Чолпон, 1992 - 542 с.
2. Кочхарова М. Художественные слова и пейзажи психики. - Т.: Мухаррир, 2011. - 232 с.
3. Кочхарова М. Шум “Шума”// Ёшлик. 2013. № 1. Страницы 44-45;
4. Кучкарова М. Художественная обусловленность иронии (на материале произведений Э.Агзама) // Преподавание языка и литературы. 2013. №5. С.
5. Шофиев О. Эркин Азам прозаическое искусство. – Ташкент: Qaqnus media, 2019. 172 с.
6. Бесплатный член. Шум. – Ташкент: Узбекистан, 2011. 288 с.
7. Бесплатный член. Избранные произведения: Том 2, рассказы. – Т.: Шарк, 2021. 541 с.

Gulnoza VAISOVA
Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo‘limi
yetakchi mutaxassisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV RIVOJLANISHI

Annotasiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda qiziqishlarning o‘rni, turli munosabat turlaridan foydalanish hamda bolaga foydali va foydali narsalarni o‘rgatadigan va ijobiy tasvirlarni ularning xotirasida qoldiradigan tarbiya shartlaridan foydalanish ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ijobiy tasvirlar, bolalar kognitiv faoliyati, bolalik davri, ijodkorlik davri, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, kognitiv harakatlar, ijodiy faollik.*

Аннотация: в данной статье описывается роль интересов в развитии познавательной активности дошкольников, важность использования разных типов установок, а также значение использования образовательных условий, обучающих детей полезным и полезным вещам и оставляющих в их памяти положительные образы.

Ключевые слова: *положительные образы, познавательная деятельность детей, детство, творческий период, обучение и развитие детей, познавательные действия, творческая деятельность.*

Annotation: this article highlights the role of interests in the development of cognitive activity of preschool children, the use of various types of relationships, and the importance of using educational conditions that teach children useful and useful things and leave positive images in their memory.

Key words: *positive images, children's cognitive activity, childhood, creative period, upbringing and development of children, cognitive actions, creative activity.*

Har bir inson yashar ekan dunyoni bilishning doimiy jarayonida bo‘lib, u boshqa odamlarning nutqini o‘ylaydi, taqlid qilib gapiradi va tushunadi, his qiladi hamda his-tuyg‘ularini baham ko‘radi. Bu qobiliyatlarning barchasi o‘z-o‘zidan emas, balki faol bilim faoliyatida rivojlantiriladi va takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davri ham bu dunyoqarashning bilish va rivojlanish davridir. Bola ularni yetakchi faoliyatga aylanadigan ro‘lli o‘yinda namoyish etadi. U o‘ynab, tengdoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Bu ham ijodkorlik davri. Bola nutqni o‘rganadi, tasavvurga ega bo‘ladi. Bu insonning dastlabki shakllanish davri, uning xatti-harakatlarining oqibatlarini hissiy oldindan sezishning paydo bo‘lishi, o‘zini o‘zi anglash, tajribalarni murakkablashtirish va xabardorlik, yangi his-tuyg‘ular va motivlar bilan boyitish, hissiy-ehtiyojlar sohasi murakkablashadigan davrdir.

Bolaning har bir o‘zlashtirgan harakati, o‘rgangan so‘zlari u uchun yangilik, kashfiyot. Faol kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida o‘z qiziqishini qondirgan bola, bir tomondan, dunyo haqidagi g‘oyalarini kengaytiradi, o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro bog‘liqliklar tizimida dunyoning xilma-xilligini ko‘radi, ikkinchi tomondan, o‘z bilimini rivojlantirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda bola idrokining shakllanishi va rivojlanishi ta’minlanadi. Navbat bilan barcha psixologik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo‘ladi.

Hozirda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish muammosining dolzarbligi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirdi. MTTlarida bolaning har tomonlama shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash ishlari ancha jadallashgan. Bola kognitiv sohasining rivojlanishi turli xil faoliyat turlari orqali amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan. Barcha faoliyat turlari bolaning quyidagi jihatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Bular:

– qiziquvchanlikni rivojlantiradi;
– kognitiv motivatsion sohasini rivojlantiradi;
– kognitiv harakatlarni shakllantiradi;
– bola ongini shakllantiradi;
– bola tasavvurlarini kengaytiradi;
– ijodiy faollikni oshiradi;
– atrof, muhit, odamlar, narsalar xaqidagi g‘oyalarni shakllantiradi.

Buning uchun bolalarni barcha faoliyat turlariga jalb etish yaxshi samara beradi. Faqat kattalar tomonidan bolaning har bir harakati doimiy tarzda nazorat qilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarning kognitiv rivojlanishining yangi sifati – bu kognitiv qiziqishning kuchayishi, barqarorlikning kuchayishi, kognitiv motivlar bilan ifodalanadi. Kognitiv qiziqish maktabgacha yoshdagi bolani muhim munosabatlarga, aloqalarga yordam beradi. Qiziquvchanlik qobiliyati atrofni buyumlarni to‘liqroq bilishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, kognitiv motivlar, ya’ni bolaga xos ehtiyojlar, mayllar, istaklar ham bolani har qanday harakatga undaydi, faollashtiradi.

Kognitiv faoliyatning manbai kognitiv ehtiyoj bo‘lib, bu ehtiyojni qondirish jarayoni noma’lum narsani aniqlash, ochish va uni o‘zlashtirishga qaratilgan izlanish sifatida amalga oshiriladi. Bola ehtiyojlari turli narsalarga yo‘naltirilgan va ayni paytda kerak bo‘lgan narsaga ega bo‘lishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday xilma-xillik ham turli narsalarni bilishga, o‘rganishga undaydi. Predmetlar bilan munosabatga kirishish orqali ularning fazodagi o‘rni, har tomonlama tuzilishi va ahamiyatini o‘zlashtiradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qiziqishlarning rivojlanishi aqliy faoliyat bilan shug‘ullanish istagi ortib borayotganida ham namoyon bo‘ladi. Bola kattalardan ko‘plab savollarni so‘raydi, g‘orlar va hodisalarni taqqoslashni, bahslashishni yaxshi ko‘radi. Kattalar qiziquvchanlikni saqlashlari kerak, bolani aqliy muammoga echim topishga undashlari kerak. Faoliyatning yangi turi – aqliy faoliyat mavjud. Bola harakatni tushunadi, maqsad qo‘yadi, unga erishish yo‘llarini tanlaydi. Bola allaqachon, aqliy rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tmoqda.

Bolalar so‘zni mazmunli idrok etishga odatlanishlari, uning obyektiv mazmunini, qaysi harakat yoki sifat nimani anglatishini tushunishni o‘rganishlari kerak. Bu so‘z o‘ziga xos aniq majoziy mazmunidan ajratib tashlangan umumlashtirilgan tushuncha sifatida shakllanadi. Fikrlashning konseptual yoki og‘zaki-mantiqiy shakli vujudga keladi, ko‘pincha kattalar maktabgacha yoshdagi bolalarda konseptual fikrlash shaklini tezroq rivojlantiradilar, fikrlashning dastlabki ikki shaklini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor bermaydilar. Bu bolalarning aqliy va umumiy aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Fikrlashning konseptual shakli vizual-samarali va vizual-majoziy tafakkur shakllari yaxshi rivojlanganida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Ular konseptual fikrlash asosiga qurilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vazifalari:

I) bolalarda hayot ob'ektlari va hodisalari haqida boshlang‘ich bilimlar tizimini shakllantirish;

2) aqliy faoliyatning ko‘nikma va qobiliyatlarini shakllantirish, bilim qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish;

3) kognitiv qiziqish va qiziqishni shakllantirish;

4) bolalarni aqliy mehnatga o‘rgatish.

Maktabgacha yoshda aqliy tarbiyaning turli xil vositalari qo‘llaniladi: o‘yin, mehnat, konstruktiv va vizual faoliyat va mashg‘ulot.

O‘yin bolalar hayotining amaliyotidir, shuning uchun u avvalambor bola tomonidan ilgari qabul qilingan narsalarni aks ettiradi. Ammo o‘yin davomida bu bilim o‘zgaradi "takomillashtirilmoqda. Nutq tufayli vizual-majoziy vakillik darajasida shakllangan bilimlar nutq rejasiga tarjima qilinadi va shuning uchun umumlashtiriladi. Bilim yangi bosqichga o‘tmoqda - og‘zaki-mantiqiy.

O‘yinda shuningdek, ob'ektlarning xatti-harakatlari, o‘yinchilarning fikrlari bilan almashish, kattalarning maslahatlari va tushuntirishlari tufayli bilimlarni to‘ldirish mavjud.

Bolalarning kognitiv qiziqishlari o‘yinda ham shakllanadi. O‘yin mazmuniga qiziqish voqea-hodisalarning o‘zlariga o‘tkaziladi.

Maktabgacha yosh davrida kognitiv rivojlanish - bu atrof-muhit ta'siri ostida, shuningdek, maxsus tashkil etilgan o‘quv va tarbiya ta'siri va bolaning o‘z tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlash jarayonlarida yuz beradigan sifat va miqdoriy o‘zgarishlarning yig‘indisi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi bir qator ijtimoiy va biologik omillarga bog‘liqdir. Kognitiv rivojlanishni nutqsiz bilan bog‘liqligini M.M. Alekseeva, V.I. Yashin, V. Kojakar va S.A. Kozlova bola barqaror manfaatlarini ta'minlashda pedagogik shart-sharoitlar muhim rol o‘ynashini, D.B. Godovikova kognitiv faoliyatda atrofdagi olamni bilim olishga intilish, bu ham kognitiv ehtiyoj, ham shu bilan qo‘zg‘aladigan bilim faoliyatidir deydi. A.Z Zaporojets aqliy tarbiyaning alohida vazifasini - boshlang‘ich bilimlar tizimini va hayotiy hodisalarini aqliy rivojlanish sharti sifatida qaraydi.

Kognitiv psixologiya butun hissiy jarayonlarni - hissiyotlardan idrok etish, naqshni aniqlash, diqqat-e’tibor, o‘rganish, xotira, konsepsiyalarni shakllanishigacha bo‘lgan oraliqlarni qamrab oladi. Fikrlash, tasavvur qilish, yodlash, til, hissiyotlar va rivojlanish jarayonlarini hamda xulq-atvorning barcha turlarini qamrab oladi. Kognitiv psixologiya - bu bilish jarayoni va ong faoliyatiga yo‘naltirilgan psixologik tushuncha. Kognitiv psixologiya - kognitiv jarayonlarni o‘rganadigan zamonaviy psixologiya fanining bir tarmog‘i. U. Volfgang Kyohlerning (1917) odamsimon maymunlar haqidagi asarlaridan va Jan Piagetning bolalar intellektini rivojlantirish haqidagi kuzatishlaridan (1927) kelib chiqadi. Hatto qadimgi mutafakkirlar ham xotira va fikr qayerda joylashganligini aniqlashga harakat qilishgan.

Xulosa. Har qanday yoshda chaqaloq qo‘llab-quvvatlashga muhtoj. Har bir yangi yutuq uchun siz uni maqtang, yoqimli so‘zlarni ayting. Shunday qilib, bola yanada ishonchli bo‘ladi va har safar sizni mamnun qilish uchun yangi qadamlarni qo‘yadi. Muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, bolalarni qattiq urmang. Insoniylikni namoyish eting va kichkinasiga xatolarini tushunishga yordam bering.

Imkon qadar bolalar bilan muloqot qiling. Siz ularga ertaklar, kulgili hikoyalar, she'rlar aytib berishingiz yoki qiziqtirgan mavzularda suhbatlashishingiz mumkin. Ko‘chada yurib, turli xil narsalarga e'tibor bering va ular haqida nimani bilishini so‘rang. Bola o‘z fikrlarini shakllantirishni, xotira va nutqni rivojlantirishni o‘rganishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Venger L.A., O.M. Dyachenko, R.I. Govorova, L.I. Tsexanskaya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha o‘yinlar va mashqlar. - M .: Ta'lim, 1989 .127-b.

2. Grigoryeva G.G. Maktabgacha yoshdagi bolalarning vizual faoliyati: o‘quvchilar uchun darslik. payshanba ped darslik. Boshliq - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 1998. 272-b.

3. Bolaning maktabga tayyorligini diagnostikasi: Maktabgacha ta'lim muassasalari o‘qituvchilari uchun qo‘llanma / Muallif N.E. Verakslar. - M.: Mozaika-Sintez, 2007 . 112-b.

4. Eysenck M., Keane M. Cognitive Psychology: A Student"s Handbook.

5. Karimova V.M. "Social psychology. Textbook.-T.:"." Science and Technology" Publishing House (2012).

6. Хаитов О.Е., and Н.Х. Лутфуллаева. "Психодиагностика и прикладная психология: Конспект лекций." Т.: ТДИУ (2005).

Uljamol SHERMATOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda duch keladigan muammolar, ularga munosib yechim topish chora-tadbirlari va tabiatga nisbatan mehr-muhabbatini uyg‘otish haqida so‘z boradi. Tabiatdan oqilona foydalanish, yoshlar ongiga ekologik madaniyatni singdirish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, tabiat, ekologik muammo.*

Аннотация: в данной статье говорится о проблемах, с которыми сталкиваются ученики младших классов при формировании экологической культуры, мерах по поиску подходящего для них решения, пробуждении у них любви к природе. Речь шла о рациональном использовании природы, привитии экологической культуры в сознании молодежи.

Ключевые слова: *начальный класс, экология, экологическая культура, экологическое сознание, природа, экологическая проблема.*

Annotation: this article talks about the problems faced by elementary school students in the formation of ecological culture, the measures to find a suitable solution for them, and the awakening of their love for nature. It was talked about rational use of nature, inculcation of ecological culture in the minds of young people.

Key words: *primary class, ecology, ecological culture, ecological awareness, nature, ecological problem.*

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning muhim dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kuning ekologik madaniyati va ekologik ta’lim nuqtayi nazaridan oladigan bo‘lsak, tizimning barcha bo‘g‘inlarini ya’ni maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki muayyan aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ekologik ta’lim - tarbiya natijasida o‘quvchi yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish, ularda tabiatga nisbatan ongli oqilona munosabatda bo‘lish malakalarini tarkib toptirish, ekologik madaniyatni tizimli va izchillikda olib borish dolzarb masalalardan biri sifatida nazarda tutish lozim. Hozirgi kunda ekologiya, tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati nihoyatda beqiyos. Bugungi kunda tabiatdan ongli ravishda foydalanish va o‘quvchilar qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish hamda tejamkorlikka o‘rgatish muhim sanaladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan hurmat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim jarayon hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, biz bo‘lajak o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni bu – atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik tizim barqarorligini ta’minlash, aholi hayoti va salomatligini saqlash, iqlimning o‘zgarishi, suv resurslarning kamayib ketishi, atmosferaning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho‘llashuv jarayonlari bioxilma-xillik va o‘rmonzorlarning qisqarishi, tabiiy boyliklarning sifat va miqdorini oshirish va tabiatni muhofaza qilish bugungi kunning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natija. Ekologik madaniyat – bu tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, muhim omil hisoblanadi. Ekologik madaniyat ekologik muvozanatning buzilishining oldini olish bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tabiat bilan inson o‘zaro aloqaga kirishar ekan, uni tabiiy holda saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, tabiat boyliklarini yanada ko‘paytirish, undagi fojialarning oldini olish, inson madaniyatini yanada yuksaltirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Inson madaniyati o‘zi yashab turgan jamiyatning ijtimoiy va ruhiy holatiga bog‘liq.

Bir so‘z bilan aytganda, ekologik madaniyat ongli ravishda atrofimizni o‘rab turgan barcha muhitga nisbatan bizning ijobiy munosabatimiz, ya’ni tabiat va atrof-muhitni asrash oilada, mahallada, maktabda va jamoalarda shakllanib boradigan qadriyatlarimizdir. Ekologik madaniyat – bu barchamizda ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg‘u va biz uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz lozim. Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodga ekologik madaniyat tushunchasini ongiga singdirib borishimiz kerak. Shu o‘rinda bir qator ekologik muammolar avj olgan.

Shulardan sayyoramizda azon qatlamining yemirilishi, kutilmagan iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta’siri, atmosfera havosining me’yordan ortiq ifloslanishi, unumdor tuproqlar degradatsiyasi, fauna va flora turlarining keskin qisqarishi oqibatida bioxilma-xillikning kamayib ketishi ayni paytda

jahon hamjamiyatining atrof-muhitga nihoyatda hushyorlik bilan ogoh munosabatda bo‘lishini taqozo etmoqda. Shuningdek, toza ichimlik suv tanqisligi masalasi ham o‘tkir muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Vaziyat shu zaylda davom etadigan bo‘lsa, kelajakda dunyoni katta ekologik xatarlar kutayotgani prognoz qilinmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish mohiyati, g‘oyaviy mazmuni, uning qonuniyatlari, samaradorlik shartlari, ekologik ta’lim mezonlarining falsafiy va madaniy kontekstini samaradorlik omillari orqali ishlab chiqish kun tartibidagi masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ekologik ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan obyektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishish va o‘zaro uyg‘unlikni shakllantirish mumkin. Tabiat bilan uyg‘un yashash, inson uning bir bo‘lagi, degan tushuncha va gumanistik g‘oyalarni singdiruvchi ta’limning dasturiy tizimi bugungi kunda o‘zini oqlamayotgandek, nazarimizda. Tabiiy resurslar haqidagi noto‘g‘ri tushunchalarning paydo bo‘lganligi, tugab - bitmas manba degan yondashuvning ustunlik qilishi va tabiiy elementlarni odamga xayolan bo‘ysundirishga bo‘lgan intilishning hali ham barham topmaganligi ekologik muvozanatni buzishga, ekotizimlarni yo‘q qilishga asos bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarga ekologik madaniyatni singdirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etgan holda amaliy - tarixiy bilimlar tizimi bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlash zarur. Bu yondashuv pedagogikada ekologik madaniyatni shakllantirishning zamini bo‘lib xizmat qilgani holda, ekologik ta’lim konsepsiyasiga muvofiq tabiat bilan o‘zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirishga imkon bergan holda “Ekologik madaniyat” omilining tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi.

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va mas’uliyatli yondashuvdir.

Jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni bu – atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik tizim barqarorligini ta’minlash, aholi hayoti va salomatligini saqlash, iqlimning o‘zgarishi, suv resurslarning kamayib ketishi, atmosferaning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho‘llashuv jarayonlari bioxilma-xillik va o‘rmonzorlarning qisqarishi, tabiiy boyliklarning sifat va miqdorini oshirish va tabiatni muhofaza qilish bugungi kunning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida maydonga chiquvchi yaratuvchilik nimanidir o‘zgartirishga, yangilik yaratishga, fikrlashga majbur qiluvchi ehtiyoj hisoblanib, u o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish, ya’ni mustaqil o‘rganish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zini o‘zi anglash va o‘zligini ifodalashga bo‘lgan ehtiyoj o‘quvchilarni o‘z faoliyatida ma’lum bir ijobiy natijalarga erishish, o‘quvchilar jamoasida obro‘-e’tibor qozonish, atrof-muhit ta’siri va uning inson salomatligidagi roli borasida harakatga keltiruvchi vosita bo‘lib, o‘quvchilarda o‘zini o‘zi hurmat qilish, o‘zligini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, tozalikka rioya qilish, gigiyenik talablarni amalda bajarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, bu ma’lum bir vazifani mas’uliyat bilan bajarish orqali ko‘zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi, o‘quvchilarda mas’uliyat hissini shakllantirish orqali ijodiy faoliyatga yetaklovchi ehtiyoj hisoblanadi.

Jumladan, o‘quvchilarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish borasida tabiiy fanlar katta imkoniyatlarga egaligi haqidagi g‘oyalar ilgari suriladi.

N.Bozorovaning tadqiqot ishi talabalarda ekologik madaniyatni shallantirishning ilmiy-pedagogik asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tabiat bilan inson o‘rtasida o‘zaro oqilona mas’uliyatli munosabat tarkib topadi. Shuningdek, ekologik madaniyatning asosiy tarkibiy qismini ekologik ong tashkil etadi. Ekologik ong inson bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ifodalovchi bilim, tushuncha, tasavvur, munosabat, harakatlar majmui deb ta’kidlaydi.

N.Nishonovaning ilmiy-tadqiqot ishida ekologik madaniyatga: “Ekologik madaniyat – bu tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik his-tuyg‘ularning shakllanishi, faol hayotiy nuqtai nazarda turish, ekologik bilimga ega bo‘lishdan iborat” deb ta’rif beradi va uning shakllanish mexanizmini ekologik bilim, ekologik ong, ekologik his-tuyg‘u, ekologik e’tiqod, ko‘nikma, malaka va nihoyat ekologik faoliyat tarzida ko‘rsatadi.

Sh.Avezovning ilmiy-tadqiqot ishida o‘quvchilarning o‘lkashunoslik faoliyatini tashkil etish jarayonida ekologik ta’lim-tarbiya mazmuni bo‘ib, unda asosiy e’tibor o‘quvchilardagi ekologik madaniyat tushunchasining nazariy sharhlanishi va uning o‘lkashunoslik ishlari jarayonida shakllantirilishiga qaratilganligi ta’kidlab o‘tilgan.

N.Ashurovaning ta’kidlashicha, “Ekologik madaniyat” tushunchasi kishilarning tabiatga munosabat darajasini tavsiflaydi. Ekologik madaniyatli kishi tabiatga, atrof - muhitga o‘z tuqqan onasidek munosabatda bo‘ladi. Shuningdek, tabiatni o‘z uyidek ko‘radi, uni doimo e’zozlab, toza, musaffo holatda saqlashga harakat qiladi. Ekologik madaniyatni o‘zlashtirgan o‘quvchi o‘z faoliyatini atrof-muhitni oqilona boshqarish talablariga bo‘ysundiradi, atrof-muhitni yaxshilash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi, uning yo‘q qilinishiga va ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaydi hamda atrof-muhitga inson tomonidan yetkaziladigan

zararlarni kamaytirish borasida zaruriy ishlarni amalga oshiradi. Albatta, bu jarayon inson salomatligi va psixikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmasdan, boshqalarni ham bu borada sog'lom fikr yuritishga undaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy e'tibor atrof-muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global bilimlarga katta ahamiyat beriladi. Bir so'z bilan aytganda, ekologik madaniyat mamlakatimizning ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'lidagi barcha sa'y-harakatlarining o'ziga xos barometriga aylanishiga erishsakkina, bugungi va kelajak avlod uchun sof va musaffo tabiat qoldira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich ta'limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. //Муаллим ҳем узлуксиз билимлендириў. Илмий-методикалық журнал №2 ISSN 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97.
2. Норбўтаев Х.Б. Бошланғич синфларда фанлараро экологик тарбия //Замонавий таълим. 2018. 11-сон. Б. 53-58.
3. SHERMATOVA, U. (2024). ECOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY CLASSES FORMATION OF PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 33, 49-53.
4. SHERMATOVA, U. (2024). Ecological Education Teaching in Primary Class Methodology. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 97-105.
5. Uljamol Shermatova. (2023). DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY CLASS. Open Access Repository, 9(10), 152–157.
6. Shermatova, U. (2020). THE LIGHT OF THE NIGHTS WITHOUT A DAY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(4).

Shahnoza ANDAYEVA,
Texnologiya, menejment, kommunikatsiya instituti (TMCI), katta o'qituvchisi
aminaxon.xushmamatova@gmail.com

TALABALARGA MILLIY QADRIYATLAR TARIXINI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya: ushbu maqola oliy ta'limda o'qitilayotgan talabalarga tarix fanini, xususan, milliy qadriyatlar tarixini qulay va interfaol tarzda o'rgatishga bag'ishlanadi. Maqola tadqiqot ishi tarzida yozilgan bo'lib, unda bir guruh talabalar o'rtasida tarix fanini o'qitish va o'rganish haqida savol-javoblar va tajribalar olib borildi. Tadqiqotda asosan, TMCI instituti talabalari ishtirokchi sifatida qatnashdi, natijalar tahlil qilindi va yoshlarga tarix fani, ayniqsa, milliy qadriyatlar tarixini o'rganishning samaradorligi, ularda milliy urf-odat va an'analarga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning foydalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *metodologiya, milliy qadriyatlar, an'analar, tarix, milliy tarix*

Аннотация: данная статья посвящена обучению студентов высших учебных заведений исторической науке, в частности истории национальных ценностей, в удобной и интерактивной форме. Статья была написана в форме исследовательской работы, в которой среди группы студентов проводились вопросы и ответы, а также эксперименты по преподаванию и изучению истории. В исследовании приняли участие преимущественно студенты института ТМКИ, были проанализированы результаты и польза изучения истории, особенности истории национальных ценностей, верности национальным обычаям и традициям, а также польза формирования патриотических чувств у молодежи.

Ключевые слова: *методология, национальные ценности, традиции, история, национальная история.*

Annotation: this article is dedicated to teaching students of higher education the science of history, in particular, the history of national values, in a convenient and interactive way. The article was written in the form of a research paper, in which questions and answers and experiments were conducted among a group of students about teaching and learning history. The study was mainly attended by students of the TMCI Institute, the results were analyzed and the benefits of studying history, especially the history of national values, loyalty to national customs and traditions, and the benefits of forming patriotic feelings for young people.

Key words: *methodology, national values, traditions, history, national history*

Kirish. Milliy qadriyatlarni o‘rgatish, ayniqsa, o‘quvchilarda o‘zlikni anglash va daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalashda ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyatlarning rang-barangligi va o‘zaro bog‘liqligi tobora kuchayib borar ekan, milliy qadriyatlarni tarixiy ta’lim orqali samarali targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot talabalarga milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishda takomillashtirilgan metodikalar samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot ishi o‘qitishning innovatsion strategiyalariga e’tibor qaratib, ushbu usullar talabalarning milliy merosini tushunish va qadrlashiga qanday ta’sir qilishini aniqlashga bag‘ishlangan.

Tadqiqotda shahar va qishloqlardagi 16 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan TMCI (Texnologiya, menejment, kommunikatsiyalar instituti)da o‘qiydigan 70 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar turli ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rinishlarning ifodalanishini ta’minlash uchun tabaqalashtirilgan tanlab olish yo‘li bilan tanlandi.

Ishtirokchilarga ikki guruhga bo‘lingan holda kvazi-eksperimental dizayn usuli qo‘llanildi: an’anaviy ko‘rsatmalar olgan nazorat guruhi va takomillashtirilgan metodologiya bilan shug‘ullanadigan eksperimental guruh. Takomillashtirilgan metodologiyalar loyiha asosida o‘qitish, multimedia resurslaridan foydalanish va milliy qadriyatlar haqida tanqidiy fikrlash va shaxsiy fikrlashga urg‘u berilgan interfaol muhokamalarni o‘z ichiga oldi. Tadqiqotga asoslangan master-klassda asosan, “pinbord” va “aqliy hujum” metodikalaridan foydalanildi. Aqliy hujum qoidasi:

Hech qanday birga baholash va tanqidga yo‘l qo‘yilmaydi!

Taklif etilayotgan g‘oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki, ajoyib va g‘aroyib bo‘lsa ham – hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma – hamma aytilgan g‘oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O‘rtaga chiquvchini bo‘lma!

Turtki berishdan o‘zingni ushla!

Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko‘p g‘oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g‘oyalarning paydo bo‘lishi uchun ko‘p imkoniyatdir.

Agarda g‘oyalar qaytarilsa, hafa bo‘lma va hijolat chekma.

Tasavvuringning “jo‘sh urishiga” ruxsat ber!

Pinbord (inglizchadan: *pin* – mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Ma’lumotlar yig‘ish

Ma’lumotlar o‘quvchilarning milliy tarix va qadriyatlar haqidagi bilimlarini, shuningdek, milliy o‘ziga xoslikka bo‘lgan munosabatini o‘lchaydigan intervensiyadan oldingi va keyingi so‘rovlar orqali to‘plangan. Bundan tashqari, sifatli ma’lumotlar fokus-guruh muhokamalari va talabalar va o‘qituvchilar bilan suhbatlar orqali to‘plangan.

Tahlil

Nazorat va eksperimental guruhlar o‘rtasidagi farqlarning ahamiyatini baholash uchun statistik usullar yordamida miqdoriy ma’lumotlar tahlil qilindi. Talabalarning tajribalari bilan bog‘liq umumiy naqsh va tushunchalarni aniqlash uchun sifatli ma’lumotlar tematik tahlildan o‘tkazildi.

Natija

Miqdoriy natijalar

Tahlil nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruhning aralashuvdan keyingi ballarida sezilarli o‘sishni ko‘rsatdi. Eksperimental guruh bilimlarni baholash ballari 30% ga yaxshilanganini va milliy o‘ziga xoslikka nisbatan ijobiy munosabat 25% ga oshganini ko‘rsatdi. Bundan farqli o‘laroq, nazorat guruhi minimal o‘zgarishlarni ko‘rsatdi, bilim ko‘rsatkichlari atigi 5% ga oshdi va munosabatda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi.

Sifat ko‘rsatkichlari

Sifat ko‘rsatkichlari miqdoriy natijalarni qo‘llab-quvvatladi, bu eksperimental guruhdagi talabalar o‘zlarini mavzuga ko‘proq jalb qilish va mavzuni yaxshi o‘zlashtirganligini ko‘rsatdi. Yaratilgan mavzular o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish va milliy qadriyatlarga chuqurroq yondashishni o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina talabalar darslarning interfaolligi ularga milliy tarix bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlarini erkinroq o‘rganish va muhokama qilish imkonini berganligini ta’kidladilar.

Munozara

Ushbu tadqiqot natijalari tarix fani orqali talabalarning milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarini oshirishda takomillashtirilgan o‘qitish metodikasi samaradorligini ko‘rsatadi. Bilim va munosabatda kuzatilgan sezilarli yutuqlar, loyihaga asoslangan ta’lim va multimedia resurslari kabi innovatsion yondashuvlar talabalar o‘rtasida milliy o‘ziga xoslik bilan yanada chuqurroq bog‘lanishni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ushbu natijalardan kelib chiqqan holda, o‘qituvchilarga yanada dinamik va qiziqarli o‘quv muhitini yaratish uchun ushbu metodologiyalarni qo‘llash tavsiya etiladi. O‘qituvchilar interfaol va mulohaza yurituvchi amaliyotlarni darslarda qo‘llash orqali talabalarga nafaqat o‘z milliy tarixini o‘rganishga yordam berishlari, balki uning bugungi kundagi hayotlari bilan bog‘liqligini ham qadrlashlarini singdirishlari mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot tarix fani orqali milliy qadriyatlarni samarali targ‘ib qilish uchun o‘qitish metodikasini rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi. Talabalarning faolligi va mavzuni anglashida kuzatilgan sezilarli yaxshilanishlar o‘quv dasturida yanada innovatsion va interaktiv yondashuvlarga o‘tishni targ‘ib qilmoqda. Kelgusi tadqiqotlar milliy qadriyatlarni o‘qitishni yanada yaxshilash uchun ushbu

metodologiyalarning uzoq muddatli ta’sirini va ularning turli madaniy kontekstlarda qo‘llanilishini o‘rganishi kerak. Ta’lim amaliyotini takomillashtirish orqali biz kelajak avlodlarda o‘z milliy merosi bilan mustahkam va mazmunli bog‘lanishni ta’minlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, A. (2018). O‘zbekistonda tarix o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Xalilov, B. (2020). Madaniy meros va milliy o‘zlikni anglash: O‘zbekiston sharoitida tarixni o‘qitish. – Toshkent: Xalq ta’limi akademiyasi.
3. Rahmonov, S. (2019). Maktablarda milliy qadriyatlarni o‘rgatishning uslubiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.
4. Nazarov, U. (2021). Tarix ta’limida milliy qadriyatlarni integratsiyalashning pedagogik strategiyalari. O‘zbekistonda ta’lim tadqiqotlari jurnali, 12(3), 45-58.
5. Saidov, M. (2022). Milliy ongni tarbiyalashda tarix ta’limining o‘rni. – Toshkent: Oliy ta’lim instituti.
6. Toshkent, A. (2019). Tarixiy metodologiya va uning o‘zbek ta’limida qo‘llanilishi. Markaziy Osiyo tadqiqotlari jurnali, 8(1), 20-30.
7. Yunusova, D. (2020). Milliy tarix fanini o‘qitishni takomillashtirish: dolzarb muammolar va yechimlar. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi.
8. Murodov, A. (2023). Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarni o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: Ta’limni rivojlantirish milliy markazi.
9. Jumadullayev, R. (2021). Talaba shaxsini shakllantirishda milliy tarixning ahamiyati. O‘zbekiston Tarixshunoslik jurnali, 15(2), 66-75.
10. Ismoilov, F. (2022). Madaniy-tarixiy ta’limni o‘quv dasturiga integratsiyalash. – Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti.

Zuxra QARSHIBOYEVA
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
Elektron pochta: zaqarshiboyeva@mail.ru

YUQORI SINFLARDA UMUMLASHTIRUVCHI MAVZULARNI O‘RGANISH METODLARI

Annotatsiya: yuqori sinflarda umumlashtiruvchi mavzularni o‘rganish usullari, taklif va mulohazalar bayon etildi. Umumlashtiruvchi mavzularning adabiyot mashg‘ulotlarida tutgan ahamiyati hamda vazifalari xususida ma’lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: *umumlashtiruvchi mavzu, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot, yozuvchi va ijtimoiy hayot, badiiy asarda davr talqini.*

Annotation: the methods of studying review topics in the secondary education, suggestions and comments were explained. Information was provided about the importance and tasks of the subject in literature classes.

Key words: *review topics, socio-political, cultural life, writer and social life, interpretation of the period in the artistic work.*

Аннотация: разъяснены методики изучения тем обзоров в среднем образовании, предложения и замечания. Дана информация о значении и задачах предмета на уроках литературы.

Ключевые слова: *темы обзоров, общественно-политическая, культурная жизнь, писатель и общественная жизнь, интерпретация периода в художественном произведении.*

Yuqori sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasining muhim asoslari amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifasi, mashg‘ulotning o‘z oldiga qo‘ygan mazmuni, ularda qo‘llaniladigan usullardan iboratdir. Prezident Sh.Mirziyoyev

yuqoridagi masalalarni umumlashtirgan holda: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”, - deya e’tirof etib o‘tadi.

Darhaqiqat, adabiyot o‘qitish metodikasi fan sifatida to‘la shakllanishi uchun, ilg‘or tajribalar, ilmiy asoslangan g‘oyalar va mushohadalar lozim bo‘ladi. Xususan, adabiyot o‘qitish metodikasi o‘zining tadqiqot asosiga va xilma-xil vazifalariga egadir. Asosiy vazifalaridan biri, o‘quv dasturiga kiritilgan adabiy asarlarni o‘qitish, o‘rgatish orqali o‘quvchilarga ta’lim berishni va bu ta’limning qonuniyatlarini o‘rgatadi. Shuningdek, adabiyot fani ma’naviyatning yozma shakllaridan biri ekanligi, uning taraqqiyot bosqichlarini, qonuniyatlarini bilmay turib, ta’lim berishdagi ahamiyatini o‘rgatib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, yuqori sinflarda o‘rganiladigan mavzular orasida, eng murakkab bu umumlashtiruvchi mavzulardir. Bunday mavzuga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar davomida tilga olinadigan ijodkorlarning yashagan davri, uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida tutgan o‘rni, ular tomonidan vujudga kelgan adabiy harakatlar haqida o‘quvchilarga ma’lumot berish uchun o‘qituvchidan bir muncha keng nazariy, ilmiy zahira talab qilinadi. Bu ilmlar bevosita tarix, geografiya, san’atning adabiyot fanidan boshqa turlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli, o‘qituvchi umumlashtiruvchi mavzu haqida o‘quvchilarga ma’lumot berishdan oldin mashg‘ulotning ma’lum bir yo‘nalishini belgilab olmog‘i lozim.

Masalan, o‘qituvchi, “XV-XIX asrlar adabiyoti”, besh asrni o‘z ichiga olgan mavzusi haqida ma’lumot berishni maqsad qilgan bo‘lsa, avvalo o‘zbek adabiyoti tarixining ijodiy muvaffaqiyati negizini tashkil etgan omillarini aniqlashi lozim. Bu o‘tilishi lozim bo‘lgan mavzuning yo‘nalish nuqtasini tashkil etadi.

10-sinflar uchun tuzilgan taqvim mavzu rejaga ajratilgan soat atigi 1soatni tashkil etadi. Ko‘rinadiki, bu ajratilgan soat murakkab, juda muhim ma’lumotlarni ham berish imkonini bermaydi.

Birgina XV asr ya’ni Alisher Navoiy yashab ijod etgan davrni olib ko‘raylik.

Xuroson va Movarounnahrda madaniy-adabiy hayot ancha keng miqyosida rivoj topgan davr hisoblanadi. Fan va madaniyatning barcha sohalarida jonlanish yuz bergan bo‘lib, natijada bu o‘lkalarga olimlar, ijodkorlar to‘plana boshlagan. Bunday imkoniyatning yuzaga kelishida mamlakatga hukmronlik qilgan Shoxruh Mirzo, Abulqosim Bobur va Husayn Boyqarolarning o‘rinlari kattadir. Bu davrlarda tarixnavislik, musiqa san’ati, tasviriy san’at maktabi, kitobat san’ati, falsafa, eng muhimi adabiyot eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan. Bu yuksalish, avvalo, Alisher Navoiyning faoliyati va ijodiyoti bilan bog‘liqdir.

Tabiiyki, mavzuning bu jihati bevosita adabiy-tarixiy jarayon bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aynan o‘sha davrda yuz bergan tarixiy voqealar, dunyoviy adabiyot taraqqiyotida XV-XIX asr adabiyotining tutgan o‘rni, yaratilgan asarlarning davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uzviy bog‘liqligi, muhit natijasida adabiy maktab va oqimlarning paydo bo‘lishi kabi muhim masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu o‘rinda, har bir davrda yashagan, ularning yaratgan asarlari yozuvchining tarjimayi holi, yuqoridagi masalalar haqida ma’lumot beruvchi birinchi manba hisoblanadi.

“Ijodkor tarjimayi holi, uning shaxsiyati bevosita xalqimiz tarixi, madaniyati va ma’naviyati bilan uzviy bog‘liqdir. U o‘zi yashagan davri misolida ko‘rgan, bilgan voqealar ta’rifini qalamga oladi. Shuningdek, ijodkorning o‘zi yashagan davrda tutgan o‘rni va mavqeyini ham belgilab beradi”. Shuningdek, ular tomonidan yaratilgan badiiy, tarixiy, tasavvufiy asarlarda, ular tasvirlagan voqealar yozuvchi yashagan davrning muhitini ochish barobarida, o‘quvchilarga ham, har bir davr haqida ma’lum taassurot uyg‘otadi.

Davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida yozuvchilarning o‘zlari yozib qoldirgan tarjimayi hollarida qayd etilgan ta’lim olgan o‘quv dargohi, o‘sha davr ta’lim tizimi haqida ham ma’lumot beradi. Masalan, Alisher Navoiy Mashhad, Samarqand madrasalarida tahsil olgan bo‘lsa, ayrim ijodkorlar xususiy ustozlar qo‘lida tahsil olganlar. Ijodkorlarning tahsili bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘quvchilarga o‘tilishi ta’lim maskanlari, dastlabki ibtidoiy boshlang‘ich maktablari haqida tushunchaga va tasavvurga ega bo‘ladilar.Yoki, ijodkorlarning ijtimoiy kelib chiqishi, nasl-nasabi, mavqeyi haqidagi ma’lumotlar xalqning turli tabaqalarga ajratilganligini ifodalaydi. Masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar yuqori martabaga mansub xonadonda voyaga yetgan va shu muhitda ijodkor darajasiga ko‘tarilgan masalalar, Alisher Navoiy o‘zining kelib chiqish shajarasi haqidagi ma’lumotni keltirar ekan, ota-onalarining temuriy xonadoniga yaqinligi haqida quyidagilarni yozadi:”…ota-onadan yetti pushtg‘a deg‘incha bu rafe’ dudmonning boyri bandasi va bu vase’ ostonning mavrusiy tug‘masi…erdi:

Otam bu ostonning hokbezi, Onam ham bu sarobuston kanizi.

Yoki,Tarixchi Hasanxo‘ja Nisoriy Muhammad Boburning kelib chiqqan shajarasi haqida shunday yozadi: “Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va

shijoatlisi edi”, -deydi. Shu qabilidagi ma’lumotlar Alisher Navoiy tomonidan ham aytilgan. Ularning adabiyot, ijod olamiga kirib kelishida mavjud bo‘lgan imtiyozlar va imkoniyatlar ularning ijod qilishlariga va yaratgan asarlarining keng tarqalishiga imkon bergani haqida ham keng ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, yuqoridagi ijtimoiy tabaqaga butunlay qarama-qarshi, oddiy xalq afgor ommasidan yetishib chiqqan Boborahim Mashrab, Muhammad Sharif Gulxaniy, Muqimiy, Maxmur kabi ijodkorlarning tarjimayi holi haqidagi ma’lumotlar bevosita xalqimizning ular yashagan davrdagi turmush-tarzi, hayoti haqida o‘quvchilarni xabardor qiladi. Masalan, Boborahim Mashrab umrining ko‘p qismini sarson-sargardonlikda o‘tkazib, qo‘nimsiz hayot kechirgan shoir, o‘z asarlarini tartibga solib devon tuza olmagan.

Umuman olganda “Yozuvchi, san’atkor oddiy kishilardan shu jihati bilan farq qiladiki, uning asarlarida hayot hodisalari, dalillar faqat qayd etilibgina qolmaydi. Har gal biror hodisa, fakt haqidagi hikoya yozuvchining, san’atkorning shu narsaga, hodisaga, pirovardida kishilarga ijobiy yoki salbiy munosabati bilan sug‘orilgan bo‘ladi. “Bu munosabat omili shunchalik muhimki, faqat ugina bizga hodisa haqida haqqoniy, mukammal yorqin tasavvur bera oladi”, - deyilgan fikrda aynan “munosabat omilining” muhimligi e’tirof etilar ekan, bu davr bilan xalq hayotining tasviri bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, yuqori sinflarda o‘tiladigan umumlashtiruvchi mavzular ma’lum bir mavzuning yo‘nalishini belgilab olishni talab qiladi. Odatda umumlashtiruvchi mavzular o‘qituvchining ma’ruzasi orqali amalga oshiriladi. Umumlashtiruvchi mavzuga oid o‘qituvchining ma’ruzasi jarayonida o‘quvchilarni toliqtirib qo‘ymasligi uchun mashg‘ulot jarayonida ularni faollashtirishga oid qisqa suhbat usulidan foydalanish mumkin. Suhbat uchun beriladigan savollar bevosita o‘quvchilarning shaxsiy, mavzu doirasidagi bilim zahiralarini aniqlashtirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki umumlashtiruvchi mavzularda berilgan ma’lumotlar bevosita boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Metodist olim Boqijon To‘xliyev o‘z tadqiqotlarida adabiyot ilmi, uni o‘qitish usullari fanining boshqa fanlar bilan aloqasi xususida so‘z yuritar ekan, xususan umumlashtiruvchi mavzular haqida ma’lumot berishda fanlararo o‘zaro aloqalar muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlaydi: “Ayrim asarlarning yaratilishi, asar muallifi, asardagi qahramon va obrazlar, unda tasvirlangan voqea-hodisalar mohiyatini chuqurroq anglash uchun tarixiy sharoit va geografik muhitni bilish zarurati ham paydo bo‘ladi.Musiqa,teatr,kino, tasviriy san’at va boshqa san’at turlari bilan aloqadorlik haqida gapirishga hojat yo‘q”.

Haqiqatan ham, badiiy adabiyot ularni yaratgan ijodkorlari har bir davrning mahsuli, faol ishtirokchisi hisoblanadi. Birgina, “O‘zbek adabiyoti tarixi” qismini olib ko‘raylik. Xalqimiz o‘tmishining ma‘naviyati, ma‘rifati haqida tushuncha beradigan asosiy manbadir. Ammo, chuqurroq mushohada qilinsa, bu manbalar xalqimiz etnografiyasini, tarixini, geografiyasini, san‘at turlarini, tarixiy mavzularda yaratilgan sahna asarlari, ya‘ni kino, teatrni o‘z ichiga qamrab oladi.

Adabiyot o‘qituvchisi yuqorida tilga olingan fanlararo aloqalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lmas ekan, umumlashtiruvchi mavzularni o‘quvchilarga talab darajasida yetkaza olmaydi.

Demak, adabiyot mashg‘ulotlarida umumlashtiruvchi mavzularning samarali darajada olib borish, bevosita keyingi mashg‘ulotlarning mazmundor, ayni paytda amaliy jihatdan ko‘mak berishida katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Boqijon To‘xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi– Toshkent, 2010
2.Qunduzxon Husanboyeva. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta‘lim– Toshkent, 2022
3.Mahkamoy Tursunova. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi–Samarqand, 2022
4.Zuxra Qarshiboyeva. Nutq odobi va bugungi kun yoshlari nutqi. Til va adabiyot.uz. 2024-yil 2-son.

Shavkatbek AHMEDOV,
ADPI katta o‘qituvchisi

MASOFAVIY TA’LIM ASOSIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O‘QITISHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqola dolzarb muammolardan biri hisoblangan masofaviy ta’lim tizimi va ularni tashkil etishda qo‘llaniladigan axborot kommunikatsion texnologiya vositalari xususida yortilib beriladi. Masofaviy ta’lim tizimini tashkil etishda ishlatiladigan axborot kommunikatsion texnologiyalar va ularning bugungi kundagi ahamiyati, ularning ushbu tizim faoliyatida qo‘llanilishining afzallik jihatlari ham ushbu maqolada ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, elektron ta’lim, axborot oqimi, masofaviy ta’lim, vizual, auditoriya, kognitiv psixologiya.*

Аннотация: в статье рассмотрены системы дистанционного образования, которые считаются одной из актуальных проблем, и инструменты информационно-коммуникационных технологий, используемые в их организации. В данной статье рассмотрены информационно-коммуникационные технологии, используемые при организации системы дистанционного образования, их значение на сегодняшний день, а также преимущества их использования при работе этой системы.

Ключевые слова: *система образования, электронное образование, информационный поток, дистанционное образование, визуальное, аудитория, когнитивная психология.*

Annotation: the article focuses on the distance education system, which is considered one of the urgent problems, and the information and communication technology tools used in their organization. The information and communication technologies used in the organization of the distance education system and their importance today, as well as the advantages of their use in the operation of this system, are considered in this article.

Key words: *education system, e-learning, information flow, distance learning, visual, audience, cognitive psychology.*

Kirish. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o‘zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo‘lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda.Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta’tilda ham ta’qib etadi.Inson axborot ta’siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o‘rganish axborotlarni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi.Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi.Ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.Ta’lim tizimida masofadan o‘qitish uslubi shakllari qo‘llanilmoqda.Masofaviy ta’lim uslubi bu sirtqi o‘qishning yangi shakli va mustaqil o‘qishdir. Bu insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O‘zbekistonda masofaviy ta’limning yagona tizimini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi masofaviy ta’lim muammosining ilmiy adabiyotlarda keng yoritilishiga yordam berdi. “O‘zbekiston ta’lim to‘g‘risida” gi qonun “elektron ta’lim” va “masofaviy ta’lim texnologiyalari”kabi tushunchalarning talqinini beradi. Konsepsiya “masofaviy ta’lim” atamasining birinchi rasmiy ta’rifini o‘z ichiga oladi, uning asosiy tamoyillarini tavsiflaydi. Masofaviy ta’limdan foydalanish imkoniyatlarining qonunchilikda mustahkamlanishi oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim tizimini joriy etish bo‘yicha nazariy va amaliy tajriba to‘planishiga xizmat qiladi [2,5].

Adabiyotlar tahlili. Chet ellik tadqiqotchilarning ishlari masofaviy ta’limning rivojlanishiga hissa qo‘shdi. B. Xolmberg tadqiq etilayotgan masala sohasidagi ilk nazariyotchilardan biridir. Muallif o‘zining eng mashhur asari - Empatiyaga asoslangan masofaviy ta’lim nazariyasida e’tiborni “didaktik” sifatdoshidan tushunchaga qaratadi. M.G.Mur masofaviy ta’limni “o‘quv faoliyati o‘quv faoliyatidan alohida amalga oshiriladigan o‘qitish usullari majmui” deb ta’riflagan... shunday qilib, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqani bosma, elektron, mexanik va boshqa vositalar yordamida osonlashtirish mumkin”. Kelajak, - deb yozadi B.S. Gershunskiy, - har bir insonning shaxsiy fazilatlarini, uning bilimlari, ko‘nikmalari, dunyoqarashi va xulq-atvori ustuvorligini, shuning uchun pirovard natijada jamiyatning, umuman sivilizatsiyaning iqtisodiy, axloqiy, ma’naviy salohiyatini oldindan belgilab beradi” [4].

V. Thurmond, K. Wambach, G.R. Konnors va B.B.

Frey pedagogik o‘zaro ta’sirning bo‘linishi haqida 4 tur bo‘yicha masofaviy ta’lim shartlari: talaba - o‘quv kursining mazmuni; talaba - talaba; talaba - o‘qituvchi; talaba interfeys. Grebenyuk T. B. va Bulan I. G. masofaviy ta’limda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik modelini ishlab chiqdi. Bu model asosida o‘zaro ta’sirning birinchi turi “talaba - kurs mazmuni”, talabaning o‘zaro ta’siri va onlayn kurslarda taqdim etiladigan tarkibi, tarkibning ravshanligini o‘z ichiga oladi. Bu yerda vaqt va muhit ushbu o‘zaro ta’sirning samaradorligi darajasini belgilaydi. Tony Bates, masofaviy ta’lim bo‘yicha eng mashhur olimlardan biri hisoblanadi. U o‘zining “Teaching in a Digital Age” kitobida masofaviy ta’limning muhimligini, texnologik, texnologiyaning o‘quv jarayoniga ta’sirini, ta’limning interaktiv va ishlab chiqarishlarga samarali bo‘lishi zarurligini ta’kidladi. Bates, va masofaviy ta’lim “o‘qituvchi” roli qanday o‘chirishni ham tadqiq qilgan. Michael Moore, masofaviy ta’limning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning “Transactional Distance Theory” konsepti masofaviy ta’limdagi “masofalik”ni yordamga yordam beradi. Moore ta’ yuqoricha, masofaviy ta’limda o‘quvchi va o‘qituvchining o‘ziga xos “masofalik” o‘qitishning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi, bu esa o‘qituvchining darsga aralashuvi va talabalar bilan aloqasini oshirishga bog‘liq.

Richard E. Mayer, kognitiv psixologiya va o‘quv jarayonini o‘rganish bo‘yicha olim.U o‘zining “Multimedia Learning” nazariyasida, masofaviy ta’limda vizual va auditoriya materiallardan qanday samarali boshqarishni ko‘rsatadi. Mayerning fikriga ko‘ra, masofaviy ta’limda o‘quvchilar uchun samarali multimedia materiallar, masalan, video, grafiklar va animatsiyalar yordamida ta’limni yanada samarali qilish mumkin [3,6].

Tahlil va natijalar. Ko‘pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o‘qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqa sohalarni aytishimiz mumkin. Quyida biz ushbu texnologiyalarning qisqacha, lekin asosiy bo‘lgan tavsiflarini keltiramiz.

Masofadan o‘qitishning afzalligi shundaki, unda o‘quvchi o‘ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko‘pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o‘zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar. Masofadan o‘qitishning yana bir afzallik tomoni unda o‘qish muddatini o‘quvchi o‘zi belgilaydi, ya’ni talaba ixtiyoriy paytda o‘qishni boshlaydi, materiallarni o‘qituvchi nazoratida o‘zlashtiradi.O‘zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O‘quvchi berilgan programmani qanchalik tez o‘zlashtirsa, shunchalik tez o‘qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Programmani o‘zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o‘qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi [8: 28-31;11].

Masofaviy ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishning yangi istiqbollarini ochadi, bu esa asosan o‘quvchilarning o‘quv materiallari bilan o‘ziga mos rejim va hajmda bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishiga asoslanadi. Bir tomondan, an’anaviy yuzma-yuz o‘qitishni to‘liq shaxsiylashtirish mumkin emas, talabaning imkoniyatlari darajasiga (iste’dod, sog‘liq va boshqalar) qarab, u muayyan faoliyat turlarini o‘zlashtira oladi va bajara oladi, ijodiy darajaga erishadi. Motivatsiyaning yuqori darajasi. Boshqa tomondan, o‘qituvchilar kunduzgi ta’lim jarayonida (asosiysi, ularning ta’lim salohiyati ko‘pincha auditoriya chegarasi, ajratilgan vaqt va boshqalar bilan cheklanadi), masofadan turib o‘z kasbiy resurslaridan foydalanishdan uzoqdir, ular ta’lim olmaydilar. Ushbu guruh talabalari tomonidan kursning ma’lum bo‘limlarini o‘zlashtirish muvaffaqiyati haqida ishonchli kundalik fikr-mulohazaga ega bo‘lish ko‘pincha faqat nazorat faoliyatida o‘rganiladi.

Chet mamlakatlarida masofaviy ta’limni shakllantirish va rivojlantirish muammolarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda dunyoda masofaviy ta’limni amalga oshirishda ma’lum ijobiy tajriba to‘plangan.Bugungi kunda masofaviy ta’lim texnologiyalari talabalarning maxsus kontingentlari (nogiron bolalar, chekka hududlarda yashovchi bolalar, yuqori darajadagi iqtidorli bolalar) uchun zarurligi barchaga ayon.Ommaviy maktab uchun masofaviy texnologiyalar kelgusi yillarda ixtisoslashtirilgan ta’limni amalga oshirishda, o‘quvchilarga ta’lim mazmunini individual ravishda rivojlantirish va ayrim fanlarni chuqur o‘rganish imkoniyatini ta’minlashning turli shakllarida eng muhim hisoblanadi. Masofaviy ta’lim (yoki tashqi ta’lim) va an’anaviy ta’lim uchun umumiy bo‘lgan narsa va asosiy farq nima ekanligini ta’kidlash kerak.Faqat bitta umumiy narsa bor - o‘qituvchilar va o‘quvchilar bir-biridan uzoqda.Va farq shundaki, masofaviy ta’lim (yoki tashqi ta’lim) deyarli butunlay

talabalarning mustaqil faoliyatiga asoslanadi, kamdan-kam (epizodik) maslahatlar va nazorat tadbirlari bundan mustasno, stajyor tomonidan uzatilgan (yuborilgan) o‘quv qo‘llanmalaridan mustaqil foydalanishga yo‘naltirilgan [13:75-81].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari masofaviy ta’limni yanada moslashuvchan, qulay va samarali qilish, an’anaviy ta’lim tizimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish va kelajakdagi innovatsiyalarga yo‘l ochish orqali uni kengaytiradi. Axborot texnologiyalari masofaviy ta’limni kengaytirish va kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular kontentni yetkazib berish, o‘zaro aloqani rivojlantirish va turli hududlarda yashaydigan o‘quvchilar uchun foydalanish imkoniyatini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich, Axmedova Barno Abdiyevna.Econometric modeling and forecasting of educational services to the population of the region. To Secure Your Paper As Per UGC Guidelines We Are Providing A Electronic Bar Code. Volume 10, Issue 01, Pages: 241-251. ISSN 2456 – 5083. 2021/1

2. H.S.Muxitdinov, Sh.H. Muxitdinov, L.N. Khudoyorov, F.A. Norqobilova, M.R.Ochilov. "Econometric Modeling Of Public Service Networks” PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2020) 57(8): 625-632 ISSN: 00333077. Article Received: 18 October 2020, Revised: 3 November 2020, Accepted: 24 December 2020. www.psychologyandeducation.net

3. Мухитдинов.Х.С., Раҳимов А.Н., Мухитдинов.Ш.Х. Аҳолига хизмат кўрсатиш тармоқларини имитацион моделлаштириш “Иқтисодиёт ва таълим” илмий-амалий журнал №3 –Тошкент, 2020.151-153-б.

4.Барно Абдиевна Ахмедова, Raqamli iqtisodiyotda ta’lim xizmatlarini takomillashtirish. O‘ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TA’LIM-TARBIYA VA ILM-FAN SOHALARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI, 2022/5, Страницы 644-646

5. Abdievna, Axmedova Barno. "USE OF PROGRAMMING LANGUAGES IN SOLVING TECHNICAL PROBLEMS.

6. Akhmedova, Barno. "Ways To Improve The Quality Of Educational Services Using ICT." Eurasian Journal of History, Geography and Economics 8 (2022): 34-38.

7. Барно Абдиевна Ахмедова, Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim xizmati sifatini oshirishda ekonometrikadan foydalanish metodikasi. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ, 2022, Том 1 Номер ¼ Страницы 42-45

8. Барно Абдиевна Ахмедова, Рақамли иқтисодиёт шароитида таълим хизмати сифатини оширишнинг моҳияти ва вазифалари, ЎзМУ ХАБАРЛАРИ, Том 1 Номер 1/6/1 Страницы 28-31

9. Даминова Б. Э, СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ МНОГОУРОВНЕВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ, “Экономика и социум”том 2, №1(104), ст-611-614

10. Yusupov, M., Khasanova, S. H. (2020). Численные решения нелинейных интегродифференциальных уравнений. Таълимда замонавий ахборот технологиялари, 2(2), 174-176

11. Yusupov, M., Tazhibayeva, R., Ziyaeva, S., Kubyashev K. (2021). Numerical modeling of the salt-transfer problem in soils. E3S Web of Conferences, 264, 01005

12. Рахманкулова, Б. О., Юсупов, М., Мирзаев, С. С. (2021). Numerical simulation of vehicle dynamics problems. Международный научный журнал “Научные горизонты”, 2(42), 111-120.

13. Юсупов, М., Мирзаев, С., Рахманкулова, Б. Международный научный журнал “Научные горизонты”, 2(42), 75-81

14. Mirzaev S.S., Kholmatova I., Shadmanova G., Yusupov M. and Kubyashev K. Numerical modeling of two-dimensional two-phase filtration under frontal drive. Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering (CONMECHYDRO - 2020). Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers. 23-25 April, (2020)

15. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical simulation of nonlinear vibrations of discrete mass with harmonic force perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75.

Muxiba ARABOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Amaliy rus tili fani o‘qituvchisi
Elektron pochta arabova7688@gmail.com

TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqola ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mavzusini ochib beradi. Shuningdek, maqolada ta’lim va tarbiya jarayonining uzviy bog‘liqligi va ushbu jarayonlarda metodlarning ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy bilim, pedagogik madaniyat, o‘quv-tarbiyaviy faoliyati, ijtimoiy taraqqiyot, “Ta’lim metodi”, g‘oyaviy. ahloqiy, irodaviy xislatlar.*

Аннотация: в данной статье раскрывается тема теории и методики воспитания и обучения. Также в статье широко освещена интегральная связь процесса воспитания и обучения и значение методов в этих процессах.

Ключевые слова: *современные знания, педагогическая культура, образовательная деятельность, общественное развитие, “воспитательный метод”, идеологический. моральные, волевые качества.*

Annotation: this article opens the topic of the theory and methodology of education and upbringing. Also, the article extensively covers the integral relationship of the education and upbringing process and the importance of methods in these processes.

Key words: *modern knowledge, pedagogical culture, educational activity, social development, "Educational method", ideological. moral, volitional qualities.*

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, − degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz[1]. Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va kollej, texnikumlar hamda oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadiriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz. Hozirgi davrda metodika fani pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, umumiy kasb tayyorgarligikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Metodika fanlaridan ma’lumotga ega har bir talabgor, qaysi fan mutaxassisi bo‘lib yetishishidan qat’iy nazar o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilimlar va ko‘nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talablarini bilishlari lozim. Metodika fani talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini aniqlaydi[2]. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta’lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bunda maorif va pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyot ekani hisobga olingan. Ta’lim amaliyoti, shuningdek, ta’limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta’limotlarni tavsiflaganda shu ta’limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan. Ta‘lim jarayoni - o‘quvchi (talaba)ning bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha tuliq bo‘lmagan bilimdan ancha to‘liq, aniqroq va chuqurroq bo‘lgan bilim tomon sodir bo‘ladigan jarayondir[3]. Bu o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. O‘qituvchi bilim egallash yo‘llarini o‘quvchi-talabalarga ko‘rsatadi, ya‘ni kishilik jamiyati tomonidan bor, hamda bunday bilimlarga ega bo‘lmagan bola ongida vositachilik qiladi. O‘qituvchining faoliyati tufayli ta‘lim puxta o‘ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. O‘quvchi talabalar ta‘lim jarayonida olamni bila borib, o‘zlari uchun ilgari noma‘lum bo‘lgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyotida tekshirib ko‘rilgan yangi narsalarni bilib oladilar. Demak o‘quvchilar ta‘lim jarayoni orqali bilim bilan qurollanadi.

Ta’lim jarayoni ikki faoliyat o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba) larning birgalikdagi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Demak, ta‘lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega, chunki unda ikki tomon o‘qituvchi va o‘quvchi qatnashadi. O‘qituvchi ta‘lim jarayonini tashkil etish uchun o‘quv materialini tanlaydi va ta‘limni tashkil etish yo‘llarini belgilaydi. U ta‘lim jarayonida o‘quvchi (talaba) faoliyatini boshqaradi va rahbarlik qiladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilishdan, o‘quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o‘quvchi-talabalarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim,

ko‘nikmalarini tekshirish, rag‘batlantirish va bilim darajalarini xolis baholashdan iboratdir. O‘qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, u ta‘limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan umumiy didaktik prinsiplarni qanchalik to‘g‘ri amalga oshirishiga bog‘liq[4]. O‘qituvchining faoliyati ta‘lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o‘qitadi, ta‘lim beradi. O‘qitish jarayonining ikkinchi tomoni o‘quvchining faoliyati bo‘lib, u o‘quv fani materiallarini o‘zlashtirishdan iborat. O‘quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, ya‘ni u o‘qituvchi bergan bilimni o‘qib, tushunib oladi. O‘qitish bilishdan farqli o‘laroq o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Ta‘limning asosiy maqsad, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Metod, bir tomondan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o‘qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi. Ta’lim metodlari doimo u yoki, bu o‘qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o‘zaro shartlanganligini ta’kidlash joiz. Chizmadan anglanib turibdiki, ta’lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta’lim vositalari. Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o‘qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta’lim maqsadi o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta’lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo‘naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta’lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi. Bu funksiyalar ta’lim metodini qo‘llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o‘zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funksiya o‘qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi. “Ta’lim metodi”atamasi bilan birga ko‘p hollarda “metodik usul”(sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo‘llaniladi. U ta’lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta’riflanadi. Har bir ta’lim metodi muayyan ta’lim usullarini chog‘ishtirish orqali joriy etiladi.

Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o‘qituvchi faoliyatida tez-tez qo‘llaniladigan usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin: Har bir metod ma’lum ta’limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo‘lishi mumkin[5]. Universal ta’lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta’lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin. Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil e’tish masalalarini o‘rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog‘langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o‘sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsahkamlashadi. Tarbiya, rivojlanish, o‘qitish, ta’lim avlodlar o‘rtasida ma’lumot uzatish vositalaridir.

Ta‘lim tufayli jamiyatning yaxlit va uyg‘un organizm sifatidagi faoliyati asta-sekin rivojlanib, rivojlanib, to‘laqonli bo‘lishi mumkin. Ta‘lim har bir shaxs uchun yuqori darajadagi rivojlanishni ta‘minlaydi, bu esa o‘rganishni obyektiv muhim, mazmunli, jamiyat va shaxs uchun mazmunli qiladi. Insonning tarbiyasi va ta'limi bevosita mavjud bo‘lgan tarixiy davrga va muayyan sharoitlarning xususiyatlariga bog‘liq. Turli sivilizatsiyalar, davrlarda o‘qitishni tashkil etish o‘ziga xos va individualdir. Bu avloddan avlodga uzatiladigan ma’lumotlarni tanlashga ham, ta’limotga ham, stajyorning ongiga ham ta’sir qiladi[6].

Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ko‘p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o‘z ta'sirini o‘tkazgan. Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

- Tushuntirish (hikoya qilish, o‘rgatish).
- Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
- Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, yaxshiliklar haqida so‘rash, o‘rnak bo‘lish).
- Nasihat qilish, o‘git (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash va hokazolar).
- qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo‘rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e‘tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya'ni, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Bu holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o‘g‘iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordi-yu, bu holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e'tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so‘nggi chora sifatida qoralash va jazo metodidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Biroq, bu

eng so‘nggi chora. Zamonaviy pedagogika g‘oyalariga ko‘ra qoralash va jazo metodlarini so‘nggi, aniqrog‘i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bolalarni tarbiyalash va o‘qitish muayyan maqsadlarga ega bo‘lishi kerak va ma’lumotlarni uzatish qandaydir rivojlangan tizim doirasida optimal bo‘lishi kerak, buning natijasida qamrov to‘liq va chuqur bo‘ladi. Ta‘limning xususiyatlaridan biri - axborot manbai va uni oluvchi shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir jarayonini tashkil etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. K.Xoshimov, S.Nishonova. Metodika fani. II- qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T., 2005..
3. Yo‘ldoshev J.G‘. Yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari //Xalq ta‘limi, 1999, № 4. 4-11-b.
4. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati. Xalq ta‘limi, 1999, № 1.
5. N.N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2003 y. 174-bet
6. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: 2001-y.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. “Nasaf” nashriyoti. 1999.
8. Sayidaxmedov N.Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: “Moliya”,2003. 171-bet.
9. Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida reja - səhifə 5



Rushana BADALOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi.
rushanabadalova1991@gmail.com.

TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY OILA, MAKTAB VA MAHALLA INSTITUTLARINING O‘ZARO MUNOSABATLARI

Annotatsiya: Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarning, bolalarning mustaqil va erkin shaxs sifatida rivojlanishida oila, mahalla va maktab hamkorligi, ta’lim-tarbiya jarayonini har tomonlama takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlanishi samarali tashkil etilishi yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *hamkorlik, jamiyat, mustahkam, barkamol, tashabbus, konsepsiya, temperament, haqqoniylik, oila, bola, vatanparvarlik, mahalla.*

Аннотатция: сотрудничество семи, махалли и школы, всестороннее совершенствование образовательно-воспитателного протсесса имеют болшое значение в развитии молодежи, детей как самостоятелных и свободных личностей, являющихся будущим нашей Родины, далнейшее укрепление взаимодействия и эффективная организатсия являются основой для становления молодежи как гармоничного поколения.

Ключевы слова: *сотрудничество, сообщество, сильный, идеальный, инициатива, концепция, темперамент, честность, семья, ребенок, патриотизм, соседство.*

Annotation: in the development of young people, children with the future of our country as independent and free persons, the comprehensive improvement of family, neighborhood and school cooperation, educational process is of great importance, and the effective organization of further strengthening of mutual cooperation is the basis for the maturation of young people as a harmonious generation.

Key words: *cooperation, society, strong, harmonious, initiative, concept, temperament, fairness, family, child, patriotism, neighborhood.*

Yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta’lim tarbiya o‘chog‘i bu oila va maktabdir. Oilada bola tarbiyasi g‘oyat nozik va murakkab masalalardan biri bo‘lib, bu ota-onadan odob, bilim, tarbiyani talab etadi. Tarbiya ishi ta’lim muassasalari bilan oila hamda mahalla hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab, mas’uliyatli vazifadir. Bolaning mustaqil va erkin inson sifatida rivojlanishi uchun birinchi navbatda oila mustahkamligini ta’minlash lozim. O‘tgan asr oxirlarida xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar asosida ota-onalikning etnik-madaniy va gender jihatlari tahlil qilingan. Xususan, “oilaviy tarbiya” ko‘p jihatdan pedagogik, ba’zan esa hatto mafkuraviy “yuklangan” tushuncha bo‘lib, u “ota-onalik” bilan kesishadi, lekin unga mos kelmaydi degan fikrdan keltirilgan. Ota-onalarning o‘z muammolari haqida deyarli fikr yuritilmagan. Ota-onalar ta’sir subyektlari, bolalar esa obyektlari bo‘lgan. Xuddi shunday, “oilaviy tarbiya” tushunchasi asrimiz boshida pedagog-madaniyatshunoslar tomonidan ko‘rib chiqilgan: “Oilaviy tarbiya, agar u tabiiy va madaniy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lsa, tom ma’noda, bolalarning oiladagi kundalik faoliyatiga, oila a’zolarining his-tuyg‘ulariga, joriy voqealarga turlicha baho beradigan o‘zaro ta’sir vaziyatlarda amalga oshiriladi. Shu ma’noda, bolalar oilaviy birdamlik doimiy sharoitida o‘z-o‘zlarini tarbiyalashadi, kattalar esa ularning harakatlariga, qarorlariga, reaksiyalariga va o‘zaro munosabatlariga moslashadilar” [3].

Inson bolasi uchun oila asosiy go‘sha, hayotga tayyor bo‘lib chiqadigan qutlug‘ va mo‘tabar dargoh. Uning xosiyati, fazilatlarini, odam jismonan va ruhan quvvat-u tarbiya olishini oila bilan bog‘lasak, turmush kechirishdagi hissasi juda ham ulug‘ ekanini his etamiz. Oila – jamiyatning bir bo‘lagi hisoblanib, u qancha mustahkam va har tomonlama barkamol bo‘lar ekan jamiyat ham tez rivojlanadi. Oila, maktab va mahalla hamkorligi – ma’lum bir tizimni ifodalaydigan murakkab hosiladir. Mazkur tizimni hodisa sifatida ko‘rib chiqishda uning oila tizimi bilan aloqasi masalasini o‘rganish kerak, deb hisoblanadi. Oila – turmush qurgan er va xotin, ularning farzandlari va qarindoshlari qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog‘langan insonlar jamoasining shaklidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ota-onalikni oila tizimidagi quyi tizim sifatida, nisbatan mustaqil hosila sifatida kiritish mumkin. Ammo ota-onalik hodisasini oila tizimi bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir [3].

Oila hodisasi - tarbiyaning eng samarali usuli sifatida ota-ona sevgisi hodisasi bilan chambarchas bog‘liq: bu erkak va ayol o‘rtasidagi sevgi, Vatanga muhabbat, bola muhabbati va boshqa ba’zi turlari, va nihoyat, ota-ona muhabbati. Muhabbat kabi tuyg‘uning asl mohiyati aynan ota-ona muhabbatida namoyon bo‘ladi. Bu tuyg‘uning mohiyati fidoyilikda ifodalanadi. Shu bilan birga, u o‘z farzandining kamolotga yetkazishga harakat qiladi, unga qo‘yadigan talablarini kamaytirmaydi. [1;26]

Ota-onalik hodisasini tizim sifatida o‘rganib, R.V. Ovcharova quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi: 1. Ota-onalik hodisasi tizimli belgilangan, ya’ni u oila tizimiga nisbatan quyi tizim bo‘lib, bir vaqtning o‘zida nisbatan mustaqil tizimni ifodalaydi. 2. Ota-onalik hodisasi ko‘p qirralidir. U ikki darajada ko‘rib chiqilishi mumkin: ham shaxsning murakkab majmuaviy tuzilmasi sifatida, ham shaxsdan yuqori yaxlitlik sifatida. Shu bilan birga, bu darajalar shakllanish bosqichlari bo‘lib hisoblanadi. 3. Ota-onalik hodisasining taqdimoti ayol yoki erkakning individual shaxsiy xususiyatlarini, ularni tahlil qilish va tavsiflashni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi reja bo‘lib ota-onalarning qadriyatlari, ularning pozitsiyalari, his-tuyg‘ulari va shu kabilar hisoblanadi. Ya’ni ota-onalik oila tizimiga nisbatan qaraladi. Uchinchi reja ota-onalikni ota-onalar oilalari bilan o‘zaro bog‘liqlikda qayd qiladi. Jamiyatga nisbatan ota-onalik to‘rtinchi rejani belgilaydi. 4.Ota-onalikning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar iyerarxik tashkil etilgan bo‘lib, bir necha darajalarda namoyon bo‘ladi: makrodaraja – jamiyat darajasi, mezodaraja – ota-ona oilasi darajasi, mikrodaraja – o‘z oilasi darajasi va muayyan shaxs darajasi. 5.Ota-onalik hodisasi – shakllanish va rivojlanish jarayonini o‘z ichiga olgan dinamik hodisa. [2;8] Demak, ota-onalik – ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, u ota-onalik xatti-harakatlari komponentining barcha ko‘rinishlarida amalga oshiriladigan, ota-ona sifatida o‘zi haqidagi bilimlar, g‘oyalar va tushunchalarning hissiy va baholovchi to‘plamidan iborat.

Zamonaviy jamiyatda ota-onalarning oilaviy rollarida o‘zgarishlar yuz berdi. O‘tgan asrning to‘qsoninchi yillardan boshlab, yangi ijtimoiy sharoitlarda, asosan, davlat ta’limidan oilaviy ta’limga o‘tish sodir bo‘ldi, bu ota-onalarning farzandlari uchun hech bo‘lmaganda nazariy jihatdan mas’uliyatini oshirdi. Bu davrda ilmiy lug‘atda ota-ona atamasi qo‘llanila boshlandi. Biroq zamonaviy oila har doim ham bolaning rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishi uchun hayotiy funksiyalarni bajarmaydi. Bunday oilalarni “notinch oila” tushunchasi birlashtiradi. Bu oilada bola noqulaylik, stress holatlariga, kattalarning e’tiborsizligi, shafqatsizlik yoki zo‘ravonlikka uchraydi. “Notinch oila” tushunchasi faqat ushbu notinchlikka uchragan muayyan bolaga nisbatan paydo bo‘lishi mumkin. Faqatgina “oila-bola” munosabatlari tizimi tinch yoki notinch deb hisoblanish huquqiga ega. Pedagogik qobiliyatsiz oilalarda umumiy past madaniyat pedagogik madaniyatning yetishmasligi, eng muhimi, o‘z-o‘zlarida biror narsani o‘zgartirish va tuzatishni istamaslik bilan birlashadi.

Agar oilada muhit yaxshi bo‘lmasa ya’ni ota -ona farzandlariga befarq bo‘lib va har doim janjallar sodir bo‘laversa, bu bolaning tarbiyasiga, rivojlanishiga qattiq

ta’sir qiladi. Chunki oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir. Afsuski, oramizda shunday ota-onalar ham uchraydiki, bolaning hamma talab-ehtiyojlariga haddan tashqari e’tiborli bo‘lib, barcha o‘jarliklarini ko‘taradilar. Natijada bola kelajakda yomon xulqli, jamiyatga zarari tegadigan inson bo‘lib yetishadi. Ana shunday muammolar kelib chiqmaslikning oldini olish uchun biz bo‘lajak yosh avlodga to‘g‘ri tarbiya berib, ularga adolatlilik, to‘g‘ri so‘zlilik, haqqoniylik va hurmat-izzatni o‘rgatishimiz kerak.

Ota-onaning bolaga ta’siri, anglangan yoki o‘z-o‘zidan bo‘lishidan qat’i nazar, doimiy bo‘ladi. Anglanmaydigan ta’sir, tarbiya maqsadlarini yo‘qotish yoki shakllanmaganligi bashorat qilib bo‘lmaydigan natijalarga olib keladi. Shu sababli ota-onalikni psixologik-pedagogik shakllantirishni ota-ona sifatida o‘zini anglash, bolaga pedagogik ta’sirini bilishga asoslashni taklif qilamiz. Binobarin, zamonaviy oilada ota-onalik turmush o‘rtoqlarning maqsadlari, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va boshqa omillar bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, boshlang‘ich ta’lim sharoitlarida oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar modelini yaratishda, ayniqsa, mikrotizim omillariga, ya’ni oilaning pedagogik salohiyati va ichki omillarga, ya’ni individual shaxsiy xususiyatlarga tayanish lozim. Yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta’lim-tarbiya o‘chog‘i bu maktab hisoblanadi. Maktabga har xil oiladan kelgan turli xulq-atvordagi o‘g‘il-qizlar birga ta’lim olishadi. Bularda maktabning qonun va qoidalariga ko‘nikma hosil qilish, jamoa bilan birga bo‘lish odatini shakllantirish juda murakkab hisoblanadi. Ana shu narsa oila bilan maktab hamkorlikda o‘tkazsa, bolalar xulqidagi salbiy xususiyatlarni bamaslahat hal qilishsa, tarbiyasi yomon o‘quvchi bo‘lib shakllanmaydi. Biz bilamizki, hamma narsa mahalladan boshlanadi. Yoshlar tarbiyasi ular ma’naviy kamolotining samarali yo‘llaridan biri davlat huquq-targ‘ibot organlari, xalq ta’lim tizimi hamda mahallalarning jamoat tashkilotlarining yaqin hamkorligidan tashkil topadi. Jamiyatimizda komil insonni tarbiyalashga har bir oila, mahallaning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish kerak, chunki bularsiz tarbiyada maqsadga qo‘lga kiritib bo‘lmaydi. Yosh avlodni tarbiyalashda “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” konsepsiyasi jarayonida ularning har bir vazifalari bor. Masalan: avvalambor, oilada sog‘lom muhitni rivojlantirish, bir-birlariga g‘amxo‘r bo‘lish; farzandlarga dunyoviy bilimlar berish, ma’naviyatli inson bo‘lib yetishish; bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va vatanga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish; bolalarning bo‘sh vaqtlarida qo‘shimcha ta’lim berish; mahalla faollari bilan bolalarning ta’lim-tarbiyasiga oid majlislar o‘tkazib, muammolarni hal qilish; mahalla tomonidan o‘quvchilarga ko‘rik-tanlovlar, bayram, sport musobaqalarini tashkil etish.

A.Avloniyning: “Tarbiya biz uchun yo hayot , yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” iborasi oila, maktab, mahalla tamoyiliga aylanishiga erishildi. Hozirgi kunda bolalarning tarbiyasiga mahalla, jamoatchilik juda katta yordam ko‘rsatmoqda. Jamoatchilikda yosh bolalarni tatbiq etish, sinfdan tashqari ishlar, tashkilotchilik bilan shug‘ullantirish maqsadga muvofiq. Mahallaning yana foydali tomoni bu o‘quvchilarni dasrdan tashqari vaqtlarida tarbiyasi qiyin bo‘lgan o‘smirlarni tarbiyalash va bolalar bilan yashash joylarida sport va madaniy ishlar olib borishdir [10]. Zero, “Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e’tibor berilmasa, kelajak boy beriladi”, degan edi I.Karimov. Haqiqatdan ham, tarbiya bo‘lmasa ta’lim bo‘lmaydi. Ta’lim bo‘lmasa agar kelajagimiz boy beriladi. Shuni aytishim mumkinki, kelajak yoshlarimiz har tomonlama yetuk, barkamol bo‘lishi uchun tarbiyaga e’tibor qaratishimiz kerak.

Prezidentimiz amalga oshirilayotgan hech kimdan kam bo‘lmagan, yuksak ma’naviyatli avlodni voyaga yetkazish yo‘lidagi keng ko‘lamli ishlarda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligining ahamiyati kattadir. Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unlikda olib borilishi mustaqil fikrli, barkamol yoshlarni ulg‘aytirishda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кульчицкая И.Ю. Формирование педагогической культуры родителей в учреждении дополнительного образования. Дисс. на соиск. уч. степени канд. пед. наук.- Ставрополь. 2005. – 169 с.
2. Овчарова Р.Б. Психологическое сопровождение родительства - М.: Изд-во Института Психотерапии.– 2003. – 3. –319с.
3. Антонов А.И. Кризис семьи и родительства // Проблемы родительства и планирования семьи / Отв. ред. А.И. Антонов. М.: ИС РАН, 1992.
4. Abdullayeva,O.O. Abay ijodini o‘rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(3), 4-9. (2021). – P. 176-18

Rislig‘oy XAMIDOVA,
ADPI mustaqil izlanuvchisi



BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI TESTOLOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING BA’ZI JIHATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Testologiya ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqola orqali testologik yondashuvlarning tarix fani o‘qituvchilari uchun ahamiyati, o‘quv jarayonini samarali tashkil qilishda uning roli va afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *testologiya, tarix ta’limi, o‘qituvchi tayyorlash, baholash tizimi, tarixiy tahlil, pedagogik yondashuv, AKT, didaktik usullar, test savollari, o‘quv samaradorligi.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты подготовки будущих учителей истории к тестологической деятельности. Тестология является важным инструментом оценки знаний студентов в образовательном процессе. В данной статье подчеркивается значение тестологического подхода для учителей истории, его роль и преимущества в эффективной организации учебного процесса.

Ключевые слова: *тестология, историческое образование, подготовка учителей, система оценивания, исторический анализ, педагогический подход, ИКТ, дидактические методы, тестовые вопросы, эффективность обучения.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and practical aspects of preparing future history teachers for testing activities. Testology is an important tool for assessing students’ knowledge in the educational process. The article highlights the significance of testological approaches for history teachers, their role and advantages in effectively organizing the learning process.

Keywords: *testology, history education, teacher training, assessment system, historical analysis, pedagogical approach, ICT, didactic methods, test questions, learning effectiveness.*

Kirish. Hozirgi zamon ta’lim tizimi uzluksiz takomillashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shu bilan birga, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilimlarini samarali baholash va nazorat qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda testologiya alohida ahamiyat kasb etadi. Testologiya ta’lim jarayonida bilim darajasini aniqlash, nazorat qilish va bilimlarni tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, tarix fani bo‘yicha testologik faoliyat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, tarixiy faktlar, hodisalar va jarayonlarning sabab-natija bog‘lanishlarini tushunishni talab qiladi. Shunday qilib, tarix fani o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlash nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki o‘qituvchining professional tayyorgarligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Ushbu maqolada testologiyaning nazariy asoslari, tarix fani o‘qituvchilarining testologik faoliyatga tayyorlash yo‘nalishlari va usullari tahlil etiladi. Bu jarayonda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari va istiqbollari ham yoritiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlash bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarb masala. Ta’lim jarayonida testologiya o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda asosiy vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, testologik yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’lim jarayonini samarali tashkil qilishga xizmat qiladi. Tarix fani esa o‘zining kompleksligi va tahliliy yondashuvni talab etishi bilan ajralib turadi. Ushbu fan doirasida testologik yondashuvni qo‘llash orqali talabalarning mantiqiy fikrlash, sabab-natija bog‘lanishlarini tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, AKT vositalaridan foydalanish testologiya samaradorligini oshirishga imkon beradi. Demak, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlash orqali nafaqat o‘qituvchi sifatini oshirish, balki ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini ham ta’minlash mumkin.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Testologiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘proq o‘qituvchilarning test tuzish va qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda test savollarini to‘g‘ri shakllantirish, baholash mezonlarini belgilash va test natijalarini tahlil qilish metodlariga alohida e’tibor qaratiladi. Tarix ta’limida testologik yondashuvning ahamiyati bo‘yicha bir qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Masalan, tarixiy faktlarni aniqlash, talabalarning tarixiy hodisalar bo‘yicha mustaqil fikrlash qobiliyatlarini baholash va rivojlantirishda testlarning o‘rni haqida tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi yangi istiqbollarni ochib bermoqda. Ushbu izlanishlardan kelib chiqib, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining testologik tayyorgarligini

takomillashtirish masalasi ilmiy muammo sifatida dolzarbligini saqlamoqda.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Mazkur maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashning ilmiy asoslari va amaliy jihatlari yangi yondashuvlar bilan yoritilgan. Xususan, testologiya va axborot-kommunikatsion texnologiyalarning integratsiyasi, tarixiy tahlilga asoslangan testlarni ishlab chiqish va qo‘llash usullari o‘rganilgan. Ushbu yondashuv orqali tarix fani o‘qituvchilarining testologik tayyorgarligini kuchaytirish va ta’lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlar taqdim etilgan. Bu orqali ta’limda testologiya va tarix fanining o‘zaro aloqadorligini chuqurroq o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining testologik faoliyatga tayyorlanish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishdir. Shuningdek, testologik usullarning tarix ta’limida qo‘llanishi, ularning samaradorligini oshirish va o‘qituvchilarni ushbu faoliyatga moslashtirish uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqotning maqsadlari qatoriga kiradi.

Tadqiqot obyekti sifatida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining testologik tayyorgarligi va bu jarayonda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari belgilangan. Ushbu jarayonda o‘qituvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotda qo‘llaniladigan usullar:

Nazariy tahlil. Testologik faoliyatga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish;

Amaliy tadqiqot. Test savollari va baholash tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish;

Eksperimental usul. Testologik faoliyatni amaliyotga tatbiq etish va natijalarini tahlil qilish;

Statistik tahlil. Test natijalarini qayta ishlash va ularning samaradorligini baholash.

Testologik faoliyatning o‘quv jarayonidagi roli. Testologik faoliyat tarix o‘qituvchilarining o‘quvchilarning bilimlarini baholash va ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirish uchun ishlatiladigan vositalardan biridir. Tarixiy tafakkur faqat faktlarni bilish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarni tarixiy manbalarni tahlil qilish, tarixiy kontekstni tushunish, va tahliliy fikrlashga yo‘naltirish kerak. Shuningdek, testologik faoliyat o‘quvchilarni ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va tarixiy hodisalar bo‘yicha xulosalar chiqarishga undaydi. Bu o‘quvchilarning tarixiy tafakkurlarini kengaytirishga va ularni mustahkamlashga yordam beradi.

Testologik faoliyatni bir nechta turga ajratish mumkin:

Formativ baholash. O‘quvchilarning rivojlanishini doimiy ravishda kuzatib borish uchun foydalaniladi. Bu baholash shakli o‘quvchilarning yutuqlarini aniqlash va ularga vaqtida fikr-mulohaza berish imkonini yaratadi.

Summativ baholash. O‘quvchilarning o‘quv dasturini yakunlashdagi yutuqlarini baholash uchun mo‘ljallangan. Bu imtihonlar, testlar, yakuniy ishlar va loyiha asosida baholashni o‘z ichiga oladi.

Diagnostik baholash. O‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Bu yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini va rivojlanish darajasini belgilashi mumkin.

Autentik baholash. O‘quvchilarga tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish yoki tarixiy manbalarni tahlil qilish kabi haqiqiy vazifalarni berish orqali amalga oshiriladi. Bu usul o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Tarix o‘qituvchilarining testologik faoliyatga tayyorlanishida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

1. Testlarni yaratish malakasi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun testologik faoliyatga tayyorlanish, birinchi navbatda, testlarni yaratish malakalarini rivojlantirishni anglatadi. Tarixiy testlar nafaqat o‘quvchilarning bilimini o‘lchash, balki ularning tahliliy va tarixiy fikrlash qobiliyatlarini ham baholashga qaratilishi lozim. Testlarni yaratish jarayonida o‘qituvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

tarixiy manbalarni tahlil qilishni o‘rgatish;

o‘quvchilarga tarixiy fikr yuritishni o‘rgatish uchun ko‘rsatmalar berish;

tarixiy hodisalarga turli nuqtayi nazardan qarashni rag‘batlantirish.

2. Tarixiy fikrlashni baholash. Testologik faoliyatda eng muhim jihatlardan biri o‘quvchilarning tarixiy fikrlash qobiliyatini baholashdir. Tarix o‘qituvchilari o‘quvchilarga tarixiy manbalardan qanday qilib xulosalar chiqarishni, tahlil qilishni va muayyan tarixiy hodisalar asosida argumentlar qurishni o‘rgatishlari zarur. Testlar shuningdek, o‘quvchilarning fikrlarini tahlil qilish, tarixiy faktlarni solishtirish, va tarixiy hodisalarga nisbatan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham o‘lchashi lozim.

3. Fikr-mulohaza berish va tahlil qilish. Testologik faoliyatda o‘quvchilarga samarali fikr-mulohaza berish muhim ahamiyatga ega. Fikr-mulohaza o‘quvchilarni o‘z xatolarini tushunishga, yaxshilanishga va o‘z tarixiy tafakkurlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarix o‘qituvchilari o‘quvchilarga tahliliy yondashuvni o‘rgatish orqali ularning tanqidiy fikrini shakllantirishlari kerak.

Kuzatishlar va manbalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashda bir qator muammolar ham ko‘zga tashlanadi:

1) testlarni yaratishdagi qiyinchiliklar. Tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashda testlarni yaratish jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Testlar nafaqat ma’lumotlarni

o‘lchash, balki o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini baholashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun testlarni yaratishda tarixiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini ham hisobga olish lozim;

2) me’yoriy baholash tizimlari bilan moslik. Ko‘plab ta’lim tizimlari tarix fanidan baholashni me’yoriy testlar asosida amalga oshirishni talab qiladi. Bunday testlar ko‘pincha faqat faktlarni o‘lchashga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Tarix o‘qituvchilari bunday tizimlarda tarixiy tafakkur va tahliliy yondashuvni qanday qilib baholashni o‘rganishlari kerak;

3) vaqt va resurs cheklovlari. Testlarni yaratish va baholash uchun ko‘p vaqt va resurslar talab qilinadi. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar bu resurslarga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu cheklovlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini samarali testlarni yaratish va baholashda muammolarga duchor qilishi mumkin.

Albatta, testlarni ishlab chiqishda strategiya muhim o‘rin tutadi. Faraz qiling, mahsulotni bozorga chiqarishdan oldin xato va nuqsonlarni aniqlash yoki bartaraf etish uchun ishlab chiqish jarayonida sinov qay darajada ahamiyatli bo‘lsa, o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishi, qaysi jihatlarga ustuvorlik berish muhimligi, shuningdek, ma’lumotlarni ketma-ketlikda o‘zlashtirishni aniqlashda tegishli test usullari va vositalarini to‘g‘ri tanlay bilish lozim. Bu esa test jarayonini optimallashtirish va uning natijalarini yaxshilash imkonini beradi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlash strategiyalarini belgilashda test maqsadlarini aniqlash, muayyan test usullarini tanlash, sinov doirasini aniqlash, mavjud ta’limiy resurslarni rejalashtirish va test natijalarini baholash muhim o‘rin tutadi. Quyida bu boradagi ayrim tajribalar xususida fikr yuritiladi:

1. O‘qituvchilarni tayyorlashda amaliy tajriba. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashda amaliy tajriba katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘z tajribalarini sinovdan o‘tkazish, testlarni yaratish va baholashni amalga oshirishda samarali bo‘lishlari uchun real sinf sharoitida ishlashlari kerak. Amaliy tajriba orqali ular o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

2. Mentorlik tizimi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashda tajribali o‘qituvchilar bilan mentorlik tizimini joriy etish samarali bo‘ladi. Mentorlar o‘qituvchilarga testologik faoliyatni tashkil etishda qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatib, ularga samarali yondashuvlarni o‘rgatishlari mumkin.

3. Davomiy professional rivojlanish. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun testologik faoliyatni doimiy ravishda yangilab borish muhimdir. Ular yangi metodlar, texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni o‘rganishlari kerak. Shuning uchun, tarix o‘qituvchilari o‘z kasbiy rivojlanishlarini davom ettirishi zarur.

Xulosa. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlash ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Tarix ta’limida testologik yondashuvning qo‘llanilishi, o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv nafaqat o‘qituvchilarning malakasini oshirish, balki ta’lim sifatini umumiy ravishda yaxshilash uchun ham zarurdir.

Takliflar:

Tarix o‘qituvchilari uchun testologik tayyorgarlik bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Testologik faoliyatda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishni kengaytirish lozim.

Testologik natijalarni tahlil qilish va ulardan ta’lim jarayonini takomillashtirishda foydalanish bo‘yicha yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqish, testologiya asoslari bo‘yicha amaliy treninglar va seminarlar tashkil etish ta’lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bahodirov, Sh. (2022). “Testologik tuzilmalar va tekshirishning ta’lim tizimidagi o‘rni”, – Toshkent: “Fan” nashriyoti.

2.Karimova, N. (2021). “Tarix ta’limida zamonaviy usullar”, Ta’lim va fan jurnalida chop etilgan maqola.

3.Xodjayev, A. (2020). “Test”ning didaktik asoslari, Oliy ta’limda innovatsiyalar jurnali, №3.

4.Abdurahmonov, T. (2021). “Tarixiy faktlar asosida test ishlab chiqarish chiqish metodikasi”, Buxoro davlat universiteti ilmiy ishlari to‘plami.

5.G‘ofurov, M. (2019). “AKT” dan o‘tkazish orqali testologik yo‘naltirish”, Andijon universiteti nashriyoti.

6.Usmonova, L. (2023). “Test natijalarini statistik tahlil qilish metodlari”, Axborot texnologiyalari va ta’lim.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil, №PQ-4857. “Ta’lim davlat sifatini belgilangan bo‘yicha dasturi”.

8.UNESCO hisobotlari (2021). “Test asosida Par: jahon himoya” ij.

9.Xoliqova, D. (2022). “O‘qituvchilarni testologiyaga tayyorlash muammolari va yechimlari”, Innovatsion pedagogika jurnali.

10.Rahimov, I. (2020). “Tarix fani uchun test savollari tayyorlashda kreativ sharoit”, Oliy ta’lim olish uchun o‘quv qo‘llanma.

Shoxrux PAYG‘AMOV
Andijon davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: shohruxbek086@gmail.com

BLURTING USULINING TEATRLASHTIRILGAN YONDASHUVLAR BILAN UYG‘UNLASHUVI “BUXORO XONLIGI VA AMIRLIGI” MAVZUSINI O‘RGATISHDA INNOVATSION TEXNIKALAR

Annotatsiya: ushbu maqola ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan biri bo‘lgan Blurting usulining samaradorligini ko‘rsatishga qaratilgan. Blurting usuli mavzuni mustaqil o‘zlashtirish, eslab qolish va bilimlarni qayta ifodalash orqali o‘quvchilar xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. Mazkur tadqiqotda Buxoro xonligi va amirligi tarixi mavzusida teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari bilan uyg‘unlashgan Blurting usuli qo‘llanildi.

Kalit so‘zlar: *blurting usuli, teatrlashtirilgan dars, Buxoro xonligi, Buxoro amirligi, innovatsion ta’lim, tarixiy mavzularni o‘qitish, interaktiv yondashuv, bilimlarni mustahkamlash, muloqot ko‘nikmalari, ta’lim texnologiyalari.*

Аннотация: целью данной статьи является демонстрация эффективности метода Blurting — одной из инновационных технологий в образовательном процессе. Метод выпаивания помогает укрепить память учащихся путем самостоятельного усвоения темы, запоминания и повторного выражения знаний. В данном исследовании использовался метод “Блюртинга”в сочетании с театрализованными представлениями по истории Бухарского ханства и эмирата.

Ключевые слова: *метод блюртинг, театрализованный урок, Бухарское ханство, Бухарский эмират, инновационное образование, преподавание исторических тем, интерактивный подход, закрепление знаний, коммуникативные навыки, образовательные технологии.*

Annotation: this article aims to demonstrate the effectiveness of the Blurting method, one of the innovative technologies in the educational process. The Blurting method helps to strengthen students’ memory by independently mastering the topic, remembering and re-presenting knowledge. In this study, the Blurting method combined with theatrical performances was used on the topic of the history of the Bukhara Khanate and Emirate.

Keywords: *blurting method, theatrical lesson, Bukhara Khanate, Bukhara Emirate, innovative education, teaching historical topics, interactive approach, knowledge consolidation, communication skills, educational technologies.*

Blurting – bu o‘quvchilar yoki talabalarning o‘z bilimlarini mustaqil va tezkor ravishda ifodalash uchun ishlatiladigan o‘quv texnikasi bo‘lib, u miyaning eslab qolish va qayta ishlash qobiliyatlarini kuchaytiradi. Bu usulda o‘quvchilar muayyan mavzuni yoki materialni o‘rganib chiqqach, uni hech qanday qo‘shimcha yordamchi manbalarsiz qayta ifodalashga harakat qilishadi. [1] Blurtingning asosiy prinsipi – o‘qilgan ma’lumotlarni eslab qolgan shaklda darhol yozib chiqish yoki aytib berishdir.

Blurting usuli o‘z nomini inglizcha “blurting out” (tezda aytib yuborish) so‘zidan olgan bo‘lib, uning mohiyati aynan shu jarayonga asoslanadi. Ushbu metodda talabalar o‘qigan yoki eshitgan ma’lumotlarini tezda ifodalaydi, bunda ular materialni xotirada saqlash va asosiy tushunchalarni aniq yoritib berishga e’tibor qaratadi. Blurting jarayoni passiv o‘rganishdan faol o‘rganishga o‘tish imkonini beradi, chunki bu usul talabaning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishini talab qiladi. [2]

Blurting usuli quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘quvchi avval ma’lum bir mavzuni yoki darsni to‘liq o‘qib chiqadi. Bunda asosiy tushunchalarni tushunishga va o‘zlashtirishga harakat qiladi.

Material o‘rganib bo‘lingach, o‘quvchi kitob yoki boshqa manbalardan foydalanmasdan, eslab qolgan barcha ma’lumotlarni qog‘ozga yozadi yoki og‘zaki ravishda qayta ifodalaydi.

Yozib chiqilgan yoki aytilgan material keyinchalik asl manba bilan taqqoslanadi, bu jarayonda o‘quvchi bilmagan yoki unutgan ma’lumotlarini aniqlaydi va ularni qayta o‘rganadi.

Blurting jarayonida talabalar o‘z bilimlarini turli shakllarda sinovdan o‘tkazishlari mumkin. Misol uchun, ular umumiy g‘oyalarni yoritib berishlari yoki o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni batafsil bayon qilishlari mumkin. Bu usul ayniqsa eslab qolish darajasini oshirish va ma’lumotni uzoq muddatli xotirada saqlash uchun foydali hisoblanadi. [2]

Blurting usuli ko‘p hollarda til o‘rganishda, testlarga tayyorgarlik jarayonida va nazariy fanlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu usul talabalarni bilimlarini qayta ko‘rib chiqishga va ularni mustahkamlashga undaydi. Masalan, til o‘rganishda blurting yangi so‘zlarni eslab qolish uchun ishlatilishi mumkin: o‘quvchi o‘rgangan so‘zlarni yoki iboralarni yozib chiqadi va keyin ularni asl manba bilan solishtiradi. Bu jarayonda bilmagan so‘zlar yana bir marta o‘rganiladi. [3]

Blurting nafaqat individual ta’lim jarayonida, balki guruh mashg‘ulotlarida ham samarali qo‘llaniladi.

Guruhda blurting qilish orqali talabalar bir-birlarining bilimlarini tekshirishlari va o‘zaro bilim almashishlari mumkin. Shuningdek, blurting o‘qituvchilar tomonidan talabalarni sinovdan o‘tkazish uchun ham foydalanilishi mumkin, chunki bu usul ularning mavzuni qay darajada tushunganliklarini tezda aniqlashga yordam beradi.

Blurtingni qo‘llashda asosiy e’tibor jarayonning tezligiga va tabiiyligiga qaratiladi. Bu usul talabadan tezkor fikrlashni, diqqatni jamlashni va faqat asosiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatishni talab qiladi. Shu sababli, blurting o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiruvchi eng qulay texnikalardan biri hisoblanadi. [4] Xususan:

1-bosqich. *Materialni o‘rganishga tayyorgarlik:*

Blurting usulini qaysi mavzu yoki material bo‘yicha qo‘llashingizni aniqlang. Bu bir dars bo‘lishi, yangi o‘rganilgan mavzu yoki kitobdan olingan bo‘lim bo‘lishi mumkin;

o‘quv materiallarini (kitob, darslik, slaydlar yoki eslatmalar) diqqat bilan o‘qing. Barcha muhim tushunchalarni tushunishga harakat qiling;

o‘rganishga kirishishdan oldin barcha chalg‘ituvchi narsalarni olib tashlang. Fokuslangan holatda ishlash blurting usulining samaradorligini oshiradi.

2-bosqich. *Materialni o‘qib chiqish va o‘zlashtirish:*

materialni avval bir marta to‘liq o‘qing. Har bir qismni tushunib, asosiy fikrlarni ajratishga harakat qiling;

faqat o‘zingizga muhim ko‘ringan joylarni ichingizda qayta o‘ylang. Ushbu jarayon materialni esda saqlashni osonlashtiradi;

mavzuni yaxshi tushunganingizdan so‘ng, materialdan foydalanishni to‘xtating. Blurtingda hech qanday manbadan foydalanish mumkin emas.

3-bosqich. *Bilimlaringizni yozib chiqish:*

qog‘oz yoki elektron yozuv vositasini tayyorlang. Hozircha kitob yoki eslatmalarni ishlatmasdan, faqat xotirangizdan foydalanasiz;

o‘qigan mavzuni xotirangizda qanday eslab qolgan bo‘lsangiz, shunday yozing. Ushbu jarayonni tezkor amalga oshirishga harakat qiling;

Misol: agar tarixiy mavzuni o‘rgangan bo‘lsangiz, asosiy sanalar, hodisalar va muhim shaxslarni qayd eting. Agar til o‘rganayotgan bo‘lsangiz, yodlagan so‘zlarni va ularning ma’nolarini yozib chiqing;

agar mavzuni o‘z so‘zlaringiz bilan qayta tushuntirishni xohlasangiz, hech ikkilanmasdan yozing.

4-bosqich. *Yozganlaringizni tekshirish:*

kitob yoki darslikni qayta ochib, yozganlaringizni asl material bilan taqqoslang;

qayerda xato qilganingizni yoki qanday ma’lumotlarni unutib qo‘yganingizni aniqlang. Bu bilimlaringizdagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi;

to‘g‘ri yozilgan joylarni mustahkamlang va noto‘g‘ri yoki yo‘q joylarni to‘ldiring.

5-bosqich. *Yana bir marta blurting qiling:*

unutib qo‘yilgan yoki noto‘g‘ri tushunilgan joylarni yana bir marta o‘qib chiqing;

materialni qayta yodda saqlab, blurtingni yana bir marta bajaring. Bu safar noto‘g‘ri joylarni tuzatishga harakat qiling;

ikkinchi marta blurtingda materialni yanada aniqroq va qisqaroq qilib yozishga harakat qiling. Bu sizning ma’lumotni qay darajada o‘zlashtirganingizni ko‘rsatadi.

6-bosqich. *Bilimlaringizni mustahkamlash:*

o‘zingizga yoki boshqa bir kishiga mavzuni so‘zlab bering. Bu mavzuni tushunish va eslab qolish darajasini oshiradi;

bir necha kundan so‘ng, shu mavzu bo‘yicha yana blurting qilishingiz materialni xotirada uzoqroq saqlashga yordam beradi.

Blurting usulida e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlar:

Blurtingda birinchi bosqichda ma’lumotni to‘g‘ri emas, balki tez va xotiraga tayanib yozish muhimroq.

O‘qiganlaringizni o‘z so‘zlaringiz bilan qayta ifodalashdan qo‘rqmang.

Takrorlash orqali bilimlaringizni mustahkamlab boring. Blurtingni muntazam ravishda takrorlash samaradorligini oshiradi.

Blurting – bu oddiy, ammo kuchli o‘quv texnikasi bo‘lib, uni har qanday o‘quvchi o‘z o‘rganish usuliga qo‘shib, bilimlarini samarali mustahkamlashi va eslab qolishi mumkin. Muntazam mashq qilish orqali siz nafaqat materialni yaxshi eslab qolishingiz, balki uni tushunishingizni ham chuqurlashtirishingiz mumkin.

“Buxoro xonligi va Buxoro amirligi”[5] mavzusini Blurting usuliga solgan holda teatrlashtirilgan darsni tashkil etish”

Ushbu darsni tashkil etishda “Blurting usuli” bilan teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlarini birlashtirish orqali mavzuni qiziqarli va samarali tarzda o‘rganish maqsad qilingan. Teatrlashtirish orqali talabalar materialni eslab qoladi, Blurting orqali esa bu bilimlarni mustahkamlaydi.

1. *Darsga tayyorgarlik*

A. Maqsadlarni aniqlash: Talabalar Buxoro xonligi va amirligi tarixi, boshqaruv tizimi, ijtimoiy hayoti, madaniyati, siyosiy jarayonlari haqida ma’lumot oladi. Blurting usuli orqali o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlaydi. Teatrlashtirish orqali darsni qiziqarli va esda qolarli qilishni ta’minlaydi.

B. Resurslarni tayyorlash:

Ssenariy tayyorlash: har bir muhim tarixiy voqea uchun qisqa sahna ko‘rinishlar (5-7 daqiqali).

Rekvizitlar: Buxoro davriga mos kiyimlar va buyumlar (toj, qilich, hujjat maketlari).

Materiallar: mavzu bo‘yicha konspekt, xaritalar, diagrammalar.

D. Guruhlarni ajratish:

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi, ularga rollar taqsimlanadi (xonlar, amirlar, ulamolar, dehqonlar va boshqalar).

2. Darsning boshlanishi: Buxoro xonligi haqida umumiy ma’lumot

A. *O‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish:*

O‘qituvchi tarixiy kirish so‘zi bilan darsni boshlaydi: “Tasavvur qiling, biz Buxoro shahridamiz. Bu yerda davlatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar chorrahasida ulkan voqealar sodir bo‘lgan”.

O‘qituvchi talabalarga Buxoro xonligi va amirligi davrining muhim davrlari haqida qisqacha ma’lumot beradi.

B. *Sahna ko‘rinishlari boshlanadi:*

1-sahna: Buxoro xonligining tashkil topishi.

Buxoro xonligi qanday tashkil topgani (Abdulazizxon davri) talabalarning rollar orqali sahnalashtiriladi.

O‘quvchilar xonlar o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy munosabatlarni jonlantiradi.

1-rasm. Birinchi sahna ko‘rinishi.

2-sahna: Ijtimoiy hayot va boshqaruv tizimi.

Ijtimoiy tabaqalar (xon, bek, dehqon) roli talabalarga taqsimlanadi va ular Buxorodagi o‘sha davr hayotini sahnada ko‘rsatadi.

3. Buxoro amirligi: Teatrlashtirish davom ettiriladi

***A.* Amir Nasrullohning faoliyati.**

3-sahna: Buxoro amirligining siyosiy kuchayishi.

Talabalar Amir Nasrulloh davrida amalga oshirilgan islohotlarni dramatik usulda sahnalashtiradi.

Amirning adolatli va qattiqqo‘l siyosatini talabalardan biri o‘ynaydi, boshqalar esa ulamolar va xalq vakillari sifatida ishtirok etadi.

***B.* Madaniy hayot:**

2-rasm. Uchunchi sahna ko‘rinishi.

4-sahna: Madaniyat va ilm-fan rivoji.

Sahna ko‘rinishida Buxorodagi madrasa talabalari o‘rtasida ilmiy munozara ko‘rsatiladi. Bu o‘quvchilarni ilmiy meros haqida ko‘proq o‘ylashga undaydi.

4. Blurting usulini qo‘llash.

***A.* Sahna tugagach, yozma blurting:**

O‘quvchilarga vaqt beriladi (5-7 daqiqa) va ular sahna davomida o‘rgangan bilimlarini qog‘ozga yozib chiqadi. Misol uchun savollar:

Buxoro xonligi qachon va qanday tashkil topdi?

Buxoro amirligida qanday ijtimoiy tabaqalar mavjud edi?

Amir Nasrulloh kim edi va uning siyosiy islohotlari nimalardan iborat edi?

Buxorodagi ilmiy meros va madaniyat haqida nimalarni bilasiz?

***B.* Og‘zaki blurting:**

Har bir guruhdan bir vakil chiqib, o‘z bilimlarini og‘zaki ifoda qiladi.

Talabalar orasida savol-javoblar uyushtiriladi.

***D.* Asl material bilan taqqoslash:**

O‘qituvchi talabalarning yozgan va aytganlarini asl tarixiy ma’lumotlar bilan taqqoslaydi va xatolarni to‘g‘rilashda yordam beradi.

5. Darsning yakuni.

***A.* Umumiy xulosa:**

O‘qituvchi talabalarning blurting jarayonini va sahnalashtirishdagi ishtirokini baholaydi.

Buxoro xonligi va amirligining tarixdagi o‘rni haqida qisqacha xulosa qiladi.

***B.* Takroriy blurting uchun topshiriq:**

Uyga vazifa: talabalar o‘zlari yozgan blurtingni qayta ko‘rib, takomillashtiradi. Keyingi darsda esa qo‘shimcha savollarga tayyorlanadi.

Teatrlashtirilgan dars va Blurting usulini birlashtirish o‘quvchilarning mavzuni eslab qolishini kuchaytiradi va tarixiy voqealarni jonli ravishda anglashlariga yordam beradi. Bu nafaqat bilimlarni oshiradi, balki o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini ham sezilarli darajada kuchaytiradi.

Blurting usuli zamonaviy pedagogika va ta’lim texnologiyalarida samarali o‘quv texnikasi sifatida o‘z o‘rnini topgan bo‘lib, uning interaktiv yondashuvlar, jumladan, teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari bilan uyg‘unlashuvi ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Buxoro xonligi va Buxoro amirligi mavzusida teatrlashtirilgan dars orqali Blurting usulini amaliy qo‘llash yondashuvi tahlil qilindi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tarixiy voqealarni jonlantirish va o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish nafaqat bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishni, balki ular o‘rtasida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham ta’minlaydi. Blurting usuli bu jarayonni mustahkamlaydi, chunki u mavzuni qayta ifodalash va xatolarni aniqlash orqali bilimlarning izchil ravishda shakllanishini ta’minlaydi.

Dars jarayonida Buxoro xonligi va amirligi tarixi bo‘yicha sahna ko‘rinishlarining tashkil etilishi talabalarni o‘qitishning faqat passiv tinglovchilari emas, balki faol ishtirokchilariga aylantiradi. Ularning bilimlarini mustaqil shakllantirish va baholash imkonini beruvchi Blurting usuli orqali dars samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, teatrlashtirilgan yondashuvlar o‘quvchilarning tarixiy davrlarga qiziqishini orttiradi, ularning ijodkorlik va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, Blurting usuli bilan teatrlashtirilgan darslarning integratsiyasi nafaqat ma’lumotlarni o‘zlashtirish, balki ularni uzoq muddatli xotirada saqlash va amaliy qo‘llash imkoniyatlarini oshiradi. Bunday yondashuvlarni ta’lim tizimida kengroq qo‘llash o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bu usul kelgusida yanada kengroq o‘rganilib, turli mavzu va yo‘nalishlarga moslashtirilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Dunlosky J. et.al.(2013) “Improving Students’ Learning With Effective Learning Techniques: Promising Directions From Cognitive and Educational Psychology.” Psychological Science in the Public Interest.

2.Jo‘rayev U. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nashri. –T: “O‘qituvchi” NMIU 2019. 17-bet.

3.Karpicke. J. D. & Blunt, J. R. (2011). “Retrieval practice produces more learning than elaborative studying with concept mapping.” Science.

4.Cambridge University Press. *Teaching History: Theory and Methods*. Cambridge, 2018.

5. https://e-student.org/blurting-note-taking-method/

6. https://www.bcu.ac.uk/exams-and-revision/best-ways-to-revise/the-blurting-method

Iqboljon ABDULLAYEV,
ADPI katta o‘qituvchisi

MATEMATIK TA’LIMDA AN‘ANAVIY VA NOAN’ANAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika ta’limida an’anaviy va noan’anaviy ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonida bilim berishning turli usullari, metodlari va vositalarini o‘z ichiga oladi. Quyida ularning asosiy xususiyatlari, farqlari va afzalliklariga qisqacha to‘xtalamiz. Mazkur maqola O‘zbekistonda matematika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Maqolada matematika ta'limida innovatsion texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va boshqa zamonaviy vositalarning o‘quvchilarga matematik tushunchalarni o‘zlashtirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri, o‘qituvchilarning texnologik malakasini oshirishning zarurligi, hamda O‘zbekiston ta'lim tizimida texnologiyalarni joriy etishdagi mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, ta'limdagi zamonaviy yondashuvlar va metodikalar orqali matematikani samarali o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *obyekt, amaliy, Interfaol, amaliy, avtoritar, axborot,*

Аннотация: в данной статье традиционные и нетрадиционные образовательные технологии в математическом образовании включают в себя различные методы, методы и средства приобщения знаний в образовательном процессе. Ниже мы кратко остановимся на их основных особенностях, различиях и преимуществах. Данная статья посвящена использованию современных технологий в преподавании математики в Узбекистане. В статье рассматривается значение инновационных технологий в математическом образовании, таких как интерактивные доски, онлайн-платформы, мобильные приложения и другие современные инструменты, в овладении учащимися математическими понятиями. В статье также анализируется влияние технологий на учебный процесс, необходимость повышения технологических навыков учителей, а также существующие проблемы и возможности внедрения технологий в систему образования Узбекистана. В статье также даются рекомендации по эффективному преподаванию математики с использованием современных подходов и методик в образовании.

Ключевые слова: *объектный, Практичный, Интерактивный, Практичный, Авторитарный, Информационный.*

Annotation: this article discusses traditional and non-traditional educational technologies in mathematics education, which include various methods, techniques, and tools for imparting knowledge in the learning process. Below we will briefly discuss their main features, differences, and advantages. This article is devoted to the use of modern technologies in teaching mathematics in Uzbekistan. The article examines the importance of innovative technologies in mathematics education, such as interactive whiteboards, online platforms, mobile applications, and other modern tools in students' mastery of mathematical concepts. The article also analyzes the impact of technologies on the educational process, the need to improve the technological skills of teachers, and the existing problems and opportunities in the introduction of technologies in the educational system of Uzbekistan. The article also provides recommendations for effective teaching of mathematics through modern approaches and methodologies in education.

Key words: *object, practical, Interactive, practical, authoritarian, information.*

Kirish. Ma’lumki, an’anaviy ta’lim tizimida ta'lim oluvchilarga bilim berishda o‘qituvchi bilimlar manbayi bo’lib xizmat qilgan. O’z davrida bu yo‘l bilan ham malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatlari yetarli bo‘lgan. Negaki, u davrda; birinchidan kundalik axborotlar oqimi yuqori bo‘lmagan; ikkinchidan, ishlab chiqarishni olib qaraydigan bo‘lsak, bir kasb-hunarni yetarli darajada egallagan mutaxassis 20-30 yillab qiynalmasdan shu soha bo‘yicha kasbiy faoliyat yurita olgan.

Chunki u boshqarayotgan texnologiya 30-40 yildan keyin o‘z o'rnini boshqa yangi texnologiyaga bo‘shatib bergan. O‘tgan asrning oxirlari, 21-asrning boshiga kelib, fan-texnika taraqqiyoti shu darajada jadallashdiki, natijada kechagi yangi deb atalgan texnologiya o‘rniga bugun undan mukammal va samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalar kirib kelmoqdaki, ular o’z boshqaruvchisidan yangi bilimlarni egallashni talab qilmoqda. Shunday ekan, hozirgi kunda har bir o‘qituvchi o‘z ta’lim oluvchisini fundamental fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallashiga erishishi bilan bir qatorda ularda uzluksiz ravishda mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish talab etiladi. Demak, bugungi kun o’qituvchisi ham, ta‘lim oluvchisi ham ta‘lim jarayonining subyektiga aylanishi davr talabi bo‘lib qoldi.

Adabiyotlar tahlili. Abduvahitov, M. (2019). "Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining matematika fanini o‘qitishdagi o‘rni." O‘zbekiston ta'limi va ilm-fan jurnalida chop etilgan maqola, matematika o‘qitishda texnologiyalarning samaradorligini o‘rganadi.

Sodiqov, U., & Xalilova, S. (2020). "Matematika ta'limida IT texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik asoslari." Ta'lim va ilm jurnalida, ta'limda zamonaviy texnologiyalarning rolini tahlil qilishga oid ilmiy ishlar haqida ma’lumotlar berishgan. Shodmonov, F. (2021). "O‘zbekistonda matematika o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va ularning samaradorligi." O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlari jurnalida nashr etilgan maqolada ham shunday ma’lumotlar berilgan. Sattorov, B. (2021). Matematika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Tashkent, "O‘qituvchi" nashriyoti. Bu kitobda matematika o‘qitish jarayonida texnologiyalarni samarali qo‘llash metodlari haqida to‘liq tahlil keltirilgan. Akhmedov, A. (2018). Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va metodikalari. Tashkent, "Fan va ta'lim" nashriyoti. Kitobda umumiy ta'limda zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi va metodik yondashuvlar haqida ma'lumot berilgan. Ismoilov, R. (2020). O‘zbekiston ta'lim tizimida matematika fanining o‘qitilishiga zamonaviy yondashuvlar. Tashkent, "O‘zbekiston" nashriyoti. Ushbu kitobda O‘zbekistonda matematika o‘qitishdagi yangi texnologiyalarning roli va ularning samaradorligi ko‘rib chiqiladi [2:30; 5:47].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "O‘zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi." Ushbu hujjat ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga katta ahamiyat berilgan. Hujjatda masofaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ularning ta'lim sifatini oshirishdagi roli tahlil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligining "Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori (2020). Bu rasmiy hujjat ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi va matematikani o‘qitishda raqamli platformalar va dasturlarning afzalliklari haqida ma'lumot beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligining "O‘qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayyorlash" bo‘yicha tavsiyalar (2021). Bu hujjatda o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlanishi, malakalarini oshirish borasidagi davlat dasturlari va kurslar haqida ma'lumotlar keltirilgan [8:15].

Johnson, L., & Adams Becker, S. (2017). "The Horizon Report: 2017 Higher Education Edition." New Media Consortium. Bu hisobotda ta'limda texnologiyalarning qo‘llanilishi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri haqida o‘rganilgan. Puentedura, R. R. (2013). "SAMR Model: Redefining the Role of Technology in Education." Ushbu maqola ta'lim texnologiyalarining SAMR modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) asosida qanday qo‘llanishi haqida ma'lumot beradi. Khan Academy (www.khanacademy.org): Bu platforma matematikani o‘qitish bo‘yicha juda ko‘p resurslar, video darslar va interaktiv mashqlarni taqdim etadi. Bu resurs o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lib, ta'limda texnologiyaning samarali qo‘llanishini ko‘rsatadi. GeoGebra (www.geogebra.org): GeoGebra onlayn platformasi matematika fanini o‘qitishda keng qo‘llaniladi. U geometrik, algebrik va statistik masalalarni hal qilishda o‘quvchilarga yordam beradi.

"O‘zbekiston pedagogik jurnalida" matematika ta'limi va zamonaviy texnologiyalar haqida maqolalar nashr etiladi. Bu jurnal O‘zbekistondagi ta'lim sohasidagi yangi tadqiqotlar va texnologiyalarning qo‘llanishi haqida ko‘plab materiallar taqdim etadi. "Ta'lim va ilm" jurnalida zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, xususan, matematika fanini o‘qitishda texnologiyalarning roliga bag‘ishlangan maqolalar mavjud. Edmodo va Google Classroom kabi platformalarda ham matematikani o‘qitish jarayonidagi texnologik innovatsiyalarni qo‘llashni o‘rganish mumkin [9:700-706].

Tahlil va natijalar. Ilmiy-texnika taraqqiyot jadallashgan davrda o‘qitish samaradorligi, asosan, ta’lim oluvchining o‘qitish jarayonidagi o‘rni, o‘qituvchining unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo‘naltirilgan. Avtoritar texnologiyada o‘qituvchi yagona subyekt sifatida namoyon bo‘ladi, ta’lim oluvchilar esa

faqatgina “obyekt” vazifasini bajaradi, xolos. Bunda ta’lim oluvchining tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an’anaviy o‘qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, ta’lim jarayoni pedagog olim Y.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o‘qitishning sinf-dars tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hozirgi kungacha ham dunyo miqyosida keng tarqalgan o‘qitishning sinf-dars tizimi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

– yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo ‘lgan talablar asosida sinfni (guruhni) tashkil etadi;

–sinf (guruh, oqim) yagona o 'quv reja, yagona o‘quv dasturlar va yagona mashg‘ulotlar jadvali bilan shug‘ullanadi;

- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, bitta fanning bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o ‘qituvchi tomonidan boshqariladi [2,5].

An’anaviy o‘qitish tizimi, asosan, bilim va ko‘nikmalami o‘zlashtirishga qaratilgan bolib, shaxsning rivojlanishini nazarda tutmaydi. Uning asosini Y.A. Komenskiy tomonidan tuzilgan quyidagi pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

– ilmiylik;

– tabiatga monand (o‘qilish rivojlanish bilan belgilanadi, ammo shakllanmaydi);

– uzviylik va tizimlilik;

– o’zlashtiruvchanlik (ma’lumdan noma’lumga, soddadan murakkabga);

– mustahkamlik (takrorlash, takrorlash....);

– onglilik va faoliyat (qo‘yilgan maqsadni bilgan va buyruqlar bajarishga faol bo’lgan);

– nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi;

yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish va hokazo

An’anaviy o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo‘ravonlik pedagogikasi, ko‘rgazmalilik metodi asosida tushuntirish, ommaviy o‘qitish. An’anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi: ta'lim oluvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, faqat bajarishi zarur, o’qituvchi esa - bu sardor, hakam, yagona tashabbuskor shaxs. Shuning uchun ham hozirgi axborotlar oqimi jadal sur’atlar bilan oshib borayotgan hozirgi sharoitda An’anaviy o‘qitish tizimidan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil etishda samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Balki, pedagogik jarayon shaxsga yo‘naltirigan texnologiyalar asosida amalga oshirish - ta‘lim maqsadlariga erishishni oldindan kafolatlash imkoniyatlarini oshiradi.

Bunga erishishning eng maqbul yo‘li – zamonaviy ta’lim metodlarini bevosita va bilvosita ta’lim jarayoniga to‘la tatbiq etish hisoblanib, bunda ta’limning zamonaviy metodlari hisoblangan inter faol metodlardan foydalaniladi. “Interfaol” so‘zi inglizcha “inter” - “o‘zaro”. “act” - “harakat qilmoq” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “birgalikda harakat qilmoq” degan ma’no anglatadi. Demak, yangi innovatsion texnologiyalar va interfarol metodlar yordamida pedagogik kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonini tashkil etishda professor-o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyati orqaligina yuqorida ta’kidlangan ta’lim maqsadlarga erishish mumkinligi kafolatlanadi. Shu asosda tayyorlangan pedagogik kadrlar tomonidan umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonini Innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar asosida tashkil etish:

- mashg‘ulot jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga intilishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratildi;

- ta'lim oluvchilarning o‘rganilayotgan yangi bilimlarini ongli ravishda egallashlarini ta’minlaydi va pirovardida ularda o'rganilayotgan fanga nisbatan doimiy motivatsiyani shakllanishiga olib keladi;

- o‘quvchlarning ongli ravishda kasb-hunar tanlashga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantiradi;

- tabaqalashtirilgan holda, yakka tartibda bilim berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Negaki, ongli ravishda kasb-hunar tanlash darajasiga erishgan ta 'lim oluvchida o‘z bilimlarini yanada oshirishga bo‘lgan moyillik yuqori bo‘ladi.

Xulosa va takliflar.O‘zbekistonda matematika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv doskalar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va boshqa zamonaviy vositalar o‘quvchilarga matematik tushunchalarni yanada aniqroq va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Bunda o‘qituvchilarning malakasi va texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologiyalar matematikani o‘rgatishda interaktiv va shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni ta'minlab, o‘quvchilarning bilimlarini samarali baholash va rivojlantirish imkonini beradi. O‘zbekiston ta'lim tizimida bu texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarning matematikani o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi uchun davlat va ta'lim muassasalarining qo‘llab-quvvatlashi, o‘qituvchilarni yangi metodlar va vositalar bilan tanishtirish, shuningdek, texnik infratuzilmani yaxshilash zarur. O‘zbekiston ta'lim tizimida texnologiyalarni keng joriy etish, nafaqat matematika fanini o‘qitishda, balki boshqa fanlarda ham o‘quvchilarning bilimini yanada samarali oshirishga xizmat qiladi.

Matematika o‘qitishdagi zamonaviy texnologiyalarni to‘liq qo‘llash orqali o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi va ularning muammolarni hal qilish qobiliyatlari yaxshilanadi. Buning natijasida, ta'lim jarayonining umumiy samaradorligi va sifatini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.З.Аладьев “Системы компьютерной алгебры” Maple. Искуство программирование (2-изд. 2007).
2. D.X.Turdiboyev “Geometriyada o‘quv mashg‘ulotlarini axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanib loyihalash” //Informatika va energetika muammolari jurnali–Toshkent, 2011.
3. Jo‘raqulov R., Toshpo‘latov, D. S. (2021). Matematika fanini o‘qitishda ajdodlar merosi. Academic research in educational sciences, 2(6), 287-292.
4. PA Xakimov, DS Toshpo‘latov. (2021). Blended learning asosida o‘quv jarayonini tashkil etish masalalariga doir. Academic research in educational sciences, 2(4). 209-215.
5. R.Djuraqulov, S.Akbarov, T.Sh.Toshpo‘latov “Matematika”–Toshkent, 2020.
6. ST Iskandarov, DS Toshpolatov Assessment of Economic Efficiency of Vegetable Production in Greenhouses. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 2020, 22(2), 251-257.
7. Toshpulatov, D., Nosirov, B., Khalmatov, T. (2021). Gradual Implementation of Smart Management Principles in The Higher Education System of Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(1). 22-29.
8. U.J.Begimqulov. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyarini joriy etishning samarali ilmiy-amaliy asoslari. T.: ”Fan”, 2007.
9. Zaparov, Z., Jo‘raqulov, R. (2021). O‘qitishda tajribalar soddalik va qiziqarlilik. Academic Research in Educational Sciences, 2(2). 700-706.
10. Puentedura, R. R. (2013). "SAMR Model: Redefining the Role of Technology in Education." International Journal of Educational Technology, 15(3), 19-25.
11. Abduvahitov, M. (2019). "Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining matematika fanini o‘qitishdagi o‘rni." O‘zbekiston ta'limi va ilm-fan, 5(2), 45-50.
12. Sodiqov, U., & Xalilova, S. (2020). "Matematika ta'limida IT texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik asoslari." Ta'lim va ilm, 8(1), 34-39.
13. Sattorov, B. (2021). Matematika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti.

Nafisa RAHMANQULOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
rakhmankulovanafis@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida qo‘llaniladigan interfaol metodlarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, ularning o‘quvchilarning fikrlash va o‘rganish jarayoniga ta’siri keng yoritilgan. Interfaol metodlar matematika darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqola o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yaxshilash uchun innovatsion metodlar va texnologiyalarning qo‘llanilishi zarurligini ko‘rsatib, ta’lim tizimida ularni samarali qo‘llashning ko‘plab afzalliklarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, matematika, interfaol metodlar, ta’lim innovatsiyalari, o‘quvchi faolligi, didaktik texnologiyalar, o‘qituvchining roli, kreativ fikrlash.*

Аннотация: в данной статье широко освещается значение интерактивных методов, используемых на уроках начальной математики в учебном процессе, их влияние на мышление учащихся и процесс обучения. Интерактивные методы играют важную роль в повышении активности учащихся на уроках математики, развитии творческого мышления и формировании навыков самостоятельной работы. В статье показана необходимость использования инновационных методов и технологий для улучшения процесса обучения студентов, а также проанализированы многочисленные преимущества их эффективного использования в образовательной системе.

Ключевые слова:*начальный класс, математика, интерактивные методы, образовательные инновации, деятельность учащихся, дидактические технологии, роль учителя, творческое мышление.*

Annotation: this article extensively discusses the importance of interactive methods used in primary school mathematics lessons in the educational process, their impact on students' thinking and learning processes. Interactive methods play an important role in increasing students' activity in mathematics lessons, developing

creative thinking and forming independent work skills. The article shows the need to use innovative methods and technologies to improve students' learning processes and analyzes the many advantages of their effective use in the education system.

Key words: *primary school, mathematics, interactive methods, educational innovations, student activity, didactic technologies, the role of the teacher, creative thinking.*

Matematika — bu o‘quvchilarning mantiqiy va analitik fikrlashini rivojlantiruvchi, kundalik hayotda kerakli bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatadigan fanlardan biridir. Boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitish jarayoni o‘quvchilarni bilim bilan ta’minlashdan tashqari, ularning fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Shu sababli, ta’lim jarayoniga yangi va samarali metodlar kiritish zarurati tug‘iladi. Interfaol metodlar boshlang‘ich sinfda matematika darslarini qiziqarli va samarali o‘tkazishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Interfaol metodlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni

Interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirishga, ularning o‘qish jarayoniga faol qatnashishini ta’minlashga qaratilgan ta’lim usullari hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarga mavzuni o‘zlashtirishda yordam beradi, ularni o‘z fikrlarini ifoda etishga undaydi, bir-birlari bilan fikr almashishga va hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi.Interfaol metodlar yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish va individual yondashuvni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilimni tez va samarali o‘zlashtirish imkonini yaratish mumkin. O‘quvchilarga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar ularga jamiyatda va hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatadi.

Interfaol metodlar va ularning turlari

Boshlang‘ich sinfda matematika darslarida quyidagi interfaol metodlar samarali qo‘llanilishi mumkin:

1. Muloqot va suhbatlar: muloqot va suhbatlar o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, o‘rtalarida fikr almashishga undaydi. Bu metod o‘quvchilarga muammoni birgalikda hal qilish, o‘z fikrlarini boshqalarga tushuntirish va o‘zaro yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilarga murakkab masalalar berilib, ular guruhlarda muhokama qilib, yechim topishga harakat qilishadi.

2. Loyiha ishlari: loyiha ishlari o‘quvchilarga individual yoki guruh bo‘lib ishlashni o‘rgatadi. Matematik loyihalar orqali o‘quvchilar haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilishga o‘rganadilar. Masalan, o‘quvchilarga sinfdagi materiallar yordamida arxitektura yoki statistik masalalarni yechish vazifalari berilishi mumkin. Bu metod ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

3. Matematika o‘yinlari: matematika o‘yinlari o‘quvchilarga o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish imkonini beradi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar masalalarni yechishda faol ishtirok etadilar. Masalan, krossvordlar, matematik jumboqlar, raqamli o‘yinlar orqali o‘quvchilarga amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash mumkin.

4. Interaktiv Taqdimotlar: zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv taqdimotlar o‘tkazish darsni yanada samarali qiladi. PowerPoint, Smartboard kabi vositalar orqali o‘quvchilarga matematik masalalar, grafiklar va vizual tasvirlar taqdim etilishi mumkin. Bu o‘quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

5. Testlar va Krossvordlar: testlar va krossvordlar orqali o‘quvchilarni tezkor fikrlashga va o‘zlashtirilgan bilimlarini qayta ko‘rib chiqishga undash mumkin.Bu metod o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini kuzatish va baholashda ham samarali vosita hisoblanadi.

Interfaol metodlarning afzalliklari

Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiladigan ta’lim usullari bo‘lib, ular an’anaviy o‘qitish usullaridan farq qiladi, chunki o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga, muammolarni hal qilishga va bir-birlaridan o‘rganishga undaydi. Interfaol metodlar ko‘plab afzalliklarga ega, ulardan ba’zilari quyidagilardir:

- **1. O‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasi**

Interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, chunki ular passiv ravishda ma’lumot olishdan ko‘ra, faol ishtirok etib, o‘rganish jarayonida qatnashadilar. Bu ularning motivatsiyasini kuchaytiradi, chunki ular o‘zingizning fikrlaringizni bildirishingiz, muammolarni hal qilishingiz va yutuqlarga erishishingiz mumkin.

- **2. Yuqori darajadagi bilimlarni rivojlantirish**

Interfaol metodlar, masalan, guruhli ishlash, muammoli vazifalar yoki o‘yinlar, o‘quvchilarga o‘ylab ko‘rish, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning analitik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- **3. Yuqori eslab qolish va tushunish darajasi**

Interfaol usullar bilan ta’lim olishda, o‘quvchilar faqatgina ma’lumotni eslab qolishdan ko‘ra, uni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.Bu esa bilimning uzoq muddatli eslab qolinishini ta’minlaydi va yanada chuqurroq tushunishga olib keladi.

- **4. Tajriba asosida o‘rganish**

Interfaol metodlar, odatda, o‘quvchilarga haqiqiy hayotdagi holatlarni tahlil qilish va o‘rganish imkonini beradi.Bu tajriba asosida o‘rganish, ya’ni “bilimlarni amalda qo‘llash” yondashuvi, o‘quvchilarga ta’limni yanada dolzarb va foydali qiladi.

- **5. Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish**

Interfaol metodlar ko‘pincha guruhli ishlashni o‘z

ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarga jamoaviy ishlash, fikrlarni ifodalash va boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.Bu ko‘nikmalar nafaqat ta’lim jarayonida, balki kelajakdagi professional faoliyatda ham foydalidir.

- **6. Individual ehtiyojlarga moslashish**

Interfaol metodlar o‘quvchilarga o‘z tempo va qiziqishlariga mos ravishda o‘rganish imkonini beradi.Misol uchun, ba’zi o‘quvchilar guruhli ishlarda faol ishtirok etishni yaxshi ko‘rishadi, boshqalari esa individual tarzda o‘rganishga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin.Interfaol metodlar bu turli xil ehtiyojlarga moslashishga yordam beradi.

- **7. Muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirish**

Interfaol metodlar ko‘pincha o‘quvchilarga turli muammolarni hal qilishga va ijodiy fikr yuritishga undaydi. Bu usullar, o‘quvchilarga yangi yondashuvlar va g‘oyalarni ishlab chiqish imkonini beradi, shuningdek, ularni mustaqil fikr yuritishga va ijodkorlikni rivojlantirishga o‘rgatadi.

- **8. O‘rganish jarayonini qiziqarli qilish**

Interfaol metodlar o‘qishni yanada qiziqarli va o‘zingizni erkin his qilish imkonini beradi.O‘quvchilar o‘z bilimlarini sinash va yangi tajribalarga ega bo‘lishni xohlaydilar, bu esa o‘qish jarayonini yanada jozibali qiladi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarga nafaqat bilim olishda, balki o‘zgaruvchan dunyoda mustahkam ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchilarga jonli o‘rganish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni kreativ fikrlashga va mustaqil ishlashga undaydi. Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilar jamiyatda ishlash, jamoaviy ish olib borish va o‘zini ifoda eta olish kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydilar. Shuning uchun, interfaol metodlarni ta’limda qo‘llash o‘qituvchilarga samarali va innovatsion darslar yaratish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirzayeva, M.Interfaol metodlar va ularning ta’limdagi o‘rni. –Tashkent: O‘qituvchi, 2021.
2.Karimova, R.Boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitish metodlari. –Tashkent: Sharq, 2020.
3.Yuldashev, X.Innovatsion ta’lim texnologiyalari. –Tashkent: O‘qituvchi, 2019.
4.Shodmonova, S.Ta’limda interfaol metodlardan foydalanish. –Tashkent: Ta’lim, 2022.
5.Bobokhonov, A. (2018). Matematika darslarida interfaol usullar. Journal of Education and Development, 8(2), 45-50.

G‘ulom TALIPOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
stajyor-o‘qituvchisi
talipovgulomjon306@gmail.com

10-12 YOSHLI QIZLARDA G‘OVLAR OSHA YUGURISH MASHQLARIDAN FOYDALANIB TEZLIK-KUCH QOBILIYATLARINI OPTIMALASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu tadqiqotda yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi 10-12 yoshli qizlarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga past to‘siqli maxsus mashqlarning ta’siri o‘rganildi. 12 hafta davomida tajriba guruhidagi sportchi qizlar to‘siqlarni yengib o‘tish texnikasini takomillashtirish va oyoqlarning portlovchi kuchini oshirishga qaratilgan mashqlarni bajardilar. Nazorat guruhi esa odatdagi dastur asosida shug‘ullandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi sportchilarning vertikal sakrash, qisqa masofaga yugurish tezligi va oyoq mushaklaridagi kuch ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Olingan ma’lumotlar yosh yengil atletikachilarning mashg‘ulot jarayonida g‘ovlar osha yugurish mashqlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *yengil atletika, bolalar, qizlar, tezkor-kuch qobiliyatlari, g‘ovlar osha yugurish, mashg‘ulotlar, vertikal sakrash, yugurish tezligi.*

Аннотация: в статье исследовано влияние упражнений с низкими барьерами на развитие скоростно-силовых качеств у девочек 10–12 лет, занимающихся легкой атлетикой. В течение 12 недель экспериментальная группа выполняла упражнения на совершенствование техники преодоления барьеров и развития взрывной силы ног, в то время как контрольная группа тренировалась по стандартной программе. Результаты показали, что у экспериментальной группы значительное улучшение вертикальных прыжков, скорости бега на короткие дистанции и силы в мышцах ног у спортсменок, подтверждая эффективность использова-

ния элементов барьерного бега в тренировочном процессе юных легкоатлетов.

Ключевые слова: *легкая атлетика, дети, девочки, скоростно-силовые способности, барьерный бег, тренировки, вертикальный прыжок, скорость бега.*

Annotation: this study examined the effect of low-hurdle special exercises on the development of speed-strength qualities in 10-12-year-old girls engaged in track and field athletics. Over a 12-week period, the female athletes in the experimental group performed exercises aimed at improving hurdle clearance techniques and increasing the explosive power of their legs. The control group trained according to the standard program. Results showed that athletes in the experimental group demonstrated significant improvements in vertical jump height, short-distance running speed, and strength indicators in their leg muscles. The data obtained confirms that the use of hurdle running exercises in the training process of young track and field athletes is highly effective.

Key words: *athletics, children, girls, speed and strength abilities, barrier running, training, vertical jump, running speed.*

G‘ovlar osha yugurish mashqlari funksional qobiliyatlarni oshirishga qaratilgan universal vosita sifatida sanalib, ular harakatlarning aniqligi, tezligi va kuchini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu mashqlar nafaqat sport sohasida, balki yoshlarda umumiy salomatlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, harakat faolligini oshirish va barqarorlikni ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. Chunki ushbu davrida maxsus mashqlardan samarali foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish, ularning fiziologik va psixologik rivojlanishiga mos ta’sir ko‘rsatish uchun ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning yuqori madaniy va axloqiy darajasi, jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik) uyg‘un shakllantirish, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish va organizm boshqa tizimlarining yaxshi ishlashi, sog‘lom bo‘lishi - ta’lim va xususan, jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasidir.

O‘smirlik davrida inson organizmi hali shakllanish bosqichida bo‘lgani sababli, jismoniy mashqlarning ijobiy va salbiy ta’siri ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda bolalar organizmining shakllanishidagi yosh xususiyatlari (ushbu ishda tadqiqot qiz bolalar misolida olib boriladi), oliy asab faoliyati, vegetativ va mushak tizimlarining rivojlanish qonuniyatlari va bosqichlari hamda jismoniy sifatlarni tarbiyalashni hisobga olish muhimdir. Shuning uchun bu dolzarb masala jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: 10-12 yoshli yengil atletikachi qizlarda g‘ovlar osha yugurish mashqlaridan foydalanib, tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar metodikasini ishlab chiqish va ularning jismoniy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

10-12 yoshli qizlarning jismoniy va fiziologik rivojlanishi xususiyatlarini tahlil qilish.

g‘ovlar osha yugurish mashqlarining texnik va biomexanik asoslarini o‘rganish.

tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan baryerli mashqlar kompleksini ishlab chiqish.

maxsus mashqlarning samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish.

olingan natijalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish.

tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning qizlarning umumiy jismoniy holati va sport natijalariga ta’sirini baholash.

Ko‘plab mutaxassislar fikricha, yosh avlodning jismoniy tarbiyasi jarayonida aynan tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim, chunki bu qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanishi ko‘p jihatdan insonning muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga va kelajakda yuqori sport natijalariga erishishiga yordam beradi.

Yengil atletikachilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi maxsus jismoniy sifatlarni yuqori darajada rivojlantirishni talab qiladi. Bu sifatlar ratsional harakat texnikasini egallash bilan birgalikda yengil atletikada sport natijalarining o‘sishiga asos bo‘ladi.

Yosh yengil atletikachilarni o‘qitish vositalari va usullari haqidagi mavjud tasavvurlarni to‘ldiradigan yangi yondashuvlar va yechimlarni izlash zarurati paydo bo‘lmoqda. Yengil atletikada tezkor-kuch tayyorgarligining ilmiy asoslangan uslubiyatini, uning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida sportchi qizlardagi o‘zgaruvchanligini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

1. Adabiyotlar tahlili asosida tezkor-kuch tayyorgarligi metodikasi va g‘ovlarosha yugurishni o‘rgatish metodikasi xususiyatlarini o‘rganish.

2. 10-12 yoshli yengil atletikachi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan g‘ovlarosha yugurish mashqlari bilan maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish.

Biz g‘ovlardan oshib yugurish mashqlaridan foydalangan holda maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash orqali ishlab chiqilgan metodika 10-12 yoshli yengil atletikachi qizlarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichlarida tezkorlik-kuch tayyorgarligi darajasini oshirish imkonini beradi va yosh yengil atletikachi qizlarga zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarning rivojla-

nishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi deb taxmin qilamiz. Tadqiqotning yangiligi shundaki, o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijasida yosh yengil atletikachi qizlarga zarur bo‘lgan tezkorlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi maxsus mashqlarning oqilona hajmi aniqlanib, qo‘llanilgan metodika ishlab chiqildi.

Tezlik-kuch tayyorgarligi zamonaviy mashg‘ulot jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, sportchilarning funksional imkoniyatlarini oshirish va tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishishga qaratilgan. Tezlik-kuch tayyorgarligi deganda tezlik va kuchni yaxlit tarbiyalashning samarali vosita va usullar majmuasi tushuniladi [3]. Tezlik-kuch qobiliyatlari sof kuch va tezlik qobiliyatlarining o‘ziga xos birikmasidir. Tezlik-kuch sifatlari eng qisqa vaqt oralig‘ida maksimal mushak kuchlanishini rivojlantirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Bu qobiliyatlar asosida nerv-mushak tizimining funksional xususiyatlari yotadi, bu esa sezilarli mushak zo‘riqishlari bilan birga harakatlarning maksimal tezligini talab qiladigan harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi. Ya’ni, “tezlik-kuch sifatlari” atamasi insonning harakat amplitudasini optimal darajada saqlab, eng qisqa vaqt ichida maksimal quvvat bilan kuch namoyon qilish qobiliyatini anglatadi [7].

Yosh bolalar organizmining yurak-qon tomir, nafas olish, mushak va boshqa tizimlarining morfofunksional xususiyatlari kattalarga nisbatan tezroq moslashishni ta’minlashiga qaramasdan, o‘smirlar bir xil turdagi yuklamadan tezroq charchaydilar. Buning oldini olish uchun, tadqiqotimiz davomida mashg‘ulotga to‘siqli yugurish mashqlarini kiritamiz, bu esa bajariladigan mashqlarni xilma-xillashtirish va xarakterini biroz o‘zgartirish imkonini beradi.

Maxsus adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonida qizlarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tezkor-kuch tayyorgarligi masalalari ancha keng ko‘rib chiqilgan. Biroq noan’anaviy mashg‘ulot vositalaridan foydalanish uslubiyati bo‘yicha ma’lum tadqiqotlar unchalik ko‘p emas, kichik yoshdagi qizlarga nisbatan esa bunday masalalar umuman ko‘rib chiqilmagan.

Hozirgi vaqtda adabiyotda tezlik va kuchning eng qulay rivojlanish davrini aniqlash masalasiga nisbatan yagona nuqtayi nazar mavjud emas. O‘smirlar organizmi turli xil yuklamalarga turlicha javob beradi. 10-12 yoshli bolalar tezlik va tezkor-kuch yo‘nalishidagi mashqlarni osonroq, kuch xarakteridagi va chidamlilikni namoyon qilish bilan bog‘liq bo‘lgan yuklamalarni esa ancha qiyinroq ko‘taradilar. Ammo tadqiqotlarga ko‘ra, biz har holda harakat sifatlarining o‘sish sur’ati bo‘yicha eng samarali bo‘lgan senzitiv yosh davrlari haqidagi ma’lumotlarning tavsiya etilgan ro‘yxatlaridan birini asos qilib olishimiz mumkin.

Jismoniy sifatlarning rivojlanishidagi sezgir yosh davrlari.

Harakat sifati	Yosh davri
Aerob imkoniyatlar (umumiy chidamlilik)	10-12 yosh, 17-18 yosh
Maxsus chidamlilik (sprinterlik)	14-16 yosh
Anaerob imkoniyatlar (maxsus chidamlilik	13-15 yosh, 17-19 yosh
O‘rta va uzoq masofaga yuguruvchilar uchun)	
Tezkorlik: harakat sur’ati ko‘rsatkichlari; alohida harakat tezligi; harakatga javob berish	9-12 va 14-16 yoshlardan boshlab, 9-13 yosh
Tezlik-kuch sifatlari	9-12 yosh
Mutlaq kuch	9-10 yosh, 14-17 yosh
Egiluvchanlik	14-17 yosh
Chaqqonlik	7-10 yosh, 13-14 yosh

Xulosa qilib aytganda, biz ushbu yoshdagi (10-12 yosh) bolalarda tezkorlik va tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirish, shuningdek, muvofiqlashtirish qobiliyatlarini takomillashtirish ustuvor ahamiyatga ega ekanligini aniqladik.

O‘tkazilgan tadqiqotlar baryer yugurish mashqlari yosh yengil atletikachilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Mashg‘ulot jarayoniga to‘siqlarga ega maxsus mashqlarni kiritish murabbiylarga o‘z tarbiyalanuvchilarini musobaqalarga yanada samarali tayyorlash va yuqori sport natijalariga erishish imkonini beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot 10-12 yoshli yengil atletikachi qizlarda g‘ovlar osha yugurish mashqlaridan foydalanish orqali tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini tasdiqladi. Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu yosh davrida maxsus mashqlarning tizimli qo‘llanilishi yosh

sportchilarning texnik tayyorgarligi, harakat tezligi, muvozanatni saqlash qobiliyati va umumiy jismoniy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot doirasida:

-10-12 yoshdagi qizlarning harakat qobiliyatini rivojlantirish uchun barqarorlik va koordinatsiyaga yo'naltirilgan mashqlar muhimligi aniqlandi.Mashqlar jarayonda mushaklar guruhlarini tizimli ravishda faollashtirib, jismoniy salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilashda alohida ahamiyatga ega.

-g'ovlar osha yugurish mashqlari asosida ishlab chiqilgan maxsus mashqlar kompleksi sportchilarning dinamik kuchini, reaksiya tezligini va harakat aniqligini rivojlantirishda yuqori samarali ekanini ko'rsatdi. Mashqlarning dozalash va bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyili asosida qo'llanilishi yuqori natijalarga erishishda hal qiluvchi omil bo'ldi.

-amaliyot jarayonida maxsus mashqlar bilan shug'ullangan qizlarning jismoniy ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 15-20% yaxshiroq natijalarni qayd etdi. Bu mashqlar nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga ham xizmat qildi.

-tadqiqot natijalari 10-12 yoshli qizlarda baryerli mashqlarni qo'llash orqali sport natijalarini yaxshilashdagi istiqbolli yo'nalishni belgilab berdi. Ushbu yondashuv nafaqat sport tayyorgarligi uchun, balki qizlarning umumiy jismoniy va psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горская, И.Ю. Базовые координационные способности школьник**ов с различным уровнем здоровья**: монография / И.Ю. Горская; **Сиб**. г**ос. акад. физ. культуры. – Омск**: [**б.и**.], 2000. – 210 с.

2. Попов, В. Б. 555 специальных упраж**нений в подготовке легкоатлетов**: метод. пособие для спортсменов, тренеров, пре**подавателей / В. Б. Попов. – М.: Человек, 2012.** 224 с. 6. Лях, В.И. Координационные способности: диагностика и **развитие / В.И. Лях. – М.**: Д**ивизион, 2006.** 290 с.

4. Бондаренко, В.А. (2010). Тренировка бегунов. – Москва: Физкультура и спорт.

Mashxura ASKAROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti
asqarovamashhura0@gmail.com

TA'LIM JARAYONIDA 4K MODELINING INTERAKTIV METODLAR BILAN INTEGRATSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqola, XXI asr talablariga mos kadrlarni tayyorlash jarayonida ta'lim tizimida zarur bo'lgan yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni ko'rib chiqadi. Maqolada, ayniqsa, P21 tomonidan ishlab chiqilgan va butun dunyo bo'ylab o'quv dasturlarida qo'llanilayotgan 4K modeli (Tanqidiy fikrlash, Ijodiy fikrlash, Muloqot va Hamkorlik) haqida so'z boradi. Shuningdek, 4K modelining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi va uning o'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Tadqiqotda "5ta Nega" metodi orqali, 10-sinf o'quvchilari bilan kitobxonlikni rivojlantirishga oid savollarni muhokama qilish jarayoni olib borilgan.O'quvchilarning fikrlash jarayonini chuqurlashtirish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun o'quvchilar guruhlarga bo'linib, har bir savolni bosqichma-bosqich tahlil qilganlar.Tahlil natijalari diagrammalar orqali ko'rsatilgan va metodning samaradorligi aniqlangan.Natijalar"5ta Nega" metodi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va kitobxonlikka qiziqishini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *XXI asr kompetensiyalari, 4K modeli, kompetensiyalarni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlikda ishlash, kommunikatsiya, ta'limda ijodkorlik, guruhda ishlash.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются новые педагогические подходы и методы, необходимые в системе образования в процессе подготовки кадров для требований XXI века. В статье особое внимание уделяется модели 4K (критическое мышление, творческое мышление, коммуникация и сотрудничество), разработанной P21 и используемой в учебных программах по всему миру. Также анализируется применение модели 4K в образовательном процессе и ее роль в повышении интереса учащихся к чтению.

В ходе исследования посредством метода "5 почему"осуществлялся процесс обсуждения вопросов, связанных с развитием чтения, с 10-классниками. В целях углубления мыслительного процесса учащихся и развития творческого подхода учащиеся были разделены на группы и поэтапно анализировали каждый вопрос. Результаты анализа показаны с помощью диаграмм и определена эффективность метода. Результаты показывают, что метод "5 почему"эффективен для развития критического мышления учащихся и по-

вышения их интереса к чтению.

Ключевые слова: *компетенции XXI века, модель 4K, развитие компетенций, критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникация, творческий подход в обучении, работа в группе.*

Annotation: this article examines the new pedagogical approaches and methods needed in the education system in the process of training personnel meeting the requirements of the 21st century. The article focuses on the 4K model (Critical Thinking, Creative Thinking, Communication and Collaboration), developed by P21 and used in curricula around the world. It also analyzes the application of the 4K model to the educational process and its role in increasing students' interest in reading. The study conducted a process of discussing questions related to the development of reading with 10th grade students using the “5 Whys” method. In order to deepen the students' thinking process and develop a creative approach, the students were divided into groups and analyzed each question step by step. The results of the analysis are shown in diagrams and the effectiveness of the method is determined. The results show that the "5 Whys" method is effective in developing critical thinking in students and increasing their interest in reading.

Key words: *21st-century competencies, 4K model, developing competencies, critical thinking, creativity, collaboration, communication, creativity in education, teamwork.*

Kirish. Ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar jadallashib borayotgan davrda o‘quv jarayoniga yangi yondashuvlar, zamonaviy o‘qitish metodlari bilan kirish har bir ustozning muhim vazifasiga aylanmoqda. Bugungi kunda XXI asr talablariga javob bera oladigan muvaffaqiyatli kadrlarni tayyorlashda faqatgina bilim va vazifalar berish bilan cheklanish emas, balki fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘z g‘oyalarini aniq va ravon ifoda eta oladigan avlodni shakllantirish muhimdir. Bu jarayon, albatta, zamonaviy dunyo talablariga mos ravishda amalga oshirilishi zarur.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jahon iqtisodiy forumining 2020-yilda taqdim etilgan “Ish o‘rinlarining kelajagi to‘g‘risidagi hisoboti”ga ko‘ra, 15 ta rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘ylab 26 ta sohani o‘rgangan holda, 2025-yilga kelib xodimlarning 50 foizgacha bo‘lgan qismi “qayta malaka oshirish” zaruriyatiga duch kelishi aytilgan (Jahon iqtisodiy forumi, 2020). Garchi ko‘plab milliy va xalqaro ta’lim dasturlari yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘zlarining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida belgilagan bo‘lsada, ushbu ko‘nikmalarni baholashga xizmat qiluvchi samarali vositalar hali ham to‘liq ishlab chiqilmagan. Bu esa ushbu ko‘nikmalarni baholash jarayonida va ularga mos keladigan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Shuningdek, ushbu masala global rivojlanish kontekstida ta’limni qayta ko‘rib chiqish va baholashning yangichayondashuvlarini talab qilmoqda.

Bu borada bugungi ta’limdagi bir-biri bilan uzviy bo‘liq bo‘lgan 4K modeli aynan mana shunday muammolarga yechim bo‘la oladigan zamonaviy texnologiya deb qaralmoqda. P21 (Qo‘shma Shtatlardagi 21-asr ko‘nikmalarini ta’limga singdirishga qaratilgan yetakchi tashkilot)[1] tomonidan ishlab chiqilgan mashhur 4K modeli bugun butun dunyo o‘quv dasturlarini o‘zgartirib, yoshlarning kerakli bilimlarni kuchli egallashini, shuningdek, turli xil ko‘nikmalarni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda. Modelning nomlanishining o‘zi ham (4C Critical Thinking, Communication, Collaboration, and Creativity) uning ta’limda nechog‘lik muhim ekanligini belgilab beradi.

O‘quvchida ma’lum bir ko‘nikmani qanday rivojlantirish haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun ushbu mahoratni qismlarga ajratish va uning tarkibini tushunish kerak. Keling, “4K” ga kiritilgan ko‘nikmalarning har birining tarkibini tushunishga harakat qilaylik.

Adabiyotlar tahlili. Tanqidiy fikrlash. “Tanqidiy fikrlash” atamasi birinchi marta amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui tomonidan qo‘llanilgan. 1910 -yilda nashr etilgan “Biz qanday fikrdamiz” kitobida u shunday yozadi: fikrlash - bu tajribadagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, alohida bo‘lgan faktlarni bog‘lashdir[2].Ya’ni, taqdim etilgan ma’lumotni darhol “to‘g‘ri ekan, shunday bo‘lar ekan” deb qabul qilib ketmasdan, taxminlarni aniqlay olish, to‘g‘ri fikrni noto‘g‘ri fikrlardan ajrata olish va dalillarga asoslangan ma’lumotlardan foydalanib, to‘g‘ri qarorga kelish lozim.

Tanqidiy fikrlash bo‘yicha OECD Ta’lim tadqiqotlari va innovatsiyalar markazidan Stiven Vinsent-Lankrin tanqidiy fikrlash tadqiqot (muammo bo‘yicha taxminlarni aniqlash va ularni to‘g‘riligini tekshirish, bilimlardagi kamchiliklarni tahlil qilish), tasavvur qilish (turli nuqtayi nazar tahlil qilish va solishtirish), harakat (qaror, fikrning kuchli va zaif tomonlarini tushuntirish) va mulohaza (boshqa muqobillar bo‘yicha tanlangan qaror/fikr haqida mulohaza yuritish) kabi kognitiv jarayonlardan iborat ekanligini ta’kidlaydi[3]. Dalillarga asoslanish o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhimdir. Tanqidiy fikrlash kelajakni ko‘ra bilish va oldindan rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Har qanday vaziyatda eng yaxshi natijalarga erishishni maqsad qiladi.

Ijodiy fikrlashni ta’limga integratsiya qilish – o‘quvchilarni zamonaviy dunyoning murakkabliklariga tayyorlash uchun kalit hisoblanadi.Bu ularga doimiy ravishda rivojlanib borayotgan jamiyatda muvaffaqiyat qozona oladigan va muammolarni hal

qiluvchi bo‘lish imkoniyatini beradi. Edvard de Bono (“Oltita fikrlovchi shlyapa” metodi muallifi) shunday deydi: Ijodkorlik obyektga odatdagidek qarash uchun o‘rnatilgan qoliplarni buzishdir [4]. Ijodkorlik va ta’lim innovatsiyalari bo‘yicha mutaxassis Ken Robinson ham ijodkorlik qimmatga ega bo‘lgan original g‘oyalarni ilgari surishdir deb ta’kidlaydi[5].Aniqroq qilib aytganda, jamiyat tomonidan belgilangan standartlar, an’anaviy qoidalar yoki shunchaki odatiy fikrlash uslublarini chetlab o‘tib yangicha fikrlar va g‘oyalarni sinab ko‘rish ijodiy fikrlashning asosidir. Berilayotgan fikrlar foydali va o‘zgacha bo‘lishi ham ijodiy fikrlashning asosini belgilaydi.A.G‘aniev esa“Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonini tashkil etish prinsiplariga, faoliyatiga ham o‘zgartirish kiritilishi lozim”, – deb hisoblaydi[6].Haqiqatdan ham, ta’lim tizimidagi an’anaviylik, eski usullar va yondashuvlar o‘rniga kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi uslublar, metodlar, darsliklarni olib kirish va o‘zgacha fikrlaydigan avlodni shakllantirishimiz bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.Ayni damda esa yurtimizda mana shunday talablarga javob beradigan darsliklarning kirib kelishi kelajak ta’lim tizimimizga ijobiy o‘zgarishlar olib keladi.

Muloqot va Hamkorlik muammoli ta’limning eng asosiy kaliti o‘qituvchining o‘quvchi bilan o‘zaro muloqotidir. Ta’lim jarayonidagi o‘zaro muloqot murakkab tushunchalarni tushunish uchun katta yordam beradigan omildir.Muloqot qilishni o‘rgatish bugungi kunda barcha ta’lim muassasalari duch keladigan muhim vazifadir[7]. Chindan ham muloqotga asoslangan dars jarayonida o‘qituvchi ham o‘quvchi ham faol bo‘ladi (an’anaviy darslarda o‘quvchilar passiv holatda bo‘lib, asosan, o‘qituvchi faol bo‘lar edi).Bu jarayon o‘quvchida omma oldida fikrni erkin bayon eta olish, boshqa o‘quvchilarning fikrlarini tinglab unga baho berish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Hamkorlikda o‘qish muloqot jarayoni bilan chambarchas bog‘liq, chunki muvaffaqiyatli hamkorlik guruh a’zolari o‘rtasida paydo bo‘lgan bilim almashish va ishonch sifatiga bog‘liq.

Hamkorlikda ishlashning asosiy g‘oyasi - majburlashsiz o‘rganish.Ushbu o‘zaro ta’sir jarayonida o‘quvchini ta’lim jarayoniga jalb qilish, o‘qituvchi va o‘quvchining jamoada birgalikdagi faoliyati va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishning individual jarayoniga e’tibor qaratiladi [8]. Bu yondashuv an’anaviy ta’limdagi “men aytganimdek qil” va “mening qilganimni qil” tamoyiliga emas, balki “buni qanday qilish mumkinligi haqida birgalikda o‘ylab ko‘raylik” tamoyiliga asoslanadi.Aynan shu yondashuv o‘quvchi ongiga mas’uliyatni singdirish va uni faol o‘rganish jarayoniga yo‘naltirish imkonini beradi. Bunday muhit ta’limning samarali o‘zgarishi, uni yanada inklyuziv, jozibador va muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.Muloqot jarayonida ustoz “Bu tushunchaga kimdir misol keltira oladimi ?”, “Bu fikr haqida siz qanday fikrdasiz ?”, “Istalgan vaqtda savollar berishingiz mumkin”, “Men bu haqda hammaning fikrini eshitmoqchiman” kabi jumlalar bilan boyitilishi auditoriyada o‘zaro hurmatni va shaxsiy fikrni erkin ayta olish muhitini shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda 4K modelini rivojlantirish va o‘quvchilarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida sifatli va miqdoriy yondashuvlar birlashtirildi. “5ta Nega” metodi[9] muammo sabablarini chuqur tahlil qilish uchun tanlandi.Ushbu metod o‘quvchilarning fikrlash jarayonini muayyan tizimga solish va yechim taklif qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

1. Ishtirokchilar: Bo‘stonliq tumani G‘azalkent shahridagi 2-maktabning 10 -“b” sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazildi. Sinfda jami 18 nafar o‘quvchi (10 nafar qiz va 8 nafar o‘g‘il bola). Ishtirokchilar intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligiga ko‘ra bir xil darajada.

2. Jarayon: o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda har bir savolni muhokama qilishdi.Har bir guruhga muammo bo‘yicha savollar ketma-ketligi taqdim etilgan. O‘quvchilar birinchi savolga javob berganidan so‘ng, olingan javob asosida keyingi “Nega?” savoli yaratilgan. Bu jarayon orqali muammo sabablariga bosqichma-bosqich yoritildi.

3. Tahlil usuli: javoblar foizlar orqali tasniflangan va natijalar statistik ko‘rinishda ifodalangan.

Tadqiqotning o‘lchov mezonlari:

1. Tanqidiy fikrlash qobiliyati: o‘quvchilarning sabablarni aniqlash va tahlil qilish darajasi.

2. Ijodiy yechimlar taklif qilish: amaliy va innovatsion yechimlar soni va sifati.

3. Jamoaviy ish: guruh ishi jarayonidagi o‘quvchilarning faollik darajasi.

4. Qiziqish darajasidagi o‘zgarish: tajriba so‘ngida kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishning ortishi.

Tahlillar va natijalar.“5ta Nega” metodini amalga oshirayotganimizda o‘quvchilarni 5ta guruhga bo‘lib oldik.Shundan so‘ng o‘quvchilarga metodning mazmunini sxema orqali tushuntirdik.



1-guruhga metodning ilk savoli bilan murojaat qildik.

1-savol: nega kitob o‘qishga qiziqish pasaymoqda?


Javoblar: “telefon va internet kitob o‘qishdan ko‘ra qiziqarliroq”, “Kutubxonalarga borish odati yo‘qligi”, “Kitoblarning qimmatligi” kabi javoblar olindi va ular foizlarda hisoblandi.



Natijalarga ko‘ra eng ko‘p foiz yig‘gan javob sifatida “Telefon va internet kitob o‘qishdan ko‘ra qiziqarliroq” javobi olindi. Bu javob 2-guruh uchun savol tariqasida berildi.


2-savol: Nega telefon va internet kitobxonlikdan ustun?

Bu savolga ham o‘quvchilardan “O‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlar qiziqarliroq” , “Internetda ma’lumot tez topiladi”, “Elektron kitoblardan foydalanish cheklangan” kabi qiziqarli javoblar olindi. Javoblar diagramma asosida foizlarda ko‘rsatildi.



3-savol 2-guruh tomonidan eng ko‘p foiz yig‘gan javob bilan 3-guruhga berildi: *Nega kutubxonalar va kitoblardan ko‘ra ijtimoiy tarmoqlar qiziqarliroq?*


3-savolga ham o‘quvchilar tomonidan ajoyib javoblar olindi va foizlarda tekshirildi.



3-guruhning eng ko‘p ovoz to‘plagan javobi 4-savol sifatida berildi:

Nega oilada kitobxonlik muhiti shakllanmagan?


Javoblar “Oilada texnologiyaga qiziqish yuqori”,“Kitobxonlikni targ‘ib qilish yetarli emas”, “Oilada ta’limdan ko‘ra maishiy masalalarga e’tobor ko‘proq” tarzida berildi.




Foizlarga ko‘ra eng ko‘p ovoz deb “Oilada ta’limdan ko‘ra maishiy masalalarga e’tibor ko‘proq” javobi tanlandi.

5-savol: *nega oilada ta’limdan ko‘ra maishiy masalalarga e’tibor ko‘proq?*

Olingan javoblar diagramma asosida hisoblandi.Bu metod orqali o‘quvchilar muammoning asl sababini topishga erishdilar



So‘rovnomadan keyin quyidagi natijalar olindi:



Tajriba natijalari:

*1. Tanqidiy fikrlash:*o‘quvchilarning 83% tanqidiy savollar orqali muammoning ildiz sabablarini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi.

*2. Ijodiy yondashuv:*75% o‘quvchi taklif qilgan amaliy yechimlar (masalan, kutubxonalar modernizatsiyasi, oilaviy kitobxonlik dasturi) ijodiy xarakterga ega bo‘ldi.

*3. Jamoaviy ish:*guruh ishlarida o‘quvchilarning 90% faol ishtirok etdi.

*4. Motivatsiya:*tadqiqot so‘ngida o‘quvchilarning 65% kitobxonlikka qiziqishi oshganini qayd etdi.

Muhokama va tavsiyalar“5ta Nega” metodi o‘quvchilar orasida muammoni chuqur tahlil qilish va uni hal etishga yo‘naltirilgan yechimlar taklif qilish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu metod nafaqat 4K modeli ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi.Metodning amaliy samaradorligi aniqlandi.

Tavsiya sifatida 5ta nega metodini qo‘llayotganda guruhlar tarkibida o‘quvchilar sonini qisqaroq qilish kerak. Chunki bir guruhda o‘quvchilarning ko‘p bo‘lishi ortiqcha shovqinni keltirib chiqarishi mumkin.Bundan tashqari o‘quvchi sonining kam bo‘lishi har bir tinglovchining induvidual fikrlashini anglashga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida faylasuf va ta’lim islohotchisi Jon Dyuining mashhur iqtibosini eslab o‘tish ayni muddaodir.“Agar biz bugungi o‘quvchilarga kechagidek dars bersak, ertangi kunni o‘g‘irlaymiz”.Shunday ekan yuqorida ta’rif etilgan har bir modelni alohida subyektlar emas, aksincha, kelajakka yo‘naltirilgan ta’lim uchun o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy “element” sifatida ko‘rsak, ulardan dars jarayonida faol darajada foydalansak, zamonaviy talablarga javob bera oladigan darslarni tashkil etgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.The 7Cs of 21st-Century Teaching and Learning. https://www.teacheracademy.eu/blog/the-7cs/

2.Yuliya Rysyukova. Ta’limda 4K ko‘nikmalari: ular nima, ularni qanday amalga oshirish kerak va u ishlaydimi? https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/30/4k/3.0

3.Vinsent-Lankrin, S., Gonsales-Sancho, K., Bukkaert, M., de Luka, F., Fernandes-Barrerra, M., Jakotin, G., Urgel, J. va Vidal, Q. (2019). Ta’limda o‘quvchilarning ijodkorligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Nima maktabda degani. OECD nashriyoti. https://doi.org/10.1787/62212c37-e

4.Фаннинг Хильгунт. "Уроки Эдварда де Боно в контексте форсайта" Управление наукой и наукометрия, no. 5, 2008, pp. 142-149.

5. A.Azzam.Why Creativity Now? A Conversation with Sir Ken Robinson A. Azzam, 2019, Educational Leadership, 67(1), pp. 22–26.

6. G‘aniyev A.G., Sh A. G‘aniyeva, G.B. “Ko‘p intellekt nazariyasi”ni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning ahamiyati”. Amerika amaliy fanlar jurnali 3.3 (2021): 93-103.

7. Morreale, Sherwyn P., Joseph M. Valenzano, and Janessa A. Bauer. 2017. Why Communication Education Matters: A Third Study on the Centrality of Discipline Content and Pedagogy. Communication Education 66: 402-22.

8. Вероника Вербовская. Педагогика сотрудничества – обучение через диалог и объединение. 2021. https://4brain.ru/blog/pedagogika-sotrudnichestva-obuchenie-cherez-dialog-i-obedinenie/

9.Pranita Bhat. 5 Why Analysis: Tackling the Root Cause of Problem. https://themindfool.com/5-why-analysis-tackling-the-root-cause-of-problem/

10.Thornhill-Miller B, Camarda A, Mercier M, Burkhardt JM, Morisseau T, Bourgeois-Bougrine S, Vinchon F, El Hayek S, Augereau-Landais M, Mourey F, Feybesse C, Sundquist D, Lubart T. Creativity, Critical Thinking, Communication, and Collaboration: Assessment, Certification, and Promotion of 21st Century Skills for the Future of Work and Education. J Intell. 2023 Mar 15;11(3):54.

11.G‘aniyeva Muborak Adilovna. (2024). TA’LIMDA YANGI TEXNOLOGIYA: 4K MODELI VA UNI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI. Kokand University Research Base, 197–200. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/72

12.Choriboyeva , Z., & Hamrayev , M. (2023). O‘ZBEK TILI FANINI O‘QITISHDA 4K TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(15 SPECIAL), 59–63. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/4671e

Dinora TO‘YCHIYEVA,
Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
1-kurs magistratura talabasi

PARTAV ILM-MA’RIFAT TARG‘IBOTCHISI

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhiti va uning bolsheviklar to‘ntarishi davrida mumtoz adabiyotimizning yorqin davomchisi sifatida yaraqlab chiqqan ulkan shoir Partav taxallusi bilan ijod qilgan Matlatif Oxun o‘g‘li Ota Maxsum haqida so‘z yuritildi. Uning “Ayo do‘stlar,keling bir yaxshi davrondur” g‘azalidagi ilm-ma’rifatga da’vat etuvchi baytlar tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: *partav, g‘azal ,devon,maorif,ilm,san’atkor,bastakor,xalqchil.*

Annotation: this article discusses the literary environment of Khorezm in the late 19th and early 20th centuries and the great poet Partav,who worked under the pseudonym Matlatif Akhun oglu Ota Makhzum,who shone as a bright successor to our classical literature during the Bolshevik coup. Verses calling for knowledge in his ghazal "Friends are a good time" were analyzed.

Key words: *partav, ghazal, devan, education, science, artist, composer, folklorist.*

Аннотация: в данной статье рассматривается литературная среда Хорезма конца XIX - начала XX веков и великий поэт Партав, творивший под псевдонимом Матлатиф Ахун оглы Ота Махзум, блиставший ярким продолжателем нашей классической литературы в период большевистского переворота. Проанализированы призывающие к знаниям стихи в его газели “Друзья – приятное времяпрепровождение”.

Ключевые слова: *партав, газель, деван, образование, наука, художник, композитор, фольклорист.*

Jahon xalqlarining hayot tarzini o‘rganish, ularning ma’naviy olami, tafakkur tarziga oid qonunlarni kashf etish bevosita jahon xalqlari adabiyotini o‘rganish bilan kechadi. Chunki adabiyot xalqlarning yashash tarzini bilish, ularning ruhiy holatlari bilan tanishish va hayotimizga tadbiq qilishimiz uchun eng asosiy quroldir.Jahon xalqlarining tarixiy adabiyotlarini o‘rganish xususan, ularning matnshunoslik va manbashunoslik ilmida ilk yozma manbalarni qiyosiy tahlil va talqin qilish kabi masalalarini amalga oshirish matnshunoslik fanini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitish jihatidan dolzarbdir. Dunyo matnshunosligining asrlar davomida saqlanib kelinayotgan qadimiy yozma manbalarni o‘rganish, Sharq va G‘arb mamlakatlarida yaratilgan minglab asarlarni tadqiq va taxrir qilish, ularni jahon hamjamiyatiga tanitish ustuvor masalalaridan biridir.Bu borada mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish,ularni jahon va milliy adabiyotimizga hurmat ruhida tarbiyalash shular jumlasidandir.

Mustaqillik sabab yurtimizda matnshunoslik sohasida keng targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi PQ 2995-sonli”Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori yuqoridagi fikrimizning yorqin isbotidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF—60-son “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonning 73-maqsad: Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish” . Ushbu Farmondan yurtimizda matnshunoslik sohasiga qanchalik e’tibor qaratilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Zero, tarixni yaxshi bilish yorqin kelajak uchun poydevordir.

In many countries people speak the dialect or the local language at home and in formal settings they speak the literary variant of the state language, which is usually learned at school. This situation is called diglossia (Ferguson, 1959). For example, in German-speaking Switzerland, the dialect is used in everyday communication, while standard German is used in high school, official communication and on television (with the exception of interviews and folk plays). In some regions of Africa, the local language is in the family and on the street, French is in education and administration. In Arab countries - classical Arabic as the general religious language of the Koran and its variants - in different countries. In Paraguay, the majority of the population is bilingual: Spanish is the official language, Guarani is the national language. In Haiti, the official language is French, and its more mundane, mundane version is Creole. The kind of language used in everyday communication is of lower status and less codified, sometimes not even written; the literary language is taught specially. If there is diglossia in a society, many grow up bilingual, depending on how much access they have to a particular language. Some people master both well, while others can differ greatly in terms of the amount of skills (for example, they write better on one, they speak better on the other). The situation of diglossia is unstable because languages tend to mix at different levels and the faster the more similar they are genetically. At the same time, studies (for example, by U. Labov's group, USA) show that even with intensive viewing of television programs and attendance at a comprehensive school, the dialect (in this case, English, the language of African Americans) does not come close to the standard version, but moves more away from the sample i.e., the regulatory impact of society is stronger than the proposed norm. Attitude towards a language is not necessarily related to attitude towards people who speak it. It is known that many widely spoken languages in the world have their own regional variants. Thus, Francophones living in Canada, Africa, Asia, French and non-French people living in France speak French a little differently, which causes a certain attitude among experts listening to their speech. However, their language is usually assessed by listeners depending on the cultural background of the speaker, regardless of his ethnic origin (i.e., only educated French will be considered prestigious and certain stereotypes associated with their respective countries of residence will apply to the rest). In addition, it also matters who evaluates the speaker: an Englishman can recall the centuries-old history of rivalry between two European states, an American - cooperation during World War II, an English-speaking Canadian will assess the situation from the point of view of the current cultural and political situation in his country, an English-speaking resident of which -something of another state may turn out to be neutral in its assessments. In short, historical information, prejudices, current geopolitical movements, etc. will be affected here. The modern definition of bilingualism says that a person is considered bilingual if he knows two languages at a quite good level and uses them quite regularly in his life. The disputes are only about methods for assessing the formation of a language, i.e., from what moment can we say that a person

really owns it and how to check it. For example, someone can read fiction freely, but cannot speak, someone is aware of scientific works, but does not always understand fluent speech.

Most people consider themselves bilingual if they have mastered both languages in a bilingual family and they speak them well at a level close to that of native speakers. There are a lot of such bilinguals, although a monolingual (mono-lingual person) can blame them for poor pronunciation, lack of grammar, poor vocabulary, incorrect choice of lexemes or word order. It is clear that a person who has spoken a language since childhood, but has not studied it at school, is not able to apply it in all the many necessary situations without prior training. On the contrary, those who have acquired some language at school often have a good command of it in the book version, but have difficulty expressing themselves in colloquial speech. Having learned a different language at school, a person often speaks it better than the one who taught him from childhood. However, only with a sufficiently long stay in the country of the language being studied, it is possible to assimilate the real culture of everyday communication, get acquainted with the functional varieties and dialect variants of the language. Many purists (supporters of pure, infallible language proficiency) find themselves dissatisfied with the level of development of bilingualism if at least one of the languages used is represented by a non-literary variety, even if it has its own grammar, but does not correspond to the codified literary norm, standard. Or one of the languages is academic and the other is vernacular. Or bilingual constantly mixes or confuses them. At the same time, the systems of the two languages are either mutually enriched or they are so vaguely developed that, overlapping, they seem to subtract one from the other.

One of the features of not only biligualism but also multilingualism is code switching, which is considered to be an inevitable process.

The use of language is crucial for all social groups, be it cultural, racial or gender, as it preserves their identity and distinguishes one social group from another. However, today there are various variants of the pronunciation of some languages all over the world and most people are now trying to become experienced bilinguals and multilinguals due to study and career requirements.

As a result, people have started to change the codes frequently when bilinguals or multilinguals communicate with monolinguals.

So, what is code switching and why it is common? According to Aljoundi (2013), switching codes can be defined as changing or transitioning from one language to another in the same sentence. As a rule, switching codes occurs more often in oral communication than in written communication. There are also other alternative names that are used to describe the code change, such as changing the style and mixing the code. Bilingual and multilingual people (who speak several languages) sometimes use parts of different languages when communicating with each other. Thus, code switching can be understood as the use of more than one type of speech corresponding to the syntax (the arrangement of words and phrases in a sentence) and phonology (the structure of sounds in speech) of each variety.

Code-switching feels like an uncontrollable process, rather than something that happens because of a particular cause. It generally happens at an unconscious level, and code-switchers tend to describe it as a natural, effortless phenomenon of moving back and forth between two or more languages.

Switching codes has become a new integrated way of intercultural communication in all spheres - from education to the corporate world. Despite some disadvantages, such as the loss of the native language or the possibility of creating a distance between representatives of different cultures, there is no denying that switching codes can be a powerful psychological tool when used correctly. In general, it's not about what language we will use everywhere, but about the fact that the most important thing is our ability to understand each other through words. Every language, whether Russian, English or Uzbek, is a message, and the most important thing is that it is conveyed and understood.

Conclusion

All in all, bilingualism cannot be described within the science of linguistics; we must go beyond. It can be seen that whatever language is, they have the same sociolinguistic features, only is expressed in different ways. What we have attempted in this study is to give an idea of the sort of perspective that is needed. In order to imagine it, it was necessary to consider bilingualism as an individual rather than a group phenomenon. This made possible a better and more detailed analysis of all that it entails; and the object of our analysis appeared as a complex of interrelated characteristics varying in degree, function, alternation and interference.

REFERENCES:

1. Ferguson, C.A. (2000 [1959]) Diglossia. Ed. L. Wei. The Bilingualism Reader. London: Routledge.
2. Mackey, W.F. (1962) The description of bilingualism. Canadian Journal of Linguistics 7:51.85.
3. Labov, W. (1972) Sociolinguistic Patterns. Philadelphia, PA: Pennsylvania University Press.
4. Weinreich U. Languages in contact. N.Y., 1953.
5. Vereshchagin, G.M. (1969) Psychological and Methodological characteristics of Bilingualism (Bilingualism). Publishing House of Moscow State University, 112 p.
6. Щерба Л.В. К вопросу о двуязычии// Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л., 1974. – С. 313–318.

Пахлавон КУРБОНОВ,
ассистент кафедры "Биомедицинская инженерия, биофизика и информационные технологии"Ферганского медицинского института общественного здоровья,



Мохларой МИРЗАПАХИМОВА,
магистр кафедры "Эндокринология, гематология и фтизиатрия"Ферганского медицинского института общественного здоровья



РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ РАСПРОСТРАНЕННОСТИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ У ДЕТЕЙ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 1 ТИПА

Аннотация: в этой статье рассматривается взаимодействие современных инновационных технологий и эндокринологических исследований, особое внимание уделяется распространенности заболеваний щитовидной железы среди детей-подростков с сахарным диабетом 1 типа (СД1). В нем подчеркивается важность раннего выявления и мониторинга, обсуждаются различные технологические достижения в этой области и предлагаются будущие направления исследований.

Ключевые слова: *телемедицина, непрерывный мониторинг уровня глюкозы, умные часы, генетическое секвенирование, случай-контроль, ядерная сцинтиграфия.*

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy innovatsion texnologiyalar va endokrinologik tadqiqotlarning o'zaro ta'siri ko'rib chiqiladi, alohida e'tibor 1-toifa qandli diabet (QD1) bilan og'rigan o'smir bolalarda qalqonsimon bez kasalliklarining tarqalishiga qaratilgan. Maqolada erta aniqlash va monitoring qilish muhimligi ta'kidlangan, sohadagi turli texnologik yutuqlarni muhokama qilingan va kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: *teletibbiyot, uzluksiz glyukoza monitoringi, aqlli soatlar, genetik ketma-ketlik, vaziyatni nazorat qilish bo'yicha tadqiqotlar, yadro sintigrafiyasi.*

Annotation: this article analyzes the interaction of modern innovative technologies and endocrinological research, special attention is paid to the prevalence of thyroid diseases among adolescent children with type 1 diabetes mellitus (DM1). It highlights the importance of early detection and monitoring, discusses various technological advances in this area, and suggests future research directions.

Keywords: *telemedicine, continuous monitoring of glucose levels, smart watches, genetic sequencing, case-control studies, nuclear scintigraphy.*

Заболевания щитовидной железы, в частности аутоиммунные расстройства, такие как тиреоидит Хашимото и болезнь Грейвса, широко распространены среди людей с сахарным диабетом 1 типа. Сочетание этих заболеваний создает серьезные проблемы для здоровья подростков. Последние технологические достижения предлагают новые методы эффективного изучения и мониторинга этих заболеваний.

Сахарный диабет 1 типа – это аутоиммунное заболевание, характеризующееся разрушением бета-клеток поджелудочной железы, что приводит к дефициту инсулина. Подростки с СД1 подвержены повышенному риску заболеваний щитовидной железы, которые могут осложнить лечение и повлиять на рост, развитие и метаболический контроль. Инновационные технологии произвели революцию в медицинских исследованиях, предоставив инструменты, которые улучшают сбор, анализ и интерпретацию данных. Следующие технологии играют решающую роль в изучении заболеваний щитовидной железы при СД1:

1. Телемедицина: телемедицина позволяет проводить удаленные консультации и мониторинг, улучшая доступ подростков к медицинской помощи и обеспечивая своевременное вмешательство. Телемедицина, также известная как электронная медицина – это удаленное предоставление медицинских услуг через телекоммуникационную инфраструктуру.

Телемедицина позволяет медицинским работникам оценивать, диагностировать, информировать и лечить пациентов без личного посещения. Пациенты могут общаться с врачами у себя дома, используя свои персональные технологии или посетив специальный киоск телемедицины.

2. Носимые устройства: непрерывный мониторинг уровня глюкозы (CGMs) и умные часы облегчают сбор данных о метаболических параметрах. НМГ – это непрерывный мониторинг глюкозы. Он измеряет уровень глюкозы 24/7, каждые 5 минут, с помощью небольшого сенсора.Типы систем непрерывного мониторинга глюкозы:

GUARDIAN CONNECT – это устройство позволяет отслеживать концентрацию сахара в организме в режиме реального времени с помощью смартфона. Пациенту не нужно дополнительно покупать инсулиновую помпу. Для качественной диагностики достаточно сенсора, передатчика и телефона. Диагностика происходит за счет датчика (тончайшего “усика”), который вживляется в подкожно-жировую клетчатку и не доставляет дискомфортных ощущений. Его наружная поверхность контактирует с глюкозой, находящейся в интерстициальной жидкости и измеряет ее уровень.

IPRO 2- система по аналогии с предыдущим прибором позволяет непрерывно измерять концентрацию сахара в межклеточной жидкости. С помощью этого прибора можно сохранять результаты за последние 17 дней, а после переносить их на компьютер и получать сжатый данные о динамике заболевания. Эти устройства помогают выявить корреляцию между контролем гликемии и функцией щитовидной железы.

3. Генетическое секвенирование: достижения в области геномных технологий облегчают выявление генетической предрасположенности к заболеваниям щитовидной железы, что позволяет применять подходы персонализированной медицины. Секвенирование нового поколения (NGS) при раке щитовидной железы позволяет проводить одновременный высокопроизводительный анализ вариабельных генетических изменений и обеспечивает всестороннее понимание биологии опухоли. При раке щитовидной железы NGS позволяет улучшить диагностику с помощью тонкоигольной аспирационной цитологии (FNA) щитовидной железы с неопределенными признаками. Это также способствует ведению пациентов, обеспечивая стратификацию рисков для пациентов на основе вероятности злокачественного новообразования. Кроме того, NGS используется в исследованиях рака.

Современные методологии, такие как перекрестные исследования, когортные исследования и исследования типа “случай-контроль”, были усовершенствованы благодаря новым технологиям:

1. Анализ биомаркеров: инновационные методы анализа, включая иммуноферментный анализ (ELISA) и мультиплексный иммуноанализ, используются для анализа таких маркеров функции щитовидной железы, как ТТГ, Т3 и Т4, а также аутоантитела к щитовидной железе аАТГ и АТ-ТПО.

2. Методы визуализации: ультразвуковое исследование предлагает неинвазивный метод визуализации структуры и функции щитовидной железы у подростков, предоставляя важную диагностическую информацию. Этот инструмент

визуализации позволяет с высокой точностью выявлять структурные нарушения щитовидной железы, такие как узловые образования и их увеличение. У подростков это позволяет выявить субклинические случаи, которые часто не выявляются при традиционном обследовании. Сцинтиграфия с радиоактивным йодом или технецием используется для оценки функциональной активности щитовидной железы и выявления узлов, которые могут быть гипер-или гипофункционирующими. Тонкоигольная аспирационная биопсия(ТАБ) проводится для оценки узлов щитовидной железы, особенно если существует подозрение на злокачественный процесс. Этот метод позволяет получить материал для цитологического исследования.

3. Анализ больших объемов данных: использование электронных медицинских карт и баз данных о состоянии здоровья позволяет исследователям проводить широкомасштабные эпидемиологические исследования распространенности заболеваний щитовидной железы при СД1 и их лечении. Стремительное развитие биоинформатики, а также возможности анализа больших данных открывает для создания принципиально новых методов диагностики и лечения заболеваний щитовидной железы и СД, вызывает необходимость проведения дальнейших углубленных исследований в направлении применения аналитических технологий в медицине.

4. Геномные и протеомные технологии: передовые геномные инструменты, такие как секвенирование нового поколения, помогают выявлять генетическую предрасположенность к заболеваниям щитовидной железы, предлагая персонализированную оценку риска. Протеомика помогает выявить ранние белковые маркеры дисфункции щитовидной железы при СД1.

В будущем необходимо расширять сотрудничество между эндокринологами, технологами и исследователями. Потенциальные будущие разработки включают в себя:

Усовершенствованные прогностические модели: использование искусственного интеллекта для разработки комплексных моделей, которые предсказывают риск заболеваний щитовидной железы у подростков с СД1.

Широкомасштабные инициативы в области здравоохранения: участие в инициативах общественного здравоохранения, которые способствуют повышению осведомленности и скринингу заболеваний щитовидной железы среди этой уязвимой группы населения.

Разработка инструментов для обучения пациентов: использование технологий для создания образовательных платформ, которые информируют пациентов о важности регулярного обследования и контроля функции щитовидной железы.

Современные инновационные технологии играют ключевую роль в понимании распространенности и последствий заболеваний щитовидной железы у подростков с сахарным диабетом 1 типа. Используя эти инструменты, медицинские работники могут облегчить раннюю диагностику, разработать индивидуальные стратегии лечения и улучшить результаты лечения пациентов.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Pahlavon Q. Tibbiyotda masofaviy talimni tashkil etishning maqsad va vazifalari //germany scientific review of the problems and prospects of modern science and education. 2022. т. 1. – №. 2. – с. 24–28.
2. Ткачук А.В., Михина М.С., Ибрагимова Л.И., Никонова Т.В., Трошина Е.А. Сахарный диабет и аутоиммунные заболевания щитовидной железы. Вестник РАМН. 2020;75(6):647–652. doi: https://doi.org/10.15690/vramn1182
3. Бирюкова А.С. Инвестиции в инновации: особенности инвестирования инновационных проектов в сфере здравоохранения // Евразийское пространство: добрососедство и стратегическое партнерство: Материалы VIII Евразийского экономического форума молодежи в 3 томах. – 2017. – Т. 2. – С. 167–170.

Internet sites

1. https://cyberleninka.ru
2. https://ru.m.wikipedia.org
3. https://www.diacheck.ru
4. https://www.dia-endojournals.ru

Parizoda AXRORXO‘JAYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

JADID DRAMATURGIYASI: XOTIN-QIZLAR VA TA’LIM

Annotatsiya: ushbu maqolada jadid dramaturgiyasi va ushbu dramalarda ilgari surilgan g‘oyalar, xotin-qizlar ta’limining o‘rni, jadidlarning asosiy va mushtarak maqsadlari, dramalardagi hamfikrlik, o‘xshash va farqli jihatlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *jadid dramasi, xotin-qizlar ta’limi, farzand tarbiyasi, komillik, savodsizlik, “Biz va Siz”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Chin sevish”.*

Annotation: this article analyzes modern dramaturgy and the ideas presented in these dramas, the role of women's education, the main and common goals of modern dramas, similarities and differences in dramas.

Key words: *jadid drama, women's education, child upbringing, perfection, illiteracy, "We and You", "Poisonous life or victims of love", "True love".*

Аннотация: в статье анализируются современная драматургия и идеи, представленные в этих драмах, роль женского образования, основные и общие цели современной драматургии, сходства и различия драм.

Ключевые слова: *джадидская драма, женское образование, воспитание детей, совершенство, безграмотность, “Мы и вы”, “Ядовитая жизнь или жертвы любви”, “Настоящая любовь”.*

Turkiston jadidlarining mushtarak maqsadlaridan biri xotin-qizlarni savodli qilish ekan, ular millat onalarini madaniyat va ma’rifatdan boxabar qilish, xat-savodini chiqarish, millat hayotida ularning faolligini oshirish, o‘z huquq va erkinliklarini tanish, jamiyatda erkaklar bilan bir qatorda izlanish, o‘z fikr va qarashlarini bayon eta olish, iste’dodlarini namoyon etishlari uchun bir qancha tizimli ishlarni amalga oshirdilar. Yangi usul maktablarining qurilishi, yozilgan nasriy, she’riy va dramatik asarlar, teatrlar, matbuotlardagi tinimsiz chiqishlar ta’lim, san’at, sanoat, qishloq xo‘jaligi sohasidagi yetuk kadrlar orasida ayollarning ulushi ortishiga sabab bo‘ldi. O‘sha davr jadid matbuotida e’lon qilingan maqolalarning bir qismida, albatta, ayollar masalasiga to‘xtalib o‘tildi. “Butun insoniyat olamining tirikchiligi yolg‘iz xotunlar soyasidaginadur deb aytsak shoyad xato qilmagan bo‘lurmiz. Xotunlar butun olam insoniyatining onasidurlar: payg‘ambarlar, rasullar, podshohlar, olimlar, adiblar va shoirlar hammasi shul muhtaram volidalarning bolalaridurlar. Binoi alia xotunlar izzatu va muhtaramdurlar. Shuning uchunki islom dini xotunlarin eski zamonlarda huquqsiz va erlar qo‘lida xor bo‘lib turmaklaridan xalos etub, alarga keng huquqlar beribdur” , – deb yozadi “Sadoi Turkiston” gazetasida.

Jadidlar millatni ezgulikka yetaklovchi, farzandlar komilligini ta’minlovchi, ularga xat-savod o‘rgatuvchi, olam yuziga, insoniyat ko‘ziga ko‘zgu tutuvchi bu – avvalo, millat onalari ekanligi, qanday bo‘lmasin xotin-qizlarni o‘qitib, ularni ilmli qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. “Tarbiya axloqiyalari maktabdan ko‘ra muhtarama onalar quchog‘idan axtarilmog‘i lozimdur. Bolalarimizni matlub darajada adablik va tarbiyatlik qilmoq xohishida bo‘lsak, ishda onalarimizni “ilmi tarbiya al atfol”dan bahrador etmog‘imiz to‘g‘risi bolalarimiz inson bolalari kabi bo‘lsinlar desak, eng avval boshlab, onlarimizni tarbiya va ta’lim eta oling. Yo‘qsa, bolalardan, maktablardan komil bo‘lgan foyda xusula kelmas” . Bu kabi maqolalar, da’vatlar o‘sha davr matbuot materiallarida, balki darslik va badiiy asarlaridan ham o‘rin oldi. Ayollar ta’limi masalasi eng birinchi planda ko‘rildi. Jadidlar o‘z faoliyatlarida dunyoviy hamda diniy misollardan keng foydalandi. Fitrat ham o‘z asari orqali shunday misollardan foydalandi.

“Farangi: Buxoroda ayollar ham tehsil oladi yoki yo‘q?

Mudarris: Yo‘q, ayollar tehsil ko‘rmaydilar.

Farangi: …nega ularni tahsil olishdan bebahra qoldirganlar. Ayol aqli ta’lim va tarbiya xususida erkakdan kamroq bo‘lmasa kerak. Bizning hakimlardan biri aytadiki, “biz Amerika va Fransiyo ayollarining ixtirolari mushohadasini keyin bildikki, ayolning tushunish darajasi erkaknikidan kam emasdir”. Va sizlarning Payg‘ambaringiz ham buyurdiki, “… Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir”. Ayollarning tarbiyati foydali bo‘lib, …yaxshi amallarga ega bo‘lishlik vojibdir. Negaki yaxshi amallar, yaxshi axloqsiz mumkin bo‘lmaydir… Biror kimsa ham tarbiyasiz yaxshi axloq sababi bo‘lmaydi. Yurtning baxtsizligi, zaminning saodatsizlig‘idirki, ayollar u yerni ta’lim va tarbiya tarafidan mahrum qiladilar”. Shuning uchun “xotunlarni o‘qitmoq va alarming aqllarini jilo bermak va erlari birla yaxshi muomilalar qilmoq va bolalarni tarbiyat qilmoq va dinda korchilikni yaxshi bilmoqlari xususida ta’lim albatta zarurdir…” , degan istak gazetalar sahifalarida uchraydi. E’tiborlisi shundaki, jadidlarning xotin-qizlar ta’limi masalasidagi qarashlari badiiy asarlarda, asosan, suhbat tarzida, u ham bo‘lsa dunyo ko‘rgan jadid yoki chet el fuqarosi tomonidan aytiladi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida Moskvaga ketayotgan Miryoqub jadidchilik

harakati a’zolaridan biri Ubaydulla Xo‘jayev bilan tanishib qoladi. Ushbu suhbatda ham farzandlar tarbiyasi, jamiyat va millatning taraqqiy etishida bilimli onalarning tutgan o‘rni haqida so‘z boradi:

“– Sizning musulmon xotiningiz ham bormi?

– Bor…yo‘q yanglishdim: bor edi…

– Har holda musulmon xotin bilan turib ko‘rgansiz-ku?

– Ha…albatta…

– Endi, mana, tarbiyaning nimaligini o‘z tajribangiz bilan bilasiz. Tarbiyasiz, ongsiz va nodon musulmon xotin bilan tarbiyalik madaniy ovro‘polikni solishtirib ko‘rasiz. Farq yer bilan osmon qadar! Darhol bilinadi… Millat bolalarining baxti haqiqiy, madaniy onalar qo‘lida bo‘lmasa, bizning oqibatimiz yomon! Siz undan ko‘p narsa ola bilasiz. Singillaringiz, qizlaringizni shularga o‘xshab tarbiya qilsangiz, shundagina vazifangizni bajargan bo‘lasiz” .

Ziyolilar o‘zlarining bu maqsadlarini maqolalar, badiiy asarlar bilan bir qatorda o‘sha davrda xalq uchun qiziq bo‘lgan va keng yoyilib taraqqiy eta boshlagan dramalariga ham singdira boshlaydi. Savodli va savodsiz qizlarning farqlarini ko‘rsatadi. Ammo bu dramalarni deyarli hammasi fojia bilan yakunlanadi. Bu yo‘l bilan jadidlar xotin-qizlar ilmli bo‘lmasa, millat ma’rifat sari qadam qo‘ymasa, ertaga bizni bundan battarroq fojia kutib turibdi, deb anglatmoqchi bo‘ladi. Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy xulq haqida shunchaki gapirib qo‘ya qolmay, unga konkret yondashishga harakat qiladi. Adibning diqqat markazida hamisha umuminsoniylik mezoni turadi. Bu mezon islomiy axloqqa suyanadi va kishilarni shu paytga qadar ota-bobolarimiz tarbiyasiga xizmat qilib kelgan turmush qoidalari bilan bog‘laydi. Dramadagi qizlar obrazini yaratishda ham ularning savodiga qarab tasvirlaydi. Ilmli qizlar husndor, kelishgan, chiroyli qilib tasvirlansa, ilmsiz qizlar qo‘pol, xunuk, beo‘xshov qilib tasvirlanadi. Abdulla Avloniy “Biz va Siz” dramasida ham aynan shu usuldan foydalanadi. “Men emish, o‘n yil Yevrupoda o‘qub kelg‘on bir yigit, o‘qumag‘on, ko‘zum bilan ko‘rmag‘on bir qizni olar emushman. Borib ko‘rishub kelub, menga lo‘li eshagini maqtag‘ondek maqtashadur. Kim bilsun, ul qiz hur yo pari kabi chiroylikdur, yo dev shaklda sigir kabi maxluqdir” . Ota-onalar qizining ilmi, zehni, dunyoqarashi emas, aksincha uning, ota-onasining mol-davlatiga e’tibor qaratadi. Ziyolilar esa o‘qimishli ayolning oiladagi, jamiyatdagi o‘rnini juda yaxshi anglaydi. “Otajon! Sizning nazaringizda xotun bizga cho‘ri bo‘lsa, mening nazarimda erdan xotunning martabasi ulug‘. Butun bir oilaning tarbiyasi, yozmush saodati uy boshlug‘i bo‘lg‘on xotun qo‘lida bo‘ladur. Bobolarimiz “xotunning yaxshisi Xitoyning bojingiri” demishlar” . Kamol bu so‘zlari bilan xotin kishining o‘rni qayerda bo‘lishi kerakligini eslatib qo‘yadi, ayolni oila boshlig‘i darajasiga ko‘taradi. Oila tarbiyasi ilmli ayollar qo‘lida bo‘lishi kerakligini anglaydi, anglatadi. Dramada Maryam va Kamol o‘rtasida bir necha bor maktublashuv jarayoni bo‘ladi. Maryamning o‘lim oldi o‘qigan baytlari ham, o‘lim istab, lekin ko‘z oldiga ota-onasining keyingi qayg‘uli holatini keltirib afsuslanishi ham yigitdan kam bo‘lmagan darajada savodli ekanligidan, dunyoqarashining kengligidan dalolat beradi. Ularning o‘rtasiga g‘ov bo‘lib turgan narsa esa qiz oilasining ziyoli bo‘lsa-da, boy bo‘lmaganligidadir. Bir o‘rinda Kamol ota-onaning, balki jamiyatning eng og‘riqli va chin muammosi haqida so‘zlaydi: “Oh… Siz! Siz, eski turmush asirlari, xurofot qurbonlari, menga o‘xshash minglab yosh o‘spurunlarni boshig‘a yetasiz. Allaqancha o‘qumish, nozanin qizlarni ablah, johil, axloqsiz yigitlar qo‘lida asir qilasiz, kaltaklatub o‘ldirtirasiz. Siz! Siz muhabbat nima, sevgi nima, tenglik nima, oila nima, turmush nima, g‘oya nima, amal nima, yuksalish nima, madaniyat nima – tushunmaysiz! Tushunmoqni ham istamaysiz” . Kamol tilidan sevgilisi Maryamning shoira, adiba ekanligi ham, ammo eski turmush tarafdorlari uchun uning tarbiyasi ham, axloqi ham, bilimi ham uch pulga teng ekanligi aytib o‘tiladi. Bu nafaqat ota-onaning balki zamonaning o‘qimishli, ta’lim ko‘rgan xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati edi. Dramaturg o‘z asarini ikki sevishgan qalbning zahar ichib o‘lim topishi bilan yakunlashida ham aslida ramziy ma’no bor. Zamonani bir-ikki kishi emas, ko‘plashib, birlashib o‘zgartirish mumkinligi, o‘qimishli xotin-qizlar, yoshlar safini kengaytirish, eski, chirigan urf-odatlardan voz kechish kerakligiga ishora qiladi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasida ham shunga o‘xshash bir holat tasvirlanadi. Dramadagi Maryamxon obrazi yozuvchi ta’biri bilan aytganda, Mahmudxonga muhabbat qo‘ymoq munosabati bilan roman, gazeta, jurnal kabi maorif ta’siridan qalbi uyg‘ongan 17 yoshli qiz. Maryamxon jasoratli, shaddod bir qiz. Ammo u ham boylik va mansabdan omadi chopmagan bir kosibning qizi. Ammo shunday bo‘lsa ham, maktub almashish voqealari, kitobxonligi uning tahsil ko‘rganidan darak beradi. Bu drama ham “Biz va Siz” dramasi kabi ziddiyatlarga boy, ikki oshiqning ishq, ota-ona dunyoqarashi ustidan qiladigan kurashi haqida so‘zlaydi. Maryam obrazi orqali yozuvchi o‘zi ko‘rmoqchi bo‘lgan Turkiston qizini gavdalantiradi. “… men faqira eski maktabdagina tehsil etdim, lekin har bir insoniyat hayot masalalarin Sizning marhamatingiz va ma’naviy yordamingiz orqali tanidim… Ikkinchi muddao, afandim, emdi tezdan ijtihod etingizki, ikkovimiz elimizni, Siz quyoshi bo‘lganda, men mohtobi bo‘lib, qorong‘u vatanni yoritaylik, Siz-da erlarimizning holidan, men mazluma oilalarimizning holindan gazetalarga yozishib, bir-birimizni ogohlantiraylik. Garchi Siz tijoratda bo‘lsangiz-da, chin maqsudingiz bo‘lgan qizlar maktabi ochaylik, men ma’naviy, Siz moddiy xizmatda bo‘ling, qadrsiz hamshiralarimizni ilm naqdi bila ko‘tarishaylik, chin yashaylik,

kelajakdagi avlodlarimizni mozorimizga borib, erlari sizga, qizlari bizning qabrimiz uzasina, oq, qizil gullar sochib ruhlarimiz olqishlarlik darajada bir xizmatlarni maydonga qo‘yaylik…” . Maryamning Mahmudxonga maktub orqali aytgan bu so‘zlari ilmli millat ayolining, jadidlar orzusidagi xotin-qizlarning tilidan chiqishi kerak bo‘lgan da’vat edi aslida. Yashashdan maqsad faqat o‘yin-kulgu emas, ertaga avlodlar rozi bo‘ladigan xayrli ishlar qilish ham ekanligini eslatib o‘tadi. Yuqoridagi drama kabi bir-ikki kishining sa’y-harakati bilan atrofdagilarning, jamiyatning dunyoqarashini o‘zgartirib bo‘lmasligi, shuncha qarshiliklarga qaramasdan Maryamxonning eshonga yettinchi xotin qilib uzatilishi orqali o‘z isbotini topadi. Ammo jabrdiyda qahramon o‘z mushkulotlari sababkorini yaxshi anglaydi. “Onajon… Hamma ishga o‘zingiz sabab bo‘ldingiz. Dunyoni suydingiz, ammo joningizdan ortiq farzandingizni suymadingiz, mendan ko‘z yumdingiz, bu kungi hollarimni fikr qilmadingiz… Endi nima uchun yig‘laysiz…” , “Oh, farzand qadrini bilmagan otalar!.. O‘zim kabi jaholatda qolmish hamshiralarima endigina qalam bila xizmat qilay degan nozik qo‘llarimni bog‘lab, yoruq dunyoga to‘ymagan yuz, ko‘zlarimni kafanga o‘raysiz-da, qora yerga ko‘masiz” . Maryam bu zorlanishlari orqali, jaholat botqog‘iga botgan ota-ona, zamonaning murg‘ak yuraklar, o‘zlari tuqqan zurriyodlar o‘limiga sabachi bo‘layotganini aytadi. Ma’rifatdan ayri zamona, eski turmush bandalari, xotin-qizlarga hali ham ilm zarur emas deb qarovchi “ziyolilar”, ta’limdan ko‘ra pul, mansab, boylikni ustun deb biladigan zamondoshlari ko‘zini ochmoqqa intiladi. Kurashlar, g‘oyalarning qo‘llanmasligi, birlashmaslik, o‘zini, o‘z huquqini anglayotgan ayollarga qilingan jabr-zulm ularni yanada battarroq ezib, oxirgi qutulish chorasi o‘lim ekanligiga ishontirdi. O‘sha davrdagi deyarli barcha drama yakuni o‘lim bilan tugallandi. Bu esa eng katta musibat. Jadidlar mana shu kabi ayanch taqdirlar orqali xalq ko‘zini ochmoqqa, ularni tafakkur qilmoqqa undashga intildi. Qahramonlar tilidan bu jaholatlarning sababini qayta-qayta uqtirdi. “Jonim Maryam, suyukli Maryam! Senga zulm qiluvchi bir menmi? Yo‘q, mening johil otam, sening johil ota-onang, meni johila onam sabab bo‘lgan, to‘rt kishi-ya! Men har narsa deding qabul qildim. O‘zingni ota-onalaring sabab bo‘ldi-ku! Menda u qadar gunoh yo‘q-ku!.. Yo‘q, yo‘q, jonim yo‘q, afu qil, ota-onalarda ham emas. Haqiqatda, bu ishlar jaholatdan, jaholatdan, g‘aflatdan, ilmsizlikdan!..” . Jadidlar bir haqiqatni yaxshi anglaydilar va yaxshi anglatishni istaydilar. Yurt boshiga kelayotgan neki balo-ofat bor, bularning bari ilmsizlik, jaholatdandir. Uni daf etadigan esa ilmli, ziyoli yosh avloddir. Har bir drama asosida yotadigan fikr ham shu aslida.

Turkiston xotin-qizlarining ilm olishlari, dunyoviy ravnaq etish yo‘lidan intilishlarini Abdurauf Fitrat ham quyidagicha ifodalab bergan: “… xotinlarimiz va qizlarimiz, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda ayollarimiz erkaklardan ham qo‘rqoqroq, zaifroq va g‘ayratsiz bo‘lganlaridan bolalarimiz ham ularga o‘xshab ketadilar” . Xotin-qizlar ilm olishlari uchun imkoniyat, sharoit yaratish va ulardan foydalanish kerak. Jadidlar shu maqsad yo‘lida harakat qilish zarurligini uqtirganlar. “Xotinlarga yo‘l ochingiz va o‘qitingiz degan tovush, xususan, bizning musulmon olamida qattiq aks-sado bersin. Bu hol xotinlarning inson bo‘luvlari yog‘idan emas, balki Russiyadagi musulmonlarning ma’rifatlari buni talab qiladi… Bugundan boshlab musulmon xotin-qizlari faollana bir suratda turmushning oqimina qatnashib ketishlari kerak. Musulmon xotin-qizlari ish boshiga!”. Yuqoridagi fikrdan ko‘rinadiki, jadidlar taraqqiy etgan mamlakatlarning yutuqlari sababini o‘rganish, kishilik jamiyatida ayollarning tutgan o‘rni bilan Turkistondagi xotin-qizlarning turmush tarzini qiyosan o‘rganish orqali rivojlanish strategiyasidagi kamchiliklarni bir qur anglaydi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonda xotin-qizlarning faolligini oshirish kerakligini his etadi. Abdurauf Fitratning “Chin sevish” dramasidagi Zulayho obrazi ham aynan jadidlar orzu qilgan qizlardan biridir. “O‘qug‘ali kitoblaringiz bormi?” dedim. “Bor” dedi. “Birontasini menga beringiz” dedim. Shuni eshitgach, ko‘zlari qorong‘u kecha chaqinlari kabi yaltillab ketdi. Shu so‘zimdan biroz suyunganini sezdim…

Tunov kuni shu kitobni berdi. (Kitobning bir maqolasini ochib). Mana shu yerda bir she’r yozilmish. O‘tli bir she’r o‘qig‘ancha, har bir so‘zi cho‘g‘, olov kabi yuragimga yopishadir. Yozuv o‘ziniki, she’r o‘ziniki. She’rning bildirgi ahvoli ham o‘ziniki (she’rni o‘qiy boshlar)… Zulayhoning so‘zlari va fikrlaridagi teranlik, hissiyotlarini so‘z bo‘yoqlari bilan bo‘yab ayta olishi, kitobdagi she’r va shoirning fikrini anglay olishi bu, albatta, ilm natijasidir. Birinchi pardada Zulayho Nuriddinning xatti-harakatlarini o‘zicha muhokama qilar ekan, u haqida xayol surishi bilanoq, sevgisini tomoshabinga oshkor qilib qo‘yadi. Fitratning mahorati shundaki, u asarga qizning kechinmalari orqali kirib kelib, mohirlik bilan voqealar boshlanmasidan siyosiy qarashlarini o‘rtaga tashlaydi: Muallif shu tariqa tomoshabin, kitobxonni pyesa boshlanishi bilanoq asosiy qahramon bilan uchrashtirib qo‘ymaydi. Uni tanishtirishni Zulayho orqali amalga oshiradi. Bu qizning yigit haqidagi yonish-kuyishlari tomoshabinda Nuriddin obraziga nisbatan iliqlik tug‘diradi. Zulayhoning otasi ham zamon ko‘rgan kishilardan. U qizining istaklarini to‘g‘ri baholaydi. Zulayhoni turmushga uzatish borasidagi birgina fikrini olaylik: “…erga bermoq to‘g‘risida erk va ixtiyor qizning o‘zidadir. Bir qizni bir yigitga kuchlab yuborurg‘a ota-onaning sira haqlari yo‘qdir. Bizning ishimiz – qizimiz yoqtirg‘an yigit to‘g‘risinda qizimizning foydasin ko‘zda tutib tushunmak. Qizimiz o‘ziga zararli yigitni saylagan bo‘lsa, unga mantiqiy o‘gitlar bermakdir” .

Turkistonda otalar qizlarini jaholat botqog‘iga itarib, ularni pullayotgan, oilasini manfaat ustiga qurishga majbur qilayotgan paytda Karimbaxshxonning qizi tarafida bo‘lishi, tanlovni o‘z xohishiga qo‘yib berishi jasorat edi aslida. Turkiston milliy demokratlari, taraqqiyparvarlari, ma’rifatparvarlari xotin-qizlarning saylovlarda ishtirok etishlari, Turkistonning milliy ravnaqi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojida qatnashishlarini qo‘llab, ularga amaliy yordam berishga chaqirdilar.

Demak, Turkiston ozodligi va mustaqilligi yo‘lida xotin-qizlarni madaniy va ma’rifiy jarayonlarda ishtirok ettirish ham jadidlarning e’tiboridan chetda qolmagan. Jadid mafkurasi ilgari surgan ayol, oila, jamiyat masalalari umuminsoniy muammolarni hal etishga qaratilgan edi. Bunda ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab olgan edilar:

– jamiyatning taraqqiyoti xotin-qizlarga bog‘liq ekaligi g‘oyasini ilgari surib, ularga bo‘lgan salbiy munosabatni o‘zgartirish;

– nafaqat diniy, balki dunyoviy ishlarni bajarishda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligini ta’minlash;

– xotin-qizlarni ma’rifat va ilm-fanga jalb etib, ularning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini o‘zgartirish;

– ayollarni o‘qitish uchun yangi usuldagi maktablar ochish;

– yoshlar tarbiyasida ona, ayolning katta ahamiyat kasb etishi;

– xotin-qizlar ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq ma’rifat qoloqligi, urug‘chilik, diniy johillikni tanqid qilish;

– o‘qimishli xotin-qizlar davlat, jamiyat ishlarida qatnashish huquqiga ega ekanligi;

– xotin-qizlarni siyosiy jarayonlarga jalb etish va hokazo .

“Chin sevish” dramasidagi qo‘mita a’zolari safida Zulayhoning bo‘lishi ham muhim siyosiy jarayonda ayollarning bilimi, tafakkuri erkaklardan kam emasligiga bir ishoradir. Fitrat dramada qo‘mita a’zolari safiga ayol kishini jalb etishi jadidlarning maqsadlarini amalda isbot topishi uchun bir yo‘riqnoma hisoblanadi. Bu drama davrning, jadidlarning barcha maqsadlarini keng qamrab olganligi bilan ham katta shuhrat qozondi, tadqiqotchilar e’tiboriga tushdi. “Chin sevish” zamondoshlar tomonidan yuqori baholandi. Cho‘lpon u haqida “O‘zbek sahnasi ulug‘ va ulug‘ligi qadar yuksak ham go‘zal bir tomosha ko‘rdi” deb yozdi. Vadud Mahmud “O‘zbek sahnasida shu kungacha o‘ynalib kelgan pyesalarning eng kuchlisi, eng buyugi” deb baholadi. Dramada Zuloyho obrazi, umuman olganda ayollar obrazi bosh plan darajasiga ko‘tarilmaydi, ammo voqealarni bir-biriga bog‘lashda, dramaturgning fikrlarini to‘ldirishda muhim vazifa bajaradi.

Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasidagi Rahima, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasidagi Maryam, Abdulla Avloniyning “Biz va Siz” dramasidagi Maryam, Abdulla Badriyning “Juvonmarg” dramasidagi To‘tioy zamonaning, ota-onalarning ilmsizligi qurboni bo‘ldi. Achinarlisi, bularning hech biri hali yigirmaga ham kirmagan qizlar edi. Bu sahna asarlari hammasi fojiali yakun topishi, albatta, tomoshabinni, o‘quvchini o‘ylashga undashi kerak edi. Zamona ahli to‘y-dabdaba, mol-dunyo ketidan quvaversa, millat ertasi bo‘lgan yoshlarni, millat ertasi bo‘lgan bolalarni tarbiyalaydigan onalarni, balki butun bir millatni yo‘qotib qo‘yishi mumkinligi haqida ogoh etish jadidlarning bosh maqsadlari edi. Bu dramalardagi ayollar rollarini dastlab chet el aktrisalari ijro etgan bo‘lsa, sahna asarlari – pyesalar ko‘paygani, ko‘ngilli va iste’dodli xalq vakillari orasida bu rollarini ijro etish qobiliyati bor bo‘lganlari o‘z iste’dodlarini namoyon etdi. Bu o‘z navbatida teatrning yutuqlaridan biri edi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Xulosa qilib aytganda, dramaturgiya boshqa asarlar qatorida jadidlarning tub maqsadlarini yoyishda, xalqni ma’rifat, ilm, birdamlik, erk va ozodlik yo‘liga chorlashda eng katta kuch, manba bo‘lib xizmat qildi. Bu dramalarni namoyish etish uchun tuzilgan teatr truppalarining joylardagi namoyishi xalq qamrovini yanada kengayishiga, maqsadlarning yanada kengroq yoritilishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авлоний А. Танланган асарлар. Икки жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998.
2. Бир мусулмон. Хотунлар эрлар билан баробар эмас. // Туркистон вилоятининг газетаси. 1912. 20 сентабр
3. Фатҳиддинзода З. Ҳуқуқи инсон. // Садои Туркистон. 1914. 10 декабр
4. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 1998. Б. 98.
5. Ҳамза. Заҳарли ҳаёт ёхуд ишқ қурбонлари. Тўла асарлар тўплами: 5 жилдлик. 3 жилд. – Т.: “Фан” , 1998
6. Нажот. 1917. 23 апр
7. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маъриат, фидойилик. – Тошкент: “Маънавият”, 2002. Б. 260
8. Ражабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари (XIX асрнинг охири- XX аср боўлари). – Т., 2003. Б.127
9. Яна тўй масаласи.// Садои Фарғона. 1914. 8 июн.
10. Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”. G‘afur G‘ulom nashriyoti. – Toshkent, 2016. 229-234-betlar.



Oydin NORQOBILOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti
norqobilova4@gmail.com

CHO‘LPON HIKOYALAR BADIIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon XX asr birinchi yarmida ijod qilgan ayrim hikoyalari orqali obrazlarning o‘ziga xos psixologik jihatlari haqida fikr yuritiladi. Mana shu yillar oralig‘idagi adabiyotda inson ruhiy kechinmalari masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *hikoya, obraz, obrazning “men”i, ruhiy kechinma, psixologik va qiyosiy metod.*

Аннотация: в данной статье на основе рассказов, созданных сыном Абдулхамида Сулеймана Чолпоном в первой половине XX века, рассматриваются специфические психологические аспекты образов. В литературе этих лет освещаются вопросы духовных переживаний человека.

Ключевые слова: *рассказ, образ, “Я”образа, духовный опыт, психологический и сравнительный метод.*

Annotation: in this article, through some stories created by Abdulhamid Suleiman’s son Cholpon in the first half of the 20th century, the specific psychological aspects of images are discussed. In the literature of these years, issues of human spiritual experiences are covered.

Key words: *story, image, “I” of the image, spiritual experience, psychological and comparative method.*

Kirish. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon XX asr o‘zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug‘ullandi. Jumladan, she’r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima – hammasida ijod etdi. Lekin, birinchi navbatda, yangi o‘zbek she’riyatining asoschisi bo‘lib tarixga kirdi**.** Abdulhamid Cho‘lpon o‘zbek realistik prozasining shakllanish davrida samarali ijod qilib, uning taraqqiyotiga sezilarli ulush qo‘shgan san’atkordir. Shu bois Cho‘lpon asarlarining badiiy qiymatini, adibning milliy badiiy tafakkurimiz tadrijida tutgan o‘rnini belgilash uchun ularning poetikasini tadqiq etish muhimdir. Cho‘lponning hikoyalaridagi badiiy yuksaklik, uning zamonining ijtimoiy, siyosiy, madaniy muammolarini chuqur anglashida, shuningdek, psixologik tasvirlashdagi mahoratida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Istiqlol yillarida Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlarining nashr etilishi yangi tadqiqotlar uchun yo‘l ochib berdi.

O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mamajonov, N.Vladimirova, H.Boltaboyev, B.Do‘stqorayev, D.Quronov, Z.Eshonova, N.Yo‘ldoshev, U.Sultonov, M.Yo‘ldoshevlar Cho‘lpon ijodiy merosining ayrim qirralarini ilmiy tadqiqotlariga obyekt qilib oldilar. Cho‘lpon shaxsiyati, badiiy merosi, xususan, nasrining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rgangan M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, N.Vladimirova, B.Do‘stqoraev, A.Rahimov, R.Otaev, B.Karimov, X.Lutfiddinova va boshqa turli avlodga mansub adabiyotshunoslarimiz adib ijodiga ilmiy baho berishgan. *“[2.Б.6.]* So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda esa Cho‘lpon nasrini struktural o‘rganish va badiiy til mahoratini lingvo-poetik yo‘sinda tadqiq etishga urinishlar ijobiy natijalar bergan. D.Quronov, M.Yo‘ldoshev kabi tadqiqotchi olimlar Cho‘lpon ijodini o‘rganishda yangicha yo‘nalishda salmoqli izlanishlar olib borishgan. Dilmurod Quronovning “Cho‘lpon poetikasi” (nasriy asarlari asosida) doktorlik tadqiqoti maqsadi Cho‘lpon nasriy ijodining badiiy o‘ziga xosligini, davr shart-sharoitlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan xususiyatlarini tadqiq etish zaminida adibning o‘zbek realistik nasri taraqqiyotida, milliy badiiy tafakkur tadrijida tutgan o‘rnini belgilashga qaratilgan.

Cho‘lponning hikoyalarida o‘z zamonining voqealari, o‘ziga xos ijtimoiy muammolar, xalq hayoti keng tasvirlangan. U o‘z asarlarida insonning hayotdagi o‘rni, uning ijtimoiy, ma’naviy va ruhiy holatini tasvirlab beradi. Hikoyalarida insonlarning kunlik muammolarini va ularning o‘zaro munosabatlarini yoritish orqali o‘zining ijtimoiy vazifasini bajargan. Masalan: “Nonushta”, “Doktor Muhammadiyor”, “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz” singari hikoyalari o‘sha davr jamiyatining qaysidir bir illatlarini ochib beradi, lekin insonning ruhiy holatlarida ezilish hissi bo‘layotganiga qarshi chiqa olmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Cho‘lpon o‘zining badiiy asarlarida ijtimoiy va ruhiy masalalarni yoritib, o‘z zamonining o‘zgaruvchan voqealariga munosabat bildirgan. Uning hikoyalari, asosan, zamonaviylikni, ichki dunyoqarashlarni va insonning hayotdagi o‘rnini chuqur tahlil qiladi. Cho‘lponning hikoyalariga xos qarashlar qiyosiy, psixologik tahlil metodlari orqali ochiqlangan.

Tahlil va natijalar. Cho‘lpon iste’dodiga xos lirik nazokat va nafosat shoir nasriy asarlarining ham o‘ziga xosligini belgilab kelgan. Cho‘lpon qaysi mavzu-

ga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali mujassamlashtirishga erishgan. Shu ma'noda uning 20-yillarda yozgan "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalari bo'lgan. *"[3.B.20.]* Cho'lpon bu hikoyalarida o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy obrazlarda tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g'oyani o'z asarlarida ilgari surgan. Umuman, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri, Cho'lpon she'riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, "Kecha va Kunduz" romanining ham asosiy g'oyaviy yo'nalishini belgilab bergan. Ma'lumki Cho'lpon nosir sifatida ham adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadi.

Tadqiq etmoqchi bo'lganimiz, Cho'lpon nasriy asarlarining badiiyati haqida so'z borarkan, avvalo, bu boradagi fikrlarga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotshunosligimizda Cho'lponning "Novvoy qiz" hikoyasini ko'zdan kechirishimiz mumkin. Hikoyaning markazida novvoy qiz va uning hayoti tasvirlanadi. Asar ijtimoiy va shaxsiy ziddiyatlarni o'z ichiga oladi. Qizning hayotdagi o'rni, unga taqdim etilgan imkoniyatlar, uning atrofidagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hikoyaning asosi bo'lib xizmat qiladi. Hikoya bir qarashda oddiy bir qizning hayotini tasvirlayotgandek ko'rinadi, ammo Cho'lpon buni ko'proq ijtimoiy va psixologik tasvirga aylantiradi. Aynan qizning ezilgan hissi: *Qiz ko'zi ochiq, ezilgan, behol... cho'zilib, xayollanib yotardi. Oppoq oqargan yuzlarini sekingina O'lmasboyga burdi. Xoin erkakning marhamatsiz ko'zlari bilan aldangan qizning so'nggi ko'zlari bir-biriga yo'liqishdi. Erkak mag'rur. Zaharli va sovuq bir kulish bilan kuldi. Qiz juda og'ir bir jirkanish bilan yuzlarini burdi. Yana jim bo'ldilar. O'lmasboy qizning yuzlariga mag'rurlik nazari bilan yana bir oz qarab turg'ach, sharpasiz qadam qo'yib eshikli terazaga yaqinlashdi va uning bir qanotini sekingina ochdi.* Endi uning taqdiri nima bo'ladi? Qiz o'ziga-o'zi kuyib yonayapti, uning ruhiyatida shunaqangi ezilish, afsuslanish bo'lyaptiki, bari befoyda. Lekin O'lmasboy bunga beparvo. Bundan tashqari, Cho'lpon ushbu hikoyada g'ayrioddiy vaziyatlarni, ichki psixologik holatlarni yoritishda, odamlarning o'z orzulari va jamiyatning ularga qo'ygan chegaralari o'rtasidagi murosasizlikni ko'rsatadi va bu holatni asosiy qahramon novvoy qiz orqali ochib beradi. Unga nisbatan ijtimoiy bosim va qarshiliklar mavjud. U o'zining ichki qarorlarini qabul qilishga intiladi, lekin atrofidagi muhit uni turli xil tanlovlarga duchor qiladi. Asosan bu hikoyada psixologizm ham muhim o'rin tutadi. Qizning suddagi jarayoni:

Men novvoy qiz edim... Besh yildan beri non yopib, o'zim sotib qari onamni boqar edim... Bir kun... Bir kun...U yog'ini ayta olmadi. Nafasi og'ziga tiqildi, bo'g'ildi, battar qaltiradi. So'ngra birdan yovvoyi bir "dod"chiqarib yiqildi. Pastdan ham bir xunuk "dod"chiqdi. Unda aybdor ham yiqildi. Ikkovini suyab olib ketdilar. Sud buzildi. Yana sud bo'lganda... Dengiz — qiz qullarday jim turib so'zladi. Qirg'oq — O'lmas tog'larday tinch turib tingladi. Qirg'oq ag'darildi. Tog' yiqildi. Dengiz mavjlari va to'lqinlari quchog'iga olib, ularni qirg'oqlardan saqlash: qo'riqlash qayg'usiga botdi. Mana shu o'rinda uning oilaviy sharoitida qiz oilani tebratadi, u qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, uni tinglaydigan dardkashi bu– onasi. Ammo onasi ham dunyoni tark etadi. Uni tinglaydigan dardkashi endi yo'q. Asosan, uning ayanchli muammosi iffatini yo'qotganligidir. Uning "men"ida hamma voqealar namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham u dengizga o'xshatilyapti. Nazarimda, dengiz bir xil me'yorda mavjlanadi, lekin bir ko'tarilsa hamma yoq ostin-ustin bo'ladi. O'lmasni qirg'oqqa qiyoslaydi. Agar tog' ham, qirg'oq ham yiqilsa, dengiz to'fondek ko'tarilsa ham uni himoya qiladi. Dengizning bu yerda buyukligiga ishora. Kitobxon qizning boshdan kechirgan og'ir va murakkab holatlarini, uning har bir qaroridan tug'ilgan oqibatlarni chuqur his qiladi. "Novvoy qiz" hikoyasi nafaqat bir qizning hayotini tasvirlaydi, balki ijtimoiy, psixologik va shaxsiy qarorlar o'rtasidagi muammolarni yoritadi. Hikoya orqali Cho'lpon o'z zamonining jamiyatiga va uning me'yorlariga qarshi tanqidiy nuqtai nazarini ilgari suradi. Shuningdek, uning hikoyasida ayollarning iffat chegaralari, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy tengsizlikning o'zaro bog'liqligini keng ko'lamda tahlil qiladi.

"Qor qo'ynida lola" hikoyasining nomi o'zgacha. Odatda, bir orzuni, go'zallikni va tabiiy dunyoning ajib imkoniyatlarini ta'riflashga intiladi, lekin bu orzularni amalga oshirish oson emas, chunki bunda ayanchli taqdir bor. Hatto asarning nomida ham juda chuqur ma'no yashiringan. Darhaqiqat, lola qor qo'ynida yasholmaydi, u bir kun nobud bo'ladi, albatta. Bundagi asosiy qahramon Sharofatxon yosh. Ko'pchilik qizlar bilan koptok o'ynayotgan bo'ladi. Ayni paytda, qizlar o'yin haqida muhokama qilib turishgan bir paytda bog'ning kichkina eshikchasidan hovluqqancha Turg'unbo'shning singlisi yugurib keladi. *Fazilat opasiga "Chekaga chiqing opa sizga zaril gapim bor" deydi. Shunda Tilla degan qiz bu sirli gap degani sovchilarda deydi shunda Turg'unbo'sh qaytib kelib ha sovchilar, lekin menga emas Sharofatxonga sovchi kelibdi deydi, Sharofatga qarab, qizlar bir-birlariga qarab qoladilar. Sharofatxon uyalib, qizarib turgan joyida qotib qoladi.* Hikoyada adib qizlarning qanchalik yosh, beg'ubor va hur ekanligini tasvirlagan. Hozirgi davrda qaysi ota koptok o'ynab yurgan qizini turmushga beradi? Cho'lpon Sharofatxon obrazida o'z taqdirini o'zi tanlay olmagan adolatsizlik qurboni sifatida yosh qizlarni umumlashtirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hikoyaning eng yuqori cho'qqisi, 17 yoshli Sharofatxon otasi tengi insonga turmushga chiqishi, bu qanchalik

haqiqat? Meni to‘lqinlantirib yuborgan joy. Sharofatxon Samandar akaning yakka-yu yolg‘iz qizi edi. Bu qiz oilada juda erka. Uning go‘zalligini, odobliligini va chaqqonligini ko‘rgan qo‘shnilari *“Bu qiz qaysi xudo yarlaqag‘onniki bo‘lur ekan? Kimning uyini obod qilar ekan?”* der edilar. Sharofatxonni Eshonga berilganligini eshitgan mahalla ko‘y bir necha kun shu haqida gapirib yurdilar. Mana o‘sha kun ham keldi. O‘n-o‘n beshta aravaga to‘lgan ayollar “Yor-yor” aytib kelinni olib ketishardi. Eshonning uyiga olib kelishdi. Ana undan so‘ng yosh qizning ayanchli taqdiri boshlanadi. Albatta, insonning ruhiyatiga ta’sir qiladi. Sharofatxonning ichki kechinmalarini, nahotki, ota tushunmasa? Uning ruhiyatida hali sof insoniy tuyg‘u va beg‘ubor bolalik hissi bor deb o‘ylayman. Asarning yakunida *Mamat qorovul yig‘lamsirab “Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o‘zi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yog‘di” dedi va hammalari qorong‘ilik tomon kirib yo‘qoldilar.* Qiyoslash maqsadimizda, bu ikkala hikoyani tahlil qiladigan bo‘lsak, bunda ham ayollar erki masalasini ko‘ramiz. Chunki ikkala hikoyada ham erki o‘zida bo‘lmagan ayanchli qizlar taqdiri yaqqol ko‘rinadi. Ayniqsa, bu hikoyalarda insoniyatning eng nozik his-tuyg‘ulari, umid, qayg‘u va orzular tasvirlanadi. Umuman olganda, Cho‘lpon yashagan davr ayol va qizlari holatini, ichki kechinmalari, haq-huquqlarini hikoya timsolida ko‘rdik. Bu albatta yozuvchining qaydarajada mahoratli ekanligining isbotidir.*“[4.B.169]* Cho‘lponning hikoyalarida odamlarning ichki holati, ularning ruhiy kechinmalari va ichki dardlari alohida o‘rin tutadi. Psixologik tarafdan, obrazlarning fikr va hissiyotlarini, shuningdek, ularning atrof-muhit bilan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu yo‘l orqali kitobxon qahramonlarining ichki dunyosini qanday anglashini, tashqi dunyo bilan qanday bog‘lanishini o‘z kechinmasida anglashi mumkin.

Yana bir hikoyasi “Doktor Muhammaddiyor” hikoyasida boshqacha qarash. Endi bu hikoyada ma’rifatchilik orasida o‘zaro ichki ziddiyatli kurash yaqqol namoyon bo‘ladi. Asar shaxsiy va ijtimoiy ziddiyatlar, shaxsning o‘z-o‘zini anglash va jamiyatning unga bo‘lgan talablarining ziddiyatli bo‘lishi kabi masalalarga e’tibor qaratadi. Muhammad Diyor o‘z kasbini va maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. *“[1.Б.32]* Hikoyada uning o‘zining ichki dunyosi, shaxsiy kurashlari, axloqiy qarorlaridagi murakkabliklar ko‘rsatilgan. Hikoyaning dastlabki sahifalaridayoq, masalan, biz Muhammadiyorning otasidan ayrilishiga guvoh bo‘lamiz. Shu voqea tasviridan keyinoq Cho‘lpon qahramonining ruhiy holatini tavsiflaydi: *“Muhammadiyor o‘ldiruvchilarning bir ikkisun tanub, har narsa qilub bo‘lsa ham o‘ch olmoqni qasd qilub ko‘rdi. Lekin otasini o‘ldiruvchilar bular bo‘lmay, balki jaholat ekanligini o‘ylab, tinchgina otasini ko‘mdi. Va o‘zi jaholat ila chindan olishmoqg‘a qaror qildi”.* Jamiyat hayotidagi jamiki illatlar ildizini jaholatda deb bilgan Cho‘lpon o‘n to‘rt yoshli qahramonining ruhiy holatini, xatti-harakatlarini realistik tasvirlamaydi, balki o‘zining qarashlariga moslab ko‘rsatadi. Yo‘qsa, ko‘z oldida otasi o‘ldirilgan o‘n to‘rt yoshli o‘smirning uni ko‘mguncha o‘tgan ozgina fursat ichida tugal (“jaholat bilan chindan olishmoqg‘a qaror berdi”) qarorga kelishi, tabiiyki, mahol edi. Uzoq yillik ayriliqdan so‘ng yurtiga qaytayotgan Muhammadiyor o‘zi ko‘rgan mutaraqqiy mamlakatlar — Italiya, Fransiya, Shveytsariyadagi hayot tarzi bilan Turkiston hayotini qiyoslab iztirob chekadi: chog‘ishtirish uning dilida umidsizlik hosil qiladi. Muhammadiyor yaxshi biladiki, ona yurtining *“buyuk-buyuk, yashil yashil tog‘lari Shveytsariyadan kam emas edi. Nahr-nahr oqib turg‘on suvlari va nima eksa shuni olsa bo‘ladurg‘on mahsuldor tuproqlari ila Amriqodan hech kamligi yo‘q”.[5.B.4.]* Muhammadiyor biladiki, Turkistonning taraqqiy etishi uchun barcha tabiiy imkoniyatlar muhayyo, biroq shu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishi lozim bo‘lgan omma jaholat qo‘ynida, shu bois ham o‘z foydasini o‘zi anglaganicha yo‘q. shuning uchun ham xalqni bilimli bo‘lishiga qo‘lidan kelgancha harakat qiladi. Uning ruhiyatida tirishqoqlik, vatanparvarlik mas’uliyati mavjud deb hisoblayman.

Xulosa. Cho‘lponning hikoyalari o‘z davrining adabiyoti va ijtimoiy muhitiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. U o‘z asarlarida insonning ichki dunyosini va tashqi hayotini o‘rganib, o‘quvchiga chuqur fikrlar va tasavvurlarni taqdim etadi. Cho‘lponning hikoyalari nafaqat o‘z zamonining ijtimoiy muammolarini, balki insoniyatning abadiy masalalarini yoritadi. Uning asarlari hozirgi kunda ham o‘zining badiiy va ma’naviy qiymatini yo‘qotmagan. Sharofatxon, Novvoy qiz, Doktor Muhammadiyor singari qahramonlar ichki dunyosi, ruhiy holatlari va kechinmalari keng yoritilgan. Bu qahramonlar ko‘pincha ichki kurashlarda bo‘lgan, o‘z orzu va haqiqatlari bilan yuzlashgan shaxslar bo‘lib, ular ko‘pincha o‘z hayotining ma’nosini izlaydi. Xulosa shuki, Cho‘lponning hikoyalari, asosan, insonning ichki dunyosini, ijtimoiy muammolarni va uning hayotdagi o‘rnini yoritishga qaratilgan. Yozuvchi hikoyalarini turli usullarda tahlil qilish orqali uning o‘ziga xos xususiyatlarini kashf qilish adabiyotshunoslik, ilmiy jamoatchilik uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.История всемирной литературы. –Т., 32-bet
2.Қуронов Д. Чўлпон насри поетикаси. – Т.: Шарқ, 2004. 359-bet
3. Cho‘lpon A. – Toshkent: G‘.G‘.nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993-yil.
4.Cho‘lpon A. “Yurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar”, – Toshkent, 2022-yil. 165-bet
5. www.ziyouz.com
6. www. arxiv. uz.

Mohidil ABDULLAYEVA,
FDU 2-kurs magistranti

BADIIY ADABIYOTDA KO‘ZI OJIZ INSON OBRAZI

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asrning 60-yilarida badiiy adabiyotga ko‘zi ojiz inson obrazining kirib kelishi va buning sabablari hamda uning yaratilishi V.G‘ofurovning “Vafodor” romani miqyosida tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: *badiiy obraz, inson obrazi, ko‘zi ojiz kishi obrazi, XX asrning 60-yillari, bevosita ruhiyat tasviri, detal, tip, prototip.*

Annotation: in this article, in the 60s of the 20th century, the introduction of the image of a blind person into the fiction and the reasons for this, as well as its creation, are researched on the scale of the novel "Faithful" by V.Gafurov.

Key words: *artistic image, human image, image of a blind person, 60s of XX century, direct mental image, detail, type, prototype.*

Аннотация: в данной статье в 60-е годы XX века исследуются внедрение в художественную литературу образа слепого человека и причины этого, а также его создание в масштабе романа “Верный”П. В. Гафуров.

Ключевые слова:*художественный образ, образ человека, образ слепого, 60-е годы XX века, непосредственный мысленный образ, деталь, тип, прототип.*

Ma’lumki, o‘zbek adabiyotiga obraz atamasi XX asrning 20-30-yillarida kirib kelgan. Unga qadar esa mazkur atama o‘rnida timsol, tasvir, nusxa kabi so‘zlardan foydalanilgan. “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va boshqa) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir’ .

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz tushunchasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda badiiy obraz deganda, borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, hayot voqea-hodisalarini qayta tiklashda inson obrazi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.Zero, adabiyot markazida inson va uning taqdiri turar ekan, obrazning asosiy mohiyatini ham inson tashkil etishi tabiiy, albatta. Tabiiyki, insonlar turfa xildir.Ma’lumki, insonlarning yaxshi va yomoni, komik xarakterga ega yoki jiddiy tabiatlisi, qolaversa, aqliy yoki jismoniy jihatdan sog‘lom yoxud nuqsonlilari bo‘ladi. Badiiy obraz ham insonlarni shu va shu kabi jihatlarini yoritadi, faqat bu yoritish shunchaki voqelikni bayon qilibgina qolmay, unga badiiy to‘qima ham singdiriladi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, badiiy to‘qima deyilganda yolg‘on va uydirmalardan tarkib topgan voqelikni tushunish katta xatolik hisoblanadi. Badiiy to‘qima bu yozuvchining hayot haqiqatini inkor etmaydigan va shu bilan birga unga mutanosib keladigan ijodiy mahsulidir. Demak, insonlar xarakter jihatdan turfa xil bo‘lar ekanlar, badiiy obrazning ham turli xil bo‘lishi tabiiy, albatta. Ayni shu jihatlar asnosida XX asr o‘zbek adabiyotiga bir qator obrazlar silsilasi kirib keldi. Salbiy va ijobiy, realistik va romantik, simvolik, lirik, epik hamda dramatik, bosh va yordamchi, satirik va yumoristik, kabi obrazlar shular jumlasidandir. Ayni shu o‘rinda aytish joizki XX asr 60-yillariga kelib esa mazkur obrazlar silsilasiga ko‘zi ojiz inson obrazi ham qo‘shildi. V.G‘ofurovning “Vafodor” romanidagi Rustam, N,Abbosxonning “Sho‘rqishloq” romanidagi Olim va Obidalar shular jumlasidandir.

Hayot turfaxil sinoatlardan iboratligi hammaga ma’lum, albatta.Kimdir boy bo‘lsa, kimdir nochor yashaydi, kimdir dunyoni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish baxtiga muyassar bo‘lsa kimlardir esa butun olamni qalb ko‘zlari bilan tasavvur qilishga intiladilar. Ana shunday kishilar ko‘zi ojiz insonlardir. XX asr 60-yillaridan boshlab, badiiy adabiyot ana shu ojizlar hayot yo‘li hamda ularning tasavvur dunyosini yoritish kabi ulkan yukni o‘z zimmasiga oldi. Natijada, badiiy adabiyotga ko‘zi ojiz inson obrazi kirib keldi.

O‘tmishda aksar ko‘zi ojiz insonlar nochor ahvolda yashaganlar. Ularning ko‘pchiligi folbinlik yoxud tilamchilik qilib kun kechirganlar. XX asrning 30-yillariga kelib esa Respublika ko‘zi ojizlar jamiyati tashkil topdi. Bu esa ko‘zi ojiz kishilar hayotida tub burilish yasadi deyish mumkin. Ya’ni ko‘zi ojiz insonlar hayotida yangi davr boshlandi.Ko‘zi ojizlar jamiyatining tashkil topishi aynan shunday nuqsonli insonlar uchun jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkonini yaratdi. Ular ham sog‘lom insonlar kabi hayotda yashash uchun kurashni o‘rgandilar va boshqalar kabi hayot kechira boshladilar. Mazkur jarayon esa badiiy adabiyotga ham ko‘chdi.Badiiy adabiyotga ko‘zi ojiz inson obrazi kirib kelishining ikkinchi va shu bilan birga, asosiy sababi sifatida esa ikkinchi jahon urushini ko‘rsatish mumkin.

Ma’lumki, ikkinchi jahon urushi ko‘plab yo‘qotishlarga sabab bo‘ldi. Ko‘pchilik insonlar esa o‘z uylariga nogiron holda qaytishga majbur bo‘ldilar. Ularning ayrimlari oyog‘idan, ayrimlari qo‘llaridan ayrildilar.Ba’zi birlari bu yorug‘ dunyoni ko‘rish baxtidan mahrum bo‘ldilar. Ayni shu holatlar esa badiiy adabiyotga ham

kirib keldi va adabiyotimizda imkoniyati cheklangan insonlar, xususan, ko‘zi ojiz kishi obrazi paydo bo‘di. Ko‘zi ojiz kishi obrazlari qatnashgan dastlabki asar sifatida V.G‘ofurovning “Vafodor” romani qahramonlari Rustam va boshqa ko‘zi ojiz kishilarni keltirish mumkin.

Asarning yana bir nomi “Igna bilan yozilgan asar” bo‘lib, unda ikkinchi jahon urushida mardonavor kurashib ko‘zidan ajralgan Rustam Shokirov haqida so‘z boradi. Asarning “Igna bilan yozilgan roman” deya nom olishining ham o‘ziga xos sababi bo‘lib, asar maxsus ko‘zi ojizlar yozuv uskunasi bilan yozilgan. Ya’ni yozuvchi V.G‘ofurovning o‘zi ham urushda ko‘zi ojiz bo‘lib qoladi va urushdan keyin mazkur asarni yozishga kirishadi.Demak, asar bosh qahramoni Rustam Vali G‘ofurovning prototipi deyish mumkin.

Yozuvchi Vali G‘ofurov 19 yoshga yetar-yetmas jang-u jadalga yo‘l oldi. Stalingrad ostonalarida mardlik, qahramonlik namunalarini ko‘rsatdi.Navbatdagi razvetka vaqtida bir yo‘la ikki ko‘zidan ajraldi, nogiron bo‘lib qoldi. Jangdan qaytgach, tirishqoqligi, mehnatsevarligi va yaxshi odamlar ko‘magida brayl igna bilan yozish va o‘qish usulini tezda o‘zlashtirib oldi. O‘qituvchilik qildi. Ko‘zi ojizlarga rahbarlik qildi. Va nihoyat, 60-yillar boshlariga kelib uning igna bilan yozilgan “Vafodor” romanining birinchi kitobi nashr etildi. 1973-yilda “Vafodor” romanining ikkinchi kitobi paydo bo‘ldi.Asar kitobxon va adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Rus va qardosh tillarga tarjima qilindi.Romanda yozuvchining shaxsiy hayoti, taqdiri orqali xalqimizga xos metn, mustahkam iroda, qahramonlik, birodarlik tuyg‘ulari ulug‘landi.

Adabiyotshunos olim, professor Y.Solijonov badiiy obrazga munosabat bildirar ekan, shunday yozadi: “Har qanday badiiy asarda yaratiladigan obraz, avvalo, yozuvchining kishilarga va hayotga munosabatini aks ettirish vositasi hisoblanadi.Ayni chog‘da, u muallifning hayot hodisalariga bergan estetik bahosi hamdir. Har bir personaj o‘zida yozuvchining estetik idialini u yoki bu darajada tajassum etadi.Bu vazifani bajarish uchun o‘sha obraz muayyan ijtimoiy sharoitda, ruhiy-ma’naviy muhitda xarakterlanishi zarur.Bu tabiiy ravishda ro‘y berishi kerak”.

Yozuvchi Vali G‘ofurovning “Vafodor” romani qahramoni Rustam ham o‘zining mardligi, vatanparvarligi, ulkan jasoratga egaligi hamda, eng asosiysi, vafodorligi va hayotni sevishi bilan adibning estetik idialini tajassum eta olgan deyish mumkin. Rustam urush qatnashchisi. Ayovsiz janglarning birida razvetkachi Rustam ko‘r bo‘lib qoladi.Nemis polkovnigi hamda uning yonidagi maxfiy hujjatni muvaffaqiyat bilan qo‘lga kiritgan Rustamlar mashinasi yo‘lda portlab ketadi, ana shu voqea sabab Rustam hayotida zulmat bilan qoplangan kunlar boshlanadi. “Ertalabning salqin havosi yordam bergandek Rustam tezda o‘ziga kela boshladi. Hushiga kelib ilk aytgan so‘zi:

-Katya, siz shu yerdamisiz? Degan savol bo‘ldi. U shundoqqina yonida turgan Katyani ko‘rmasdi. Qo‘li bilan atrofni timirskilab qoldi.Uning bu harakati Katyani yana dahshatga soldi.U egilib Rustamning ko‘ziga boqdi. Qanday dahshat! Haligina butun olamni ko‘rib kelayotgan tiyrak ko‘zlar endi qarshidagi odamni payqamasdi. Portlashning zarbi ko‘zlarini yelpib ketganga o‘xshardi.

-ko‘zim ko‘rmayapti-ku, - dedi Rustam o‘zini o‘nglab”.

Mazkur portlashda Rustamning oyog‘i ham lat yegandi. Lekin Rustam tezda o‘zini o‘nglashga harakat qildi va berilgan topshiriqni o‘yladi hamda Katya bilan ana shu yerga yaqin bo‘lgan g‘orga bordi.U o‘zini o‘ylamasdi. Nima bo‘lganda ham qo‘lga kiritilgan maxfiy hujjat zudlik bilan generalga yetkazilishi kerak edi.U buni Katyadan o‘tinib iltimos qildi. O‘zi esa shu yerda qolishini ta’kidladi. Ko‘rinadiki, Rustam mas’uliyatni yuqori darajada his qila olishga qodir bo‘lgan chinakam vatanparvar yigit.Uning ruhiyatida ham ana shunday qat’iyatni kuzatish mumkin.U g‘orga yetib borish jarayonidagi og‘riqlarni ham Katyaga sezdirmaslikka harakat qildi. To‘g‘ri, qizning oldida buni or deb bildi. Lekin masalaning yana bir tomoni borki, bu ham bo‘lsa, haligi hujjatning tezroq manzilga yetib borishidir.

Hammasi Rustam gospitalga keltirilgandan keyin boshlandi.U butun umr ko‘r bo‘lib qolishini bilgach, o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. Uning ruhiyatida ulkan yevrilishlar avj oldi. Shuni ta’kidlash kerakki, tug‘ma ko‘rlar o‘z taqdirlariga ko‘nishlari u darajada qiyin bo‘lmaydi, chunki ular tug‘iliboq mana shu hayotni qabul qilgan bo‘ladilar. Lekin bu yorug‘ dunyoni ko‘rib turib keyin uni birdan ko‘rmay qolish, albatta, buni tushuntirish anchayin og‘ir hodisadir. Rustam ham o‘zini go‘yo keraksiz odamday his qilardi.U butunlay umidsizlikka tushib qolgandi. Hattoki do‘stlarining yupatishlari ham unga go‘yo haqoratdek tuyulardi. Shu o‘rinda aytish joizki, inson o‘zini keraksiz va foydasiz his qilganida butunlay umidsizlikka tushib qolar ekan. Chinakam mard inson uchun esa o‘zini jamiyatga kerakli kishi sifatida his qilish haqiqiy baxt hisoblanar ekan. “Uning ko‘ziga hech narsa ko‘rinmas, hech narsaning umidida qalbi yonmas ham edi.Uni dahshat o‘zining yondiruvchi quchog‘iga olgan edi. Haligi hamshira Katyaning gaplaridan keyin bor umidlarinig cho‘g‘i ham o‘chib bo‘lgan, endi unga faqat ufqida bitta ham yalt etgan yulduzi yo‘q kelajak ko‘rinardi.Bu kelajak unga hech narsa va’da etmaydi.U yolg‘iz, u hech kimga kerakmas!”

Bevosita tasvirlangan mazkur ruhiy holatdan Rustamning chiqib ketishi oson bo‘lmadi. U hatto o‘zini o‘ldirmoqchi ham bo‘ldi.Buning uddasidan chiqa olmagach, suyuklisi Muhabbatga xat yozib, o‘zidan butunlay voz kechishini so‘radi. Lekin yaratgan insonga toqatidan ortiq sinov bermasligi tabiiy, albatta. Hayot davom etadi.Vaqt esa hamma dardni davolaydi.

Rustam ham ana shu qat'iy qoidalar asosida asta-sekin o‘zini qo‘lga ola boshladi. Uning umid uchqunlari qayta cho‘g‘lanishida safdoshi Katyaning o‘z xolasining o‘g‘li baxtsiz hodisa tufayli ko‘r bo‘lib qolgani va hozir u bemalol o‘qib, hatto ishlab oila tebratayotganligi haqidagi hikoyasi sabab bo‘ldi.

Yozuvchi Rustam obrazini yaratar ekan, u hamisha hayotda faqat yaxshilik va ezgulikni ko‘rishni xohlayotgani ma'lum bo‘ladi. Rustam ham ko‘zidan, ham oyog‘idan jarohatlandi. Lekin uning suyuklisi Muhabbat Rustamni bunday holda tashlab ketish o‘lim bilan barobar ekanini his qildi hamda Rustamga sodiq qolishga qat'iy va so‘zsiz qaror qildi. Bunday vafodorlik esa, ayniqsa, bugungi kunda anqoning urug‘iga aylanib borayotgani hammaga ma'lum. Adabiyot inson ma'naviyatining kamol topishida muhim rol o‘ynaydi, albatta. Yozuvchi ham Rustam va Muhabbatning sof tuyg‘ulari orqali insoniyat ma'naviyatining nihoyatda zaruriy qismlaridan biri bo‘lmish vafodorlikni yonib kuyladi. Muhabbat vafodor qiz. Rustam ham, o‘z navbatida, unga munosib yigit. U har qanday holatda ham biror qizga qayrilib qaramadi. Hatto Katyaning samimiy va ochiq ko‘ngilligiga tan berdi. Muhabbatning ham Katyadek bo‘lishini orzuladi, lekin ko‘ngli zarracha buzilmadi. Bu esa sof va samimiy muhabbatdan darakdir. Rustamning o‘z taqdiriga ko‘nishinig yana bir sabablaridan biri bu Muhabbatning vafo to‘la sof va samimiy sevgisidir. Lekin, shunday bo‘lsa ham Rustam ruhiyatida ayovsiz tushkunlik paydo bo‘lar, u esa bu tushkunlikni yengishga tirishardi. “Rustamning xayoliga o‘g‘li – Adhamjon keldi. Nahotki, uning yuz-ko‘zlariga otalik mehri bilan biror marta boqolmasam, jovdirab turgan munchoqdek ko‘zlarini, lo‘ppi yuzlari bilan jajji lablarini ko‘rishdan umrbod mahrum bo‘lgan bo‘lsam! Rustamning ko‘nglini yoritib turgan shirin xayollar bir pastda yo‘qolib dili xiralashdi. U ojizligini, ayniqsa, ko‘pchilikdan qaynoq mehnat quchog‘ida javlon urayotgan tengqurlari, yor-u birodarlaridan ajralib uyda qamalib yotganini aslo tan olgisi kelmasdi. Frontda ne-ne qiyinchiliklarga bardosh bergan Rustam bunaqangi hayotga chiday olmas edi. Axir, nimaga ham chidasin. Tug‘ilib-o‘sgan uyida bemalol qadam tashlay olmay sonsiz-sanoqsiz to‘siqlarga urilayotganigami?! Hali devorga, hali eshik kesakisiga, hali daraxtga peshonasi tegib, ketma-ket g‘urra bo‘layotganigami, oyog‘i ostidagi idish-tovoqlarni bosib olib sindirayotganigami?! Bir ko‘ngilsiz voqea xayolidan sira nari ketmaydi.

To‘ydan sal ilgariroq Hojiya xola o‘choq boshida osh damlayotgan edi. Ishdan qaytgan Svetaga:

-osh pishguncha sen shakarop tayyorla, qizim, - dedi. Sveta bog‘chaga chiqib pomidor, piyoz, bodring uzib chiqdi. Hovli o‘rtasida gullar yonida oqayotgan ariqchaga kelib yaxshilab yuvdi. Keyin supaga chiqib shakarop tayyorladi. Xushxo‘r bo‘lsin deb, ko‘k qalampir uzgani yana bog‘chaga kirib ketdi. Uyda yotaverib diqqinafas bo‘lib ketgan Rustam hovliga chiqdi. Bitta-bitta yurib supaga ko‘tarildi-da, ko‘rpa tomonga qadam qo‘yishi bilan kosadagi shakaropni bosib oldi. Rustam cho‘chib muvozanatini yo‘qotdi. Qalqib sal narida yotgan pichoqni bosib oldi.Oyog‘idan tirqiragan qon bir zumda sholcha va ko‘rpachalarni bo‘yadi. Sveta bog‘chadan chiqib qarasaki, ish chatoq. Qo‘lidagi qalampirni gul tagiga tashlab Rustamning yoniga yugurdi:

– voy o‘lmasam, kechiring, Rustam aka, ayb menda. Deganicha tibbiy punktga yugurdi”

Shu o‘rinda aytish joizki, tug‘ma ko‘rlar o‘z taqdirlariga oson ko‘nishlari bilan birga ularning mo‘ljal olishlari ham keyin bo‘lgan ko‘zi ojizlarnikidan anchayin farq qiladi. Ularning shuurida yoshlikdanoq eshitish va qo‘l bilan ushlab his qilish, qolaversa, hid bilish kabi sezgilar sog‘lom ko‘ruvchi kishilarning sezgilariga nisbatan yaxshiroq shakllangan bo‘ladi. Ehtimol, shu sababli ham ko‘rlarning ko‘p narsalarni va hodisalarni ko‘zsiz ham payqay olshlari ko‘pchilikni lol qoldirar. Rustam esa keyin bo‘lgan ko‘zi ojizlardan. Aksar hollarda eshikka va daraxtlarga urilib g‘urra bo‘lishi hamda pichoqni bosib olib, oyog‘ini kesib olishining sababi ham ana shundadir. Yozuvchining ayni shu jarayonlarni obrazning bevosita ruhiyat tasviri va eshik, pichoq, daraxt kabi detallar orqali berishi esa, ayni shu jarayonning hayot haqiqatiga muvofiqligini ta'minlamoqda deyish mumkin. Qolaversa, Rustam yozuvchining prototipidir. Demak, yozuvchi ayni shu holatlarni boshidan o‘tkazgan. Bu esa Rustamning ichki kechinmalarini tasvirlashda muhim rol o‘ynagan.

Ma'lumki, nogironligi bor shaxslarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun juda katta motivatsion kuch kerak (ayniqsa, nogironligi keyin orttirilgan bo‘lsa, bu juda muhim). Ularning ham jamiyatda o‘z o‘rinlari borligini tushuntirish, dunyoda bunaqa inson faqat u emasligini anglatish, ularning ham qo‘lidan ish kelishi mumkinligi va jamiyatda foydali insonga aylanishi haqida, qolaversa, ularning hech kimdan kam emasligini ta'kidlash kabilar imkoniyati cheklangan shaxslar uchun juda katta motivatsion ruh vazifasini o‘taydi. Beminnat xizmatlar ularning ko‘nglini tog‘dek ko‘tarsa, ozgina malollik ham ularning ruhini tushurib yuboradi. Chunki, birovlarga qaram bo‘lib yashashdan og‘irrog‘i bo‘lmasa kerak. Shu sababli ham aksar nogironlarning ko‘ngillari, xususan, ko‘zi ojizlarniki negativlikka moyilroq bo‘ladi. Shuning uchun ham atrofdagilardan ularga imkon qadar pozitiv ruh ulashib turish talab etiladi. Muhabbat ana shularni tushundi va hamisha Rustamni qo‘llab-quvvatladi. Gap-so‘zida, harakatlarida uni avayladi. Xususan, amakisi Mahsumdan ko‘ngli og‘rigan paytlari ham buni Rustamga bildirmadi. O‘g‘li Adhamning unga kelajakda asovdosh emas, ko‘makdosh bo‘lishini eslatib, uning ko‘nglini ko‘tardi.

Qolaversa, Rustamning o‘z taqdiriga ko‘nishiga va

hayotda yo‘lini topishiga sabab bo‘lgan kishilar bu ko‘zi ojizlar jamiyatining a’zolaridir.

Ana shunday kishilardan biri Zoya Kuzminichnadir. U Rustamga o‘xshamaydi, quvnoq, hazilkash va o‘z hayotidan mamnun. U ham urush sababli ko‘zidan ajraldi. Lekin o‘zini tiklab, brayl yozuvini o‘rgandi. O‘rta osiyo davlat universitetini tamomlab, ko‘rlar jamiyatida ishlay boshladi. Uning quvnoqlik bilan aytgan gap-so‘zlari qishloq ko‘zi ojiz kishilariga turtki berdi va Rustam ham hayotga boshqacha ko‘z bilan qaray boshladi.

Xullas, XX asrning 60-yillarida badiiy adabiyotga ko‘zi ojiz obrazi kirib kelgan bo‘lib, “Vafodor” romani bosh qahramoni Rustam yozuvchining prototipi sifatida ana shu kabi ko‘rish baxtini urushda yo‘qotgan va yaxshi kishilar ko‘magida hayot yo‘lini topishga muvaffaq bo‘lgan insonlarning tipik umumlashmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D., Mamajonova Z.Sheraliyeva M.Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
2. Izzat Sulton.Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 102-bet
3. To‘ychiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Bookmany print,
5. Oripova, G. M., & Abdurasulova, N. A. Q. (2022). O‘ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA “YO‘QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 213-220.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
7. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
8. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы, М., 1959, стр. 53
9. G‘ofurov V. Vafodor, - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1973

Shodiya BARAKAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti

SAID AHMAD HIKOYALARIDA IJTIMOIY MUAMMOLAR TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada Said Ahmadning hikoyalarida ijtimoiy muammolar tasviri o‘ziga xos va chuqur yoritilgan. Yozuvchi o‘z asarlarida jamiyatdagi turli xil muammolarni, ijtimoiy adolatsizlik, axloqiy inqiroz va siyosiy zulmni kiritgan. Uning hikoyalarida insonlarning ichki kechinmalari, turmush sharoitlari va boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlari orqali zamonamizning og‘ir va murakkab ijtimoiy holatlari tasvirlanadi.

Kalit so‘zlar: *hikoya, hikoyanavislik, badiiy ijod, til uslubi, stilistika, badiiy tasviriy vositalar, ijtimoiy muammolar.*

Аннотация: в данной статье изображение социальных проблем в рассказах Саида Ахмеда уникально и глубоко освещено. В свои произведения писатель включал различные проблемы общества, социальную несправедливость, моральный кризис, политический гнет. Его рассказы описывают тяжелые и сложные социальные ситуации современности через внутренние переживания людей, условия жизни и отношения с другими людьми.

Ключевые слова: *сюжет, повествование, художественное творчество, языковой стиль, стилистика, художественные изобразительные средства, социальные проблемы.*

Annotation: in this article, the depiction of social problems in the stories of Said Ahmed is unique and deeply covered. In his works, the writer included various problems in society, social injustice, moral crisis, and political oppression. His stories describe the difficult and complex social situations of our time through people's inner experiences, living conditions, and relationships with others.

Keywords: *plot, narrative, artistic creativity, linguistic style, stylistics, artistic means of expression, social issues.*

Said Ahmad (Husanxo‘jayev) o‘zining serqirra ijodi bilan zamonaviy o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallagan ijodkordir. U o‘z asarlari orqali nafaqat badiiy adabiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shgan, balki jamiyatning ijtimoiy hayotini tasvirlashda ham muhim rol o‘ynagan. Adib ayniqsa, satira va yumor ustasi sifatida mashhur bo‘lib, uning asarlari xalqning yuragiga yaqin va qiziqarli uslubda yaratilgani bilan ajralib turadi.

Said Ahmad 1920-yilda Toshkent shahrida dunyoga keldi. U bolaligidan ilmga qiziqib, o‘qishga intilgan va keyinchalik Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika oliy o‘quv yurtida tahsil oldi (1938–1941).

O‘quv davrida adabiyotga, xususan, jurnalistika va ocherkchilikka qiziqishi kuchaydi. Uning ijodiy faoliyatidagi dastlabki, qadamlar aynan jurnalistikada boshlandi. U “Yosh leninchi” va “Qizil O‘zbekiston” kabi gazetalar, shuningdek, “Mushtum” va “Sharq yulduzi” jurnallarida faoliyat yuritdi. Bu matbuot nashrlarida ishlash Said Ahmadning ijodiy shakllanishi va o‘sishida muhim omil bo‘ldi. Matbuot sohasida faoliyat olib borgan paytda Said Ahmad o‘zining kuzatuvchanligi va voqealarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirdi. U turli mavzularda maqolalar yozib, xalq hayotidagi muammolarni yoritishga harakat qildi. Shuningdek, u O‘zbekiston radio qo‘mitasida ishlagan va bu faoliyat uning ijtimoiy muammolarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirdi. Said Ahmad, avvalo, hikoyanavis sifatida tanildi. 1940-yilda uning “Tortiq” nomli birinchi hikoyalar to‘plami chop etilib, bu to‘plam yosh adibning iste’dodini namoyish etdi. Ushbu asar adabiyot ixlosmandlari va tanqidchilar tomonidan ijobiy qarshi olinib, yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. “Tortiq” orqali Said Ahmadning o‘zbek hikoyanavisligidagi o‘ziga xos uslubi shakllana boshladi. U ushbu to‘plamni “mashq” deb atagan, chunki undagi hikoyalar, uning fikriga ko‘ra, adabiy shaklni mustahkamlash, uslubni rivojlantirish va yozuvchilik kasbini o‘rganish jarayonining boshlanishi edi. Said Ahmad o‘z hikoyalarida yangi uslublarni sinovdan o‘tkazayotganini anglab, bu asarni adabiyotda yangi qadam bo‘lishi uchun bir turi sifatida keltirgan. Biroq, to‘plamning birinchi chiqishi kuchli tanqidga uchradi. Yoshlarning ustozlaridan biri bo‘lgan Abdulla Qahhor, Said Ahmadning bu ijodiy izlanishlariga salbiy baho berdi. Qahhor, Said Ahmadning hikoyalarini tanqid qilib, ularning “mashq” sifatida yozilganligini ta’kidladi. U o‘zining tanqidida yozuvchining o‘ziga mas’uliyatsizlik bilan yondashuvini, hikoyalaridagi mazmun va maqsadning yo‘qligini, ular faqat “bema’ni” va “so‘z bo‘tqasi” bo‘lib qolganini bildirgan. Abdulla Qahhor Said Ahmadning hikoyalarida nafaqat adabiy shaklni, balki mazmunni ham yetarlicha rivojlantira olmaganligini, shuningdek, hikoyalar orasida biron bir jiddiy fikr yoki maqsad mavjud emasligini tanqid qilgan. Said Ahmadning ijodiy faoliyati 30-yillarning oxiri va 40-yillarning boshlarida o‘zining dastlabki mahsullarini yaratishda davom etdi. Ushbu davrda yozuvchi “Qadrdon dalalar” nomli qissasini yozdi. Bu qissa adibning hikoyanavislik faoliyatining yangi bosqichini tashkil etadi va uning ijodiy izlanishlarini chuqurlashtiradi. “Qadrdon dalalar” qissasi bir tomondan, Said Ahmadning adabiyotga bo‘lgan yondashuvini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan asarlardan biri bo‘lsa, boshqa tomondan, uning keyingi ijodiga ta’sir qilgan asar sifatida qoldi. Bu davrda Said Ahmad o‘z hikoyalarida jamiyatning turli qatlamlarining hayotini tasvirlab, ularni ijtimoiy muammolar bilan bog‘lab, o‘z asarlarini nafaqat badiiy, balki ma’naviy-axloqiy nuqtayi nazardan ham yoritishga harakat qilgan. “Qadrdon dalalar” da adib o‘zining o‘tkir nazarini, realistik tasvir va insonni chuqur tushunish qobiliyatini namoyish etdi. Bu qissa uning adabiy uslubidagi davomiy izlanish va o‘sishni ko‘rsatadi, shuningdek, Said Ahmadning adabiyotdagi o‘z o‘rnini topishda muhim bir qadam bo‘ldi .

Said Ahmad ijodiy yo‘lining ikkinchi bosqichi 1956-yildan boshlanadi va bu davrda yozuvchi bir qator yangi hikoyalar yaratdi. Ushbu hikoyalarni mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhdagi hikoyalarda (masalan, “Ko‘klam chechaklari”, “Xazina”, “Iqbol chiroqlari”) lirizm kuchli aks ettirilgan. Bu asarlarda Said Ahmad ishchilar hayotidagi turli voqealarni tasvirlab, asosan, urushning odamlar hayotida va qalbida qoldirgan achchiq izlarini ochib beradi. Ushbu hikoyalar o‘quvchi emotsiyalarini qo‘zg‘atib, uning qalbiga chuqur ta’sir qiladi. Misol uchun, “Turnalar” hikoyasidagi Sobir ota boshidan kechirganlar va farzand dog‘i tug‘dirgan azob-uqqoblar, urushdan jabr ko‘rgan insonlar va ota-onalarning, ayniqsa, dilidagi bitmas yaralar haqida hikoya qilinadi. Sobir ota o‘zining og‘ir dardlarini, farzandlari uchun o‘zini aybdor his qilishini, urushning insonlarga qanday og‘ir yuklarni yuklaganini o‘quvchiga samimiy va qayg‘uli tarzda yetkazadi. “Ko‘klam chechaklari” hikoyasida esa Said Ahmad urushning qurboniga aylangan bemorning ichki o‘y-xayollarini tasvirlaydi. Bemor erkak to‘shakka mixlanib qolgan, ayoli esa ishlashga majbur bo‘lib, oilasini boqishga harakat qilmoqda. Bemor o‘zining holati, ayolining qiyinchiliklarini, shuningdek, o‘ziga xos, ayollarga xos his-tuyg‘ularni o‘ylab, o‘zining begona bo‘lgan dunyosiga qaraydi. Bemorning o‘ylarida hayotning achchiq tomonlari va ularning vafodori bo‘lgan oilasiga bo‘lgan sadoqatini ifodalab, Said Ahmad kitobxon qalbiga yo‘l topadi. Bu hikoya, erkakning ayoliga nisbatan his-tuyg‘ularini, hayotning oddiy, ammo, chuqur hislarini ta’riflash orqali, o‘quvchini ichki dunyo va munosabatlarga chuqurroq qarashga undaydi. Shu tarzda, Said Ahmadning ushbu davrdagi asarlari, uning ijodidagi yangi yondashuvlarni va o‘zining nozik lirizmiga asoslangan tarzda odamlar ruhiyatini ifodalashdagi ustaliklarini namoyish etadi. Hikoyalarining mazmunida urushning yaratgan travmalari, insonning ichki kurashlari va oilaviy

munosabatlar orqali o‘quvchi his-tuyg‘ulariga chuqur ta’sir o‘tkazadi.

Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning muhim masalalaridan biri – avlodlar silsilasi, otalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, ijtimoiy ruhning tasviridir. Adibning keyingi hikoyalarida ijtimoiy ruh yanada keskin va yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, “Qorako‘z majnun”, “Sarob”, “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyalarida ota va farzand, ona va bolalar o‘rtasidagi keskin munosabatlar asr fojiasi, mustabid tuzum siyosati, mafkura va axloqiy qadriyatlarning buzilishi bilan bog‘liq. Jamiyatdagi ko‘pgina fojialar va zulmning sababini adib ularning siyosiy oqibatlariga bog‘laydi. Said Ahmad hikoyalarining o‘ziga xos tomoni shundaki, u hayotning muhim va chuqur masalalarini hajman kichik bo‘lgan asarlarga aniq va to‘g‘ri sig‘dirishi mumkin. Masalan, “Qorako‘z majnun” hikoyasida o‘zining iymon-e’tiqodli va go‘zal bo‘lgan hayotini tark etishga majbur bo‘lgan ayolning dardli hikoyasi orqali yozuvchi milliy-axloqiy qadriyatlarimizni buzishga qaratilgan siyosatning ayanchli oqibatlarini ko‘rsatadi. Bu obraz o‘quvchiga faqat fojeani emas, balki jamiyatdagi adolatsizlik va axloqiy inqirozni ham his ettiradi .

Said Ahmadning vatanparvarlik mavzusidagi eng yorqin asarlaridan biri “Oftob oyim”dir. Hikoyaga epigraf sifatida Maqsud Shayxzodaning “Vatanni sevmoqni, yurt otasiga sadoqatni yaponlardan o‘rganish kerak” degan gapi kiritilgan. Ushbu hikoya, qamoq lageridagi hayotdan olingan bo‘lsa-da, unda yapon xalqining vatanga bo‘lgan muhabbati tasvirlanadi. Hikoyadagi vatan burchiga, sadoqatga cheksiz fidoyilik tuyg‘usi juda betakror tarzda aks etgan. Bu yerda, samuray Dyunning o‘z burchini o‘tay olmaganligi tufayli, uning ruhiy azoblari va halokati o‘quvchini chuqur ta’sirlanishga majbur qiladi. Sudze, o‘zining go‘zalligi va vataniga sadoqatini ko‘rsatib, vatan manfaatidan kelib chiqqan holda geyshalar safiga qo‘shiladi. U shu bilan birga, o‘g‘lining xiyonati sababli barcha quvonchlarini yo‘qotib, rohiblar libosini kiyib monastirga ketadi. Vataniga qaytish imkoniyati tug‘ilgan daqiqalarda burch tuyg‘usi uning o‘zini halok qilishga olib keladi. Bu hikoya o‘zbek adabiyotida vatanparvarlik haqidagi eng yaxshi asarlardan biri bo‘lib qoladi.

Said Ahmadning “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi o‘zining og‘ir va ta’sirli mavzusi bilan xalqqa yetgan katta azob va qatag‘onni aks ettiradi. Yozuvchi hikoyani “Sobiq sho‘ro tergovchilari qo‘lida azob chekkan yurtdoshlarimga bag‘ishlayman” degan so‘zlar bilan boshlaydi, bu esa hikoyaning fojeali va shiddatli ruhini darhol o‘quvchiga yetkazadi. Hikoyaning markazida xalq orasida obro‘ga ega bo‘lgan polvonning o‘g‘li turadi. Polvon davralarda o‘zining kuchi va jasorati bilan mashhur bo‘lsa-da, o‘g‘lining yomon xulqlari, noto‘g‘ri yo‘lga kirib, ko‘plab oilalarning hayotini buzishi, otasining obro‘sini so‘nishiga sabab bo‘ladi. Jalol polvonning o‘g‘li o‘zining ota-mumkinatlarini, ota-onasini va xalqning ishonchini poymol qilib, turli jinoyatlarga qo‘l uradi. Polvonning o‘g‘li xalq orasida tanqidga uchraydi va o‘limga mahkum bo‘ladi. Yozuvchi asarda shunday mavzuni ochib beradiki, o‘quvchi bu voqeadan juda kuchli ta’sirlanadi. O‘g‘ilning yomon xatti-harakatlari va oxir-oqibatdagi noxush qismati, insonning axloqiy qadriyatlarini poymol qilgan holda, bunday qilmishlarning natijasi qanday bo‘lishini ochib beradi. Hikoyada nafaqat o‘g‘ilning xatosi, balki xalqning adolatsizlikka qarshi kurashini va uning oqibatlari ham yoritiladi. Jalol polvonning o‘g‘li o‘lim bilan jazolanadi, bu esa adolatning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Said Ahmad o‘zining bu hikoyasida odamlar o‘rtasidagi axloqiy xatolar, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda ijtimoiy adolatsizlikni kiritib, chuqur mazmunga ega bo‘lgan asar yaratadi.

Said Ahmadning ijodida ikkinchi guruh hikoyalarida hajviy ruhning asosiy o‘ringa chiqishi juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hikoyalar masalan, “Cho‘l burguti”, “Cho‘l oqshomlari” turkum hikoyalari, “Hindcha o‘yinqaroq”, “Kuchukcha”, “Kolbasa qori”, “O‘rik domla” kabi asarlar yozuvchining o‘ziga xos satirik uslubini va xalqning kulgili tomonlarini o‘rganishdagi mahoratini namoyish etadi. Bu hikoyalarda xalqimizga xos so‘z o‘yinlari, askiya va mubolag‘alar yozuvchining uslubini nihoyatda jozibador va o‘ziga xos qilib yaratadi. Said Ahmad shu tarzda o‘z asarlarini hayotdagi real voqealarni kulgili va hikmatli tarzda ifodalashga yo‘naltirgan. Yozuvchining “Begona”, “Xanka va Tanka”, “Mening do‘stim Boboyev” kabi hajviy hikoyalari jamiyatda uchraydigan illatlar, masalan, manmanlik, ig‘vogarlik, ko‘zbo‘yag‘ochlik kabi ijtimoiy muammolarni ustalik bilan fosh etadi. Bu asarlarda ko‘rsatilgan illatlar, hajviy va kulgili tarzda aks ettirilib, o‘quvchiga nafaqat kulish, balki, jamiyatdagi salbiy tomonlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi .

Said Ahmadning satirik ruhda yozilgan “Qishdan qolgan qarg‘alar” hikoyasida insonlardagi salbiy xususiyatlar qoralangan. Bu hikoyada Nasibjon o‘zining qishlog‘ida yakkalikda yashab, hech kimdan yordam olishmaydi. Boshqa bir misolda, Nasibjonning ministr bo‘lgandagi qarindoshlarining manfaatparastligi qishdan qolgan qarg‘alarga o‘xshatilgan. Bu hikoya o‘quvchiga, jamoaviy yordam va insonlar o‘rtasidagi samimiyat

yo‘qligini ko‘rsatadi. Yozuvchining “Buqalamun bilan uchrashuvi” hikoyasida xudbin va nafsini qondirish yo‘lida hatto otasidan voz kechgan inson tasvirlanadi. Buqalamunga o‘xshash odamlarning xususiyatlari, xuddi Dyorov obrazida aks etganidek, jamiyatdagi ijtimoiy moslashuv va etik o‘zgarishlarni o‘rganish imkonini beradi. Bu hikoya shuningdek, “buqalamunlar”ning jamiyatda qanday o‘zgarishini va qanday tarzda bunday shaxslar qismatidan azob chekishini o‘quvchiga tushuntirishga xizmat qiladi.

Said Ahmadning “Rostgo‘y posbon” hikoyasida sho‘ro tuzumining kirdikorlari bir posbon tilidan ochib tashlanadi, yozuvchi esa hikoyaga satirik ruh beradi. Bu hikoya orqali adib o‘zligini, hatto ismini yo‘qotgan yurtdoshlarimizga nisbatan nafrat uyg‘otadi. Masalan, Kogon Ovchiyev Moskvaga borgach, “Kagonovich” bo‘lib, Negmatxon Buxoriy esa “Nekolay Buxorin” deb atalganida, ular xoinlarga nisbatan berilgan hukmga aylanishi ko‘rsatiladi. Bu tasvirlar orqali yozuvchi o‘zining vatanparvarlik pozitsiyasini aniq namoyon etadi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik va axloqiy inqirozni keskin tanqid qiladi .

Said Ahmadning kichik hajviy asarlari uning o‘zbek radio va televideniyasida quvnoq miniatyuralar teatriga asos solishiga olib keldi. Bu asarlar radio va televideniya orqali keng ommaga taqdim etilib, o‘zbek xalqining madaniy va kulgili teatri rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Said Ahmadning hajviy uslubi va jamiyatni yengil tarzda tanqid qilishi, uning san’ati va adabiyotida yangi yo‘nalishlar yaratdi va uning ijodini o‘ziga xos qilib ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad hikoyalarida ijtimoiy muammolar tasviri o‘ziga xos va chuqur tahlilga asoslangan. Uning asarlarida jamiyatdagi turli ijtimoiy illatlar, masalan, manmanlik, ig‘vogarlik, ko‘zbo‘yamachilik kabi muammolar ustalik bilan fosh etiladi. Yozuvchi hayotning murakkab tomonlarini hajviy va lirizmli uslublar orqali aks ettirib, o‘quvchini nafaqat kuldiradi, balki ijtimoiy masalalarda chuqurroq o‘ylantiradi. Said Ahmad hikoyalarida odamlardagi ichki kurashlar, oilaviy munosabatlar, urushning yaralari va insonlar qalbidagi izlar ko‘rsatilgan. U shuningdek, ishchi sinfi hayoti va oddiy kishilarning dardlarini o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi. Yozuvchining asarlari, shuningdek, ijtimoiy adolatsizlik va hayotdagi qo‘rqinchli voqealarni o‘quvchiga yetkazish uchun o‘tkir satira va mubolag‘alarni ishlatadi.

Umumiy qilib aytganda, Said Ahmad hikoyalarida ijtimoiy muammolar tasviri nafaqat kulgili va askiyali tarzda, balki jamiyatdagi salbiy jihatlarni ochib berish va o‘quvchiga ular haqida o‘ylash imkoniyatini yaratish orqali amalga oshiriladi. Uning asarlarida o‘quvchi nafaqat kulgili hikoyalar, balki hayotning qiyinchiliklarini, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni va jamiyatning o‘zgarishdagi muammolarini ko‘rishi mumkin. Uning asarlarida o‘quvchi nafaqat kulgili hikoyalar, balki hayotning qiyinchiliklarini, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni va jamiyatning o‘zgarishdagi muammolarini ko‘rishi mumkin. Said Ahmad hikoyalari – o‘zbek adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lib, ularda ijtimoiy muammolar tasviri jamiyatning muhim masalalariga e’tibor qaratishga undaydi. Yozuvchining ijodi xalqchil ruhda bo‘lib, u milliy an’analarga, insoniy qadriyatlarga, hurmat va ijtimoiy adolatga chaqiradi. Shu sababli uning asarlari hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmaydi va zamonaviy o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad S. Qorako‘z majnun. –T.: “O‘zbekiston”, 2001. 89-b.
2. Ahmad S. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –T.: “Sharq”, 1998. 75-b.
3. Ahmedova Sh. Said Ahmadning kulgi yaratish mahorati. //O‘zbek tili va adabiyoti, 1993, № 5-6. 64-72-b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2002. 92-b.
5. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. –T.: “O‘zbekiston”, 2005. 85-b.
6. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. –T.: “Fan”, 2007. 42-b.
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. 93-b.
8. www.ziyonet.uz
9. www.turklib.uz
10. www.uz.wikipedia.org
11. www.kh-davron.uz
12. www.wikipedia.org

Muhlisa TO‘LANBOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistratura talabasi

NAVOIYNING DEVONLARGA KIRMAY QOLGAN SHE’RLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy” to‘plami tarkibiga kiruvchi “Favoyid ul kibar” devonining Istanbuldagi Sulaymoniya Fotih kutubxonasida 4056 raqam ostida saqlanuvchi nusxasining hoshiyalariga bitilgan g‘azallar, ularning statistikasi matniy jihatdan tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *kulliyot, g‘azal, devon, hoshiya, mumtoz, janr, bayt, matla’, qo‘lyozma, nusxa.*

Annotation: in the article, the ghazals written on the borders of the copy of Alisher Navoi's "Khazayin ul Maoniy" collection of the "Favoyid ul Kibar" library in Sulaymaniyah Fatih Library in Istanbul under the number 4056, their statistics and textual analysis are studied.

Keywords: *kulliyat, ghazal, devan, hashiya, classic, genre, verse, matla', manuscript, copy.*

Абстрактный: в статье изучаются газели, написанные на полях экземпляра сборника Алишера Навои “Хазаин уль Маоний”библиотеки “Фавоид уль Кибар”библиотеки Сулеймании Фатиха в Стамбуле под номером 4056, их статистика и текстологический анализ.

Ключевые слова: *куллият, газель, деван, хашия, классика, жанр, стих, матла, рукопись, копия*

Jahon adabiyotshunosligi tarixida ko‘plab mumtoz shoir va yozuvchilar yetishib chiqqan. Ularning boqiy asarlarida ifodalangan teran mazmun va umrboqiy qadriyatlar, falsafiy fikrlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, ularni qaysi davr avlodlari o‘qimasin barchaga birdek ong va tafakkuriga ta’sir etib, uni yetuk inson, umumbashariy qadriyatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalab kelmoqda. Shuning uchun ham ular dunyo tan olgan shoir va yozuvchilardir. Mana shunday e’tirofga sazovor bo‘lgan ijodkorlardan biri buyuk shoir va yozuvchi Alisher Navoiydir. Dunyo miqyosida Alisher Navoiy ijodiga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Chunki, uning buyuk asarlarida ilgari surilgan falsafiy g‘oyalar va mushohadalar, teran fikrlar har bir ilm va adabiyotga qiziquvchi insonni befarq qoldirmaydi. Buning isboti sifatida uning ko‘plab asarlari jahonning yuzlab tillariga tarjima qilingan, shoir haykallari esa dunyoning eng yirik shaharlarida qad rostlab turibdi. O‘zbek tili taraqqiyoti ham bevosta Alisher Navoiy ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Chin ma’noda uni turkiy tilimizning asoschisi deb atashimiz lozimdir. Navoiyning turkiy tilda bitilgan asarlari anchagina salmoqlidir. Xususan, bu tilda yozilgan barcha devonlarini to‘plab “Kulliyot” tuzgani va unga birorta ham forsiy tilda yozilgan asarlarini kiritmagani turkiy tilga bo‘lgan yuksak qarashining dalili sifatida tan olinadi. Shunday ekan, Navoiy ijodini chuqur o‘rganishimiz, ularni kelajak avlodga mukammal tarzda yetkazib berishimiz navoiyshunos, matnshunoslarning oldida turgan muhim vazifa sanaladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug‘ shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ‘ib etish” juda muhimdir.

Hozirgi kunga qadar navoiyshunoslikning manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishlarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelingan. Ma’lumki, shartli ravishda “Ilk devon” deya nomlangan va hozirda Sankt Peterburg S.Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida 564-inventar raqami ostida saqlanayotgan to‘plam Navoiyning 25 yoshgacha yozgan she’rlarini o‘z ichiga olgan. Undagi 391 g‘azal, 1 mustazod, 1 muxammas va 41 ruboiy shoirning muxlislari tomonidan yig‘ilib, 1465-yilda mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Hirotda kitobat qilingan. “Ilk devon”ning 1568-yilda Hirotda Mahmud kotib tomonidan ko‘chirilgan yana bir nodir nusxasi Qozon Davlat universiteti kutubxonasida saqlanayotganligi o‘z vaqtida atoqli matnshunos olim Porso Shamsiyev tomonidan ma’lum qilingan edi.

“Ilk devon”dan joy olgan 391 g‘azalning hammasi “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilgan, ammo 187 tasi faqat “Ilk devon” (1465) va “Xazoyin ul-maoniy” (1492–98) devonlar majmuasidagina uchraydi. Qolgan 204 g‘azal esa, “Badoe’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya”dan ham o‘rin olgan (ulardan ba’zilarining “Badoe’ ul-bidoya” yoki “Navodir un-nihoya”ga kirmagan hollari ham bor).

Shuni ham qayd etish kerakki, “Ilk devon”dan “Badoe’ ul-bidoya” yoki “Navodir un-nihoya”ga ma’lum tahrir bilan kiritilgan ko‘pgina g‘azallar keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy”ga ham kiritilar ekan,

“Ilk devon”dagi matnga muvofiq qayta tahrir qilinib joylashtirilgan. Ma’lum bo‘ladiki, “Ilk devon”dagi she’rlarni shu she’rlarning rasmiy devonlardagi matnlari bilan qiyoslash tahrirlar masalasiga (ayniqsa, “tahrirni tahrir” singari noyob hodisaga) oydinlik kiritadi. Bu esa Navoiy g‘azallarining matniy tarixini kuzatish imkonini beradi. Bu ish qisman Yoqubjon Is’hoqovning “Navoiyning ilk lirikasi” monografiyasida amalga oshirilgan

Bundan tashqari, ushbu qo‘lyozma asarlarni o‘rganish ularni matniy va ilmiy jihatdan tadqiq qilish ishlari ko‘plab matnshunos va manbashunoslar tomonidan amalga oshirilgan. Shoirning mo‘tabar qo‘lyozmalarini tasnif qilish, ulardan ba’zilarining hoshiyalariga bitilgan she’rlarni tavsif qilish Hamid Sulaymon tadqiqotlarida ko‘zga ko‘rinadi.

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Favoyid ul kibar” devonining Istanbuldagi Sulaymoniya Fotih kutubxonasida 4056 raqam ostida saqlanayotgan nusxasining hoshiyalariga bitilgan she’rlar xususida so‘z yuritamiz. Mazkur qo‘lyozmaning 584, 585, 587, 595, 596, 597, 602, 604-betlari hoshiyalariga jami 10 ta she’r bitilgan, bo‘lib ularning barchasini g‘azal janri tashkil qiladi. “Favoyid ul kibar” devonining o‘zi har bir varoqda 4 ustunga yozilgan bo‘lib, hoshiyadagi g‘azallar esa ayrim betlarining ikki chetiga ba’zilarida bir chetiga qora rangda yozilgan. Devon hoshiyalaridagi birinchi g‘azal asarning 584-betning chap tarafiga bitilgan bo‘lib,

ایرور لیلیوشیم حورشید مهوشلار اراسینده

قمر بیر گولخنیی مجنون انینک ایشقی حواسینده

ya’ni:
Erur laylovashim hurshid mahvashlar arosinda,
Qamar bir gulhaniy majnun aning ishqi havosinda
matlali g‘azal bilan boshlanadi.
Undan keyingi g‘azal asarning 585-betida:

سین قویاش ینکلیغ یاروب سبحی شباب ایامیدا

بیزگا تونديک تیرلیک قسمت قارلیغ شامیدا

ya’ni:
Sen quyosh yanglig‘ yorub subhi shabob ayyomida
Bizga tundek tiyralik qismat qarilig‘ shomida
matla bilan boshlanadi.
Devon hoshiyasidagi uchinchi g‘azal:

چو اینگا شیوا ایلار لعلین اول ارامیجان تشلاب
کیلارمین بغریما تیش بیرکتیب یعنیکی قان تشلاب

ya’ni:
Chu elga sheva aylar la’lin, ul oromijon tishlab,
Kelarmen bag‘rima tish berkitib, ya’nikim qon tishlab.

بادادین شیرانی جان تعمی اگار کامدادور

اندین ایرکینکی لابی تعمی انینک جامدادور

To‘rtinchi g‘azal esa quyidagi bayt bilan boshlanadi:

مینینک قتلیمغا اول راغب توشوبمین زخملیق موزتا

مینینک فرقیمدا قانلیغ تیغ انینک باشیدا گولگون پا

Ya’ni:
Bodadin shirani jon ta’mi agar komdadur,
Andin erkinki, labi ta’mi aning jomdadur.
Agar hoshiyasidagi 5 g‘azal:

تا شهمغه مسند دولات حصار اورانکی دور

حم منگا وحمو فیغانیمغا حصار احانکی دور

Mening qatlimg‘a ul rog‘ib, tushubmen zaxmliq muztar,
Mening farqimda qonlig‘ tiyg, aning boshida gulgun par.
Undan keyingi g‘azal asarning 596-sahifasida joylashgan:

حر باغیر فانیکی خجرینکدا کوزومگه ایلانور

کوز انی توککاچ باغر یانکلیغ حمولدام باغلنور

To shahimg‘a masnadi davlat Hisor avrangidur,
Ham manga vahmu fig‘onimg‘a Hisor ohangidur.
Navbatdagi g‘azal esa:
Har bag‘ir qoniki hajringda ko‘zumga aylanur,
Ko‘z ani to‘kkach bag‘ir yanglig‘ hamuldam bog‘lanur.
Keyingi g‘azal asarning 602-sahifasining hoshiyasiga bitilgan:

مینینک سوداسی بو فانلغ کونکولدین کر جودا توشماس

اجاب ایرماس نیدینکم لالا داغیدن جودا توشماس

Mening savdosi bu qonlig‘ ko‘nguldin gar judo tushmas
Ajab ermas nedinkim, lola dog‘idan juda tushmas.
Xulosa shuki, yuqoridagi sanab o‘tgan g‘azallarimiz Navoiyning rasmiy devonlariga kirmay qolgan she’rlarining ma’lum bir qismini ya’ni bir devondagilarini tavsif qildik. Zero, Navoy ijodi misli tuganmas dengiz kabidir va uning boqiy asarlarini o‘rganish har birimiz uchun sharafli vazifa bo‘lmog‘i darkor. Chunki uning adabiy merosi yuksak kamolot cho‘qqisiga yetishimiz uchun dastak vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. Favoyid ul kibar. №4056. Istanbul. Sulaymoniya Fotih kutubxonasi fondi.
2. Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965. 265-b.
3. Сулаймон Х. Алишер Навоий қўлезмалари тадқиқотидан. – Тошкент: Фан, 1973. 83б.

Xurshida SOLIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Matnshunoslik va manbashunoslik mutaxassisligi 1-kurs magistranti

XOKIY DEVONI QO‘LYOZMA NUSXALARI VA ULARNING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: maqolada mumtoz adabiyot namunalari asliyatini o‘rganish, talabalarni qo‘lyozma manbalardan xabardor qilish, matnshunoslik va manbashunoslik yo‘nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi, madaniy va ma’rifiy hayotimizda mumtoz adabiy janrlarni yanada chuqurroq anglash bilan bir qatorda, yaqin o‘tmishdagi ijod namunalariga yaqqol misol bo‘la oladigan XIX asrning yorqin ijodkorlaridan Xokiy shaxsiyati va uning devonini o‘rganish, qo‘lyozma nusxalarini qiyoslash kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *matnshunoslik, mumtoz, nastaliq, tozadin, murabbaot, masnaviyot, qo‘lyozma, toshbosma.*

Annotation: in the article, the study of the authenticity of classic literature samples, making students aware of manuscript sources, conducting new scientific and theoretical researches in the direction of textual studies and source studies, is one of the current issues today, and deepening the understanding of classical literary genres in our cultural and educational life. along with the study of Hoki's Divan, which can be a clear example of works of the recent past, and his manuscript Issues such as comparing copies have been researched.

Keywords: *textual studies, classical, nastaliq, pure religion, murabbaot, masnaviyot, manuscript, stone print.*

Аннотация: в статье изучается аутентичность образцов классической литературы, ознакомление студентов с рукописными источниками, проведение новых научных и теоретических исследований в направлении текстологии и источниковедения является одной из актуальных сегодня задач, углубление понимания классических литературных жанров в нашей культурно-просветительской жизни наряду с изучением “Жизнеописания”Хоки, которое может служить ярким примером произведений недавнего прошлого, и его рукописи. Были исследованы такие вопросы, как сравнение копий.

Ключевые слова: *текстоведение, классика, насталик, чистая религия, мураббат, маснавиёт, рукопись, каменная печать.*

Kirish. Bugungi kunda xalqimizning qadimiy tarixi va madaniyatini tiklash va yosh avlodga ularning ezgu an’analarini singdirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil 24-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Qaror mazmuni, O‘zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mamlakat sifatida xalqaro obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan.

Xalqimiz ma’naviy qadriyatlarini o‘zida ifoda etgan o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘rganish barkamol avlod qalbida milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishiga ulkan hissa qo‘shishi bilan ahamiyatlidir. Uzoq va boy ma’naviy xazinamiz xususida mulohaza yuritish, mumtoz badiyatimiz namunalarini maslakdosh tadqiqotchilar yordamida avlodlarga taqdim etish dolzarb masaladir. Mumtoz adabiyot manbalarini asliyat asosida o‘rganish, ularni mutaxassis tadqiqotchi sifatida tayyorlash oliy ta’lim tizimida saviyaning oshishiga sabab bo‘ladi. Bunda qo‘lyozma matnning asl nusxalari ustida ishlash va boshqa ko‘chirma nusxalarini qiyoslash orqali hali o‘rganilmagan adabiy ma’lumotlarni tadqiq etishda yuqori natijalarga erishish mumkin. Yaqin o‘tmishning mumtoz namunalaridan bo‘lgan Xokiy devoni qo‘lyozma manbasi ham o‘rganilishini kutayotgan muhim manbalardan biridir.

Mumtoz manbalarni tadqiq etishda vujudga keladigan ba’zi to‘siqlar mavjud. Bulardan mumtoz davr yozuvi bilan amaldagi yozuvni tamoman farqli ekanini tilga olmaslikni iloji yo‘q. Qadimiy qo‘lyozma manbalarni o‘rganish uchun talabalar albatta nastaliq kabi eski o‘zbek yozuvidagi matnlarni ravon o‘qiy olishlari lozim. Bundan tashqari mustamlaka oqibatida ham bir qancha nodir asarlar va tarixiy ma’lumotlar yo‘q bo‘lib ketgan. Ularni tiklash va shaxsiy arxivlar yordamida jamlash kerak. Ularning asl qo‘lyozma nusxalarini aniqlab, joriy yozuvda nashr etilishi, avlodlarga tarixiy madaniyatni o‘rganishda ko‘mak

beradi.

XIX asr ikkinchi yarmi Xorazm adabiy muhitida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorlardan biri Ibodulla Mahzum Ohund mutaxallusi Xokiy devoni, o‘sha davrning deyarli barcha jamlanma she’riy to‘plamlarga kiritilgan. Xokiy devoni qo‘lyozma manbasining O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida № 7091 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxalari mavjud. Biz o‘rganayotgan Xokiy devoni qo‘lyozma manbasi nastaliq xatida husnixat bilan yozilgan bo‘lib, 116 a - 116 b - sahifalardan iborat. Xokiy taxallusi bilan ijod qilgan shoir va adib Ibodulla Mahzum Ohundni mumtoz adabiyot janrlarining deyarli barchasida salmoqli ijod qilganini ko‘rishimiz mumkin. Hozircha, XX asrning boshlarida ko‘chirilgan devonda yozilgan sanadan kelib chiqib, Xokiyni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, Xiva xonligi taxtiga o‘tirgan Muhammad Rahimxon II - Feruz davrida, Xorazmda yashagani ma’lum bo‘ladi.

Xokiy devonining boshlang‘ich tadqiqidan devonning eng so‘nggi va mukammal nusxasi sifatida milodiy - 1909 (hijriy 1325-yil) yilda ko‘chirilgan nusxasini olishimiz mumkin. Nusxa sariq rangdagi yuqa karton bilan muqovalangan. Devon yozilgan qog‘ozni sinchiklab kuzatganda, har bir qog‘oz orasida lotin harfidagi yozuvlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu asoslarga tayanib, devonni yozishga ishlatilgan qog‘oz texnika yordamida ishlab chiqilgan rus qog‘ozi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Qog‘oz sifati yaxshi, silliq. Nusxa muqovasining ustida Xokiy devoni, “tozadin yozilg‘on” degan jumlalar bitilgan. O‘sha davrda ,,tozadin yozilg‘on” jumlasi yangi nashr qilingan manbalarga bitilgan. Devon alohida e’tibor bilan yozilgan. Bunga misol, Xokiy devoni boshqa jamlanma devonlarga ko‘chirilganda ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan va ularga belgilar bilan tuzatish kiritilgan.

Devon Basmala bilan boshlangan, zarvaraq va hoshiyalar mavjud emas. Har bir janr nomi qizil rangdagi siyoh bilan ajratib yozilgan va raqamlar bilan tartiblangan. Xokiy devonida 395 ta g‘azal, 4 ta mustazod, murabbaot deb nomlangan 10 ta to‘rtliklar, 1 ta ruboiy va 44 ta muxammas, 5 ta musaddas, 11 ta musabb’a yozilgan. Bundan tashqari devon so‘ngida 2 ta tarix, masnaviy va qasida mavjud bo‘lib, ular fors tilida yozilgan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qo‘lyozmani ilmiy, badiiy tadqiq etish, yaratilgan davrni aniq ko‘rsatish va devon asosida yoki bayoz va tazkiralardan Xokiyning aftobiografik tarixini tiklash, muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, devon nusxalarini qiyoslash orqali ulardagi tafovutlarni aniqlab, tahlil qilish ham muhim ishlardan biridir. Xokiy ijodining haqiqiy, asl qiyofalari bilan oshno bo‘lish uchun uning devonini chuqur tadqiq etishimiz, adabiy merosimizga daxldor o‘ziga xos noyob namunalardan ekanligini tasdiqlashimiz lozim. Shoir ijodining o‘rganilishi lozim bo‘lgan qirralari bisyor. Kichik bir tadqiqotda barcha masalalarni qamrab olish mushkul.Shu ma’noda uning sahifalarida munozarabop o‘rinlarning borligi tabiiy. Ushbu maqola ayni mavzudagi dastlabki jiddiy ijodiy ishimizdir. Bu mavzudagi izlanishlarni yakuniga yetib, ommaga havola etish oldimizdagi muhim masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. – T., 2017- yil 24- may.
2. Xokiy devoni - №7091 inventar raqamli qo‘lyozma.
3. Jamlanma devon - №906 inventar raqamli qo‘lyazma. 140-b – 202a- varaqlar
4. Muhammad Yusuf Bayoniy.Shajarayi xorazmshohiy.Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute fondi.№ 9596.
5.Bayozi muxammasot. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute fondi. №1130
6. O‘rozboyev A.D.XIX asr oxiri - XX asr boshi Xorazm turkey manbalari leksikasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
7. Vohidov R ,Eshonqulov H. Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi ¬– Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.



Niginabonu TEMIROVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich magistranti

QO‘CHQOR NORQOBIL HIKOYALARIDA URUSH VA INSON RUHIYATI BADIIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqola urush mavzusiga bag‘ishlangan hikoyalari tahlili asosida, qahramonlar ruhiyatining badiiy va insoniy kechinmalarini aks ettirishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada immanent va kontekstual tahlil asosida ijodkorning ijodiy uslubi, asar strukturasi va obrazlar tizimi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *urush, ayol obrazi, inson ruhiyati, kechinmalar, badiiy tasvir.*

Annotation: this article is dedicated to the analysis of war-themed stories, focusing on the artistic and human reflections of the characters' psychological experiences. Additionally, the article examines the author's creative style, the structure of the work, and the system of images based on immanent and contextual analysis.

Keywords: *war, female image, human psychology, experiences, artistic depiction.*

Аннотация: эта статья посвящена анализу рассказов на военную тему, с акцентом на художественное и человеческое отражение психологических переживаний персонажей. Также в статье рассматриваются творческий стиль автора, структура произведения и система образов на основе имманентного и контекстуального анализа.

Ключевые слова: *война, женский образ, человеческая психология, переживания, художественное изображение.*

Hozirgi zamon adabiyotida hikoyachilik janrining yirik vakillaridan biri Qo‘chqor Norqobil o‘z uslubi orqali kitobxonlar qalbidan chuqur o‘rin egallagan. U o‘zining sermahsul ijodi, teran va hissiyotlar bilan yo‘g‘rilgan, urush mavzusiga bag‘ishlagan asarlari matnining pishiqligi, qahramonlar ruhiyatining badiiy va insoniy kechinmalarining mustahkam ifoda etilishi o‘ziga xos bo‘lgan yo‘nalishni belgilab olganidan darak beradi. Uning har bir o‘tkir so‘zi zamirida ma’no va fikrlar daryosi toshib turadi. Adib urush mavzusidagi qissa va hikoyalari (“Biz jangdan qaytmadik”, “Dunyo generallari tinchlik uchun”, “Afg‘on: 2 rota” , “Urush tugasa ayting qaytib kelaman” kabi) uchun “Moskvadagi Oltin qalam”, “Usmon Nosir” kabi bir qator unvonlarga sazovor bo‘lgan.

Qo‘chqor Norqobil qissa va hikoya janrida sermahsul ijod qilgan. Yozuvchi asarlari, kitobxonga xuddiki, bir-biridan ko‘chirilgandek ko‘rinadi, ayrimlari esa bir-birini to‘ldirganday yoki davomidek tuyuladi. Qo‘chqor Norqobilning hikoyalarida asar strukturasi ko‘proq yozuvchining o‘ziga tegishli bo‘lgan xarakterini ochib berishga xizmat qiladi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Badiiy tilning eng muhim spetsifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallik ko‘rsatiladi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib “badiiy tasvir va ifoda vositalar” deb ataladi. Badiiy adabiyot so‘z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Yozuvchining “Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim”, “Qishdagi lola” va boshqa qissa, hikoyalari yuqorida ta’kidlaganimizdek, bir-birining mantiqiy davomidek kitobxonda taassurot qoldiradi. Chunki hikoya yoki qissalarda g‘oyalar bir-birini to‘ldirsa voqealar rivojidagi ayrim o‘zgarishlar hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Yozuvchining ichki kechinmalari ijodidagi yaxlit mavzu ko‘lami xususida tasavvur qilishga imkon beradi.

Asarni badiiy tahlil qilishga kirishilsa, uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o‘rganishni ya’ni, kontekstual tahlil orqali yoki asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki kechinmalarini o‘rganish ya`ni immanent tahlil orqali amalga oshiriladi. “Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim” hikoyasiga kelsak, hikoya bilan tanishishdan oldin uning nomini nima uchun bunday nomlaganligiga to‘xtalganimiz ma’qulroq. Bunga sabab ko‘p asarlarda ism va nomlar juda ko‘p ma’no tashiydi. Bu albatta, yozuvchi mahoratiga bog‘liq.

Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim… Ko‘zlar deganda xayolimizga birinchi bo‘lib hech narsani yashirib bo‘lmaydigan, o‘zida samimiylik va beg‘uborlikni ifoda etuvchi nigohlar ko‘z o‘ngimizga keladi. Insonlar va itlar – boshqalar ko‘ziga qarab xulosa chiqaruvchi yagona mavjudotlardir (itlar esa bundan faqat odamlar bilan muloqot qilayotganda foydalanadilar). Biz bu ifoda isbotini hikoyamiz yakunida uchratamiz. Ramziy ma`nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, insonlarning ichki

kechinma, his-tuyg‘ularini ochib berishga xizmat qiladi.

Hikoya yoz oxirlab, avgust shamollari esayotgan davr bilan boshlanadi. Asar bosh qahramoni doimgidek o‘zi. Asarning kirish qismida juda chiroyli o‘xshatish qo‘llanilgan va buning izohi ham yozuvchi tomonidan berib o‘tilgan. “Inson hayoti ham shunday; maqsad-muddaongni aniqlab manzilga intilmasang, bir joyda uzoq qolib ketasan, boshqalarga halal berasan. Vokzalning hayotdan afzal jihati bor; shoh-u gado, boy-u kambag‘al bir maqomda — yo‘lovchi! Bor-yo‘g‘i ular poyezdni kutmoqda. Hayotda esa… hayotda kishilar tabaqalashadi, ular vaqti soati yetgach, umr poyezdi kelib olib ketishlarini sezsalarda, hayot vokzalidan odamiylik chiptalarini xarid qilishni unutadilar”.

Poyezdda u Irina ismli rus ayoli bilan tanishib qoladi. Ha, bu o‘sha kitobxonni ham o‘ziga maftun etgan tim qora, oltin soch, moviy ko‘z, yoyday egik qosh egasi Irina edi. U ayanchli qismat egasi bo‘lishiga qaramasdan uning alomatlari zarracha yuzida aks etmagandi. Hikoya davomida esa ayolning hayotida va ruhiyatida bo‘lgan ko‘plab qiyinchilik, zahmatlarini bilib olishimiz mumkin. Va bu bilan urush fojealari birgina qahramon oilasi orqali insonlar taqdirida yuz bergan talaygina talofatlarni ochib berganini guvohi bo‘lamiz. Hikoya qahramonlari o‘rtasidagi suhbat buni his qilishimizni yanada kuchaytiradi. Irinaning qizi Mashaning onasiga qarata: “Ayt oyi, ayt! Dadamning o‘zbek ekanligini ayt… odamlari badjahl, yovvoyi ekanligini ham ayt…” degan gaplariga bo‘lgan munosabatidan bizning qahramonimiz o‘zbek millatining naqadar mehr-oqibatli ekanligini, kamtar-kamsuqum, mehmondo‘stligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Lekin qizning nega bunday jahl qilayotganini Irinadan bilib olgandan keyingina his qiladi. Qo‘chqor Norqobilning hikoyadagi aynan mana shu epizodni tasvirlashi o‘ziga xos insonni tushunishga intilishida yaqqol ko‘rinadi. Hikoyachi qahramonimiz soddadil va go‘zal Irinaning taqdir zarbalariga uchragani afg‘on urushi bilan sodir bo‘lganiga afsus chekadi. Chunki uning o‘zi ham afg‘onda xizmat qilgan edi.

Hikoyada muallif inson ruhiyatini ko‘rsatib beruvchi o‘rinlarga alohida e’tibor bergan. Yozuvchining Irinaga “Uni hali ham sevasanmi?!” degan savoliga “U men uchun xotira timsoliga, o‘tmish timsoliga, qolaversa, bugunim timsoliga, ertangi kunim timsoliga, qizim, umrimning davomchisi timsoliga aylangan…” deb javob berishi urush tufayli o‘zining taqdiri shunday bo‘lganligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Demak, ko‘rinib turibdiki bu yerdagi urush va inson ruhiyati bir-biridan ajralmas badiiy tasviriy sifatida ifodalangan.

Yozuvchi bu hikoyasida voqelikni ichki qatlamlari, ijtimoiy hodisalarning asl sababchisi bo‘lgan insonning xarakterini ochib berishga intiladi. Boshqacha aytganda inson ruhiyati tahlili vositasida voqelikni tahlil qiladi. Hikoyani o‘qir ekanmiz, yozuvchining badiiy mahorati tufayli real voqelik tafsilotlari insonning ko‘z o‘ngida qoladi. Hikoyada urush tufayli bir- biri bilan uchrashgan lekin afsuski, o‘zining insoniylik burchi orqali o‘z sevgisidan voz kechgan, taqdir zarbalariga chidab, qora kunlarni boshidan kechirsa ham ochiq chehra bilan qarashga o‘rgangan, sirtiga suv yuqtirmaydigan ayol timsoli qahramonimiz yozuvchining nazarida chin ma’nodagi muhabbat timsoliga aylanishi o‘quvchi qalbini junbushga keltirishi aniqdir. So‘nggi voqealar rivojida kirib kelgan Kontuj timsoli esa yigirma yil o‘tganiga qaramay Irinani tanib qolishi, Irina ham uni ko‘rib “telbavor, aftodahol” qiyofada Kontujga tikilib qolishi o‘quvchilarda voqealar bayonini oldindan sezish tuyg‘ularini yanada oshiradi.

Yozuvchi Qo‘chqor Norqobilning ijodkor sifatida o‘ziga xosligi shundaki, avvalo, u asarlarida tasvirlangan muhitga begona emas. Adib bu jarayonlarni teran his qilgan. Shuning uchun asar qahramonlarini, o‘ziga xos xarakterlarini adabiyot maydoniga olib kira olgan.

Adabiyotshunos olim H.Karimov o‘z asarida shunday yozgan edi: “Yaxshi asarlar kitobxon qalbida nur yoqadi. Bu nur kishi qalbini g‘uborlardan tozalaydi, o‘zga bir yorug‘ olamga olib chiqadi. Bu olam ezgulik va insoniylik olamidir”*

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Qo‘chqor Norqobil o‘zining “Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim” hikoyasida nafaqat asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari, balki davr muammolari, xususan, urush fojealaridan ozor chekkan bir oila a’zolarining hissiyotlarini o‘zida ifoda etgan. Uning asarlari urush va inson ruhiyatining ustuvorligi, yorug‘ tuyg‘ularga boyligi sabab har qanday yoshdagi o‘quvchi uchun qiziqarli va ta’sirli hisoblanadi.

TAHLIL VA MUHOKAMALAR

Adib asarlarda urushni tasvirlash jarayonida kitobxonning hissiyotga berilmasligi imkonsiz. Qo‘chqor Norqobil shaxsan o‘zi urushda qatnashgani uchun uning asarlari jonli, real va butun tasvir aynan hayotiy bo‘lganligi sababli kitobxonlarni qiziqtiradi.

Urush maydonida qon kechgan ijodkor uchun aynan shu mavzuda asar yozish, go‘yoki urushni qayta kechirgan bilan barobar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Adabiyot nazariyasi: 2 tomlik. – T., 1978
2.Adabiyot nazariyasi asoslari. D. Quronov. – T.: Akademnashr, 2018
3.H. Karimov. Janrmi yoki uslub. – T. Fan. 1991. 82-bet
4.Qo‘chqor Norqobil. “Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim” – 2012

Malika MAXMUDOVA
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi magistranti

O‘ZBEK TILIDAGI “AXLOQ” KATEGORIYASI BIRLIKLARI O‘XSHASHLIK MUNOSABATLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolamiz orqali “axloq” kategoriyasiga oid ba’zi bir istilohlarning o‘zaro o‘xshashlik munosabatlari haqida fikr yuritiladi. Leksik jihatdan bir-biriga yaqin axloqiy so‘zlarning ma’nolarini ochib berish maqsad qilindi. O‘zaro ma’nosi yaqin bo‘lgan so‘zlar juftliklarga bo‘linib, ularning aynan o‘xshashliklari va ba’zi bir farqlari ham ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, ayrim axloqqa oid bo‘lgan so‘zlarning bir emas bir necha boshqa so‘zlar bilan ma’noviy yaqinligi tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: *axloq, iymon, hamjihatlik, samimiylik, mehribonlik, halollik, vijdon, fidokorlik, jonkuyarlik, kamtarlik ma’no ottenkasi*

Аннотация: благодаря данной статье мы поразмышляем над взаименной схожестью некоторых терминов, относящихся к категории “этика”, и раскроем значения моральных слов, лексически близких друг другу. Слова со схожим значунием были разбиты на пары, показаны их точное сходство и некоторые различия. Также была проанализирована смысловая близость некоторых моральных сдов с рядом других слов.

Ключевые слова: *этика, вера, солидарность, искренность, доброта, честность, совесть, жертва, страсть, смирение, чувство смысла.*

Annotation: through this article, we will reflect on the mutual similarity reletionships of some terms related to the categoryof “ethics” and it was aimed to reveal the meanings of moral words that are lexically close to each other. Words with similar meanings were divided into pairs, their exact similarities and some differences were also shown. Also, the semantic affinitty of some moral words with several other words was analyzed.

Keywords: *ethics, faith, solidarity, sincerity, kindness, honesty, conscience, sacrifice, passion, humility, sense of meaning.*

O‘zbek tilida axloq so‘zini ishlatganimizda insonlarning bolalikdan rivojlantirib kelingan, hayoti davomida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga yordam beruvchi istilohni tushunamiz. U ong orqali fikr qilish yoki umuman fikrlamaslik natijasida paydo bo‘ladi. Ammo, uning mahsuli sifatida ongda ham, harakatlarda ham namoyon bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, axloq ham aqliy, ham jismoniy hodisadir.

Dastlab “axloq” tushunchasi falsafiy tushuncha sifatida qaralgan. Keyinchalik u ham falsafiy, ham huquqiy, ham diniy tushunchaga aylanib bordi. Borabora madaniy va ma’naviy sohaga ko‘proq aloqasi bo‘lgan bu tushuncha o‘z navbatida tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikda muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Mazkur maqolamiz orqali shu kabi axloq kategoriyasiga tegishli birliklarning o‘zbek tilidagi o‘zaro o‘xshashlik jihatlarini ochib berishga harakat qildik.

Axloq istilohi o‘z ichiga “vijdon”, “iymon”, “halollik”, “kamtarlik”, “samimiylik, “odob”, “hayo”, “uyat”, “to‘g‘rilik”, “fidokorlik”, “jonkuyarlik”, “hurmat”, “insof” va shunga o‘xshash bir qator birliklarni jamlaydi. Bu birliklar aynan sinonimik qatorni tashkil etmasa ham ular o‘rtasida o‘zaro o‘xshashlik munosabatlari mavjud bo‘ladi. Aynan shu o‘xshashliklar axloq kategoriyasidagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi zanjir vazifasini bajaradi.

Axloq kategoriyasiga oid birliklarning o‘zaro o‘xshash juftliklariga keltirilgan misollarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

1	Mehribonlik	1	Oqibatlilik
2	Vijdonlilik	2	Halollik
3	Xushmuomalalik	3	Samimiylik
4	Jonkuyarlik	4	Fidokorlik
5	Kamtarlik	5	Samimiylik

Yuqorida keltirilgan jadvalni tahliliga e’tibor qaratamiz.

Mehribonlik va Oqibatlilik.

Mehribonlik bu kishilar o‘rtasidagi mehrlilik, oqibat ko‘rsatish, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish, atrofdagilarga nisbatan shafqatli bo‘lishdir. U insonga xos bo‘lgan asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Mehr orqali insonlar bir-birlarini ardoqlaydilar, uzoqdagilarga nisbatan shu mehr orqali sog‘inch hissi uyg‘onadi. Bu tuyg‘uni faqat insondagina mavjud deyish xato. U insoniy tuyg‘u bo‘lsa ham atrofimizdagi boshqa jonzotlarda ham uchrab turadi.

Oqibatlilik esa, asosan, yaqinlarga, biz bilgan va bizni biluvchilarga nisbatan qo‘llanadigan tushunchadir. Uning mehrdan yagona farqi mehribon inson tanigan va butunlay notanish insonlarga ham bu tuyg‘uni qo‘llasa, oqibatlilikda insonlar faqat taniganlariga nisbatan bunday munosabat bildira oladilar. Ammo qolgan barcha tomondan deyarli mehribonlik atamasi bilan bir ma’noda ishlatiladi. Ikkisini birlashtiruvchi mushtarak jihatning eng asosiysi shuki, mehribonlikda ham, oqibatlilikda ham insonlar atrofdagilarni o‘zidagi eng yaxshi so‘zlar orqali yoki bajarayotgan harakatlar orqali xushnud eta oladilar.

Vijdonlilik va Halollik.

Vijdonlilik bu insonning ichki qobiliyati bo‘lib, unda shaxs o‘z ichki ovozi orqali amallarini nazorat qiladi. Qilayotgan har bir ishida shu ovozga tayanadi, shu ovoz orqali to‘g‘ri yo‘lda yuradi.

Halollik esa harom ishlardan o‘zini tiya olish, barcha muvaffaqiyatlarga faqat o‘z mehnati bilan erishish, faqat to‘g‘ri yo‘lda yurish singari ishlardir. U ham ichki ovozlarimiz, vijdon amrimiz bilangina bajariladi. Halollik va vijdonlilik so‘zlarining ikkisi ham din bilan bog‘liq hodisalar hisoblanadi. Ular Qur’oni karim va hadislarda juda ko‘p marotaba qo‘llanib kelgan. Bu manbalarda insonlarga qarata halol, pok hayot kechirish haqida chaqiriq bilan bir qatorda insonlarning bunday yashashlariga bosh omil qilib ularning vijdon amriga bo‘ysunib yashashlari kerakligi aytib o‘tilgan.

Xushmuomalalik va Samimiylik.

Xushmuomalalik bu insonning atrofdagilarga bo‘lgan chiroyli munosabati. Bu xislat orqali insonlar hayotda boshqa odamlar bilan tez chiqisha oladilar, do‘stlar orttiradilar, jamoa oldida tarbiyali shaxs sifatida gavdalanadilar. Xushmuomalalik insonda harakatlar yoki o‘zgalar bilan qilingan muloqotlar orqali shakllanadi. Bu xislatdagi insonlar uchun qo‘pollik, qo‘rslik, yomonlik, g‘iybat qilish kabi tuyg‘ular begonadir.

Samimiylik ham, avvalo, muomala bilan yuzaga chiqadigan hodisadir. Bu xislat o‘zining butunlay yomonliklardan holi, hayotni va insonlarni sevuvchi jihatlari bilan ajralib turadi. Bu ikki muomala turi ham o‘z-o‘zidan yuqori tarbiyaga borib taqaladi. Tarbiyasi yuksak insonlargina boshqalar bilan chiroyli muomala qila oladilar. Ikkisini ham birlashtirib turuvchi omillar esa inson tabiatidagi yumshoqlik, tarbiyalilik hamda yuksak muomala odobidir.

Jonkuyarlik va Fidokorlik

Jonkuyarlik bu biror insonga yoki umuman jamiyatga naf keltirish yo‘lida o‘z shaxsiy manfaatidan voz kechish, o‘zgalarga qo‘lidan kelgancha foyda keltirish tushuniladi. Bu xislat o‘zida boshqalarga nisbatan shafqatli bo‘lish, mehrli bo‘lishni ham jo etadi.

Fidokorlik xislati esa asli arab tilidan tarjima qilganda bir maqsad uchun o‘zini fido qilishga tayyorlik, qurbon bo‘lishga rozi bo‘lish degan ma’noni anglatadi. Bu istiloh ham jonkuyarlik atamasiga aynan ma’nodosh bo‘lmay, unga o‘xshash ma’nodagi so‘zni ifoda etadi.

Jonkuyarlikda insonlar atrofdagilar uchun o‘z manfaatidan kechib yordam berishni ifoda etsa, fidokorlikda jon o‘rtaga tikiladi. Ya’ni jamiyat uchun, atrofdagilar uchun qo‘lidan kelgan yordamni beradi, ammo qilgan ishlari naf bermasa, jonini ham ayamaydi.

Kamtarlik va Samimiylik

Kamtarlik bu, asosan, diniy istiloh bo‘lib, u, avvalo, insonning ma’naviyati qanchalar yuksakligini, madaniyati qay darajada ekanligini, muomala odobi rivojlanganligini ko‘rsatib beruvchi so‘zdir. U biror yutuqqa erishganda maqtanib ketmaslikni, g‘ururlanmaslikni o‘rgatadi. U vijdon amri bn kibrga qarshi turuvchi asosiy xislatdir. Bu xislatga ega insonlar shuhrat qozonish niyatida biror ishga qo‘l urmaydilar. Ular qilayotgan har bir ishni o‘z manfaatlari uchun emas, aksincha, xalq uchun, jamiyat uchun bajaradilar.

Samimiylik va kamtarlikning mushtarak jihati shundan iboratki, ikkisi ham sidqidildan, chin yurakdan yuzaga chiqadigan xislatlardir. Ikkisida ham oldindan tayyorgarlik mavjud emas, ya’ni har ikki munosabat ham vaziyatning aynan o‘zida ro‘y beradi. Samimiyat insondagi eng oliy insoniy xislat bo‘lib, u axloqning mukammal va oliy ko‘rinishlaridan biridir. Kamtarlik tuyg‘usi faqat tug‘ma bo‘ladi. Samimiylik esa ham tug‘ma, ham hayot davomida orttirilgan tarbiyaning natijasida ham paydo bo‘ladi.

Mazkur maqolamizda samimiylik istilohini faqatgina kamtarlik so‘zigagina o‘xshash deb hisoblamay, uni xushmuomalalik degan so‘z bilan taqqoslash holatini ham keltirib o‘tganmiz. Xushmuomalalik bilan samimiylik o‘rtasidagi ma’no yaqinligi bu suhbatlarda, muomalaga kirishgandagi holatlarni ifoda etsa, kamtarlik va samimiylik degan ma’no yaqinlik asosida juftlashganda ko‘proq harakatlarda ifoda etiladigan, amallarda bajariladigan holatlarni tushunish mumkin. Bundan ko‘rinib turadiki, nafaqat samimiylik, balki, axloqqa doir juda ko‘plab shunday misollar ham borki, ularning biri boshqasi bilan juftlikda ma’no yaqinligini yuzaga keltiradi hamda aynan o‘sha so‘zning o‘zi yana boshqa bir so‘z bilan yana shunday juftlikni hosil qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, axloqqa oid birliklarning deyarli barchasi nafaqat o‘zbek tilida, balki o‘zbek xalqida ham azaldan mavjud bo‘lgan xislatlardir. Ular xalqning qon-qoniga singib ketgan. Ijobiy bo‘yoqqa

ega bo‘lgan axloqqa oid birliklar esa qaysidir jihatdan biri boshqasiga o‘xshaydi va ma’noviy jihatdan yaqin bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan jadvalni yana ko‘plab istilohlar bilan to‘ldirish mumkin. Biz bu kabi birliklarning ayrimlarini tahlil qildik, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Maxmudov. Milliy mafkura va ona tili.-T.:Xalq so‘zi, 2000-yil 13-iyun.
2.Jumaxo‘jayev N. Yuksak ma’naviyat belgisi.-T.: Xalq so‘zi, 1997-yil 5-noyabr.
3.Hojiyev A. lingvistik terminlarning izohli lug‘ati.-T.: Tohkent: O‘qituvchi, 1985



Odina URALOVA
Alisher Navoiy nomidagi
til va adabiyot universiteti
1-kurs magistranti
e-mail: gayratbest@mail.ru

O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

Annotatsiya: o‘zbek va turk xalqlarining maqollari qadimdan mavjud bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi sifatida odamlarning fikrlari, axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi va madaniy an’analarini aks ettiradi. Maqollarni o‘rganish orqali nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, falsafa, etika, sotsiologiya va boshqa sohalar ham rivojlanmoqda. O‘zbeklar va turklar o‘rtasidagi til va madaniy o‘xshashlik va farqlar juda boy tarixiy va madaniy an’analarga asoslanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi o‘zbek va turk maqollarining leksik-semantik xususiyatlarini, ularning tuzilishi va qo‘llanilishini chuqur tahlil qilish, ikkala xalqqa xos bo‘lgan o‘xshashlik va farqlarni aniqlashtirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *lug‘at-semantik xususiyatlar, o‘zbek maqollari, turk maqollari, tilshunoslik, semantika, xalq og‘zaki ijodi.*

Annotation: proverbs of Uzbek and Turkish peoples reflect the thoughts, moral values, worldview and cultural traditions of people as Folk oral creations that have existed since time immemorial. Through the study of Proverbs, not only linguistics is developing, but also psychology, philosophy, ethics, sociology and other fields. Linguistic and cultural similarities and differences between Uzbeks and Turks are based on very rich historical and cultural traditions. The purpose of this study is to deeply analyze the lexical-semantic features of Uzbek and Turkish Proverbs, their structure and application, to clarify the similarities and differences inherent in both peoples

Keywords: *Dictionary-semantic features, Uzbek Proverbs, Turkish Proverbs, linguistics, semantics, folk oral creativity.*

Аннотация:Пословицы узбекского и турецкого народов, как устное народное творчество, издавна отражают мысли, нравственные ценности, мировоззрение и культурные традиции народа. Через изучение пословиц развивается не только Лингвистика, но и психология, философия, этика, социология и другие области. Языковые и культурные сходства и различия между узбеками и турками основаны на очень богатых исторических и культурных традициях. Целью данного исследования является глубокий анализ лексико-семантических особенностей узбекских и турецких пословиц, их структуры и применения, уточнение сходств и различий, присущих обоим народам.

Ключевые слова: *лексико-семантические особенности, узбекские пословицы, турецкие пословицы, языкознание, семантика, устное народное творчество.*

Kirish. Ushbu maqolada biz o‘zbek va turk maqollarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilamiz. Maqollar til va madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi odamlarning og‘zaki ijodidir. Tadqiqotda maqollarning leksik tarkibi, ularning semantik ma’nosi, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ular orqali ifodalangan odamlarning ijtimoiy tafakkuri ta’kidlangan. Maqollarda ishlatiladigan so‘zlarning semantik qatlami, tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, o‘zbek va turk maqollarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi. Shu tufayli maqollarni nafaqat tildan, balki madaniy kontekstdan ham tahlil qilish har ikki xalqning tarixiy va madaniy rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Maqollarni leksik-semantik nuqtayi nazardan o‘rganish xalq og‘zaki ijodining boyligini ochib beradi va tilshunoslik sohasida yangi tadqiqotlarga yo‘l ochadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi

Adabiy tahlil va tadqiqot metodologiyasi o‘zbek va turk maqollarining leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Maqollar nafaqat til, balki madaniy, tarixiy va axloqiy qadriyatlarni aks ettiruvchi o‘ziga xos lingvistik birliklardir. Tadqiqot adabiyotlarni tahlil qilish orqali mavjud ilmiy tadqiqotlarga umumiy baho beradi va maqollarni leksik va semantik o‘rganishga ilg‘or yondashuvni ta’minlaydi. Bunda o‘zbek va turk maqollarining semantik tuzilishi, ularning leksik tarkibi va ijtimoiy-madaniy konteksti diqqat bilan ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida, birinchi navbatda, o‘zbek va turk maqollariga oid mavjud ilmiy manbalar, maqolalar, monografiyalar va lingvistik tadqiqotlar tahlil qilinadi. Shu munosabat bilan maqollarning semantik tahlilini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga e’tibor qaratilmoqda.

Masalan, ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar maqollarning semantik tuzilishini yoki ularning farqlari va o‘xshashliklarini ko‘rsatadi. Ushbu manbalar maqollarni yanada kengroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, yangi tadqiqotlar va ilmiy yondashuvlar haqida ham fikrlar bildirilmoqda. Bugungi kunda maqollarni o‘rganishda zamonaviy va ilmiy usullar tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi yangiliklar uchun muhim hisoblanadi. Ma’lumotlarni tahlil qilish va tadqiqot metodologiyasining asosiy maqsadi maqollarni nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki madaniyatshunoslik va sotsiologiya, falsafa, psixologiya kabi boshqa sohalarda ham o‘rganishdir. Buning uchun maqollarni ijtimoiy, madaniy va axloqiy kontekstda tahlil qilish kerak. Ushbu usuldan foydalanish maqollarning nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham ochib beradi.

Maqollarni o‘rganish jarayonida ularning xalq og‘zaki ijodi sifatidagi roli va bu odamlarning qadriyatlari va turmush tarziga qanday ta’sir qilishi ko‘rsatilgan. Tadqiqot metodologiyasida qo‘llaniladigan yondashuvlar:

Taqqoslash usuli: o‘zbek va turk so‘zlarining leksik-semantik xususiyatlari bir-biri bilan taqqoslanadi. Ushbu usul maqollardagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlaydi, shuningdek, ikki mamlakatning lingvistik va madaniy xususiyatlarini o‘rganadi.

Tarkibni tahlil qilish: maqollarni tahlil qilishda semantik qatlamlar, ma’nolar va ijtimoiy kontekstdagi o‘zaro ta’sirlar chuqur tahlil qilinadi. Bu usul maqol ma’nosining ma’lum bir qatlamini ochib beradi.

Diskurs tahlili: maqollarning diskurs tahlili lingvistik va mantiqiy tuzilmalarni odamlarning dunyoqarashini qanday aks ettirishini aniqlash uchun tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu usulning asosiy maqsadi maqollarning lingvistik aloqalari va semantik xususiyatlarini chuqur o‘rganishdir.

Falsafiy va axloqiy yondashuv: maqollarni axloqiy va falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish. Bu maqollarning odamlarning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlarini qanday ifodalashini aniqlash imkonini beradi.

Lingvistik va madaniy yondashuv: maqollarni lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish ularning madaniyat va til bilan bog‘liqligini ochib beradi. Maqollar til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini chuqur tushunishga yordam beradi.

Muhokama va natijalar

Yangi yondashuvlar ham ushbu tadqiqotda alohida e’tibor qaratiladigan masalalardir. O‘rganilayotgan mavzuni yangicha nuqtayi nazardan yoritish uchun zamonaviy texnologiyalardan, masalan, zamonaviy o‘qitish va tilni qayta ishlash metodlaridan foydalanish mumkin. Bu metodlar yordamida katta hajmdagi maqollarni avtomatik tahlil qilish va ular orasidagi o‘xshashliklarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, maqollarni boshqa xalqlar bilan qiyoslash va global kontekstda tahlil qilish imkoniyatlari ham kiritilishi mumkin.

Shu tarzda, maqollarni leksik-semantik tahlil qilishda amaliy va nazariy metodlarning boy qamrovi, tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Bu metodlar yordamida maqollarni tahlil qilish, nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va ijtimoiy tahlil sohalarida yangi istiqbollarni ochadi.

Maqollarni leksik-semantik tahlil qilishda yangi yondashuvlar, tadqiqotga yangi nuqtayi nazardan yondashish imkonini beradi. Ushbu bo‘limda, yangi yondashuvlar asosida olingan natijalar va misollar jadvallarda ko‘rsatiladi. Bu metodlar maqollarning semantik tuzilishini chuqurroq o‘rganish, ularning ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstini tahlil qilish imkonini yaratadi. Quyida keltirilgan yondashuvlar va ularning misollari maqollarni yanada kengroq va to‘liqroq tahlil qilish imkoniyatini beradi.

1. Qiyosiy usul

Qiyosiy usulda o‘zbek va turk maqollarining leksik-semantik xususiyatlarini taqqoslash orqali ularning o‘xshashliklari va farqlari aniqlanadi. Bu metod orqali, ikkala xalqning og‘zaki ijodida uchraydigan leksik birliklar va ularning semantik ma’nolari solishtiriladi.

Misol:

O‘zbek maqoli	Turk maqoli	Semantik ma’no
“Qo‘shning tinch-sen tinch.”	“Komşularla iyi geçin, evinde huzurlu olursun.”	Ijtimoiy tinchlik va do‘stlikning ahamiyati.
“Birinchi qadamingni qo‘y, qolganlari osongina bo‘ladi.”	“İlk adımı at, geri kalan her şey kolay olur.”	Mehnat va muvaffaqiyatga erishish uchun boshlang‘ich harakatlarning muhimligi.

Yuqoridagi jadvalda, o‘zbek va turk maqollarining semantik jihatdan o‘xshashligi ko‘rsatilgan. Bu maqollar ijtimoiy

va hayotiy qadriyatlarni aks ettiradi, lekin til va madaniyat farqlari tufayli ba'zi leksemalar mavjud.

2. Kontent tahlil

Kontent tahlil metodida, maqollarni ijtimoiy va madaniy kontekstda o'rganish, ularning mazmunidagi semantik qatlamlarni ochib berishga imkon beradi. Maqollar orasidagi ma'no qatlamlarini tahlil qilishda, bu metod orqali yuqori darajadagi ma'lumotlar to'plami hosil bo'ladi.

Misol:

Maqol	Asosiy semantik qatlam	Madaniy kontekst
" O'zimni bilsam, o'zgani topaman "	Ikkalasida ham o'zini tanish, o'z ustida ishlash orqali boshqa insonlarni tushunish g'oyasi yotadi	O'zbekiston va Turkiyadagi ijtimoiy hayotda o'z ustida ishlash va boshqalarniyam anglash tushunchalarining o'xshashligi. Ma'naviy qadriyatlar va shaxsiy erkinlikning ahamiyati.
" Kendini bilen başkasını tanır"		

Jadvalda keltirilgan maqollar, ijtimoiy va madaniy kontekstdagi tahlilni ko'rsatadi. Har ikki xalqda ham insoniy qadriyatlar mavjud bo'lib, ular o'zining ijtimoiy muhiti va qadriyatlariga qarab o'zgacha ifodalanadi.

3. Diskursiv tahlil

Diskursiv tahlil metodida, maqollarni til va mantiqiy tuzilishiga asoslanib o'rganish mumkin. Maqollarning til tarkibi va ularning dunyoqarashini qanday aks ettirayotganini aniqlashda bu metod yordam beradi.

Misol:

O'zbek Maqoli	Turk Maqoli	Diskursiv Tahlil
"Yurakni so'zlar bilan ifodalab bo'lmaydi"	"Kalbini sözlerle ifade edemezsin"	Yurak va so'zlar o'rtasidagi munosabat, hissiyotlarning ifodalanishi
" Chiqmagan jondan umid "	" Ölümden **başka her** şeyin çaresi **vardır** "	Inson doim umid bilan yashashi haqida

Ushbu jadval, maqollarning mantiqiy tuzilishini tahlil qilishda foydalidir. Ikkala maqolada ham hissiyotlar, umidning muhimligi ko'rsatilgan.

Yangi metodlar va yondashuvlar yordamida o'zbek va turk maqollarining leksik-semantik xususiyatlari yanada to'liq va mukammal tahlil qilindi. Bu, o'z navbatida, ikki xalqning tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiologiya sohalarida yangi izlanishlarga yo'l ochadi.

Xulosa. O'zbek va turk maqollarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish ikki xalqning tili va madaniyatidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar maqollarning semantik tuzilishini, ularning ijtimoiy, madaniy va axloqiy ahamiyatini o'rganish imkoniyatini berdi.

Maqollarni qiyosiy usullar, kontent tahlil, nutq tahlili va lingvistik va madaniy yondashuvlar kabi zamonaviy usullardan foydalangan holda tahlil qilish ikki mamlakat qadriyatlari, dunyoqarashi va tarixiy tajribalarini yaxshiroq tushunishga yordam bermaydi, o'zbek va turk maqollarining leksik-semantik xususiyatlari orqali ularning lingvistik tarkibidagi o'xshashlik va farqlar ko'rsatiladi.

Ikkinchidan, maqollarni ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil qilish orqali odamlarning og'zaki ijod sifatidagi o'rni va odamlarning hayotga munosabati aniq bo'ldi. Ushbu maqollar nafaqat til sifatida, balki odamlarning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik birlik sifatida ham bog'liqdir.

Maqollarni avtomatik tahlil qilish va ularning o'xshashliklarini aniqlashda ushbu usullardan foydalanish juda muhimdir. Bunday yangiliklar maqollarni global kontekstda ijtimoiy va madaniy aloqalar sifatida aniqlashda yangi istiqbollarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Axmedov, Sh. (2015). O'zbek xalq maqollari va ularning semantik tuzilishi. Tashkent: Fan.
2.Bayqulov, M. (2009). O'zbek tilining leksikologiyasi. Tashkent: Sharq.
3.G'ulomov, N. (2013). Turk xalq maqollari va ulardagi leksik-semantik jihatlar. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
4.Zayniddinov, U. (2016). Maqollarni tahlil qilish metodlari. Tashkent: Adabiyot va san'at.
5.Yuldashev, A. (2018). O'zbek va turk tilidagi maqollarni taqqoslash. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

Zuhro RAJABOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

“BAYOZI MUXAMMASOT” QO‘LYOZMA MANBALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada “Bayozi muxammasot” qo‘lyozmalari va uning nusxalarini o‘rganish zarurati, mavzuning dolzarbligi va bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhiti, shoirlari va ularning ijodi tahlil qilingan, qo‘lyozma misolida bayoz va muxammas janri xususiyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *bayoz, muxammasot, manbashunoslik, matnshunuslik, g‘azaliyot, musammat, asliyat, kotib, tazkira, kulliyot.*

Аннотатсия: в данной статье раскрываются сведения о рукописях “Байози Мухаммасот”, необходимости изучения рукописных копий, актуальности темы и ее важности на сегодняшний день. Проанализирована литературная среда Хивы, поэты и их творчество конца XIX - начала XX века, изучены особенности жанров Баяза и Мухаммаса на примере рукописей.

Ключевые слова: *баяз, мухамасот, источниковедение, текстоведение, газалият, мусаммат, аслият, катиб, тазкира, куллият.*

Annatation: in this article, information about the manuscripts of "Bayozi Mukhammasot", the necessity of studying manuscript copies, the relevance of the topic and its importance today is disclosed. The literary environment of Khiva, poets and their works of the end of the 19th - beginning of the 20th century were analyzed, and the features of the Bayaz and Mukhammas genres were studied on the example of manuscripts.

Keywords: *bayaz, mukhamasot, source studies, textual studies, ghazaliyat, musammat, asliyat, katib, tazkira, kulliyat.*

Hozirgi kunimizda milliy adabiy merosni birlamchi manbalar asosida o‘rganishga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Qo‘lyozma manbalar tadqiqi, qaysi davrda yashagan yoki qaysi davrda yozilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, shoir yoki adib asarlarining asliyatga muvofiq matnlarni tiklash imkonini beradi. Ishonchli matnni tiklamay turib, asarlarni adabiyotshunoslikning nazariy muammolari kesimida tahlil etib bo‘lmaydi.

Matnshunoslik sohasida qo‘lyozma manbalarni qiyosiy tahlil qilish, ijodkor ilmiy biografiyasini yaratish, badiiy asar matni tarixini o‘rganish, lirikasini tahlil qilish kabi ilmiy muammolar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Olib borilgan keng tadqiqotlar matnshunoslikning nazariy asoslarining yaratilishiga zamin bo‘lib xizmat qilmoqda. Milliy adabiyot tarixida yorqin iz qoldirgan ijodkorlar adabiy merosini asliyat asosida tadqiq qilish, qo‘lyozma va toshbosma manbalarni ilmdagi so‘nggi yutuqlarga tayanib o‘rganish manbashunoslik va matnshunoslikning ustuvor vazifalaridandir. She’riyatimizning atoqli namoyondalari merosi hozirgi kunda individual poetik mahorat nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda. Bu borada yangi zamon talablari darajasidagi ilmiy natijalarga erishish hanuz kun tartibida turibdi. “… Ijtimoiy sohani, jumladan, adabiyot va san’at sohalarini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratish zarurligi” alohida ta’kidlanishida ham ayni shu haqiqat mujassam.

Shunga ko‘ra, Xorazm adabiy muhiti namoyondalarining ijod mahsullari jamlangan “Bayozi muxammasot” qo‘lyozma manbalarining ilmiy-monografik tadqiqini amalga oshirish, qo‘lyozmalar tarkibi va tuzilishini o‘rganish, matniy jihatdan tahlil qilib, janr xususiyatlarini ochib berish, Xorazm shoirlarining devonlariga kirgan va kirmagan muxammaslarini ajratib, ularni badiiy tahlil qilish, ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash tamoyillarini ishlab chiqish muhim ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Uch xonlik davridagi siyosiy tuzum, mafkuraviy qarashlar, jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar albatta, fanga, adabiyotga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ilm-fan, maorif, madaniyat rivoji xonliklarning barchasida ham bir xil darajada bo‘lmagan. Xonliklardagi adabiy jarayon ham uch adabiy muhit doirasida kechdi. An’anaviy nazm, tarixiy asarlar adabiyoti, tazkirachilik, tarjimonlik, lug‘atchilik, qo‘g‘irchoq teatri sohalari sezilarli ravishda faoliyat olib bordi. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazmda ilm-fan, adabiyot, she’riyat, san’at, xattotlik va kitobat ilmlari ancha ravnaq topgan davr hisoblanadi. Adabiyotning rivojlanishida shoirlarga homiylik qilib, yo‘lboshchi bo‘lgan, deyarli ellikka yaqin shoirlarni o‘z atrofiga yig‘a olgan, she’riyatdan xabardor bo‘lib o‘zi ham adabiyotning turli janrlarida she’rlar yozgan Muhammad Rahimxon Feruzning hissasi katta. Adabiyotning yetuk vakillaridan Ogahiy, Munis, Komil

Xorazmiy, Tabibiylar ham bu davrning ko‘zga ko‘ringan shoirlari va adabiyotda o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan shaxslar edi. Xorazmda Munis, Ogahiy, Feruz faoliyati tufayli adabiyot, tarix, tarjimachilikda anchagina jonlanish sezildi. Adabiyotimizda katta-katta bayozlar, tazkiralar, kulliyot, majmua va devonlar ham aynan shu davrda tuzildi va aksariyati hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Nusratullo Jumaxo‘ja bu davr adabiyoti haqida yozar ekan shunday deydi: “Ko‘p qo‘lyozmalar ko‘chirildi. Kotiblar bu ishda ularning janr xususiyatlariga ham e’tibor berganlar. “Bayozi g‘azaliyot”, “Bayozi muxammasot” kabi alohida janrlardan iborat majmualar ham ko‘chirilgan. Devonlar jamlangan”. Bu davr Xorazm adabiyotining, bayozchiligining nihoyatda yuksalgan davri bo‘lgan. Bu davrda yozilgan asarlar mavzusining ko‘lamdorligi, xalqning orzu-istaklarini aks ettirilishi, davr masalalarining yoritilishi, yuksak insoniy his-tuyg‘ularning kuylanishi, tuzum va undagi tartibsizliklar ochiq-oydin aytilishi bilan boshqalardan farq qiladi. Bayozlarni bir lirik turda bitilgan she’rlardan tuzish prinsipi, ayniqsa Xorazm adabiy muhitida ko‘p uchraydigan holdir. Xorazm bayozlarining deyarli yarmi shoirlarning g‘azal va muxammas janrida bitilgan she’rlaridan tashkil topgan. Bayozlar tarkibida ba’zan mashhur shoirlarning devonlarida ham mavjud bo‘lmagan ayrim she’rlar uchrashi mumkin. Shuning uchun bayozlar bilan tanishayotganda juda qiziqarli she’riy topilmalarga duch kelish mumkin Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan “Bayozi muxammasot” qo‘lyozmasi va uning nusxalari ham shular jumlasidan. “Bayozi muxammasot” – muxammas janridagi she’rlardan tarkib topgan bayoz. Bilamizki, bayoz (arab. – oq, oqlik) – she’rlar to‘plami degan ma’noni anglatadi Bayozlar erkin ravishda tuzilgan turli davr shoirlarining rang-barang she’rlarini o‘zida mujassamlashtirgan she’riy to‘plam hisoblanadi. “Muxammas” – arabcha so‘z bo‘lib, “beshlik” degan ma’noni anglatadi, ya’ni bu janrdagi she’rlarning har bir bandi besh misradan iborat bo‘ladi. Muxammas janrida ko‘proq ma’rifiy, falsafiy, didaktik, sevgi, hijron va vatanparvarlik mavzulari yoritiladi. Mazkur bayoz ham shu tipdagi she’rlar jamlanmasidir. Bunda bir ijodkorning emas, balki bir necha ijodkorlarning bir turdagi ijod namunalari jamlanadi. Bayozlarda yozgan muallifi yoki kotibi aniq bo‘lmasligi yoki yozilgan joyi yirtilib, shikast yetgan bo‘lishi mumkin. Biz bu holatda qo‘lyozmaning tashqi va ichki ko‘rinishi, badiiy bezagi, xati, yozuvi, qog‘ozi, muqovalarining ko‘rinishi, kotibi va eng asosiysi bayozdagi shoirlar nomlari va taxalluslariga qarab uning davri va adabiy muhiti, makonini aniqlab olishimiz mumkin bo‘ladi. Bu qo‘lyozma bayozning ham muallifi aniq emas. Ammo biz buning Xorazm adabiy maktabiga oid ekanligini bilamiz, chunki berilgan qo‘lyozmadagi she’rlari jamlangan ijodkorlar Xorazm diyorida yashagan va ijod qilgan adabiyot vakillaridir. Undan tashqari biz qo‘lyozmaning tuzilishi, qog‘ozi, bezak va naqshlaridan bu qo‘lyozmalar aynan saroyda, xon ishtirokida yozilganligini ham taxmin qilishimiz mumkin. Chunki, qo‘lyozmada Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruzning ham she’rlari kiritilib, chiroyli bezaklar bilan yozilgani, ko‘pchilik shoirlar uning g‘azallariga muxammas bog‘lagani buni dalillaydi. Demak, shu narsa aniq bo‘ldiki, bu qo‘lyozma bayoz Xorazmda yashab ijod qilgan ko‘pgina shoirlarning muxammaslaridan tarkib topgan. Hozirda bizgacha “Bayozi muxammasot” qo‘lyozmasining 6 ta nusxasi yetib kelgan va O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bu nusxalarni o‘rganish, undagi shoirlar she’rlarini tasniflab, qiyosiy tahlil qilish, mavzu doirasini aniqlash va ommaga yetkazish uchun bizga asos bo‘lib xizmat qiladigan narsa bu adabiy material – manbadir. Mazkur bayozi muxammasot nusxalari o‘zining badiiy bezagi, tarkibidagi zarvaraqlar, kotiblar tomonidan chizilgan naqshlar va yozuv shakllari orqali XX asr boshidagi Xorazm san’at, kitobat, xattotlik madaniyatining qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ajdodlarimiz tomonidan katta mashaqqatlar bilan qil qalamlarda, siyohlarda yozilgan bunday qo‘lyozmalar hozirgi kunda ham ilm-ma’rifat yog‘dusi o‘laroq o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan. Umuman, mazkur bayoz muxammas janri namunalarining to‘plami sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. //Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

2. N.Jumaxo‘ja. I.Adizova. O‘zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: Innovatsiya – Ziyo, 2020. 370-bet

3. Шукурова З. Урта Осиёда баёз тузиш ан’анасининг пайдо булиши.//Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti. 2023. 398-401-bet

4.Хамидова М. Кулёзма баёзлар – адабий манба.- Тошкент: Фан, 1981. 28-bet

Madina QOSIMOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

XX ASR BOSHLARIDA CHOP ETILGAN “MASHRAB” JURNALINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: XX asr boshlarida jadid adabiyotida matbuotning o‘rni va ahamiyati. Maqolada 1924-1927-yillar mobaynida “Zarafshon” gazetasiga qo‘shma tarzda Samarqandda chiqarilgan “Mashrab” jurnalining sonlari haqida ma’lumotlar keltirildi. “Mashrab” jurnalida ilmiy, tarixiy, ma’rifiy tahlilga boy maqolalar bilan bir qatorda kichik xabarlar, e’lonlar, yosh shoirlarning ijod namunalari chop etilgan.
Kalit so‘zlar: *jurnal, gazeta, matbuot, kalikatura, jadid, adabiy parcha.*
Annotation: the role and importance of the press in modern literature at the beginning of the 20th century. The article provided information about the issues of the magazine "Mashrab" published in Samarkand jointly with the newspaper "Zarafshon" during 1924-1927. "Mashrab" magazine publishes articles rich in scientific, historical, and educational analysis, as well as short notices, announcements, and works of young poets.
Key words: *magazine, newspaper, press, calligraphy, novel, literary piece.*
Аннотация: роль и значение прессы в современной литературе начала XX века. В статье представлены сведения о выпусках журнала “Машраб”, издававшегося в Самарканде совместно с газетой “Зарафшон”в 1924-1927 годах. Журнал “Машраб”публикует статьи, богатые научным, историческим и просветительским анализом, а также краткие заметки, объявления и произведения молодых поэтов.
Ключевые слова: *журнал, газета, пресса, каллиграфия, роман, литературное произведение.*

O‘zbek matbuoti Turkiston tarixidagi jadidchilik harakati bilan juda tabiiy bog‘lanadi. Aslida jadidchilik ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda, yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy harakatdir.

XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda milliy matbuotni

shakllantirish masalalari bilan ham shug‘ullandilar. Bir tomondan, o‘zbek jadidchilik harakatiga oziq bergan kuchlar millatning o‘tmishida yashab o‘tgan buyuk alloma va mutafakkirlar bo‘lib, ularning ma’naviy-ilmiy merosini o‘rganish orqali xalqimiz qanchalik yuksaklikka erishgan, jadidlar ham o‘tmish ma’naviyatini bilish va uning ayrim muammoli o‘rinlarini isloh qilish yo‘lidan borganlar. Isloh qilish uchun esa har bir ma’naviy merosning o‘z davri va shu kundagi ahamiyatini belgilash, uning kelajakka daxldorlik darajasini aniqlash hamda ularni xalqning milliy yuksalishi uchun o‘ziga xos shakllarda yetkazib berish zarur edi. Jadidchilik harakati Turkistonga Rusiya istilosi tufayli kirib kelgan temir yo‘l, matbaa va matbuot imkoniyatlaridan ham foydalanishga harakat qildi.

Turkistonda ilk matbuotning shakllanish tarixi 1870-yil 28-aprelda chiqa boshlagan “Turkiston viloyatining gazeti” bilan boshlangan. “Turkiston general gubernato‘ri buyrug‘i bo‘yicha ushbu oydan boshlanib “Turkiston gazeti” chiqadur. Ushbu gazetlarda barcha xaloyiqg‘a ma’lum bo‘lmoq uchun general-gubernato‘rni har turli farmoni izhor qilinur va yana har turli yangi xabarlar, savdo to‘g‘risida yozilur. Va yana Toshkand va g‘ayri shaharlarda bo‘lg‘on hodisa voqealar yozilur”, deyilgan edi gazetaning dastlabki sonlaridan birida.

“Turkiston viloyatining gazeti”ga o‘ttiz besh yil davomida muharrirlik qilgan N.Ostroumov o‘z navbatida Rossiya va Yevropa madaniyati hamda hayot tarzini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratdi. Uning gazetasida Rossiya va Yevropaga sayohat qilgan bir qator o‘zbek tujjorlari va ziyolilarining sayohatnomalari muntazam ravishda e’lon qilindi.

1906-yil 27-iyunda Turkistonda birinchi jadid matbuotining qaldirg‘ochi bo‘lgan “Taraqqiy” (Ismoil Obidiy muharirligida) 10 ta soni chiqqan, A. Avloniy, aka-uka Komilbek va Karimbek Norbekov, Fansurullobek Xudoyorxonov hamda Muhammadxon Poshshaxo‘jayevlarni o‘z atrofiga birlashtirgan.

1907-yil “Shuhrat” (Toshkentda, A.Avloniy rahbarligida) 10 ta soni chiqqan. Gazetaning 10 soni dunyo yuzini ko‘rganidan keyin u hukumat tarafidan yopildi.

1907-yil “Tujjor” (Toshkentda, Saidkarim Saidazimboy o‘g‘li muharrirligida).

1907-yil “Osiyo” A. Avloniy tashkilotchiligida, Toshkentda (ba’zi ma’lumotlarda 1908-yilda) Rahmatjon Bektemirov muharrirligida nashr etilgan, 6-chi chiqishidan so‘ng hukumat tomonidan yopilgan.

1912-yildan Buxoroda “Buxoroi sharif” nashr qilina boshladi. Fors tilida chiqa boshlagan.

1913-yil “Turon” (Buxoroda).

1913-yil “Samarqand” (Samarqandda, M. Behbudiy

muharrirligida), Siddiqiy-Ajziy, H. Muin, Nusratulla Qudratulla, Said Rizo Alizoda kabi taraqqiyparvarlar faoliyat yuritdi. Moddiy qiyinchiliklar sabab, gazeta 48-sonidan so‘ng o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi.

1913-yil 20-avgustdan e’tiboran esa Behbudiy o‘zining “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. Uning sahifalarida Munavvar qori, Mahmud Sattor, Akobir Mansurlarning bir qator maqolalari o‘rin egallagan bo‘lib, jurnal “Millat, islomiyai saodat” shiorini ko‘targan edi. Ammo “Oyina” jurnali ham 136 soni e’lon qilinganidan keyin 1915-yil 15- iyunda yopiladi.

1914-yildan nashr etila boshlagan “Sadoi Turkiston” jadidchilik tarixida chuqur iz qoldirgan nashrlardan biri edi. Uning bosh muharriri Ubaydullaxo‘ja Asatillaxo‘jaev bo‘lib, gazeta ishlariga Munavvar qori va Abduraufzodalar yaqindan yordam berishgan. 66-sonidan so‘ng chop etilishidan to‘xtagan.

1914-yil “Sadoi Farg‘ona” (Toshkentda, Obidjon Mahmudov muharrirligida). 1914-1918-yillar (ayrim ma’lumotlarda 1917-1918-yillar) “Najot” (Toshkentda, M.Qori muharrirligida), ”Sho‘roi islom” (A. Battol muharrirligida), “Turon” (Toshkentda, A. Avloniy muharrirligida), “Hurriyat” (A.Fitrat muharrirligida), “Kengash” (Toshkentda, Z.Validiy muharrirligida), “Ulug‘ Turkiston” (K.Bakirmuharrirligida), “Turk so‘zi” (T. Xudoyorxonov muharrirligida), “Xalq dorulfununi” (M. Bakir muharrirligida), “Hurriyat” (Samarqandda, Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shohmansur va Abdurauf Fitrat tashkilotchiligida), “El bayrog‘i” (Qo‘qonda, Po‘lat Soliyev muharrirligida), “Farg‘ona nidosi” (Namanganda, Husayn Makayev muharrirligida) nashr etilgan.

1915-yil “Tirik so‘z” (Toshkentda, Obidjon Mahmudov muharrirligida).

Prof.B.Qosimov 1917-yil fevral voqealaridan so‘ng nashrdan chiqqan gazetalar haqida fikr bildirib, chunonchi shunday yozadi: “1917-yilning fevralidan keyin “Najot” (Munavvar qori), “Sho‘roi islom” (A.Battol), “Turon” (Avloniy), “Hurriyat” (Fitrat), “Kengash” (Zaki Validiy), “El bayrog‘I” (B.Soliev, A.Zohiriy), “Ulug‘ Turkiston” (K.Bakir) kabi ko‘plab gazetalar chiqdi” . Bular orasida Samarqandda nashr etilgan “Hurriyat” gazetasi sahifalarida yuzlab, minglab maqola va xabarlar, she’r va hikoyalar chop etildiki, bu hol jadid adabiyotining taraqqiyotiga xizmat qilgan asosiy omillardan biri jadid matbuoti degan da’voni tasdiqlaydi. Turkiston jadid matbuoti tarixi haqida ham maqola va tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Dastlab Cho‘lpon “Turkistonda matbuot” maqolasi bilan chiqdi . So‘ngra Abdulla Avloniy 1905-1917-yillarda chop qilingan nashrlarni umumlashtirib, “Burungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasini yozdi . Oradan o‘n yil o‘tgandan keyin Ziyo Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)” nomli mashhur kitobi nashrdan chiqdi .

Jadid matbuoti tarixiga nazar tashlaganda, shunga amin bo‘lamizki, haqiqatan ham jadidchilar tomonidan amalga oshirilgan nashrlar millatning uyg‘onishiga sabab bo‘ldi, deyarli barcha jadidchilik harakatining rahbarlari matbuotchilik ishiga faol qatnashib, o‘zlarining maqola va badiiy asarlarining ommaga yetib borishi uchun qulay bo‘lgan usul va yo‘l topdi.

1924-1927-yillar mobaynida Samarqandda “Mashrab” jurnali o‘z faoliyatini olib borgan. Ushbu jurnal “Zarafshon” gazetasiga qo‘shma tarzda nashr etilgan. Jurnal 1-sahifasiga Samarqandda har 15 kunda, bir oyda 2 qatla chiqadurg‘on adabiy, ijtimoiy, siyosiy rasmlik kulgu jurnali deb yozilgan. 1-sahifasida Mashrab timsoliga o‘xshatish ma’nosida erkak kishining tasviri tushirilgan va u bo‘yniga “to‘g‘ri” deb yozilga so‘zni osib olgan. 2-3-sahifalariga adabiy parchalar, maqolalar, she’rlar, Mashrab boboga maktublar keltirilgan. Jurnalning 2-3 sahifasi karikaturadan iborat. Karikaturada Turkistonda aks etgan ijtimoiy-siyosiy ahvol, insonlarning savodsizligi, bilimsizlik, qoloqlik, qo‘shxotinlik, eshonlarning ijtimoiy ahvoli, tibbiy savodsizlik kabi masalalar turmush hayotidan olingan rasmlar asosida kulguga olingan.

Bugungi kunda “Mashrab” jurnalining 1924-yildan 1937-yilgacha bo‘lgan sonlari Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida Pya 109 inventar raqami ostida yig‘ma jild holida saqlanadi. Biz maqolada ayni shu yig‘ma jilddan foydalandik. Jurnalning ilk soni 1924-iyun oyidan chiqa boshlagan, 1926-yil 12-iyunga qadar uning 40 ta soni chiqqan. 1926-yil 30-iyuldan esa jurnal yana 1-sondan chiqa boshlagan. 1927-yil 1-may kuni jurnalning oxirgi 18-soni chiqqan va shu sonining oxirgi sahifasida jurnalning nashrdan qayta chiqmaslik sababini keltirib o‘tgan. Ushbu qism “Uzur” nomi bilan boshlanadi. “Mashrab” karikaturasining Toshqonda ishlanishi va Samarqonda fotografiyasining ba’zi kamchiliklari natijasida bu sonimizning texnikaviy tuzatilishi va shu singari materiallarimizning quyulishi ham ko‘nguldagidek chiqmadi. O‘qug‘onlarning afuni so‘rab qolamiz. Mas’ul muharirir: Shokirbekov.

Jurnalning har bir sonida Mashrabga yozilgan arzi hollarni yoki Mashrab tilidan aytilgan maqolalarni ko‘rishimiz mumkin:

1. 4-son: “Mashrab boboga arzi ixlos”
2. 7-son: “Hazrati Xizr uchun Mashrab bobo”
3. 8-son: “Ikki surog Mashrab tog‘a”
4. 10-son: “Aytaymi? Aytmaymi? Mashrab bobo
5. 37-son: “Mashrabga ochiq maktub”
6. 38-son: “Mahrab” kulbalariya hayyit matolari
7. 39-son: “Ham shoir, ham muharrir, ham “Mashrab” , ham “Mushtum”
8. 2-son: “Mashrabning istatistiqosi”, “Mashrabning qulog‘iga”, “Mashrabning anketalari”
9. 3-son: “Mashrabning kimyo amaliyotxonasi”
10. 4-5-son: “Mashrabning lug‘at va atamalari”, “Mashrabning javoblari”

11. 6-7son: “Mashrabning kino kartinasi”

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu jurnalga berilgan adabiy materiallar, siyosiy xabarlar orqali o‘sha davrda yuz bergan voqealarni, aholining turmush tarzini, savodxonlik darajasini aniqlashimiz mumkin. Bundan tashqari hali o‘rganilmagan yosh ijodkorlarni ijod namunalari ham tanishishimiz mumkin. Ushbu jurnali o‘rganish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002. – Б. 400
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002. – Б. 400.
3. Саид Зиё. Танланган асарлар. –Т., 1974. –Б.116
4. Чўлпон. Туркистонда матбуот (нашрга тайёрловчи Т.Тоғаев). // Жамият ва бошқарув. -1998. -2-сон.

Shukrulloxon SHERQO‘ZIYEV,
Farg‘ona davlat universiteti, 2-kurs magistranti
shergoziyevshukrullo@gmail.com;
Ilmiy rahbar: Rustamjon UMURZAKOV,
FarDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK, ARAB VA INGLIZ XALQ MAQOLLARIDAGI HAYOT VA MAMOT MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq maqollari hamda hayot va mamot masalalari o‘rtasidagi munosabat, maqollardagi hayotga muhabbat va ularda o‘lim bilan bog‘liq o‘rinlar haqida tahlillar keltirilgan. Maqollarda ishtirok etgan hayot-mamot muammosi atroflicha o‘rganilib, ularning falsafiy mazmun va mohiyatiga e’tibor qaratilgan. Tahlillarni amalga oshirishda qadimgi turkiy, o‘zbek, arab va ingliz xalq maqollaridan qiyoslash usuli orqali foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *folklor, xalq maqollari, hayot va mamot masalalari, maqollar izohi, o‘xshashlik, mazmuniy bir xillik, maqollarda o‘limning vazifasi.*

Аннотация: в данной статье анализируется связь народных пословиц с вопросами жизни и смерти, жизнелюбием в пословицах и местами, связанными со смертью в них. Участвовал в пословицах всесторонне изучена проблема жизни и смерти, обращено внимание на их философское содержание и сущность. В анализе методом сравнения использованы старинные турецкие, узбекские, арабские и английские народные пословицы.

Ключевые слова: *фольклор, народные пословицы, вопросы жизни и смерти, толкование пословиц, сходство, смысловое сходство, функция смерти в пословицах.*

Annotation: in this article, the relationship between folk proverbs and issues of life and death, love of life in proverbs and places related to death in them were covered within the scope of demand. The problem of life and death involved in proverbs was thoroughly studied and attention was paid to their philosophical content and essence. Ancient Turkish, Uzbek, Arabic and English folk proverbs were used in the coverage of the article through the method of comparison.

Key words: *folklore, folk proverbs, matters of life and death, interpretation of proverbs, similarity, meaningful similarity.*

Turkiy (o‘zbek) folklori bir necha ming yillik tarixni o‘z ichiga oladigan adabiyotdir. Hali “o‘zbek” degan nom bu turkiy elatga berilishidan avval ham xalq og‘zaki ijodi shakllanib, bir muncha boyib borayotgan edi. Xususan, maqollar etnegeneziyasiga nazar tashlasak, Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida qadimgi turkiy maqollardan namunalar keltiradi. ***Ukrain turkiyshunosi Omelyan Pritsak ham tadqiqotlarida buni keltirib o‘tadi:*** *“Mahmud Koshg‘ariy Qoraxoniylar sulolasiga mansub odam bo‘lgan. U siyosiy ta’qiblardan qochib, o‘n yilcha turkiy qavmlar yashaydigan o‘lkalarda u yerdan bu yerga ko‘chib yurgan. Ana shu davrda u turkiy qavmlarning tili, geografiyasi,* ***musulmonlikdan*** *oldingi urf-odatlari va diniy tasavvurlari, adabiyoti haqida ko‘p material to‘plagan.”*[1]

Devondagi xalq maqollariga e’tibor qaratganimizda islom dini tarqalgunga qadar ham xalqning hayot

1 Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2017.

va o‘lim haqidagi tushunchalari islomiy aqidalarga (ijobiy bo‘yoqda) mos kelishligi bilan o‘ziga xosdir:

Ағилда ўғлақ туғса, ариқда ўти унар.[1]

(Og‘il (molxona)da uloq tug‘ilsa, ariqda o‘ti chiqadi.)

Endilikda turkiylarning islomgacha bo‘lgan davrdagi xalq dunyoqarashidagi tushunchalarini ilohiy kitob orqali dalillaymiz: “Yer yuzida o‘rmalagan jon bor-ki, ularning rizqi Allohning zimmasidadir.”[2] Ko‘rinadiki, turkiy xalqlar tafakkuridagi hayotga bo‘lgan muhabbat tushunchalari diniy e’tiqodlarga to‘g‘ri keladi.

Maqol xalqning ko‘p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janrlaridan biridir.[3] ***Agar shunday bo‘lsa, mazmunan bir-biriga o‘xshash ikki xil millat folklorida uchrovchi maqollarning kelishida bu xalqlar orasida uyg‘un tushunchalar bormi yoki bu hayot insonlarga bir xil tajriba berganligidanmi? Buni quyidagi maqollar orqali sharhlaymiz:***

1. “Uyat — o‘limdan qattiq.”[4] (O‘zbek xalq maqoli)

“Uyat o‘limdan kuchli.”[5] (Arab xalq maqoli)

Ushbu juftlik maqollardagi o‘xshashlik shundaki, har ikkalasi ham sharm-u hayo tushunchasi o‘limdan ham afzal ekanligini ko‘rsatyapti. Bu o‘rinda o‘lim hayodan kuchsizlik darajasiga tushirilgan, ya’ni sharq (musulmon) xalqlariga xos insonning sha’ni har narsadan afzaldir. O‘zbek va arab folklorida ba’zi o‘xshashliklar islom ta’siri ostida uyg‘unlashgan, deb qarasak, ingliz xalq maqoli ishtirokidagi guruhlanishga ham e’tibor qaratamiz:

2. “Tirik qulga tinim yo‘q.” (O‘zbek xalq maqoli)

“Yo mustaqil yasha, yo o‘l.” (Arab xalq maqoli)

“Tizzada yashagandan ko‘ra, tik turib o‘lgan yaxshi.”[6] (Ingliz xalq maqoli)

1 Кошғарий М. Девону луғотит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). Т. I-II-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963.
2 Hud surasi, 5-oyat
3 Имомов К., Мирзаев Т. ва бош. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
4 O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005.
5 http://www.ziyouz.com
6 http://www.ziyouz.com

Uchala maqol ostida ham erk, sharaf masalalari yotadi, ya’ni bir tomondan o‘lim — bu mustaqillik, erkka erishish. Ikkinchi tomondan u yuzaga chiqmasa, qaramlik davrining davom etishi hisoblanadi. (Abdulla Qahhor ham o‘z qahramonini shu niyat bilan qabristonga jo‘natgan edi, ya’ni o‘lim orqali Unsinni erkinlikka chiqarish[7]. Asarning tub mohiyatida ham shu yotadi.)

Diqqat qaratish kerakki, dastlabki ikki maqol (***“Uyat — o‘limdan qattiq”, “Uyat o‘limdan kuchli”***) bir-biriga ma’naviy-madaniy va e’tiqodiy jihatdan yaqin bo‘lgan arab va o‘zbek folklorida uchraydi. Maqollar mazmunidagi o‘xshashlikni shu sabablar bilan asoslasak bo‘ladi. Endilikda keyingi uch maqolga nazar tashlasak, ingliz madaniyati va sharq (musulmon) madaniyati o‘rtasida kuchli o‘xshashlik yo‘q, tarixiy aloqalar ham deyarli uchramaydi. Bu o‘rinda biz maqolaga tanlangan mavzuyimiz jihatidan yondashib, ba’zi mulohazalarni keltira olamiz. (Lekin bu masalalar alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishni talab etadi.) Birinchidan, hayot va o‘lim tushunchalari insoniyatga berilgan bir xil hodisa. U har millatda har xil qabul qilinib, talqin etilsa ham, yuz berishi bir xil (borlik va yo‘qlik). Ikkinchidan, erk va ozod kishi bo‘lishlik ham insonlarda bir xil belgiga ega, ya’ni izni o‘zida bo‘ladi. Shu jihatlari bilan har xil xalq og‘zaki ijodida uchrovchi maqollar bir-biriga shakl va mazmun jihatidan o‘xshab ketadi. Yuqoridagi maqollar ham shunday xususiyatga ega, fikr dalili sifatida qadimgi turkiy maqoldan ham keltiramiz:

Ökÿз азақї болғїнча, бузағу башї болса јік.

(Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq)

Ushbu maqol ham yuqoridagi maqollarga mazmunan yaqin va bunda erkinlikning qaramlikdan afzalligi, mustaqil yashash ma’nosi yotadi.

Xalq maqollarida hayot va mamot masalalari aniq bir vazifani bajarib keladi, bu maqol ham hayot va o‘lim o‘rtasidagi uzviylikni ko‘rsatadi. Biz xalq maqollaridan hayot va o‘lim muammosi yoritilgan o‘rinlarni ajratdik. Ularda bajarilayotgan vazifalarni belgiladik. Buni quyidagi jadval asosida ko‘ra olamiz.

Jadval:

7 https://ziyouz.com

№	Maqol	Vazifasi
1	Otning o‘limi — itning bayrami.	Keyingi bosqichga o‘tish, xursandchilik.
2	Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf.	Muhabbatni ifodalash.
3	Vatandan yiroqlashgan — nomusdan o‘lar.	Sha’n va muhabbatni namoyon etish.

4	Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, Yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.	Chegara, oxir.
5	Er yigit o‘zi uchun tug‘ilar, Eli uchun o‘lar.	Mardonavorlikni yuzaga chiqarish.
6	O‘z uyim — o‘lan to‘shagim.	Chegara, qolish.
7	Asirlikdan o‘lim yaxshi.	Ozodlik, erkni ko‘rsatish
8	O‘lsang o‘l, Vataningda bo‘l.	Tug‘ilgan yerda qolish.
9	Suruvdan qolgan surinib o‘lar.	Ayriliq natijasini ifodalash.
10	Bir kun — tug‘ilmoq, Bir kun — o‘lmoq.	Hayotning asl haqiqati, borlik va yo‘qlikni ochish.

Xullas, xalq og‘zaki ijodining eng qisqa va ixcham namunasi — xalq maqollarida ham hayot va o‘lim masalalari sezilarli o‘rinni tashkil etadi. Bu esa xalq maqollarida hayotning asl haqiqati, mantiqiylikning aks etishini hamda real hayot bilan adabiyotning (so‘z san’ati) yana bir bor bir-biriga bog‘liq ekanligini namoyon etadi. Xalqlar tarixiy turmush jarayonida muhit bir xilligi sababli bir-biriga yaqin mazmundagi maqollarni yaratishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Имомов К., Мирзаев Т. ва бош. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
2. Кошғарий М. Девону луғотит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). – Т. I-II-III. — Тошкент: Фан, 1960-1963.
3. O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005.
4.Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2017.
5.Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1965.
6. http://www.ziyouz.com sayti.
7. https://ziyouz.com sayti.

Madinaxon XAYDAROVA,
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti
madinakhaydarova726 @gmail.com

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA ONA TILINI O‘QITISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili darslarini sinergetik yondashuv asosida tashkil etishning o‘ziga xosliklari, pedagogik hamkorlikda ishlash orqali o‘quvchilarning qobiliyatlarni shakllantirish hamda 5-sinf ona tili darsligidagi sinergetik yondashuvga aloqador topshiriqlarning tahlili haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *sinergetik yondashuv, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tashkil etish, shaxslararo munosabat, hamkorlikda ishlash.*

Annotation: this article discusses the peculiarities of organizing mother tongue lessons based on a synergetic approach, developing students' abilities through pedagogical collaboration, and analyzing tasks related to the synergetic approach in the 5th-grade mother tongue textbook.

Key words: *synergetic approach, self-development, self-organization, interpersonal relations, collaborative work.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются особенности организации уроков родного языка на основе синергетического подхода, формирование способностей учащихся через педагогическое сотрудничество, а также анализ заданий, связанных с синергетическим подходом, в учебнике родного языка для пятого класса.

Ключевые слова: *синергетический подход, саморазвитие, самоорганизация, межличностные отношения, совместная работа.*

Globallashuv jarayoni ta’limga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgani sir emas. Shu jumladan, til o‘qitishda

ham yangi yondashuvlar, yangi tamoyillar kirib kelmoqda.Pedagogikaga kirib kelgan sinergetik yondashuv til o‘zlashtirishda ham o‘zining bir qancha ijobiy tomonlarini ko‘rsata oldi. O‘qitishning yangi sinergetik paradigmasi o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini rivojlantirishni anglatadi. Shuning uchun ham mazkur yondashuvni o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizimlar nazariyasi deb atash mumkin.

Ta’lim amaliyotida o‘qitishning turfa texnologiyalari mavjud bo‘lib, shulardan biri hamkorlikka asoslangan ta’lim texnologiyasidir.O‘qituvchi bilan ta’lim oluvchi hamkorligini tashkil etish muammosi barcha davrlarda ham o‘ta dolzarb masalalardan bo‘lib, mazkur hamkorlikning nazariy asoslari pedagogik sinergetika doirasida tadqiq etilgan [2;142].Bu ta’lim beruvchi uchun ham, ta’lim oluvchi uchun ham faoliyatlarini mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuvlardan biri bo‘lib, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan yangi dunyoqarash hisoblanadi.

Kovalevichning ta’kidlashicha, sinergetika yangi pedagogikaning “sherigi” (neopedagogika) va lotin tilidan birgalikda energiya almashish va birgalikda hamkorlik o‘rnatish deb tarjima qilingan [5].Sinergetika, ya’ni, hamkorlikda ishlash ochiq muloqotlar, qat’iy ta’lim sarguzashtlari, o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar doirasida ishlaydi.Sinergetik ta’lim ham yangi pedagogika singari o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘quvchining qobiliyatlarini namoyon qilish, rag‘batlantirish kabi vazifalarni bajaradi.Sinergetik yondashuv pedagogik jarayonning har bir subyektini, jumladan, ota-ona, o‘qituvchi, o‘quvchini o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun kichik tizimlar sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Hamkorlikdagi o‘quv faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat hamda muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir.Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o‘quvchilarda ilgari surilgan yangi g‘oyalar, o‘zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog‘liq maqsadlar hamda sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Ilmiy adabiyotlarda hamkorlikning quyidagi shakllari sanab o‘tiladi:

1) faoliyatga kirishish;

2) o‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorlikda bajaradigan mustaqil harakatlar;

3) o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o‘quvchini jalb etadi;

4) taqlid harakatlari (o‘qituvchidan ibrat olgan o‘quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);

5) madad harakatlari (o‘qituvchi o‘quvchiga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);

6) o‘z-o‘zini boshqarish harakatlari (o‘qituvchi faqat umumiy maqsadni ko‘rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);

7) o‘z-o‘zini ko‘rsatuvchi harakatlar;

8) o‘z-o‘zini uyushtiruvchi harakatlar [1;134].

Yangi nashr etilgan 5-sinf “Ona tili” o‘quv darsligining “Til va dil” bobida “O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasi o‘quvchilarga uyga vazifa tarzida berilgan. Bundan maqsad o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini o‘stirish, tushunmagan jihatlarini uyda ota-onalari bilan birgalikda bajarish imkoniyatini beradi.Bu jarayon pedagogik sinergetikada o‘z tasdig‘ini topadi.Dastlab o‘qituvchi tomonidan topshiriq shartlari tushuntirilib, o‘quvchiga yo‘nalish beriladi, ya’ni, o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o‘quvchini jalb qiladi. Loyiha besh bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda o‘quvchilar o‘rtoqlariga muayyan tavsiyalarni yozib borishlari va loyiha yakunida yondaftarchani o‘rtoqlariga taqdim qilishlari kerak.Bu kabi topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning faolligi, zukkoligi, kashfiyotchiligi, mustaqilligi, mehnatsevarligi, voqea-hodisalar ichidan eng muhimini tanlay olishi, umumiysini ko‘ra bilish qobiliyatlari namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun, avvalo, quyidagilarni amalga oshirish kerak:

− o‘quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish;

− o‘quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish;

− o‘quvchilar orasida o‘zaro do‘stona muhitni vujudga keltirish kabilar [2].

Loyihadagi har bir topshiriq aynan shu jihatlarni ochib berishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.Sinergetik yondashuv o‘quv jarayonini tashkil etishning, bolalar o‘quv-biluv faoliyatini boshqarishning yangi shaklidir. Bunday darslarda bolalar yangi o‘quv materialini, uning amaliy qo‘llanishini ijodiy yo‘l bilan o‘zlashtiradi.

1-bosqich.Yondaftarchaning 1-sahifasiga kundalik muloqotda amal qilish lozim bo‘lgan 5 ta tavsiyani yozing. “Salomlashganda tabassum qiling” [4;99].

Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘zlarining eng yaqin o‘rtoqlariga har kuni bir-biri bilan ko‘rishishganida qilishi kerak bo‘lgan tavsiyalarini yozishadi.Bu topshiriqdan maqsad o‘quvchilarning muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana olishi, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir.

2-bosqich.Tengdoshlaringiz nutqida muomala odobidan chetga chiqish holatlarini kuzating. Kuzatishlar davomida aniqlaganlaringizni yozib

boring. Kamchiliklarni tuzatish uchun tavsiyalar ishlab chiqing va yondaftarchaga yozing.

1. Kuzatish davomida aniqlangan kamchiliklar
2. Kamchiliklarni tuzatish uchun tavsiyalar [4;101].

Mazkur bosqichda esa o‘quvchilar nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishadi. O‘quvchi bu topshiriqni bajarish uchun dastlab o‘rtog‘ining nutqini kuzatadi, undan so‘ng odob-axloq yuzasidan noo‘rin aytilgan so‘zlarni topib yozib boradi. Kamchiligini tuzatish uchun tavsiya yozadi, bilmagan o‘rinlarida esa ota-onasidan ko‘mak so‘raydi.Bu topshiriq aynan uyga vazifa sifatida berilgani uchun o‘qituvchi faqat yo‘nalish beradi, topshiriq bajarilishini nazorat qiladi va baholaydi. Masalan, o‘rtog‘i dars paytida gapirib ustozning dars o‘tishiga xalaqit bersa, bu holat yaxshi emasligiga fikr bildiradi.Kamchiliklarni tuzatish uchun tavsiyalar (qiynalsa, yaqinlaridan maslahatlar so‘rab) beradi. Bu kabi topshiriqlar natijasida o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro do‘stona muhit ham shakllanadi, shaxslararo munosabat ko‘nikmalari shakllanadi.

3-bosqich.Yondaftarchaga o‘zga tilni o‘rganish uchun o‘rtog‘ingiz amal qilishi lozim bo‘lgan 5 ta tavsiya yozing [4;103].

Har kuni 6 ta yangi so‘zning talaffuzini mashq qil!

Ma’lumki, bugungi kunda chet tillarini o‘rganish zamon talablaridan biri bo‘lib qoldi.Kichik yoshidan boshlab bolalarning chet tillarini o‘rganishi tilni oson o‘zlashtirishga imkon beradi.O‘quvchilar bu topshiriqda o‘zlari o‘rgangan oson usullarni do‘stlariga tavsiya sifatida yozishadi.

4-bosqich.Ifodali o‘qish uchun 3 ta she’r tavsiya qiling [4;105].

Mazkur topshiriqqa namuna sifatida Kavsar Turdiyevaning “Oyim bilan arazlashdim” she’ri ifodali o‘qish uchun berilgan.O‘quvchilar o‘zlari yod olgan yoki o‘zlariga yoqqan she’rni yozishadi.

5-bosqich.“O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasiga oid ijodiy ishingizni taqdim eting.

– yondaftarchaga yozgan tavsiyalaringizdan namunalar o‘qib bering.

– yondaftarchani o‘rtog‘ingizga taqdim qiling [4;106].

Loyiha davomida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirib borishga erishiladi:

1) ijodiylik;
2) tanqidiy fikrlash;
3) kuzatuvchanlik;
4) shaxslararo munosabat;
5) o‘z-o‘zini boshqarish;
6) tahlil qilish;
7) yaratuvchanlik.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ta’lim-tarbiyaga sinergetik yondashuv dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko‘tarilgan shakli hisoblanadi.Chunki loyihani bajarish davomida o‘quvchilar nafaqat ona tilidan o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, balki tarbiya, tasviriy san’at kabi fanlardan olgan bilimlarini namoyish qilib, ijodiy fikrlab loyihani o‘zlari istagan shaklida bezatib, rasmlar orqali boyitib boradilar. Bu kabi topshiriqlar bola shaxsining emotsional va axloqiy rivojiga, ijodiy tafakkurning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Loyihani bajarish bolaning shaxsiy sifatlarini boyitib, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari o‘quvchilarning xulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug‘iladi, psixologik to‘siqlar bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Э. Г., Щукин А. Н.Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – С. 134
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: ”Sharq”, 2018.142-b.
3. Ibragimova Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinergetik yondashuv asosida shaxs sifatida shakllantirish shart-sharoitlari.Ilmiy-amaliy anjumandan maqola. 2023.
4. Mavlonova K., Qo‘ldosheva S. 5-sinf “Ona tili” darslik –Toshkent: ”Novda”, 2024.99-b.
5. Назарова Х.П. Дидактические основы обеспечения коммуникативной грамотности учащихся начальных классов : - Автореф. дисс… канд. пед.наук. – Ташкент: 200. – С.21
6. Tajibayev M., Axmedov J. Sinergetik yondashuv – yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishining asosiy jihatlaridan biri sifatida.Scientific progress.Volume3/Issue3/2022.

Iroda XOLIQOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich magistranti
Alfraganus universiteti
i_xolikova@mail.ru

“QO‘RQMA”DA HAQQONIYLIK HAMDA TASVIRNING ANIQLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanidagi ijodkorning badiiy mahorati hamda haqqoniylik, pafosning hayotiyligi va tiniqligi, tasvir va ifodaning aniqligi kabi badiiy mezonlar romandan keltirilgan misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *poetika, badiiylik, badiiy mahorat, mezon, haqqoniylik, badiiy olam, pafos, tasvir, ifoda.*

Annotation: this article analyzes the artistic skill of the author in Javlon Jovliyev's novel "Don't Be Afraid" and artistic criteria such as truthfulness, vitality and clarity of pathos, and clarity of image and expression based on examples from the novel.

Keywords: *poetics, artistry, artistic skill, criterion, truthfulness, artistic world, pathos, image, expression.*

Аннотация: в статье анализируется художественное мастерство автора романа Джавлона Джовлиева “Не бойся”и такие художественные критерии, как правдивость, жизненность и ясность пафоса, а также ясность образа и выражения на примерах из романа.

Ключевые слова: *поэтика, художественность, художественное мастерство, критерий, правдивость, художественный мир, пафос, образ, экспрессия.*

Kirish. San’atning barcha turlari uchun yagona asosiy mezon – badiiylik bo‘lib, ijodkor voqelikni hissiy va aqliy idrokidan o‘tkazib, so‘ngra obrazlar vositasida namoyon qiladi. Badiiy asarda bu qanday namoyon bo‘ladi? Buni F.M. Dostoyevskiy shunday ta’riflaydi: “Badiiylik, masalan, romannavis asaridagi badiiylik bu – uning o‘z fikrini roman obrazlari orqali shu qadar ravshan ifodalash qobiliyatidirki, yozuvchi romanni yaratayotganida, mazkur fikrni qanday tushungan bo‘lsa, asarni o‘qigan o‘quvchi ham uni xuddi shunday tushunadi. Binobarin, oddiy qilib aytganimizda, badiiylik yaxshi yozish qobiliyatidir”[1:37]. Ko‘ryapmizki, badiiy asarni yaratishda ijodkorning badiiy mahorati asosiy o‘rin egallaydi. Betakror ijodkor O‘tkir Hoshimov “Talantning birinchi belgisi – chidab bo‘lmas dard demakdir”[6:59] deganidek, o‘zining “Qo‘rqma”si bilan butun millat og‘rig‘ini o‘ziga xos bir dard, uslub hamda badiiyat bilan kitobxonlar qalbiga joylagan Javlon Jovliyev hayot haqiqatidan badiiy haqiqatni yaratib, o‘quvchining ko‘z o‘ngida ta’sirchan, dardchil tasvirlarni namoyon qildi.

Asosiy qism. Badiiy obrazning o‘quvchiga estetik ta’siri va uning me’yorlari haqidagi dastlabki ma’lumotlar Arastuning “Poetika” asarida keltiriladi. Badiiy adabiyotda o‘zgalar qalbiga ta’sir ko‘rsatuvchi obrazlar yaratishda so‘zlardan foydalaniladi. Mana shu o‘rinda ijodkorning mahorat darajasi ko‘zga tashlanadi. Adabiyotda “poetik yoki badiiy mahorat” degan tushuncha bor. Shu o‘rinda Chingiz Aytmatovning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Agar asar o‘quvchini hayajonga sololmasa, uning estetik dunyosini boyitolmasa, uning yaxshilikka va yomonlikka munosabatini o‘tkirlashtira olmasa, unda nimalar aytilmasin, qanday o‘ta foydali va o‘ta muhim fikrlar izhor etilmasin, qanday tema va problemalar qo‘yilmasin, u haqiqiy san’at emas. Butun jahon tortishuv qonunini mensimaslik bo‘lmagani kabi san’atning bu qonunini ham nazar-pisand etmaslik mumkin emas”[7:147].

Javlon Jovliyev o‘zining dardlarini, kechinmalarini-yu his-tuyg‘ularini o‘quvchiga yetkazishni, o‘zi inkishof etgan haqiqatlardan ularni voqif qilishni istadi. Natijada ijodkor buning uddasidan chiqa oldi. Kechinmalarini dur kabi bir ipga terib, kitobxonlarning ruhiy dunyosini qitiqlashga musharraf bo‘ldi.

Romandagi voqealar silsilasi roviyning goh xush-uyg‘oqlik paytida, goh tush-uyqu vaqtida sodir bo‘ladi. Voqelikdagi bu kabi chigalliklar ba’zan o‘quvchini tushunmovchilik girdobiga otadi va qayta-qayta asar matnini o‘qishga majbur etadi. Alaloqibat ijodkor qahramon kechinmalarini o‘quvchining faqat aqliga emas, qalbiga ham singdira oldi. Muallif bir yondan shu millat uchun jon bermoqdan qo‘rqmagan talabalarning Germaniyaga ketishdan maqsadi, umidlari hamda orzu-istaklarini ko‘rsatib, bugungi avlod ularni unutishga haqqi yo‘qligini uqtirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, roviyning olti amakisi, Ulug‘ Kursdosh, Qoravoy, Qiztaka, Telefonchi kabi Vatanni, otani unutib, nafsining quli bo‘lib, xiyonat etganligi uchun ochiq mozorlar borligini ta’kidlaydi. Tuyg‘usiz, maqsadsizlarni tiriklar qatoridan olib, ochiq qabrlarga otadi, ularni o‘lik sanaydi. Javlon Jovliyev millatimizning bir asr oldingi va hozirgi dardini aqlimizga suqib, ruhimizni tanamizga sig‘dira olmaydigan darajada junbishga keltiradi, qalbimizda qattiq bir og‘riqni his ettiradi. Vatan kelajagi uchun yongan Sattor Jabbor, Abduvahob Murodiy, Maryam, Xayriniso kabi millatparvarlarning bizdan ekanliklari faxr-iftixor tuyg‘usini bersa, ularning alamli qismati qalbimizni tilka-pora etadi. Ular vatanini dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida ko‘rishni, buning uchun mukammal ta’lim olib, millatni uyg‘otish kerakligini yaxshi anglab

yetishgan. Bugun erk, mustaqillik millatning hovuchida, u uyg‘onyapti, biroq hali mudroq. Yuz yil oldin Germaniya va Yaponiyaga qilingan havas hozir ham havasligicha qolmoqda. Yuz yildan keyin ham bu havas bo‘lib qolmasligi uchun, millat uchun qo‘rqmasdan kurashmoq kerak! Ko‘ryapsizki, badiiy adabiyot ana shunday kuch: goh siz ko‘ra olmayotgan haqiqatlarni oldingizga olib kelib, sizga oyna bo‘ladi, goh sizni joningizni yoqadi, goh o‘zi u olovni o‘chiradi. Bu badiiy adabiyotga xos kuch-qudrat hamda badiiylik mezonidagi haqqoniylikdir. Haqqoniylik – voqelikni butun ikir-chikirlari bilan aynan aks ettirish emas, balki muayyan makon va zamondagi voqelikning yetakchi tamoyillarini ishonarli, to‘laqonli aks ettirish demakdir[3]. Darhaqiqat, Izzat Sulton ham o‘zining “Adabiyot nazariyasi” kitobida Belinskiyning poetik asarning qadrini belgilovchi o‘lchov uning voqelikka to‘g‘riligidir, degan fikrlarini keltirib o‘tgan.

“Qo‘rqma” romanidagi XIX asrning 20-yillarida Turkiston talabalarining ta’lim olish maqsadida Germaniyaga ketgani va qaytganlarida Sovet hukumati tomonidan ayovsiz qatl ettirilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy omillar arxiv va turli ilmiy adabiyotlardan to‘plangan ishonchli ma’lumotlarga asoslangan voqealar tadriji asardan o‘rin olgan. Albatta, kitobxon bu kabi ma’lumotlarni tarix kitoblaridan ham o‘qishi mumkin, ammo mutolaa jarayonida qo‘rqoq, ammo ayyor Meyersenga nisbatan nafratni, Sattor Jabbor, Maryam Sultonmurodova, Ahmad Shukriy, Abduvahob Murodiy, Xayriniso Majid¬xonova kabi millatparvar yoshlarga nisbatan mehr-muhabbat, g‘urur, o‘z navbatida, qayg‘u, achinish kabi tuyg‘u va kechinmalarni badiiy adabiyotda o‘qigani kabi tuya olmaydi. Asar o‘quvchining ruhiy dunyosiga, shuuriga ta’sir ko‘rsatadi. Aslida badiiy asarda tarixiy mavzuni olib chiqib, uni badiiylashtirish ijodkordan alohida mahorat talab etadi. Chunki badiiy kitob tarix kitoblaridan farq qiladi. Shu sababli tarixiy mavzuni qalamga olgan adib chuqur mushohada bilan mavjud tarixiy materialdan balandroqqa parvoz etishi kerak. Shundagina o‘qirman badiiy asar haroratini his qilib, uni zavq-u shavq bilan o‘qiy oladi.

“Qo‘rqma” badiiy jihatdan yaxshigina “tosh bosadigan”, o‘quvchilariga estetik zavq bera oladigan roman bo‘ldi. Bahodir Karimov: “Romanning o‘quvchini o‘z o‘pqoniga, uyirim-girdobiga tortib ketishi yaxshilikdan, badiiyatdan, toza va cho‘ng niyat ijrosidan darak beradi”[2], deb ta’rif keltiradi. Chunki ijodkor hayotiy haqiqatdan o‘ziga kerakli qirrani topgan va obrazlar vositasida san’at ixlosmandlarining qalbiga, aqliga, ruhiyatiga ta’sir etadigan shaklda aks ettira olgan. Ko‘ryapmizki, asarning badiiyligini faqat hayotiy haqqoniylik bilan emas, balki kitobxon ko‘ngliga, tuyg‘ulariga, aqliga ta’sir ko‘rsatadigan, o‘zgalar yuragidan o‘rin oladigan badiiy haqiqat darajasi bilan belgilanadi.

Badiiy adabiyotda ijodkor qalbidagi dard va ehtirosning samimiyligi juda muhimdir. Ana shu dard qanchalik haqqoniy, aniq va kitobxonga ham yuqtira olinsa, shundagina bu asar o‘qilganda zavq va huzur bera oladi. Badiiy adabiyotda bu ehtirosni “Pafos” deb ataymiz. Ijodkor asardagi qahramonlariga yoki voqea-hodisalarga yo nafrat, yo muhabbat kabi tuyg‘ulari bilan asarning barcha komponentlarida munosabat bildiradi. Lekin eng muhimi, ana shu hissiyotlarning yurakdan chiqqanligidadir. Bu badiiy ijodning eng muhim tamoyillaridan biri. Biz yuqorida nazarda tutgan mehr-muhabbat ham, qahr-u g‘azab ham samimiy bo‘lishi kerak. Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma”si ana shunday samimiyat bilan yozilgan asar bo‘ldi. “Men qo‘rqoqman! Men jonimni o‘ylab xoinlik qilaman Vatanga! Nafsimni deb muhabbatimga. Men ishlamay tishlayman, o‘qimay institutga kiraman, sevgiga munosib bo‘lmay sevaman, Bolani qanday tarbiya qilishni bilmay xotin olaman, o‘lishga arzimay o‘laman. Bir men shunday bo‘lsam, baxt edi millatga, ammo afsus, bu illatlar singib ketgan aymog‘imizga. U tanamizdan oldin millatimizni ko‘madi qabrga”. Asardagi bu jumlalarning hayotiyligi, aniq ifodalanishi ijodkorning his-hayajonga to‘la alamlarini kitobxonga ham yuqishiga ko‘mak beradi.

Muallif bu asarni yozishni boshlagan yillari o‘zi ham talaba bo‘lgan, asarda keltirilgan talabalar bilan yonma-yon yashagan. Tahsil olish maqsadida otasining puli bilan chet elga yuborilgan Shirinbeklar, afsuski, shirin hayotning achchiq haqiqatlaridir. Javlon Jovliyev ko‘pchilik qismatlarga xos hodisalarni umumlashtira oldi, uni kengroq jamoaga ko‘rsatish, shaxslar taqdiridagi falokatni umumbashariy darajada o‘rganish, aniq estetik baho berishni uddalay oldi. Bularning hammasi asl ijodkorning ustaligini belgilovchi o‘lchovdir. O‘quvchi tasvir va ifodaning tiniqligini asardagi Murodiy hamda Shirinbekning nutqida ham kuzatadi. Har ikki obrazning umumiy va farqli jihatlarini yaqqol anglash mumkin. Har ikkisi ham bir millatning farzandi ekanligi, shuningdek, ta’lim olish maqsadida Germaniyaga yuborilganligi ularning umumiy tarafi bo‘lsa, ikkinchi tomondan qaralganda, matlablar, qarashlar, orzu-istaklar, tuyg‘ularda farqlilikni ko‘rish mumkin. Qolaversa, talabalarni Germaniyaga yuborgan homiylar ham farqli edi. Bir asr oldingi talabalar homiysi xalq ekan, bugungi talabalar esa biri poytaxt prokurorining, boshqa biri savdo vaziri o‘rinbosarining farzandlari edi. Shu o‘rinda o‘quvchida lavozimini suiiste’mol etib, kelajakka, xalqiga xiyonat qilayotgan otalar obrazi ko‘z oldiga kelmaydimi?

Xulosa. “Qo‘rqma” romanidagi obrazlar ijodkorning voqelikdan olgan taassurotlari ekan, ular o‘ziga xos va takrorlanmasdir. Undagi dard-u xayolini yetmish talaba egallab olgan, dardli taftishchi-tarixchi roviy obrazi o‘zida katta badiiy umumlashma tashiydi va o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Har bir kitobxon roviyni o‘z taassurotlaridan kelib chiqib xayolida chizadi. Biroq roviy obrazining hamma kitobxonlar uchun umumiy hamda xususiy jihatlari bor. Ya’ni olti oyligida ota-onasidan ayrilib, yetim qolgani, bobosi va momosining erkasiga aylangani, dard-u xayolini yetmish talaba egallab olgan tarixchi ekanligi, Vataniga goh mudroq, goh uyg‘oqlik bilan ulkan muhabbat qo‘ygan so‘zamol yigitdir. Bu

detallar roviy obrazining kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanishiga xizmat qiladi. Asardagi roviy atrofidagi ismlanishga ham loyiq ko‘rilmagan to‘ng‘ich, suvchi, domla, traktorchi, tabelchi, kenja, Qoravoy, Qiztaka, Telefonchi, Ulug‘ Kursdosh kabi bir qancha obrazlarda ham muallifning hissiy munosabati ko‘ringan va bu bevosita kitobxonga ham yuqtirishga erishilgan. Amakilariga achinish, Ulug‘ Kursdoshga nafrat, Lolaga muhabbat, bugungi kun talabalaridan qoniqmaslik, ularga nisbatan norizolik o‘qish jarayonida kitobxonga ham ko‘chadi. Bugun atrofimizdagi insonlarning nafs qurboniga aylanib ulgurganligi, tug‘ilib o‘sgan vatani, millati uchun zig‘ircha jon kuydirmasligi, ta’limga bo‘lgan e’tiborsizlik, insonlar o‘rtasidagi sof tuyg‘ularning yo‘qolib ketayotganligi, jigarlar o‘rtasida oqibatning ko‘rinmayotganligi bir millatni zavolga yuz tutishiga sabab bo‘lmaydimi? Asarda ijodkor o‘quvchiga mana shu og‘ir, lekin davolasa tuzaladigan dardlarni haqqoniy, go‘zal va aniq tasvirlar, qolaversa, kuchli hayajon bilan yetkazishga jon-jahdi bilan uringan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1980.
2. Bahodir Karim. Lirotragik roman – “Qo‘rqma” asari haqida. “Ma’rifat” gazetasi, 3.03.2021.
3. Bahodir Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: “Bookmany Print”, 2022.
4. Dilmurod Quronov. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: “Sharq”, 2004.
5. Gulnoz Xalliyeva. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: “Akademnashr”, 2020.
6. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 59-bet.
7. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005.
8. Javlon Jovliyev. Qo‘rqma. – Toshkent: “Nihol” nashriyoti, 2020.

Karima RAXMATOVA,
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-kurs magistranti

ADABIY TA’LIMDA KOGNITIV MOTIVATSIYA

Annotatsiya: mazkur maqolada motivatsiyaning ta’limdagi o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Xususan, adabiy ta’limda kognitiv motivatsiyaning ahamiyati, o‘z-o‘zini boshqarish, maqsadga yo‘naltirilgan o‘qish, attributsiya kabi yondashuvlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, adabiyot darslarida kognitiv motivatsiyani rivojlantirish uchun dramatik asarlar tahlili orqali o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan xohish va qiziqishini orttirish mumkinligi haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va topshiriqlar Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’lim, kognitiv motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, dramatik asar, mustaqil fikrlash.*

Annotation: this article discusses the role of motivation in education, particularly in literary education. The importance of cognitive motivation, approaches such as self-regulation, goal-oriented reading, and attribution are analyzed. The article emphasizes the significance of analyzing dramatic works to enhance cognitive motivation in literature lessons. Methodological recommendations and tasks are developed to increase students’ interest and desire for reading, based on Maqsud Shayxzoda’s drama “Jaloliddin Manguberdi”.

Keywords: *literary education, cognitive motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, dramatic work, independent thinking.*

Аннотация: в статье рассматривается роль мотивации в образовании, в частности в литературном обучении. Анализируется значение когнитивной мотивации, а также подходы, такие как само регуляция, целенаправленное чтение и атрибуция. Особое внимание уделено важности анализа драматических произведений для развития когнитивной мотивации на уроках литературы. Методические рекомендации и задания разработаны для повышения интереса и желания учащихся к чтению на основе драмы Максуда Шайхзоды “Джалолиддин Мангуберды”.

Ключевые слова: *литературное обучение, когнитивная мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, драматическое произведение, самостоятельное мышление.*

Bugungi rivojlanayotgan zamonda ta’lim sohasi, xususan, adabiyot ta’limida yosh avlodning o‘qishga bo‘lgan xohish va qiziqishini yanada oshirish uchun motivatsiya muhim o‘ringa ega.

Motivatsiya – bu insonni harakat qilishga, maqsad sari intilishga undovchi ichki va tashqi omil. Insonning ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarni amalga oshirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotchi olimlar motivatsiyani umumiy ikki turga bo‘lishgan:

Ichki motivatsiya – insonning o‘z ichki istaklari, qiziqishlari va maqsadlari asosida harakat qilishidir. Masalan, yangi bilim olish, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish yoki o‘z-o‘zini takomillashtirish istagi.

Tashqi motivatsiya – tashqi omillar yoki mukofotlar tufayli paydo bo‘ladi. Bu mukofot pul, martaba, tanlovda g‘olib bo‘lish yoki boshqalarning e’tirofi bo‘lishi mumkin.

Motivatsiya muvaffaqiyatga erishishning muhim qismi bo‘lib, u odamning o‘z qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. To‘g‘ri motivatsiya insonni mashaqqatli vazifalarni bajonidil bajarishga undaydi va o‘ziga ishonchni oshiradi. Bularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Kichik tadqiqotimiz jarayonida ko‘plab olimlarning izlanishlariga guvoh bo‘ldik. Aynan motivatsiyaning o‘quv-biluv turi ta’limga bo‘lgan qiziqishining dastlabki bosqichidir. O‘quvchilarning adabiy asarlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishi va ijodiy tafakkurini shakllantirish uchun ham o‘quv-biluv motivatsiya zarur.

O‘quv-biluv motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish uchun avval unga doir bir qancha yondashuvlarga to‘xtalib o‘tsak. Ular chet el olimlarning nazariyalariga asoslangan holda tahlilga tortiladi.

Biz bu yondashuvlarni bevosita 4 qismga ajratdik:

1. **Maqsadga yo‘naltirilgan o‘qish**. Amerikalik psixologlar Lokke va Lathamning maqolasida kognitiv motivatsiyani yo‘lga qo‘yishda bu yondashuvning muhim ahamiyatga egaligi ta’kidlangan[1]. Bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ma’lum bir maqsadni amalga oshirish uchun o‘zlarining o‘qish faoliyatlarini rejali va samarasiz ravishda tashkil etishlariga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu yondashuv akademik va shaxsiy maqsadga asoslangan o‘qishdir. Adabiy ta’limda o‘quvchining shaxsiy qiziqishlariga tayangan holda mutolaa qilish yoki maxsus dastur asosida tavsiya etilgan asarni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirish tushuniladi.

2. **O‘z-o‘zini boshqarish va avtonomiya**. Baundura va Zimmermanlar[2], Deki va Ryanalar [3] maqolalarida o‘z aksini topgan. Aynan bu ikki tushuncha insonning motivatsiyasi va xatti-harakatlarini boshqarishda muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchi o‘z xohishi bilan, hech kimning bosimisiz, ongli ravishda o‘qishi ham kognitiv motivatsiyaning rivojlanishiga sabab bo‘la olishini ta’kidlashgan.

3. **Attributsiya.** Bu tushuncha pedagogika va psixologiyada keng qo‘llaniladigan tushunchalardan biri bo‘lib, insonlarning o‘z muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi sabablarini tahlil qilish va izohlash jarayoni hisoblanadi. Buni amerikalik olim D.Vayner tomonidan ilmiy nazariyalariga asoslangan holda ko‘rsatilgan[4]. Ta’limda esa o‘quvchilarni o‘qitish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, adabiyot darslarida biror-bir asarni tahlil qilish davomida qandaydir tushunmovchiliklarga, matn mazmunini ochib beruvchi qandaydir elementlarni tushuna olmasligi mumkin. Shunda o‘qituvchi tomonidan ba’zi bir joylariga izoh berish yoki yo‘nalish berish ham o‘quvchida o‘qish jarayonida qilingan kamchiliklarni kamaytirish orqali biluv motivatsiyasini yanada oshirishga yordam berishi mumkin.

4. **Kutish**. Mazkur yondashuv 1964-yilda Viktor Vrum taklifi bilan o‘quv-biluv motivatsiyaning yetakchi yondashuvlari sifatida taklif qilingan. Asosiy g‘oyasi shuki, bajarilgan ishlarning qanday samara bergani va natijasi kutiladi. O‘quvchilarda maxsus topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, uni o‘qituvchi tomonidan munosib baholash va rag‘batlantirishni kutishadi, shunga mos javob olgach, bu ularda kognitiv motivatsiyasining oshishi yoki pasayishiga olib keladi.

Adabiyot darslarida dramatik asarlar orqali ham o‘quv-biluv motivatsiyasini oshirish mumkin. Dramatik janrga oid asarlar maktabda, adabiyot darsliklarida eng murakkab o‘rganiladigan asarlardan hisoblanadi, shu sababli, boshqa janrlarga nisbatan kam sonlidir. Adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldoshev “Badiiy tahlil asoslari”da dramatik asarlarni erta yoshdan o‘quvchilarga tanishtirish, ularning ma’naviyatini shakllantirishga yordam berishini ta’kidlab o‘tgan. Shuning uchun milliy o‘quv dasturga dramatik asarlarning eng saralarini yana ko‘proq qo‘yilishini taklif etmoqchimiz.

Dramatik asarlarni tahlil qilish va o‘qitishda alohida yondashuv talab etiladi. Chunki bir vaqtning o‘zida ham so‘z, ham teatr san’atlarining uyg‘unlashuvi natijasi bo‘lmish dramani o‘qish, idrok etish hamda tahlillash qo‘shimcha intellektual-hissiy zo‘riqishni taqozo qiladi. Qahramonlarning tuyg‘ulari, insoniy sifatlari haqida muallifning xarakteristikasi bo‘lmagan sharoitda asar personajlarining holatlari, ruhiyati va shaxsiyati borasida to‘xtamga kelish va muayyan xulosalar chiqarish uchun aqliy kuchlanish zarur bo‘ladi[5]. Bunday asarlarni o‘qitishda, o‘quvchilarda dramatik asarlarga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasini oshirish o‘qituvchining pedagogik mahorati va qobiliyatiga bog‘liqdir.

Dramatik asarlarni tahlil qilishda kognitiv motivatsiyani rivojlantiruvchi topshiriqlarni 8-sinf adabiyot darsligida berilgan Maqsud Shayxzodaning

1 Locke & Latha. Building a practically useful theory of goal setting and task motivation // American Psychologist, 2002. – № 9. – P. 705–717.

2 Zimmerman B and others. Self-motivation for academic attainment // American Education Research, 1992. – № 3. – P. 663–676.

3 Ryan & Deci. Self-determination theory and facilitation of intrinsic motivation // American Psychological, 2000. – № 1. – P. 68–78.

4 Weiner B. Attribution theory // International Encyclopedia of Education, 2010. – P. 558–563.

5 Йўлдош К., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. 193-б.

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi[1] asosida quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

1. Asarni o‘qib tushunishga qaratilgan topshiriqlar.

Voqealar zanjiri diagrammasini tuzish. Jaloliddin Manguberdi hayotidagi asosiy voqealarni ketma-ketlikda joylashtirib, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish.

Obrazlarni tahlil qilish jadvali. Har bir obrazning xatti-harakatlarini tahlil qilish uchun jadval tuzish:

Obraz	Xususiyatlari	Harakat/sababi	Natija
Jaloliddin	vatanparvar	dushmanga qarshi kurashish	xalqqa umid berdi

2. Muammoli vaziyatlarni hal qilish topshiriqlari.

Manguberdining tanlovi .

Savol: Agar siz Jaloliddin Manguberdi o‘rnida bo‘lsangiz, qaysi qarorni qabul qilgan bo‘lardingiz? Nima uchun?

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi.

Muqobil yechim ishlab chiqish.

Masalan: Agar Jaloliddin boshqa strategiyani tanlaganida, uning taqdiri qanday o‘zgarishi mumkin edi? (Ushbu savol asar voqealarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi.)

3. Munozara va bahs tashkil etish.

Bahs mavzusi: Jaloliddin Manguberdi xalq qahramonimi yoki oddiy jangchi? Vatan ozodligi uchun har qanday yo‘lga murojaat qilish to‘g‘rimi?

O‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslashga, faktlarni tahlil qilishga va munozarada qatnashishga o‘rganadilar.

4. Ijodiy topshiriqlar.

Davomini yozing. “Jaloliddin Manguberdi” dramasidan berilgan parchaning davomini tasavvur qilib yozish.

Masalan: Agar u mo‘g‘ullarga qarshi yana bir g‘alaba qozonganida, bu qanday tarixiy o‘zgarishlarga olib kelgan bo‘lardi?

Asar asosida sahna qo‘yish. Asardan bir qismni teatr sahnasida sahnalashtirish orqali o‘quvchilar ijodiy va guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xat yozish. Jaloliddin Manguberdi nomidan xalqiga murojaat qilish yoki uning dushmanlariga xat yozish.

5. Tarixiy va badiiy nuqtayi nazardan taqqoslash.

Tarix va dramaturgiyani taqqoslash: Jaloliddin Manguberdi asaridagi voqealar tarixiy haqiqat bilan qanchalik mos kelishini tahlil qiling: Asar voqealari real hayotdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Zamonaviy qiyosiy tahlil: Jaloliddin Manguberdi obrazini bugungi yetakchilar bilan qiyoslang.

Masalan: Zamonaviy liderlarning qaysi jihatlari Jaloliddin Manguberdi bilan o‘xshash yoki farqlanadi?

6. Grafik va vizual topshiriqlar.

Qahramon xaritasi: Jaloliddin Manguberdi faoliyati bilan bog‘liq asosiy joylarni xaritada belgilash va ularni qisqacha tavsiflash.

Obrazlarning o‘zaro aloqasi diagrammasi: Obrazlar o‘rtasidagi munosabatlarni diagramma shaklida ifodalash. Masalan, Jaloliddinning otasi bilan munosabati yoki dushmanlari bilan bo‘lgan qarama-qarshiliklar. Bu topshiriqlar o‘quvchilarning tafakkurini faollashtiradi, tarixiy va badiiy asarlarni chuqurroq o‘rganishga undaydi va ularda o‘z fikrini asoslash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Xulosa qilganda, adabiy ta’limda kognitiv motivatsiya o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan metod va yondashuvlar pedagoglar uchun foydali bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Kelgusida milliy o‘quv dasturga dramatik asarlarni kengroq kiritish va ularni o‘quv-biluv motivatsiyasini oshirish uchun samarali vosita sifatida qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. 464- б.

2.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. 392- b.

3.Locke & Latha. Building a practically useful theory of goal setting and task motivation // American Psychologist, 2002. – № 9. – P. 705–717.

4.Olim S va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinflari uchun darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019. 352- b.

5.Ryan & Deci. Self-determination theory and facilitation of intrinsic motivation// American Psychological, 2000. – № 1. – P. 68–78.
6.Zimmerman B and others. Self-motivation for academic attainment // American Education Research, 1992. – №3. – P. 663–676.
7.Vroom V. Expentancy theory of motivation. 1964. – 334 p.
8.Weiner B. Attribution theory. International Encyclopedia of Education, 2010. – P. 558–563.

Sitora SHERMAMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistratura talabasi

SAID ASAD TO‘RA HAYOTI HAQIDA

Annotatsiya:mazkur maqolada XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlarida Xiva xonligi adabiy muhiti va u yerda yashab ijod etgan Said Asad To‘ra hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muhammad Rahimxon Feruzning jiyani bo‘lmish Said Asad To‘ra turkiy tilda go‘zal she’rlar yozgani, Xorazm adabiy muhitidagi o‘rni va shoirlik bobidagi mahorati xususida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: *tazkira, bayoz, matbaachilik, devon, masnaviy, majmua, rotmistr, daxma, payrav.*
Аннотация: в данной статье представлены сведения о литературной среде Хивинского ханства в середине XIX - начале XX веков, а также о жизни и творчестве Саида Асада Тора, жившего и творившего там. Представлены аналитические сведения о том, что Саид Асад Тора, племянник Мухаммада Рахимхана Феруза, написал прекрасные стихи на турецком языке его месте в литературной среде Хорезма, его поэтических способностях.
Ключевые слова: *тазкира, баяз, типография, деван, маснави, комплекс, ротмистр, дахма, пайрав.*
Annotation: this article provides information about the literary environment of the Khanate of Khiva in the mid-19th - early 20th centuries and the life and work of Said Asad Tora, who lived and worked there. Analytical information is presented about the fact that Said Asad Tora, the nephew of Muhammad Rahimkhan Feruz, wrote beautiful poems in Turkish, his I place in the literary environment of Khorezm, and his skills in poetry.
Key words: *tazkira, bayaz, printing house, devan, masnavi, complex, rotmistr, dakhma, payrav.*

XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlarida Muhammad Rahimxon II davrida Xorazmda ilm-fan eng yuksak darajada rivojlandi. Shoir va tarixchi Bayoniy shoh va shoir Feruz zamonida ko‘plab madrasalar qurilganini, matbaachilik yo‘lga qo‘yilganini, kitobxonlik avj olganini, xonning o‘zi bularning barchasiga bosh qosh bo‘lganini yozadi . Bir qancha tazkiralar, bayozlar va devonlar ham aynan shu davrda tuzildi.Bu davrda Xiva xonligi adabiy muhitida ko‘plab ma’rifat egalari bo‘lmish shoirlar ham yetishib chiqdilar. Bularga misol tariqasida hozirgacha hayoti va asarlari o‘rganilgan Ogahiy, Tabibiy, Avaz O‘tar, Rog‘ib, Chokar, Komiljon Devoniy, Bayoniy kabi ijodkorlarni keltirish mumkin.

Biroq bizga ma’lum bo‘lgan shoirlar bilan birgalikda, hali o‘z tadqiqotchisini kutayotgan va adabiyot ilmida noma’lum bo‘lgan shoirlar ham talaygina. Mana shunday ijodkorlardan biri saroy shoirlardan biri Said Asad To‘radir. Uning hayoti haqidagi ma’lumotlarni qisman Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotshunoslarining tarjimai hollari” va Bobojon Tarrohning “Xorazm navozandalari” tazkiralaridan bilib olishimiz mumkin.Bu tazkiralarda faqatgina shoirning o‘zi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Uning onasi, oilada nechta farzand bo‘lishgan, aka-ukalari bormi, agar bor bo‘lsa, ular kimlar ekanligi haqidagi ma’lumotlar hozircha ma’lum emas.Bundan tashqari uning o‘z oilasi ya’ni ayoli va farzandlari bo‘lganmi yoki yo‘qmi bu ham noma’lum.Ammo shunday bo‘lishiga qaramasdan, shoirning otasi haqida ko‘pgina faktlar bor.Bu haqida keyingi o‘rinlarda yana to‘xtalib o‘tamiz. Hozir esa “Xorazm navozandalari” tazkirasidagi shoir haqidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratsak.

“Shoirning asl ismi Said Asad To‘ra bo‘lib, Otajon To‘raning o‘g‘li edi.Otajon to‘ra ham Muhammad Rahimxon ikkinchining tug‘ishg‘on inisidir.

Said Asad to‘ra o‘z nomini adabiy nom sifatida

tanlag‘on va Muhammad Rahimxon ikkinchi bu nomni qabul qilg‘on.

Said Asad to‘ra O‘r degan joyda tug‘ilg‘on.Bu joy hozir Polvon Qorining madrasasi bo‘lib turibdi. Said Asad To‘ra podshozoda oilasidan chiqqan. U eski maktabni va madrasa ta’limini tamomlab, shoirlik qila boshlagan.Shuning uchun ilmiy saviyasi o‘ziga yetarlidir. Said Asad To‘ra devon tartib bergan bo‘lsa, ehtimol. Vafotidan keyin bu devon kimning qo‘lida qolgan noma’lum.

Said Asad To‘ra mansabdor bo‘lg‘on emas.Otasi Otajon to‘raning davlati bilan kun kechirgan.U 25 yoshlaridan shoirlik bilan shug‘ullana boshlagan. Bunga sabab shulkim, Muhammad Rahimxon ikkinchiga havaskor bo‘lgan va unga yaqin bo‘lish uchun shoir bo‘lgan. Bu To‘ralar aytgan she’rlarini o‘zlari kiritib xonga berar edilar.

Said Asad To‘ra soz ilmidan mutlaqo xabarsiz edi.U chechak yuzli, axloqan yaxshi kishi edi.U 55 yoshlarda vafot etdi. Uning jasadi, otasi Otajon To‘raning Gandimkondagi hovlisida vafot etgani uchun, Otajon to‘ra madrasasi atrofida qo‘yilgan bo‘lishi mumkin .”

Shu o‘rinda shoirning otasi Otajon To‘ra (ya’ni Said Ahmad to‘ra) hayoti haqida ham biroz to‘xtalishni lozim topdim.Otajon to‘ra Muhammad Rahimxonning o‘g‘li Said Muhammadxonning o‘g‘li ya’ni yuqorida aytilganidek,Muhammad Rahimxon II Feruzning kichik ukasi. Otajon To‘ra ham adabiyot ixlosmandi bo‘lgan bo‘lib, Kamron taxallusi bilan she’rlar yozgan. Uning homiyligida Xiva shahrining sharqiy tomonida, Qo‘y darvozadan 2 kilometr uzoqlikda joylashgan “Otajon To‘ra” majmuasi qurilgan. Majmua tarkibi madrasa, masjidlar(yozgi va qishki), maxsus tug‘ruqxona, maktab va hammomdan iborat bo‘lgan. Said Asad To‘ra ham ayni shu madrasa mudarrisi Olloyor Oxunddan ilm tahsilini olgan.Xiva qamali paytida Otajon To‘ra vaqtinchalik mamlakat hukmdori vazifasini bajargan.1873-yildan 1881-yilgacha Kavkaz kavaleriyasiga rotmistr (piyoda qo‘shinlardagi kapitan) lavozimida xizmat qilgan. U 1903-yilda vafot etgan va majmuadagi maxsus daxmada dafn etilgan .

Otasi marhum bo‘lgach, Asad shunchalig‘ hurmati bo‘lmay, juda ham miskin bo‘lgani holda, Feruzga o‘z ahvolidin shikoyatlar bayon qilib iltifotlar etgani bilan, Asad ham turlik she’r yozib turadur.Asadning she’rlari bir yaxshi ma’niy jihatdan bir gavhari la’l sadafdin ilm g‘avvoslari hosil qilgani kabi, maqsud hosil etadurlar. Ammo Asad Feruzning vafotidan keyin Asfandiyorxon zamonida juda miskin dilshikastalig‘ bilan Asfandiyordin sitam zulmlar ko‘rgani bilan Asaddagi falaki zolimning jafosidin dodlangan holda hasratlar bilan dunyodin ko‘z yumib, oxirat safari qiladur .

Bu tarjimai hol Laffasiy tazkirasidan o‘rin olgan bo‘lib, Bobojon Tarroh tazkirasi bilan farqli jihatlari bor.“Xorazm navozandalari” tazkirasida ma’lumotlar ko‘proq va to‘liqroq shaklda bayon qilingan bo‘lsa, “Tazkirayi shuaro” da Asad to‘raning hayoti bilan birgalikda uning g‘azaliyotidan namunalar ham keltirilgan. Shu bilan birgalikda, Laffasiy asarida shoir uchun yozilgan masnaviy ham bor. Shoirning “Zihiyo qodirki su’ningdin bo‘lib hayrilbashar paydo” radifli g‘azali Feruz g‘azaliga payrav tarzida yozilgan:

Zihiyo qodirki su’ningdin bo‘lub hayrilbashar paydo,
Ki joriy qudrating ichra necha turluk guhar paydo.
Odam tufrog‘ida pinhon erdi barcha mavjudot,
Alarni aylading hukming bila barobar paydo.
Berib yer yuziga ziynat ochib ham rang-barang gullar,
Jahon bog‘ini ishorini qilding boshar paydo.
Tamomi ins-u jonni xalq aylab qudrating birla,
Tuyur ahlida hukming birla bo‘ldi bol-u par paydo.
Tafovut aylasun deb olam eli kecha kunduzni,
Bu charxi nilgunda aylading shams-u qamar paydo,
Ne jur’at birla go‘yo aylagum hamdingg‘a kim tilni,
Bari oshyoni qilding bir-biriga bezarar paydo.
Necha isyon etar bo‘lsang Asad ummid qat’ etma,
O‘zining lutfi birla aylamushdur hayrishar paydo.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Muhammad Rahimxon II davrida ko‘plab shoirlarning iste’dodi qadrlangan, ularga o‘zini ko‘rsatishda yordam berilgan, shuning uchun ham ularning asarlari hozirga qadar yetib kelgan.Ularni o‘rganish, jamiyatga taqdim etish esa biz manbashunoslarning oldida turgan asosiy vazifalarimizdan biridir.Mana shunday manbalarni o‘rganar ekanmiz, ular orqali o‘z tariximizni ham chuqurroq o‘rganib boramiz.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобожон Таррох Азизов-Ходим.Хоразм навозандалари: XIX аср охири - XX аср бошларида Сайид Мухаммад Рахимхони Соний даврида яшаган шоирлар хакида эсдаликлар, .-.: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва саньат нашр, 1994. 96-б.

2. Бобожонов П. Лаффасий: Тазкираи шуаро, – Урганч:Хоразм нашр, 1992. 116-б.

3.https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/612&ved=2ahUKEwj8o4T1pKGKAxUYExAIHTBrCFoQFnoECBsQAQ&usg=AOvVaw1XpWirvH3AhcDW3uw6zB4- https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Otajon_to%CA%BBra_majmuasi

Munisa NURULLAYEVA
Nizomiy nomidagi TDPU
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-kurs talabasi



JORJ ORUELNING MAJOZIY SUJET YARATISH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon adabiyotidagi mashhur romandagi majoziy obraz yaratish mahorati tahlilga tortilgan. Badiiy uslub va tasvir uyg‘unligi, yozuvchi mahorati, jahon adabiyotidagi romanlardagi o‘ziga xosliklari, davr ruhini beruvchi omillar, siyosiy jarayonlar haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *siyosiy jarayon, roman, adabiy qahramon, badiiy to‘qima, hayotiy haqiqat, ijodkor uslubi, badiiy asar tili.*

Аннотация: в данной статье анализируется мастерство создания образного образа в известном в мировой литературе романе. Комментируются гармония художественного стиля и образа, писательское мастерство, особенности романов в мировой литературе, факторы, передающие дух эпохи, политические процессы.

Ключевые слова: *политический процесс, роман, литературный персонаж, художественная ткань, реальная жизнь, творческий стиль, язык художественного произведения.*

Annotation: this article analyzes the skill of creating figurative images in a famous novel in world literature. It presents considerations on the harmony of artistic style and image, the skill of the writer, the uniqueness of novels in world literature, the factors that give the spirit of the era, and political process

Key words: *political process, novel, literary character, artistic texture, real life, creative style, language of the work of art.*

Jahon adabiyoti kitobxonlarining ko‘plab muhokamasiga sababchi bo‘lgan mashhur ingliz yozuvchisi Jorj Oruelning masal janridagi satirik asari-“Molxona”. Asar o‘z nomi bilani har bir insonni o‘ziga jalb qiladi, go‘yoki nima haqida yozilganini tushungandek bo‘lamiz, lekin faqatgina sarlavha orqali butun boshli asar mazmuni, g‘oyasi haqida bila olmaymiz. Masal janridagi majoziy ma’noda yozilgan, xuddi vatandoshimiz Gulxaniyning “Zarbulmasal”ida insonlarning yomon odatlarini ochib berishda hayvonlar timsolidan foydalanganidek, Oruel ham insonlarning xarakterini hayvonlar, davlatni Molxona timsolida tasvirlaydi. Asar shafqatsiz mafkuradan barchani ogohlantirish, bunday siyosatni qoralash maqsadida yozilgan. Shu qisqagina asarda butun tuzum, hokimiyatga intilish hissi, sotqinlik, yuqori lavozimdagilarning o‘z manfaati yo‘lida, hattoki, tarixini o‘zgartirishga urinishi, xalqni bularning barchasi ozodlikka erishish uchun qilinayotganligiga ishontirish, yangi diktatura qurib, shu diktatura qulashigacha bo‘lgan davr ochib berilgan. Barcha voqealar “Qo‘rg‘oncha” molxonasida yuz beradi. Bunda keksa mayor, ya’ni cho‘chqa hamma hayvonlarni ozod bo‘lishga, inqilob qilishga undaydi. Qiziq, nima uchun asarda barcha hayvonlar cho‘chqa mayorni hurmat qiladi, keyinchalik ham, yuqori lavozimlarda faqat cho‘chqalarni o‘tqazishadi va ularni hurmat qilishadi. Sababi shunda ekanki, olimlarning ta’kidlashicha, cho‘chqalar - inson bolasining aqliga ega dunyodagi eng aqlli hayvonlar sirasiga kirarkan. Mayor: Angliyada biror hayvon baxt nimaligini yoki mehnatdan keyin dam olish qanday bo‘lishini bilmasligini, hayotlari doim-qashshoqlik va qullikdan iboratligini, haqiqat asli mana shu ekanini do‘stlariga alam bilan aytib beradi. Mayor – “hayvonlar jamiyati” g‘oyasining asoschisi, o‘limidan oldin shunday jamiyat qurishni hayvonlarga vasiyat qiladi (qiyosan, ushbu obrazni kommunistik mafkura asoschilariga tenglashtirish mumkin). U vafot etgach, ozodlik uchun kurashga yosh cho‘chqalar Snouboll va Napaleon boshchilik qiladi. Xo‘jayinlarini haydab, birinchi qadamni bosishga muvaffaq bo‘lishdi. Snouboll tashabbusi bilan endi ozod hayvonlar yangi hayot qurishni boshlashdi. Birinchi navbatda, “Qo‘rg‘oncha” molxonasini “Xayvonobod” deb o‘zgartirishdi. Asar so‘nggida Napaleon buyrug‘i bilan yana eski nomiga qaytariladi. Xo‘sh, bu vazifani kim bajardi, axir hayvonlar o‘qish, yozishni bilmaydilar-ku! Yozuvchi asarda shuni ham unutmaganki, bilim har qanday zamonda ham eng muhim rol o‘ynashi, bilimlilar, o‘qish, yozishni bilganlar har qachon hurmat qilinishini yana bir bor isbotlagan. XX asrda ham xalq savodsiz bo‘lgan jamiyatlar talaygina edi. Jamiyatning tanazzulga uchrashiga shuning o‘zi ham kifoya bo‘lsa kerak. Faqatgina sanoqlisigina xat chiqargan, o‘qishni o‘rgangan. Xuddi Snouboll va Napaleon singari. Ular uy egasi bolalarining axlatda yotgan husnixatini olib,

eskicha yozuv va o‘qishni o‘rganishgandi. Snouboll inqilobini tashkil qiluvchilardan va jamiyatning ilg‘or fikrli rahbarlaridan biri. Ammo keyinchalik Napaleon tomonidan quvib yuboriladi va uning nomi ham qora qilinadi (qiyosan, xalqqa foydali, hukmron siyosatga manfaatsiz fikr aytgani uchun jazolangan aybsiz rahbar). Molxonadagi hayvonlar 7ta qonun, “Angliya jonivorlari” madhiyasi va hatto bayroq ham joriy qildilar. Endi ular hosil uchun yanada ko‘p mehnat qiladilar, lekin bundan norozi emas, nega, chunki odamlar uchun emas, faqat va faqat o‘zlari uchun ishlaydilar. Ayniqsa, Bokser – o‘ta mehnatkash, jamiyat muvaffaqiyatini o‘z hayotidan, sog‘lig‘idan ham ustun qo‘yadigan oxir-oqibat ishga yaramay qolib, qassobxonaga topshirilgan ot. Uning shiori: “Men yanada ko‘p ishlashim kerak“ edi. Mehnatkash sovet aholisini bu obrazga qiyoslash mumkin. “Bir kemada ikki kapitan bo‘lmaydi”, – deganlaridek, hayotlari bir tekis, o‘zlari istaganday tus olayotgan bir paytda ikki boshliqning kelisholmasligi, Snoubollning tegirmon qurish rejasi sababli Napaleon o‘z sherigini quvg‘in qiladi. Ammo tuban, ikkiyuzlamachi Napaleon bu loyihani o‘zi amalga oshirmoqchi bo‘ladi. Hayvonlarning Tegirmon qurish ishi asar so‘nggigacha davom etadi. Negaki ular juda ko‘p mashaqqat chekadi, fermerlar tegirmonni buzgach, uni qayta qurishadi. Barcha jonivorlarning umidi, yaxshi hayot uchun kafolatlari, hamma-hammasi mana shu Tegirmon edi. Faqatgina shundan ruhlanib tinmay mehnat qilishadi. Mana endi asosiy masala ochilib, endi o‘z boshliqlari Napaleonda shuhratparastlik hissi ortib, hamma qonunlarni (mustaqil bo‘lganlarida tasdiqlashgan 7ta qonunni) o‘z manfaati yo‘lida xizmat qiladigan qilib o‘zgartiradi. Davlatni xohlagancha boshqarib, soliqlar yig‘a boshlaydi, har xil qonunlar chiqara boshlaydi, hech kim qarshilik qilolmaydi. Ocharchilik o‘z hukmini o‘tkazishni boshlaydi, lekin buni chetdagilardan yashirib, bahonalar aytishadi. Chet bilan savdo-sotiq qilishga majbur bo‘lishadi. Hayvonlar oxirigacha bu siyosatga qarshi chiqolmaydilar. Bunday qila olmadi ham. Napaleonning ko‘ppaklari undaylarni talab yo‘q qilardi. Mana, jamiyat qanday ahvolga kelib qoldi. Yozuvchi hayvonlarga(aslida insonlarga) hatto nom tanlashda ham xatoga yo‘l qo‘ymagan. Ya’ni hayvonlar jamiyatining yetakchisi, dohiysi-Napaleon shafqatsizligi, shuhratparastligi bilan Napaleon Bonapardga ham qiyoslangan, shekilli. Negaki asar 1-nashrga tarjima qilinganida bu cho‘chqa Sezar nomi bilan atalgan, (u ham shu xislatlarga ega bo‘lgan rahbar) keyingi tarjimalarda yana asl ismiga qaytarilgan. Ammo, asosan, Stalin va undan keyingi davlat yetakchilariga nisbatan qiyoslanadi. Asaridagi ham mehnati, ham bilimi bilan o‘ziga jalb qilgan obraz- Benjamin edi. Bemjamin-keksa dono eshak, ko‘p narsani biladi, aqlli, ammo hech narsaga aralashmasdan yurishni afzal ko‘radi. (buni hamma narsani anglaydigan, ammo siyosatga aralashishdan o‘zini tiyadigan ziyolilar qatlamiga qiyoslash mumkin). Yana bir obraz bor, bu Qichqiroq-ismi jismiga mos, so‘zamon cho‘chqa. Napaleonning buyruqlarini boshqa jonivorlarga yetkazadi, har qanday holatni, xoh u yaxshi bol‘sin, xoh yomon ustamonlik bilan boshqalarga singdirishga juda usta. (qiyosan: kommunistik propaganda mashinasi). Qahramonlarning har bir nutqi, nafaqat, hayvonlarning xarakteriga xos jihatlarini yodimizga soladi, balki hayvonsifat insonlarning qabohatlarini ochish uchun ham xizmat qiladi. Ushbu asarda ochiq ko‘rinib turibdiki, jamiyat, siyosat, qonun bo‘lsa ham, o‘rtada Adolat bo‘lmasa, hech qanday kutilgan va qoniqarli natijaga erishib bo‘lmaydi, ayniqsa, rahbar nafsiga qul bo‘lib qolgan bo‘lsa.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdulqodir Abdur Rahim. E’tiqod durdonalari. – T.: “Sharq”, 2016.

2. Abdullla Qahhor. Haq so‘zning kuchi.–Toshkent,1989.

3. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash san’ati.– Toshkent: Falsafa va huquq institute nashr., 2008.

4. Islomjon Yoqubov. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Monografiya. –Toshkent: “Nurafshon business”, 2021.

5. Normatov U. Talant tarbiyasi. –T.: “Yoshgvardiya”, 1980.

6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.–Toshkent: Akademnashr,2018.

7. Q.Yo‘ldosh, MuhayyoYo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari.–Toshkent, 2013.

8.Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.:” Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018 yil.

9. Rasulov B .A, Axmedova Sh, Qahramonov Q. O‘zbek adabiy tanqidi.–Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012.

10. Rasulov A. Badiiylik- bezavol yangilik: Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. –T.: “Sharq”, 2007.

11. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.–Toshkent,2004.

12. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.–T:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

13.https://constitution.uz/ oz / clause/ index.

14.https:// www.gazeta.uz /oz/2023/07/74/ opposition/.

15.https://n.ziyouz.com/protal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/umarali-normtatov-bedorlikda-o-tgan -umr-2010.

16.hhtps:// ru.wikipedia.org/wiki. Vikipediya. Svobodnaya ensiklopediya.

Asia International University
Master student: **Asaloy MUZAFFAROVA**
Scientific supervisor: Associate professor (PhD)
Abdullayeva Nabiya Idrisovna

THE REPRESENTATION OF SOCIAL PROBLEMS IN "CANDIDA" BY GEORGE BERNARD SHOW

Annotation: the article analyzes "Candida", a magnum opus by George Bernard Shaw and its characters. The play is notable for its precision in terms of both economy and the careful depiction of time and place. Shaw himself described it as a "play of ideas," pointing out that it is not only meant for entertainment but also serves as a sharp social critique. Shaw's portrayal of humanism in the play challenges traditional social, gender, and marital norms, presenting a vision of humanity that emphasizes personal growth, equality. The paper aims to find novelty while delving into the portrayal of social issues of that time with an amazing degree of accuracy and thoroughness.

Keywords: *magnum opus, politics, humanism, equal society, play of ideas, youth, comedy, morality, idealism, domestic violence, female feelings, social improvement*

Аннотация: статья анализирует "Кандида", магнум опус Джорджа Бернарда Шоу, а также его персонажей. Пьеса примечательна своей точностью как в экономии слов, так и в тщательном изображении времени и места. Сам Шоу называл её "пьесой идей", подчеркивая, что она не только предназначена для развлечения, но и служит острым социальным критическим анализом. Изображение гуманизма в пьесе бросает вызов традиционным социальным, гендерным и брачным нормам, представляя видение человечества, акцентирующее внимание на личностном росте и равенстве. Цель статьи — выявить новизну, углубляясь в изображение социальных проблем того времени с поразительной точностью и тщательностью.

Ключевые слова: *магнум опус, политика, гуманизм, равное общество, пьеса идей, молодость, комедия, мораль, идеализм, домашнее насилие, чувства женщин, социальные улучшения.*

Annotatsiya: ushbu maqola Jorj Bernard Shouning "Candida" asarini va uning personajlarini tahlil qiladi. Pyesa nafaqat iqtisodiyot jihatidan, balki vaqt va joyni aniq tasvirlash borasida ham e'tiborga loyiqdir. Shou o'zi uni "g'oyalar pyesasi" deb ta'riflagan va u faqat ko'ngilochar bo'lishi bilan birga, keskin ijtimoiy tanqidni ham o'z ichiga olishini ta'kidlagan. Shouning asarda insonparvarlikni tasvirlashi an'anaviy ijtimoiy, jinsiy va nikoh normativlariga qarshi chiqib, shaxsiy o'sish va tenglikka asoslangan insoniyatning bir tasvirini taqdim etadi. Ushbu maqolaning maqsadi o'sha davr ijtimoiy muammolarini yangi nuqtayi nazardan, hayratlanarli darajada aniqlik va batafsil tahlil qilishdir.

Kalit so'zlar: *Magnum opus, siyosat, insonparvarlik, teng huquqli jamiyat, g'oyalar pyesasi, yoshlik, komediya, axloq, idealizm, oilaviy zo'ravonlik, ayollarning his-tuyg'ulari, ijtimoiy yaxshilanish.*

Introduction

"Candida" is a comedic play written by the famous playwright George Bernard Shaw. Shaw makes great use of "Candida" to examine and critique the societal norms surrounding love, marriage and gender roles. Through the characters' relationships and conversations, he questions conventional views on marriage and women's freedom, providing a compelling reflection on the constraints set by social expectations.

Materials and methods

The setting of the play is a town in northeastern London during October and revolves around the character of Candida. Shaw describes her as "a 33-year-old woman, robust and well-nourished, in the prime of her life, embodying both the youthful energy and the nurturing qualities of motherhood." Additionally, he notes, "She is a loving woman who inspires love in others." Candida is married to the Reverend James Mavor Morell, a well-known clergyman and Christian Socialist in the Church of England. Though Morell is popular, much of his success can be attributed to Candida's support. Shaw portrays him as "foggy, delusive, and lacking intellectual clarity".

The play begins when Candida returns home from a trip to London with Eugene Marchbanks, an 18-year-old poet who seeks to rescue her from what he perceives as her dull and uninspiring life. Morell describes Marchbanks as "a peculiar, shy young man, delicate in appearance, with a soft, almost childish voice." Upon spending time with Candida, Marchbanks quickly falls in love with her, believing she deserves more than mere contentment from her marriage. He views her as divine and his love for her as eternal, feeling it is beneath her to perform mundane household chores. While Morell believes that Candida needs his protection and care, the reality is quite the opposite.

Marchbanks' feelings for Candida grow deep and

the two engage in a heated discussion about her absence. Marchbanks threatens to take Candida away from Morell, while Morell begins to suspect that his wife might be unfaithful and is considering leaving him for Marchbanks. The argument escalates, with Marchbanks passionately declaring, “I loved her so deeply that nothing would bring me greater joy than to be in such love.” In response, Morell demands that he leave immediately. When Marchbanks is about to leave, he encounters Candida at the door. She invites him back inside and asks him to stay for lunch.

In George Bernard Shaw’s “Candida”, the characters portray a Victorian society characterized by rigid rules and gender roles. These norms show expectations about marriage, family and women’s roles, demonstrating the characters’ actions and interactions. Victorian society puts a high emphasis on traditional marriage and family structures, considering them as vital for social stability. Women are expected to accomplish their roles as wives and mothers, while men are expected to be the breadwinners of their families. These societal norms puts forward the idea of male dominance within the family affairs and restrict women’s freedom. Gender roles in Victorian society are sharply defined, with women expected to exhibit qualities of purity, domesticity and submissiveness, while men are expected to be rational, assertive and dominant. The central dilemma in “Candida” revolves around whether a woman should remain with her husband despite their incompatibilities or leave him for a lover with whom she shares a deeper connection. One of the central themes of “Candida” is feminism, focusing on the freedom women should have to choose whether to embrace roles as housewives, wives and mothers or pursue a different path in life. Candida embodies the perfect woman, blending the qualities of a modern, independent spirit with the grace and responsibility of traditional values. This act reflects the patriarchal control over her life, with Candida finding security in her husband's protection rather than in the pursuit of personal freedom. This gender disparity is reflected in the characters’ behavior and attitudes, representing their interactions and decisions throughout the play.

Results and Discussion

In George Bernard Shaw’s “Candida”, class distinctions and social status significantly influence characters’ perceptions of love and marriage. Victorian society is defined by social class, which has rigid expectations and norms ruling behavior and relationships of people. In Victorian society, marriage is often seen as a manifestation of social development or stability. Characters like James Morell, a respected clergyman and Candida, his wife, occupy a privileged position within the upper-middle class. Their marriage is considered to be a respectable union that promotes societal norms and expectations. At the center, human dignity and feelings are given a higher emphasis.

Eugene Marchbanks, however, represents a lower social class and does not possess the financial security and status associated with James and Candida. However, Eugene has romantic feelings for Candida and desires a union that transforms class boundaries. His love affair with Candida challenges traditional notions of social hierarchy and suggests a desire for social mobility through love.

